

RESPUBLIKA MA'NAVIYAT VA MA'RIFAT  
MARKAZI  
IJTIMOIY-MA'NAVIY TADQIQOTLAR  
INSTITUTI

# MILLIY QADRIYATLAR VA MA'NAVIY MEROSENING JAMIYAT TARAQQIYOTIDAGI AHAMIYATI

Respublika ilmiy-amaliy anjumani  
materiallari

"Ilm-Ziyo-Zakovat"  
2023

**O'UK: 821.512.133.06(091)**

**KBK: 84(50')87**

**A 14**

“Milliy qadriyatlar va ma’naviy merosning jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati”: respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. Toshkent: ... nashriyoti, 2023. – 480-bet.

**Mas’ul muharrir:**

Olimjon Davlatov

*filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori*

**To'plab, nashrga tayyorlovchilar:**

M.Kaxarova, I.Suvonov, S.G'ofurov, M.Musayev, Sh.To'rayev,  
Sh.Axrorova, K.To'rayev, A.Madraximov, X.Serobov

Ushbu to'plamda “Milliy qadriyatlar va ma’naviy merosning jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati” mavzuidagi respublika ilmiy-amaliy anjumaniga yuborilgan ilmiy maqolalar jamlangan. To'plamda milliy qadriyatlar va ma’naviy merosning jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati, Milliy qadriyatlar tarixi, mutafakkir ajodolarimizning ijtimoiy-siyosiy qarashlari, milliy qadriyatlar va ma’naviy merosni targ'ib etishda zamonaviy targ'ibot texnologiyalari, ommaviy axborot vositalarida milliy qadriyatlarni yoritish masalalari va targ'ib etish metodikasi muammolari haqida so'z yuritiladi.

Milliy ma’naviyat va qadriyatlar borasida muayyan tasavvur berishi uning ahamiyatini belgilaydigan omillardan biridir. Kitob siyosatshunoslik, sotsiologiya, falsafa, ma’naviyat sohasi mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar, magistr va bakalavr talabalar hamda keng o'quvchilar ommasiga mo'ljallangan.

ISBN 978-9943-7836-5-2

© Milliy qadriyatlar 2023

© “Ilm-Ziyo-Zakovat” 2023

## MILLIY QADRIYATLAR VA INSON QADRI

O'zbekiston o'z taraqqiyoti tarixining yangi davriga qadam qo'ydi. Jahon hamjamiyati "Yangi O'zbekiston" deya e'tirof etayotgan huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etish yo'lida ijtimoiy hayotda adolat va insonparvarlik tamoyillari mustahkamlanmoqda.

Mamlakatimiz o'z mustaqilligiga erishganidan so'ng ma'rifatlari jamiyatni qaror toptirishning huquqiy asoslari shakllantirilmoqda. Mamlakatda aholi ma'naviyati va ma'rifatini yuksaltirish O'zbekiston taraqqiyotining ustuvor yo'naliishiga aylandi. Hayotimizda ro'y berayotgan ijobiy o'zgarishlar tufayli odamlarning ongu tafakkuri o'zgarib bormoqda.

Ayni vaqtda bugungi kunda dunyo hamjamiyati tomonidan mafkuraviy globallashuv tufayli milliy o'zlik va milliy g'ururning rivojiga, millatning intellektual, ma'naviy-axloqiy, etno-madaniy va tarixiy qadriyatlarining barham topishiga, inson tafakkur tarzi va dunyoqarashini toraytirishga, e'tiqodini, ruhiy dunyosini izdan chiqarishga salbiy ta'sir ko'rsatayotgani e'tirof etilmoqda. Milliy va an'anaviy umumbashariy qadriyatlar xiralashib, inson taqdiri, jamiyat hayotiga bepisandlik, individual, korporativ va milliy xudbinlik kabi illatlar ildiz otmoqda.

Bu kabi ayanchli holatlarning oldini olish uchun Yangi O'zbekistonni mustaqil tafakkur va sog'lom dunyoqarashga, yuksak madaniyat va ma'naviyatga ega, erkin va baxtli insonlar yashaydigan mamlakatga aylantirish har qachongidan ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.


Raqamli texnologiyalar ijtimoiy hayotimizning muhim va jaralmas qismiga aylangan yangi davrda milliy o'zlikni

anglash va anglatish, milliy qadriyatlаримизни умуминсонија qадриятларга уyg‘un ravishda асрash va rivojlantirib borishda oldingi ish uslubimiz kutilgan natijalarni ber-mayotgani tobora ayon bo‘lmoqda. Ayniqsa, yangi avlodda moddiy va ma’naviy merosimizga bepisandlik, urf-odatlar-imiz, ana’ana va qadriyatlаримизни eskilik namunasi talqin qilishi, yengil-yelpi hayot tarzini targ‘ib qilayotgan xorijiy axborot manbalari ta’siriga tushib qolish holatlari tobora ustuvorlik kasb etayogan bir davrda ming yillardan buyon halqimiz genofondida mustahkam o’rnashgan qadriyatlаримизни targ‘ib qilishda zamonaviy targ‘ibot texnologiyalaridan foydalanish zarurati kuchayib bormoqda.

Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti mamlakatimizdagи оlim va mutaxassislarini jalb qilgan holda “Milliy qadriyatlар va ma’naviy merosning jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati” mavzusida ilmiy-amaliy konferensiya o’tkazdi. Ushbu konferensiyada qadriyat tushunchasining ilmiy-falsafiy talqini, tarixiy negizlari, bugungi kundagi ahamiyati milliy va ma’naviy muhit bilan bog’langan tarzda muhokama etiladi. Konferensiya sho’balari Institut faoliyatining asosiy yo’nalishlari bilan aloqador holda tanlangani bilan ham ahamiyatli.

Mazkur konferensiyada qo’yilayotgan muammolar va taklif etilayotgan yechimlar, targ‘ibotning yangi texnologiyalari bo‘yicha tajriba almashinuvlar, nazariy xulosalar bilan amaliyotni uyg‘unlashtirish bo‘yicha takliflar mamlakatimizda ijtimoiy-ma’naviy muhitni yanada yaxshilashga umid qilaman.

**Minhojiddin Hojimatov,**  
*filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori,*  
*Respublika Ma’naviyat va ma’rifat*  
*markazi rahbari, senator*



# **1-SHO'BA.**

## **MILLIY QADRIYATLAR TARIXI, MUTAFAKKIR AJDODLARIMIZNING IJTIMOIY-SIYOSIY QARASHLARI**

**Abduxalil MAVRULOV,**  
*tarix fanlari doktori, professor*

### **O'ZBEKISTON MADANIYATI TARIXI – QADRIYATLAR BESHIGI**

**Annotatsiya:** Maqolada O'zbekistonda yangi jamiyatni barpo etish eng avvalo odamlarimizda bugungi murakkab zamonda turli yo'llar bilan kirib kelayotgan yot g'oyalarga qarshi sog'lom ma'naviy immunitetni hamda ming yillar davomida shakllangan milliy qadriyatlarimizga suyanishni talab etishi haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** ma'naviyat, Uchinchi Renessans, milliy qadriyat, madaniyat, tarix, qadriyat.

Bugun mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevori barpo etilar ekan, biz hech shubhasiz bu fenomen hodisa quruq yerda, yo'q joyda yaratilmayotganini anglab yetishimiz lozim. Gap shundan iboratki, O'zbekiston qadim-qadimdan buyuk sivilizatsiyalar, jahon ahamiyatiga ega kashfiyotlar yurti hisoblanadi. Biz bekorga bunday kashfiyotlar yaratgan mutafakkir olimlarimiz bilan faxrlanmaymiz.

Darhaqiqat, ming yillar davomida mamlakatimiz huddida yaratilgan Birinchi va Ikkinchi Renessans davrlari keyinchalik jahon tamadduniga sezilarli hissa qo'shgan va bu hodisa jahon olimlari tomonidan keng e'tirof etilgan. Shu ma'noda bugungi kunda O'zbekistonda ma'rifatli

jamiyatni barpo etish maqsadi, jamiyat a'zolarini yaxshilik, ezgulik, insonparvarlik kabi fazilatlar sari yetaklaydigan g'oyalar mavjudligi aslida bizning boy milliy-madaniy mero simiz borligidan darakdir.

O'zbekistonda yangi jamiyatni barpo etish eng avvalo odamlarimizda bugungi murakkab zamonda turli yo'llar bilan kirib kelayotgan yot g'oyalarga qarshi sog'lom ma'naviy immunitetni hamda ming yillar davomida shakllangan milliy qadriyatlarimizga suyanishni talab etadi.

Mamlakat rahbari Shavkat Mirziyoyev yangi O'zbekistonni barpo etishda ma'naviy immunitetning qanchalar derajada zarur ekanligiga alohida e'tibor berib quyidagilarni yozadi: "Bugungi shiddatli, o'ta murakkab zamon shuni ko'rsatmoqdaki, bu borada faqat ta'lim-tarbiya tizimining o'zi mavjud ma'naviy tahdidlarga qarshi turolmaydi. Bu masalaga butun jamiyatning kuch va imkoniyatlarini safarbar etmas ekanmiz, kutilgan natijaga erisholmaymiz. Chunki bugungi kunda bolalarimizni ota-onas, bog'cha, maktab yoki institut emas, aksariyat hollarda qo'lidagi telefon "tarbiyalamoqda". Afsuski, ana shu kichkinagini telefon endi oddiy aloqa vositasi emas, ko'pincha yot mafkurani targ'ib etadigan katta qurolga, zo'ravonlik, yovuzlik "virusi"ni tarqatadigan manbaga aylanmoqda". (Shavkat Mirziyoyev. Insonparvarlik, ezgulik va buniyodkorlik – milliy g'oyamizning poydevoridir. -Toshkent, 2021. -9-bet).

Yuqorida ta'kidlangan yot va yovuz g'oyalardan qutilmasak, insonparvarlik, ezgulik, buniyodkorlik, yuksak axloqiylik kabi g'oyalarni o'z amaliy faoliyatimiz asosi sifatida qabul qilmasak, shubhasiz, mamlakat va millat kelajagiga hiyonat qilgan bo'lamiz. Shuning uchun ham, bugungi tarbiya jarayonida ming yillar davomida shakllangan, sayqallangan milliy madaniyatimiz va milliy qadriyatlarimizga suyanmas ekanmiz, bu borada sezilarli yutuqqa erishishimiz qiyin.

Shuning uchun ham mazkur maqolada O'zbekistonning eng qadimgi madaniyati tarixi misolida ming yillar davomida shakllangan milliy qadriyatlarning bugungi yoshlari ma'naviy olamidagi o'rni haqida ayrim fikrlar bayon etiladi.

Shu narsani alohida ta'kidlash kerakki, har bir xalqning milliy madaniyati va milliy qadriyatlarini bir-biridan ajralgan holda tasavvur etib bo'lmaydi. Shuningdek, milliy madaniyat avval paydo bo'lganmi yoki milliy qadriyatlarimi, degan savolga javob berish ham mushkul. Ammo, bir narsa aniq: xalq, millat shakllanishi, uning taraqqiyot yo'lida har ikki fenomen hodisadan ham kuchliroq ta'sir ko'rsatgan birorta omil bo'lmasa kerak.

Endi ana shu masalalarni O'zbekiston madaniyati tarixining eng qadimiy ko'rinishlari misolida ko'rib chiqsak. Ma'lumki, uzoq davom etgan ibtidoiy jamoa tuzumi yoki eng qadimiy, ya'ni arxaik davr insoniyat taraqqiyotidagi dastlabki bosqich bo'lib, ayni shu paytda odamlar jamoa bo'lib yashashga, inson ongi esa kuch, qudrat birlikda ekanini anglashni o'rgana boshladi. Ana shunday murakkab davrda, yashash uchun kurash avj olgan bir paytda madaniyat ravnaqi uchun zarur shart-sharoitlar va zamin yaratila boshlandi.

Ma'lumki, milliy qadriyatlar va milliy madaniyat masalalarini o'rganishda qo'l keladigan eng muhim manbalar ikkita bo'lib, ularning birinchisi arxeologiya bo'lib, uning omillari boshqa manbalar, masalan, yozma manbalarga qaraganda juda qadimiydir. Ularning paydo bo'lishi insonning hayvonot dunyosidan ajralib chiqa boshlagan davri, ya'ni 2,5-3 million yillarga borib taqaladi.

Insoniyat tarixi, uning madaniyatini o'rganishning ikkinchi manbai yozuv bo'lib, uning paydo bo'lishi miloddan avvalgi IV-III ming yilliklardan iborat. Boshqacha so'z bilan aytganda, eramizning hozir biz yashab turgan ikki ming

yilini ham qo'shsak, unda bugungi dunyoda yashayotgan avlodning ota-bobolari olti ming yillik tarixga, madaniyatga, milliy qadriyatlarga ega ekanligini anglab olish mumkin.

Biroq, bizning tasavvurimizdagi ushbu bir necha ming yillik insoniyat tarixining paydo bo'lishiga nisbatan ni-hoyatda kichik davrdir. Biz kishilik jamiyati butun tarixini 24 soat, deb faraz qilsak, shundan 23 soatu 56 minuti arxaik – yozma manbalarsiz davrga, qolgan 4 minuti esa yozma manbalar tarixi davriga to'g'ri keladi. (Kabirov J., Sagdullaev A. O'rta asr arxeologiyasi. – Toshkent, 1990.-5-bet).

Shuning uchun ham tarix, jumladan, madaniyat tarixini arxeologiya fanisiz o'rganib bo'lmaydi. Mazkur fan yutuqlari tufayli topilgan mehnat va ov qurollari, uy-anjom va bezak buyumlari, odamlar yashagan manzil qoldiqlari kabi ashyoviy dalillar eng qadim kishisining nafosat va diniy qarashlarini bilishga, ular madaniyati haqida tasavvur hosil qilishga yordam beradi. Boshqacha so'z bilan aytganda, odamlar va hayvonlar jasadining qoldiqlari, g'or va yerto'la devorlariga chizilgan surat va turli tasvirlar, uzoq vaqtlar tuproq ostida qolib ketgan moddiy yodgorliklar arxaik davr tarixini o'rganishning muhim manbai hisoblanadi va shu nuqtai nazardan ham ularsiz o'tmisht madaniyatini o'rganish mumkin emas.

Shu narsaga e'tibor berish lozimki, biz "milliy madaniyatlar", "milliy qadriyatlar" atamalarini ishlatsakda, aslida o'rganilayotgan davrda yaratilgan moddiy va ma'nnaviy madaniyatlarga "milliy" so'zini qo'shish unchalik ham to'g'ri kelavermaydi. Bunda ko'proq qadriyatlar va madaniyatlarning qaysi millat yoki xalq mulki ekanligini aniqlashda asosan hududiy omildan kelib chiqqan holda tushunish to'g'ri bo'ladi.

Ayni paytda, u yoki bu davr madaniyati, qadriyatlarini haqida yorqinroq tasavvurga ega bo'lish uchun madaniy qatlamlar haqida bilimga ega bo'lishni maqsadga muvofiq,

deb bilamiz. Bunday qatlamlar insoniyatning turmushi, xo'jaligi va ijtimoiy faoliyatining izlari saqlanib qolgan tuproq qatlami sifatida tushuniladi. Ming yillar osha asta-sekin vujudga kelgan bunday madaniy qatlamlar ochiq manzilgohlar, g'or-makon, qishloq va shahar madaniy qoldiqlarining jamiyat rivojlanishi bilan bog'liq holda joylanishi tufayli yuzaga keladi.

Markaziy Osiyo mintaqasida hozirga qadar 20 dan ortiq yodgorliklar, ya'ni madaniy qatlamlar ochilgan, shuningdek, 100 dan ortiq manzilgohda dala-tekshiruv ishlari olib borilgan. Ular O'zbekiston, Turkmaniston, Qирг'изистон, Tojikistonning tog' etaklarida hamda Qiziqum cho'li va Markaziy Farg'onada joylashgandir. Keyingi paytlarda Toshkent viloyatining turli hududlarida paleolit (qadimgi tosh) davriga oid o'ndan ortiq noyob arxeologik yodgorliklar topilib, tekshirildi.

Yirik arxeolog olim, O'zbekiston Fanlar akademiyasining akademigi A.Muhammadjonovning fikricha, ular tog' daralari bo'ylab joylashgan g'or va ungurlar, jarliklar yoqasida barpo etilgan arxaik odamlarning manzilgoh va makonlari: qoyatoshlarga bitilgan petroglif – so'qulgan suratlar va boshqalardan iborat bo'lib, ular Toshkent vohasidagina emas, balki butun Markaziy Osiyo hududida yashagan eng qadimiy odam ajdodlari hayotini, uning yaratgan ibridoiy madaniyatini o'rganishda nodir va nihoyatda qimatbaho manba hisoblanadi.

Ohangaron yaqinida, Qizilolmasoy yoqasida joylashgan Ko'lbuloq makoni esa yuqorida zikr etilgan yodgorliklar orasidagi eng qadimiyisidir. Ushbu qadimiy makon ming yillar davomida hosil bo'lgan 20 metrlik qalin madaniy qatlamdan iborat bo'lib, undan qayroq va ch-aqmoq toshlardan yasalgan bir necha yuz mingdan ortiq tosh qurollar, gulxan izlari, hayvon suyaklari topilgan. Ko'kbuloq makonining yuqori qatlamidan chiqqan ashy-

olar asosan o'rta tosh davriga mansub bo'lsa, uning ostki qismlaridan kovlab olingan qo'pol tosh qurollar ilk tosh davriga tegishlidir.

Bularga asoslanib yodgorlikning pastki qatlamini arxeologlar ashel davri bilan, ya'ni hozirgi kundan qariyb 200-300 ming yillar muqaddam deb sanasalar, geologlar uni hozirgi kundan taxminan 500-700 ming yillar avval yotqizilgan, deb hisoblaydilar. (Muhammadjonov A. Qad-imgi Toshkent. -Toshkent, 1998. -7-8-betlar).

Ko'kbuloq makonidan, shu bilan birga Qizilolmasoy va Qo'shsoyda qayd etilgan ibtidoiy davr ustaxonasidan topilgan nihoyatda boy va turli-tuman tosh qurollar, hayvon suyaklari va boshqa topilmalar Toshkent vahasida yashagan ibtidoiy ovchi va temirchilarining turmush tarzi, yaratgan ilk madaniyati, ayniqsa bu o'lkaning uzoq o'tmishtagi tabiatini o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, aholi bu davrda insoniyat sivilizatsiyasining ilk qadamlarini qo'yyotgan edi. Shu ma'noda, o'rganilayotgan davrda odamlar o'z hayot tarzini asta-sekin izga sola boshladilar, o'zlari uchun qulay shart-sharoitlar yaratib, pirovard natijada eng dastlabki qadriyatlar tizimini shakllantirishga o'tadilar. Biz yuqorida qayd etganimiz kabi, kishilar uchun eng zarur, hayot va turmush tarzini osonlashtirishga, o'zlari uchun qulay imkoniyatlar yaratilishi aslida ilk qadriyatlarning tarkib tolishidan bo'lak narsa emasdi.

Uzoq ming yillar davomida mintaqamizning turli hududlarida shakllangan Joytun, Kaltaminor, Hisor, Nomozgoh, Sarazm, Zamonbobo, Burgunli soy, Sopollitepa, Chust madaniyatları zaminida, ma'naviy va moddiy madaniyatlar uyg'unligida qadriyatlar ham shakllana boshladi. Odamlarni taraqqiyot, bir-birini qo'llab-quvvatlash, o'zaro hamkorlikka yetaklovchi omillar ilk qadriyatlar shaklida yuz bera boshladi.

Eramizdan avvalgi davrning so'nggi bosqichlarida cho'l aholisi orasida o'troqlashuv kuchaydi, cho'l atroflaridagi kichik vohalarda esa sug'orma dehqonchilik madaniyati markazlari yuzaga kela boshladi. Bronza davrida paydo bo'la boshlagan irrigatsiya inshootlari Markaziy Osiyoda ishlab chiqarish kuchlarining taraqqiy etishiga olib keldi. Bunga eramizdan avvalgi ikki ming yillikka oid Xorazmda topilgan kanallarning mavjudligi, bularning Farg'onada ham bo'lganligi to'g'risidagi ma'lumotlar isbotlab turibdi.

Olimlarning guvohlik berishlaricha, eramizdan avvalgi ikki ming yillikning oxirlari va birinchi ming yillikning birinchi choragida Markaziy Osiyo hududida qadimiy davlat tuzulmalarining paydo bo'lishi kuzatilgan. Nihoyatda uzoq va murakkab tarixiy taraqqiyot jarayonining iqtisodiy va madaniy yakuni sifatida Parfiya, Marg'iyona, Baqtriya, So'g'diyona, Xorazm kabi qator tarixiy-madaniy birikmalarining markazlari shakllandı, shuningdek, ana shu hududlar doirasida baqtriya, so'g'diy va xorazm xalqlari yuzaga kela boshladi.

Biz yuqorida har bir xalqning milliy-madaniy meroysi, uning qadriyatları mazmun-mohiyatini ochib berishda arxeologik ma'lumotlarning o'rni va ahamiyati katta, degan edik. To'g'ri, arxeologik ma'lumotlar u yoki bu xalqning madaniyatining moddiy jihatlari, shuningdek, tashqi belgilari, ayrim xususiyatlarini o'rganishda ularning ma'lum dajada o'rni bor.

Ammo, madaniyat, ayniqsa ma'naviy qadriyatlarning haqiqiy mazmunini ochib berishda yozma ma'lumotlar alohida ahamiyatli ekanini unutmaslik muhim. Shu o'rinda, antik davr madaniyati haqida, o'sha davr xalqlarining qadriyatları to'g'risida yozma manbalar orqali bizgacha yetib kelgan ma'lumotlarning qimmati juda katta ekanligini ta'kidlash lozim. Umuman, antik iborasi lotincha "antikvus" so'zidan olingan bo'lib, "qadimiy" degan ma'noni beradi.

Italiya gumanistlari tomonidan XV asrda fanga olib kirilgan ushbu ibora asosan qadimgi Grek-Rim madaniyati va san'atini ta'riflash uchun ishlataligancha. Antik davri eramizdan avvalgi 3000 yillardan yangi eraning V asrigacha O'rta Yer havzasi hamda Qora dengiz sohillarida mavjud bo'lган quldorlik davlatlarining paydo bo'lishi, rivojlanishi va inqirizga yuz tutishini ta'riflaydi. Biroq, bu bilan antik madaniyati hududiy jihatdan chegaralangan ekan, degan xulosa kelmaslik kerak. Chunonchi, Osiyo, Ovro'pa, Afrikaning shimoliy hududlaridagi xalqlar ham o'z madaniyati va san'ati bilan antik ma'naviyatiga aloqadordir, zero ushbu xalqlar va elatlar uzoq tarixiy davr mobaynida grek va rim san'ati, adabiyoti bilan o'zaro aloqadorlik jarayonini o'z boshlaridan kechirganlar.

Markaziy Osiyo xalqlari madaniyati, milliy qadriyatlarini haqidagi eng dastlabki yozma ma'lumotlarni qadimgi grek va Rim adabiyoti namunalaridan topish mumkin. Chunonchi, xalq og'zaki ijodi o'sha davr adabiyotida alohida o'runga ega bo'lgan. Grek va Rim adiblari o'z asarlarida Markaziy Osiyo hududidagi xalqlar tarixi, madaniyati, qadriyatlari, urf-odatlari haqida ma'lumotlar qoldirganlar. Bunday asarlarning aksariyat qismi voqealarning asl mohiyatini ochib berar, aniq faktlarga suyanar edi.

Shu o'rinda Gerodotning "Tarix" asariga kirgan "To'maris" va Polienning "Harbiy hiylalar" kitobidan alohida o'rin egallagan "Shiroq" afsonalarini ta'kidlab o'tish lozim. Markaziy Osiyoning, chunonchi Sirdaryoning antik davrini tasvirlovchi tarixiy asarlar ichida Kvint Kurs Rufning "Aleksandr Makedonskiy tarixi" asari alohida ahamiyatli. Ushbu asarda Markaziy Osiyoning eramizdan avvalgi IV-III asrlariga oid voqealar keng ravishda o'rganilgan, ikki daryo Oksus (Amu) va Yaksart (Sir) oralig'idagi tarixiy voqealar nihoyatda keng qamrovda ifodalangan.

Yuqorida nomlari keltirilgan asarlarda bir tomonidan

chet ellik bosqinchilarning mamlakatimiz hozirgi hududida amalga oshirgan hunrezliklari, yurtimizdan toshib ketilgan boyliklar, odamlarmizning qul qilib olib ketilishi bilan bog'liq ma'lumotlar berilgan bo'lsa, boshqa tarafdan, o'sha asarlarda vatanimiz hududlarida yashagan xalqlar tarixi, madaniyati, urf-odatlari, qadriyatlar, tabiati ham keng ravishda tahlil qilingan.

Masalan, "Aleksandr Makedonskiy tarixi" asarida yozilishicha, Aleksandr Makedonskiy Marokand shahriga yetib kelib, uning devorlari baland va mustahkam ekanini ko'radi. Uning ichiga joylashgan qal'a ikkinchi devor bilan o'ralgandi. Aleksandr bu yerda katta qo'shinni qoldirib, o'zi yaqin oradagi qishloqlarni yoqib, talay boshlaydi. Tabiiyki, bunday shafqatsizliklar oqibatida o'lka madaniyati, san'ati vayron qilinar, ma'naviy-madaniy hayot esa zaiflashardi.

Aleksandr Makedonskiy Markaziy Osiyodan shu darajada behisob boyliklarni o'lja qilib oldiki, uning hisobi yo'q edi. Masalan, birligina Suz ibodatxonasidan qimmatbaho tillalar, mo'ynali buyumlar va boshqa boyliklar bilan birga 50 000 talant tilla o'lja qilingan. Aleksandr qo'shinnari Markaziy Osiyo madaniyati, urf-odatlari, qadriyatlariga vaxshiyarcha munosabatda bo'lgan. Yuksak san'at obidalarini vayron qilgan.

Agar mamlakatimizning buyuk davlatchilik tarixiga nazar tashlasak, bosqinchilar eng avvalo yurtimiz madaniyati, urf-odatlarini yo'q qilishga harakat qilganlar. Buning sababi esa bunday madaniyatning juda yuksalganligi, qadriyatlarning xalqonaligida edi. Bu jihatlar esa aholida o'z yurti, tarixi, madaniyatidan faxr va iftixon hislarini uyg'otardi. Ayni paytda, ba'zi bosqinchilar mamlakatimiz hududida shakllangan madaniyat, qadriyatlar oldida shu darajada esankirab qolar va hattoki, bizning bu ma'naviy boyliklarimizni o'zlashtirganliklarini o'zlarini sezmay qolardilar.

Masalan, F.Boynazarov o'zining "O'rta Osiyoning antik davri" kitobida grek-makndonlar Aleksandr buyrug'iiga asosan so'g'diyonaliklarning urf-odatlarini qabul qiladilar, hattoki, uning o'zi ham safarda mahalliy aholi-so'g'diyonaliklarning kiyimini kiyib yurgan. Chunki, bu kiyimlar juda ko'r kam va ixcham bo'lib, ayniqsa, jang paytida qulay edi. Aleksandr grek-makedonlarning kiyimini kiysa yosh bolaga o'xshab, o'z salobatini yo'qotib qo'yardi. Agar sharqliliklarning kiyimini kiysa salobatli va ko'r kam bo'lib, Osiyo shohlaridek ulug'vor qiyofada ko'r inardi.


Mamlakatimiz ma'naviy madaniyati, qadriyatlar haqida fikr yuritganda I-IV asrlardagi buyuk Kushon podshohligi davridagi o'ziga xos madaniyat to'g'risida gapirmaslik mumkin emas. Kushon podshohligi siyosiy tushuncha (jo'g'rofiysi – Baqtriya) bo'lib, bu davrda Markaziy Osiyo, Afg'oniston, Pokiston xalqlari tarixidagina emas, balki butun dunyo madaniyati taraqqiyotida muhim o'rin egallagan. Bu davrda antik madaniyati, tili va dirlari har xil bo'lgan xalqlarning siyosiy jihatdan birlashishi ayniqsa zarur edi. Turli xalqlar madaniyatining chatishishi natijasida bu yerda o'ziga xos yangi madaniyat shakllandi va rivojlandi. O'z navbatida, keyingi asrlar madaniyatining taraqqiyotiga zamin bo'lib xizmat qilgan.

O'zbekiston madaniyati va milliy qadriyatlar haqida gapirganda, hech shubhasiz, Turk hoqonligi haqida fikr bildirmaslik mumkin emas. Hoqonlik VI asr o'talariga kelib tarkib topgan bo'lib, u haqidagi manbalar VI-VIII asrlarda to'plangan va asosan epigrafik yodgorliklar – Urxundagi runik yozuvlar (Kultegin yodgorligi), Xitoy manbasi "Tan xonadoni tarixi" (VII-IX) kabilardan iborat edi.

Turk hoqonligi hududida topilgan yodgorliklar, ayniqsa, Kultegin, Bilga hoqon, Ungin, Kuli Chur, Moyun Chur, Tunyuquq bitiglarining ahamiyati kattadir. Ushbu bitiglarda, ayniqsa, muhim qadriyat hisoblangan Vatan tuyg'usi

nihoyatda yuksak qadrlangan. Jumladan, Bilga hoqon turk xalqining vatani abadiy bo'lishi uchun kurashdi. Vatanni saqlab qolish faqat hoqonning o'ziga emas, xalqqa ham bog'liqidir. Bilga hoqon xalq o'z hukmdorining yo'l-yo'riqlarini amalga oshirishi lozim, aks holda uning boshiga ko'p kulfatlar kelishini ta'kid etib, kishi o'ta ishonuvchan bo'lmasligi, boshqalarning gapini mulohaza qilganidan so'ng ish yuritishi kerak, deydi. U odamni ajrata bilmay, to'kis ishonuvchan bo'lsa fojiaga yo'l ochiladi, darbadarlik shundan boshlanadi, deb: "Ey turk xalqi, to'kis ishonuvchisan, samimiyl, nosamimiyni ajratmaysan, kim qattiq gapirsa, samimiyni ham tanimaysan. O'shandayliging uchun tarbiyat qilgan hoqoningning so'zini olmayin, har qaerga ketding, u yerlarda butunlay g'oyib bo'lding, nom-nishonsiz ketding". (Rahmonov N. Turk hoqonligi. – Toshkent, 1993. -72-bet).

Yuqorida ta'kidlangani kabi, buyuk ajdodlarimiz uchun Vatan tuyg'usi eng oliy qadriyat hisoblangan. Shuningdek, oila, o'zaro hamkorlik, tinchlik, vatanparvarlik, samimiylilik kabi qadriyatlar uzoq ming yillar davomida shakllandi, say-qal topib, xalqimizning milliy o'zligini anglashdagi muhim sifatlarga aylandi. Shu ma'noda ta'kidlash mumkinki, o'zbek madaniyati aslida, bu-qadriyatlardan tarkib topgan fenomen hodisa hisoblanadi. Bugun mamlakatimizda barpo etilayotgan Yangi O'zbekistonning taqdiri ko'p jihatdan o'sha ming yillar davomida shakllangan milliy qadriyatlar ni asrab-avaylash va ularni yangi mazmun bilan boyitib borishdan iboratdir.



**Sarvarjon G'AFUROV,**

*Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti bo'lim boshlig'i,  
siyosiy fanlar doktori, professor*

## **MARKAZIY OSIYODA MA'NAVIY TARAQQIYOTNING EVOLYUTSION GENEZISINI ILMIY O'RGANISHNING DOLZARBLIGI**

**Annotatsiya:** Maqolada Markaziy Osiyoda ma'naviy taraqqiyotning evolyutsion genezisini ilmiy o'rganishning dolzarbliji, mazkur yo'nalishdagi tadqiqotning amalga oshirish yo'llari xususida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** ma'naviyat, genezis, milliy qadriyat, madaniyat, tarix, qadriyat, ma'naviy taraqqiyot, din.

Insoniyat qadim zamonlardan buyon yer yuzida istiqomat qilib kelayotgan bo'lsa, asrlar osha o'z jamiyatini yaratib, uning mustahkam poydevoriga asos soldi. Ibtidoiy davrlardan odamlar guruhlarga bo'linishni boshlab, qabilachilik yashash tarzidan evolyusion taraqqiyot jarayonlarida o'zining jamiyatini shakllantirib bordi. Qabilachilik, ko'chmanchilikdan o'troq yashash tarziga o'tish, ov qilish, kiyim tikish, ov va ish qurollari yasash bilan bir qatorda, ibtidoiy muloqot, madaniyat va san'at turlari ham taraqqiy etdi. Bir yerda muqim yashash insoniyat jamiyatni, madaniyat va millatning shakllanib borish tamoyillariga asos soldi.

Arxeologik va antropologik tadqiqotlar Markaziy Osiyo mintaqasida odamlar ilk ibtidoiy davrdan boshlab istiqomat qilib kelganligini tasdiqlaydi. Tog'-u toshlarda, g'orlarda topilgan tarixiy ashyolar, toshlarga bitilgan suratlar, arxeologik topilmalar – bu o'lka tarixining minglab yillarni o'z ichiga olishini ko'rsatadi.

Markaziy Osiyo jahon sivilizatsiyasining dastlabki o'choqlaridan ekanligi bilan bir qatorda, taraqqiyot jahbalarida muhim o'rirlarni egallab kelganligi isbotlangan fakt. Asrlar osha mintaqada kishilik jamiyatni jamoaviy yashash uslubi, dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik, ovchilikni rivojlantirib, keyinchalik shaharsozlik, madaniyat va san'atni taraqqiy ettirdi. Evolyusion taraqqiyot natijasida mintaqada ijtimoiy hayot tarziga ega davlatchilik tamoyillari shakllana boshladi.

Bugungi kunda Markaziy Osiyo xalqlari yashagan davr xususiyatlari, tabiiy sharoitlar, ekotizimlarning shakllanishi, xalqlar turmush tarzi, mintaqaviy taraqqiyotning sivilizatsion evolyutsiya bosqichlarini kompleks tarzda, davriy uzviylikda, tarixiy ahamiyatga ega qo'lyozmalar, manbalar, ma'lumotlar, arxiv hujjatlari asosida xolisona zamonaviy yondashuv bilan ilmiy tadqiq etish vaqtini keldi.

Tarixiy ensiklopedik xarakterga ega bo'ladigan tadqiqot ishini 5 bo'limga ajratib tadqiq etish maqsadga muvofiq bo'ladi:

1 – bo'limda Markaziy Osiyoda yashagan xalqlarning ilk ibtidoiy davrdan boshlangan eng qadimgi tarixi, uning bosqichlari, davlatchilik, shaharsozlik, mudofaa, ma'naviyat tarixi evolyusiyasi, sivilizasiyalar tarixi, madaniyat va san'at, zardo'shtiylik, Avesto, diniy e'tiqod masalasi atroflicha o'rganilishi lozim. Mahalliy xalqlar va elatlarning qadriyatlari, urf-odatlari, xurofotlar, xalq tilidan o'tib kehayotgan afsona va rivoyatlarning asl kelib chiqish sabablarini tarixiy manba va dalillar asosida o'rganish kerak.

Shuningdek, Markaziy Osiyoda yunon istilosini davri, o'sha davrning siyosiy, ijtimoiy, tarixiy jarayonlari tadqiqoti ham muhim. O'lkada shaharsozlik tajribasining shakllanishi, ma'naviy, ijtimoiy voqe'liliklar, oila masalasi, milliy qadriyatlarning shakllanish jarayonlari, kiyinish, ovqatlanish, muloqot odobi, farzand tarbiyasi, shaxs va jamiyat

tamoyillari, Navro'z umumxalq bayramining kelib chiqish tarixi, xalq san'ati, xalq og'zaki va yozma ijodiyoti, savdogarchilik, hunarmandchilik taraqqiyoti bosqichlari ilmiy dalillar asosida, ko'rgazmali vositalar orqali ochib berilishi maqsadga muvofiq.

2 – bo'limda Markaziy Osiyoga islomning kirib kelishi davri ilmiy-tarixiy manbalar, qo'lyozma asarlar yordamida xolisona tadqiq etilsa, ko'p tarixiy voqealarga oydinlik kiritilgan bo'ladi. Islom dinining mintaqada ilm-fan, ma'naviyat, ma'rifat va madaniyat rivoji, o'lkaning jahon islom tamadduniga qo'shgan ulkan hissasini xolisona, ilmiy asoslar bilan ochib berish kerak.

O'sha davr bilan bog'liq tarixiy jarayonlar, islom sivilizasiyasining taraqqiyoti bosqichlari, din va e'tiqod masalasi, islom fan va madaniyatining yuksalishi, Qur'on va hadis ilmi, shariat ahkomlari, fiqh va aqoid ilmi, islom bilim va tafakkurining rivoji bilan birgalikda riyoziyot, muhandislik, tibbiyot, falsafa va milliy g'oya va islom ma'naviyati, o'sha davrda shakllangan madaniyat, ilm, san'at, adabiyot va xalq og'zaki ijodiyoti tarixi keng tadqiq etish o'rinli.

Ushbu bo'limda islom kirib kelgan davrdan boshlab Sharq mutafakkirlari tomonidan yaratilgan ilmiy asarlar, adabiyotlarning tahlili yangicha ilmiy yondashuv bilan keng sharh qilinib, jamoatchilik e'tiboriga taqdim etilishi muhim.

Islom tamaddunining keng yoyilishi, Ma'mun akademiyasining tashkil etilishi, Madrasai Oliya, Madrasasi Ixlosiya kabi bilim o'choqlari misolida Movarounnahrda faoliyat yuritgan jahonga mashhur ta'lim markazlari haqida ma'lumotlar berish Markaziy Osiyo islom ma'rifati markazi bo'lganligini tasdiqlaydi. Sharq xalqlari qo'lyozma manbalariga asoslangan tadqiqot ishida o'sha davrda yetishib chiqqan buyuk mutaffakirlar, ilm-fan va madaniyatning taraqqiy etishi bilan bog'liq davr haqida ilmiy ma'lumotlar berilgan bo'ladi.

Ushbu bo'limda mo'g'il-tatar istilosi, o'sha davr davlat va jamiyat tanazzuli, davlatchilik inqirozi, islomning hukmron din sifatidagi mavqeining saqlanib qolinishi sabablarini ham atroficha tahlil etish lozim.

3 – bo'lim Temuriylar davri, Amir Temur shaxsiyati, u asos solgan ulkan sultanatning barpo etilishi, o'sha davrdagi tarixiy, siyosiy jarayonlar, muhorabalar, markazlashgan davlatchilikning tashkil etilishi, shaharsozlik tamoyilla-rining shakllanishi, shaxs va jamiyat munosabatlari, din va e'tiqod masalasiga e'tibor qaratish ilmiy tadqiqotning ahamiyatini oshiradi.

Movarounnahrda xonliklarning tashkil topish tarixi, Mirzo Ulug'bek, Bobur Mirzo kabi shoh va olimlar, o'sha davrning mashhur davlat va jamiyat, ilm namoyandalari hayoti, Shayboniyxon bilan bog'liq tarixiy voqe'liliklar, davrning siyosiy-ijtimoiy xususiyatlari, taxt uchun o'zaro kurashlar, qarama-qarshiliklar, ma'naviy tanazzul va uning salbiy oqibatlarini tadqiqotlar asosida ochib berish kerak.

4 – bo'lim rus imperiyasining Markaziy Osiyo istilosi, rus inqilobi davri, milliy g'oya va qadriyatlarning tashqi kuchlar ta'sirida transformasiyasi, milliy ozodlik kurashi jahbalarini tadqiq etish, tarixiy ma'lumotlar, arxiv hujjatlari asosida millat qahramonlarining hayoti, shu kungacha yoritilmay keltingan asl tarix, jadidchilik harakati, o'sha davrning yetuk shaxslari hayoti asosida tarixiy voqe'liliklar tahliliga bag'ishlanadi.

Bu bo'limning muhim jihatni, unda 19 asr oxiri 20 asr boshlarida islom dini, uning ma'naviyati va ma'rifatiga qarshi kurashlar, qatag'on yillaridagi qamoq, surgun, qatllar, ulamolarning shahid etilishi, ilmiy kitoblar, qo'lyozma xazinalarning yoqib yuborilishi, urf-odat, qadriyatlar, madaniyatga bo'lgan munosabat tarixiy hujjatlar asosida xolisona bayon etiladi.

Sovet davri tarixida “bosmachilik” harakati nomi bilan “qoralangan” milliy-ozodlik uchun kurashlarda shahid etilgan halq qahramonlari nomlarini tiklash, ularning xotirasini yodga olish, tarixiy voqe’liklarning yuz berishi bilan bog’liq jarayonlarni tarixiy hujjatlar asosida keng yoritish vaqtি keldi.

Shuningdek, Markaziy Osiyoda sosializm davri, o’sha davrdagi mintaqalari va xalqlarining siyosiy, ijtimoiy hayoti jarayonlari, XX asr Sharq xalqlarining madaniy-ma’rifiy transformasiyasi haqida tarixiy voqe’liklar asosida ma’lumotlar berilishi lozim. Tadqiqot ishida Ulug’ Vatan urushi davrida O’zbekistondagi tarixiy, siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy jarayonlar tahlili maqsadga muvofiq.

5 – bo’lim O’zbekistonda mustaqillik davri, milliy va ma’naviy qadriyatlarning tiklanishi, mustaqillik davri milliy g’oya va ma’naviy barkamollik tamoyillarining shakllanish jarayonlari, din va e’tiqod masalasi, jamiyat hayotida yuz bergan o’zgarishlar, oila va jamiyat, mahalla tizimi asosidagi o’z-o’zini boshqaruva tizimining shakllanish jarayonlari, qonunchilik va jamiyat taraqqiyoti omillari ilmiy tahlil etilishi ahamiyatga molik.

Bu bo’lim O’zbekistonda mustaqillik yillarda siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy va diniy vaziyat o’zgarganligini ko’rsatib, ayni davrda, madaniyat va diniy sohada amalga oshirilgan muayyan ijobiy islohotlarni ham xolisona ko’rsatib o’tilishi maqsadga muvofiq bo’ladi.

Yangi O’zbekistondagi zamонавији siyosiy jarayonlar, xalqaro munosabatlar, mintaqaviy va global xavfsizlikni ta’minlash masalalari, o’zbek diplomatiyasining shakllanish jarayonlari, yangi davr islohotlari, zamонавији taraqqiyot bosqichlari, muqaddas islom dini asl ta’limoti va qadriyatlarining to’liq va samimiy hamda adolatli tarzda tiklanishi yo’lida olib borilayotgan tarixiy-siyosiy jarayonlar yoritilishi muhim.

Respublikada yangilanish va yangicha taraqqiyot das-turining tatbiq etilishi, Yangi O'zbekiston davrining ahamiyati, taraqqiyot strategiyasi, III-Renessans poydevorining qo'yilganligini asoslab beruvchi dalillar bilan mustahkmalanishi ahamiyatlidir.

Yuqorida zikr qilingan bo'limlar bo'yicha olib boriladigan yangicha innovasion yondashuv asosidagi fundamental ilmiy ish – tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi. Mazkur innovasion tadqiqot ishi – milliy ma'naviyat tarixini yaxlit tarzda, asl manbalar asosida xolisona o'rganuvchi, yangicha yondashuvli, ensiklopedik xarakterga ega kompleks tadqiqot ishi bo'lishi mumkin.

Tadqiqotni zamona viy axborot kommunikasiya texnologiyalaridan foydalanilgan holda, multimedia mahsulotlari, elektron platforma, internet segmentida ma'lumotlar kontentini shakllantira borish, maxsus veb-portalni yaratish ham loyiha ishining dolzarbliji va ahamiyatini oshirib, milliy ma'naviyat tarixinining taraqqiyot genezisini yoritib beradigan katta masshtabdagi ensiklopedik ilmiy manba bo'lib xizmat qiladi.

Mazkur tadqiqot ishidan kutilayotgan natijalar va ularning ahamiyati shundaki:

1. Tadqiqot ishi milliy ma'naviyat va mafkuraviy taraqqiyot bilan bog'liq tarixiy, ijtimoiy jarayonlarni ilmiy-amaliy tahlil qilish hamda baholash, ustuvor yo'naliishlarni aniqlash, tarixiy o'zlikni anglash, Markaziy Osiyo xalqlari, xususan, O'zbekistonda yashayotgan millat va elatlarning ko'p asrlik ma'naviyati, milliy qadriyatlari, urf-odatlari, an'analari, diniy e'tiqod qarashlari, hayotiy udumlariga, oila, yoshlar tarbiyasi, ta'lim-tarbiya jarayonlarini o'rganishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.


2. Tadqiqot natijasida o'tmisht tariximizni asl manbalar asosida xolisona o'rganish, asrlar davomida shakllangan milliy ma'naviy qarashlar, ma'naviy-mafkuraviy im-

munitetni shakllantirishning kompleks tizimi yaratilishi natijasida sohada mazkur masala bilan bog'liq bo'shliqni to'ldirish, tarixiy voqe'liliklar, asl qo'lyozma manbalar bilan o'r ganilgan tarixiy jarayonlar haqidagi ma'lumotlarni keng jamoatchilik va yoshlarga yetkazishda amaliy, samarali, ta'sirli va foydali mexanizmi shakllanadi.

3. Tadqiqot natijasida yaratiladigan multimedya mahsulotlari, tarixiy hujjatli filmlar silsilasi, dasturiy mahsulotlar milliy ma'naviyat tarixi taraqqiyot genezisini atroflicha o'r ganish, o'rgatish va targ'ibot ishlarida maqsadli xizmat qilishi bilan ahamiyatli bo'ladi. Ushbu multimedia va internet kontenti mahsulotlaridan nafaqat mahalliy, shuningdek, ijtimoiy tarmoqlar, xorijiy auditoriyalarda ham ta'lif va madaniy sohalar targ'ibotida foydalanish imkoniyati yaratilishi muhim sanaladi.

4. Fundamental tadqiqot ishidan barcha davlat va nodavlat tashkilotlari, ta'lif va madaniyat, ma'naviyat va ma'rifat sohalari, ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlarning barcha segmentlarida, oliy va o'rta maxsus ta'lif muassasalarda ilmiy qo'llanma, darslik, ensiklopedik manba, monografiyalar sifatida foydalanish mumkin bo'ladi.

Tadqiqotning eng asosiy maqsadi – milliy ma'naviyat tarixinining evolyusion taraqqiyot genezisini xolisona va kompleks o'r ganish orqali olingan bilim va ma'lumotlar bilan Yangi O'zbekistonning zamonaviy ma'naviy-ma'rifiy va mafkuraviy islohotlar strategiyasi, yoshlarga oid davlat siyosati, barqarorlik va bunyodkorlik, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish tashabbuslari, milliy manfaatlarini ilmiy asosslab berishdan iborat.



Irgash DAMINOV,  
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori

## BUYUKLARGA BESHIK BO'LGAN YURTDA QADRIYATLARNING QADRLANISHI

**Annotatsiya:** Maqolada har bir xalqning, har bir yurtning qadr-qiymati, uning bashariyat tarixidagi o'rni va maqomi jahon ilm-fani va madaniyati rivoji, umumbashariy tamaddun va taraqqiyotga qo'shgan hissasi bilan belgilanishi, milliy qadriyatlar shakllanishiga amaliy ta'sir ko'rsatuvchi omillardan yana biri shu yurtdan yetishib chiqadigan buyuk allomalar – ular yaratgan benazir asarlar ekani xususida mulohazalar bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** ma'naviyat, genezis, milliy qadriyat, madaniyat, tarix, qadriyat, ma'naviy taraqqiyot, din.

Uzoq o'tmishga ega Vatanimiz turli zamonlarda har xil nomlar bilan atab kelingani, shuningdek, uning chegara hududlari ham muayyan davrlarda o'zgarib turgani tarixiy manbalardan ma'lum. Ammo hamma davrlarda ham yurtimiz ulug' zotlar, aziz avliyolar vatani ekani – valiytaroshligi bilan dovrug' qozongan. Uning qudratiga, vatanparvarligi va xalqparvarligiga Doroyu Iskandarlar tan bergen, Najmiddin Kubro singari ulug' siymolari, Jaloluddin Manguberdi kabi mard o'g'lonlari oldida hatto Chingizzondek zolimlar ham bosh eggan, o'zi va yaqinlari uchun ibrat namunasi – etalon qilib olgan.

O'zbekiston hududida eng keng yoyilgan din – islam. Shuningdek, xristianlik, iudaizm, buddaviylik diniga e'tiqod qiluvchilar ham mavjud. Ularning barchasi emin-erkin ibodatlarini ado etmoqdalar. Ularning bu huquqlari

“Vijdon erkinligi to‘g‘risida”gi qonun, qolaversa, yurtimida mustahkam qaror topgan dinlararo bag‘rikenglik tamoyili bilan kafolatlangan.

Aslida, VIII asrda Movarounnahrga arablar bilan birga islom dinining kirib kelishi yangi monoteistik din va makhalliy dinlarning bir-biriga singishi (sinkretizm) jarayoni ni boshlab berdi. Natijada, Markaziy Osiyo xalqlari ongi va tafakkurida xudo, yaratuvchi tushunchalari xususida o‘ziga xos o‘zgarish – evrilish yuz berdi: ular Alloohni tan olgan holda ayni shu ma’noda avvaldan qo’llash urf bo’lgan Tangri atamasini ishlatishda ham davom etdilar. Bu ular qoldirgan boy ilmiy-ma’naviy merosda aks etgan.

Islom bayrog‘i ostida o‘zga mamlakatlarga, jumladan, Movarounnahrga ham kirib kelgan arablar ancha rivojlangan ijtimoiy, ilmiy-ma’naviy munosabatlarga duch kelganlar. Ular, o‘zlari kutmagan holda, Movarounnahr aholisi madaniyatidan mutaassir bo‘ldilar, ilm – islomni tarqatish barobarida o‘zlari ham ilm, hunarning yangi qirralarini kashf qildilar.

Islom Arabistonda vujudga kelgan bo’lsa ham, Movarounnahr mintaqasida ravnaq topgani, takomiliga yetgani nafaqat musulmon olamida, balki butun dunyo afkor ommasi tomonidan e’tirof etilgani bejiz emas, albatta.

Ma’lumki, VIII asrning ikkinchi yarmi – IX asrda Movarounnahrda keskin iqtisodiy yuksalish yuz berdi. Madrasalar uchun maxsus binolar qurilib, ta’lim sohasida samarali usullarning amaliyotga qo’llanishi natijasida dunyoviy va diniy fanlar tez sur’atlar bilan rivojlandi. Binobarin, yurtimizda ilmning faqat ikki turi tan olindi: foydali va foydasiz. Allomalarimiz insonning o‘zi, xalqi, vatani uchun foyda keltirishi mumkin bo’lgan har qanday ilm bilan shug‘llandilar, shuning natijasi o’larоq, qomusiy olim bo‘ldilar – ko‘plab ilm va kasblarning mohir ustasiga aylandilar.

Ta'lim sohasini rivojlantirish maqsadida madrasalarga vaqf mulklari biriktirildi. Me'morlik, amaliy bezak san'atida, hunarmandlik sohalarida jonlanish yuz berdi. Madrasalarda yetishib chiqqan movarounnahrlik buyuk olimlarning asarlari o'sha davrlardayoq Yevropa xalqlari tillariga tarjima qilinib, asrlar davomida ulardan foydalanib kelindi. Bu nodir asarlar ko'pdan-ko'p ilm dargohlarida dasturulamal vazifasini o'tadi. Xullas, shveysariyalik islomshunos olim Adam Mes IX – XI asrlarga nisbatan ishlatgan "musulmonlar uyg'onishi" atamasi aynan Movarounnahrga mos kelishi [1] isbot talab qilmaydigan haqiqatdir.

Xalqlar tarixining uzviy qismi, hayotining in'ikosi si-fatida tarkib topgan milliy an'ana, qadriyatlar, urf-odat, rasm-rusum, taomil, marosimlar ta'sir ko'rsatuvchi qator omillar bilan bevosita va bilvosita bog'liq holda vujudga keladi, rivojlanadi. Shunday omillardan biri turmush tarzidir. Biror-bir xalqning azaliy an'anasiga aylanib qolgan har bir marosim milliylik qobig'idan chiqib, umuminsoniylik kasb etadi, umumqadriyatga aylanadi va shu tariqa, tili, dini, turmush tarzi va hududi bir-biriga yaqin qardosh xalqlarni birlashtirishga xizmat qiladi. E'tibor qilinsa, biror xalqning ko'p asrlar davomida sayqallanib kelgan azaliy udumlari, urf-odatlari namoyish etilganda unga qiziquvchilar ko'p bo'ladi. Zero, bu ular uchun, hamma uchun qiziq. Shundan bo'lsa kerak, unga taqlid qiluvchilar ham topiladi.

O'zbekiston – o'ziga xos an'analar, urf-odatlar hamda turmush tarziga ega bo'lgan hududlardan iborat mam-lakat. Uning har bir viloyati, tumani va hatto qishlog'ida aniq manbaga tayangan madaniyat, urf-odat shakllangan. Zero, xalqimizning asrlar osha shakllanib, sayqal topgan milliy qadriyatları bor. Bu qadriyatlarning shakllanishida esa mana shu xalqlarning har biri hissasini qo'shgan.

Uzoq vaqt davom etgan og'ir mafkuraviy tazyiqqa qaramay, O'zbekiston xalqi avloddan-avlodga o'tib kelgan qa-

driyatlarini saqlab qolishga muvaffaq bo'ldi. O'tgan asrning 30-40 va 50-yillari boshlarida ko'p asrlik qadriyatlarimizni saqlashga va boyitishga harakat qilgan Abdulhamid Cho'lpon, Abdurauf Fitrat, Abdulla Qodiriy, Usmon Nosir kabi ko'plab olimlar, adiblar o'tmish sarqitlariga qarshi kуrash shiori ostida asossiz qatag'on qilindi. Bugungi kunga kelib mustaqillikka erishgach, yana adolat, haqiqat tiklandi, xalqning bebaho qadriyatlari o'ziga qaytarildi.

Mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq ajdodlarimiz amal qilib kelgan ulkan, bebaho milliy qadriyatlarimizni tiklash davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan nihoyatda muhim vazifa bo'lib qoldi. Darhaqiqat, odamlar ongida o'z milliy qadriyatlarini mustahkamlash porloq istiqbol garovidir. Haqiqatdan ham, milliy qadriyatlarni tiklash, o'z navbatida, milliy o'zligini anglashga, milliy his-tuyg'u va iftixorini rivojlantirishga samarali ta'sir etadi.

Masalan, talabalar o'z bobokalonlarining ilmiy, adabiy merosini qanchalik yaxshi bilsalar, bulardan ilmiy, ayniqsa, ma'naviy oziq olish bilan birga, ular bilan haqli ravishda faxrlanadilar, ularga taqlid qiladilar va pirovardida, ularga munosib bo'lishga intiladilar.

Chunki, muayyan xalqqa, millatga, uning ajdodlariga taalluqli, farzandlariga bekamu ko'st yetkazilishi lozim bo'lган qimmatbaho moddiy va ma'naviy boyliklar milliy qadriyatdir. Millatimiz shakllana boshlagan davrdan buy-on to hozirga qadar yaratilgan, rivojlantirilib, qaror top-tirilan, bugungi kun avlodlar foydalananayotgan va ardo-qlayotgan asl qadriyatlar esa o'zbek milliy qadriyatidir. Bunday qadriyatlar sirasiga shu xalqning o'zi yaratgan, boyitgan, saqlab kelayotgan, ajdodlardan avlodlarga meros qolib, rivojlanib borayotgan boyliklar, buyuk bobokalonlarimizning ilmiy, falsafiy, madaniy, badiiy asarlari, an'ana, marosim va boshqa qadriyatlar kiradi. Hammamiz uchun shu kunlarda eng dolzarb bo'lib turgan vazifa kela-


jagimiz poydevori bo'lgan yoshlarni har tomonlama yetuk, sog'lom, barkamol qilib tarbiyalashdir. Chunki kelajagimiz yoshlarga, ularning aqlu zakovatiga bog'liq. Shuning uchun yurtimizda yoshlar tarbiyasiga alohida e'tibor berilib, bor imkoniyatlar yoshlar tarbiyasiga qaratilmoqda. Bu davlat siyosati darajasidagi ma'naviy ishdir.

Har bir xalqning, har bir yurtning qadr-qiymati, uning bashariyat tarixidagi o'rni va maqomi jahon ilm-fani va madaniyati rivoji, umumbashariy tamaddun va taraqqiyotga qo'shgan hissasi bilan belgilanadi. Demak, milliy qadriyatlar shakllanishiga amaliy ta'sir ko'rsatuvchi omillardan yana biri shu yurtdan yetishib chiqadigan buyuk allomalar – ular yaratgan benazir asarlardir.

Shu nuqtai nazardan qaralganda, bizning boy va ibrat-larga to'la bir necha ming yillik shonli tariximiz, o'ziga xos milliy qadriyatlarimiz, betakror ilmiy, madaniy, ma'naviy, diniy merosga ega xalq ekanimiz dunyo miqyosida e'tirof etilgan, etilmoqda. Ayniqsa, tabarruk zaminimizdan o'zlarining olamshumul ahamiyatga molik asarlari, abadiy bar-hayot ta'limotlari bilan butun dunyoni lol qoldirgan ko'plab buyuk allomalar yetishib chiqqani Mag'ribu Mashriqda ma'lum.

Sho'rolar davrida, shunday ulug'larimizdan faxrlanish, nomlarini abadiylashtirish, ta'bir joiz bo'lsa, ularning nomlarini tilga olish ta'qiqlangan edi. Shukrki, ular yotgan muqaddas joylar davlat darajasidagi e'tibor sabab obod maskanga aylantirildi. Qutlug' nomlari tiklandi va tiklanmoqda.

Mustaqillik bergen imkoniyatlar tufayli olib borilgan izlanishlar natijasidan ma'lumki, qadimiylar qo'lyozmalar, shuningdek, biobibliografik tarzdagi qomusiy asarlarda Buxoriy, Samarqandiy, Termiziy, Nasafiy, Keshiy, Pazdaviy, Xorazmiy, Shoshiy, Farg'oniy, Marg'iloni, shuningdek, Tubboniy, Subaxiy, Ustrushoniy kabi ko'hna shaharlarim-



iz bilan bir qatorda bugungi kunda hatto aksar ilm ahliga ham noma'lum qishloqlarimizdan yetishib chiqqan yuzlab, ehtimol, minglab olimlarning ismi shariflarini uchratish mumkin. Binobarin, yer yuzidagi biror yurtdan bunchalik ko'p olimu fuzalolar yetishib chiqqan emas. Bu – haqli e'tirof. Barcha tan olgan haqiqat. E'tibor qilinsa, Samarqand shahrida joylashgan bирgina "Chokardiza" qabristonida ba'zi manbalarda 333 ta, boshqalarining dalolat qilishi-cha esa, 444 ta Muhammad ismli faqihning dafn qilingani aytildi. Afsuski, u zotlarning kimlar ekani hali-hanuz noma'lum. Shuning o'zi ham yurtimizning buyuk zotlar vatani ekaniga inkor qilib bo'lmas dalildir, aslida.

**Ibodulla ERGASHEV,**

*O'zbekiston Milliy universiteti, siyosiy fanlar doktori, professor*

**Barxayotjon ABDULLAYEV,**

*O'zbekiston Milliy universiteti, tayanch doktorant*

## **MILLIY MA'NAVIY MEROS VA QADRIYATLAR MUSTAQIL TARAQQIYOT HAMDA YUKSALISH OMILI**

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada mamlakatning taraqqiyoti va yuksalishida milliy ma'naviy meros hamda qadriyatlarning o'rni yoritib berilgan. Yoshlarning ma'naviyatini shakllantirishda zamonaviy metodlarning ahamiyati ochib beriladi. Milliy ma'naviy merosni tiklash masalalari va yechimlar taklif qilinadi.

**Kalit so'zlar:** ma'naviyat, qadriyatlar, ma'naviy meros, taraqqiyot.

Milliy ma'naviy meros va qadriyatlar mustaqil taraqqiyot va yuksalishning muhim omili hisoblanadi. Shuning uchun ham, milliy ma'naviy meros va qadriyatlarni yuksaltirishga alohida e'tibor berib keligan. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Mening nazarimda, jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo'lsa, uning joni va ruhi – ma'naviyatdir. Biz Yangi O'zbekistonni barpo etishda ana shu ikkita mustahkam ustunga, ya'ni, bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyotga hamda ajdodlarimizning boy merosi, milliy va umuminsoniy qadriyatlariga asoslangan kuchli ma'naviyatga tayanamiz." [1:261] Milliy ma'naviy meros va qadriyatlar har bir xalqning o'tmishi, ajdodlari tomonidan yaratilgan va alodlari qadrlaydigan uzoq yillar davomida shakllangan tarix sinovlaridan o'tgan hamda sayqallanib kelgan ma'naviy boylikdir. Unda xalqning ma'naviy dunyosi maqsad va intilishlari, orzu-umidlari,

hayotiy falsafasi, ijtimoiy axloq normalari o'zining ifodasi-ni topadi. Milliy ma'naviy meros va qadriyatlar ayni paytda xalqning o'zligini, uning o'ziga xos xususiyatlarini namoyon etadigan, o'zligini anglash omili hamdir. Unga bo'lgan munosabat natijasida ikki xil holat sodir bo'lishi mumkin. Bu xalqning o'zligini anglash orqali milliy ma'naviy meros va qadriyatlarni hurmat qilish hamda uni asrab avaylashga bo'lgan mas'uliyati, yoki milliy ma'naviy meros va qadriyat-larga bo'lgan munosabatida turli xil ijtimoiy-siyosiy sabablar tufayli undan begonalashish holati ham sodir bo'lishi mumkinligini hisobga olish zarur.

Milliy ma'naviy meros va qadriyatlar xalqning taraqqiyot yo'liga ham bevosita yoki bilvosita ta'sir ko'rsatadi. Milliy ma'naviy merosdan uzoqlashish xalqning mustaqil taraqqiyot yo'lida rivojlanishini emas, aksincha, ayrim davlatlar yoki xalqlar ta'siriga tushib qolish holatini vujudga keltiradi. Natijada, milliy ma'naviy meros va qadriyatlarga tayanish mamlakat xalqlarini o'z negizida taraqqiy etishiga hamda o'ziga xos va mos taraqqiyot yo'lidan borishni ta'minlasa, aksincha holatda esa uning taraqqiyot yo'li o'z negiziga mos holda amalga oshmaydi. Shuning uchun ham, mamlakatimiz tarixida ajdodlar merosida bu masalaga alohida e'tibor berilgan va uni hisobga olish muhim ahamiyatga ega. O'zbekiston jamiyati tarixida turli davrlarda siyosatda unga nisbatan qarash va yondashuvlar turli xil bo'lib kelganligini ko'ramiz. Bugungi kunda ham dunyoda kechayotgan global o'zgarishlar davrida milliy ma'naviy meros va qadriyatlarga nisbatan qarash bir xil emas. Xatto mamlakatimiz olimlari va ayrim yoshlar qarashlarida ham milliy "ma'naviy meros", "milliy qadriyatlar" hamda "ma'naviyat"ni tushunish turli-cha bo'lib qolmoqda. Xatto kimdir ma'naviyatni, ma'naviy merosni O'zbekiston jamiyati taraqqiyotidagi ta'sirini e'tirof etsa, kimdir ma'naviy qadriyatlarga inson erkinligini, ularning huquq va manfaatlarini cheklovchi omil sifatida talqin

etish holatlari mavjudligini hisobga olish zarur. Bu qanchalik asosga ekanligini o'ylab ko'rish maqsadga muvofiq. Ko'p hollarda ayniqsa yoshlarning ma'naviyatini shakllanishida va uning jamiyat taraqqiyotidagi ta'sirini hisobga olishda ma'naviyatni ajdodlar va keksa avlod tomonidan shakllantirilgan hamda yoshlar ongi hamda tafakkuriga, hayot tarziga zo'r lab kiritilayotgan ma'naviy meros ko'rinishi sifatida tushunish yoki tushuntirishga bo'lgan urinish holatlari kuzatilayotganligini ta'kidlash lozim. Bunday yondashuvlar bahsli va uning yutuq yoki kamchiliklarini qiyosan tahlil etish hamda uning turli xil oqibatlarini hisobga olgan holda yondashish ehtiyoji mavjud. Shuni e'tirof etish joizki, milliy ma'naviy meros va qadriyatlar har bir xalqni hayoti, turmush hamda tafakkur tarzi bilan bog'lik bo'lgan hodisa sifatida namoyon bo'ladi va pozitiv ahamiyat kasb etadi. Ayni paytda hayot o'zgarishlari uning dinamikasi bilan bog'liq holda milliy ma'naviy meros va qadriyatlarga ham o'zingin ta'sirini ko'rsatishi tabiiy. Bu holatda har bilan xalq ana shu o'zgarishlarni hisobga olgan holda u bilan birga o'z qarashlarini va yonlashuvlarini ham yangilab borishi muhim ahamiyatga ega. Bu taraqqiyotda milliy ma'naviy meros bilan qadriyatlar o'rtasida, yoki unga bo'lgan munosabatda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan ayrim ixtilofli holatlarni oldini oladi va jamiyatning barqaror taraqqiyotini ta'minlashga xizmat qiladi. Bu barqarorlik ekstremal barqarorlik ham ekstremal beqarorlik ham emas.

Qadriyatlar tizimidagi o'zgarishlar undagi barqarorlikka tahdid solmaydigan barqaror o'zgarishlarni nazarda tutadi. Aks holda jamiyat tarqqiyotida o'ziga xos beqarorlik holatlari sodir bo'lishi ehtimoldan xoli emas. Buning uchun mamlakatda inson ongi va tafakkuri hamda dunyoqarashida sodir bo'layotgan o'zgarishlarni ijtimoiy hayotda sodir bo'layotgan o'zgarishlar bilan, dunyo xalqlari erishayotgan yangiliklar yutuqlar bilan bog'liq holda qabul qilish madani-

yatiga ega bo'lish strategik ahamiyatga ega. Falsafa qomusiy lug'atida "O'zgarish – barcha obyektlar va hodisalar eng umumiy xususiyati; har qanday harakat va o'zaro ta'sirni, bir holatdan ikkinchi holatga o'tishini ifodalaydi" [3:474] deb ta'riflanadi. Qadimgi yunon faylasufi Geraklit hamma narsa doimiy o'zgarishda bo'ladi deb, ushbu falsafiy kategoriya ustida mutafakkirlar va olimlarning mushohadalarini boshlab bergen. Nemis klassik falsafasi vakili G.Gegel qarashlarida o'zgarish tushunchasi nisbatan bat afsil tavsi-flangan. O'zgarishning shakllanish, boshqa borliqqa o'tish, miqdorning ekstensiv va intensiv o'zgarishi, miqdoriy munosabatning o'zgarishi, predmetning sifat va miqdor birligining o'zgarishi shakllarini ishlab chiqadi. O'zgarish tushunchasining zamonaviy talqinlarida bu tushuncha "narsa va hodisalarning harakati, o'zaro ta'sirlashuvi, bir holatdan boshqasiga o'tishi, yangi xususiyat, funksiya hamda munosabatning yuzaga kelishi" [2] sifatida ta'riflanadi. Bu jamiyatdagi har bir qatlama oldida o'ziga xos mas'uliyat yuklaydi. Ushbu mas'uliyatni xis etish madaniyati fuqarolik madaniyati bo'lishini taqozo etadi. Shuning uchun qadriyatlarga negativ hodisa sifatida qarash bir tomonlama xarakterga ega. Qadriyatlarni siyosiy lashtirmaslik yoki siyosiy nuqtai nazardan yondashmaslik uchun ham uni xolisona tushunish va baho berish muhim ahamiyatga ega.

Milliy ma'naviy merosni tiklash masalasi mustaqil O'zbekistonda barqaror taraqqiyotni ta'minlashning muhim sharti sifatida yondashildi. Buni sobiq Ittifoq davri, uning siyosati bilan bog'liq o'ziga xos sabablari mavjud bo'lganligini va mustaqillik yillarda milliy ma'naviy meros va qadriyatlarni tiklashga alohida e'tibor berilganligini ta'kidlash lozim. O'tgan yillar davomida xalqimiz ongi va tafakkurida milliy ma'naviy meros hamda qadriyatlar tushunchasi bilan bog'liq bo'lgan turli xil urf-odatlar va an'analar tiklandiki, bu mamlakatimizning taraqqiyotida xalqimizning o'zligini

anglashi bilan bog'liq bo'lgan holatlarda, uning ijobiy sa-marasini ko'rishimiz mumkin. Bu xalqimizning tarixi, ajdod avlodlari ma'naviy merosi, urf-odat va an'analarini tiklanib borayotganligida o'zining ifodasini topmoqda. Lekin milliy ma'naviy meros va qadriyatlarni tushunish hamda jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyatini baholashda hammada ham bir xil qarash mavjud emasligini, unga ta'sir etuvchi omillarni nazarda tutish muhim ahamiyatga ega. Bunda quyidagi holatlarni kuzatish mumkin:

birinchidan, globallashuv omili bilan bog'liq, u milliy ma'naviy meros va qadriyatlarni o'ziga xos sinovdan o'tka-zmoqda hamda ayrimlar nazarida milliy ma'naviy meros va qadriyatlarni boshqa xalqlar madaniy merosiga nisbatan orqada qolgan madaniyat ko'rinishi sifatida namoyon bo'lmoqda;

ikkinchidan, bu milliy ma'naviy meros va qadriyatlarga nisbatan ayrim yoshlarda befarqlik bilan qarash kayfiyatini tug'dirmoqda hamda yoshlar ulardek ilg'or bo'lgan meros hamda qadriyatlarga xohish-istak bildirayotganliklarini his-sobga olish lozim;

uchinchidan, milliy ma'naviy meros va qadriyatlarni zamон o'zgarishlari hamda talablaridan orqada qolish holatlari bilan aloqador. Bu ko'proq milliy ma'naviy meros va qadriyatlardagi turg'unlik yoki konservativizmga moyillik, yangiliklarni tushunmaslik yoki uni qabul qilmaslik, dunyo miqiyosida turli madaniyatlar jazibadorligini oshib borayotganligi bilan ayrim yoshlarda milliy madaniyatiga bo'lgan sodda va jo'n qarash, uni to'g'ri baholamaslik holatlariha ham duch kelinmoqda.

Milliy ma'naviy meros va qadriyatlarni turli xalqlar madaniyatidan alohida yashay olmaydi, aksincha ular bir-biri bilan uzviy bog'liq va o'zaro ta'sir ko'rsatish resursiga ega bo'lgan o'ziga xos aloqadorlik qonuniyati bilan izohlanadi. Bunday uzviy bog'liqliknini tushunish global

hamkorlik qonuniyatini e'tirof etishni taqozo etadi. Shuning uchun ham milliy ma'naviy meros va qadriyatlar zamon taraqqiyoti talablaridan orqada qolmasligi muhim. Agarda u orqada qolsa, boshqa xalqlarga xos bo'lgan ayrim pozitiv yoki negativ ko'rinishdagi madaniyat namunalarini o'zлari uchun andoza qilib olishlari hamda bu milliy ma'naviy meros va qadriyatlarni asrab-avaylashga, xalqlarning o'zligini anglashiga ham salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu nuqtai nazardan yondashganda milliy ma'naviy meros va qadriyatlarda yoshlar masalasi uning o'ziga xos xal qiluvchi kuchi hisoblanadi. Bunda quyidagi uch holatni kuzatish: birinchidan, zamon bilan hamnafas, ikkinchidan zamondan orqada qolish, yoki zamondan oldinga ketish mumkinligi o'ziga xos qonuniyat sifatida ko'rindi. Ularni hisobga olish har bir xalqni umummilliy madaniyat yutuqlaridan xabardor bo'lish va uning yangiliklaridan foydalanish milliy ma'naviy merosdagi salbiy holatlarga chek qo'yish, uni ham milliy, ham umuminsoniy madaniyat yutuqlari bilan bog'liq hodisa ekanligini ko'rsatadi. Shu ma'noda milliy ma'naviy meros va qadriyatlar ham yuksalish g'oyasi bilan aloqador. U doimo va uzlusiz ravishda yangilanib va yuksalib borishi lozim. Bu milliy ma'naviy meros va qadriyatlarga nisbatan ijodiy yondashishni hamda taraqqiyotga qanday ta'sir ko'rsatishidan kelib chiqqan holda ong va tafakkurdagi o'zgarishlarни, o'zaro munosabatlarda milliy ma'naviy meros va qadriyatlarni tushunishdagi turli avlodlar tomonidan farq qilishi mumkinligini hisobga olgan holda, uni doimo yangilab borish va yuksalishini ta'minlashni taqozo etadi.

Milliy ma'naviy meros jamiyat taraqqiyotida zarurligini e'tirof etgan holda turli avlodlar o'rtasida o'zaro vorislikni ta'minlash milliy ma'naviy merosni va qadriyatlarni taraqqiyotning muhim omiliga aylanishini ta'minlaydi.

Xulosa qilib aytganda, milliy ma'naviy meros va qadriyatlar jamiyat taraqqiyotiga ta'sir ko'rsatuvchi muhim omi-

lardan biri bo'lib qoladi. U biron-bir mamlakat xalqlarini o'ziga xos va mos barqaror taraqqiyot yo'lidan rivojlanishini ta'minlovchi muhim omildir.

Ikkinchidan, bugungi global o'zgarishlar sodir bo'layotgan global dunyoda milliy ma'naviy meros va qadriyatlarni asrab-avaylash va uning taraqqiyotini ta'minlash shunchaki o'z-o'zidan sodir bo'lmaydi. Aksincha, uni turli xil global tahlidlardan va milliy ma'naviy merosni boyitish uchun yangiliklardan oqilona foydalanishni taqozo etadi hamda tarli xil g'oyaviy va mafkuraviy kurashlarning oldini olishga qodir bo'lgan axborot makonini yaratishni taqozo etadi. Milliy ma'naviy meros va qadriyatlarga nisbatan yoshlarning munosabatini to'g'ri shakllantirish hamda milliy ma'naviy merosning O'zbekiston jamiyati taraqqiyotida xalqparvar davlatni qurishdagi rolini va ayrim yoshlarning qadriyatlarga nisbatan pisandsizlik bilan qarash kayfiyatiga barham berishni taqozo etadi.


Milliy ma'naviy merosni yanada boyitish, ajdodlar merosidan oqilona foydalanish, uni yanada yuksaltirish g'oyasi bilan uzviy bog'liq. Bu Yangi O'zbekiston taraqqiyoti ma'rifatparvar davlat umummilliyl dasturini amalga oshirishda muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

### **Foydalaniman adabiyotlar ro'yxati:**

1. Мирзиёев Ш. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси. Тўлдирилган иккинчи нашри. – Тошкент: "O'zbekiston" нашириёти, 2022. –Б.440.

2. Святохо Н.В. Изменения как феномен бытия: сущность и классификация// Символ науки. 2016. №7-1. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/izmeneniya-kak-fenomen-bytiya-suschnost-i-klassifikatsiya> (Мурожсаат санаси: 07.02.2023).

3. Фалсафа қомусий луғат. "Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти нашириёти", -Т., 2004. –Б.491.



**Azamat MUXTAROV,**  
*TDIU professori, falsafa fanlari doktori*  
**Sohibjon UMARJONOV,**  
*TDIU tayanch doktoranti*

## YANGI O'ZBEKISTONNI QURISHDA IMOM BUXORIY SABOQLARIDAGI TOLERANTLIK MADANIYATINING O'RNI VA AHAMIYATI

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Qur'oni Karim va Imom Buxoriyning hadislarida tolerantlik madaniyati va uning ijtimoiy-falsafiy talqini masalalari tahllil etilgan. Shuningdek Qur'oni Karim va Imom Buxoriy hadislarida e'tiqod, bilim, poklik va tarbiya kabi tushunchalar bugungi yoshlarning ijtimoiy ongi uchun muhim ahamiyat kash etishi atroflicha turli manbalar asosida yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** hadis, e'tiqod, tolerantlik, bilim, poklik, tarbiya, tafakkur.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning “Yangi O'zbekiston strategiyasi” asarida Yangi O'zbekistonni kurish yo'llida mamlakatimizda ma'nnaviy taraqqiyot, millatlar va konfessiyalararo xamjihatlikni saqlash va mustahkamlashga qaratilgan davlat siyosatining dastlabki natijalari va kelgusida bu ishlarni yangi bosqichga ko'tarish uchun bir necha vazifalar va maqsadlar belgilab olindi. “Bag'rikenglik tamoyillari Dekloratsiyasida ta'kidlanganidek, “Bag'rikenlik (tolerantlik) bo'lmasa, tinchlik bo'lmaydi, tinchliksiz esa taraqqiyot va demokratiya bo'lmaydi”.<sup>1</sup> Jamiyat hayotida tinchlik vaadolat g'oyalarining ustuvor bo'lishi va amaliyotda o'z ifodasini topishi ko'zlangan maqsadlarga

---

<sup>1</sup> Бағрикенгик тамойиллари Декларацияси.// ЮНЕСКО Халқаро меъёрий хужжатлари. Т.: Адолат, 2004. -Б92.

erishishga, belgilangan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy, ma'naviy-ma'rifiy mo'ljallarning barcha uchun birdek qadr-qimmat kasb etishiga, fuqarolar o'rtasida birdamlik va hamjihatlik, o'zaro bir-birini tushunish va hurmat ruhi qaror topishiga zamin yaratadi. "Bag'rikenglik bu fuqarolik jamiyatining barcha fuqarolarning turlicha bo'lish huquqi-da namoyon bo'ladigan qadriyatlari va sotsial me'yorlaridir".<sup>1</sup> Dunyodagi turli madaniyatlar, sivilizatsiyalar va xalqlar xilma-xilligini hurmat qilishni, tashqi ko'rinishi, tili, e'tiqodi, an'analariga ko'ra farqlanuvchi odamlar bilan hamkorlik qilishga tayyorlikni ham anglatadi.

Diniy bag'rikenglik azal-azaldan o'zbek xalqi mentalitetining ajralmas qismi bo'lib kelgan. Tarixning murakkab davrlarida yurtimiz musulmonlari pravoslav xristianlari hamda boshqa din va mas'hab vakillariga mehr-shafqat va xayr-sahovat ko'rsatib, beg'araz yordam va ko'mak ber-ganlar .

Bag'rikenglikni shakllantirish Imom Buxoriy hadislarda ilm-fan, ma'naviyat va e'tiqod birligi masalalariga alohida urg'u berilgan. Imom Buxoriy jami 600 ming hadis to'plab, shundan 100 ming sahiq, 200 mingdan zi-yod hadisni yod olgan. Bularni to'plashda mingdan ortiq shayxlarning huzurida bo'lgan. Ushbu hadislar ichidan sahiqlarini aniqlab, ular asosida o'zining mashhur "Al-Jome' as-sahiq" kitobini o'n olti yilda yozib tugatgan. Ibn Hajarning hisobi bo'yicha, imom Buxoriy ushbu to'plamga 7397 mingdan ortiq sahiq hadisni boblarga ajratib, tartibli ravishda jamlagan. U kishi har bir hadisni alohida g'usl qilib, ikki rakat namoz o'qib, keyin kitobga qayd qilardi.

Payg'ambarlarimizning sunnatlari Islom dinining Qur'oni karimdan keyingi ikkinchi asosiy manba hisoblanadi. Sunnat esa aynan hadis kitoblarida jamlangandir.

<sup>1</sup> Синягина В. Будет уважать друг друга не только в Международном  
день толерантности. // Новый век. №48. 24 ноября 2005 г.

Hadislar Islom asoslarini, uning insonparvarlik mohiyatini, ma'naviy-ma'rifiy, ahloqiy-tarbiyaviy omillarining inson hayotidagi o'rnini teranroq anglashga xizmat qiladi. "Islom olamida payg'ambarimiz Muhammad alayhissalom hadislari to'plamining ishonchli manbai deb e'tirof etilgan. "Al-Jome' as-sahih" to'plami barcha muhaddislar ustozlari bo'lmissiz Imom Buxoriyning ko'p yillik fidokorona izlanishlari samarasidir. O'n ikki asrdirki, ushbu asar ahamiyatiga ko'ra, muqaddas Qur'onidan keyin islom dini haqidagi ikkinchi ishonchli yozma manba bo'lib qolmoqda. Nafaqat bizning yurtimiz, balki boshqa mamlakatlarda ham minglab, millionlab musulmonlar bu tabarruk zot tug'ilgan Buxoroi sharifga borish va uning Samarcanddagi qabriini ziyorat qilishga intilishi bejiz emas, albatta".<sup>1</sup> Buyuk vatandoshimiz Imom Buxoriy rohimahulloh Payg'ambar alayhissalomning eng ishonchli hadislardan iborat sahiq to'plamni tuzish sharafiga tuyassar bo'lgan ulug' zotdir. Uning "Sahihi Buxoriy" kitobi dunyo musulmon ulamolari tomonidan yakdillik bilan eng mo'tabar hadis to'plamlari ulamolar o'rtasida "Qutubi tis'a" (to'qqiz to'plam) deb yuritildai.<sup>2</sup> Ular quyidagilardir: 1. "Sahihi Buxoriy". 2. "Sahihi Muslim". 3. "Sunani Abu Dovud". 4. "Jome'i Termizi". 5. "Muttabop Nasoniy". 6. "Sunani Ibn Moja". 7. "Muvatton Malik". 8. "Sunani Dorimiyy". 9. "Sahihi Ibn Habbon".

Qadim-qadimdan din aksariyat ma'naviy qadriyatlarni o'ziga mujassam etib keladi. Milliy qadriyatlarning asrlar osha bezavol yashab kelayotgani ham dinning ana shu tabiat bilan bog'liq. Chunki, dunyodagi dinlarning barchasi ezzulik g'oyalariga asoslanadi, yaxshilik, tinchlik, do'stlik kabi fazilatlarga tayanadi. Odamlarni halollik va poklik,

<sup>1</sup> Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. -Т: "Ўзбекистон", 2017. -28-29 бетлар.

<sup>2</sup> Олтин силсила: 1-жилд: Саҳиҳул Бухорий. Т: "Hilol-nashr" -2019.-3-4-бетлар.

mehr-shavqat va bag'rikenglikka da'vat etadi. Xususan muqaddas dinimiz to'g'risida Shavkat Mirziyoyev bayon etgandek "Islom dini – avvalo, tinchlik va do'stlik, ahillik va birdamlik, bilim va ma'rifat dinidir".<sup>1</sup>

Qur'oni Karimda birovning e'tiqodiga daxl qilib bo'lmasligi, dinga ishonish insonlarning shaxsiy ishi ekani, bu ularning vijdoniga havola etilgani aniq ifoda-langan: "Dinda zo'rslash yo'q, to'g'ri yo'l yanglish yildan ajrim bo'ldi", deyiladi Qur'oni karimdag'i "Baqara" surasi 256-oyatida. Qur'oni karimning "Hud" surasi 118-oyatida esa "Agar Robbingiz xohlaganida edi, (barcha) odamlarni bir ummat (bir din) qilgan bo'lur edi".<sup>2</sup> Islom dini mazkur tamoyil bilan barchani o'z e'tiqod va madaniyati yo'lida erkin ekanini kafolatlagan. Shu boisdan ham Imam Buxoriyning "Al Jom'e as-sahiq" hadislar to'plamida diniy ksenofobiya (yunon. yot, begona, qo'rqish, qo'rqing) uchun asos bo'ladigan birorta g'oya yo'q. Bu ham islamda diniy bag'rikenglik tamoyili ustuvorligini ko'rsatadi. Din bizning qon-qonimizga, ongu shuurimizga shu qadar singib ketganki, uni hech qanday inson, ayniqsa yoshlar, dinlarning asl-insonparvarlik mohiyatini chuqr bilishimiz lozim. Shundagina ularni diniy aqidaparastlarning, missioner va prozelit, ksenofoblarning g'arazli so'zlari to'g'ri yo'ldan chetlashmaydi.

Payg'ambar Muhammad (s.a.v.) : " Otaga itoat qilish-Tangriga itoat qilishdir. Uning oldida gunoh qilish – Tangri oldida gunohkor bo'lish bilan barobardir", – deganlar. Yana aytganlar: "Ota-onalarining keksalik vaqtida har ik-kisini yoki biri bo'lmaganda boshqasini rozi qilib, jannati bo'lib olmagan farzand xor bo'lsin, xor bo'lsin va yana xor

<sup>1</sup> Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. Т. "Ўзбекистон"-2021. 310-бет

<sup>2</sup> Куръони Карим. Алоуддин Мансур. 2004. – 75, 258-бетлар.

bo'lsin".<sup>1</sup> Imom Buxoriy rivoyatlarida "qarindoshlarida zakot bergen odamga ikkita savob tegadi: biri-qarindoshlari ga oqibat qilgani uchun, ikkinchisi – zakot bergani uchun". Biror qarindoshdan yaxshilik ko'rganidagina emas, balki yomonlik ko'rganida ham bordi-keldi qilaveradigan kishi silai rahm qiluvchi deyiladi.

"Rasululloh sallalohu alayhi vasallam atroflarida as'ho-balaridan biri jamoa turganida: "Allohga hech narsani sheri-k qilmaslik, o'g'rilik qilmaslik, zino qilmaslik, bolalaringizni o'ldirmaslik, qo'l-oyoqlaringiz orasidan bo'hton uydirmaslikka va ma'ruf ishda osiy bo'lmaslikka menga bay'at bering. Sizlardan kim shularga vafo biror narsani qilib qo'yib, dun-yoda jazoga tortilsa, bu unga kafolatdir. Kim o'shalardan biror narsani qilib qo'ysa-yu, so'ngra Allohdan uni yashirgan bo'lsa, bu Allahga xavoladir: Hohlasa uni afv qiladi, hohlasa jazolaydi, dedilar. U zotga ana shu bay'at qildik".<sup>2</sup>

Uzoq yillar hukm surgan mustabid tuzum barham topgan, O'zbekistonda nafaqat, iqtisodiy, balki mafkuraviy muammolar ham avj oldi. Vatanparvarlik, ma'naviy -ahlo-qiy, ruxiy tarbiya masalalarida jamiyatda bo'shliq yuzaga keldi. Bu esa madaniy -ma'naviy qadriyatlarning susayishi-ga olib keldi. Islom dinining haqiqiy insonparvarlik g'oy-alarini buzib talqin qilish holatlari kuzatildi. Mana shunday murakkab burilish davrida mamlakatda terrorchilik, ektremistik maqsadlarda foydalanib qolishga intilish kuchayib bordi. Afsuski, o'sha paytlarda hali diniy-mafku-raviy immunitet shakllanib ulgurmagan ko'plab yoshlar-imiz ularning tuzog'iga tushib qoldi hamda ko'plab yos-hlar buzg'unchilik yo'liga kirib tuzog'iga ilinib, jazolandilar. Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev tashabbusi hamda

<sup>1</sup> Имом ал-Бухорий. Саҳиқамаллар. Сайланма ҳадислар. Т: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 1998. -52 бет.

<sup>2</sup> Олтин силсила: 1-жилд: Саҳиҳул Бухорий. Т: "Hilol-nashr" -2019.-135-бетлар.

qat’iy sa’y-harakatlari asosida yillar davomida yig’ilib qolgan muammolar hal qilinmoqda. O’zbekiston Prezidentining O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilin-ganining 29 yilligiga bag’ishlangan tantanali ma’ruzasida ta’kidlab o’tganidek, “Bu yil 4 mingdan ortiq shahs sud zalid-an ozod qilinib, 8 minga yaqin fuqaroga nisbatan asos-siz qo’ylgan moddalar ayblovdan chiqarilgani 859 nafar shaxs oqlangani sud-tergov sohasidagi islohotlarimizning eng muhim natizasidir.

Xalqimizga xos kechirimplilik, bag’rikenglik va oliva-noblik tamoyillariga amal qilgan xolda, bilib-bilmay jinoyat sodir etgan, qilmishiga chin dildan pushaymon bo’lib, tu-zalish yo’liga qat’iy o’tgan shaxslarga nisbatan avf instituti muntazam qo’llanmoqda. Shu boradagi ishlarimizning davomi sifatida Konstitutsiya kuni arafasida yana bir far-monga imzo chekdim. Unga ko’ra shu toifaga mansub 182 nafar shaxs muddatidan oldin ozod qilinib, erkin hayotga qaytarilmoqda.”<sup>1</sup>

“2019-yilda “Mehr-1” va “Mehr-2”, insonparvarlik tad-birlari muvaffaqiyatli amalga oshirildi. Ana shu tadbirlar doirasida Yaqin Sharqdagi qurolli mojarolar maydonidan, Afg’onistondan 261 nafar fuqaro, asosan, ayollar va bolalar yurtimizga olib kelindi. Ularga tibbiy yordam ko’rsatildi.”<sup>2</sup> Bunday ezgu ishlar davomi sifatida 2020-yilda “Mehr-3”, 2021-yilda “Mehr-4” va “Mehr-5” tadbirlar doirasida 215 nafar ayollar va bolalar mamlakatimizga olib kelindi.<sup>3</sup> Bu shundan dalolat beradiki, Imom Buxoriy hadislarida bitil-gan tolerantlik madaniyatining bugungi kunda uning amli-yotidir desa mubolag’a bo’lmaydi.

<sup>1</sup> Мирзиёев Ш.М Ўзбекистон халқига байрам табриги. // “Халқ сўзи”, 2021 йил 8 декабрь.

<sup>2</sup> Мирзиёев Ш.М Конституция ва қонун устуворлиги – хукуқий демократик давлат ва фуқаролик жамиятининг энг муҳим мезонидир. // “Халқ сўзи”, 2019 йил 8 декабрь.

<sup>3</sup> <https://www.gazeta.uz/oz/2021/04/30/mehr/>

Islom dinida, xususan Imom Buxoriy xadislarida o'rta-ga qo'yilgan ahloqiy qarashlar, ularning mohiyati va mezonlari ustida to'xtab o'tish maqsadga muvofiqdir. **1. Imon -e'tiqod.** Imom Buxoriy hadislarida ko'rsatilishicha, yetuk ahloqning eng asosiysi imonlilik, diyonatlilikdir. Mutafakkir bobomiz Ahmad Yassaviyning "inson ma'naviy kamolatga intilib yashashi lozim, ko'nglida e'tiqod yo'q odam esa inson nomiga nomunosibdir" degan hikmatini eslashimiz joizdir. Payg'ambarimiz xadislaridan birida esa shunday deyiladi: "Hech biringiz o'zi yaxshi ko'rgan narsani birodariga ham ravo ko'rmaguncha mo'min bo'la olmaydi. Mo'min odamlar unga qonlari va mollarini ishongan odamadir".<sup>1</sup>

**2.Bilim.** Imom al-Buxoriyning "Sahihul Buxoriy" asarida shunday hadis keltiriladi:

"Ikki kishidan boshqaga hasad yo'q: Alloh mol-dunyo berganu, uni haq yo'lida sarf qilib yurgan hamda Alloh hikmat ato etganu, u bilan hukm qilib, uni o'rgatadigan kishiga"<sup>2</sup>. Sharqning mutakallimlaridan bo'lgan Faxriddin Roziy bilim, ilm fazilati haqida "Xudovandning takidlashicha: mening fazilatim barcha o'zim yaratgan mahluqotlar jumlasidan bo'lganidek ilm fazilatining dalili xam xabarlarining qatiy va ko'pligidandir"<sup>3</sup> deb takidlab o'tgan edi. **3. Poklik.** Hadislarda ozodalik va orastalik haqida quyidagi ko'rsatkichlar bor: "Alloh taolo pokdir, poklikni yaxshi ko'radi, u sahiydirki, sahiylikni yaxshi ko'radi. Hovli, sahn va turar joylaringizni pokiza tutinglar.." Tahoratda qo'l va

<sup>1</sup> Саҳиҳи Бухорий (Ал-жомъи ас-саҳиҳ). Т.: ...Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат миллий нашриёти, 2009. – 7, 133-бетлар.

<sup>2</sup> Саҳиҳи Бухорий (Ал-жомъи ас-саҳиҳ). Т.: ...Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат миллий нашриёти, 2009. – 7, 179-бетлар.

<sup>3</sup> Умаржонов С.С, Сафаров М.К Fahreddin Roziyining "Latoif ul-g'iyosiyot" qo'lyozma asarida aql va e'tiqod masalasining qo'yilishi va uning diniy-falsafiy germenevtik tahlili". Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences (электрон журнал). 2021-йил июн. 1064 -6

oyoq barmoqlari orasini halol qiluvchi, taomdan keyin esa tishlarini tozalovchi ummatlarim qanday yashxidirlar".<sup>1</sup> Demak, poklik imonli bag'rikeng odamning xususiyati bo'lib, uni o'zida mujassam qilgan inson ruhi va tanasi ning salomatligini saqlab yurgan holda, ham ma'nан, ham jismonan sog'lom bo'ladi. **4. Tarbiya.** Hadislarda tarbiya ahloqni shakllantiruvchi va kamol toptirishning muhim sharti sifatida belgilangan. Xususan, farzandlaringizni yaxshi boqingiz, ularni yaxshi tarbiya qilingiz."<sup>2</sup> Farzandlaringizni izzat-ikrom qilish bilan birga ahloq-odobini ham yaxshilanglar."<sup>3</sup> "Hech bir ota o'z farzandiga xulqu-odobdan buyukroq meros bera olmaydi"<sup>4</sup>. Ko'rinish turibdiki, tarbiya ham ahloqiy komillikning bir mezonidir.

Madaniyatlar xilma-xilligini ta'minlashga asoslangan ta'lim vazifalari qatorida quyidagilarni sanash mumkin:


- o'quvchilarning boshqa madaniyatlarga integratsiyalashuvining sharti hisoblangan o'z xalqi madaniyatini chuqr va har tomonlama o'zlashtirishiga ko'maklashishi;
- o'quvchilarda O'zbekiston, Markaziy Osiyo MDH mamlakatlari va umuman, dunyo madaniyati rang-barangligi to'g'risidagi tasavvurni, madaniy tafovutlarga nisbatan ijobji munosabatni shakllantirish;
- o'quvchilarning boshqa xalqlar madaniyatiga integratsiyalashuvi uchun sharoit yaratish;
- turli madaniyat vakillari bilan o'zaro samarali ta'sirlashuv malakasini shakllantirish va rivojlantirish;
- ta'lim oluvchilarni tinchlik, toqatlilik, insonparvarlik millatlaroro muloqot ruhida tarbiyalash bilan bog'liq bo'lgan barcha masalalar tolerantlik g'oyasi bilan uzviy bog'liqdir.

<sup>1</sup> Маърифат-тинчлик асоси.-Т.: Тошкент ислом университетининг нашриёти. Манбаа бирлашмаси. 2009. 56-бет.

<sup>2</sup> Минг бир ҳадис. -Т.: Мовароуннаҳр нашриёти, 1998.- 63-бет.

<sup>3</sup> Ином Бухорий. Ал-адаб ал-муфраз. -Т.: "Ўзбекистон2, 1990. 43-бет.

<sup>4</sup> Ўша жойда. 46-бет.



Payg‘ambarimiz hadislaridan birida shunday deyiladi: “Hech biringiz o‘zi yaxshi ko‘rgan narsani birodariga ham ravo ko‘rmaguncha mo‘min bo‘la olmaydi”. Mo‘min odamlar unga qonlari va mollarini ishongan odamlar”. Shuningdek, uch (xislat bor), kim ularni mujassam qilsa, imonni mujassam qilibdi: insofli bo‘lish, barchaga salom berish, kambag‘allikda ham infoq-ehson qilish”<sup>1</sup>, degan hadis orqali ham imon-e’tiqodli insonning fazilatlari haqida bilish mumkin.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda tashkil etilgan Islom sivilizatsiyasi markazi, Islom akademiyasi, Mir Arab oliv madrasasi, Imom Buxoriy va Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazlari boy ilmiy-tarixiy merosimizni o‘rganish va targ‘ib qilishga xizmat qilmoqda. 2018 yilda Toshkent Islom universiteti negizida O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi tashkil etildi. Shuningdek O‘zbekiston stondagi Islom sivilizatsiyasi markazining oliv diniyma‘rifiy ta’lim muassasasi shaklidagi Hadis ilmi maktabi tashkil etildi. Ushbu sohaga munosib hissa qo‘shib kelayotgan shaxslarni rag‘batlantirish maqsadida “Imom Buxoriy” davlat mukofoti ta’sis etilishi katta tarixiy voqeа bo‘ldi.

Har qanday ilm xoh diniy, xoh dunyoviy bo‘lsin, u inson qalbini jazolashdan saqlaydi, uni dunyoga, hayotga teran nazar bilan boqishga, nochor va mashaqqatli hollarda undan qutulishning choralarini topishga, halol va haromni farqlashga, har qanday fojianing oldini olishda najot yo‘lini ko‘rsatadi, umuman insoniyatni ezungulikka va saodatga yetaklaydi. Shuning uchun ham Payg‘ambarimiz (s.a.v) “Ilmni Chinga borib bo‘lsa ham o‘rgan” yoki “Bir soatlik tafakkur bir yillik kafl ibodatdan yaxshidir” degan fikrni bekorga aytmagan. Chunki ilm yordamida inson o‘zining har bir amalini aql tarozisiga qo‘yib, fikr yuritadi, bajar-

---

<sup>1</sup> Имом ал-Бухорий. Саҳиқул Бухорий -1. Hилол –nashr нашриёти. 2012.- 7 боб, 133,54,142-бетлар.

radi. Tafakkur mahsuli bo'lgan har bir g'oya o'z mohiyati jixatdan bунyodkorligi yoki vayronkorligidan qat'iy nazar shaxs e'tiqodi va ilmi asosida hayotga tatbiq qilinadi. Faxriddin Muhammad ar-Roziy e'tiqod va ilm xususida "Latoif ul-g'iyosiyot" asarida quyidagicha o'z fikrini bayon etadi: "Shuni bilgilki aqliy dalil bilan aytilgan so'z yuz ko'rinishidan ko'ra ko'proq narsani mustahkamlaydi. Shu jihatdanki banda aqlining tafakkuri uni Xudo ma'rifikatiga yetkazadi. Toat qilish bandani savobga yetkazadi, savob o'z nafsining nasibasidir. Xudoi Taolonning ma'rifikati nafsning nasibasidan afzalroqdir."<sup>1</sup> Bugungi kunda yoshlarimiz ongi va tafakkurida ilm bilan e'tiqod mushtarakligini vujudga keltirib, ularda yuksak ma'naviyat -ahloqiy fazilatlarni shakllantirmoq millatimiz va davlatimizning ustuvor vazifasi hisoblanadi.

Umuman Imom Buxoriyning hadislarida tolerantlik madaniyati va uning ijtimoiy-falsafiy talqini masalalari bo'yicha shunday xulosaga kelish mumkin. Zotan, bu "Oltin silsila" turkumidagi kitoblar avval aytib o'tganimizdek, Qur'oni karimdan keyingi ikkinchi manba, uning sharhi, hayotga tatbiqi va inson hayoti uchun zarur bo'lgan ko'plab ta'limotlarning asosidir. Shu bilan birga, yana quyidagi fikrlarni aytib o'tish mumkin:

1. Jamiyat va shaxs kamolatida tolerantlik, diniy bag'rikenglik, iymon, e'tiqod masalasi oliy maqom asosda yo'lga qo'yish va tutib turishda hadis kitoblarining o'rni juda muhimdir. Kitoblarda keltirilgan hadisi shariflar barchani to'g'ri yo'lga boshlashga xizmat qiladi.

2. Hadislarning har qanday jamiyat a'zolarining ahloqiy tarbiyasi bo'yicha ahamiyati beqiyosdir.

---

<sup>1</sup> Умаржонов С.С, Сафаров М.К Fahriddin Roziyning "Latoif ul-g'iyosiyot" qo'lyozma asarida aql va e'tiqod masalasining qo'yilishi va uning diniy-falsafiy germenevtik tahlili". Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences (электрон журнал). 2021-йил июн. 1066 -6

3. Imom Buxoriy hadislarining barchasida jamiyat a'zolarida kechirimli bo'lish , jamiyatda halol kasb qilish, haromdan hazar qilish, tejamorlik, mehnatsevarlik, tashabbuskorlik, ishbilrmonlik xislatlarini shakllantirishga ximat qiladi.

4. Hadisi shariflar jamiyat a'zolariga dunyoda tinchlik va osoyishtalik bo'yicha kurash olib borish lozimligini anglatishda katta ahamiyatga ega.

5. Imom Buxoriy kitob va hadislarida tolerantlik tarbiyasi bo'yicha ham ulkan ahamiyat kasb etadi.

**Bahrom IRZAYEV,**  
*O'zR VM huzuridagi Qatag'on qurbanlari  
xotirasi davlat muzeyi bosh ilmiy xodimi,  
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori*

## **SHOHID ESON MUSAYEV: JADID VA SOTSIOLOG OLIM**

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada jadid va sotsiolog olim Shohid Eson Musaevning hayot va ilmiy faoliyati haqida fikr yuritiladi. Jadidchilik tarixida tutgan o'rni yoritib beriladi. Ilmiy merosining ahamiyati haqida so'z boradi.*

**Kalit so'zlar:** *jadid, olim, tarix, ma'naviy meros.*

Musaev Shohid Eson 1884 yil Toshkentda oddiy hunarmand oilasida dunyoga kelgan. Eski maktab va madrasa ta'lidan so'ng Shohid Eson Munavvar qori Abdurashidxonovning yoniga kirib, bevosita uning rahbarligi ostida uning ibtidoiy maktabida dars bera boshlaydi. Shohid Eson oliv ta'limi davom ettirish maqsadida 1917-1922 yillarda Turkiyada bo'lib, Istanbul universitetining pedagogika fakultetini bitirib qaytadi. Turkiyadan qaytgach, dastlab, Toshkent viloyati muallimlar bilim yurtida ishlab, "Ko'mak" va "Nashri maorif" tashkilotlari tadbirilarida faol ishtirok etdi. 1926 yildan "Navoiy" maktabida dars bera boshlagan Shohid Eson Musaevga qarshi sovet matbuotida uni millatchilikda ayblab bir nechta maqolalar bosiladi. U muallimlik faoliyatini umuman tashlab Toshkent shahar kutubxonasida ishlay boshlaydi. Biroq, bu ham Shohid Esonni qutqarib qola olmadi. U 1928 yil 12 noyabrda "Milliy ittihod" tashkiloti a'zosi sifatida qamoqqa olinadi...

Endi Shohid Esonning Turkiston mabuotida nashr etilgan ayrim maqolalarini e'tiboringizga taqdim etaman. Uning "Haqiqat" jurnalida chop etilgan "Tarbiya" maqolalasida "Nabi muhtaram hazratlari: "Hammangiz cho'ponsiz hammangiz podalaringizdan mas'ulsiz" demak ila g'oyat keng bir tarzda tarbiya asosini o'n to'rt asr burun qurgandirlar deb bo'ladir. Demakki, bir birimizning tarbiyalarimizga aloqador, bir birimizning tarz harakatimizning jamiyat a'moliga, umumiy vijdonga to'g'rilab ishlarakcha qurilganmiz" deb tarbiyaning naqadar muhim ishligiga to'xtaladi. Fikrini davom ettirib, tarbiyani ta'lim bilan uzziy holda ko'radi va "Bu nuqtada mutafakkirlarga ehtiyoj bordir. Murabbiy va muallimlar ersa mutafakkirlarning ko'rsatgan yo'llaridan yurmoqqa majburdirlar. Shundoq bo'lganda umumiylar nazariy qismni mutafakkirlarga, tadbiq jihatli ersa murabbiy va muallimlarga qolur. Muallim va murabbiylarni bir qo'shinga o'xshatsak mutafakkirlarini ham bu qo'shining qo'mondonlariga o'xshata olamiz. Qo'shunning qo'mondonga ehtiyoji qanday bo'lsa, murabbiylarning ham mutafakkirlarga ehtiyoji shunchalikdir. Qo'shun fardlari harbiy qo'zg'olishni boshqarolmaganidek har bir murabbiy va muallim ham tarbiya va fikr ishlarini tamomi bilan idora qila olmas. Negakim tarbiya mas'alasi ijtimoiy va ruhiy mas'aladir. Binoalayh ko'p keng va qorishiqidir. Bu yo'lda ahliyat va mahorat egasi bo'lmoq uchun uzun zamon tirishmak lozimdir" deydi. Mavjud vaziyatni jahon bilan taqqoslab, "Bu kun madaniy mamlakatlarning har birisida tarbiya to'g'risida hisobsiz ko'p kitob va majmular yozilmoqda va nashr etilmakda. Ulug' mutafakkir olimlar ish boshida o'ltirib yurt va ellarida foydalik yo'llarini ko'rsatmoqdadirlar. So'z biz Turkiston turklari ustiga ko'chirilganida ersa tarbiyaviy haraktlarimizda rahbarlik qila oladigan na bir mutafakkir va na bu yo'lda yozilgan bir asar bor. Shuning ila barobar biz bugun tirikligimiz

va yashashimizning o'zgarishi to'g'risida ehtiyojlarimizni sezsa boshladik. Lekin, qay yo'sinda o'zgarishimiz, qaysi yo'lda va qaysi maqsadga qarab ketmagimiz kerak? Mana bu mas'alalar hanuz bizga ochiq emas, xeyli mavhum va majhuldir.

Ushbu yangi hayot yo'lida bizga yordam qiladirgan rahbarlikka ehtiyojimiz ulug'dur. Ajabo, bizga chin mutafakkirlik qaysi yo'sinda va qaysi muassasalardan yetishur. Bu kungi muhim ishlarimizdan bittasi ushbuni hal qilmoqdir. Mahkamai sha'riyalarimiz ham madrasalar islohotiga kirishmasdan ilgari bu mas'alani tekshirmak va qat'iy bir natijaga bog'lamoq majburiyatidadir. Islohotning samarali bo'lishi bo'lmasligi ham bu to'g'rida berilaturg'on qarorga bog'liqdur. Nima bo'lsa ham bir maqsadga kelaylik (Ta'kid bizniki – muallif). Shundan so'ng muallif maqsadga ko'chadi va Tarbiya nimadir? Nima degan so'zdir? Ajabo? Tarbiya demak odob maosharatni bilgan mutavoze', nazokatlik, zarif kishi demakmidir? Tarbiya usulini tayin etmasdan ilgari bu usulni turlik kimsalar qanday angladilar" deb savol qo'yadi. Ayni vaqtda javob topish maqsadida insoniyat tarixiga yuzlanadi. Bu nuqtada olim so'zni ibtidoiy eskimos qabilalari turmush an'analaridan boshlab, uning fan darajasigacha ko'tarilishigacha esga oladi hamda mavjud tarbiya nazariyalarini tahlil etib, ular bilan bahs olib borishga kirishadi: "Tarbiya bashariyat bilan barobar tug'ulgandir, bashariyat barobarida eskidir. Eng ibtidoiy bir qavmdan boshlab to madaniysigacha hammasida ham tarbiya ishi mavjuddir. Eskimolarning hayoti ham bu fikrni tasdiq etar... Tarbiya ishi ko'p eski bo'lsa ham bu hodisalar haqida nazariya va mulohazalari yangi bo'lib yunon qadim hikmasidan boshlanadir. Masalan, Aflatun – "yaxshi tarbiya bir vujud va ruh e'tibori ila insonning takomiliga qancha iste'dodi bor ersa shuncha tugallashtiraturgan narsadir", deydi. Aflatun o'zining bu ta'rifi bilan tarbiyaning

nima ekanligini ko'rsatmasa ham, lekin yaxshi tarbiyaning g'oyasini anglatadir. "Tugallashtiradurgan" yoki mukammallahshtiradurgan narsa nima degan so'zdir? Vujudda mukammallahsmakni vujudning tomligi desak ham ruhning mukammalligi nima degan so'zdir? So'ngra mukammallahshtiradigan ta'sirga tarbiya deb mukammallahshtirmaydirgan ta'sirga tarbiya demaydir. Binoalayh, bu ta'rif ilmiy emasdir. Ilman mukammallik bergen ham nuqsonlik bergen ta'sirlarning ikkisi ham tarbiyadir. Tarbiya doimo mukammal bo'lmay nuqsonlik ham bo'lur, yaxshisi bo'lga-nidek yomoni ham bo'lur.

Chicherin: "tarbiya bolaning mukammal inson bo'lishiga xizmat qiladirgan qoidalarning hay'at majmuasidir" deydi. Bu ham yetarlik ta'rif emas. "Mukammal inson" nima degan gap? Har kim o'zining sifati, maslagi, mavqeiga qarab mukammal insonni boshqacha anglayadir. Masalan, hammolning o'yplashicha eng mukammal inson botmon yuk ko'taruvchi kishidir.

Shteyn: "tarbiya malakalarni tekis va ohangdor (uyg'un) bir sur'atda o'stirmoqdir" deydi. Shteynning bu ta'rifiga qaraqanda malakalar orasidagi ohang va tekislikni buzatirgan narsalar tarbiyadan chetda qolur. Holbuki, tarbiya malakalarning ohang va tekisligi bilan emas, balki ohangsiz va tekis bo'lмаганлигидан bo'lur. Bir musiqiyshunos maslagida muvofiq bo'lmoq uchun eshitish malakasini qutlantirib boshqa malakalarini zaif qoldirar. Demak, ohangsizlik hosil bo'ladi. Shunga o'xhash bir rassomning ham ko'rish malakasi kuchlanib boshqa malakalari ila tekislik va ohang qolmas. Bu hollar musiqiy va yo rasm tarbiyasi olmoq uchun majburiyidir. Bu misollardan anglashiladir kim tarbiya uchun tekissizlik ohangsizlik birinchi shartdir.

Eng yuqoridagi ta'riflarning uchtasini birdan o'ylasak, diqqat bilan tekshirsak har uchtasi uchun shu mulohaza va shu vasflar bordir. Bu ta'riflarning uchchovi ham mus-

bat amallarning usullariga muvofiq emas. Ya'ni, joriy bo'lib turgan hayotdagi tarbiyani tanitmaydir. Balki, mualliflarning o'z fikr va tasovvurlaridagi xayoliy tarbiyani ko'rsatadir. Alhosil, bu ta'riflar tarbiya qanday narsadir deb emas, qanday narsa bo'lishi kerak deb boshlagandir.

Shundan so'ng Shahid Eson o'zining fikrini yuqoridagi mutafakkirlar g'oyalari bilan qiyosan tahlil etadi va xulosalab "... har uch ta'rifda ham mukammallik va yo ohanglik ta'birlari ila birdek va bir xil tarbiya qabul qilinibdir. Bu tarbiyani qaysi muhit, qaysi jamiyatda bo'lsa ham butun insonlarga tadbiqi mumkindir va insonlarda ham bu nav' va bir xil tabiat va qobiliyat bordir. Insondag'i bu tabiat avsof(-sifatlar) va qobiliyatini yolg'uz ta'sir va tarbiya maydonga chiqarur. Ya'ni, bolaning moddiyat va ma'naviy uzviyatida azalda birlashtirilib bu kungacha yoshirin bir holda turgan qudratlarni yuzaga chiqarur, derlar. Bundan shu natija chiqodur. Tarbiya tabiiy, fitriy (tug'ma) iste'dodga o'zidan hech bir narsa qo'sha olmas, yangi hech bir narsa ham yarata olmas. Yolg'uz ul fitriy qobiliyatlarini yo'qolmasligiga, axloqi rangini o'zgarmasligiga xizmat qilar, deyishdir. Shundoq bo'lgandan keyin zamon, makon, jamiyat ila tarbiyaning aloqasi yo'q deyishdir. Ya'ni, tarbiya har vaqt va har yerda birdir, o'zgarmas degan so'zdir. Modomiki, insonning taraqqiy va takomilining moyasi o'z fitriy qibiliyatlaridir. Bu malakaning tabiat va qonuni o'rganilsa uni inkishof etdirmak yo'li ham kashf etildi demakdir. Insonning fardi (alohida) tabiatini ma'naviyasini ersa ilmi ruh tekshiradir. Binoalayh, butun tarbiya mas'alalarida ilmi ruhiyaga murojaat qilmoq kifoyadir degan so'z chiqar" deydi. U fikrining yakunida tarbiyaga nisbatan o'zining shaxsiy munosabatini ilgari surib, "Holbuki hech bir zamon hech bir yerda butun insonlarga qobili tadbiq bir tarbiyani tadqiqot va tajribalar shu vaqtgacha ko'rsatmadи. Har bir qavmning tarbiyasi boshqadir. Dunyoda qancha qavm bo'lsa,

shuncha tarbiya ham bordir. Birining hissiyoti ikkinchisi-ga o'xshamas. Musulmonlar sallaga, xristianlar shapkaga hurmat etganidek ikki mazhab, ikki qabila, xos ila avom oralaridagi tarbiya farqlarini doimo ko'rib turamiz.

Hech qaysimiz tug'ulgan vaqtimizda bir axloq bir badiiy his keltirgan emasmiz. Bularning hammasini muhitimizdan, jamiyatimizdan olgandirmiz. Jamiyatimizning to'g'ri deganini to'g'ri, egri deganini egri, ko'hlik (chiroyli) deganini, ko'hlik deb ketganmiz. Shubha yo'qki va bu jamiyatning ichida tug'ilmasdan boshqa bir jamiyat ichida dunyoga kelgan bo'lsa edik, albatta, ularning tarbiyalariga o'rganar, ularning tamoyillarini qabul qilar edik. Bu kun-da ko'rib turgan odatlarimiz, urflarimiz, axloqi hayotimiz, xulosa tarbiyamiz biz tug'ulmasdan burun ham bizning jamiyatda bor edi. Biz uni muhitning tasiri, tarbiyasi bilan keyin olg'onmiz. Mana shu hollarning bizdan burun bor bo'lg'onlig'i bizning fitratimizning, bizning xalqimizning maxsuli va asori emasligini ko'rsatmasmi?

Agar tarbiyamiz Aflatun, Shteyn va Chicherinning deganlaridek fitriy qobiliyatimizning maxsuli bo'lsa edi, ishtaha, mayl, g'azab, xavf va uyqumiz o'xshash, urf-odat, axloq va boshqalar hayotimiz ham o'z o'zidan hosil bo'lar edi. Holbuki, bu hissiyot biz muhitning ta'siri ila tarbiya ila hosil bo'lur. Savq tabiiyalarimizga hech o'xshamas. Shu mu-lohazalarimizni tarbiyaning manba e'tibori ila ijtimoiy bir kayfiyat bo'lib, ammo fardiy bir hodisa emasligiga inonti-radir<sup>1</sup> deydi. Shubhasiz, bu xulosalar juda teran va hamma zamonlar uchun ham alohida e'tiborga molikdir.

Shahid Esonning "Biz va maorif" nomli maqolasi "Eng issiq, qizg'in va qumli bir cho'lda tirikchilik qiladirk'on kishiga suv, salqin havo qancha kerakli bo'lsa bu kungi millatlar orasida yashayturg'on qavmlar uchun maktab va maorif ham shunchalik kerakdir" deb boshlanadi. "Asrimiz

<sup>1</sup> Шаҳид Эсон. Тарбия // Ҳақиқат, 1922 йил. 2-сон. 8-11 бетлар.

hayot yo'li ustinda yuksak, yorqin, qator tog'lar, keng va qu-turgan dengizlar yaratdi. Bizga o'xshash zaif qavmlar – na bu tog'lardan o'ta oladir, na u dengizlardan oshub murod sohiliga yeta oladur. Balki, bir bechora yaproq va yo somon cho'pidek qattiq va og'ir to'lqunlarning zabun va asiri bo'lib qoladur. Qo'shnilarimiz tabiat va hayot hodisalarining asror va qonunlarini topib chiqordilar va bu soyada tabiatga hokim bo'ldilar. Suvdan, havodan, o'tdan tilaganlaricha foydalanadilar. Ko'kda qushlar singari uchub yurmoq unlar uchun eng kichkina bir ish bo'lib qoldi. Ijtimoiy va ma'naviy hodisalarningda ayni sur'atda qonun va asrorini kashf etdilar. Bundan so'ng yillar va asrlarning orqasida bekinib turgan ijtimoiy, siyosiy voqealarni ko'z oldida turgani kabi ko'rma akka va unlarni idora qilmoqqa boshladilar. Bu sur'atla unlar moddiy va ma'naviy tabiat qonunlaridan tiganmas kuch va qudrat topdilar. Biz esak o'z dankasaligimizdan safolat va miskinat (qashshoqlik) balchig'iga botib qoldiq. Emdi yiqlgan yerimizdan turmoqqa tanamizda kuch qolgan emas. Asrlardan beri ko'klarimiz quyoshsiz va yulduzsiz qoldi. Qalin bir qorong'uliq ichida yo'limizdan adashdik. Har qadamimizda boshimiz qattiq bir toshga tegdi. Kunduzlarimiz qorong'u kechlarga aylandi.

Bir zamonlar bashariyatning yo'lboshchisi va rahbari edik. Butun dunyo bizning yoqqan mash'alalarimizdan yorug'liq olar edi. Bu kun esa bashariyatning shol (falaj) bo'lib qolgan bir qo'limiz. Shu holda faqat o'zimiz uchun emas, insoniyat uchun ham bu holimiz buyuk falokat sansasa kerak. Umumiy va insoniy g'oya, amallardan uzoqda qolishimizga yuragida ozgina bashariyat muhabbatি bo'lgan kishi chidab tura olmasa kerak. Mana ishning shu yog'idan qaraganda eng qonli yaralarimiz bilan qarshilashamiz va hayot ham belimizni bukkan og'ir bir yukka, boshimizda aylangan tegirmon toshiga o'xshab qoladir. Agar shuncha zamondan beri ko'zlarimizni hadsiz falokat

ichida ohib, bir oz so'ngra turli turli iztirob va alam bilan yumganimiz yetishgan bo'lsa, bundan keyin o'zimizga kelmog'imiz va har narsadan avval bizni jaholat va g'aflat girdobiga sudrab turgan qo'llarni qayirib sindirmog'imiz kerak edi. Shundan so'ng muallif maqsadga qo'chib, "Hayhot! Bu sharaf va saodatdan ham ko'p uzoqdamiz. Masalan, shu vaqtgacha ham maktab va maorifga hurkaklik va shubha bilan boqmoqdamiz. Bunlar – ma'naviyat hissiyotimizni buzaturg'on narsalardir, deb xayol qilamiz" deydi. Bu so'zlardan asosiy muddao o'tgan asrning 20-yillarida o'lkada bolsheviklar hukumatining mustahkamlanib boriishi bilan sovet maorifi ataylab asriy qadriyatlarga, ayniqsa, dinga qarshi keskin kurashni boshlab yuboradi. Mahalliy xalq esa sovet maktablaridan umuman voz kecha boshlaydi. Hatto, "burgaga achchiq qilib..." deganlaridek umuman ta'limdan bolalarini chiqarib ola boshlaydi. Shunday bir sharoitda Shohid Eson xalqqa murojaat etib, dindan ham asl maqsad ilmdir degan fikrlarni quyidagicha bayon etadi: Bizning qanoatimizga qaraganda o'r ganmoq bilan insonning iymoni zaiflashmas va inson dinsizlikka tushmas. Chunki, ulumning chin va birinchi ishi koinot haqida bir fikr va talqin egasi o'lmoqdir. Shu g'oyasiga bormoq uchun eng kichik hodisoti tabiatgacha mukatashif (kashf etish) jihatidan tadqiq qilinmoqdadir. Ayni zamonda ulumning mavzui tadqiqi bo'lgan hodisot bilan bu hodisotning ta-jalliyohi bo'lgan borliq, qiyosi mutlaqning biror oyati takvini(isboti)dir. Vujud asrori alayhga tegishlik ma'nolar bu tabiat sahifasida mundarij(mavjud)dur. Bu da'veoni Shayx Sa'diy hazratlari g'oyat yaxshi bir ifoda bilan ko'p avvaldan so'zlaganlari har kimga ma'lumdir:

"Bargi daraxthoyi sabz dar nazar xushyor,  
Har varaqash daftarisit ma'rifati korgar"... (Tangrini  
tanimoq uchun aqilli kishilarga og'och yaproqlari biror ki-  
tob manzilasindadir).

Agar haqiqiy dindorlik hissiyoti diniya bilan mutahsis o'lmoq bo'lsa, azimati alayhni eng a'lo his etganlar ulum bilan shug'ul va tabiat sahifalarini o'qimoq bilan mashg'ul bo'lganlar bo'lsa kerak. Holbuki, ulumning bu darajai a'losi hanuz bizda vujudga kelgan emas.


Mavjud ibtidoiy va rushdiy maktablarda esa dindorlik na da dinsizlik asosli sur'atda mavzui bahs o'linmas. Zero, otini "haqiqat qidirmoq" deb qo'yilgan eng muhim bir mas'ala marhum Ziyo poshoning "bu kichkina torozu bila u katta va og'ir yuklar tortila olmas" deganidek, ibtidoiy va o'rta darajali mакtabning eshididan kirolmas. Hatto, bizning eng katta san'atkor va dohiy shoirimiz Mirzo Bedil esa "Hasti betapish raft va asar nist nafasro, Faryod az in qofila burdand jarasro" (Borliq hayajon ila ketdi ammo nafas asarini ko'rsata olmadi, essizgina bu karvon-dan qo'ng'irog'ini olib qo'yishlar) demak bilan hech kim bolasiga bu salohiyatini bermaydir. Buning uchun ibtidoiy maorif jarayoni haqidagi shubhalar to'g'ri emasdir deb fikrini xulosalaydi. Shundan so'ng esa holatdan chiqish yo'lida o'zining mutafakkirona g'oyalarini ilgari surib, "... Emdi bizning maorif tashkilotining asoslari haqida o'ylag-anlarimizni qisqacha so'zlab o'tmoqchimiz. Bizda G'arb usuli bilan ochilmoqqa boshlagan yangi maktablar bilan eskidan beri davom qilib kelgan madrasalar bordir. Maktablar ovrupoga, madrasalarimiz moziyimizga ochilgan biror tuyruk va yo darichalarimizdir. Demak ki, maktablar tashkilot e'tibori ila ko'proq horijiydur. Tarix va an'analarimizga bir oz yovvoyi ko'rindur. Bu sababdan shaxsiyat-imizga eng lozim bichimni bermakdan ojiz qolsa kerakdir.

Bir mintaqaning o't va yo og'ochlari boshqa mintaqada ko'karolmaganidek masha'ri (shariat) vijdonla munosabati bo'limgan, yangi taomillar ham ko'pincha yashamas. **Bu taomillar yashasa ham taqlid maxsulidir. Taqlid esa taraqqiyidan uzoq va uning ziddidir. Bir qadam il-**

*gari ketolmay yerinda saymoq (turg'unlik) demakdir. Taraqqiy va takomil degan narsa moziyga suyanmoq tarixiy poyalarni bosib yuqorilamoq bilan bo'lur. Ta'rix poyalariiga iltifot qilmasdan yuqoriga sakragan kishilar avvalgi yerlariga qaytib tushmakda kechikmaganlar* (ta'kid bizniki – muallif).

Yanglish anglashilmasun, ijtimoiy hodisalarda “hatlama” yo'qdur demoqchi emasmiz ... Balki tarix va moziy, hayot va holimizga bir shakl bermak uchun bir vositadir demakchimiz. *Dunyoda har bir kishi uchun shuur va hofiza qancha kerak bo'lsa bir millat uchun ham moziy va tarix shuncha kerakdir. O'z moziysidan yuz o'girgan bir millat bilan aql va hofizasiga alvido degan bir kishi orasida hech bir farq yo'qdir. Chunki aql va yo moziy demak tajriba demakdir* (ta'kid bizniki – muallif). U vaziyatni quyidagi misol bilan tushuntiradi: “Bir yoy o'qi ota-dirgan vaqtingizda ipini keyinga qancha ko'p tortib so'ngra qo'yub yuborsangiz o'q ham o'shancha uzoqqa ketar, sur'ati ham ko'p o'lur. Bunga o'xshash takomil va taraqqiy yo'lchiligidagi moziyingizga qancha tislaniq, tarixningizga qancha orqa berib so'ngra ilgariga hatlasangiz, shuncha ko'p va ham sur'at bilan yo'l ola bilasiz.


Emdi madrasalarimizga kelaylik, bu muassasamiz tarixning eng uzoq, eng manzuvi go'shasiga chekilgan hayotdan hol va iste'moldan aloqasin uzgan jonsiz bir muassasadir. Bu muassasa yolg'uz boshig'a bizim hayotimiz va muvaffaqiyatimiz uchun lozim bo'lgan yarog' va qurollar bilan bizni tajhiz (qurollantirish) etmakdan ojizdur. Bizim hayoti ma'naviyamizni na yolg'uz G'arbdan kelgan, na da yolg'uz Sharqdan kelgan ziyo yorug'lata olur. Balki, har ik-kisining birlashmog'i bilan hosil bo'lgan bir nur yorug'lata olur deb o'ylaymiz. Bizning haqiqiy mutafakkir va murshidlarimiz muktab va madrasaning ittihodi imtiyoziyidan tug'sa kerakdir. Shu muhim nuqta ham unutilmasun



kim bizning bu mutolaalarimiz hirs (kultura) bilan aloqador ulumi ma'naviya madrasalariga oiddir. Yo'qsa madaniyatga mutaalluq ulumi masbita va moddiya madrasalari mavzui bahs emasdir. Chunki, ulumi moddiya zamon va makonga tobe' emasdir. Masalan, ... ikki karra ikki moziyda o'lson, holda o'lson istiqbolda o'lson to'rtdur. Hech bir vaqt zamon va yo makonga ko'ra o'zgarmas. Buning uchun moddiy ulumning ta'rix va moziy bilan munosabatlari yo'qdur<sup>1</sup>. Shahid Esonning yuqoridagi fikrlari uni nafaqat jadid taraqqiyparvarlari vakili, balki buyuk bir tafakkur sohibi va jadid mafkurasing shakllantiruvchilaridan biri edi, deb anglashimizga imkon beradi.

---

<sup>1</sup> Абдушахид Эсон. Биз ва маориф // Ҳақиқат. 1922 йил 10 августъ.  
№ 1. 4-6 б.



Komil HAYDAROV,

Samarqand viloyat pedagogika markazi professori,  
falsafa fanlari doktori (DSC)

## SHAXS KAMOLOTIDA MAFKURAVIY TARBIYANING O'RNI

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada shaxs tarbiyasining eng muhim yo'nalishlardan biri sifatida mafkuraviy tarbiya, uning o'ziga xos xususiyatlari, uzlusiz ta'lim tizimida mafkuraviy tarbiyaning asosiy yo'nalishlari hamda mafkuraviy tarbiyaviylik xususiyatlari to'g'risida mushohada yuritiladi. Shuningdek, jamiyat a'zolariga mafkuraviy ta'sir ko'rsatish samaradorligini o'lchash mezonlari tahlil qilinadi, barkamol insonlarni voyaga yetkazish – yangi O'zbekistonni barpo etishning muhim vazifalaridan biri ekanligi mantiqan dalillanadi.

Shaxs tarbiyasida eng muhim yo'nalishlardan biri mafkuraviy tarbiya bo'lib, u insonning hayot, uning ma'nosи, yashashdan maqsad, har bir odamning jamiyatdagi o'rni to'g'risidagi falsafiy tushunchalari, o'y-fikrlari va qarashlarining muayyan maqsadga qaratilgan jarayoni demakdir. Aslida, tarbiya jarayonining mazmun-mohiyatini boshdan oyoq g'oyaviy tarbiya tashkil etadi, desak to'g'ri bo'ladi. Chunki ta'lim tizimida ham, akademik ta'limda ham – barchasida beriladigan ta'lim va tarbiya jarayonlari o'quvchi, talaba va tinglovchilar dunyoqarashini kengaytirish, ularning ongi va qalbini ilmiy bilimlar bilan boyitish hamda jamiyat uchun, uning ravnaqi uchun kerak bo'lgan insoniy fazilatlarni shakllantirishga yo'naltirilgan bo'ladi. Bu esa, tom ma'noda mafkuraviy tarbiyaning asosi, poydevoridir. Shu boisdan mafkurasiz inson, shaxs, guruh, millat, xalq, jamiyat bo'lishi mumkin emas. Har qanday mafkuraviy tarbiyaning maqsadi – jamiyatdagi har bir fuqaroni, uning

timsolida har bir ijtimoiy qatlam, guruhni tarbiyaviy yuksaltirishdir.

Hukumatning 2019-yil 31-dekabrdagi 1059-son qarori bilan “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiysi”ning tasdiqlanishi yurtimizda mafkuraviy tarbiyani yuksaltirishda muhim ahamiyat kasb etdi. Konsepsiyada ta’kidlaniganidek, taraqqiyotning yangi bosqichiga qadam qo’ygan mamlakatimizda “tarbiya va ta’limni bir-biridan alohida ajratib bo’lmaydi, bu ikki jarayon o’zaro uyg’un, uzluksiz asosda tashkil etilgandagina odobli, axloqiy fazilatlarga ega, yuksak ma’naviyatli, shu bilan birga bilimdon, zukko, ruhan va jismonan sog’lom, keng dunyoqarash va tafakkurga ega, zamonaviy kasb-hunar egasi bo’lgan vatanparvar yoshlarni yetishtirib beradi” [2.2].

Mavzu doirasida 2021 yilning aprel oyi davomida keng miqyosda online so’rovnomalar o’tkazildi. Unda turli yosh va kasbga ega bo’lgan 758 nafar respondent ishtirok etdi. Ularning 35,4 foizi shaharda, qolganlari esa tuman markazlari va qishloqlarda istiqomat qiluvchi turli millat vakilariidan iborat bo’lib, aksariyat qismi, ya’ni 53,4 foizi oliy, 21,7 foizi o’rta maxsus, 15,6 foizi o’rta ma’lumotli shaxslardan iborat edi. Ishtirokchilar orasida ilmiy darajali olim va mutaxassislar, o’qituvchilar, shifokorlar, tadbirkorlar, magistrilar, talabalar va boshqa kasb egalari borligi so’rovnomaning miqyosi va salmog’idan dalolat beradi.

Ishtirokchilarga “Shaxs kamolotida g’oyaviy tarbiyaning o’rni va ahamiyati qanday?” degan savol berilganda ularning 80,3 foizi “juda muhim”, 13 foizi “unchalik muhim emas” degan javoblarni, qolganlari esa “g’oyaviy tarbiya zarur emas” va “bilmadim” degan javoblarni berishdi. Xulosa ma’lum – shaxs tarbiyasida g’oyaviy tarbiyaning ahamiyati katta.

Mafkuraviy tarbiyaviylik, eng avvalo, yuksak iymone’tiqod, Vatan va xalq oldidagi mas’uliyat, vatanparvarlik, fi-

doiylik kabi fazilatlar orqali namoyon bo'ladi. Sog'lom g'oyalari tarbiyasi – bu yuksak dunyoqarash va e'tiqod tarbiyasi, degan ma'noni bildiradi. Dunyoqarash – bu tartibga solingan, bir butun va ongli tizimga aylantirilgan bilim, tasavvur va g'oyalar majmui bo'lib, u har qanday shaxsni jamiyatda o'zining munosib o'rnnini egallahsga chorlaydi.

Keyingi yillarda shakllangan yangicha dunyoqarash yosh avlodda Vatanga sadoqatni, milliy qadriyat va an'analarga mehr-muhabbatni, o'z yaqinlariga mehribonlikni, hayotda tanlagan yo'li – kasbi, maqsad-maslagi va etiqodiga sodiqlikni nazarda tutadi. Yangicha fikrlash, yangicha tafakkur aynan milliy mafkura ruhida tarbiya topib, sayqallangan milliy ong, dunyoqarash va e'tiqod mahsuli demakdir. E'tiqod – bu ijtimoiy-psixologik tushuncha bo'lib, odamning muayyan qarash, ta'lilot, nazariya, hayotiy aqida, qadriyat yoki faoliyat tamoyillarini hissiy-emotional qabul qilish jarayonida shakllangan sobit fikr va tasavvurlar majmuini ifodalaydi.

Dunyoqarashi keng, yangicha fiklaydigan insonni kamol toptirish, albatta, ma'naviy-ma'rifiy targ'ibot ishlarini tamomila yangicha bosqichga ko'tarishni talab qiladi. O'zbekiston Prezidentining "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorida "ma'naviy-ma'rifiy ishlarni amalga os-hirishning samarali va ta'sirchan targ'ibot texnologiyalari hamda usullarini ishlab chiqish" [1.2] muhim vazifa sifatida qo'yilganligi beziz emas. Globallashuv jarayonlari tobora keskin tus olayotgan hozirgi davrda ma'naviyat omili xaloskor kuchga aylanishi zarur. Ayniqsa "milliy tiklanishdan milliy yuksalish yo'liga o'tayotgan O'zbekiston uchun ma'naviy tarbiya bugun har qachongidan ko'ra ham ahamiyatlidir" [5.4].

Yuqorida qayd qilingan so'rovnomalar jarayonida respondentlarga "Yoshlarga mafkuraviy (g'oyaviy) ta'sir

ko'rsatish sifati sizni qoniqtiradimi?" deb murojaat qilin-ganda ularning 53,6 foizi "yo'q", 41,3 foizi "qisman", qolgan 5,1 foizi "ha" degan javob bergenligi ham shu xulosani tas-diqlaydi.

Bizningcha, quyidagilar jamiyat a'zolariga mafkuraviy ta'sir ko'rsatish samaradorligini o'lchash mezonlari bo'li-shi mumkin:

- aholining siyosiy va huquqiy jihatdan bilimdonligi, ijtimoiy faolligi;
- jamiyat a'zolarining axloqan sog'lomlashganligi, fuqarolarning o'zlarini ruhan tetik va bardam tutishlari;
- har bir inson o'zligini anglash orqali mustaqil fikr yu-rita olishga qodirligi;
- vatanparvarlikning barcha ko'rinishlari kundalik maishiy turmushda namoyon bo'layotganligi;
- aholida o'z bilim saviyasini oshirishga intilishning namoyon bo'lishi, gazeta-jurnal, vaqtli matbuot, nashr ish-lariga talabning ortib borishi;
- butun jamiyat miqyosida ma'naviy va ijtimoiy muhit-ning sog'lom va barqarorligi;
- yot g'oyalarga murosasiz bo'lish, mustaqillik g'oyasi-ni har qanday sharoitda himoya qila olishga qodirligi.

Mamlakatimizda ma'naviy hayotni yangilash zarurati komil inson g'oyasini targ'ib qilish, uni uzlucksiz ta'lim ja-rayoni va mazmuniga chuqur singdirish bilan chambar-chas bog'liq. Komil inson g'oyasi – jismoniy va ma'naviy jihatdan mukammallikka erishgan, umuminsoniy va milliy qadriyatlarni o'zida mujassam etgan, mardlik, saxovat va ezgulikni vujudiga singdirgan, o'zining shaxsiy hayoti va mehnat faoliyati bilan barchaga ibrat bo'la oladigan olijanob inson g'oyasidir. Komil, ya'ni "odam va olam taqdiriga vijdon bilan qarash qobiliyati shakllangan" [4.250] insonni tarbiyalash butun faoliyatimizning pirovard maqsadiga aylanishi zarur.

Komil inson g'oyasi qadimdan odamlarni, xalqlarni ma'naviy yuksaklikka yetaklagan, ezgu ishlarga, hayotning barcha sohalarida muvaffaqiyat va yutuqlarga ilhom-lantirib kelgan. Barkamollikni maqsad qilib qo'yagan, bu haqda qayg'urmagan va unga intilmagan davlatning, millatning kelajagini tasavvur qilish qiyin. Bunday yondashuv millatni tanazzulga olib kelishi tayin. Insoniyat tarixi ushbu haqiqatni allaqachon isbotlagan. Komil inson yuksak vatanparvarlik xislatlariga ega bo'lgan, milliy g'ururi kuchli,adolatparvar, o'zining yurti va xalqi sha'ni, obro'si uchun kurashadigan, uni barcha narsadan ustun qo'yadigan fidoyi insondir. U o'zining bilimdonligi, yuksak madaniyati, xulq-atvori, erkin fikrlay olishi, kreativligi, ijtimoiy faolligi, ibrat namunasi bo'lishi orqali boshqalardan ajralib turadi. Har bir inson tabiatida barkamol bo'lishga intilish ishtyoqi bor. Komillikning o'zi nima? Komillik - bu mukammallikkidir. Mukammallik esa maqsadga muvofiqlidir. Agar har bir inson o'z oldiga aniq maqsad qo'yib, unga intilib yashasa va butun hayoti ana shu maqsadga muvofiq bo'lsa, uni yaxshi, e'tiqodli odam deyish mumkin. Demak, u komil, mukammal inson demakdir.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev yoshlari-mizning kelajagi haqida gapirar ekan, shunday iqtibosni keltiradi: "Abdurauf Fitrat bobomizning mana shu fikrlariga har birimiz, ayniqsa, endi hayotga kirib kelayotgan yoshlarimiz amal qilishlarini men juda-juda istardim. Mana, ulug' ajdodimiz nima deb yozganlar: "Xalqning aniq maqsad sari harakat qilishi, davlatmand bo'lishi, baxtli bo'lib izzat-hurmat topishi, jahongir bo'lishi yoki zaif bo'lib xorlikka tushishi, faqirlik libosini kiyib, baxtsizlik yukini tortishi, e'tibordan qolib, o'zgalarga tobe va qul, asir bo'lishi ularning o'z ota-onalaridan bolalikda olgan tarbiyalariga bog'liq". Qarang, qanday bebafo, oltunga teng so'zlar!" [3.296].

Bugun mamlakatimiz ta'lim tizimini tubdan isloh qilish, uni xalqaro andozalar darajasiga olib chiqish eng avvalo jismonan sog'lom, ma'nан barkamol, bir so'z bilan aytganda, yuksak ma'naviyatli avlodni tarbiyalash orqali amalga oshiriladi. Zero, fazilatli inson – komil insondir. Bunday inson nafs balosini, huzur-halovatga moyillikni yenga oladigan irodali insondir. Odamning ma'naviyatini yuksaltirish orqali uni komil va mukarram inson marta-basiga ko'tarish mumkin. Inson qanday fazilat – axloqiy, madaniy sifatga ega bo'lsa, ularni namoyon etsa, qadr-qimmati ham shunchalik yuqori bo'ladi.

Taniqli olim M.Quronov ma'naviy-ma'rifiy ishlarni ilmiy izlanishlar bilan oziqlantirish zarurligini ta'kidlab, shunday deydi: "...ma'naviyat va ma'rifikat tizimi millatimizning ilmiy bilimlarini oshira borishni ham ko'zda tutadi. Bu jamiyatning umumintellektual saviyasi (tarix, falsafa, mu-siqa, siyosat, adabiyot, menejment va boshqa bilimlari)ni oshiradi. Boshqacha qilib aytganda, har bir o'rta arifmetik fransuz, nemis, amerikalik, yapon bilgan umumiyl bilimlarni har bir o'zbek ham bilishi kerak. Demak, ma'rifikat (intellectual targ'ibot) xalqni maktab, institut, universitetdan keyin ham uzluksiz o'z ustida ishlashiga, zamonaviy bilimlardan xabardor bo'lib borishiga xizmat qiladi. Chunki bilimli jamiyatgina kuchli jamiyat bo'la oladi" [6.298].

Har qanday shaxsning shakllanishi, avvalo, ta'lim tizimi qanday tashkil etilganligi va uning samaradorligi bilan belgilanadi. Shunga ko'ra shaxsn tarbiyalash va uni kamol toptirishning ustuvorligi ta'minlanadi. Uzluksiz ta'lim va maqsadli tarbiya orqaligina komillik sifatlariga ega bo'lgan barkamol insonlarni voyaga yetkazish mumkin. Bu esa yangi O'zbekistonni barpo etishning muhim vazifalari-dan biri hisoblanadi.

## **Foydalaniłgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomil-lashtirish chora-tadbirlari to'g'risida". O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. – T: Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. – 2021 yil 26 yanvar. 07/21/5040/0243-son.
2. "Uzlucksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida". O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. – T: Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. – 2020 yil 3 yanvar. 09/20/391/0777-son.
3. Mirziyoyev Sh.M. "Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz". – T: "O'zbekiston", 2017.
4. Ma'naviyat: asosiy tushunchalar izohli lug'ati. – T: G'G'ulom nomidagi NMIU, 2009.
5. Meliboev A. Ma'naviyat – milliy yuksalish poydevori // "Yangi O'zbekiston", 2201 yil 31 mart, 64 (320)-son.
6. Quronov M. Bizni birlashtirgan g'oya. – T: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2016.

**Ilhom SUVANOV,**

*Respublika Ma'naviyat va ma'rifat Markazi huzuridagi  
Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti Ilmiy kotibi, falsafa  
doktori(PhD)*

## **"AVESTO"DA AKS ETGAN ENG MUHIM G'OYA**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada "Avesto" xalqimizning qadimiy yodgorligi sifatida o'zining buniyodkorlik g'oyalari bilan hozirgi davr odamlarining ma'naviy-ruhiy yuksalishi, kamol topishining, ularning o'ziga xosligi va milliy o'zligini saqlab qolishining muhim omili ekani asoslاب berilgan.

Vatanimiz va xalqimiz tarixida ajdodlarimiz ma'naviy merosining muhim tarkibiy qismi bo'lgan Zardushtiylik dini va uning muqaddas kitobi "Avesto"ning o'rni va ahamiyati nihoyatda kattadir.

Mustaqillik sharofati bilan tariximizni xolisona o'rganish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. O'zbek xalqi jahon madaniyati tarixiga munosib hissa qo'shgan xalqlardan biridir. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev qayd etganidek, "xalqimizning bebaho qadriyatlari va boy davlatchilik tajribasini ifodalaydigan boy merosimizni o'rganish"<sup>1</sup> davr talabidir.

Darhaqiqat, asrlar silsilasida milliy ruhiyatimiz va o'zligimizning ma'naviy-axloqiy manbai bo'lib kelayotgan madaniy-tarixiy merosimiz "Avesto"dir. Ajdodlarimizning nodir kitobini milliy o'zlikni anglash to'g'risidagi ma'naviy-axloqiy qarashlar yig'indisi, desak to'g'ri bo'ladidi. "Avesto"da, avvalo, "ezgu niyat, ezgu so'z va ezgu amal"

<sup>1</sup> Мирзиёев Ш. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. Асарлар. I-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон, НМИУ, 2017. – Б. 5.

orqali insonning axloqiy komilligi, ma'rifiy yetukligi masalalari ustuvor qo'yiladi. Bu o'ziga xos ijtimoiy-falsafiy mazmunga ega bo'lganligi sababli ham xalqimizning milliy o'zligini anglashida muhim omil vazifasini bajaradi.

Zardushtning "Ezgu niyat, ezgu so'z va ezgu amalni olqishlayman! Niyat, so'z va amallar ichidan men ezgu niyat, ezgu so'z va ezgu amalni tanlayman. Men barcha qabih andisha, qabih so'z va qabih amaldan yuz buraman"<sup>1</sup>, – degan hikmatli so'zlari bugungi kunda xalqimiz milliy o'zligini anglashda katta tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'layotganligini alohida ta'kidlash lozim deb o'ylaymiz.

Tadqiqotchilarning fikricha "Avesto"da diniy ta'lomidan tashqari falsafa, siyosat, axloq, huquq, hayot, turmush tarzi, yerni, suvni, o'simlik va hayvonot dunyosini, atrof-muhitni asrab-avaylash, farzandlar tarbiyasi, ezgulik, bag'rikenglik, ma'naviyat, ma'rifat kabi masalalar ham keng o'rinni oлган. "Avesto"da borliqning yaxlitligi va bir butunligi, inson hayotining tabiat bilan uyg'unligi masalasi odamning ruhiy olamiga chambarchas bog'liq holda ko'rsatilgani ko'p narsani anglatadi. Bu holat insonning ma'naviy dunyosini shakllantirishda atrof-muhit qadim zamonalardan buyon qanday kuchli ta'sir o'tkazib kelganiga yana bir bor e'tiborimizni jalb qiladi<sup>2</sup>.

"Avesto"da olamning yaratilishi, insonning xalq bo'lib kamol topishi, ezgulik va bunyodkorlik uchun yovuzlik va buzg'unchilik kuchlari bilan kurashi, ozodlik, erkinlik, taraqqiyot yo'lidagi orzu-niyatlari o'z ifodasini topgan. "Avesto" xalqimizning qadimiy yodgorligi sifatida o'zing bunyodkorlik g'oyalari bilan hozirgi davr odamlarining ma'naviy-ruhiy yuksalishi, kamol topishining, ularning

<sup>1</sup> Авесто: тарихий-адабий ёдгорлик. Асқар Маҳкам таржимаси. – Тошкент: F.Фулом номидаги нашриёт матбая ижодий уйи, 2016. -Б. 111.

<sup>2</sup> Каримов И.А. "Юксак маънавият – енгилмас куч". – Тошкент: Маънавият, 2008. – Б. 33.

o'ziga xosligi va milliy o'zligini saqlab qolishining muhim omilidir. "Avesto"da "pokiza suv va yonib turgan olov qarshisida gustohlik qilgan zotning do'zaxda topgusi jazosi bu dunyoning jamiyki dardu ozorlaridan mudhishdir"<sup>1</sup>, degan fikr mavjud. Ruhiy pokizalik g'oyalari o'zbek xalqining ham turmush tarzi, urf-odatlari, ma'naviy-ruhiy kechinmalari ni o'zida mujassam etadi va ushbu g'oyalalar bugungi kun-da xalqimizning milliy mentaliteti, o'ziga xosligini saqlab qolishda va milliy o'zligini teranroq anglashlariga yordam beradi deb o'yaymiz.

Zardushtiylik dinini o'rganish bo'yicha tadqiqot ishlari olib borgan olimlarning fikricha, zardushtiylik dini juda chuqur ildiz otgan bo'lib, undagi ko'p narsalar yana-da qadimiylar e'tiqodlar va odamlar qadimgi turmush tarzi qoldiqlari bilan bog'liqdir. Chunki zardushtiylik insoniyatning eng qadimiylar tizimlashtirilgan dini bo'lib, undagi olamga bo'lgan ibtidoiy diniy-falsafiy munosabat tubdan o'zgaradi va Zardusht tomonidan amalga oshirilgan dinning islohoti va tizimga solinishi tufayli aniq ma'naviy yo'nalish oladi. Professor G.T.Maxmudova to'g'ri yozganidek, "Zardusht diniy ongning turli jihatlarini olamning yaratuvchisi obrazi – yagona iloh Ahura Mazda umumlashtiradi. Ushbu faoliyat tufayli Zardusht ko'z o'ngimizda, insoniyatning diniy-falsafiy jihatdan yuksalishi, olamni biliш jarayonining kengayishi va chuqurlashishiga imkoniyat tug'dirgan buyuk islohotchi, faylasuf va donishmand sifatida namoyon bo'ladi"<sup>2</sup>.

"Avesto"da dunyoning moddiy asosi deb hisoblangan tuproq, havo, suv muqaddaslashtirilgan. Profesor I.Xo'jamurodov qayd etganidek, "Ajodolarimiz tabiatni

<sup>1</sup> Авесто: тарихий-адабий ёдгорлик. Асқар Маҳкам таржимаси. – Тошкент: Ф.Үулом номидаги нашриёт матбаса ижодий уйи, 2016. -Б. 122.

<sup>2</sup> Махмудова Г. Авестонинг фалсафий моҳияти. – Тошкент: Ношир, 2015.-Б.-40.

avaylab, uni ko'z qorachig'idek asrashgan. Tuproq, suv, havo, olov muqaddaslashtirilib, e'zozlangan"<sup>1</sup>.

O'zbekiston olimlari (A.Asqarov, A.Sagdullaev, E.Rtveladze, I.Jabborov, M.Is'hoqov, G.Maxmudova va boshqalar) Avestoning eng qadimgi qismlari Baqtriya, Farg'ona, Katta Xorazm, Marg'iyona va Sug'd aholisining dini va turmush tarzida aks etganligini isbotlab berdilar. Arxeologik va lingvistik tadqiqotlar, ming yillar davomida xalqimiz orasida saqlanib kelayotgan ayrim urf-odatlar va marosimlar zardushtiylik dinining vatani Xorazm ekanligiga shubha qoldirmaydi va bu fikrning to'g'rilagini zardushtiylik dini bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlari olib borayotgan ko'pchilik tadqiqotchilar qollab-quvvatlayotganliklari quvonarli holdir.

Zardushtiylik falsafasida yovuzlik jamiyatni parchalashga, odamlar o'rtasidagi insoniy munosabatlarni buzishga qaratilgan o'ta salbiy harakatlar ekanligi ta'kidланган, jaholat ayovsiz tanqid qilingan. Akademik A.Asqarov to'g'ri yozganidek, "bu diniy qarash, avvalambor, sug'orma dehqonchilik madaniyatiga mansub o'troq aholi orasida keng tarqalgan. Chunki, zardushtiylik falsafasida tabiatning to'rt unsuri muqaddaslashtirilgan: quyosh (olov), yer (unumdon tuproq), suv – inson hayotining qon tomiri sifatida jamiyatga hayot bag'ishlaydi; havo – inson salomatligining betakror bulog'i sifatida ruhan va jismonan tetiklik baxshida etadi"<sup>2</sup>.

Ko'pchilik tadqiqotchilarning fikricha (A.Asqarov, I.Jabborov, M.Is'haqov, T.Maxmudov, G.Maxmudova, S.Otamuratov, H.Xomidiy, I.Xo'jamurodov va boshqalar) zardushtiylik falsafasida ezgulik yovuzlikning har qanday ko'rinishiga qarshi kurashda albatta g'olib chiqadi, odamlar esa

<sup>1</sup> Хўжамуродов И. Ислом, миллийлик, қадрият. – Тошкент: Фан. 1993. – Б. 8.

<sup>2</sup> Асқаров А. Ўзбек халқининг келиб чиқиш тарихи. – Тошкент: Ўзбекистон, 2015.-Б. 544.

farog'atda yashaydi, degan fikr markaziy o'rin egallaydi. Zardushtiylik diniy mansublik inson uchun, uning kelajagi uchun zaruriy tabiiy unsurlarini muqaddaslashtirib, to'rt buyuk tabiat ne'matlarini avaylab-asrashga, ularni qadriga yetish va iflos qilmaslikka, to'g'ri fikr, to'g'ri so'z, to'g'ri amal inson botiniy dunyosining kundalik hayot amali bo'lishligiga chorlaganligi sababli bugungi avlodlar uchun ham qadrlidir.

Biz avestoshunos olima G.Maxmudovaning quyidagi fikrlariga qo'shilamiz. "Zardusht diniy e'tiqodni va unga xos bo'lgan ko'p asrlik marosimlar, kul'tlar va an'analarni keskin tarzda rivojlantirdi va isloh qildi, natijada zardushtiylik dini o'zgarib, tizimlashgan yagona diniy e'tiqodga aylandi, bu jarayon monoteizmning qaror topishida muhim bosqich bo'lgan"<sup>1</sup>.

Umumlashtirib aytganda,

birinchidan, "Avesto" dunyodagi eng qadimgi dinlardan biri – zardushtiylik ta'limotining muqaddas yozuvi bo'lib, ajdodlarimizning miloddan oldingi birinchi ming yillikka oid tarixi, tafakkuri rivojining qomusiy majmudasidir;

ikkinchidan, bu kitob nafaqat diniy, balki keng ma'nda tarixiy va adabiy manba xalqimiz tili, alifbosi, madaniyati, ijtimoiy falsafasi, adabiyoti, san'ati manbaisidir;

uchinchidan, Avesto ma'lumotlari o'zbek xalqi etnogenezini o'rganish uchun ham noyob manba hisoblanadi;

to'rtinchidan, unda dastlabki falsafiy qarashlar bilan diniy-afsonaviy tasavvurlar uyg'unlashib ketadi. Ezgulikni barqaror qila oladigan, kurashchan,adolatparvar insonni shakllantirish g'oyasi markaziy o'rinni egallaydi;

beshinchidan, asarda axloqiy qarashlarning umumiyl manzarasi Markaziy Osiyo xalqlarining eng qadimgi

<sup>1</sup> Махмудова Г. Авестонинг фалсафий моҳияти. – Тошкент: Ношир, 2015.-Б.-86.

zamonlardan islom davrigacha bo'lgan tarixini qamrab oladi;

oltinchidan, tarixiy yodgorlikda dehqonchilik va mo'l-ko'lchilikning asoslari bo'lgan yer, suv, havo, olov, tog'lar, quyosh, atrof-muhitni asrash va e'zozlash kabi g'oyalar ulug'lanadi;

yettinchidan, zardushtiylikning muqaddas kitobi "Avesto" ta'limoti asosida tarbiyalangan xalqlarda shakllangan turmush tarzi, diniy e'tiqodi, milliy qadriyatlarning uyg'unlasha borishi fuqarolarimizning milliy o'zligini anglashiga poydevor bo'lib xizmat qilmoqda.

### **Foydalaniłgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. *Avesto: tarixiy-adabiy yodgorlik. Asqar Mahkam tarjimasi. – Toshkent: G'G'ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi, 2016.*

2. *Asqarov A. O'zbek xalqining kelib chiqish tarixi. – Toshkent: O'zbekiston, 2015.*

3. *Karimov I.A. "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch". – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.*

4. *Maxmudova G. Avestoning falsafiy mohiyati. – Toshkent: Noshir, 2015.*

5. *Mirziyoyev Sh. Milliy taraqqiyot yo'llimizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. Asarlar. I-jild. – Toshkent: O'zbekiston, NMIU, 2017.*

6. *Xo'jamurodov I. Islom, milliylik, qadriyat. – Toshkent: Fan. 1993.*

**Mansur MUSAYEV,**

*Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti bo'lim boshlig'i, siyosiy fanlari bo'yicha falsafa doktori, (PhD)*

## **NAVRO'Z – AJDODLARIMIZNING BEBAHO MA'NAVIY QADRIYATI**

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada Navro'z ajdodlarimizning bebaho ma'naviy qadriyati to'g'risidagi fikrlar ilmiy tahlil etilgan. Shuningdek, maqolada Navro'z ming yillar davomida ma'naviy hayotimizning ko'rku ziynati bo'lib kelayotgan bu ajoyib, xosiyatli bayram qadriyatlari va an'analari bizni ona tabiatni sevish va ardoqlashga, hayot gultoji bo'l mishinsonni qadrlashga, Vatanga muhabbat va sadoqat bilan xizmat qilishga o'rgatishi yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Navro'z, Vatan, qadriyat, tabiat, bahor ma'naviyat, yangilanish, ezungulik, muhabbat va sadoqat.

Jonajon yurtimizga barchamiz orziqib kutgan, go'zal va betakror fasllar kelinchagi – Navro'zi olam tashrif buyurmoqda. Bahor havosi qalblarimizga o'zgacha tarovat, iliqlik olib kiradi. Yangilanish, ezungulik va yasharish faslidan zavqu shavqqa to'lamiz. Ming yillar davomida ma'naviy hayotimizning ko'rku ziynati bo'lib kelayotgan bu ajoyib, xosiyatli bayramni juda katta tantana bilan kutib olishga odatlanganmiz. Shuni ta'kidlab o'tish lozimki, Navro'z qadriyatlari va an'analari bizni ona tabiatni sevish va ardoqlashga, hayot gultoji bo'l mishinsonni qadrlashga, Vatanga muhabbat va sadoqat bilan xizmat qilishga o'rgatadi. Shuni ta'kidlab o'tish lozimki, Navro'z qadriyatlari va an'analari bizni ona tabiatni sevish va ardoqlashga, hayot gultoji bo'l mishinsonni qadrlashga, Vatanga muhabbat va sadoqat bilan xizmat qilishga o'rgatadi. Ushbu ayyomni

mamlakatimizda keng nishonlash maqsadida 2023 yil 1 mart kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "**Navro'z umumxalq bayramiga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish to'g'risida**"gi qarori qabul qilindi. Mazkur qarorda bahor va tabiat uyg'onishining timsoli, sharqona yangi yilning boshlanishi bo'lgan Navro'zi olamni baland ruh va katta shodiyona bilan nishonlash azal-azaldan el-yurtimiz uchun go'zal an'ana hisoblanishi, xalqimizning ko'p asrlik ezgu qadriyatlarini, uning orzu-intilishlarini o'zida mujassam etgan ushbu qutlug' ayyom mustaqillik yillarda mamlakatimizda yashayotgan turli millat va elatlarga mansub barcha vatandoshlarimiz uchun umumxalq bayramiga aylanganligi, Navro'zi olamning ruhi va falsafasida mujassam bo'lgan yaxshilik va bag'rikenglik, ahillik va hamjihatlik, atrof-muhitni ko'z qorachig'idek asrab-avaylash kabi oljanob g'oyalar Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan tarixiy o'zgarishlarning maqsad va mazmuniga to'la hamohang ekanligi qayd etilgan.

Shuningdek, qarorda hozirgi kunda jamiyatimizda hukm surayotgan tinchlik, do'stlik va birodarlik tuyg'ularini mustahkamlash, xalqimiz, avvalo, yosh avlodimiz qalbi va ongida Vatanimizning buguni va kelajagiga daxldorlik tuyg'usini kuchaytirishda Navro'z bayramining ahamiyati tobora ortib borayotganligi el-yurtimiz yasharish va yan-gilanish, mehr-oqibat fasli sifatida e'zozlaydigan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan xalqaro bayram deb e'tirof etilgan Navro'zning ma'naviy hayotimizdagi ulkan o'rni va ta'sirini inobatga olib, ushbu ayyomni milliy qadriyat va urf-odatlarimizga uyg'un tarzda, har tomonlama munosib darajada nishonlash maqsadida 2023 yilgi Navro'z umumxalq bayrami mamlakatimizda "**Har kuning Navro'z bo'lsin, jonajon O'zbekistonim!**" degan bosh g'oya asosida umumxalq sayillari shaklida ko'tarinki ruh va yuksak saviyada o'tkazish belgilangan. Albatta, mana

shu betakror va dilbar faslda barchamiz o'zimizni yasharib ketgandek, vujudimizga yangi kuch-g'ayrat, azmu shijoat kirgandek his etamiz. Navro'z munosabati bilan inson o'zini tabiat farzandi, uning ajralmas bir qismi deb his etishini ifoda etadigan, atrof-muhitni, ona zaminni asrab-avaylashga, bugungi tinch, erkin va farovon hayotni qadrlab, uni himoya qilib yashashga barchamizni chorlaydi.

Navro'z bayrami qadimdan tabiatning uyg'onish ramzi sifatida keng miqyosda nishonlanib kelinadi. Ushbu bayramni xalqimizda birgalikda nishonlash odad tusiga kirgan. Navro'zi olam o'lkamizga qadam qo'yishi bilan har birimiz yon-atrofimizdag'i mavjudotning uyg'onishi, kurtaklar va gul-chechaklar ochilishi, yero ko'k bag'rida yuz berayotgan o'zgarishlardan, bahor nafasidan bahramand bo'lamiz, ona tabiatimizning uzviy va ajralmas bir qismi ekanimizni beixtiyor chuqur his qilamiz.

Navro'z azaldan inson ruhiyatida yangilanish, yosharish yaratuvchi bayram sifatida qabul qilinib o'zgacha kayfiyat bilan kutib olingan, hozir ham shunday. Bunda oila, qon-qarindoshlar jamlanib, dasturxonga ko'klam taomlari tortilib, birdamlikda, bir-birlariga mehr ulashib, o'tkaziladi. Demakki, bayram bola xotirasida muhrlanadigan hodisa va unda oila muqaddasligiga, og'a-ini, opa-singilning mehr ulashish kabi bardavom qadriyatlariga nisbatan ishonch mustahkamlanadi. Ushbu yig'in insonda quvvatni yangilaydi.

Bugungi kunda o'zining bir necha ming yillik tarixga ega ushbu bayram ajdodlarimiz tomonidan sharqona yangi yil sifatida keng nishonlab kelinmoqda. Inson va tabiat o'rtasidagi mushtaraklik, dehqonchilik mavsumining boshlanishi Navro'z shodiyonalarida o'z ifodasini topgan. Shuning uchun ham asrlar osha bu bayram boqiy qadriyat, milliy marosim sifatida yashab kelmoqda.

Navro'z kunlarida xalqmizning betakror mehr oqibati va bag'rikengligi tufayli yordamga muhtoj insonlar, keksal-

ar, nogironlar va kam ta'minlangan oilalar holidan xabar olish, ularga beg'araz ko'mak berish, jamiyatda o'zaro hurmat, do'stlik va hamjihatlikni kuchaytirishga qaratilgan savob ishlar, xayriya tadbirlari va ommaviy hasharlarni amalga oshirish azaldan an'anaga aylangan.

Navro'z asosan bahoriy teng kunlik 21-22 martdan boshlab nishonlangan va bir hafta, o'n kun, hatto, ba'zi joylarda bir oygacha davom etadigan bayramdir. Navro'z bayrami – bu dehqon, cho'pon, hunarmand, qo'yingki, hammaning haqiqiy umumxalq bayramidir. Navro'z bayrami juda qadimiy bayram sanaladi. Mutaxassislarning fikri-cha, bu bayramning tarixi qariyb 4-4,5 ming yillik, degan taxminlar mayjud. Yurtimiz tarixi va madaniyatiga oid qimmatli manbalar hamda Navro'z bilan bog'liq ko'plab ma'lumotlar Markaziy Osiyo tarixi bo'yicha mukammal manba hisoblanmish "Avesto", Abu Rayhon Beruniyning "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar", Abulqosim Firdavsiyning "Shohnoma", Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'atit-turk", Abu Bakr Narshaxiyning "Buxoro tarixi" asarlarida Navro'z tarixi bilan bog'liq ma'lumotlar keltiriladi. Ularda qayd etilishicha, Navro'zni bayram sifatida nishonlash miloddan avvalgi VI-V asrlarda boshlangan.

Bu mutafakkir Abu Rayxon Beruniy navro'z bayrami haqida shunday yozadi: "Bu kun – farishtalar qadrlaydigan kundir, chunki shu kuni farishtalar yaratilgan. Bu kunni payg'ambarlar ham qadrlaydi, chunki shu kuni quyosh yaratilgan. Bu kunni shohlar ham qadrlaydilar, chunki bu kun yilning birinchi kundir". Agar biz adabiyotimiz tarixiga nazar tashlasak, Navro'z haqidagi birinchi g'azalni XIV asr shoiri Rabg'uziy yozganligi guvohi bo'lamiz. Bu o'zbek adabiyotidagi ilk g'azal hisoblanadi. Navro'z, boychechak haqidagi birinchi she'rni 20 asr o'zbek adabiyotining yorqin shoiri Cho'lpon yozgan.

Navro'z bahor faslining boshlanishi, aniqrog'i tengkun-

lik tantanasidir. Boshqacha aytganda, Navro'z falakiyat ilmi bilan bog'liq. Chunki rivoyatlardagi "Hamal", "Burj", "Yil boshi" kabi tushunchalar bevosita Yer va uning Quyosh tizimidagi harakatiga, vaqt ni belgilashga borib taqaladi. Navro'z, yangilanish, yangi kun, yangi hayot ramzi bo'lisl bilan birga, poklik va shodlik, ma'naviyat va birdamlik tantanasidir. Shunday ekan, Navro'zi olam doimo xalqimiz uchun milliy iftixor, milliy g'urur, milliy o'zlikni anglash va hamji-hatlik ramzi bo'lib insoniy tuyg'ularni yanada yuksaltiruvchi, ularni birlashtiruvchi hamda xalqimiz qalbi va ongida yagona Vatan tuyg'usini mustahkamlovchi birdamlik bayrami sifatida keng nishonlanib kelinadi. Navro'z koinot va tabiat qonuniyatları, ya'ni quyoshning hamal burjiga kirishi, kecha va kunduzning tengligi va kunning uzaya boshlashi, tabiatda jonlanish yuz berishi, bahorning kelishi bilan bog'liq tarzda ilmiy asoslanib belgilangan. Bu esa har qanday jamiyatda "yil boshi" (qachon kelishidan qat'i nazar) Navro'zni tabiat bayrami sifatida nishonlash uchun asos bo'lgan. U "yil boshi" sifatida belgilanib, unga "Navro'z" (ya'ni, "Yangi kun") degan nom berilgan, deb taxmin qilish mumkin. Navro'z bayrami elimizda obodlik, tinchlik-totuvlik, millatlar o'zgarishlik, bag'rikenglik ramzi, qalblarimizda ezgulik uyg'otadigan haqiqiy sharqona bayram bo'lib qolaveradi.

Xalqimizga xos an'ana va fazillatlarni o'zida mujassam etgan Navro'z kelishi bilan tabiat uyg'ona boshlaydi, yer bag'ridagi barcha jonzotlar, o'simlik va o't-o'lanylarning jonlanishi ro'y beradi. Bunday yangilanish jarayonining boshlanishi Quyosh yili hisobida 21 martga to'g'ri kelgan va birinchi yangi kunni Navro'z deb ataganlar. Navro'z bayrami yurtimizda istiqlol quyoshi porlagan onlardayoq qaytadan chiroy ochdi. U bugun hayotga muhabbat ramzi sifatida ardoqlanadi. Bahor chechaklarini qanotida olib kelgan Humo qushi yurt kezganida olam o'zgacha munavvar bo'lganini dildan his etmagan kishi topilmasa kerak. Navro'z bayra-

mi butun yurtimizda keng nishonlanishi boqiy an'anaga aylanib qoldi. Navro'z bayramiga payvasta xalq marosimlari, urf-odat va an'analarini milliy tuyg'ularimizni yanada jo'sh urdiradi. Navro'z bayrami kuni shaharu qishloqlarimizda xalq sayilga chiqishini kuzatsangiz dilingiz yayraydi. Shundoq dorilonomon kunlarga yetkazgani uchun yaratganga shukronalar aytasiz. Har yili Navro'z bayrami oldidan tevarak-atrofimizni hashar yo'li bilan obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish ham o'ziga xos an'anaga aylangan. Shuni alohida qayd etish joizki, xorijda Navro'z bayrami va uni nishonlashga bo'lgan qiziqish tobora ortib bormoqda. Fransiyalik temurshunos olim Frederik Bressand: "YuNESKOning qarorgohida tashkil etilgan Navro'z bayramida ishtirok etish menga juda katta zavq bag'ishlaydi. Navro'z - bu O'zbekiston va O'rta Osiyo xalqlarining muhim va sevimli bayramidir. Bu bayramni bir necha bora O'zbekistonda nishonlash menga muyassar bo'lganidan nihoyatda baxtiyorman. Toshkentdan maxsus kelgan musiqiy guruh sharofati bilan Parij jamoati shu kunlarda O'zbekistonda o'tayotgan ulkan bayram tantanalaridan mamnun ekanligini alohida ta'kidlab o'tgan edi.

Shuningdek, mazkur bayram ummon orti AQShda ham mutnazam katta shodiyona sifatida katta qiziqish bilan nishonlanishini qayd etish lozim. AQShda ham Navro'z bayrami ancha yillardan beri yurtdoshlarimizni ruhan birlashtirish, vatan hissini ularga ularishishdek ezgu maqsad yo'lida xizmat qilib kelmoqda. Nyu-York shahrining Manhattan mavzesida ham Navro'z o'zgacha tantana bilan nishonlandi. Har yili bo'lib o'tadigan bayramda mehnmonlarning katta qismini O'rta Osiyoning turli mamlakatlardan kelgan yurtdoshlar va ularning do'stlari hamda oila a'zolari bilan birgalikda tashkil etiladi. Ularning asosiy qismi o'zbekistonlik yurtdoshlarimizdan iborat bo'lsa-da, tadbirda bizning urf-odatlarimiz, an'analarimiz, o'yinlar-

imiz va aynan boshqa xalqlarda uchramaydigan bir-biridan qiziq bayram marosimlarimiz xorijliklarda o'zgacha tasavvur uyg'otayotganligi albatta bizni quvontiradi.

Shu o'rinda, tadbirga boshqa xalq vakillari ham katta qiziqish bilan qatnashishadi. Mazkur tadbirda mehmonlar uchun maxsus tayyorlangan somsa, palov kabi bir qator o'zbek milliy taomlari, turli tuman shirinliklar va sumalak tortiq etiladi. Mehmonlar o'yinlarda faol qatnashib, turli-tuman sovg'alarga ham ega bo'lishadi. Navro'zni shahona taomi sumalakni tadbir uchun tayyorlash AQShdag'i O'zbeklar jamiyatining faol a'zosi Sanobar Boboxonova tomonidan amalga oshirilishini aytib o'tish lozim. Ummam olganda, Navro'z asrlar mobaynida biz uchun ezguilik timsoli, inson qalbida bunyodkor, yorug' orzu-umidlar kurtak ochadigan fasl bo'lib kelgan. Navro'zi olam Vatanimizda yashayotgan barcha millat va elat vakillari ya'ni butun xalqimiz uchun eng suyukli bayram sifatida yaxshi qo'shnichilik, xamkorlik, madaniyatlaroro muloqotlarni rag'batlantirishga xizmat qilib kelmoqda. Navro'z insoniyat qadriyatlarining muhim qismi bo'lish bilan birga, O'rta Sharq, Kavkaz, O'rta va Janubiy Osiyo va boshqa mintaqaga xalqlari uchun alohida ahamiyatga ega bo'lgan kunlardan biri hisoblanadi. Navro'z o'zining o'lmas ruhi, umuminsoniy g'oyalari bilan bashariyat hayotidan tobora chuqur o'rinn egallab kelmoqda. Xulosa qilib aytganda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev qayd etganidek: "Barchamizga Navro'z ayyomi yurtimizga tinchlik-omonlik, baxtu saodat, qut-baraka olib kelsin! Har bir oila, har bir xonadonda yaxshi kunlar, to'y-tomoshalar ko'p bo'lsin! Barchamizning ezgu orzu-niyatlarimiz ushalsin! Osmonimiz musaffo, yurtimiz tinch, xalqimiz omon bo'lsin! Zero, Navro'zi olam nafaqat Vatanimizda yashayotgan barcha millat va elat vakillari uchun, balki, butun xalqimizning eng suyukli bayram sifatida qadrlanib qolaveradi.

**Shahlo AHROROVA,**

*RMMM huzuridagi Ijtimoiy ma'naviy tadqiqotlar instituti,  
Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

## **QADRIYATLI YONDASHUVNING NAMOYON BO'LISHI, UNING DIALEKTIKASI VA DINAMIKASI**

**Annotatsiya:** Millat bor ekan, uning milliy qadriyatlari ham amal qiladi. Milliy qadriyatlar millat bilan birga shakllanadi, takomillashadi. Milliy qadriyatlar asosida milliy g'oya yotadi. Shuning uchun biror davlat boshqa xalqlarni bo'ysundirmoqchi bo'lsa, avvalo uni milliy qadriyatlaridan ayirishga urinadi. Milliy qadriyatlar o'z xususiyatlari ko'ra bir qancha turlarga bo'linadi. Ushbu maqola da milliy qadriyatlar, ularning turlari va xususiyatlari to'g'risida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** millat, qadriyat, xususiyat, qadrlash, inson, milliy qadriyat, umuminsoniy qadriyat, urf-odat, genofond, zamon, makon, milliy xarakter, milliy til.

Inson dastavval anglaydi, fikr yuritib tahlil qiladi, baho beradi. Baholash va tahlil qilish jarayonida ma'lum bir obyektlarning zaruriylik mezonlari o'lchanadi va inson tafakkurida qadr topadi, uning ruhiyatiga singadi, ya'ni hissiy munosabat shakllanadi va shu bilan qadrlash tuyg'usi yaraladi. Qadrlash tuyg'usi, qadriyatlar mohiyatini anglash ijtimoiy ong shakllaridan biri bo'lgan qadriyatli, yoki aksilogik ongda aks etadi. "Qadriyat xuddi haqiqat kabi xossa emas, balki fikr va voqelik o'rtasidagi munosabatdir." [3] Subyekt qadrlagan narsasining ahamiyatini anglab, uning qadriga yetish jarayonida qadriyatli munosabat shakllanadi. Obyektga qadriyatli munosabatning yo'nalishini belgilaydigan, faoliyatga yo'naltiradigan, qadrlash mohiyati,

ahamiyati bilan bog'liq tushunchalar, maqsadlar, bilimlar qadriyatli dunyoqarashni hosil qiladi. Qadriyatli yondashuv qadriyatli dunyoqarash asosida namoyon bo'ladi. Qadriyatli yondashuvning individual va ijtimoiy ko'rinishlari mavjud. Inson umri davomida mavjudlik, voqelikning qadrini anglab boradi, ularga nisbatan munosabatida qadriyatli yondashuvi aks etib, bu yondashuvning individual shakli hisoblanadi. Ijtimoiy guruhlar tomonidan voqelik va mavjudlik qadrini anglash, qadrlash vositasida munosabati va faoliyatini amalga oshirishda esa qadriyatli yondashuvning ijtimoiy shakli namoyon bo'ladi. Individual va ijtimoiy qadriyatli yondashuvning umumiy va xususiy jihatlari dialektik uyg'unlikda takomillashib boradi. Ijtimoiy siyosatda qadriyatli yondashuv ham umumiy bog'langan dialektik tizimni tashkil etib, ijtimoiy tizimga mutanosib shakllangan qadriyatlar tizimida aks etadi.

Ijtimoiy tizimga muvofiq tarzda, hamma zamonda ham jamiyatdagi qadriyatli yondashuv me'yorlari va tizimi o'ziga xos tarzda amal qilib keladi. Qadriyatli yondashuv mezonlari tarixiga murojaat qiladigan bo'lsak, ajdodlarimiz o'z afsona, rivoyat, asotirlari, xalq og'zaki ijodi namunalari, folklor xazinalarida milliy va umuminsoniy qadriyatlarini ideallari tarzida tavsiflab, ulug'lab kelganlar. Qadriyatli yondashuv ilk davrlardanoq insonlar hayoti, o'zaro munosabatlarini tartibga solish va jamiyatni boshqarishda muhim omil bo'lib kelgan. Ma'naviy merosimiz bo'lgan "Avesto" ajdodlarimiz amal qilgan va e'zozlagan milliy, diniy, ma'naviy va umuminsoniy qadriyatlarga xos qarashlarini aks ettirish orqali, o'sha davrga xos qadriyatli yondashuv tizimidan darak beradi. VIII-XII- asrlar davomida esa arab istilosи yurtimizda qadriyatli yondashuv va qadriyatlarning o'zgarishiga katta ta'sir ko'rsatgan. Yangi diniy e'tiqodning olib kirilishiga to'sqin bo'lgan ko'plab milliy qadriyatlar yangilanib, ayrimlari yo'qolib borgan. Bu-

ning natijasida jamiyatda qadriyatli yondashuvning yangi tizimi amal qila boshlagan. Arab istilosi ajdodlarimizning milliy va diniy qadriyatlar mezonlarini o'zgarishiga sabab bo'lgani kabi, sharq madaniyat va qadrlash me'yorlari arab va boshqa musulmon olamiga ham o'z ta'sirini ko'rsatgan. O'zları milliy qadriyatimizga aylangan Ibn Sino, Xorazmiy, Beruniy, Al-Farg'oniy, Navoiy, Lutfiy, Bobur kabi buyuk zotlar, Abu-Xanifa, Al-Buxoriy, Marg'inoniy, Naqshband, Najmiddin Kubro, Ahmad Yassaviy kabi islom ilmi alalomalarining sharq qadriyatları ta'sirini jahonga olib chiqib, jahon madaniy merosiga katta hissa qo'shish bilan birga, umuminsoniy qadriatlarni targ'ib etishdagi bo'lgan his-salari alohida mavzudir.

Temuriylar saltanatining parchalanishi, Turkiston o'lkasining xonliklarga bo'linishi milliy birlikka nisbatan g'ayriaksiologik yondashuv bo'lib, "bo'linganni bo'ri yer" qabilida yurtimizning chor Rossiyasining mustamlakasiiga aylantirilishi qadriyatlar tizimining ham parokanda bo'lishiga olib keldi. Demak, obyektning qadr-qimmatidan moddiy qiymati yoki g'ayriinsoniy manfaatlarning ustun qo'yilishi orqali namoyon bo'ladigan g'ayriaksiologik yondashuv jamiyatni parokandalashi va qadriyatlar tizimiga putur yetkazishini unutmaslik lozim. Qadriyatli yondashuv ijtimoiy-tarixiy xususiyatga ega bo'lib, ijtimoiy taraqqiyot hamda kishilarining intelektual va amaliy faoliyati jarayonida o'zgarib, shakllanib, takomillashib boradi. Uning ko'lami kengayishi va ijtimoiy ahamiyati ortib borishi natijasida shaxsiy qadriatlardan oilaviy, jamoaviy, milliy, ijtimoiy va umuminsoniy qadriyatlar vujudga keladi.

Ijtimoiy siyosat qadriyatli yondashuvning xususiy va umumiyy-ijtimoiy ko'rinishlarini uyg'unlashtirish choralarini ko'rishi muhim ahamiyatga ega. Ya'ni, individ qadrlaydigan obyektning o'zi uchun muhim jihatlari bilan birga uning ijtimoiy ahamiyatini ham anglashi lozim. Ana

shunda u qadriyat mohiyatini bilish doirasini kengaytiradi va unga munosabatida ijtimoiylik ahamiyati kasb eta boradi. Bu yondashuv jamiyat uchun muhimdir. Masalan, sog'lik avvalo shaxsiy qadriyat. Ammo, millat ravnaqida aholi salomatligi muhim ahamiyatga ega bo'lgani bois, u ham ijtimoiy, ham milliy tus oladi. Ayol farzandini dunyoga keltirar ekan, albatta o'zining ham, farzandining ham sog'lom bo'lishini istaydi. Salomatlik faqat shaxsiy emas, ijtimoiy-milliy ahamiyatga ega ekanligini anglay bilganda-gina, ayolning mazkur qadriyatga nisbatan yondashuvida nafaqat o'zi va farzandi, balki jamiyat oldidagi ma'suliyati aks etib, bu mas'uliyat salomatlikka qadriyatli yondashuvning ijtimoiy ahamiyatini kuchaytirishni toqazo etadi. Ona va bola salomatligining ijtimoiy-milliy ahamiyatini anglatish borasidagi chora-tadbirlarni ijtimoiy siyosat amalga oshiradi. Onalik va bolalikni asrashga oid tegishli qonun hujjatlarining qabul qilinishi orqali qadriyatli yondashuvning siyosiy asosi yaratiladi. Butunjahon salomatlik Fondi kabi halqaro tashkilotlarning tashkil topishi bu yondashuvni umuminsoniy darajaga ko'taradi. Bu yerda qadriyatli yondashuvning shaxsiy, ijtimoiy-siyosiy, umuminsoniy jihatlari dialektik uyg'unlikda namoyon bo'ladi.

Inson butun umri davomida son-sanoqsiz qadriyatlар olamida yashaydi.[2] Qadriyatlar kabi, qadriyatli yondashuv ham o'ziga xos tizimni yaratadi. Qadriyatli yondashuvning turli shakllari, tarkibiy qismlari o'zaro uyg'unlik va mutanosiblikda yaxlit bir tizimni tashkil etadi. Aslida jamiyatda qadriyatli yondashuvning yaxlit, uzlusiz va barqaror tizimi namoyon bo'ladi. Jamiyat har bir tuzilmasining o'z vazifasi va o'rni bo'lgani kabi, qadriyatli yondashuv tizimi barcha qismlarining ham o'z mazmuni va mohiyati, qadr darajasi, subektning reaksiyasi orqali o'z o'rni va ahamiyatiga ega. Bu tizimning namoyon bo'lishida zamon va makonning ta'siri bo'ladi. Ya'ni, ilk odam yasha-

gan, ilk jamoalar vujudga kela boshlagan vaqt dan boshlab hozirgi globallashgan, yetuk jamiyatlar tashkil topgan vaqtga qadar ma'lum bir qadriyatlari yondashuvning o'ziga xos tizimlari amal qilib kelgan. Bu tizimni zanjir deb oladi-gan bo'lsak, zanjir har bir xalqasining o'rni va ahamiyati turli davrlarda va turli jamiyatlarda subekt (shaxs, urug', qabila, elat, millat, jamiyat, insoniyat) uchun turli darajada namoyon bo'ladi va qadriyatlari yondashuv dinamikasi-da aks etadi. Ijtimoiy-siyosiy vaziyatga qarab, qayerdadir tinchlik, qayerdadir erkinlik yo salomatlik zanjirdagi eng asosiy xalqalardan biriga aylanishi mumkin. Qadriyatlari yondashuv tizimining amal qilish davri, bu tizimdagisi har bir tarkibiy qismning o'rni va ketma-ketligi vaqt va zamon, taraqqiyot darajasi hamda mazkur tizim amal qilayotgan jamiyatning yashash davri bilan bog'liq. Masalan, milliy qadriyatlarga munosabat totalitar tuzumdagisi qadriyatlari yondashuv tizimida ko'zga ko'rinxmas xalqaga aylangan, u o'z mohiyati bilan namoyon bo'lishiga cheklov qo'yilishi bilan g'ayriaksiologik munosabat yuzaga kelgan edi. Hozir qadriyatlari yondashuv tizimi va tarkibiy qismlarda o'zgarishlar sodir bo'ldi. Siyosiy-ijtimoiy qadriyatlardagi keskin o'zgarishlar bois, ularga nisbatan subektiv munosabatlar ham o'zgardi. Bu o'zgarishlar milliy, diniy qadriyatlarda va mulkka bo'lgan munosabatlarda ham o'z aksini topdi. Demak, ijtimoiy siyosat qadriyatlarni mafkuralashtirsa yoki sun'iylashtirsa, ijtimoiy tizim va qadriyatlari yondashuv tizimi o'rtasida nomutanosiblik vujudga kelib, jamiyat parokandalikka uchraydi.

Kishilik jamiyati uzluksiz o'zgarish va rivojlanishda bo'larkan, unga dialektik va dinamik uyg'unlikda insoniyatning qadriyatlarga bo'lgan yondashuvi ham o'zgarib, takomillashib boradi. Asrlar mobaynida ajdodlar merosi sifatida o'zlashtirilib kelinishi, ijtimoiy o'zgarishlar, taraqqiyat va unda ma'naviy omillarning ahamiyati ortib borishi nati-

jasida qadriyatlar ham takomillashib, mukammallahib va ma'lum ma'noda "tartibga soluvchi"<sup>[1]</sup> vositaga aylanib boradi. Jamiyatda eski tizim va uning turli sohalaridagi o'zgarishlar yangi qadriyatli yondashuv tizimini toqazo etib boradi. Fikr erkinligi, turlilik, qarama-qarshiliklar o'rtasidagi dialektik munosabatlar taraqqiyot omilidir. Mana shu turlilik qadriyatlar bahosini mutlaqlashtirmaydi, qadriyatlili yondashuvning muntazam o'zgarishda va rivojlanishda bo'lishini ta'minlaydi. Shuni ham e'tirof etish lozim-ki, har qanday turlilikda ham umumiylashtirishni bo'lib, bu xususiy yondashuvlar birligini ta'minlasa, har qanday umumiylashtirishni turlicha xususiyatlar qadriyatli yondashuv tizimining takomillashishida muhim omil hisoblanadi. Qadriyatli yondashuv shakllanishida fikr va g'oyalarning xilma-xilligi muhim o'rinni tutish bilan birga bu tizimda ular ichki ziddiyatlarni ham keltirib chiqarishi mumkin. Bu ziddiyatning boisi, qarama-qarshi turgan obyektga o'z subyektlarining qadriyatli yondashuvidir. G'oyalar kurashida ham qadriyatli yondashuvni ko'rish mumkin. Ya'ni, inson uchun o'z g'oyasi qadriyatlashgandagina, uning uchun kurashadi. Demak, qadriyatli yondashuv mudom o'zgarishda va rivojlanishda bo'lib, uning dialektikasi va dinamikasi jamiyatning ham o'zgarishi va rivojlanishini ta'minlaydi. Shuningdek, qadriyatli yondashuv tizimida inson uchun qadriyatlarni eng muhim va keyingi darajalarda amal qilib kelgan. Qadriyatning qaysi darajada turishi nafaqat subyektning bahosi, balki mavjud sharoit va imkoniyatlardan ham kelib chiqadi. Chunki, tizimda siyosiy qarashlar va mafkuralar har qancha xilma-xil bo'lmasin, ulardan biri ustuvorlik qiladi va jamiyat boshqaruvida yetakchilik ahamiyatini kasb etadi. Bu qadriyatli yondashuv dinamikasida o'z aksini ko'rsatadi. Subyektning qadriyatli yondashuvini majburan shakllantirib, yoki o'zgartirib bo'lmaydi. Buning uchun uning o'zi qadrlash lozim bo'lgan obyektni baholashi, bu

obyektning o'zi uchun muhim va ahamiyatli tomonini ko'rishi, moddiy, yoki ma'naviy, ruhiy, yoki hissiy ehtiyojlari qoniqishidagi qadrini va zaruriyatini anglashi lozim bo'ladi. Anglash darajasi esa dunyoqarashga bog'liq. Har qanday fikr g'oya bo'lmagani kabi, har qanday anglangan zaruriyat qadriyat bo'lavermaydi. Umr davomiyligi hamisha zaruriyatlarni toqazo etadi. Bu zaruriyatlar funksiyasini bajargach, o'z ahamiyatini yo'qotadi. Qadriyatlarga esa subyekt qadrlash orqali mehr va ishonchini ifoda etadi. Bu qadriyatlar o'z vazifasini bajarib bo'lgan taqdirda ham u kechagi kun uchun ahamiyat kasb etgan obyekt sifatida qadrlanib, subyektning buguni va ertasi uchun tarbiyaviy ahamiyatini saqlab qoladi. Ya'ni, qadriyatlar o'zgarish jayronida "kishida insoniy fazilatlar qaror topadi".[4]

Qadriyatlar ma'lum ma'noda insonning hayot kechirishi, tarzi, yondashuvi, tabiat va jamiyatga munosabatlari va qarashlari shakllanishiga ta'sir ko'rsatadi. Shu ma'noda qadriyatli yondashuvni nafaqat nazariy jihatdan, balki, amaliy faoliyatga ta'siri nuqtai-nazaridan o'rganish, tahlil qilish, o'z navbatida qadriyati yondashuvning inson va insoniyat hayotiga ta'siridan to'g'ri foydalanish muhim ahamiyatga ega. Qadriyatli yondashuvda ijtimoiy, yoki umuminsoniy qadrlash tuyg'ularining aks etishida milliy elementlar ham amal qiladi. Boshqacha aytganda, qadriyatli yondashuv tizimida shunday tarkibiy qismlar ham borki, ular mutloq o'zgarmas, o'z qadri va mohiyatiga ko'ra hamisha umuminsoniy ahamiyatga ega. Faqat bu ideal-larga, maqsad va orzularga intilish va erishish yo'lidagi faoliyat, harakat turli jamiyatda, millatda o'ziga xos yondashuvar, xususiyatlar, taktik yo'nalishlar mavjud. Bu esa umuminsoniy qadriyatlarda milliy elementlarning ham namoyon bo'lishi mumkinligini bildiradi. Masalan, har bir inson o'zi uchun baxt deb hisoblaydigan ideallari bor. Lekin bu baxtning talqini, unga erishish yo'llariga munosa-

bat bu kishilarda har xil bo'ladi. Xuddi shuningdek, mazkur munosabatlarda ma'lum bir elga, hududga, millatga xoslik ham aks etishi mumkin. Xalqimizda tinchlik-xotir-jamlik qadriyatiga shunday yondashuv borkim, ular bu qadriyatlarning boshlanishini eng avvalo oilada ko'radilar. "Bir kun janjal bo'lgan uydan qirq kun baraka ko'tariladi", "qo'shning tinch - sen tinch" kabi naqlarga avvalo shu kichik makonda amal qilinsa, undan so'ng mana shu makkonda tarbiya ko'rgan inson katta maydon va sahnlarda, katta doira va munosabatlarda ham ularga amal qilishini ta'kidlaydilar. Shuningdek, demokratiyaning amal qilishi-da ham shunday milliylik xususiyatlari toqazo etilishini unutmaslik lozim. Xalqimizga xos bo'lgan qadriyatli yondashuvda har qanday erkinlik zamirida vazminlik, keng mulohazalilik, odob va muomala madaniyati doirasida munosabatda bo'lish kabi milliy elementlar aks etib turadi. Ijtimoiy rivojlanishning har bir bosqichi jamiyatda shaxsning takomillashuvi, insonning komillashuvidan dalolatdir. Inson komillashgan sari uning uchun hayot mazmuni teranlashib, u ma'naviy yuksalib boradi. Bu yuksalish esa barcha qadriyatlar shaklining ma'naviy ahamiyatini os-hirib, bu qadriyatli yondashuv tizimida ham ko'rindi.

O'zbekistonda yangi qadriyatli yondashuv tizimining shakllanishi, unda milliy qadriyatlarning yangi xususiyatlar bilan uyg'unlashgan holda amal qilishini o'rganish va tahlil qilish ham muhim ahamiyatga ega. Yangi jamiyat qurish jarayonida eski tuzumdag'i o'zgarishlar, ularning maqbul va nomaqbul tomonlari bilan birga ularning aksiologik jihatini o'rganish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, mavjud tuzumga va voqelikka subyektning munosabati aksiologik yondashuvda ko'rindi. Voqelikning aksiologik jihatini hisobga olish jamiyat barqarorligining asosiy mezonlaridan biridir.

Muxtasar qilganda:

- qadrlash tuyg'usi va mohiyatni anglash aksiologik ongda aks etadi va qadrlash jarayonida qadriyatli munosabat shakllanadi. Bu munosabatni faoliyatga yo'naltiradi-gan, qadrlash mohiyati, ahamiyati bilan bog'liq tushunchalar, bilimlar qadriyatli dunyoqarashni hosil qilib, uning asosida individual va ijtimoiy ko'rinishlardagi qadriyatli yondashuv namoyon bo'ladi;

- ijtimoiy siyosatda qadriyatli yondashuv umumiylangan dialektik tizimni tashkil etib, u mavjud ijtimoiy tizimga mutanosib tarzda shakllangan qadriyatlar tizimi dinamikasida aks etadi;

- obyekt qadr-qimmatidan moddiy qiymat yoki g'ayriinsoniy manfaatlarning ustun qo'yilishi tarzidagi g'ayriasiologik yondashuv qadriyatli yondashuv tizimiga putur yetkazadi;

- turlilik, qarama-qarshiliklar o'rtasidagi dialektik munosabatlar ta'sirida jamiyat uzlucksiz o'zgarish va rivojlanishda bo'lib, unga dialektik va dinamik uyg'unlikda insoniyatning qadriyatlarga bo'lgan yondashuvi ham o'zgarib, takomillashib boradi. Turlilikdagi umumiylangan xususiyatlar qadriyatli yondashuv tizimida birlikni ta'minlasa, umumiylidagi turli xususiyatlar tizim takomillashuvida muhim omil hisoblanadi;

- ijtimoiy siyosat va qadriyatli yondashuv tizimi o'rta-sida nomutanosiblik bo'lsa, bunday jamiyat oxir-oqibat parokandalikka uchraydi;

- subyektning qadriyatli yondashuvini majburan shakllantirib bo'lmaydi. Ijtimoiy siyosatdagi yetakchi g'oya jamiyat a'zolarining dunyoqarashi va anglashiga ta'sir ko'rsatish orqaligina ularning qadriyatli yondashuviga ta'sir eta oladi.

- qadriyatli yondashuv tizimida mutloq o'zgarmas, mohiyatiga ko'ra hamisha umuminsoniy ahamiyatga ega tarkibiy qismlar ham bor. Faqat ularga intilish va erishish

yo'lidagi faoliyat, harakatlarda millatga xos yondashuv, xususiyat va taktik yo'nalishlar mavjud;

- O'zbekistonda yangi qadriyatli yondashuv tizimining shakllanishi, unda milliy qadriyatlarning yangi xususiyatlar bilan uyg'unlashgan holda amal qilishi, boshqa qadriyatlarni shaklida ham milliy elementlarning namoyon bo'lishini o'rganish va tahlil qilish ham muhim ahamiyatga ega.

### **Foydalanimagan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Mirzayev A. *Fuqarolik jamiyati va demokratik qadriyatlar*. T, ToshDU. 2005. – B-18.
2. Shayxova X. *Ma'naviyat – kamolot ko'zgusi*. –T. G.G'ulom n., 2009y. – B-16.
3. Shermuhamedova N. *Falsafa*. T, "Noshir" 2012 y. 599 b. (1216)
4. Erkayev A. *Milliy g'oya va ma'naviyat*. T, *Ma'naviyat*. 2002. – B-46.

**Shaxnoza KIMSANBAEVA,**  
*Toshkent davlat agrar universiteti Gumanitar fanlar kafedrasи  
dotsenti, falsafa doktori (PhD)*

## URF-ODAT, MAROSIM VA AN'ANALARNING MADANIYATIMIZ RIVOJIDAGI AHAMIYATI

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada madaniyatimiz rivojlanishida urf-odatlarimiz, marosim va an'analarimizning o'rni haqida so'z boradi. Milliy bayramlarimiz tarixi bilan tanishtiriladi.

**Kalit so'zlar:** urf-odat, marosim, bayram, madaniyat.

O'zbek xalqining urf-odat va qadriyatlarini o'rganishda Abu Rayhon Beruniyning Markaziy Osiyo xalqlari, xususan, O'rta asrlarda hozirgi O'zbekiston hududida yashovchi xalqlar va qabilalar, xorazmliklar, sug'diyilar va turkiy tillarda so'zlashuvchi xalqlar haqidagi ma'lumotlari muhim ahamiyatga egadir. Beruniy "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" nomli asarida qadimiy xorazmliklar, so'g'dlar, eroniylar, rumliklar, yahudiylar, suriyaliklar, xristianlar, hindlar va boshqalarning taqvimlaridagi mashhur kunlar, hayitlar va odatlar haqida bebaho tarixiy-madaniy manba qoldirgan.

Tarixiy manbalarda miloddan ilgari Eron, So'g'd va Xorazmda zardushtiylik taqvimidan keng foydalanilganligi to'g'risida ma'lumotlar yozib qoldirilgan. Beruniy o'z asarlarida bu xalqlarda yilning har fasli, oyida o'z bayramlari va mashhur kunlari bo'lganini qayd etadi. Masalan, "Farvardin-Moh" – yozboshi, "Tir-Moh" – kuz boshi, "Mihr-Moh" – qish boshi, "Dey-Moh" – bahor boshi ekani to'g'risida qimmatli ma'lumotlar bizgacha yetib kelgan<sup>1</sup>.

<sup>1</sup> Абу Райхон Беруний. Қадимги ҳалқлардан қолган ёдгорликлар. Танланган асарлар. 1-жилд. – Тошкент: Фан, 1968. – Б. 436.

Ulug' allomaning Navro'z, Mehrjon, Sada, "Qovoq bayrami", "Uzum bayrami", "O'tgan ajdodlarni xotirlash" bilan bog'liq turli bayram va marosimlar to'g'risidagi tarixiy malumotlari hozirgi zamon uchun ham muhim ahamiyatga ega. Mazkur bayramlarning barchasida tabiatda domiy ravishda yuz berib turadigan bir qator o'zgarishlar aks etgan. Qomusiy olimning yuqorida nomi zikr qilingan asari Markaziy Osiyo xalqlari madaniyati, urf-odatlari va turli e'tiqodlari tarixi aks ettirilgan o'ziga xos tarixiy va etnografik tadqiqot bo'lib, o'zbek xalqi an'anaviy urf-odatlari, bayramlari genezisini, tarixiy taraqqiyotini o'rganishda va ajdodlarimizning o'ziga xos turmush tarzi va milliy o'zligini anglashining shakllanishini tushunishda beba ho manbalardan biri hisoblanadi.

Xalq bayramlarida hamjihatlik, o'zaro hamkorlik, mehr-oqibat, saxovat kabi insoniy tuyg'ular mustahkam o'rinni egallagan va tarbiyaviy ahamiyati ham nihoyatda katta bo'lган. Ularning har birini o'sha paytdagi ijtimoiy va tabiiy shart-sharoitlardan, xalqning milliy ruhidan, o'ziga xosligi, e'tiqodi va dunyoqarashidan kelib chiqqan holda tahlil etmoq lozim. Birinchidan, islomgacha bo'lган davrda xalqlarning bayram va marosimlari muayyan jamoalarning yashash sharoiti, tashqi muhit bilan aloqasi, ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlangan darajasiga asosan shakllangan va sekin-asta odatga aylanib ommaviy tus olgan; ikkinchidan, bunday bayram va marosimlarning g'oyaviy yo'nali shiga islomgacha bo'lган dinlarning ta'siri kuchli bo'lган; uchinchidan, bayram va marosimlarning xalq hayoti, iqtisodiyoti, turmush tarzi, diniy e'tiqodi bilan bog'liq bo'lganlari xalqlar xotirasida uzoq vaqt mustahkam o'rinni egallab, islom keng tarqalgan hududlargacha saqlanib qolgan.

Markaziy Osiyo xalqlarining tarix sinovidan o'tgan bayramlari va marosimlari, diniy qadriyatlari kishilarning o'zaro munosabatlaridagi yaxshi fazilatlarni, chinakam

xalqchil, umuminsoniy qadriyatlarni ham aks ettiradi. Bu ijobjiy qadriyatlarda o'zbeklarning milliy ruhiyati, o'z-o'zini anglashi, ma'naviy ongingin shakllari namoyon bo'la-di. Ya'ni, Vatanga sadoqat, kattalarga hurmat, ota-onaga va qariyalarga g'amho'rlik, mehmondo'stlik, saxovat va bag'rikenglik, qon-qarindoshlik va o'zaro yordam, oila sharafini va ayollar sha'nini ehtiyotlash, hayotdan ko'z yumgan kishilarini xotiralash kabilar ijtimoiy siyosiy, ma'naviy xarakterga ega bo'lgan<sup>1</sup>.

Bundan tashqari milliy tusga ega bo'lgan tabiat fasllari bilan bog'liq mavsumiy marosimlar: gap-gashtak; Navro'z, shohmoylar(qo'sh chiqarish); lola va qizil gul sayli; "sust xotin", "choy momo"; hosil yig'imi bilan bog'liq mehrgan, "oblobaraka", shamol chaqirish, uzum sayli va boshqalar xalqimizning turmush tarzini, urf-odatlarini, o'ziga xosligini, o'zligini namoyon etishga muhim rol o'ynaydi.

Qadimgi zamonlardayoq ajdodlarimiz 21 mart kuni kecha va kunduzning tengligi to'g'risida tasavvurga ega bo'lganlar, bu kun umumxalq bayrami sifatida nishonlangan. Tarixiy manbalarga ko'ra, Navro'zning yoshi eng kamida to'rt ming yildan oshadi. Navro'zdagi ko'p udumlar ajdodlarimizning bevosita kundalik turmush ehtiyojlari bilan bog'liq bo'lib, ular islom falsafasi va aqidalari-ga zid emas edi. Navro'z hali yurtimizga Islom dini kirib kelishidan ham avvalroq nishonlanib kelingan. Garchi bu bayramning Islom diniga hech qanday aloqasi bo'lmasada, uning insonparvar jihatlari muqaddas dinimizda ilgari surilgan ezgulik g'oyalariga hamohangdir. Shu bois, xalqimiz islomni qabul qilganidan keyin ham Navro'zni nishonlab kelgan.

Navro'z – mano-mazmuni va falsafasi bilan hayotimizga jo bo'lgan yasharish va yangilanish pallasi, sharqona

<sup>1</sup> Хўжамуродов И., Абдураимова М. Сиёсат, дин ва миллий ўзликни англаш. – Тошкент: Фалсафа ва хуқуқ институти нашриёти, 2010. – Б. 66-67.

yangi yil debochasi, boqiy qadriyatlar ayyomidir. “Asrlar tarixiga ega bu bayram tomoshalarida xalqimizning qadimiy urf-odatlari, milliy an'analari, turfa marosimlari namoyish etiladi, qayta tiklanib, yangicha tus oladi. Shu tariqa milliy meroslarimiz avlodlar qalbiga singib boradi”<sup>1</sup>.

Navro'z IX-XII asrlarda Xuroson va Movarounnahrda umumxalq bayrami sifatida yuksak qadrlangan<sup>2</sup>. Bu to'g'rida aynan shu davrda yaratilgan yozma manbalar to'la guvohlik beradi. At-Tabariyning “Tarix”, al-Ma'sudi yning “Muruj az-azhab”, Hakim Termizi yning “Solnoma”, Muhammad Narshaxiyning “Buxoro tarixi”, Abu Rayhon Beruniyning “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar”, “Geodeziya”, Mahmud Qoshg'ariyning “Devonu lug'atit-turk”, Abulqosim Firdavsiyning “Shohnoma”, Umar Hayyomning “Navro'znama”, Nasiruddin Rabg'uziyning “Qissa-si Rabg'uziy”, Lutfiyoning “Gul va Navro'z” asarlari shular jumlasidandir. Ularda bayon etilishicha, Navro'zni bayram sifatida nishonlash miloddan avvalgi VI-V asrlarda boshlangan<sup>3</sup>. Jumladan, Umar Hayyom ham o'zining “Navro'znama” asarida ulug' ayyomning nishonlanishi podshoh Jamshid davriga xos hisoblansin – deb farmon bergenini eslatib o'tadi. “Kimki Navro'z kuni bayram qilib quvonsa, keyingi Navro'zgacha hurram bo'ladi va farog'atda yashaydi” – deb yozadi Umar Hayyom<sup>4</sup>.

Yillar o'tishi bilan Navro'z asta-sekin din ta'siridan xalos bo'la borgan. Bu ishni xalqning o'zi hech qanday farmonsiz, buyruqsiz amalga oshirib, o'zining ko'xna madaniyatini, urf-odat va qadriyatlarini tiklagan va uni zamонавиј

<sup>1</sup> Абдураҳимов Қ, Мусаев М, Тоғаев А. Ҳар кунингиз Наврӯз бўлсин! – Тошкент: Маянвият, 2018.-Б.-9.

<sup>2</sup> Қодиров М. Байрамлар, томошалар, маросимлар // Мозийдан тараалган зиё. – Тошкент: Шарқ, 1998. Б. 152.

<sup>3</sup> Абдураҳимов Қ, Мусаев М, Тоғаев А. Ҳар кунингиз Наврӯз бўлсин! – Тошкент: Маянвият, 2018.-Б.-12

<sup>4</sup> Умар Ҳайём. Наврӯзнома. – Тошкент: “Меҳнат”, 1990. -Б. 12-13.

mazmun bilan boyitgan. Diniy meros va xalq qadriyatlarini e'zozlash orqali xalqimizning o'ziga xos milliy va diniy merosi yanada rivojlanib ajdodlarimizning qadriyatları mustahkamlanishiga va shu orqali milliylik, milliy o'ziga xoslikning o'sib borishiga sharoit yaratgan.

Mustaqillik tufayli Navro'z yorug' tuyg'ularini, o'lmas ruhi va ma'naviyatini, o'zligini namoyon etadigan umumxalq bayramiga aylandi. Bugun butun dunyoda Navro'zni har yili yarim milliard kishiga yaqin insonlar bayram qiladi. 2009 yil 30 sentabr kuni Navro'z "YuNESKO"ning nomoddiy madaniy merosi ro'yxatiga kiritildi. 2010 yilda esa BMT Bosh Assambleyasining 64-sessiyasida 21 mart "Xalqaro Navro'z kuni" deb e'lon qilindi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston xalqiga Navro'z tabrigida ta'kidlaganidek, "Navro'z – umumbashariy ahamiyatga ega bayram. Uning mohiyatida mujassam bo'lgan gumanistik g'oyalar, millati, tili va dinidan qat'iy nazar, yer yuzidagi barcha pok niyatli insonlar uchun birdek tushunarli va qadrlidir. Shu sababli, Navro'z mustaqillik yillarida Vatanimizda istiqomat qilayotgan 130 dan ziyod millat va elat vakillari uchun tom ma'noda suyukli bayramga aylandi"<sup>1</sup>.

Navro'z bayramining ijtimoiy, g'oyaviy-falsafiy mazmuni ochib berishda tadqiqotchi I.Suvanovning quyidagi fikrlari diqqatga sazovor bo'lganligi uchun, biz ham ularga qo'shilamiz: birinchidan, xalqning mehnat faoliyati bilan bog'liqligi, bu qadriyatning qadimiyligi va orzu-umidlarning ro'yobga chiqishiga ishonishda; ikkinchidan, xalqning turmush tarzi, milliy ruhi, san'atining ajoyib shakllari, turli musobaqalar bilan e'tiborni jalb etuvchi bu bayramning xalqning ma'naviy turmushini boyitishga xizmat qilishi-

<sup>1</sup> Мирзиёев Ш. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом этириб, янги босқичга кўтарамиз. Асарлар. I-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон, НМИУ, 2017. – Б. 374.

da; uchinchidan, millatlararo do'stlik, hamdardlik, Vatan-ga muhabbat, tinchlik, osoyishtalik ruhini singdirishda; to'rtinchidan, yosh avlodni tarbiyalash, ular dunyoqarashini shakllantirishda, milliy o'zlikni anglashda namoyon bo'ladi<sup>1</sup>.


Bizning fikrimizcha, ajdodlarimiz tomonidan ming yillar davomida nishonlanib kelingan yozdag'i "Angom hayit", kuzdag'i "Mehrjon", qishdag'i "Sada" kabi bayramlarni tiklash zarur. Xalq qadriyatları va diniy urf-odat, marosimlarning ijtimoiy, falsafiy mazmuni shundaki, unda birinchidan; ezgulik, yaxshilik, elning bag'ri butunligi, jamaa yoki guruhlarning bajariladigan barcha yumushlarda o'zaro hamkorlik, bag'rikenglik, hamjihatlik tasavvurlari kishilar ongida shakllana boradi; ikkinchidan, kishilar boshiba qiyinchiliklar tushganda, ularga peshvoz chiqish, ular g'amiga sherik bo'lish, qo'lidan kelgancha yordam berish, milliy va diniy qadriyatlarni e'zozlab, ularning uyg'unligini e'tiborga olish, o'zbek xalqi asriy an'analarining tarkibiy qismini tashkil eta borgan; uchinchidan; yoshi ulug'larni hurmat qilish, ularning boy hayotiy tajribalarini qabul qilish, tarixiy rishtalarini saqlash, vorisiylikni tan olish demakdir<sup>2</sup>. Ushbu xislatlar xalq ruhiyati va o'ziga xosligining asosini tashkil etib, ularning milliy o'zligini saqlab qolishlariga yordam bergan.

Bu fikrlarni umumlashtirib quyidagi xulosalarga keldi:

1. Xalqimizning urf-odat, marosim va bayramlari ni-hoyatda rang-barang va mazmunan boy ekanligi hamda har bir tarixiy davrning o'ziga xos xususiyatlari va shunga monand urf-odat va bayramlari shakllanib, xalq turmush

<sup>1</sup> Суванов И. Шахс маънавиятини юксалтиришда миллий ғоя ва ўзликни англаш диалектикаси. Фалсафа доктори (PhD) даражасини олиш учун ёзилган диссертацияси. – Тошкент: 2018. – Б. 19.


<sup>2</sup> Хўжамуродов И., Суванов И. Миллий ғоя ва ўзликни англаш. – Тошкент: CHashma Print, 2014. – Б. 142



tarzida chuqur o'rnashgani asrlar osha saqlanib kelmoqda;

2. Xalq qadriyatlari, milliy o'z-o'zini anglashning umuminsoniy tamoyillari, hayot tarzi bilan bog'liq holda amalga oshib kelgan. Ajdodlarimiz ma'naviy-diniy merosi va qadriyatlari boy va rang barang bo'lib, ularning ijobiy mazmundagilari bizgacha yetib kelgan;

3. Xalqimizning turmush tarzini bezatgan, ma'naviy ruhiyatini ko'targan urf-odat, marosim va an'analar madaniyatimizning rivojida muhim ahamiyat kasb etgan.



Anvar BO'RONOV,

*Alisher Navoiy nomidagi*

*Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti,  
Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasи katta o'qituvchisi*

## **SHARQDA ISLOM FALSAFASINING SHAKLLANISHI VA TARKIB TOPISHI**

Islom ta'limotoi o'zidan avvalgi samoviy dinlarning mantiqiy davomi o'laroq yer yuzida VII asrdan boshlab keng yoyila boshlagan. Ammo, islam dini targ'iboti olib borilayotgan yerlarda ko'pincha mahalliy xalqlarning oldingi dinlari, an'anaviy e'tiqodlari va urf-odatlari islam ta'limotoining to'laqonli qabul qilishiga to'sqinlik qilgan. Chunki forslarning zardushtiylik dini, turkiylarning tangrichilik dini, hindlarning hinduiylik dini, shuningdek Yevropa va Osiyoda eng ta'sirli mavqega ega bo'lgan nasroniylik dinining ta'lomitlari yerlik xalqlarning milliy tafakkuridan chuqur o'rinni o'rganishni o'zgartirish oson kechmasligi aniq edi.

Islom dini ta'limotoi aql va tafakkurga emas, balki ilohiy ko'rsatmalarga asoslangani uchun faqatgina Qur'on va Sunna ta'limotoi bilan cheklanish shart sanalib, mantiq, falsafa kabi fanlardan foydalanish qat'iy ravishda taqiqangan. Qolaversa, musulmonlar uchun "falsafa" so'zining o'zi juda katta nafrat uyg'otgan, chunki o'sha davrda falsafa keng rivojlangan Yunonistondagi olimlarning aksariyati materialist faylasuflardan iborat bo'lgan. Shuning uchun ular borliq, bilish, dialektikaga oid bilimlarni "hikma" degan yangicha nom bilan atay boshlashgan<sup>1</sup>.

Falsafa ilmining rivojiga eng yirik islam ulamolari

---

<sup>1</sup> Философская энциклопедия Ратледжа. Том 6. Лондон; Нью-Йорк: Routledge. стр. 595-599.

ham qarshi chiqishgan. Misol uchun, Abu Hanifa, Molik ibn Anas, Imom Shofiiy, Ahmad ibn Hanballar ham falsafaga nisbatan negativ fikrlar bildirishgan. Abullays Hofiz: “Qayси bir olim falsafa ilmi bilan shug’ullansa, uning ismi ulam-olar safidan o’chirib tashlanadi” degan so’zlarni aytgan<sup>1</sup>.

Ammo asrlar o’tishi bilan islom dini dunyoning ko’plab mamlakatlariga tarqalishi va islom mafkurasining turli noislomiy mafkuralar bilan to’qnashushi natijasida ularning avvalgi ta’limotlariga raddiya berish ehtiyoji kelib chiqqan. Chunki, islom aqidalari va ahkomlarini ularga tus-huntirish va asoslab berish uchuna, oyat va hadislarning o’zi kifoya qilmas edi. Ular o’zlarining dunyoqarashlarida asosan ontologiya, mantiq, jadal, munozara kabi aqliy dalil va hujjatlarga suyanar edilar. Natijada, islom mafkurasining targ’ibotchilari ham o’z muxoliflariga qarshi kurashish uchun faqat naqliy dalillarni emas, balki aqliy va empirik dalillarni ham keltirishiga to’g’ri kelgan.

Vaziyat shunday ediki, olimlar islom targ’iboti bilan mashg’ul bo’lgani holda, oddiy odamlar ularga emas balki ko’proq bid’at va xurofotlarga ergashishni boshlashgan va bu o’z o’rnida falsafa ilmini o’rganish uchun ehtiyojni yanda oshirgan. Abu Homid G’azzoliy ta’biricha: “Haj ziyorati-ga boruvchilarni yo’lto’sar, qaroqchilardan himoya qilish zarurati tug’ilgach ularni qo’riqlab boruvchi soqchilarning bo’lishi ham shart hisoblanib qolgani kabi, chuqur bilimga ega bo’limgan oddiy musulmonlarning diniy e’tiqodlarini turli bid’at va noto’g’ri nazariyalardan qo’riqlash uchun kalom ilmini o’rganish vojib ilmlardan biriga aylandi<sup>2</sup>.

Musulmon olimlar madrasalarga mantiq va boshqa falsafiy bilimlarni olib kirish uchun yunon falsafasining eng yirik namoyandalari Suqrot, Aflatun va Arastuning asarlariga murojaat qila boshlashgan. Al-Kindiy birinchi

<sup>1</sup> Маржоний. Ш. Нозуратул-ҳақ, Қозон нашри. 1870 й. 10-11 бетлар. )

<sup>2</sup> (“Абу Ҳомид Мұхаммад Ғаззолий. Ихёу улумиддин, 1-жилд, 34 бет”)

birinchi bo'lib Arastuning falsafiy qarashlarini islom olamiga olib kirib sharq peripatetizmiga asos solgan. "Aql haqida", "Jon haqida mulohaza", "Ash'yolarning ta'rifi va bayoni", "Beshta substansiya haqida kitob"<sup>1</sup> kabi asarlar yozib sharq mashshoyun<sup>2</sup>ligining tamoyillarini yaratib bergen.

Al-Kindiydan keyin mashshoyunlikni Abu Nasr Forobi davom ettirgan. Alloma Arastuning 32 risolasiga sharhlar bitgan, uning g'oyalarining sharqdagi targ'ibotchisi va davomchisi sifatida tanilgan. Forobiy, shuningdek, Aflatun, Yevklid, Ptolemeyning asarlariga ham sharhlar yozgan<sup>3</sup>. Forobiyning nazarida diniy haqiqatlar falsafiy misollardan iboratdir. Boshqacha ibora bilan aytganda, din va falsafa yagona birlikning ikki xil jihatidir. Falsafa daliliy hukmlarning qoidalariga tayansa, din o'sha hukmlar va qoidalarining xitobiy shaklidir<sup>4</sup>.

Forobiydan keyin mashshoyunlikni Ibn Sino rivojlan-tirgan. Uning falsafa va mantiqqa oid eng yirik va muhim asari "Kitob ash-shifo" sanaladi. Kitobda mantiq, kategoriyalar, interpretatsiya, sillogizm, argumentlash, dialektika, sofistika, ritorika, poetika haqida muhim ma'lumotlar berilgan. Ibn Sinodan so'ng sharq olamida falsafa va mantiq olimlarining butun bir pleyadasi yetilib chiqsa boshlaydi. Xususan, Sirojiddin Urmaviy, Shamsiddin Samarcandiy, Sayyid Jurjoniy, Mulla Finoriy, Zaynuddin Turkiy, Mahmud Amin Shirvoniy, Mahmud Darandaviy, Ismoil G'alibaviy, Abdumannaf Afandi kabi ko'plab mantiqshunoslar mashshoyunchilik ta'limotini davom ettirishgan.

<sup>1</sup> Жонматова Х. А., Ал-Киндий (ҳаёти ва ижоди), Т., 1967

<sup>2</sup> Шарқ аристотелизми – шарқ перипатетизм (машшоюнлик) (араб. شرقية فلسفة – фалсафа) – IX–XII asrlarda shakllangan islam fal safasining Arastu taylimotiga asoslanangan yўnaliishi.

<sup>3</sup> <https://qomus.info/encyclopedia/cat-f/forobiy-uz/>

<sup>4</sup> Оқилов. С. "Ислом дини тарихи ва фалсафаси" фани бўйича маъruzalar matn. TIU. – Тошкент. 2010. – Б. 69

Sharqda falsafasida ishroqiya ta'limoti ham muhim o'rin tutadi. Bu yo'nalishning paydo bo'lishi Shihobiddin Suhravardiy bilan bog'liq bo'lib, unda ishroq(shuruq) ya'ni nur muhim o'rin tutadi<sup>1</sup>. Ishraqiylik falsafasiga ko'ra ishraq (Arabcha. Anvar) yagona haqiqat, substansiyadir, chunki yorug'lik hech qanday nuqsonga ega emas, u cheksizdir, unga hech qanday chegara qo'yib bo'lmaydi<sup>2</sup>. Ishraqiylikning shakllanishida forsiylar e'tiqod qilgan zardushtiylik dinining ham katta ta'sir bo'lgan. Chunki Zardushtiylik ta'limotiga ko'ra, yorug'lik Xudoning real dunyodagi tasviri o'laroq baholanadi.

Sharq falsafasining yana bir yirik oqimi tasavvuf ta'limotidir. Bugungi kunda tasavvuf so'zining etimologiyasi bo'yicha ikki xil variant ko'proq ishlataladi. Ulardan birinchisida tasavvuf arabcha "sufiy" ya'ni "jun mato", ikkinchisiga ko'ra arabcha *suffa* ya'ni Muhammad payg'ambar sallallohu alayhi vasallamning uyi qoshidagi miskinlar yashaydigan supa so'zidan olinganligi keltiriladi. Ammo yana ikkita variant borki, ulardan birida so'zning tasavvuf *as-safa* ("soflik", "sifat") o'zagidan olingani aytildi. Oxirgi variant esa g'arbiy Yevropa etimologlari tomonidan bildirilgan bo'lib, unga ko'ra tasavvuf yunoncha *sofiya*(donish-mandlik) o'zagidan yasalgani aytildi<sup>3</sup>.

Tasavvuf ta'limot sifatida islom olamida VIII asrning o'rtalarida paydo bo'lgan. Dastlab u zohidlik ko'rinishida ko'zga tashlangan. Keyinchalik so'fizmda tasavvuf va tariqatlar davri boshlangan. Ta'limotning shakllanishida

<sup>1</sup> Смирнов А.В. Светоносный мир: логико-смысловой анализ оснований философии ас-Сухраварди // Ишрак: Ежегодник исламской философии. – 2011. – № 2. – С. 14.

<sup>2</sup> Сухраварди, Шихаб-ад-Дин Йахиа. Мудрость озарения (отрывок). Перевод и комментарии А.В. Смирнова // Ишрак: Ежегодник исламской философии. – 2011. – № 2. – С. 32–33.

<sup>3</sup> Али-заде А. А. Тасаввуф // Исламский энциклопедический словарь. – М. : Ансар, 2007.


Abu ali al-Horis Muhosibiy (781-857), Zunnun Misriy (796-861), Abuyazid Bistomiy (vafoti 875), Hakim Termiziy (vafoti IX asr oxiri) va Mansur Halloj (858-922), Ahmad Yassaviy (vafoti 1166), Yahyo Suhravardiy (1155-1191), Ibn Arabiy (1165-1240), Najmiddin Kubro (1145-1221), Bahouddin Naqshband (1318-1389) kabi olimlarning xizmati katta bo'lgan.

Tasavvuf gnoseologiyasi irratsional bo'lib, uni empirik yoki mantiqiy yo'l bilan tushunib olish mumkin emas. Unda "ilmi qol" va "ilmi hol" degan tushunchalar mavjud. "Ilmi qol" til bilan ifodalasa bo'ladigan ilmlar, ya'ni zohiriy ilmlar, chunonchi shariat ilmi ham shunga kirgan. "Ilmi hol" esa insondagi so'z bilan tushuntirib bo'lmaydigan g'aroyib ruhiy kechinmalar, favqulodda fe'l-atvor, xislatlarning namoyon bo'lishidir.

Tasavvuf XI asrda shialik va ismoiliylar ta'limotlaridan ezoterikani o'zlashtirgan. Ma'lumki, ezoterizm Suqrot, Aflatun va Arastuda, shuningdek kabbala ta'limotida ham bor. Bundan ko'rindaniki tasavvuf ezoterikasi birgina shialik bazasida shakllanmagan.

Sufizm islom falsafasining boshqa yo'nalishlaridan yana shunisi bilan farq qiladiki, u yangi g'oyalalar va ta'limotlar uchun doim ochiq bo'lgan. Shuning uchun unga zardushtiylik, tangrichilik, hinduiylik, moniylik va boshqa dinlar hamda konfessiyalarning g'oyalari ham kiritilaverган. Bu esa keyinchalik so'fizm tariqatlarining bir-biridan keskin farq qilishiga olib kelgan.

Islom falsafasining eng asosiy oqimi kalom falsafasi deb nomlangan. Bu nom ostida faqat Qur'on ya'ni kalom va sunnat doirasida shakllangan, qat'iy va o'zgarmas ta'limot tushunilgan. Keyinchalik kalom ilmi aqoid ilmi deb noma-lana boshlagan. Ammo, fanda kalom nomi saqlanib qolgan. Kalom falsafasining eng yirik maktablari moturidiya va ash'ariya maktablari sanaladi.



Abul Hasan al-Ash'ariy (873-935) ilohiyotchi olim sifatida tanilgan bo'lib, uning yuzlab risolalaridan faqat 2 tasi – “Maqolat al-islamiyн” va “Al-Lum'a” asarlari saqlanib qolgan. U o'zidan oldin o'tgan ilohiyotchilardan farqli o'la-roq islomning asosiy aqoidlarini mantiqiy va falsafiy dalil-lar yordamida saqlab qolishga uringan. Uning tomonidan “kasb” (bajarish yoki o'zlashtirib olish) nazariyasi yaratil-gan. Bu nazariyaga muvofiq qazo (qaror, hukm) xudoning azaliy va umumiy irodasi bo'lib, qadar (hokimiyat, iroda) esa, xudoning hukmini dunyo hodisalariga nisbatan qis-man qo'llanilishi edi. Inson esa, ushbu xususiy qarorni faqat xuddi o'zinikidek, “kasb etishi” yoki “o'zlashtirishi” mumkin. Bu nazariyaga ko'ra, faoliyat xudo tomonidan yaratiladi, ammo iroda erkinligiga ega bo'lgan inson to-monidan bajariladi va qo'lga kiritiladi.

Abu Mansur al-Moturidiy (870-944) ta'limoti ham fal-safa borasida al-Ash'ariy ta'limotida farq qilmaydi. Faqat, ular orasida lafziy ixtiloflar va ma'naviy ixtiloflar ko'zga tashlanadi xolos. Lafziy ixtiloflar: Iymonda istisno mas-alasi; baxtli inson faqir, muhtoj holga tushadimi va faqir kishining baxtli saodatlari bo'lishi masalasi; kofir kishiga in'om ehson ko'rsatiladimi, yo'qmi?; payg'ambarlar vafo-tlaridan keyin ham payg'ambarlik rutbasida qoladilarmi yoki yo'qmi?; ixtiyor etishlik bilan rizolik o'rtasidagi bog'liqlik masalasi; imon al muqallid; kasbiy (qo'lga kirit-ishdagi) bilish masalasida ko'zga tashlanadi. Ayrim falsafa-shunoslari mutazaliya, jafariya va ismoiliyani ham alohida falsafiy ta'limot sifatida ko'rsatishga urinishgan. Ammo ularning falsafiy sohalar bo'yicha aniq farqlanuvchi makktablari yo'q. Misol uchun ismoiliyaning falsafiy qarashlari shialik, hinduiylik, zartushtiylik va sufizmning simbiozi si-fatida shakllangan va ularning taniqli olimi Farxad Daftari-ning asarlarida bu o'z aksini topgan<sup>1</sup>.

---

<sup>1</sup> Дафтари Фарҳад. Краткая история исмаилизма. – Москва: АСТ. Ладомир. 2004. –

asrlar o'tishi bilan islom olmida qo'yidagi 4 ta falsafiy ta'limot tarkib topadi:

1. kalom falsafasi
2. mashshoyunlik
3. ishroqiylik
4. tasavvuf.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, VII asrdan boshlab shakllana boshlagan islom falsafasi Xitoy, Hind, Yapon va boshqa falsafiy maktablardan farqli o'laroq monoteistik dinning aqidaviy chegaralarida oshib o'tmagan holda, shu dining nomi bilan atalgan yangi bir ta'limot sifatida dunyoga yuz tutdi va barqaror taraqqiy eta boshladi.

### **Foydalaniman adabiyotlar ro'yxati:**

1. Философская энциклопедия Ратледжа. Том 6. Лондон; Нью-Йорк: Routledge. стр. 595-599.
2. Маржоний. Ш. Нозуратул-ҳақ, Қозон. 1870 й. 10-11 бетлар.)
3. Абу Ҳомид Мұхаммад Ғаззолий. Ихёу улумиддин, 1-жайлд, 34 бет
4. Жонматова Х.А., Ал-Киндий (ҳаёти ва ижоди), Т, 1967
5. Оқилов. С. "Ислом дини тарихи ва фалсафаси" фани бўйича маъruzalар матни. ТИУ. – Тошкент. 2010. – Б. 69
6. Смирнов А.В. Светоносный мир: логико-смысловой анализ оснований философии ас-Сухраварди // Ишрак: Ежегодник исламской философии. – 2011. – № 2. – С. 14.
7. Сухраварди, Шихаб-ад-Дин Йахия. Мудрость озарения (отрывок). Перевод и комментарии А.В. Смирнова // Ишрак: Ежегодник исламской философии. – 2011. – № 2. – С. 32—33.
8. Али-заде А. А. Тасаввuf // Исламский энциклопедический словарь. – М. : Ансар, 2007.
9. Дафтари Фарҳад. Краткая история исмаилизма. – Москва: АСТ. Ладомир. 2004. –С. 124
10. <https://qomus.info/encyclopedia/cat-f/forobiy-uz/>

**Temur ABDULLAYEV,**

*O'zbekiston Milliy Universiteti tayanch doktoranti*

## **SHARQ FALSAFIY TAFAKKURINING JAMIYAT TARAQQIYOTIDAGI AHAMIYATI**

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada jamiyat taraqqiyotida Sharq falsafasining tafakkurga ta'siri o'rganiladi. Sharq falsafasi namoyondalari haqida ma'lumot beriladi. Jumladan, alloma Zayniddin Vosify hayot va ijodi tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** Sharq falsafasi, alloma, tafakkur, taraqqiyot.

Sharq falsafiy tafakkuri bir necha o'n asrlik tarixga ega bo'lishiga qaramay, shaxs va jamiyat uchun o'z ahamiyatini haligacha yo'qotmagan. Ularda insonni kamolotga eltuvchi falsafiy, axloqiy, ijtimoiy-siyosiy qarashlar mavjud. Sharq falsafiy tafakkurini o'rganish asnosida XV-XVI asrlardagi Markaziy Osiyo xalqlarining madaniy, ma'naviy merosini tadqiq qilish, uyg'onish davri falsafasi va unda ilgari surilgan qarashlarni tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Sharq falsafiy tafakkuri, uning ochilmagan noyob ma'naviy me'rosini tadqiq etish, ajdodlarimiz qoldirgan qimmatli asarlarni o'rganish orqali jamiyat taraqqiyotiiga o'z hissamizni qo'shishimiz mumkin. Manbalardan ma'lumki, Markaziy Osiyoda ikki mingdan ortiq allomalar yashab o'tgan. Ana shunday allomalardan biri Zayniddin Vosifyidir.


Vosify XV asr oxiri XVI asr boshlarida yashab o'tgan ko'plab allomalarning falsafiy, badiiy meroslarini o'rganib, ularga hamrohlik qilib o'z dunyoqarashini rivojlantirgan va qarashlarini asarlarida ifodalagan. Uning bizgacha yagona "Badoe ul vaqoe" asari yetib kelgan.

“Badoe ul-vaqoe” asarida Xuroson, Mavarounnahr va Erondag'i 1532-yilgacha bo'lgan davrdagi ijtimoiy-siyosiy, tarixiy, adabiy, ilmiy va madaniy hayoti aks ettirilgan. Mazkur asarning qiymati nafaqat badiiyligi bilan, undagi ijtimoiy-falsafiy fikrlarning originalligi bilan ham muhimdir. Shu jihatdan olganda, Zayniddin Vosify ilmiy merosini o'rganish, tadqiq qilish keng xalq ommasiga yetkazish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Zayniddin Vosify faylasuf shoir va so'z ustasi, muammo san'ati bilimdoni, Qur'on Karim hofizi, o'qituvchi, shahzodalarning hamrohi, munshi, imom va tarixnavis sifatida ma'lum va mashhur. Nisoriyning yozishicha, zamon-a hokimlari Vosifiyning izzat-hurmatini o'z o'rniqa qo'yib, unga g'amxo'rlik qilgan. Uning quvvai hofizasi juda baland va dunyoqarashi shu darajada keng ekanki, she'riyatda mohirligi, she'riy muammolarni yechishda topqirligi, har qanday qiyin holda ham masalaga osonlik bilan aniqlik kiritishi hammani lol qoldirar ekan. “Muzakkiri ahbob” tazkirasida shunday jumlalar bor: “hokimlar hamisha unga mushtariy bo'lib, g'amxo'rliq rioyatini sira kam qilmasdilar. Aniqlik shior tab'i fazlu kamol majmuasini o'zida qamragan hamda toza xayolot va yangi fikrlar yaratuvchisi bo'lib, nazm dengizida chuqur sho'ng'ir va ma'nolarning ajoyib duru gavharlarini terib chiqardi. Muammo ilmini yetuk egallagandi va ism aytilmagan qiyin muammolarni ham osonlik bilan yechardi” [1:105]

Mavlono Vosify Qur'on hofizi, she'r va muammo san'ati ustasi sifatida temuriylar sulolasining taniqli shoiri va davlat arbobi Alisher Navoiyning e'tiboriga tushgan. O'z zamonasining ulug'lari ham Vosifiyning axloqiy, falsafiy g'oyalariga tan bergen. Xususan:

“Muhammad Shayboniyxon zamonida Hirot shahrida Shayboniylar xonadonining amirulumarosi va malikush-huarosi amir Muhammas Solih hovlisida hurmathli shoir-



lar va aziz fozillar hozir bo'lgan. Mazkur amir mavlono Binoiuga deganlar: "Biz katta avlod olimlaridan arzirlisini bilmaymiz. Ularni ta'rifu tavsif qilsangiz, bilib ular hurmatini joyiga qo'yib, bordi-keldi qilib tursak, munosib bo'lardi". Mavlono Binoiy bu kaminaga ishorat qilib, bu kishi mavlono Vosifiy bo'ladiilar. "Xamsai muhayyira" [2:313] shu kishinikidurki, uning ta'rifi sizga ham yetmagan. Kotibiyning "Shutr hujra" ("Tuya hujra") qasidasiga javob yozganlar. Yozganda ham har baytida to'rt unsurni qo'shib yozganlar. Bir g'azallari to'rt bahrda. Bir lug'z (topishmoq) lari bor, ham lug'z ham muammo. Abdulvoise' Jabaliyning "Chor dar chor" qasidasigaki, uni hazrati... mahdum Nurusiddin Abdurahmon Jomiy... "Bahoriston"da shunday ta'rif qilganlar: "Bu qasida vujudga kelgandan beri biror kishi unga o'xshatib javob yozish uddasidan chiqqa olmadni", shunday javob yozdilarki, ishtiqoq san'ati<sup>1</sup> yo'lidadir. Undan bir g'azal chiqarish mumkin. Shu g'azaldan mazkur san'at yo'li bilan ruboiy va bir matla' chiqariladiki, uning har bir misrasi muammodir. G'azalning misralari Abulg'ozzi Sultonmuhammad nomini o'z ichiga olgan muashshah yo'lida tizilgan". [3:37]

"Badoe ul-vaqoe" asarida muallif hikoya etgan ajoyib qissalari orqali davr falsafiy-estetik muhitini bizga yetkazishi bilan birga, turkiy va forsiy adabiyotning hamohangligi, bir-birini boyitishiga oid keng, boy, rang-barang ma'lumotlar bergen. Muallif erkin, davr hukmdorlari zug'umlariidan holi ifoda usuli qiyosiy tahlil uchun boy manba bo'lganidek, o'rta asr tarixiy voqeligi, jamiyat ahliga munosabati ni chuqr anglash va idrok etishga ko'maklashadi.

Zayniddin Vosifiy o'z yurtini nihoyatda sevuvchi, vatanparvar inson bo'lgan. U o'zining vatanparvarlik g'oyalalarini "Badoe ul-vaqoe" asariga ham singdirgan. Asarning

---

<sup>1</sup> Ishtiqoq (so'zdan so'zni ajratmoq) – she'r baytlarida o'zakdosh so'zlarni qo'llash san'ati.

dastlabki boblaridayoq o'z vatani Xurosonni qumsaganligini, vatanidan faxrlanish hissini sezamiz. 1-4 boblarda Xuroson xalqi ulug'lanadi va mahalliy aholining ularni kamsitishga urinishlari tanqid qilinadi. Xuroson shoirlari va samarqandlik shoirlar o'rtasidagi bahs-munozara haqidagi hikoya (2-bob), xurosonlik olimning buxorolik olim bilan bahsda g'alaba qozonganligi haqidagi hikoya (3-bob), Vosifyi tomonidan xurosonlik shoirlarning tanbehiga bergen oqilona javobi (1-bob) yoki Vosifiyning sovuqda va ochlikdan aziyat chekkan vatandoshlarga yordami haqidagi voqeя (4-bob) larda bu jihat yaqqol ko'zga tashlanadi.


Zayniddin Vosifyi o'z asarida xalq orasida nihoyatda mashhur bo'lgan pandnomalar, rivoyatlar, hikoyalarни ham keltiradiki, u hikoyalar bugungi avlod uchun ham nihoyatda ahamiyatlidir. Jumladan "Xamsayi mutahayyira" ("Hayratlantirarli beshlik") hikoyatida keltirilgan. Allomaning yozishicha, bu hikoyatni u hijriy 933-yilning jumadiloxir oyi, ya'ni milodiy 1547-yilning martida Sultan Muhammad Bahodirxon bilan Toshkent shahridan 1 farsax (8 kilometr) masofa bo'lgan Parak daryosi bo'yiga ovga chiqqanida aynan shohning iltimosiga binoan aytib bergen. Demak, bu hikoyat xalq orasida keng yoyilgan. Unda keltirilishicha, "Xamsayi mutahayyira" silsilasining boshlig'i Abdurahmon Jomiy bo'lgan. Bu hayratlantirarli beshlikka yana Mavlono Kamoliddin Shayx Husayn, kashf sohibi – Mavlono Shamsiddin, Mavlono Dovud va Mavlono Mu'in Tuniylar kirishgan. Zayniddin Vosifyi bu beshlikni sanar ekan: "Biror aql egasi bularga oltinchi bo'lib qo'shila olmadi", – deb yozadi. [4:184] Bu besh talaba 18 yoshlarida o'z zamonasining kuchli mudarrislaridan biri Amir Sayyid Sharif qo'lida tahsil olishar edi. Darslarning birida o'rtaga murakkab bir masala tashlanadi. Shogirdlar bilimdonlikmi, mahmadonalikmi qilib, shu xususda ma'ruza o'qiyotgan ustozning so'zini yetti marta bo'lishadi. Ali Qushchining

“Sharhi tajrid” asari mutolaasida esa ilmi toliblar ustozning fikriga butunlay qarshi chiqishadi. Shogirdlarini ilm jihatdan yengolmagan Amir Sayyid Sharif hiyla yo’liga o’tib, o’zini kasalga soladi va yigitlarga qirq kun ta’til beradi. O’zi esa kamchiliklarini to’ldirish uchun muk tushib kitob o’qishga kirishadi. Biroq shogirdlar ham anoyi emas edi. Ular vaqtini bekor ketkazmaslik uchun chora izlashardi. Yon-atrofda bularga bas keladigan mudarris topilmasdi. Shuning uchun ular har kuni qur’a tashlab, o’zlarining oralaridan bir mudarris saylashar edi. Birinchi kuni dars berish Abdurahmon Jomiy chekiga tushadi. Shunday qilib, talabalar bir-birlariga dars berib, o’z bilimlarini yanada charxlab borishadi. Ustoz Amir Sayyid Sharifning ham ko’ngli xotirjam edi. U: “Shogirdlarim bekorchilikda yuribdi, men esa tinmay o’qib, ularni yenga oladigan darajada dalillar to’pladim”, – deb o’ylagandi. Biroq ta’tildan so’ng shogirdlarini o’z huzuriga chorlab, ma’ruzani boshlagan ustozni talabalar ilm bilan yana rad eta boshlashadi. Shundan so’ng Amir Sayyid Sharif: “Boringlar, qayerni ko’nglingiz tilasa, shu yerga borib, dars beraveringlar”, – deb shogirdlariga javob berib yuboradi. Zayniddin Vosify hikoya yakunida shunday yozadi: “Mavlaviy (Amir Sayyid Sharif) huzuridan chiqqanlaridan keyin Mavlono Jomiy ishq va tasavvuf vodisiga sho’ng’idilar. Mavlono Shayx Husayn va Mu’in Tuniy tahsil va mutolaaga mashg’ul bo’ldilar. Mavlono Dovud esa Sulton Mahmud ibni Sulton Abusa’id Mustand sadrligiga saylandi. Mavlono Shamsiddin sohibi kashf Sulton Abu-sa’idning sadri bo’ldi”. [5:186] Shunday qilib, ilm-ma’rifatning cho’qqisiga chiqqan bu beshlik xalq orasida “Xamsayi mutahayyira” nomi bilan mashhur bo’ladi.

Zayniddin Vosify asaridagi falsafiy hikoyalari, pandnomalarni yosh avlodga o’qitish, o’rgatish bugungi yangi O’zbekiston uchun ham nihoyatda dolzarbdir. Zero Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta’kidlagan-

idek: "Bugungi kunda yurtimizda maktab ta'limini rivojlantirish umummilliy maqsadga, umumxalq harakatiga, butun jamiyatning ustuvor vazifasiga aylanmoqda. Yangi O'zbekistonimizni yuksak taraqqiyot bosqichiga ko'tarish-dek ezgu niyatimizga yangicha va mustaqil fikrlaydigan, o'z Vatanini jonidan ortiq sevadigan, uning yorug' kelajagi uchun sadoqat bilan xizmat qiladigan, fidoyi yoshlarni tarbiyalash orqali erishamiz". [6] Bu ezgu g'oyalarga bosqichma-bosqich erishilmoqda. Jumladan, 2023-yilning "Inson-ga e'tibor va sifatlari ta'lim" yili deya nomlanishida, inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish, xalqparvar davlat barpo etish, adolatli ijtimoiy siyosat yuritish hamda ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash asosiy vazifa ekanligi ko'rindi.

Xulosa sifatida shuni ta'kidlash lozimki, Zayniddin Vosifiy rivojlangan jamiyat haqidagi qarashlari bilan XVI asr falsafiy tafakkurida juda katta iz qoldirgan. Movarounnahr va Xurosondagi madaniy hayot, olimlar, fozillar va shoirlar tomonidan tashkil etiladigan ilm majlislari, unda muallifning ishtiroki va o'zining ijtimoiy qarashlarining shakllanishiga ta'siri ishonarli tasvirlaydi. Uning durdona fikrlari hech qachon eskirmaydi, dolzarbligini yo'qotmaydi.



**Bobur ELMURODOV,**

*Qurolli Kuchlar akademiyasi mustaqil izlanuvchisi*

## **NAVOIY ASARLARI HAMDA XALQ DOSTONLARIDA VATANPARVARLIK BA MILLIY QADRIYAT**

**Annotatsiya:** Chinakam yurt himoyachisi o'z zimmasidagi sharaflı vazifani ado etishni muqaddas burchi deb biladi. Maqolada harbiy xizmatchilarining jangovar ruhini oshirishda dostonlar va mumtoz asarlarning ahamiyati o'r ganilgan. Bunda Alisher Navoiyning "Risolayi tiyr andoxtan" risolasi tadqiqot obyekti sifatida tanlangan. Shuningdek, "Yusuf bilan Ahmad" va uning uzviy davomi sanalgan "Alibek bilan Bolibek" jangnoma dostonlari tahlil qilinib, Navoiy asarlari va xalq dostonlarda ona yurt himoyasi tarannumi qiyosiy, tadrijiy ko'rib chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** "Risolayi tiyr andoxtan", jangovar ruh, "Yusuf bilan Ahmad", "Alibek bilan Bolibek", jangnoma doston, yurt himoyasi.

Askar hech qachon urush tanlamaydi. U o'z burchini, majburiyatini ta'minlash maqsadida – Vatan himoyasiga otlanar ekan, o'ziga qo'yilgan jangovar vazifani sharaf bilan bajarishga harakat qiladi.

Vatanni himoya qilish naqadar ulug' savob, har bir musulmonning zimmasidagi farz hisoblansa, unga hiyonat qilish, qurol bilan bostirib kelish shu qadar katta gunoh, eng oliv jazoga loyiq jinoyat hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy xizmatchilarining jangovar ruhini oshirish, turli murakkab va og'ir vaziyatlarga nisbatan ruhiy bardoshliligini, yot g'oyalarga qarshi mafkuraviy immunitetini mustahkamlashda xalq dostonlari va mumtoz asarlarning qimmati beqiyos.

Jangchi bo'lib tug'ilish, mardona kurashish, qahramonlarcha o'lish aksar ajdodlarimizning bebaho hayot tarziga aylangan. Tadqiqotimizning asosiy manbalari sifatida tanlangan "Yusuf bilan Ahmad" va uning uzviy davomi sanalgan "Alibek bilan Bolibek" jangnoma dostonlari, Alisher Navoiyning "Risolayi tiyr andoxtan" risolasi tahlillarida ko'rib chiqamiz.

Epik asarlarning muhimlilik darajasi ayniqsa Ikkinchijahon urushi yillarida tobora kuchayib bordi. Chunki jangchilarni vatanparvarlik va qahramonlik ruhida tarbiyalash qo'shin psixologiyasining muhim bo'lagi hisoblanib, bunda folklorning ahamiyati beqiyos edi. Chunki qahramonlik va jangnoma dostonlarimizda jangchilarda vatanparvarlik tuyg'usini uyg'otish, ularni ruhiy-psixologik ta'minotini mustahkamlash kabi zaruriy vazifalar baland notalarda kuylanadi. Shuningdek, ulardagi vatan tinchligi yo'lida birlashish, kurashish, jasorat ko'rsatish strukturasi yorqin ranglarda ifodalangan bo'lib, bu kabi komponentlar har bir jangchining shijoati va jangovarligini oshirishga xizmat qiladi.

Biz dostonlarning syujetiga to'xtalib qolmasdan, ulardagi jasorat va diniy e'tiqod masalalariga e'tibor qaratamiz.

"Yusuf bilan Ahmad" dostonida isлом dinini qabul qilib, osuda yashayotgan Masal shohi Go'zalshohga qo'shni mamlakat G'ulg'ula shahrining shohi Shohpo'latshohnning maktub yo'llashi navbatdagi ziddiyatli voqealar formulasiyi yaratadi. U elchi orqali Masal podshosiga shunday mazmundagi noma bitadi:

*– Yurtga Yusufbek-Ahmad kelibdi, undan qo'rqib, yuraging yorilib, joning chiqib, diningdan ayrilib, shularning gapini ma'qul deb, diniga kiribsan. Ana endi shu xatni ko'rganidan so'ng tavba qilib, uzr aytib, yangi dindan qaytib, avvalgi diningni qabul qilasan. Agar qaytmasang, ustingga lashkar tortib boraman...<sup>1</sup>*

<sup>1</sup> O'zbek xalq ijodi yodgorliklari. Alibek bilan Bolibek. T.: 2015, 310-b.

Go'zalshoh maktubni el-ulusga o'qib eshittiradi. Masal jangchilarining chin e'tiqodi, vatanparvarligi, botirligi quyidagi o'rirlarda yaqqolroq ko'rindi:

– *Ana, kelsa qilichimizning baldog'i, miltig'imizning qo'ndog'i qolguncha urushamiz. Ajalimiz yetsa, kunimiz bitsa, agar o'lsak, shu dinimizda o'lamiz*<sup>1</sup>.

Matndan anglashiladiki, ularning har so'zida botirlik, e'tiqod kabi ulug'vor xislatlar bo'y ko'rsatadi. Ushbu jang-noma dostonlarining janri dostonlarga xos bo'lgan sa'j orqali ifodalanganini e'tiborga olsak, qahramonlarning she'riy uslubdagi monologlari asar ta'sirchanligini oshirib boradi.

Bir o'rinda jangchi: "Yurtni sevmoq odatidir erlarning..."<sup>2</sup> desa, yana bir jangchi g'animni: "Kelsang qilich bilan aylay ziyofat..."<sup>3</sup> deya ogohlantiradi. Ko'rini turibdiki, yurt taqdiriga xavf soluvchi har qanday holat jangchilarni ilon-day qo'zg'atib, sherdai na'ra torttirgan. Dushman mammakat ustiga bostirib kelayotgani xabarini eshitgan yurt fuqarolarining vatanparvarligiga e'tibor bering:

– ...*Yusufbekning yigitlarini andak achchig'i keldi: – Bizga javob bering, urushamiz, boshiga boshimiz, tishiga tishimiz, Isfaxonning ichida chopishib o'lisharmiz*<sup>4</sup>.

Yoki Dostonda Ashurbek sardor yigitlariga ko'ngillik berib: "Shul dushmanga qilich urg'an qirq yil toati beriyodin afzal"<sup>5</sup>, degan so'zni aytadi. Bu da'vatda chin ma'noda ikki dunyo saodati ko'rinaldi, bu esa jangchilarni so'nggi qoni qolguncha kurashishga chorlay olgan.

Darvoqe, bu yo'sinda ulg'ayish uchun jangchilar yillar davomida ta'lif oladi, jismoniy va ma'naviy kamolotga erishadi, yurtni hech bir ta'masiz, yurakdan sevadigan bo'ladi.

<sup>1</sup> O'sha asar. 314-b.

<sup>2</sup> O'sha asar. 314-b.

<sup>3</sup> O'sha asar. 314-b.

<sup>4</sup> O'zbek xalq ijodi yodgorliklari. Yusuf bilan Ahmad. T.: 2015, 2-b.

<sup>5</sup> O'sha asar. 2-b.

Ana shu vaziyatda jangchilarga xos bo'lgan vatanparvarlik tuyg'ulari yuzaga chiqadiki, hatto "Aslo vahmi-tars ko'ngilga keltirmang, maydonda dushman bilan savashib, talashib o'lsak, bizlarga qanday g'animat. Oxiri odam bor, o'lim bor. Bir kun bo'lmoq, bir kun o'lmoq. Iyemoni bilan o'lgan o'lmaydi. Iyomonli qul o'lmaydi degan. Ey yigitlar, aslo g'am yemanglar, o'laman deb voyim qilmang<sup>1</sup>", – deya bir-birlariga dalda berishadi.

Tadqiqotimizning ikkinchi muhim ob'yekti Alisher Navoiyning kamondan o'q otish fazilatiga bag'ishlangan "Risolayi tiyr andoxtan" nomli risolasidir. Hajman kichik, bir nechta hadis va rivoyatlardan iborat ushbu risolada muallif kamondan o'q otish savobini diniy dalillar, hikoyatlar asosida tahlil qiladi.

Hazrat Odam Ato alayhissalom shayton hiylasi bilan jannatdan yerga tushirilgach, Allohnинг amri bilan dehqonchlik qiladi – bug'doy ekadi. Ammo qarg'alar ekilgan bug'doyni kavlab, yeb qo'ya boshlagach, Xudoga munojot qiladi. Shunda Yaratgan kamon va o'q yuboradi. Yoydan o'q otishni farishta Jabroil (alayhissalom) Odam alayhissalomga o'rgatadi. Odam Atoning qarg'alarga otgan birinchi o'qi tegmaydi, farishta Jabroil alayhissalom tabassum qiladi. Ikkinci bor otilgan o'q nishonga tegadi, shunda Jabroil alayhissalom o'z tabassumini qo'yidagicha izohlaydi: "Agar ilk o'qing nishonga tekkanida qiyomatgacha hech narsa bolalaring qo'lidan qutilmas edi<sup>2</sup>".

Odam Ato avlodlari yelkasidan necha asrlar o'q-yoy tushmay keldi. Garchi Farishta ibtidoda Odam atoga qarg'alarни mahv etish uchun o'q otishni o'rgatsa-da, buning ramziy ma'nosи keyinchalik ayonlashadi. Qarg'a – qora tus-

<sup>1</sup> O'zbek xalq ijodi yodgorliklari. Alibek bilan Bolibek. T: 2015, 334-b.

<sup>2</sup> Alisher Navoiy. Risolayi tiyr andoxtan. Mukammal asarlar to'plami. 16-jild. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi "Fan" nashriyoti. Toshkent – 2000. 294-bet.

dagi raqib, u turfa ko'rinish va shaklda ham bo'lishi mumkin. Demak qurol himoyalanish, himoya qilish uchun in'om etilgan. Ilk o'qning nishonga tegmagani<sup>1</sup> esa Inson dunyosidagi nomukammallik, bandaga xos xato va kamchiliklaridan nishona.

Keyinchalik o'q-yoy insonning juft qanotiga aylandi. Ro'zg'or uchun ov qilish, tashqi dushmanidan himoyalanish va boshqa yumushlarda uning o'rni beqiyosligicha qoldi.

Hazrat Navoiy ushbu rivoyatni keltirar ekan, o'q otishni Xudoning lutfi, Odam Safiy alayhissalomning mo'jizasi deb xulosa qiladi. Aslida o'q otishning qanday savobi bor? Bu shunchaki dilxushlik emaski, ulkan ajrlar va'da qilinsa. Jangchi yurt himoyasidadir. Yurt himoyasi esa oliv amal sanalur. Navoiy bunga shunday hikoyat keltiradi:

- Rasululloh sallolohu alayhi vasallam kamonchili kning fazilatini ko'p aytdilar. Sahobalar kamondan o'q otishning savobini qancha miqdorda deb so'radilar. Shunda U Zot alayhissalom: "Agar kamonchilikning savobini aytsam, xalq tirikchilikni tashlab, kamondan o'q otishga berilib ketadi. Bir soat o'q otishning savobi ellik yillik toat savobi bilan tengdur. Agar kim o'q otsa, Alloh unga jannatiylar savobini beradi, nishonga tegizsa, jannat eshigini ochib, bir hurni unga ataydi<sup>2</sup>".

Muallif bundagi savobning qanchalik ulkanligini boshqa bir voqeа bilan dalillaydi:

- Shayxlardan Shafiqi Balxiy jon berish chog'i o'q-yoy olib kelib, o'q otadi. Do'stlari buni ko'rib "Shayx shifo topibdi" deb xursand bo'ldilar. Shunda shayx o'z holatini: "Umrim oxirlabdi, shunda bir yaxshi amal qilgim keldi. Biror amalni yoydan o'q uzishdan ko'ra yaxshiroq deb topmadim. Chunki o'q otishda savob ko'p<sup>3</sup>" deya izohlaydi.

<sup>1</sup> O'sha manba. 294-bet.

<sup>2</sup> O'sha manba. 295-bet.

<sup>3</sup> O'sha manba. 296-bet.

Risolada keltirilgan qat'iy jumlalardan kishi sergak tortadi:

– “Kimki, kamonchilikni o'rganib, so'ng tark etsa, sunnatimdan yuz o'girgan hisoblanadi. U mendan emas<sup>1</sup>”.

Risoladagi barcha hikoyatlarda o'q otish savobi va bu yo'ljadi urinishlarga urg'u beriladi. Demak, o'q otishni o'rganish ishtiyoyqida bo'lgan kishilarga bu qadar sahovat ko'rsatilsa, tom ma'noda Vatan himoyasi uchun xizmat qilayotgan o'g'lonlarga qanchalar sano aytishini tasavvur qilavering.

– Bir kuni Payg'ambarimiz alayhissalom borar edilar. Sahoba Sa'd Vaqqosning o'z farzandlariga kamondan o'q otishni o'rgatayotgani ustidan chiqdilar. Rasululloh tomosha qilib turdilar. Shu payt bir yigit kelib, yoydan o'q uzdi. Rasuli Akram sallolohu alayhi vasallam xushnud bo'ldilar. Sahobalar buning sababini so'raganlarida: “U yigit kelgani da gunohlari ko'p edi, o'q otdi – gunohlari to'kildi, shuning uchun shodlandim<sup>2</sup>”, – deb izoh berdilar.

Navoiy zakiy inson sifatida bu amalning sharafini yanada ko'klarga ko'tarar ekan, o'quvchi qalbiga yorqinroq tasavvur berishi uchun shunday deydi:


– Agar bir joyga masjid quriladigan bo'lsa, u yer menda masjid quradilar deb 40 yil oldin shodlanadi. Agar bir yerda o'q otiladigan bo'lsa, u yer menda o'q otiladi deb 80 yil ilgari xursand bo'ladi<sup>3</sup>.

Shoirning betimsol badiiyati shundaki, hadis va rivoyatlarning ichki haroratini sezib, ularni tartibli bir ipga tiza oladi. Risoladagi voqealar ma'no va mazmunan bir biridan ulgi olib boradi: – Ali karramallohu vajhahu goho yalang bosh va yalang oyoq o'q keltirar edilar. Bir kuni Sa'd Vaqqos o'q otar edilar. Jabroil alayhissalom keldilar.

<sup>1</sup> O'sha manba. 293-bet.

<sup>2</sup> O'sha manba. 295-bet.

<sup>3</sup> O'sha manba. 295-bet.



Rasululloh alayhissalom men uchun o'q ot dedilar. Shunda Jabroil alayhissalom men uchun ham Sa'd o'q otsin dedi. Sa'd Vaqqos o'q otdilar. Shunda Rasululloh alayhissalom Xudoyi taolo nomi uchun o'q otgil dedilar. Sa'd o'q otdilar. Sahobalar nishonga borib, ikki o'qni topib, uchinchisini topolmadilar. Jabroil alayhissalom aytdilarki: "Yo Muhammad, u o'qni topmasinlar. Bu o'q jannatda Sa'd Vaqqos uchun yer olib turibdi<sup>1</sup>...

Risola ushbu hikoyatlar bilan yakun topadi. Aslida Navoiy o'q otishning mohiyatini el-ulusga soddagina bayon qilsa ham bo'lar edi, ammo u rivoyat va hadislar yo'lidan boradi. Harb ishini-da diniy dalillar, hikoyatlar bilan go'zallashtirishga, ko'rк berishga urinadi va buning udasidan chiqadi.

Demak, yuqorida tahlil etilgan ikki doston va bir risolla harbiy-vatanparvarlik tamoyillarini harbiy xizmatchilar ongiga singdirishda quyidagi jihatlarga alohida e'tibor qaratishni taqozo etadi.

*Birinchidan*, tahlil qilingan manbalar harbiy xizmatchida Vatan himoyasi uchun zarur bo'lgan axloqiy fazilatlarni shakllantirish, ularning yuksak ma'naviy jasorati va e'tiqodini mustahkamlash kabi muhim vazifalarni amalga oshiradi.

*Ikkinchidan*, yoshlar ongida harbiy xizmatning ijtimoiy ahamiyatini mustahkamlaydi, Qurolli Kuchlarimizga muhabbat, ma'naviy-ruhiy immunitetni oshirishga xizmat qiladi.

*Uchinchidan*, yuqoridagi asarlar Vatan ozodligi va farovonligini yakdil saqlash, bu yo'lда har qanday dushman bilan yakkama-yakka kurashishga shaylik normalariga asoslanganini inobatga olsak, ushbu tadqiqot harbiy xizmatchilarning ekstremal sharoitlarda ham ruhiy barqarorligini mustahkamlashga ko'maklashadi.

<sup>1</sup> O'sha manba. 295-bet.

**Anorgul GULOVA,**

*Buxoro davlat universiteti katta o'qituvchisi,  
f.f.f. doktori*

## **QUR'ONI KARIM HAMDA HADISI SHARIF – ALISHER NAVOYIY MA'NAVIIY MERO SINING G'OYAVIY SARCHASHMASI**

**Annotation.** Mustaqillik yillarda esa “avliyolar avliyosi” bo’lgan Navoiy bobomiz merosi tasavvufiy nuqtai nazaridan tadqiqotchilar tomonidan tahlil qilingana boshladi. Olam Ijodkori hamda uning Elchisiga nisbatan cheksiz e’tiqod va ixlosning ifodasi sifatida vujudga kelgan allomaning hamd va na’tlari bisyor bo’lib, ularning g’oyaviy sarchashmalarini, asosan, Qur’oni karim hamda Hadisi sharif tashkil etadi. Maqola shu to’g’risida.

**Kalit so’zlar:** Alloma, tahlil, tasavvufiy, ilohiylik, inson, tabiat va borliq, Badoe’ ul-vasat, Hadis, turkiy adabiyot.

Ma’lumki, Sobiq ittifoq davrida Alisher Navoiy asarlaridagi hamd va na’t qismlari o’z aksini topgan kirish boblari “rasmiy boblar” deb atalib, nazardan chetda qolib ketgan. Mustaqillik yillarda esa “avliyolar avliyosi” bo’lgan Navoiy bobomiz merosi tasavvufiy nuqtai nazaridan tadqiqotchilar tomonidan tahlil qilinganida, aynan kirish boblarida ham chuqur falsafiy nuqtai nazarlar bayon qilinganligi ayon bo’ldi. Alloma fikricha, inson, tabiat va borliq bir-biri bilan chambarchas bog’liqidir.

Bundan tashqari, inson boshqa jonzotlardan o’z ruhining, aqlining yuksak darajada rivojlangani bilangina emas, balki yuqorida ta’kidlanganidek, tanasining ilohiylik kasb etgani bilan ham farqlanadi.

Shunday ekan, har bir insonda mavjud ilohiylik, ulug’ qadr-qimmat hamisha e’tiborga molik tutilib ish tutilishi

darkor. Mazkur holat uning ma'naviy kamoloti yo'lida xizmat qilish lozim.

Olam Ijodkori hamda uning Elchisiga nisbatan cheksiz e'tiqod va ixlosning ifodasi sifatida vujudga kelgan al-lomaning hamd va na'tlari bisyor bo'lib, ularning g'oyaviy sarchashmalarini, asosan, Qur'oni karim hamda Hadisi sharif tashkil etadi. Buning isboti sifatida "Badoo' ul-vasat" devonining 101-raqami ostidagi g'azalini keltirish mumkin:

*Zihi taqaddumung Odamg'a bas hadisi sahih,*

*Bu nukta "kuntu nabiiyan" ishoratida sarih.*

*Azalda vaslingu hajring magar nasib o'ldi*

*Ki, jon toparni Xizir oldi, jon berurni Masih.*

*So'zungni xoni nubuvvatqa Tengri tuz yasadi,*

*Zihi kamoli malohat, zihi kalomi malih.*

*Chu sen chekib "ana afsah", taronasin qochirib,*

*Alarki da'vo ila so'z ochib, deb o'zni fasih.*

*Demak shariati bayzoni mehrga rojih,*

*Quyoshni zarrag'a qilg'an kibidurur tarjih.*

*Yuzung sabuhi azal bodesidin andoqkim,*

*Ne subhg'a bu sabohat, ne mehr muncha sabih.*

*Navoiy o'ldi nihon ishqing ichra, tirguz ani,*

*Necha nihon tutayin, ayladim o'lub tasrih [1.78].*

Ushbu g'azalning ilk baytida so'fiylar o'rtasida mash-hur bo'lgan "Kuntu nabiiyan va kona Odama baynal-moi vat-tin" (Hali Odam suv va tuproq orasida bo'lgan, ya'ni hali inson shaklida yaralmagan zamonlardayoq men payg'ambar edim) hadisi ma'nosi berilgan. Hadis ilmi bilimdonlari bo'lmish muhaddislar mazkur hadisni sahih hadislar qatoriga kiritishmagani bois birinchi misradagi "hadisi sahih" iborasini istiloh sifatida emas, balki lug'aviy mazmunida, ya'ni "to'g'ri so'z" sifatida anglashimizni taqozo qiladi. G'azalning keyingi baytini tahvilga tortamiz:

*Azalda vaslingu hajring magar nasib o'ldi*

*Ki, jon toparni Xizir oldi, jon berurni Masih.*

Mazkur baytda Xizr va Iso alayhissalomning mo'jizalariga ishora qilingan. Xizr (a)ga abadiy hayot mo'jizasi, Iso Masih (a)ga o'likka jon berish mo'jizasi berilganligi diniy manbalardan ma'lum. Navoiy payg'ambarlar mo'jizalari dastlab ibtidosiz zamon – azalda, oxirzamon payg'ambari Muhammad(s.a.v) sharofati bilan sodir bo'lganini birinchi misrada mohirona ifodagan.

*So'zungni xoni nubuvvatqa Tengri tuz yasadi,  
Zihi kamoli malohat, zihi kalomi malih.*

Ushbu baytda Payg'ambarimiz Muhammad(s.a.v)ning siyratlariga bag'ishlangan yana bir hadisga ishora berilganiga guvoh bo'lamiz. "Qisasi Rabg'uziy"da keltirilishicha, Oyisha onamiz Rasululloh (s.a.v)dan Yusuf (a) husni haqidagi so'raganlarida ul zot: – Birodarim Yusuf mendan go'zal-roqdir, lekin men undan malohatliroqman, – deb marhamat qilgan ekanlar[3.124]. Alisher Navoiy g'alayonga sabab bo'luvchi go'zallikdan e'tiqodni mustahkam qiluvchi malohat ustun ekanligini ifodalab, malohatning husndan ustunligi to'g'ri, yoqimli so'z sababli yuzaga kelishini uqtiradi.

*"Chu sen chekib "ana afsah" taronasin qochirib  
Alarki da'vi ila so'z ochib, deb o'zni fasih".*

Ushbu baytda "Men Quraysh ahlining eng fasohatlisiman" mazmunidagi hadisning boshlanish qismidan iqtibos keltirilib, sarvari olamning fasohat bobida tengsizligi shunchaki quruq da'vo yoki faxriya emas, balki voqelikning ayni o'zi ekanligi, ikki dunyo sarvarining fasohati uning g'oyaviy dushmanlari tomonidan ham tan olinganini ko'rsatadi.

Payg'ambarning fasohatli so'zlari to'g'ri yo'lida yurishi ni maslakka aylantirgan, Haq yo'lida bo'lmoqqa imon keltirgan insonlar uchun misoli dasturulamal, yo'lni yoritguvchi chiroqdir. Qur'oni karimda "Siroji munir" (yo'lni yoritguvchi chiroq – "Ahzob" surasi, 46-oyat), "Nur" ("Moida"

surasi, 15-oyat) deya ta'riflangan bu zoti munavvar keltirgan shariati bayzo ("bayzo" ikki ma'noni, ya'ni oydin, ravshan, shubhadan xoli hamda quyosh ma'nosini bildiradi) agar mehr – quyoshga qiyoslansa, shariatning quyoshdan afzalligi, quyoshning zarradan afzalligi kabi ko'rinur. Agar quyosh moddiy olamni yoritguvchi bo'lsa, shariati muhammadiya ruhoniyat olamining quyoshidir, – deydi Navoiy[2.128]:

*Demak shariati bayzoni mehrga rojih,  
Quyoshni zarrag'a qilg'an kibidurur tarjih.*

Hazrat Navoiy mazkur baytda arabcha bayzo, tojikcha mehr va o'zbekcha quyosh so'z ma'nolaridan shoirona mahorat bilan foydalanganligiga guvoh bo'lamiz. Bu holat Jaloliddin Rumiyning uzum, inab, istofil va angur haqidagi hikoyatini yodga soladi. Shariati Muhammadiyning mehrdan (quyosh yoki bayzo emas, aynan mehrdan!) afzalligi islomiy shariatning mitraizm (mehrparastlik – Quyoshga sig'inish) dinidan ustunligi ifodasi sifatida xizmat qilgan. Shuningdek, g'azalda dunyodagi barcha dinlar mohiyati-ga ko'ra yagona bo'lsa-da, islom shariatiga qiyoslanganda boshqa diniy ta'limotlar quyosh va zarraning o'xshashligi va nisbatida bo'lishi ham tasvirlagan.

*Yuzung sabuhi azal bodaсидин andoqkim,  
Ne subhg'a bu sabohat, ne mehr muncha sabih.*

Subh, sabuh, sabohat, sabih so'zлари orqali, odatda, go'zallik, yorug'lik, poklik, yaxshilik ma'nolari anglashiladi. Bu o'rinda Payg'ambarning zuhuri aynan ana shu Poklik, Go'zallik, Yaxshilik, Nur va Ziyo tantanasi ekan, har bir kishi Islom payg'ambari keltirgan dinga e'tiqod qilishi orqali mazkur yo'lда sobit bo'lishga sidqidildan bel bog'lamog'i joizligi ta'kidlanmoqda.


Alisher Navoiy Muhammad (s.a.v) shaxsiyati va ruhoniyatiga bo'lgan muhabbat jondan-da aziz ekanligini quyidagi misralarda ifodalagan:

*Navoiy o'ldi nihon ishqing ichra, tirkuz ani,  
Necha nihon tutayin, ayladim o'lub tasrih.*

Alloma oxirzamon payg'ambari siymosini nubuvvat, risolat, malohat, fasohat, shariat, sabohat tushunchalarida ifodalab, oxirgi baytni muhabbatga yo'g'rilgan so'zlar bilan yakunlaydi. Navoiy bu bilan bir tomondan islom payg'ambariga bo'lgan muhabbatni yuzaki e'tiqod mahsuli emasligi, balki buyuk ma'rifat tufayli shakllanganligiga urg'u qaratsa, ikkinchi tomondan axloqiy-falsafiy tushunchalar hamda rasulullohgagina xos bo'lgan fazilatlar aynan muhabbat mahsuli ekanligini nozik ishoralar orqali ko'rsata olgan. Ko'pgina ulamolar ta'kidlaganidek, oxirzamon payg'ambariga eng ulug' mo'jiza – So'z mo'jizasi ato etilgani bu zotning boshqa payg'ambarlardan ustunligini ko'rsatuvchi jihatlardir.

### **Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Alisher Navoiy. *Mukammal asarlar to'plami. 5-jild. Bade' ul-vasat.* – Toshkent: Fan, 1990 – B.78.
2. "Alisher Navoiy ijodiy merosining umumbashariyat ma'naviy – ma'rifiy taraqqiyotidagi o'rni" Xalqaro ilmiy anjuman materiallari. – Navoiy, – 2017. – B.128.
3. Rabg'uziy Nosiruddin Burhonuddin. *Qisasi Rabg'uziy. Birinchi kitob.* – Toshkent: Yozuvchi, 1990. – B. 124.



Nuriddin SAIDKULOV,

Guliston davlat pedagogika instituti "Ijtimoiy fanlar va san'atshunoslik" kafedrasi dotsenti v.b.

## JAMIYAT SIYOSIY TAFAKKURI SHAKLLANISHINING TARIXIY ILDIZLARI

**Annotatsiya:** Sharq mutafakkirlari ta'lomi markazida farzand tarbiyasi, ijtimoiy-siyosiy tafakkuri muhim ahamiyat kasb etgan. Ular o'z asarlarida insoniylik, vatanparvarlik g'oyalarini ulug'lashgan, xalqni har tamonlama komil inson bo'lishga undaganlar. Ma'naviy merosimiz asoslaridan bo'lgan o'gitlarda hamda allomalar ilmiy merosida axloqiy, huquqiy va siyosiy masalalarga keng o'rinn berilgan. Ulardagi hayotiy tajribalar, jamiyatda insonning tutgan o'rni haqidagi purma'no fikrlaridan samarali foydalanish bugungi kundagi har bir yosh avlod siyosiy madaniyatining shakllanishida ahamiyatlidir.

**Tayanch so'zlar:** siyosiy madaniyat, tafakkur, ma'naviy meros, jamiyat, sharq mutafakkirlari, vatanparvarlik, Avesto.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Sharq donishmandlarining: "Eng katta boylik – bu aql-zakovat va ilm, eng katta meros – bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik – bu bilimsizlidir" [1], degan hikmatli so'zlarini misol keltirib, zamonaviy va keng tafakkurli yoshlар avlodini shakllantirish, aniq fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lgan, jamiyat va davlat manfaatlarini himoya qiladigan, chinakam ma'rifat va yuksak ma'naviyat egasi bo'lish uzlusiz hayotiy ehtiyojga aylanib borayotganligi hech kimga sir emas. Buyuk o'tmish va shonli tarixga ega xalqimiz dunyo tamaddunida o'zining yuksak ilm-ma'rifati va aql-zakovati bilan doimo e'tirofga sazovar bo'lgan.

Tarixdan ma'lumki, donishmand xalqimiz yoshlarning tarbiyasiga juda ham nozik va jiddiy masala sifatida alohi-

da e'tibor qaratib kelgan. Buning asosiy sababi: yoshlarga berilayotgan e'tibor va tarbiya tufayli kelajakda ularning qanday odam bo'lib etishishi mamlakatning bevosita iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, madaniy va ma'naviy taraqqiyotini belgilab bergen.

O'tmishdan ma'lumki, xalqimiz yoshlarni tarbiyalash sohasida o'zining boy tarixiy qadriyatlar va an'analariga ega. Mazkur tarixiy qadriyatlar va an'analar "Avesto" kitobida va boshqa ko'plab qadimgi yozma manbalarda o'z ifodasini topganligini ko'rshimiz mumkin. Bundan tashqari, ijtimoiy-falsafiy asarlarda, allomalar ilmiy merosida axloqiy masalalarga keng o'rin berilgan, bu esa, yoshlar madaniyati shakllanishida muhim o'rin tutgan. Ulardagi hayotiy tajribalar asosidagi ta'limotlar hamda insoniyat va jamiyat taraqqiyotida muhim o'rin tutgan g'oyalar bugungi kunda yoshlar siyosiy madaniyatining shakllanishiga xizmat qilmoqda.

Bashariyat rivojiga ulkan hissa qo'shgan yurtimiz mutafakkirlarining bizga qoldirgan boy ilmiy merosini chuqr o'rganish hamda yoshlar tarbiyasiga yo'naltirish davlatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Zero, diyorimiz allomalarining yoshlar siyosiy madaniyatini tarbiyalash haqidagi fikrlari hamda o'gitlari yoshlarimizda ko'plab insoniylik fazilatlarini shakllantirishga zamin yaratmoqda. Bu, o'z navbatida, o'z dunyoqarashi va siyosiy madaniyatiga ega bo'lgan erkin fikrlovchi avlodni yetkazib berishda muhim ahamiyat kasb etadi.

O'tmishdan ma'lumki, Sharq xalqlarida tarbiya borasi-da ulkan ma'naviy meros yaratilgan. Bu meros asrlar davomida ajdodlardan avlodlarga o'tib, sayqallanib, yosh avlodning barkamolligini ta'minlash uchun xizmat qilib kelmoqda. Mana shunday an'analarimizdan biri – yosh avlodni tarbiyalash masalasi millat kelajagi uchun mas'uliyat hisoblangan.

Shu sababli avlod tarbiyasiga barcha davrlarda ham eng muhim vazifa sifatida alohida e'tibor qaratilgan. Sharq mutafakkirlarining ilmiy merosida insoniylik, vatanparvarlik g'oyalari yetakchi o'rinda turadi. Shuningdek, ular xalqni bilimli, ma'rifatli, intellektual kamolotini yuqori darajaga ko'tarishni millat ravnaqini belgilovchi omil sifatida e'tirof etishgan. Ma'lumki, barcha zamonlarda ham bilim ulug'langan. Buning boisi, insonning kamolati bilim orqali o'zining yuqori cho'qqisiga chiqadi.

Insonning bilimi ortgani sari olijanob, adolatli, yusak va erkinroq bo'lib boradi. Bu haqda Azizuddin Nasafiy yozadi: "Insonning vazifasi uzlucksiz ma'rifatga intilish va o'z borlig'ini nur bilan to'ldirish, ilm topib musaffolikka etishishdir"[2].

Bilimga intilishning o'zga xos xususiyatlardan biri – borliqning siru asrorlarini o'rganish, izlanish bo'lib, inson o'zi va o'zi kabilarning hayotini avvalgidan ko'ra teranroq tasavvur etishdir.

Ma'rifat sohibi bo'lgan bilimdon inson kek, xusumat, adovatdan baland bo'ladi, boshqalarning boshiga musibat-iztirob solmaydi, siyosiy madaniyatning tamoyillari bo'lgan insonparvarlik, tinchliksevarlik va vatanparvarlikni o'ziga shior qilib yashaydi.

Johilda vahshiylik unsurlari ustunroq, ayonki, vahshiyalar tildan, kalomdan, turli ixtiloflarni murosa bilan hal etish imtiyozidan mahrumlar.

Oqil esa, o'z ehtiyoji, e'tiqodi, millati, vatanini suygani yanglig' o'zgalarning ehtiyoji-tuyg'ularini ham hurmat qiladi. U o'ziga ato etilgan so'zlash, tinglash, anglash, shafqatli bo'lish kabi fazilatlardan foydalanib, adovatdan, qon to'kishdan qochadi – murosa yo'lini tanlaydi. Suqrot aytganidek: "Haqiqiy ma'rifatga erishgan inson udirki, undan nafaqat do'stlari osoyishta, balki dushmanlari ham tinch hayot kechiradilar"[3].

Ilmu ma'rifatga intilish erkka, hurlikka intilish hamdir, haqsizlik, zulmu istibdodning har qanday ko'rinishiga qarshi isyondir.

Bilim barcha dunyoviy va diniy masalalarda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Uning samarali ta'siri tufayli axloq-odob, iymon-e'tiqod hosil bo'ladi va mustahkam mavqega ega bo'ladi. Bilimni rad etuvchi axloq va e'tiqod kemptikdir, ular hayot sinovlariga bardosh bera olmaydi. Inson zoti xotira, nafsiy-hissiy va aqliy quvvatlarga ega ekan, mazkur ma'naviy quvvatlar tufayli har bir shaxs haqni nohaqlikdan, adolatniadolatsizlikdan, chinni yolg'on-yashiqdan, donolikni nodonlikdan, do'stni dushmanidan, xayrni gumrohlikdan, yaxshilikni yomonlikdan farqlay oladi.

Shunday ekan, bunday ne'matni tan olmaslik, uning xolisona xizmatidan voz kechish yoki undan sust, samarasiz foydalanish gunohi azim va axloqiy notovonlikdan o'zga narsa emas, degan fikr-mulohaza yuzaga keladi.

Ilm-ma'rifat va axloqiy fazilatlar asosi bo'lgan siyosiy madaniyat manbai haqida Sharqning zabardast mutafakkiri Abu Nasr Forobi ulkan meros qoldirgan. Forobiy o'z zamonasininggina emas, balki barcha zamonlarning buyuk allomasidir. Zamondoshlari tomonidan qayd etilishicha, Forobiydan oldin bunchalik o'tkir zehnli, bilimli alloma bo'lмаган.

Forobiy inson ijtimoiy-siyosiy takomiliga, baxt-saodatga ilm, ma'rifat vositasida hosil qilinadigan aqliy va axloqiy fazilatlarning mushtarakligi orqali erishishi mumkinligi, ilm-hikmatni egallab olish esa o'ta murakkab, mashaqqatli ekanligi haqida ogohlantirib shunday yozadi: "Kimki hikmat ilmiga kirishmoqchi bo'lsa u, avvalo, yosh bo'lishi, yaxshi mijozli, har tomonlama odob ilmini o'rgangan odam bo'lishi kerak". Avvalo, unday kishi Qur'on, til va qonunshunoslik ilmini egallashi kerak. Unday kishi odamlarga mehribon, pokiza, to'g'riso'z bo'li-

shi, fisq-fujur, gina, xiyonat, makr va hiyladan xoli bo'lishi kerak"[4], – deydi.

Sharqning buyuk mutafakkiri Ibn Sino ilm asoslarini o'rganishning ahamiyati xususida dasturiy yo'l-yo'riqlar yaratgan. Uning barcha asarlaridaadolatlilik, kamtarlik, saxiylik, sодиqlик, shijoat, hushmuomalalik, sabr, muloy-imlik, hayo, do'stlik, insonparvarlik va vatanparvarlik kabi ulug'vor fazilatlarga ta'rif va tavsif berilgan. Ibn Sino o'z hayoti va faoliyatida har doim yaxshilik va ezgulikka intilgan hamda ezgulik va adolat g'oyalarini talqin qilgan.

Ibn Sinoning fikricha, inson amaliy faoliyati ilm asosida yuksaladi. Demak, bilim, iste'dod, tajriba, malaka asosida shakllangan madaniyat inson faoliyatiga o'ziga xos yo'nalish, imkoniyat beradi.

Ibn Sino garchi ilm va siyosiy madaniyatning o'zaro aloqadorligi xususida alohida to'xtalmagan bo'lsa-da, uning axloqiy qarashlarining mantiqiy yechimi muayyan darajada ma'naviyat masalasi bilan bog'liq ekanligini anglash mumkin.

Abu Rayhon Beruniy buyuk ma'rifatparvar sifatida jamiyat taraqqiyoti bilim orqali ravnaq topishini uqtiradi. "Hukmronning ilm ahlini ko'proq maqtab, ulardan xursand bo'lishi ham ilmlarning ko'payishiga sabab bo'ladi. Demak, odamlarning qalbi buni sevishi uchun va buning teskarisi-ga esa, nafrat bildirish uchun yaratilgandir"[5].

Bu fikr orqali Beruniy ilmga rag'bat beruvchi hukmdorning ibrati oddiy kishilar uchun naqadar ta'sirli ekanligini alohida uqtirishga harakat qiladi.

Mutafakkir insonning axloqiy kamoloti, jamiyatning ma'naviy ravnaqiga to'la ishonadi. Uningcha, odam jussasi, suratini o'zgartirib bo'lmaydi, chunki ular tabiiy jarayonlar, sharoitlar va ularning tadrijiy o'zgarishlarining mahsulidir. Ammo uning qalbini, ichki dunyosini cheksiz bir tarzda isloh qilib borish, salbiy jihatlarini bartaraf etib, ijo-

biy tomonlariga keng yo'l ochib bergan holda unda axloqiy fazilatlarni asta-sekin shakllantirish mumkin.

Sharq musulmon allomalari adolatli jamiyat, ijtimoiy tenglikka asoslangan tuzum haqida ko'p fikr-mulohaza yuritganlar. Bu haqda ulug' alloma Zamahshariy: "Haqiqat va adolat bilan to'g'ri siyosat yurgizmagan har bir rahbar va boshliq qattiq azob-uqubat va baloga griftor bulur"[6] – degan fikri orqali siyosiy jihatdan ham yetuk bo'lishni tabab etgan.

Kimlarningdir o'nlab yillar davomida mashg'ul bo'lgan "faoliyatları" natijasi oddiy bir siyosiy burilishning o'zi-dayoq "aravadan tushib qoladi" yoki "qumga quyilgan suvdekk" yo'q bo'lib ketadi. Vaholanki, biz bitilganiga ming yillar bo'lganiga qaramay, falsafaning asl manbasi bo'lmish abadiy qadriyatlarni tarannum etgan ajdodlarimiz merosini ko'hna tarix qa'ridan misqollab terib olishga hozir ham katta ehtiyoj his etmoqdamiz.

Yusuf Xos Hojib qalamiga mansub XI asr turkiy xalqlarining noyob yozma yodgorligi bo'lmish "Qutadg'u bilig" ("Saodatga boshlovchi bilim") asarida ilm-ma'rifat, odob-axloq, davlatni boshqarish yo'l-yo'riqlari, milliy-madaniy qadriyatlar haqidagi keng qamrovli qarashlar, mulohazalar o'z aksini topgan. Uning mazmun-mohiyatini inson muammoси tashkil etadi.

Ilmu hikmat xususida, ilmlı kishining fazilatlari, bilim va ibratning mushtarakligi masalalari to'g'risida Ahmad Yugnakiy o'zining "Hibat ul-haqoyiq" (Hikmatlar tuhfasi) asarida batafsil to'xtaladi. Asarning "Ilm manfaati, jaholating zarari haqida" deb atalgan birinchi faslida: "Bilim bilan saodat yo'li ochiladi, shunga ko'ra ilmlı bo'l, baxt yo'lini izla", – deb yoziladi.

"Bir ilmlı kishi mingta ilmsizga tengdir, tenglovchi (tangri) ilm nasib etgan kishiga o'lchab berdi, mana, bo'qib sinab ko'rigin, ilmdan ziyoda nima bor. Ilm orqali odam

yuqorilab yuksaladi, nodonlik quyiga qarab tubanlashtiradi, erinma, ilmli bo'l"[7], – deb uqtiradi Ahmad Yugnakiy.

Darhaqiqat, ilm egasida farosat, fasohat, andisha, oriyat kabi insoniy fazilatlar nisbatan mukammal shakllanganligi bois, atrofdagi voqeа-hodisalardan, kishilararo muloqotlardan, insoniy munosabatlar turfa xilligidan ham o'ziga tegishli g'oyaviy-siyosiy namunalarini ajrata oladi.

Tarixdan ma'lumki, Amir Temur yoshlar qalbi va ongida siyosiy madaniyatni shakllantirishga alohida e'tibor qaratgan. Amir Temurning "Tuzuklari", bizning nazarimizda, mamlakatda yoshlar siyosiy madaniyatini shakllantirishda muhim nazariy manba sifatida bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Unda buyuk hukmdor davlat siyosati masalalariga o'zining qat'iy munosabatini noziklik bilan teran bayon qilgan. U o'z "Tuzuklar"ida sulton sifatida kishilik jamiyati taraqqiyoti mazmunini, uning obyektiv qonunlari va ularning o'zaro aloqadorligini chuqur anglaganini namoyon qilgan. "Tuzuklar"da adolatli hukmdor, adolatli davlat siyosati ustunlari qanday bo'lishi kerakligini bayon etish bilan bir qatorda, buni o'z davlatining faoliyatida amaliy ko'rsatib bergenligi bilan ahamiyatlidir.

Ammo, Temur rahbarlarda qizg'anchiqlik, qasoskorlik va shu kabi salbiy illatlarning namoyon bo'lishini qoralab, bunday kishilar hurmatga loyiq emasligini alohida ta'kidlagan.

Bularning barchasi Sharq o'rta asrlarining buyuk davlat rahbari faoliyatida xulq-odob va siyosiy madaniyat me'yorlari islom falsafasi negizida o'ziga xos tarzda namoyon bo'lgani va davlatchilik amaliyotida yaxshi samaralar bergenini anglatadi.

Umuman olganda, ulug' ajdodlarimiz Abu Nasr Forobiyning "Fozil odamlar shahri", Alisher Navoiyning "Xamsa", Nizomiddin Shomiyning "Zafarnoma", Sharafuddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma", Nizomulmulkning "Siyosatnoma"

asarlaridagi davlatni boshqarish san'ati va shu san'at orqali siyosiy madaniyatni shakllantirish borasidagi fikrlari bugungi kun uchun ahamiyatlidir.

Jadid ma'rifatparvarlarining qarashlariga e'tibor qaratadigan bo'lsak, ularning aksariyati oilada tarbiyani to'g'ri yo'lga qo'yishga jiddiy e'tibor qaratganlar.

Ulug' jadid ma'rifatparvari Abdurauf Fitrat qayd etganidek: "Ota-onha o'z farzandining tarbiyasi bilan jiddiy shug'ullanishi kerak, ammo farzand tarbiyasi bilan shug'ullanadigan ota-onaning o'zлari avvalo, tarbiya ko'rgan, farzand tarbiyasi haqida muayyan bilimga ega bo'lishlari kerak, ularning har ikkisi o'z vazifasini, ota-onalik burchini mukammal ado etishlari, toki ular farzandni jisman, aqlan va axloqan kamolga yetishtirib, hayot maydoniga kuchli, aqli va yaxshi axloq bilan chiqarishi zarur"[8]. Zero, ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan beباho didaktik meros yoshlar ta'lim-tarbiyasida muhim omil vazifasini o'taydi. Bugungi kunda ular tomonidan yaratilgan ta'lim-tarbiya usullarini xorijiy ilg'or tajribalar bilan uyg'unlashtirish va ta'lim jarayonida unumli foydalanish, o'z navbatida, ta'lim jarayonida kutilgan samaradorlikka erishish imkonini beradi. Bugungi kunda globallashuvning tobora avj oliishi tarbiyaga yangicha va tizimli yondashuvni taqozo etmoqda. Hozirgi paytda dunyo miqyosida keskin tus olib borayotgan shiddatli raqobatga faqat innovatsion-kreativ yutuqlarini keng targ'ib qilish hamda ajdodlarimiz qoldirgan ma'nnaviy meros orqali munosib javob berish strategik vazifa sifatida bizning faoliyatimizda ustuvor yo'nalishga aylanmoqda. Binobarin, ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan ma'nnaviy meros, yosh avlodni tarbiyalashda biz avlodlarga g'urur bag'ishlaydi va insonlar qalbidagi Vatan mehri oliv qadriyat ekanligini anglatadi.

Vatan bu - Alloh inoyati bilan har bir millat, elatga berilgan beباho ne'matdir. Jonajon vatanimizga fidoyi

bo'lib xizmat qilish bu har bir insondan doimo xushyor, sergak, ogoh bo'lishni taqozo etadi. Vatan – muqaddas qadriyat. Vatan mehrini, Vatan sehrini uning ulug'vorligini ta'riflashga so'z ojizdir. Inson uchun na davlat, na sultanat, na toju taxt – hech bir narsa Vatanga, el-yurt mehriga aslo teng kelolmaydi.

Vatan ravaqa, yurt tinchligi va xalq farovonligi uchun fidoiylik tuyg'usi – ajdodlarimizdan bizgacha etib kelgan buyuk meros, axloqiy qadriyatdir. Vatanga muhabbat, imonga sadoqat Temur Malik, buyuk sarkarda Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi kabi ulug' yurtparvarlar, Vatan ozodligi yo'lida qo'lida tig' va tug' ila jon bergan Shayx Najmidin Kubro, Vatan hajri va dog'ida yonib o'tgan Bobur Mirzolar ibrati bizga yurt mustaqilligi va xalq ozodligi yo'li da aziz jonini, muborak qonini fido qilgan vatanparvar, xalqparvar insonlarning muhabbati naqadar ulug', imonlari qanchalik mustahkam ekanini yana bir bor namoyon etadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, quyidagi xulosaviy fikr-mulohazalarni ilgari surish mumkin:

1. Ma'naviy merosimiz asosidan joy olgan o'gitlar va odobnomalarda, allomalar ilmiy merosida axloqiy masalalarga keng o'rinn berilgan. Ulardagi hayotiy tajribalar, jamiyatda insonning tutgan o'rni haqidagi purma'no fikrlaridan samarali foydalanish bugungi kundagi har bir yosh avlod siyosiy madaniyatining shakllanishida ahamiyatli hisoblanadi.

2. Sharq mutafakkirlari ta'limoti markazida farzand tarbiyasi alohida mavzu sifatida o'rinn egallagan. Ular o'z asarlarida insoniylik, vatanparvarlik g'oyalarni ulug'lashgan, xalqni har tamonlama komillik bo'lishga undaganlar. Mutafakkirlarimiz mazkur mavzu yuzasidan bildirgan g'oyalari yoshlar ongida siyosiy madaniyatni shakllantirishda dolzarb ahamiyat kasb etadi.


3. O'rta Osiyo mutafakkirlarining yoshlarni tarbiyalash haqidagi fikrlari imon-e'tiqodli, g'ururli, odob-axloqli, siyosiy madaniyatga ega bo'lgan barkamol avlodni voyaga yetkazishning muhim vositasi sifatida xizmat qiladi.

4. O'tmish mutafakkirlarining komil inson haqidagi fikrlari, insonparvarlik, buniyodkorlik g'oyalari bugun ham g'oyaviy-siyosiy madaniyatimizni shakllantirishda muhim hisoblanib, ulardan oilada, ta'lrim muassasalarida, ma'nnaviy-ma'rifiy tadbirlarda samarali foydalanish maqsadga muvofiqdir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

*O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi* <http://aza.uz/oz/politics/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyeevning-oliy-25-01-2020>

1. Nasafiy A. Zubdat ul-xaqoyiq // N.Komilov tarjimasi. -T.:Kamalak, 1995. -B. 61.
2. Shomahsudov Sh., Shoraxmedov Sh. Hikmatnoma. -T.: O'zSE, 1990. - B. 231.
3. Abu Nasr Forobi. Fozil odamlar shahri. – T.: Fan, 1993. – B.195-196.
4. Hikmatlar to'la bu dunyo. Nashrga tayyorlovchi va tarjimon A.Irisov. -T: O'qituvchi, 1997. –B. 56.
5. Zamahshariy. Nozik iboralar. – T: Kamalak, 1992. –B. 52.
6. O'zbek pedagogikasi antologiyasi. – T: O'qituvchi, 1995. – B. 190.
7. Abdurauf Fitrat. Tanlangan asarlar. – T: Ma'nnaviyat, 2006. –B. 215.



Inoyat ESHPULATOV,  
BuxDUmustaql izlanuvchisi

## G'AZZOLIY VA UNING TARBIYA FALSAFASI

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada G'azzoliy va uning tarbiya maslasida fikrlari yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** G'azzoliy, ma'rifat, targ'ibot, mutaffakir, tolerantlik, bilim, poklik, tarbiya, tafakkur

Ulug' ma'rifat sohibi, butun umrini ma'rifat targ'iboti-ga, ma'rifiy tuyg'uning nozik qirralarini kashf etishga bag'ishlagan olim Abu Homid G'azzoliyning til ofatlari to'g'risidagi qarashlari alohida e'tiborga molikdir. Mutaffakkirning ushbu masala to'g'risidagi qarashlari mashhur "Ihyou ulumid-din" (Diniy ilmlarni tiriltirish) asarining "Muhlikot" (*halokatga olib boruvchi ofatlar*) qismidagi "Til ofatlari" kitobida tahlil qilingan.

G'azzoliy qarashlariga ko'ra, "til-Oollohning ulug' ne'mati, ajibu latif san'atidir" [1.5]. Haqiqatdan ham borlik, yo'qlik, ma'lum va noma'lum narsalarning barchasi til yordamida izohlanadi. Til jismimizda kichik a'zo bo'lsa ham inson hayot faoliyatida katta ahamiyatga ega. Mutafakkir qarashlaridan shu narsa ma'lum bo'ladiki, kimki tilning jilovini qo'yib yuborsa, shayton uni jar yoqasiga sudrab, halokatga boshlaydi. Shu sababli insonga eng itoatsiz a'zo tildir. Bu suyaksiz a'zoning osongina harakatga kelishi kutilmagan oqibatlarga sabab bo'ladi. Til ofatlaridan saqlanishning yagona yo'li jim yurishdir, deydi G'azzoliy. U jim yurishning fazilatini Payg'ambarimizning quyidagi fikrlari bilan asoslaydi: "Gapi ko'p odamning yiqilishi ko'p. Yiqilishi ko'p odamning gunohi ko'p. Gunohi ko'p odam ja-hannamga loyiqdir". Shu asosda G'azzoliy gapni to'rt turga bo'ladi:

- 
1. Faqat zarardan iborat gap.
  2. Faqat foydadan iborat gap.
  3. Zarar va foydadan iborat gap.
  4. Zarari ham foydasi ham yo'q gap. [1.13].

Alloma qarashlariga ko'ra, faqat zarardan iborat gap-dan sukut saqlash lozim. Zararidan saqlanish uchun zarari va foydasi bor gapdan ham tiyilgan ma'qul. Na foyda va na zarari bor gap vaqtini zoe ketgazishdan boshqa narsa emas. Eng keraklisi faqat foydadan iborat gap. G'azzoliyning ta'kidlashicha, tilning ofati mana shunda. Agarda faqat foydadan iborat gapga riyo, soxtalik, g'iybat va boshqa ofatlar aralashsa, foyda va zararning chegarasi maxfiylashib, inson xatar ichida qoladi.

Alloma tilning quyidagi yigirmata ofati bor ekanligini ko'rsatadi:<sup>1</sup>

Birinchisi, *behuda gap*. Inson na o'ziga, na o'zgaga zarari tegmaydigan gapni so'zlashi, alloma nazdida muboh (*ixtiyoriy*). Ammo bu so'zdan biror foyda ko'zlanmas ekan, bu vaqtini zoe ketkazish yoki behuda gap bo'ladi. G'azzoliy vaqtini-mo'minning sarmoyasiga o'xshatadi. Haqiqatdan ham kimki asosiy boyligi bo'lgan vaqtining qadrini bilsa, uni faqat foydali narsaga sarflaydi. Buni bilish tilni bema'ni so'zlarni aytishdan asraydi. Alloma nazdida, kimki Alloh zikrini tark qilib, bema'ni so'zlarni aytish bilan band bo'lsa, "u go'yo gavharni olishga qodir-u, ammo uning o'rniغا ke-sakni oлган odamga o'xshaydi". [2.194].

Til ofatlarining ikkinchisi, *mahmadonalik*. Bu zarur yoki zarur bo'lмаган gaplarni keragidan ortiq gapirib, laqmalik qilishdan iborat. Haqiqatdan ham zarur gapni bir-ikki og'iz so'z bilan bayon qilish ham mumkin yoki uni istagancha bo'rttirib ifodalash ham mumkin. Demak, maqsadni bitta so'z bilan ifodalash imkonni bo'la turib, ikki, uch so'zga o'tish-mahmadonalikdir.

---

<sup>1</sup> Ўша асар. – Б. 14.

*Uchinchi ofat botil so'zlarga berilish.* G'azzoliy ayollar, ichkilik bazmlari, boylarning aysh-ishratlari, har xil nojoyiz marosimlar va boshqa yoqimsiz holatlarni hikoya qilishni botil so'zlarga berilish hisoblaydi. Haqiqatdan ham insonlarning aksariyati shunchaki chaqchaqlashib o'tirish uchun yig'iladilar. Ularning suhbatlari kimlarningdir sha'nini mazax qilish yoki botil so'zlarga sho'ng'ishdan nariqa o'tmaydi. Alloma botil so'zlardan saqlanishning yagona chorasi gapni qisqa qilish, deb uqtiradi. Botil so'zlarga asossiz yoki ilmga asoslanmangan xusumatni (*tortishuvni*) ham kiritadi [2.195]. Darhaqiqat, xusumat nafratni qo'zg'atadi, g'azabni kuchaytiradi, hasadni keltirib chiqaradi, obro'-e'tiborga putur yetkazadi.

To'rtinchi ofat, *bahsu mujodala*. O'zi haq bo'la turib, bahsu munozaradan kecha oladigan bo'lmaguncha insonning iymoni komil bo'lmaydi deydi, G'azzoliy. Bundan xulosa shuki, tortishuv qalblarni qotiradi va nafrat paydo qiladi. Bahsu jadal boshqalarining har bir so'ziga e'tiroz bildiraverishdan tug'iladi. Ya'ni, tortishuvchan kishi aytayotgan gaplarning so'zlarida yoki ma'nosida yoki gapi-ruvchining maqsadida noto'g'rilik bor, degan gumon bilan suhbatdoshiga qarshi chiqaveradi. Mutafakkir behuda bahsu munozarani tark etish inkor va e'tirozni tark etish bilan amalga oshadi, deya ta'kidlaydi.

Beshinchi ofat *xusumatlashmaslik*. Inson xusumatlashayotgan paytda tilni chegarada ushlab turishi qiyin. Xusumat qalbni nafratga to'ldirib, g'azabni qo'zg'aydi. Agar insonda g'azab kuchaysa, nima haqda tortishilayotgani unutiladi. O'rtada kek adovat paydo bo'ladi. Hattoki birining quvonchidan ikkinchisi g'amga botadi. Shu sababli G'azzoliy, xusumatni boshlagan odam eng kamida xayoli buziladi, deydi. Bu bilan mutafakkir kam deganda yaxshi so'z va undan yetadigan savob boy berilishini nazarda tutadi.

Oltinchi ofat *vaysaqilik va takalluf*. Vaysaqilik – bu so'zga chechanligini ko'rsatishga urinib, gapni uzundan-uzoq muqaddimalar bilan cho'zishga zo'r berishdir. Alloma nazdida, har bir narsa muayyan maqsad doirasida chegaralanishi lozim. Gapdan maqsad nima ko'zlanayotganini tushuntirishdir. Undan uyog'i soxtakorlik, yasamalikdan boshqa narsa emas.

Yettinchi ofat *so'kish, behayolik*. So'kib gapirish, tilni behayo so'zlar bilan bulg'ash o'ta xunuk bo'lib, shariatimiz undan qaytargan. Chunki so'kish jinsiy aloqa hodisasi bilan bog'liq lafzlar orqali ifodalanadi. Bu so'zlarning manbai yomonlik va malomat hisoblanadi. Shu sababli G'azzoliy "Bilingki fahsh va odobsizlik yomon-qabih ishlarni ochiq-beibo iboralar bilan aytishdir. Ko'pincha bunday so'zlar jimo' (*jinsiy aloqa*) va bunga bog'liq lafzlar bilan aytildi. Chindan ham yaxshilik ahli bu iboralardan ehtiyo bo'ladi va undan saqlanadi" [2.196].

Sakkizinchchi ofat – *la'natlash*. Xoh jonli, xoh jonsiz, xoh inson, xoh hayvon bo'lsin bularni la'natlash ayb sanalgan ishdир[1.46], deydi G'azzoliy. Haqiqatdan ham odamlar la'natga e'tiborsiz qarab, bu borada tilga erk berib yubordilar. Tilni la'natlashdan tiyish lozim. Alloma nazdida "la'nat"ning ma'nosi – Allohning dargohidan quvilish, Allohdan uzoqla-shish deganidir. Shunday ekan, faqat kofir holida o'lgan kishini yoki kufr bilan sifatlangan ma'lum kishilar guruhini la'natlash mumkin. Mutafakkir qarashiga ko'ra, la'nat buyuk va qudratli zotga havola etilgan shunday hukmki, u tufayli Alloh mal'unni O'zidan uzoqlashtiradi. Ammo bu g'ayb masalasi bo'lgani uchun Allohdan o'zgasi asl haqiqatdan bexabar.

To'qqizinchchi ofat *beodob ashula va buzuq she'r*. Mutafakkir qarashlaridan shu narsa oydinlashadiki, she'r yozish yoki she'r o'qish harom emas, agar u buzuq ma'no va nojo'ya so'zlardan iborat bo'lmasa. U bu qarashni Payg'am-

barimizning “she’rda hikmat bor” degan fikri bilan asoslaydi.

O’ninchи ofat *hazil-huzul*. Alloma hazilning asli qorallangan, ammo yengil darajadagi mutoyibaga istisno tariqasida ruxsat berilgan, deb tushuntiradi. Demak, bu boradagi qaytariq haddan oshgan yoki domiylik tusini olgan hazil-huzulga qaratilgan. Chunki, kishi domiy hazilga o’rganib qolsa, bu uning ermagiga aylanadi, tabiatи hazilga moyil bo’lib qoladi. Vaqtichog’lik qilish, qandaydir ermak bilan ovunish ixtiyoriy ish. Ammo o’sha ermakka uzlusiz bog’lanib qolish noto’g’ri. Shu sababli, hazil haddan oshsa, kulgu ko’payadi. Ko’p kulish qalbni o’ldiradi, ichni nafratga to’ldiradi, mahobat va viqorni ketkizadi. Mutafakkir “man shu illatlardan holi bo’ladigan darajadagi hazil-mutoyiba qoralanmaydi” [1.58], deya ta’kidlaydi.

O’n birinchi ofat *masxaralash va istehzo*. “Masxara qilish” deganda-mensimaslik, tahqirlash, aybu nuqsonlarini aytib, ustidan kulish tushuniladi. Alloma nazdida masxara va istehzo dilga ozor yetkazgani uchun ham man qilingan ishdir. Dilga ozor yetkazadigan, asosida masxara qilish bo’lgan kulgu harom. Ammo, kimdir o’zini o’zi masxara qilib rohatlansa, mutafakkir ta’kidlashiga ko’ra, bu hazil-huzulga kiradi.

O’n ikkinchi ofat *sirni ochish*. Sirni ochish shariatga ko’ra man qilingan ish. Chunki sir ochilar ekan, bunda sir saqlanayotgan narsaga va sirdoshga humratsizlik va azyyat bor. G’azzoliy qarashlariga ko’ra, sirni ochish orqali kimgadir zarar yetsa, bunday vaziyatda sirni ochish harom. Agar zarar yetmaydigan bo’lsa ham sir ochilsa, past-kashlik qilingan bo’ladi. Ammo bu-larning ichida “xotininga yolg’on so’zlashga va urushda hiyla-aldov ishlatishga ruxsat etilgan” [2.197]. Darhaqiqat bu ixtiyoriyidir. Buni G’azzoliy quyidagicha ifodalaydi. “Barcha chiroyli maqsad-larga yetishish faqat yolg’on bilan bo’ladigan bo’lsa, agar

maqsad (istalgan narsa) muboh bo'lsa, yolg'on ishlatish ham muboh etiladi, ijozat beriladi. Agar maqsad vojib narsa bo'lsa, yolg'on ishlatish ham vojib bo'ladi. Iloji boricha yolg'ondan ehtiyyot bo'lish zarur bo'ladi" [2.197].

O'n uchinchi ofat *yolg'on va'da*. Til doimo va'da berishda peshqadam, ammo nafsning berilgan va'daga vafo qilmaslik holati ko'proq. Mutafakkir nazdida, munofiqlikning belgisi mana shu narsa. Agar kishining niyatida va'daga vafo qilish bo'lsa-yu, amalda uni bajarolmay qolsa, Alloma nazdida, bu va'daga xiloflik emas. Va'da qat'iy berilgandan so'ng, toki uni bajarmaslik uchun uzrli sabab yo'q ekan, va'daga vafo qilish zarur. Bajarmasligini bilib va'da berish esa munofiq-lik belgisidir.

O'n to'rtinchi ofat *yolg'on so'z va yolg'on qasam*. Nemis faylasufi Fridrix Nitshening fikriga ko'ra, inson yolg'onsiz yashay olmaydi. Unga yolg'on kerak, u haqiqatga sodiq bo'lish, haqiqat yukini ko'tarishga qodir emas. "Odamlarning tinchini buzmang! Ular o'zlarining yolg'on va aldonlari bilan umr o'tkazaverishsin. Yolg'on yaxshi, yolg'on hayotning tirgagi" [3.20], deydi Nitshe. Yolg'on goho kislorodga o'xshab, nafas olishni yengillashtiradi va ish harakatni tezlashtiradi. Shu bois ba'zilar uchun yolg'on – yashash usuli hisoblanadi. Shunga qaramasdan, Nemis faylasufining fikrini to'la ma'qullash to'g'ri emas. U insonga faqat insoniylik doirasida nazar tashlagan.

"Yolg'on boshqa kishiga zarar yetkazgani uchun ham haromdir. Zararning eng kam darajasi shuki, eshituvchi yolg'oni haqiqat o'rnida qabul qiladi. Oqibatda u haqiqatdan bexabar kishiga aylanadi. Shu sababli, yolg'on munofiqlik eshiklaridan biri hisoblanadi. Shu o'rinda G'azzoliy Hasan Basriy tilidan quyi-dagilarni ta'kidlaydi: "Munofiqlik til bilan dilning, so'z bilan amalning, ichkari bilan tashqarining xilof kelishidir. Shak yo'qki, munofiqlik yolg'on ustida barpo bo'ladi" [1.73].

Mutafakkir qarashlariga ko'ra yolg'onni gapirmoqchi bo'lgan kishi yolg'onga sabab qilinayotgan maqsad, shar'iy o'lchovga ko'ra, rostini gapirishdan muhimroqmi yoki yo'qmi bu haqda jiddiy o'ylab ko'rishi shart. Buni aniqlash esa oson ish emas. Demak, xavfsizrog'i – yolg'onni tark qilishi lozim. Alloma nazdida, agarda yolg'on gapirilmasa qon to'kilishi yoki og'irroq gunohga botilish ehtimoli bor vaziyat bundan mustasno. "Yolg'ondan boshqa chorasi qolmagan paytda maoriz (Gapning o'z ma'nosini yashirib, boshqa ma'noga burib gapirish.) bilan vaziyatdan chiqib ketish mumkin", deydi alloma[1.85].

O'n beshinchı ofat *g'iybat*. "Ey birodarim, bilib qo'yki, Alloh, o'zining Qur'onida g'iybatning yomonligi haqida keskin aytib, g'iybat qilganni o'likning etini yeganga o'xshatgandir" [4.80], deydi G'azzoliy. Alloma qarashlariga ko'ra, g'iybatning chegarasi-birodarining o'zi yo'g'ida unga yoqmaydigan so'z bilan tilga olishingdir. Bu har xil holatda namoyon bo'ladi. Bu so'zing uni badanidagi biror aybiga yoki nasabiga, xulqiga, fe'liga, molu-dunyosiga hatto libosiga tegishlimi, baribir, g'iybat sanaladi. Oddiy qilib aytganda g'iybat o'sha odamga yetib borganda dilini xira qiladigan so'zlardir. G'azzoliy e'tiroficha, tilni g'iybatdan tiyish ilm va amal qorishmasi bilan muolaja qilinadi.

"Biling! Chindan ham g'iybatni eshituvchi g'iybatga sherikdir" [2.199], deydi G'azzoliy. U g'iybatni eshitganlik gunohidan xalos bo'lmaydi. U tili bilan inkor etishi va agar qo'rqlas, qalbi bilan rad etishi lozim. Agar uni daf qilishga qodir bo'lsa yoki boshqa bir so'z bilan g'iybatni to'xtatishga imkon topsa, uni amalga oshirishi lozim. Shu o'rinda alloma g'iybat sabablarini to'rtga bo'ladi:

1. Achchiqni bosish (*g'azab o'chini olish*).
2. Tengdoshlarning muvofiqligi, do'stlar muomalasi va ularning yordami.

3. O'zgalarni kamsitib, o'zining irodasini yuqoriga ko'tarish.

4. O'yin-hazil, boshqalarga taqlid etish orqali odamlarni kuldirish bilan zimdan kishilarning ba'zisiga ziyon yetkazish[2.201].

Mutafakkir qarashlariga ko'ra, fahmlash quvvati yetmasa ham noaniq, tushunilishi qiyin bo'lgan narsalar haqidagi so'rayverish yaxshi emas. Bunga payg'ambarimizning quyidagi fikrlarini asos qilib ko'rsatadi: "Odamlar bir-birlariga savol berishda shu darajaga yetdiki, "Olloh barcha maxluqotni yaratdi", deyilsa, ular: "Undoq bo'lsa, Ollohnini kim yaratdi!?" deyishadi Agar shunday deyishsa: "Ayting: "U – Olloh birdir. (Ya'ni, Uning hech qanday sherigi yo'qdir. U yakkayu yolg'izdir) Olloh (barcha hojatlar bilan) ko'zlanguvchidir (ya'ni barcha hojatlar undan so'raladi, ammo U hech kimga muhtoj emasdir). U tug'magan va tug'ilmagan."

Xulosa qilib aytganda vatanimiz taraqqiyoti xalqimizning har bir vakili erishishi lozim bo'lgan sog'lom ma'rifiy saviyaga bog'liq ekan, G'azzoliyning tarbiya falsafasi, unda til ofatlari to'g'risidagi qarashlari, ularni muolaja qilish yo'llari hozirgi vaqtida kechiktirib bo'lmaydigan darajada zarur va dolzarb.

### Foydalanimanligi adabiyotlar ro'yxati:

1. Abu Homid G'azzoliy. Til ofatlari. Toshkent: "Toshkent islam universiteti" nashriyot-matbaa birlashma-si. 2011. – B. 5.

2. Imam Ahmad ibn Qudoma Maqdisiy. Minhojul – qosidiy (saodat izlovlchilarga qo'llanma). Toshkent: "Toshkent islam universiteti" nashriyot matbaa-birlashmasi, 2009. – B. 194.

3. Shayx Najmuddin Kubro. Tasavvufiy hayot. Toshkent: Mavarounnahr, 2004. – B. 20.

4. Abu Homid G'azzoliy. Mukoshafat – ul qulub (Qalblar kashfiyoti). Toshkent: Adolat, 2002. – B. 80.

**Muzaffarxon JONIYEV,**

*Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi  
Ilmiy-tadqiqotlar bo'limi boshlig'i,  
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

## **BOBURIYLAR DAVLATI MADANIY HAYOTIDA TERMIZIY XATTOTLAR**

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada Boburiylar davlati madaniy hayotida Termiziy xattotlar haqidagi fikrlari ilmiy tahlil etilgan.

**Kalit so'zlar:** Boburiylar, davlat, fan, madaniyat, Termiz, xattot, olim, musavvir, musiqachi.

Dunyo madaniyati tarixida o'ziga xos o'rniiga ega bo'lган Boburiylar davlati ilm-fan, san'at, me'morchilik kabi turli sohalarga homiylik qildi. O'zlari shoir va tarixchi bo'lishi bilan birga olim, musavvir, musiqachi, me'mor va shu kabilarni taqdirlab, hamisha qo'llab quvvatlaganlar. Fan va madaniyatning gullab-yashnashi, me'morchilik, rassomlik, qurilish, iqtisod va savdo-sotiqning yuksalishiga ulkan hissa qo'shganlari haqida ko'plab tarixiy misollar keltirish mumkin. Xususan, Humoyun davrida oltita yirik tarixiy asarlar yaratildi, shu jumladan, Mirzo Haydarning "Tarixi Rashidiy", Ibrohim bin Jarirning "Tarixi Humoyuniy" kabi asarlar yozildi.

Markaziy Osiyoda Temuriylar davrida gullab yashnagan fan va madaniyat mazkur sulolaning tugashi bilan sekin asta avvalgi haroratini yo'qota boshladi. Mintaqadagi siyosiy va iqtisodiy beqarorlik o'z navbatida ilm ahlining faoliyatiga ham o'z ta'siri o'tkazmay qolmadı. Temuriylar madrasalarida yetishgan ko'plab olimlar Safaviylar, Usmoniyilar, Oqquyunlilar kabi davlatlarda o'z faoliyatlarini davom ettirishga majbur bo'ldilar. Keyinchalik, Hindistonda

Boburiylar davlatining qurilishi va boburiy hukmdorlarning ajdodlari kabi fan va madaniyat ahliga alohida e'tibori natijasida Buxoro, Samarqand, Kesh va Termiz kabi ko'plab Markaziy Osiyo shaharlardan olimlar ushbu davlat hukmdorlarining rahnamoligi ostida Hindiston va Afg'onistonda faoliyat yuritganlar.

Boburiy hukmdorlarning rahnamoligi va himoyasida Hindistonda islom madaniyati o'ziga xos ravishda rivoj topdi. Ana shunday rivojlanishda o'zining bebahosan'at asarlari bilan hissa qo'shgan Termiziyy nisbasi bilan tanilgan Shayx Sayyid Abdulloh Husayniy Termiziyydir. Shayx Ne'matulloh Valiy naslidan bo'lgan olim ta'liq xatida mo'hir bo'lgan. O'z davrida boburiy hukmdor Jahongir ibn Akbarshoh (1569-1627 yy.) tomonidan Sayyid Abdulloh Termiziyyga Mushkinraqam ya'ni Xushnavis laqabi berilgan. Sayyid Abdulloh Termiziyy xattot bo'lishi bilan birga Vasfiy taxallusi bilan fors tilida she'rilar yozgan va hatto bir devon ham tartib qilgan. Xattot va shoir Sayyid Abdulloh Termiziyy 1627-yilda Hindistonning Ajmer shahrida vafot etgan [5:9].

Mir Muhammad Sharif Termiziyy. Sayyid Abdulloh Termiziyyning singlisining farzandi bo'lgan Mir Muhammad Sharif Termiziyy o'z davrida nastal'iq xatida usta bo'lganligi manbalarda qayd etiladi. San'atkorlar homiysi bo'lgan boburiy hukmdor Jahongir ibn Akbarshoh ushbu xattotga tog'asi kabi Kotibi Sultoniy nomini bergen. Xattot 1644-yilda vafot etgan [1:579].

Muhammad Solih Kashfiy Termiziyy. Kashfiy Termiziyy tavallud sanasi ma'lum emas. Olim, xattot va shoir Mushkinraqam Sayyid Abdulloh Termiziyyning farzandi bo'lib, 1651-yilda Agra shahrida vafot etadi [2:4].

Muhammad Solih Kashfiy Termiziyy, Subhoniy, Koshifiy, Termiziyy, Husayniy kabi taxalluslari bilan manbalarda tilga olinadi. Boshlang'ich ta'limni otasidan olib, davrning zaruriy ilmlarini Boburiylar (1526-1858) sulolasidagi olimlardan olgan. Kashfiy Termiziyy hayoti davomida ko'plab qiy-

inchiliklarga duch keladi. Bir qancha muddat faqirlikda kun kechiradi. Umrining oxirda 1056/1646-yili Shoh Jahon (1628-1658) kutubxonasida dorug'achi bo'lib ishlaydi. Ko'p vaqt o'tmay davlat kutubxonasi nazoratchisi lavozimidan Agraning shaharlaridan birida tug'rolik lavozimiga o'tadi. Bundan ma'lum bo'ladiki, Kashfiy nafaqat shoir, xattot bo'libgina qolmay balki mohir lashkarboshi ham bo'lgan.

Kashfiy Termiziyning ota-bobolari termiziy sayyidlaridan bo'lib, Shohrux Mirzo (1377-1447 yy.) hukmronligi davrida siyosiy-ijtimoiy vaziyat taqozosi bilan Hindistonga ko'chib borishadi.

Kashfiy Termiziyning ilmiy-adabiy merosi quyidagilardan iborat bo'lib, fors va urdu tilida yozilgan. Jumladan, "Manoqibi Murtazoviy" "Ruboiyot", "E'jozi Mustafaviy", "Shahidi qudsiy", "Risolai musiqiy", "Devon" ("She'riy dev-on") va "Majmuayi roz" asarlaridir.

Asarlarining ma'no-mazmun jihatidan fiqh, kalom, tasavvuf she'riyat va san'atga bag'ishlangan bo'lib, bugungi kunga qadar Hindiston, Pokiston, Eron va London kabi mamlakatlarning qo'lyozmalar fondida saqlanib kelinmoqda[2:10].

Mavlono Muhammad Mo'min ibn Abdulloh Husayniy Termiziyy. U o'z davrida mashhur xattot, mohir jangchi, shoir va olim sifatida tanilgan. Boburiy hukmdor Shohjahon Muhammad Mo'min Termiziyni o'z jiyani Sulaymon Shukuhga muallim etib tayinlagan. Manbalarda olimning sakson yilda yaqin umr ko'rgani ko'rgani va hatto Avrangzeb Olamgir (1658-1707 yy.)ning hukmronligi davrida ham rasmiy vazifalarda ishlagani qayd etiladi. Mavlono Muhammad Mo'min Termiziyy milodiy 1679-yilda vafot etgan.

Sayyid Nizomiddin Muhammad Ma'sum ibni Safoiy Husayniy Termiziyy (944-1019/1537-1610 yy.). xattot, shoir va tarixchi Mirmuhammad Ma'sum "Nomiy" taxallusi bilan ijod qilgan. U 944/1537-yil hozirgi Pokiston hududida joylashgan Bahakr qishlog'ida tavallud topgan. Ajzdodlari termiziy

sayyidlardan bo'lgan. Ota-bobolari ijtimoiy muhit taqozosi bilan keyinchalik Qandahorga ko'chib kelgan. Shu sababli "Qandahoriy" nisbasi bilan ham tilga olinadi [6:15]. Otasining ismi Mir Sayyid Safoiy bo'lib, "Ma'sur ul-umaro" kitobida keltirilishicha, Sayyid Nizomiddin yoshlik chog'larida ko'proq ov qilish bilan hayot kechirardi. O'rta yoshga kelib, ilm yo'liga kiradi. "Tarixi Ma'sumiy" asarida u kishini taqvoli, zohid, olim, xat ahli bo'lganligi ta'kidlanadi. Olim turli fan sohalarida asarlar yozgan. Jumladan, ilmiy-tarixiy ahamiyatga molik "Tarixi Sind" asari uning qalamiga mansub. "Tarixi Sind" 22 bobdan iborat bo'lib, ijtimoiy-siyosiy voqealarni o'z ichiga oladi. "Tibbi Nomiy" tib ilmiga oid bo'lib, 185 betni tashkil qiladi. Bundan tashqari "Mufradot" nomli she'riy to'plami Turkiyaning Ko'nya kutubxonasida 2816 raqami ostida saqlanib kelmoqda. Ushbu nusxa nast'a'liq yozuvida Muhammad Murodbek tomonidan kitobat qilin-gan. Nusxaning qachon ko'chirilgani haqida kotib ma'lumot bermagan. Kitob o'lchами 25x15, 119 varaqdan iborat. Kitob hoshiyalari ziynatlangan.

Mir Sayid Ali Judoiy Termizi. Judoiy Termizi asli Termizlik sayyidlardan bo'lib ijtimoiy-siyosiy vaziyat sababli ona-diyorini tark etib, Eron va Hindistonga boradi. Lekin vatanidan judo bo'lgan bo'lsa ham shu yurt vorisi sifatida ilm-fan, san'at va adabiyot sohasida benazir xizmat qiladi. Tarixiy-adabiy manbalarda "Musavvir", "Xattot", Naqqosh", "Nodiru-l-mulk", "Sayyid" kabi unvonlari bilan tilga olinadi. Chizgan tarixiy miniatura va naqshlari dunyoning mashhur muzeylarida saqlanib kelishi uning benazir rassomligidan dalolat beradi [3:52].

Boburiylar davlatidagi madaniyat va san'atga e'tibor o'z navbatida ko'pgina san'atkor va xattotlarni ushbu davlatga jalg qiladi. Ana shundan san'atkorlardan biri Judoiy Termizi edi. Bu haqda Mehdiy Bayoni o'zining to'rt jildlik "Ahvol va osor-e xushnavison" ("Xattotlarning ahvollari va asarlari") tazkirasida batafsil ma'lumot beradi. Jumladan

Judoiy Termiziy badiiy mahoratini alohida ta'kidlab o'tadi [4:13-15].

Mir Sayid Ali Judoiy Termiziy "Suvar-e Sayid Ali Nodiru-l-mulk Humoyunshohi" ("Nodiru-l-mulk Humoyunshohning tasviri", "Layli va Majnun obrazining tasviri", "Amal-e Mir Sayid Ali", "Majmuma ruhoniyon-e musalmon", "Kor-e Mir Sayid Ali" kabi miniatyura va tasviriy san'atga oid asarlari mavjud. "Ahvol va osor-e naqqoshon" asarida uning sakkizta asari nomi zikr qilingan [3:23].

Umuman olganda olganda Boburiy hukmdorlar ajdodlari bo'l mish Temuriy hukmdorlar kabi fan va madaniyatga katta e'tibor qaratdilar. Temuriylar davlati parchalan-gach hukmdorlar himoyasidagi ko'pgina olimlar hamda san'at ahllari dunyoning turli tomonlariga tarqalib ketgan edilar. Zahiriddin Muhammad Bobur tomonidan asos solingan Boburiylar davlati hukmdorlari esa mazkur olimlar va ularning shogirdlarini Hindistonga taklif qildilar. San'at, adabiyot va madaniyat vakillarining panohi bo'lgan Boburiylar davlati bu orqali buyuk bir islam madaniyatiga asos soldilar.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. *Abdulhay Lakhnaviy. Nazhatul xavotir va bahjatul masami'. Doru Ibn Hazm, – Bayrut: J.5.*
2. *Jamahmatov K. Muhammad Solih Kashfiy Termiziy. – Termiz: 2022.*
3. *Jamahmatov K. Musavvir Judoiy Termiziyning hayoti va faoliyati//Islam tafakkuri. №3. 2022.*
4. *Mehdiy Bayoniy. Ahvol va osor-e xushnavison. – Tehron: Donishgoh-e Tehron, 1345.*
5. *Muhammad Solih Kashfiy Termiziy. Manoqibi Murta-zaviy. – Tehron: Intishoroti Ravzana, 1342 h.*
6. *Sayyid Nizomiddin Muhammad Termiziy. Tarixi Sind. (Umar ibni Muhammad tabdili). – Tehron: Astobir. 1382 h.*

Farrux TEMIROV,  
t.f.f.d (PhD) dosent, BuxDU

## SADRIDDIN AYNIYNING TURKISTONDAGI JADIDCHILIK VA MA'RIFATPARVARLIK HARAKATIDA TUTGAN O'RNI

*Annotatsiya:* Mazkur maqolada Sadriddin Ayniyning Turkistondagi jadidchilik va ma'rifatparvarlik harakatidagi tutgan o'rni fikrlari ilmiy tahlil etilgan.

*Kalit so'zlar:* Turkiston, Buxoro, jadid, ma'rifat, madaniyat, madrasa, tarbiya, jaholat.

Turkistondagi jadidchilik va ma'rifatparvarlik harkati tarixida Sadriddin Ayniy (1878 – 1954)ning bosib o'tgan mashaqqatli hayot yo'li alohida o'rin tutadi. Shuningdek, mahalliy xalqnini, kelajak poydevorlari bo'lgan yosh avlodni ilm – ma'rifatlari qilib tarbiyalashdagi xizmatlari kattadir. Yoshligida ilm olishga bo'lgan kuchli ehtiyoji, uni Buxoroyi sharifda o'qishi ta'minladi va bu yerdagi mashhur madrasalarda o'qidi. Lekin, bu vaqtdaki, Buxoroda madrasalarda o'qitiladigan fanlardan qanoat hosil qilmay, qanday bo'lmasin uni isloh etish, diniy ilmlar bilan birga dunyoviy fanlarni o'rgatadigan yangi usul maktablarini ochishga bel bog'ladı. Madrasadagi eski dars ta'limi bilan xalq farzandlarini yetuk mutaxasis va Vatani uchun jonini ham ayamaydigan sodiq farzandalarni tarbiyalashga erishib bo'lmasligini tushunib yetdi. Ayniy keyinchalik, Buxorodagi ilk jadid maktabini tashkil etishning dastlabki tashabbuskorlariidan biriga aylandi va Ahmad Donishning ma'rifatparvarlik g'oyalarini davom ettirdi.

Sadriddin Ayniyning "Ta'rxi amironi mang'itiyai Buxoro"[1], ("Buxoro mang'it amirlari tarixi"), "Buxoro inqilobi

tarixi uchun materiallar”[2], “Namunai adabiyoti tojik”[3], (“Tojik adabiyoti namunalari”), “Muqanna isyoni”[4], “Es-daliklar”[5] kabi adabiy, tarixiy va ilmiy asarlari muhim ahamiyatga egadir. Olimning ushbu asarlari bir qator maqolalarga va ilmiy ishlarga asos bo’lgan.

XX asr boshlarida Buxoroda vujudga kelgan, o’z safida yetuk, iqtidorli va iste’dodli taraqqiy parvarlarni birlashtirgan Yosh buxoroliklar harakati tarixida, Buxoroda yangi usul mакtablari ochilishining bиринчи tashabbuskorlariдан bo’lgan ma’rifatparvar adib Sadriddin Ayniyning босиб o’tган mashaqqatli hayot yo’li va o’rni kattadir. Uning “Tarixi amironi mang’itiyai Buxoro” (“Buxoro mang’it amirlari tarixi”) va “Buxoro inqilobi tarixi uchun materiallar” kabi tarixiy asarlarida va ayrim ilmiy-publisistik maqolalarida[6] Buxoro jadidlari tomonidan tashkil etilgan, o’z saflariga iste’dodli yoshlarni birlashtirgan Yosh buxoroliklar tashkilotining Buxoro ma’rifatparvarlik va taraqqiy parvarlik tarixidagi o’rni, taniqli namoyandalari, uning siyosiy-ijtimoiy faoliyatni to’g’risida muhim ma’lumotlar keltirilgan.

O’z davrida zamondoshlari va safdoshlari S.Ayniyning Yosh buxoroliklar harakatidagi ishtiroti, maorif sohasida faoliyatiga ijobiy baho berib o’tishgan. F.Xo’jayev S.Ayniy haqida shunday yozadi: “O’z vaqtida S.Ayniy progressiv harakatning faol ishtirokchilaridan biri edi. U ma’rifat sohasida ozmuncha ish qilmadi. Amir bilan bevosita kurashda mavjud tuzum zulmining barcha dahshatlarini, u vaqtida Buxoroda avj olgan huquqsizlik va terrorni o’z boshidan kechirgan edi”[10: 10].

Mahalliy tarixchi olim Muhammad Ali Baljuvoniy shunday yozadi: “Buxoro maxdumzodalaridan Mullo Muin maxzum, mullo Muhiddin maxzum Buxoroi asl, Mullo Mukommil, Muhiddin qozi Abdulhakim Boysuniyning o’g’li, Qori Yo’ldosh Karkigi (Po’latov), Mullo Rafiq, Mullo Abdurauuf maxdum Fitrat, Muzahhar maxdum Buxoriy, Sadrid-

din-Ko'kaldosh masjidining imomi-taxallusni Ayniy Xoja Juhoniy – bular Buxoroning maxdumzodalari va olimlaridan bo'lib, sonlari taxminan 222 nafarga yetardi” [11: 53-54].

Ayniy shaxsning kamoloti va jamiyat tarqqiyotida ma'rifat rolini yuqori o'ringa qo'yadi. Xalqning iqtisodiy ahvolini aholi o'rtasida ma'rifat tarqatish yo'li bilan yaxshilash mumkin deb hisoblaydi. Shuning uchun ham u “Fan xalqqa boylik keltiradi” [8: 26], – deb yozgan edi. Adibning so'zlariga qaraganda, buxoroliklar uchun maxsus jadid maktabi ochilishiga asosiy turtki bo'lgan narsa Sadriddin Ayniy, Abdulvohid Munzim, Ahmadjon maxdum Hamdiy va Hamidxoja Mehriylarning Samarqandga qilgan sayohatlari va u yerda faoliyat ko'rsatayotgan Abduqodir Shakuriy tomonidan ochilgan yangi usul mакtabidan dars o'qitish sistemasi, yangi o'quv darsliklar va maktab o'quvchilari bilan ko'rib va tanishib ularda yangi usul mакtabiga bo'lgan ishtiyoq va muhabbat kuchayadi.

1908 yilning yozida Ayniy do'sti va maslakdoshi bo'lgan Hamidxoja Mehriy bilan Samarqandga qilgan ikkinchi sayohatlari davomida, Amir Temur qabrini ziyorat qilib, samarqandlik ma'rifatparvar ziyolilardan mulla Ibrohim Saidkamolzoda bilan uchrashib, uning Samarqanddagagi Suzangaron guzarida joylashgan uyiga boradilar. O'sha kunlarda Ayniyning boshqa yaqin maslakdoshlaridan bo'lgan do'sti Mirzo Abdulvohid Munzim Samarqandda, Demurov matbaasida Qur'oni karim kitobini nashr etish ishlari bilan mashg'ul bo'ladi.

Ayniyning aytishicha, Mulla Ibrohim Saidkamolzoda Samarqanddagagi jadid mакtabining muallimlarida bo'lgan. U Shamsiddin ismli o'g'li va Tojiddin degan jiyani bularning oldiga chaqirib imtihon qiladi. “Bu bolalar hisob, jo'g'rofiya, xat, imlo va diniy masalalardan bizga ma'lumot berdilar. Biz yigirma besh yil madrasada o'qib, bunday ma'lumotga ega emas edik. Bolalar 10-12 yoshda bo'la tu-

rib, shunchalik bilimga ega ekanliklaridan g'oyat taajjuba da qoldik”[2: 56]. Shundan keyin Ibrohim Saidkamolzoda Ayniy va Hamdiyni o'zlarining yangi usul maktablariga olib borib, yaqindan tanishtiradi. Sinfxonalarini aylan- tiritib, bu yerda tahsil olayotgan o'quvchilar bilan suhbat qiladilar. “Bu maktab “Abduqodir Shakuriy” maktabi edi. Ushbu maktab 1903 yil (hijriy 1921 yilda) Shakuriyning tashabbusi bilan Samarqandda, Rajab Amin qishlog’ida – Qo’shhavz guzarida joylashgan Muhammad Rahimboy hovlisida ochilgan edi”[2: 58]. Olimning ta’kidlashicha, Mahmudxo’ja Behbudiy (1875-1919 y.) va Mulla Said Ahmad Vasliy bu maktab uchun kitoblar nashr etib, ma’naviy va moddiy jihatdan qo’llab turgan.

Abduqodir Shakuriy (1875 – 1943) “Rahnomayi savod” (“Savod chiqarish”), “Alifbe ta’limi”, “Jome’ ul – hikoyot” va “Zubdat ul – ash’or” kabi yangi usul maktablari uchun mo’ljallangan darsliklarni yozgan. Shakuriy ko’p yillik pedagogik faoliyati natijasida bolalarni o’qitishda “tovush-harf” usuli eng qulay usul ekanligini asoslab beradi. Ma’rifatparvar murabbiy Abduqodir Shakuriyning yangi usuldagи maktablar tashkil qilishda, o’quvchilarning katta guruhini tarbiyalab yetishtirishda xizmatlari katta bo’lgan.

Ayniy va Hamdiy boshqa safar yana Shakuriy maktabiga borganda shaxsan Abduqodir Shakuriyning o’zi ularni samimiy kutib oladi va o’z shogirdlari bilan tanishtiradi, yangi usul maktabining afzalligi to’g’risida muloqot qiladi. Shakuriy sinfxonalarni birma-bir ko’rsatib, har sinfdan shogirdlariga kitob o’qitib, yozdirib Qur’oni Karimni tartib qoidasida tilovat qildirib, mashq hisobini ko’rsatadi. “Biz shu vaqtgacha yangi usul jadid maktabi ekan, bu yerda bolalar xat-savod chiqarar ekanlar” deb, aytgan bo’lsakda, unga ko’p ham ahamiyat bermagan edik. Biz Ahmad Dohnishning “Navodir ul-vaqoye” va “Sayohati Ibrohimbek” singari kitoblarni mutolaa qilish natijasida, ularda ilgari

surilgan ilmiy, ijtimoiy va siyosiy g'oyalarni tushungan bo'lsak ham, lekin uning yo'llarini, mag'zini hech ham fikr qilmagan edik”[2: 89] deb yozadi, Ayniy.

1908-yilda Ayniy, Munzim, Mehriy va Hamdiylar Buxoroda faoliyat ko'rsatayotgan tatar muallimi Xolid Burnashev va Samarqanddagi Abduqodir Shakuriy tashkil etgan jadid maktabidan ta'lif qoidalari, darsxona tartibi, darsliklar haqidagi olgan ma'lumotlari va orttirgan tajribalari asosida Munzim uyida buxorolik ilm-ma'rifikat toliblariga maxsus yangi usul maktabini ochishga qaror qiladilar. Ochiladigan mактабning mualimligiga Munzimni tayinlanaadi. Ayniyning fikricha, muallimlikka Muzimni tayinlashlarining sababi, uning dars berish, ta'lif qoidalarini yaxshi bilishi va husni xati chiroyli bir hottot bo'lgan.

Ayniy “Buxoro inqilobi tarixi uchun materiallar” asarining “Buxoroda birinchi usuli jadida maktabi” bo'limida yozishicha, 1326-yil hijriyda, shavval oyi o'nida (milodiy 1908-yil 23 oktyabrda, yangi hisob bilan 1908 yil 5 noyabr) Buxoro shahrining Darvozai Sallohxona guzarida joylashgan Mirzo Abdulvohid Munzim uyida forsiy tilida birinchi marta buxoroliklarga maxsus usuli jadida maktabi ochiladi va unga Abdulvohid Munzim muallim etib tayinlanadi. “Bu maktabda dastlab o'quvchilar quyidagilar edi: Abdurahmonbek-Abdullabek o'g'li, uning xizmatkori Abdug'an, Afzal va Akram – Ahmad maxdum Hamdiy o'g'li, Muhammadamin – Saidjon maxdum o'g'li, Abduqayim – Abdushukur o'g'li. Idi qurbongacha, ikki oy muddatda o'quvchilar adadi (soni) 12 taga yetdi”[2: 96].

Adib ushbu shaxslarning keyingi ijtimoiy-siyosiy va ilmiy faoliyatları haqida o'zining “Esdaliklar” asarida, shuningdek ayrimlarining adabiy ijodiy faoliyatları to'g'risida mashhur “Tojik adabiyotidan namunalar” asarida muhim ma'lumotlarni keltirib o'tgan. Abdulvohid Munzim ushbu voqeani keyinchalik yozgan “Arzi hol”ida xotirlab shunday

yozgan: "1908 yil Buxoroda yangi usuli jadid maktabini ochdim. Maktab bir yil faoliyat ko'rsatib, ulamolarning tazyiqi va hasadiga uchradi. Harchand yangi maktabning tarafdorlari ko'p bo'lsada, ammo g'alaba ular tomonida bo'ldi va ulamolar bu maktabni yopdilar"[9: 33].

Xullas, Sadriddin Ayniy Yosh buxoroliklar partiyasining a'zosi sifatida o'zining islohot va inqilob haqidagi qarashlarida siyosiy to'ntarish orqali davlat tuzumini o'zgartiradigan inqilob tarafdori emas edi. Uning fikricha, siyosiy va ijtimoiy inqilob tadrijiy ravishda, ya'ni islohotlar o'tkazish orqali yuz bermog'i lozim. Buning uchun, avvalo, ommani ilmu-ma'rifat yordamida hurfikr va taraqqiyatparvar qilish lozim, bunga erishish vositasi esa maktab va matbuotdir; shundan so'ng afkor ommanning tazyiqi va talabi bilan islohot o'z-o'zidan amalga oshadi, deb tushuntiradi. Asosiyisi, S.Ayniy, bu davrda o'zining sa'y harakatlari va ijodiy faoliyati bilan Turkiston va Buxorodagi jadidchilik, marifatparvarlik harakatida muhim o'rin egallgan edi

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Ayniy S. Ta'rixi amironi mang'itiyai Buxoro. – Toshkent, 1923.
2. Ayniy S. Buxoro inqilobi tarixi uchun materiallar. – Moskva: SSSR xalqlari Markaziy nashriyoti, 1926.
3. Ayniy S. Namunai adabiyoti tojik. – Moskva, 1926.
4. Ayniy S. Isyonli Muqanna. – Stalinobod, 1944.
5. Ayniy S. Esdaliklar. / Asarlar. 8 jildlik. 5-7-jildlar. T., 1965-1966.
6. "Sod ayn". Nido ba javonon // Oyna. (Samarqand) 1914, № 3. – B. 118-119; Uning o'zi: Toshkent xotiralari // Mehnatkashlar tovushi. 1919, 14-20 sentabr; Uning o'zi: Musulmon maktablari va programma // Mehnatkashlar tovushi. 1919, 24 dekabr; Uning o'zi: Buxoro maktublari // Mehnatkashlar

tovushi. 1920, 2-22 dekabr; Uning o'zi: Buxoro maktublari // Mehnatkashlar tovushi. 1921, № 195 – 196, 12 – 15 yanvar; Uning o'zi: Xorijdag'i talabalarimiz qanday ahvolda // Zarafshon. (Samarqand) 1923, 6 dekabr; Uning o'zi: Maktub az Buxoro surx // Shu'lai inqilob. (Samarqand) 1921, № 62; Uning o'zi: Buxoro jadidlari va inqilobchilariga murojaat // Buxoro axbori. (Buxoro) 1923, № 214, 21 sentabr.

7. S.Ayniy.: Ta'rixi inqilobi fikry dar Buxoro. / Kulliyot. 16 jild. jildi – 14. – Dushanbe: Matbuot, 2005. – B. 36.

8. S.Ayniy. Tahsib us-sibyon. Samarqand, 1917. – B. 26.

9. Qarang: Tabarov S. Munzim. – Dushanbe: Irfon, 1991. – B. 33.

10. Xo'jaev F. "Odina" povesti xususida / Ayniy zamondoshlari xotirasida. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1978. – B.10.

11. Muhammad Ali Baljuvoniy. Tarixi nofeiy (Foydali tarix). Tojik tilidan tarjima, so'z boshi va izohlar mualliflari Sh.Vohidov, Z.Choriev. – Toshkent: Akademiya, 2001. – B. 53-54.

12. Buxoro viloyat muzeyi qo'lyozma fondi, 1573 – inventar.

Izzatbek IBRAGIMOV,  
Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar  
instituti mustaqil tadqiqotchisi

## TURKISTON JADIDLARI ILMIY-MA'NAVIY MEROJI XORIJ OLIMLARI NIGOHIDA

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada XIX asrning oxirlari XX asr boshlarida Turkiston zaminida yuzaga kelgan jadidchilik harakati va uning rivojlanishi bosqichlari, Turkiston jadidlari ilmiy-ma'naviy merosining xorijlik olimlar tomonidan o'rganilishi borasida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** Turkiston, ma'rifat, jadid, matbuot, mактаб, manba, tadqiqot.

Tarix xolisligini saqlab qolishda moddiy ashyolar, arxiv manbalari, davriy matbuot asosida tadqiq etilayotgan XIX asrning oxirlari XX asr boshlarida Turkistonda yashab ijod qilgan ma'rifatparvarlar asarlarida keltirilgan ma'lumotlar ham muhim ahamiyatga ega. Ana shu ma'lumotlarsiz biz tariximizda "qora harf" lar bilan bitilgan ulug' ma'rifatparvarlar hayotini batafsil tadqiq qila olmaymiz. Muhtaram Yurtboshimiz "Bugungi globallashuv davrida har bir xalq, har qaysi mustaqil davlat o'z milliy manfaatlarini ta'minlash, bu borada avvalo o'z madaniyatini, azaliy qadriyatlarini va rivojlantirish masalasiga ustuvor ahamiyat qaratishi tabiiydir" [1] – deya ta'kidlagan edilar.

Darhaqiqat, Turkiston zaminida jadidchilik harakati XIX asrning oxirlarida maydonga kelgan, XX asr boshlarida shakllanib, tezda o'zining yuksak cho'qqisiga ko'tarilgan. U ijtimoiy turmushning barcha jahbalarini qamrab olgan edi [2:4].

Jadidchilik ma'rifatchilikdan siyosiy harakatgacha bo'lgan murakkab rivojlanish yo'lini bosib o'tdi. Imperiya

siyosati va mahalliy istibdod tufayli dunyoning iqtisodiy taraqqiy etgan davlatlaridan ortda qolish xavfi, keng xalq ommasining og'ir iqtisodiy ahvoli, madaniy qoloqlik, tafakkur turg'unligi jadidlarni inqirozdan chiqishning haqiqiy vositalarini qidirishga chorladi [3]. Garchand jadidchilik, masalan fransuz ma'rifatparvarligidan bir necha asr keyin yuz bergen hodisa bo'lsa-da, u o'z mohiyati bilan inqilobga qadar bo'lgan O'zbekistonning madaniy va ma'rifiy hayotida, fransuz ma'rifatparvarligi singari, ijobiy rol o'ynadi [4:74].

Jadidchilik faoliyatining poydevori bir so'z bilan aytganda usuli jadid maktabi edi. Maqsad jamiyatni yangilash bo'lib, bu vazifani faqat yangi avlodgina qilishi mumkin edi. Yangi avlodni esa, yetishtirish zarur. Eski, an'anaviy usulda bu ishni amalga oshirish kiyin, chunki zamon o'zgargan. U tezkorlikni talab qiladi [5:17].

XIX asrning ikkinchi yarmida Yevropa va Sharq davlatlarida iqtisodiy, ijtimoiy sohalarda sodir bo'layotgan o'zgarishlar Turkiston hayotiga turli yo'llar bilan kira boshladi. Bu davrda Rossiya chor hukumati o'zi orzu qilgan Turkistonga bostirib kirishga, imperiya chegaralarini janubga yanada kengaytirishga harakat qildi.

Darhaqiqat, XIX asr oxiri XX asr boshlarida Turkistonda muhim tarixiy, siyosiy va madaniy o'zgarishlar yuz berdi. Bu holat juda ko'p salbiy oqibatlarga olib keldi. Natijada mahalliy ziyorilar undan chiqish yo'llarini qidirdilar. Ular bu o'zgarishlarni amalga oshirish uchun ma'muriyat va ta'lim tizimini isloh qilish kerakligini ta'kidladilar [6:338].

Dunyoda va ayniqsa, Yaqin Sharq davlatlarida sodir bo'layotgan o'zgarishlar va Yevropa sivilizatsiyasi Rossyaning ushbu yangi mustamlakasiga kirib borishi Turkistonda tub aholining tahqirlanishiga qarshi ma'rifatparvarlik harakatining rivojlanishiga olib keldi. Bu zamonaviy ta'lim tizimi xalqni yangi sivilizatsiya va zukkolikka chorla-

di. U xalqni uyg'otishga, yangilangan ma'naviyatini yaxshi anglashga harakat qilardi.

Jadidlar tomonidan ilgari surilgan jamiyat taraqqiyoti va uning ma'naviy qiyofasini yuksaltirishga qaratilgan ilg'or g'oyalar muhim ahamiyat kasb etadi. Jadid ma'rifat-parvarlari tomonidan yozilgan asarlar va ularning jamiyat rivoji yo'lida olib borgan islohotlari to'g'risidagi tadqiqotlar mustaqillikning ilk yillaridan boshlandi. Biroq, Turkiston zaminidan yetishib chiqqan jadidlar ilmiy-ma'naviy merosining xorij olimlari tomonidan o'rganish ishlari biroz avvalroq boshlangan bo'lib, ularning ijodi bir nechta tillarga tarjima qilingan asarlari orqali bizga ma'lumdir.

XVIII asr fransuz ma'rifatchilari aql va ongning roliga juda yuksak baho bergen edilar [7:177]. Juhon adabiyotida ma'rifatchilik bosqichi bilan shug'ullangan tadqiqotchilar XVIII-XIX asr Yevropa ma'rifati va madaniyatining rivoji ma'lum darajada ilohiyashtirilganligini e'tirof etadilar. Bu, tabiiyki, Yevropa mamlakatlarida kapitalizmning rivoji,封建-patriarxal munosabatlarning taraqqiyotga to'g'anoq bo'lib qolishi, jamiyat hayotida ilm-fan rolining birdan kuchayib ketishi kabi qator omillarga bog'liq edi.

XIX asr oxiri XX asr boshlaridagi Turkistonda ham shunga yaqin sharoit maydonga keldi. Nazarimizda, o'lka-mizda 1905-yildan keyin yaqqol ko'zga tashlangan fikriy uyg'onish va madaniy ko'tarilish o'z mohiyati bilan XVIII asr fransuz ma'rifatchiligiga ko'p jihatdan o'xshash edi. Shu sababli bir qator fransuz olimlari tomonidan Turkistonda yuzaga kelgan ma'rifatchilik harakatiga nihoyatda qiziqish uyg'ongan. Avloniy ma'rifatchiliginining ildizi ham shunga borib taqaladi. "Turkiy guliston..."da aql va ilmning, ma'naviy-axloqiy olamning favqulodda ehtiros bilan ulug'lanishi adib ma'rifatchiliginining bevosita mazmunidan kelib chiqadi. Mana u nima deb yozadi: "Aql insonlarning piri komili, murshidi yagonasidur. Ruh ishlovchi, akd

boshlovchidir..." Muallif o'z fikrini yanada aniqroq va ravshanroq anglatish uchun shunday muqoyosa keltiradi: "Hayvonlar o'zlariga bo'laklar tarafidin keladurgon zulm va jabrlarni shox, tish, tumshuq va tirnoqlari ila qaytarular. Lekin inson... aql va idroki soyasida o'ziga keladurgon zarar va zulmlardan saqlanur. Yer yuzidagi hayvonlarni asir qilub, bo'ynidan boylab, iplarining uchini qo'llariga bergen insonlarning aqlidur". Hukamolardan biri: "Har narsa ko'paysa, arzon bo'lur, aql esa ilm va tajriba soyasida qancha ko'paysa, shuncha qimmataho bo'lur" [7:178], – demish. Adibning qarashlarida Navoiyning inson haqidagi mashhur "inson – xilqat toji" nuqtai nazari (konsepsiysi) ning ta'siri yaqqol sezilib turadi. Uning fikricha ham aql faqat insongagina nasib etgan sifatdir, jahonning ziynati oqil insonlardir.

Turkiston jadidlari ilmiy-ma'naviy merosi Fransiyalik jadidshunos olimlar Stefan Duduangon [8:127-165], Aleksandr Benningsen va Shantal Lemersiye-Kelkujey tomonidan keng o'rganilgan. Stefan Duduangon jadidchilik harakatining ijtimoiy-siyosiy mohiyati, ijtimoiy-falsafiy jihatlari, uning Markaziy Osiyo mintaqasida tutgan o'rni, jadidshunos olimlar shuningdek, Cho'lpon ijodi ("Kecha va kunduz", fr. "Nuit" [9] haqida o'zining qator ilmiy-tadqiqot ishlarida to'xtalib o'tgan. Aleksandr Benningsen va Shantal Lemersiye-Kelkujeylarning ilmiy ishlarida ko'proq jadidlarning mintaqqa xalqining ongi, ma'naviyatini yuksaltirish yo'lida olib borilgan ishlar: milliy matbuotning tashkil etilishi, gazeta va jurnallar, darsliklar yaratilishiga alohida e'tibor qaratilgan.

Turkiston jadidlari ilmiy-ma'naviy merosining amerikalik olimlar tomonidan o'rganilishi esa XX asrning 50-yillaridan boshlangan. Jadid ma'rifatparvarlik harakatlari bilan bog'liq masalalarning Yevropa va Amerika olimlari tomonidan atroflicha o'rganilishiga dastlab xalqaro miqyosdagi

va sobiq sho'rolar ittifoqidagi siyosiy jarayonlar va "sovuq urush" sabab bo'lgan. XX asr o'talarida AQShning Kolumbiya universitetida Markaziy Osiyo xalqlari hayoti, tarixi, madaniyatini o'rghanuvchi ilmiy markaz tashkil etilgan. Uning faoliyati sekin-asta rivojlanib, imkoniyatlari kengaya boshladi. Keyinchalik bunday tadqiqot markazi Garvard va Janubiy koliforniya universitetlarida ham tashkil etildi.

Turkiston jadidlari ilmiy-ma'naviy merosi ijtimoiy falsafiy jihatlari bo'yicha E.Olvort, X.Murfi, A.Xolidlar tadqiqot olib borgan va bir qancha jiddiy ilmiy asarlar yaratgan.

Jadidlар ilmiy-ma'naviy merosining amerika olimlari tomonidan izchil o'rganish hamda ushbu ma'rifatparvarlik harakati vakillarining asarlarini ingliz tiliga tarjima qilish XX asrning 2-yarmidan boshlanib, bu jarayonda E.Olvort, D.Montgomeri, V.Fiyerman, R.J.Barret, J.Souper, A.Matushevskiy, E.Nabi, E.Lazzerini, B.Elizabet, I.Sirtautas, V.Xonovey, X.Murfi, A.Xolid, Roberta Mariya, Sh.Layone, Og'ir Axmet, Eduard Riz kabi olimlar faol ishtirok etishgan.

Turkiyalik olimlar XIX asr oxiri XX asr boshlaridagi Turkiston jadidlari ilmiy-ma'naviy merosini boshqa xorij olimlariga qaraganda salmoqliroq tadqiq etishgan. Ayrim Turk jadidshunos olimlari bevosita XX asrda Turkiston o'lkasida yuzaga kelgan ijtimoiy-siyosiy vaziyatdan xabarador bo'lsalar, yana bir qancha olimlar Turkiyada tahsil olgan ma'rifatparvarlar bilan yaqindan tanish bo'lganlar. Birgina Ahmad Zaki Validiyning Turkistonda Behbudiy, Munavvarqori, Cho'lpon, Mustafo Cho'qay, Nazir To'raqulov va boshqa arboblar bilan tanish bo'lgani manbalarda keltirilgan.

Turkiston jadidlari ilmiy-ma'naviy merosi falsafiy jihatlarinining Turkiyalik olimlar tomonidan tadqiq etilishi ni 2 ta davrga bo'lishimiz mumkin:

Mustaqillik yillarigacha jadidlар ilmiy-ma'naviy merosining Turkiya olimlari tomonidan o'rGANILISHI.

Mustaqillik yillaridan keyingi jadidlar ilmiy-ma'naviy merosining Turkiya olimlari tomonidan o'rganilishi.

Mustaqillik yillarigacha bo'lgan Turk jadidshunos olimlari: Yusuf Avchi, Abdulla Rajap Baysun, Ibrohim Yarkin, Zaki Validiy To'g'on singari olimlar Turkiston jadidlari ilmiy-ma'naviy merosining ijtimoiy-falsafiy jihatlariga o'z tadqiqotlarida alohida to'xtalib o'tadi.

1991-yildan keyin Turkiyalik olimlar tomonidan Turkiston jadidlari ilmiy-merosiga bo'lgan qiziqish yangi bosqichga chiqdi. Xususan, o'tgan davr mobaynida Fatma Achik, Ahad Andijon, Hakan Cho'shgunaslan, Hasan Demiro'g'lu, Sayfiddin Ershahin, Abubakir Gungo'r, Nodir Davlat va boshqa tadqiqotchilar ma'rifatparvarlar ilmiy-ma'naviy merosi borasida bir qancha tadqiqotlar olib bordilar va bu jarayon bugungi kunda yangi bosqichga chiqqanini alohida aytib o'tish joiz.

Yuqorida keltirilgan fikrlardan xulosa qilish mumkin-ki, Turkiston zaminida yuzaga kelgan ma'rifatparvarlik harakati nafaqat yurtimiz tadqiqotchilarini balki, xorijlik olimlarni ham nihoyatda qiziqtirib qo'ygan. Chunki, jadidlar vatan, millat ozodligi uchun, oddiy xalqni xat-savodli qilishga intilganlar. Jadidlar zarur paytda o'zlari istiqomat qiladigan uylarni ham yangi usul mакtablariga aylantirib, yosh avlodga ta'lrim-tarbiya berishgan. Haqiqatdan ham qisqa davr ichida jadidlar xalqni halokat girdobidan, najot qирг'оғ'ига оlib chiqishga muvaffaq bo'lganlar. Hozirgidek informatsion texnologiyalar rivojlanmagan davrda ular yaratgan ilmiy asarlar, gazeta va jurnallar, teatr va ta'lim sohasidagi olamshumul islohotlar bugungi kungi yosh avlod uchun tom ma'noda ibrat maktabi bo'lib xizmat qiladi.

## Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdaagi PF-5850-sonli "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni // [www.lex.uz](http://www.lex.uz).
2. Begali Qosimov. Milliy uyg'onish: jasorat, ma'rifat, fidoyilik. T, "Ma'naviyat". - 2002. - B. 4.
3. D.Alimova. Jadidchilik fenomeni. – Toshkent: "Akadem-nashr", 2022.
4. Turdiyev Sh. Jadidizm masalasiga bag'ishlangan munozara // "O'zbek tili va adabiyoti", 1998. 2-son. – B.74.
5. Jadid ma'rifatparvarlik harakatining g'oyaviy asoslari. T, "Toshkent islom universiteti" nashriyot-matbaa birlashmasi. 2016. – B. 17.
6. Xayrullayev Muzaffar (2001), Ma'naviyat Yulduzlari, (Mas'ul muharrir: M. M. Xayrullayev), Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 338-339.
7. Begali Qosimov, Shuhrat Rizayev. Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti. – Toshkent "Ma'naviyat" 2004, 177-178-betlar.
8. Islam et nationalisme en Asie centrale au début de la période soviétique (1924-1937). L'exemple de l'Ouzbékistan, à travers quelques sources littéraires. Revue des mondes musulmans et de la Méditerranée. pp. 127-165.
9. Stéphane A. Dudoignon. Tchulpân. Nuit. – France: Bleu autour, 2009.

Baxrom BAXODIROV,

*Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi  
ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti ilmiy xodimi*

## IJTIMOIY-SIYOSIY TA'LIMOTLARNING RIVOJLANISH BOSQICHI

**Annotatsiya** Maqola dastlab ijtimoiy siyosatga oid nazariyalarining davriy ketma ketligi aks etgan bo'lib, unda sharq mutafakkirlarning ijtimoiy siyosiy qarashlari o'zgarib borishi va yanada takomillashuviga oid ma'lumotlar keltirilgan. Shuningdek, ijtimoiy siyosatning tushunchasi mohiyati kabi tarkibiy qismalarining o'ziga xosxususiyatlari xam yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** ijtimoiy-siyosat, aristokratiya, ijtimoiy ta'minot, demokratiya, siyosatnoma, hukmdor va burjua.

Mutafakkir ajdodlarimizning ijtimoiy-siyosiy qarashlari hozirgi zamонавиijtimoiy-siyosatning nazariy asoslarini rivojlanishiga turki bo'ldi. Ijtimoiy siyosat fani ijtimoiy fanlardan farqli ravishda, aholining turmush tarzini yaxshilashga, farovonligini oshirishga qaratilgan ijtimoiy munosabatlar tizimini chuqur o'rganadi. "Ijtimoiy siyosat" atamasi faqat ilmiy tadqiqotlarni olib borish maqsadida qo'llanilibgina qolmasdan, davlatning ijtimoiy dasturlari majmuasini ham o'zida ifodalaydi. Ijtimoiy siyosat-aholi farovonligini oshirishga qaratilgan qarorlarni ilmiy asoslarini o'rganishga qaratilgan Dastlabki ijtimoiy-siyosiy va huquqiy fikrlar barcha xalqlarda – qadimgi Sharqda ham, qadimgi G'arbda ham diniy afsona, rivoyatlar negizida shakllangan. Ularga ko'ra, Yerdagi tartiblar umum-bashariy, koinot tartiblarining uzviy qismi va kelib chiqishi jihatdan – ilohiydir. Ana shunday tushunish uzoq davrlar mobaynida avvaliga Sharqda, keyinchalik G'arbda ham insonorlar, ular o'rtasidagi munosabatlar azaldan belgilangan-

ligiga asoslanib, barqaror dunyoqarashni shakllantirdi. O'z navbatida mazkur fikr va yondashuvlar davlat va siyosatga doir g'oyalarda o'z ifodasini topdi. Ijtimoiy siyosiy qarashlar uzoq, boy va sermazmun o'tmishga ega bo'lib, o'ziga xos vujudga kelish va rivojlanish bosqichlaridan o'tgan.

Sharqda, xususan Markaziy Osiyoda, ijtimoiy-siyosiy fikr taraqqiyoti nihoyatda teran ildizlarga ega. Xasan Ato Abushiyining "Turkiy qavmlar tarixi" asarida dalolat berilgan.

Abu Nasr Forobiy (870 – 950) "Fozil shahar aholisining qarashlari" asarida davlatning kelib chiqishini odamlarning o'z ehtiyojlarini qondirishga bo'lgan istagiga bog'laydi. Davlatni fazilatli, ma'rifatli "hukmdor boshqarishi lozim" ligini aytadi.

Buyuk Sharq mutafakkiri Abu Ali Ibn Sino (980 – 1037). Uning fikricha, inson jamiyatdan tashqarida yashay olmaydi. U aholisi, hukmdorlar, ishlab chiqaruvchilar va qo'shindan iborat davlatda yashaydi. Ibn Sino aholini moddiy ahvoli va boyligi nuqtayi nazaridan tabaqalarga bo'ladi. U hamma narsada me'yor bo'lishi tarafdiridir. Uning fikricha, agar hamma shoh va hukmdor bo'lsa ham, hamma kambag'al va nochor bo'lsa ham – jamiyat falokatga yuz tutgan bo'lar edi.

Sharqdagi Uyg'onish davrining buyuk siymolaridan biri – Yusuf Xos Xojib (XI asr) ham davlat va siyosat masalalariga katta e'tibor qaratgan. Uni butun olamga tanitgan asar "Qutadg'u bilig" ("Saodatga boshlovchi bilim") dir. Bu asar nafaqat o'zbek adabiyotining, balki shu bilan birga ijtimoiy siyosat fanining ham muhim manbalaridan biridir.

O'rta asrlar ijtimoiy-siyosiy fikrining eng yirik manbalaridan biri – Nizomulmulknинг (1018 – 1092) "Siyosatnama" yoki "Siyarul muluk" ("Podshohlar turmushi") asaridir. Bu asar o'zining mazmun-mohiyatiga ko'ra saljuqiylarning siyosiy dasturi hisoblanadi. Nizomulmulk

asarida shohlar tarixi va hayotiy tajribasini umumlashtiradi, davlatni boshqarish qonun-qoidalarini, tartiboti va usullarini asoslab beradi.

U asarda shoh va hokimlarni adlu insof va diyonatga, murosayu- madora va muruvatga, davlatni oqilona boshqarib, qat'iy qoida va tartib o'rnatishga, amaldorlarni vijdonli, halol, pok, iyemonli,adolatli va diyonatli bo'lishga, mamlakatning obodonligi, uning ahli farovonligi, tinchiligi va totuvligini ta'minlash uchun harakat qilish va mehnat qilishga da'vat etadi[1].

XV asr buyuk mutafakkiri Alisher Navoiy (1441-1501) ijodida bir qator muhim fikrlarni uchratamiz. U xalqqa nisbatan adolatsizlik va yovuzlikni qoralaydi, odamzotni hayotdaadolatni qaror toptirishga, uni asrab-avaylashga chorlaydi. Navoiy markazlashgan kuchli podsholik hokimiyatini yoqlab chiqadi. Negaki, kuchsiz shoh poraxo'r qozilar, zo'ravon va ta'magir amaldorlarga yo'l ochib beradi, Kuchli shoh hokimiyatida faqat munosib, barkamol shaxslar o'r'in oladi [2].

XIX asr oxiri XX asr boshlarida O'rta Osiyoda milliy siyosiy fikr Ahmad Donish 1827-1897), Cherdak (1827-1900), Furqat (1858-1909), Muqumiyl (1850-1903), Zavqiy (1853-1921) singari ma'rifatparvarlar tomonidan rivojlantirildi. Ular o'z asarlarida Buxoro amirligi, Xiva va Qo'qon xonliklarining amal qilish tajribasini oqilona-tanqidiy tahlil qildilar. Ma'rifatparvarlar o'lkadagi mavjud milliy siyosiy tartibotlarning tabiatini anglash va tushuntirishga intildilar. Ular mazkur tartibotlarning qoloq, qaram, tarqoq tizim ekanligini, xalq boshiga kulfatlar keltirgallagini hamda mamlakatni vayronalikka olib kelganligini ko'rsatib berdilar. Ma'rifatparvarlar o'z asarlarida o'lkadagi mavjud siyosiy tartibotlari shunchaki tanqid qilish bilangina cheklanib qolmadilar. Ular ushbu siyosiy tartibotlarning qoloqligi, qaramligi sabablarini tinimsiz izladidi-

lar. Ma'rifatparvarlarning fikricha, mamlakat qoloqligi, xalqning qashshoqlikda kun ko'rishining sababi – amirlar, xonlar, beklar va hokimlarning nodonligi va joxilligi, xalq taqdiriga beparvoligi, ilm-fan va ma'rifatning yo'qligidir. Shu boisdan ham ular mamlakatdagi nodonlik va joxillikka, zulmu zo'ravonlikka asoslangan siyosiy tartibotni tutgatish va ilmu fan va fazillikka, ziyo va ma'rifatga asoslangan siyosiy tartibotni o'rnatish g'oyasini ilgari surdilar[3].

XX asr boshlarida O'zbekistonda siyosiy fikrning rivoji jadidlar (M.Bexbudiy, A.Fitrat, A.Qodiriy, Cho'lpon, Munavar Qori va boshqalar)ning faoliyati bilan bog'liqdir. Ularning asarlarida o'sha davrdagi ijtimoiy-siyosiy hayotning dolzARB muammolari chuqur o'rganiladi va umumlashtiriladi. Xususan, o'lkadagi idora usuli, mustamlakachilik, adolatsizlik oqibatlari keskin tanqid qilinadi, uning mustaqil yo'li, Yevropacha idora usuli va uni mamlakatda tatbiq qilish haqida jiddiy fikr-mulohazalar bildiriladi. A.Fitrat va M.Bexbudiy Buxoroning idora, ta'lim-tarbiya usulini qattiq tanqid ostiga oladi va uni yangilash yo'llarini tinimsiz izlaydi. Jadidchilarning bir guruhi maorif va ma'rifatni ko'tarish orqali xalq ahvolini yaxshilashga intilsa, ikkinchi guruhi esa davlat tuzilishini isloh qilish, uni yangi asosda qayta ko'rish orqaligina xalq va yurt ahvolini o'nglash mumkin, degan siyosiy yo'ldan yurishga intildi. Bunday fikr va mulohazalar o'sha davr ijtimoiy siyosiy fikrida muhim yangilik edi. Umuman, XX asr boshlarida O'zbekistonda ijtimoiy-siyosiy fikrning rivojlanishini jadidlarning asarlarisiz, ehtirosli maqolalarisiz tasavur qilib bo'lmaydi. Ularning ijtimoiy siyosiy fikr taraqqiyotiga qo'shgan hissalari birmuncha salmoqlidir.

O'zbekistonda ijtimoiy-siyosiy fikrning rivojlanishi sobiq sho'ro tuzumi davrida qattiq zarbaga uchradi. Ijtimoiy-siyosiy fanga burjua fani deb tamg'a bosilishi uning rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. O'zbekistonning mus-

taqil rivojlanish yo'liga kirishi bilan ijtimoiy siyosiy fanga munosabat tubdan o'zgardi. Bu fan jamiyat fanlari tizimida o'z o'rnnini topdi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, fuqarolarni faol pozitsiyalarini shakllantirishda hamda ularning ijtimoiy siyosatga xususan atrofda sodir bo'layotgan voqeilikka be-farq bo'lmasdan, o'z fikrlari bilan ishtirokini ta'minlashda ularning intellektini yanada oshirish choralarini ko'rish maqsadga muvofiqdir. Ijtimoiy-siyosiy qarashlarning ilk kurtaklari Sharqda vujudga kelib G'arbda rivojlantirilgalligini inobatga olib, hozirgi davr olimlarining ilmiy izlanish natijalarida va mahsulotlarida ham mazkur ko'rsatkichlar teng ulushda aks etganini ko'rishimiz mumkin. Mutafakkirlarimizning ijtimoiy-siyosiy qarashlari ijtimoiy siyosat fanini ya'ni, siyosatshunoslikning tarmoq sohasi hisoblanib, ushbu sohani ham amaliy va nazariy jihatlarni G'arb va Sharqqa xos xarakter asosida uyg'un holda rivojlantirishga ehtiyoj mavjud.

Nodira IBROHIMOVA,  
*Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar  
instituti tayanch doktoranti*

## O'ZBEKISTONDA MEHMONDO'STLIK ANA'ANALARI: VILOYATLARDAGI FARQLAR VA O'XSHASHLIKLER

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada yurtimizdagи viloyatlarda mavjud bo'lgan mehmondo'stlik an'analari haqida so'z boradi. Farqli va o'xshash jihatlari ochib beriladi.*

**Kalit so'zlar:** *qadriyat, an'ana, mehmondo'stlik*

O'zbek halqi azaldan mehmondo'stligi, bag'rikengligi va mulozamatli ekani bilan ajralib turadi. Yurtimizdagи mehmon kutish tarixi uzoq yillarga borib taqaladi. Bunda viloyatlarning urf-odatlari, an'analari muhim ahamiyat kasb etadi.

Qoraqalpog'istonda mehmonni qo'noq deb atashadi. Qoraqalpoqlar qo'noqlarni o'zgacha xurmat bilan qarshi olishadi. Qo'llariga suv quyib, to'rqa boshlashadi. Dasturxonadan non, qatlama, bo'g'irsoq, shirinliklar, meva cheva, go'sht va baliqli yeguliklar o'r'in oladi. Mezbonni xijolatga qo'ymaslik uchun hadeb dasturxonga undayverilmaydi. To'y tomosha va odatiy mehmondorchilikda ikki xil ovqat tortiladi. Birinchisiga asosan palov yoki qovurdoq, ikkinchisiga albatta gurtik (beshbarmoq) beriladi. Shuningdek, qoraqalpoqlar mehmonni durama (qiymalangan go'sht va xamir bo'laklari) milliy taomi bilan siylashlari mumkin. Taomlar yeb bo'lingach, tovoq olish odati bo'ladi. Ya'ni uyning kelini yoshi ulug' mehmonlarning yonidagi tovoqlarini olib, ostonada ta'zim qilib chiqib ketadi. Dasturxonadan qo'l tortilgach suv keltirilib, qo'llar chayiladi.

Xorazmdagi xonadonga tashrif buyurgan mehmon, albatta bu yerning non-tuzini totib ketishi shart. Agar shoshayotgan bo'lsa va uyga kirishga ko'nmasa, bir burda non tishlab ketadi. Dasturxonda o'tirgan mehmonlarga ortiqcha mulozamat qilinmaydi, ular kirib kelgach bir marta "olinglar" deyilgach mehmonlar tortinmay dasturxonga qaraydilar. Mezbonni ortiqcha urintirmaslik uchun mehmonlarning har biriga alohida choynakda choy uzatiladi, ular o'zları istagan vaqtida quyib piyolaga to'latib quyib ichaveradilar. Nonni ham ko'pincha mehmon ushatadi, ammo faqat o'ziga yarasha, ortiqcha bo'laklarga bo'linmaydi. Taomdan oldin va keyin qo'l chayiladi. Ko'pincha tuxumbarak, palov, yog'li patir mehmonlarga taqdim etiladi. So'ngra tarvuz, qovun so'yiladi. Fotiha qilingach, mehmonlar kuzatib qo'yiladi.

Buxoroliklar uyga kelgan mehmonni dasturxonga taklif qilishi bilan "ozg'ingizni shirin qiling" deb mulozamat qilishadi. Mehmon ham bu gapdan so'ng biror konfet, shirinlikdan totinadi. Dasturxonda chaq-chuqlar: sho'r danak, no'xat, mayiz, yong'oq, xolva likopchalarni bezaydi. Ko'pchilik bo'lsa xona bo'ylab uzun ko'rpachalar va dasturxon yozilib yerga joy qilinadi. Avvaliga mezbon hamma bilan alohida hol ahvol so'rashib chiqadi. So'ngra choy uzatiladi. Katta patir nonlarni sindirib mehmonlar yoniga qo'yiladi. Taomlardan ko'pincha no'xat (balaza) sho'rva, go'sht va kartoshkali dimlama, qaynatilgan chuchvara tortiladi. Dasturxonda albatta shirinlik va salqin ichimliklar bo'lishi kerak. Mehmonlardan birortasi o'rnidan qo'zg'al-gach u uchun alohida fotiha qilinadi.

Navoiyda ham mehmonlarni qarshi olish Buxoro odatlariiga o'xshab ketadi [1]. Mehmon uyga taklif etilgach, shirinliklar, qand qursdan totinib ermak qilgancha mezbon bilan maroqli suhabat qurishi mumkin. Bu yerda sizni osh, sho'rva, xamir ovqatlar bilan siylashadi. Mehmon-

dorchilik vaqtida kelinlar, qizlar ham ayol mehmonlar bilan o'tirib chaqchaqlashishlari mumkin. Mehmon, albatta dasturxonadagi nasibasini yeb bo'lgach, so'ng ularga ruxsat beriladi. Nasibasini chala yejish hurmatsizlik sanaladi.

Samarqand ahli ham mehmondo'st halq. Eng avval dasturxonga non va choy qo'yiladi, keyin quruq mevalar, qand qurs, bichak, salatlar dasturxondan joy oladi. Undan keyin ovqat suziladi, ko'pincha samaqandcha mazali osh, manti, kabob yoki sho'rva. Mezbon nonni sindirib, choy quyib, "oling-oling"lab mulozamat ko'rsatadi. Samarqand noni va patiri, g'ilmindi nomli o'ziga xos taomi mehmonlarga manzur keladi. Mehmonlar asosan ko'k choyni ma'qul ko'radi, taomdan keyingi choyxo'rlikdan so'ng mevalar archib qo'yiladi, shirinliklar tanavvul qilinadi. Mehmon ketishni ixtiyor qilsa ko'p kuttirmay fotiha qilinadi va iliq xayrashiladi.

Qashqadaryo va Surxondaryoda myehmon uchun eng avval ko'k choy hozirlanadi, bu arzimas odat katta hurmat belgisi. Dasturxonadan yong'oq, mayiz, yaxna taomlar o'rinni oladi. Oldinlari vohada mehmon uchun osh damlanar edi, hozir esa asosan go'shtli taomlar: tandir, jiz, kabob tortiladi. Suyuq taom deyarli pishirilmaydi. Xonodon sohibida qo'y-uloq topilmasa, tovuq suyib bo'lsa-da mehmonni yaxshi kutib oladi. Xoh kichik, hoh keksa bo'lmasin mehmon qo'zg'alishi oldidan dasturxonga mezbonning fotiha o'qishi odobsizlik sanaladi. Odatda yoshi kichik bo'lsa ham, ketish oldi fotihani mehmonga kelgan kishi o'qishi shart. Agar bu odat buzilsa, mehmonning dili og'riydi va qaytib bu xonadonga mehmonga kelmasligi ham mumkin...[2]

Jizzaxda mehmonlar, albatta uyga qo'l yuvib kirishadi, buning uchun ko'rinarli joyga obdasta-sochiq ko'yib qo'yiladi. Ayol mehmonlarga alohida, erkak mehmonlarga alohida dasturxon tuzashadi. Hatto bolalarni ham alohida joyga olib, oldilariga yegulik-ichgulik qo'yishadi. Quyuk-

suyuq taom degan tushuncha asosan katta ziyofat, to'ylarda bo'ladi, boshqa paytlari faqat bitta taom: asosan sho'rva, osh, beshbarmoq mehmonlar taomi hisoblanadi. Ayol mehmonlar tugun-tog'ora bilan kelishmagan bo'lsa ham, "quruq qo'l bilan ketmang", deb xech bo'lmasa cho'ntagiga shirinliklar solib jo'natishadi. Jizzax dasturxonida albat-ta biron xo'l meva bo'lishi kerak, yilning qaysi mavsumi ekanidan kat'iy nazar.

Sirdaryoda ham erkak va ayol mehmonlar alohida o'tkaziladi. Lekin bolalar ular bilan o'tiraverishadi. Uy bekalari gurung berib o'tirishadi, kelin-qiz, juda bo'lmasa yosh qo'shni ayollar xizmatda bo'lishadi. Sirdaryolik mezonlar mehmonlarni osh, dimlama, baliq bilan siylashadi ko'pincha. Xamir taomlar qilinmaydi, lekin pishirik bo'lishi shart. Tarvuz-qovunlarni mehmonlar o'zlariga yarasha kesib olib tanovvul qilaveradilar.

Toshkent shahrida mehmon kutish iltifot, mulozamat va hurmat bilan amalgalashiriladi. Mehmon kelishini oldindan ogohlantirib qo'yadi yoki taklif etiladi. Mehmon kelguncha dasturxon, albatta bezatilgan bo'ladi. Toshkentliklar ko'pincha mehmonxonasini doim qand qurs bilan bezab qo'yadi, mehmon to'satdan kelganda shoshib qolmaslik uchun. Mehmon stol stulga o'tirgach, avvalo yarimlatib choy (asosan qora) uzatiladi. Choy uzatishni kelinlar va qizlar amalgalashirib, bunda piyola barmoq uchida noziklik bilan taqdim etiladi. Piyola bo'shashi bilan darhol to'ldiriladi va yana ehtirom bilan uzatiladi. Kelin deyarli o'tirmaydi, doim xizmatda turadi. Odatga ko'ra mehmonlarga birinchi somsa tortiladi. Undan so'ng sho'rva, achchiq chuchuk, keyin palov taqdim qilinadi. Iloji bo'lsa palov laganda emas, har bir mehmonga alohida kosaga solinadi. Shuningdek, katta dasturxonlardan pista bodom, shokolad, oqqand, bargak, norin, qovurma chuchvara, turli salatlar o'rinn oladi. Qoshiq, vilka, likopcha, bokallar chiroy-

li tartibda yaltirab turishibekanining dididan darak beradi. Taomlanib bo'lgach suhbatlashib o'tiriladi. Xizmatdagi keling yoki qizlar tez tez "xush kelibsizlar" iborasini takrorlaydi. Mehmon ketar chog' duoga qo'l ochib fotiha qilingach, mezbonlarning bari o'rinalidan turishadi. Mehmon olib kelgan tog'ora o'rni to'ldirilib qaytariladi. Kelinchaklar mehmonning poyabzallarini ostonaga chiroyli qilib, kiyish uchun qulay tarzda terib qo'yishadi.

Vodiy ahli yurtimizdagi eng mehmonnavoz halqi desak yanglishmaymiz. [3] Farg'ona, Namangan va Andijonda mehmon kutish va kuzash bir-biriga o'xshab ketadi. Vodiyya avvalo kelgan mehmonning qo'liga mezbonning o'zi obdasta keltirib suv tutadi, toza sochiq beriladi (ko'pincha har bir mehmonga alohida sochiqcha). Yumshoq ko'pracha va paxmoq bolish to'shalgan xontaxtali dasturxon to'riga taklif etiladi. Ayollar alohida, erkaklar alohida xonaga o'tirg'iziladi. Yoshi ulug'lar duoga qo'l ochib mehmonlarga xush kelibsiz, deb mulozamat qilinadi. Ayollar uzoq vaqt hol-ahvol so'rashishadi. Mehmonlar dasturxonga o'tirishlari bilan "qani, oling" deya boshlangan mulozamat ular o'rinalidan turgunga qadar davom etadi. Sababi "olib o'tiringlar" deyilmaguncha mehmon dasturxonga qo'l urmaydi. Non dasturxonga to'liq sindirib qo'yiladi. Xonadon kelini doim yelib yugurib xizmatda bo'ladi, choy sal sovub qolsa yangi damlanadi, asosan ko'k choy ichiladi. Choy ni piyolaga kam kamdan quyiladi. Odatga ko'ra avval suyuq, so'ng quyuq taom tortiladi. Mehmonlarga asosan sho'rva (yoki mastava) hamda osh pishiriladi. Osh bilan albatta vodiycha shakarob (salat) tortiladi. Ba'zi tumanlarda mehmon dasturxonidan qatiq o'rin olishi shart. Mehmon ketamiz desa ham uni ozroq o'tirishga undashadi, uzoq "muzokaradan" so'ng nihoyat ularga ruxsat beriladi. Uy es-higacha kuzatib qo'yiladi va albatta tez-tez kelib turishga taklif qilinadi.

Viloyatlardagi mehmon kutish odati geografik joylashuvga qarab bir-biriga o'xshab ketadi. Qo'shni viloyatlarda uyg'unliklar, bir biridan uzoq viloyatlarda esa farqlar mavjud. Qaysidir hududdagi mehmon kutish odati boshqa joydagi odatga ko'ra hurmatsizlik sanalishi ham mumkin. Ko'plab badiiy asarlarimizda, filmlarimizda, spektakllarimizda o'zbek xalqining mehmon kutish odatlari tasvirlab beriladi. Mehmonnavozlik – milliy qadriyatlarimizning bir qismidir. [4] Undagi yaxshi odat va udumlar hozirgacha davom etib kelyapti.

### **Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Kamilova F.Q, Hamidov O.H. *Mehmondo'stlik industriyasি. O'quv qo'llanma* – T.: TDIU, 2007
2. Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. *Ijtimoiy odoblar*. T.: "Hilol-Nashr" nashriyot matbaasi, 2002
3. Olimxon Isaxon o'g'li. *Odoblar durdonasi*. T.: "Imom Buxoriy nomidagi xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi", 2018.
4. Tohir Malik. *Odamiylik mulki*. T.: "Sano standart" nashriyoti, 2018

Dilmurod DO'SBEKOV,

*Yirik soliq to'lovchilar bo'yicha hududlararo davlat soliq inspeksiyasi sho'ba boshlig'i, mustaqil tadqiqotchi*

## **"ALPOMISH" VA "MANAS" DOSTONLARINING QIYOSIY TADQIQI**

**Annotatsiya** Mazkur maqolada "Alpomish" va "Manas" eposlarining bir-biriga uyg'un jihatlari qiyosiy tahlil qilinadi. "Manas" dostonining o'zbek tiliga tarjimalari haqida ham qiyosiy fikr yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** Alpomish, Manas, doston, epos, xalq, qahramon.

O'rta Osiyo xalqlarining urf-odalari, ma'naviy-ma'rifiy hamda adabiy tutimlarining bir-biriga hamohangligini ko'pchilik geografik omil bilan asoslashga harakat qildi. To'g'ri, o'zbek-qirg'iz bir daryodan suv ichgan, azal-dan qo'shni bo'lib vaqtning turfa sinovlariga birgalikda bardosh berib kelayotgan ikki qardosh eldir. Lekin uzoq o'tmishga borib taqaladigan etnik va xalq og'zaki ijodining o'zaro uyg'unlashuvi biz yuqorida ta'kidlagan o'xshashlik-ka sabab bo'lgan, nazarimda. Har ikki xalq ruhining o'zaro uyqashligi ularning orzu-maqsadlarida ham aksini topgan.

"Alpomish" va "Manas" dostonlarining bir-biriga uyg'un jihatlari haqida shu paytgacha unchalik ham ko'p izlanishlar qilinmagan, biroq yaxshilab o'rganilsa, turkiy xalqlar daraxtining ikki novdasi bo'lmiss o'zbek-qirg'iz xalqlarining og'zaki ijodiyotida eng salmoqli o'ren tutgan bu ikki eposning o'zaro o'xshash tomonlari talaygina ekaniga guvoh bo'lamiz.

Birgina "Manas" eposi misolida fikrimizni davom et-tirsak. Ma'lumki, "Manas" o'zining hajmi va ijro ko'lamiga

ko'ra jahonda eng yirik epos hisoblanadi. Manasshuno-slarning bildirishicha, qирг'из оқинларидан бири Sog'imboy O'rozbekov aytgan variantning o'zi 180 ming misra keladi. Sayoqboy Qoralaev degan оқин esa "Manas"dan bir million misrani yoddan bilgani haqidagi faktlarning o'ziyoq eposning miqyosini chandalashga yordam beradi. Albat-ta, "Manas" eposi hajmiga yarasha badiiy san'at unsurlarini o'zida jam qilgani, yuksak ijro mahoratining yorqin namunasi ekani bilan ham e'tirofga munosib. Manaschi оқinlarning dostonni yoddan aytishi, vaziyat va holatdan kelib chiqib ham o'qib, ham to'qib, har bir ijrochi dostonning badiiy saviyasini yaxshilash yo'lida o'zidan bir ulush qo'shib borishi kitobxonda "Manas" zamonga moslashib, yosharib borayotgandek taassurot uyg'otadi.

"Hech bir mubolag'asiz, o'zbek folklorining eng yirik janrlaridan biri dostonlardir. O'zbek xalq baxshilaridan yuz ellikdan ko'proq syujetga bo'lingan to'rt yuzdan ortiq doston yozib olingen. Bu dostonlar nihoyatda ko'p tarmoqli va ko'p mavzuli bo'lib, uzoq asrlar davomida yaratilgan va turli ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda kuylanib kelingan. Ularning qadimiy namunalari qahramonlik dostonlaridir<sup>1</sup>". Mazkur yo'nalishdagi dostonlarning o'zbek folkloridagi eng yorqin namunasi "Alpomish"dir. O'ninchи asrlardan beri kuylab kelinadi, deya ta'kidlangan ushbu epik dostonda avvalgi gaplarimizda urg'u qaratganimiz, qahramonlik nihoyatda ulug'lanadi, mardlik va elparvarlik, vafo va jasorat qadrlanadi.

Tili, dini bir bo'lgan onaning ikki dilbandi, bir daraxtning ikki shoxi yanlig' qardosh-qarindosh xalqning aytimlarida ham bir-biriga ikki tomchi suvdek o'xshash jihatlar shu qadar ko'pki, ularni ko'rib ba'zan hayratga tushadi kishi.

<sup>1</sup> Ўзбек халқ ижоди ёдгорликлари. 100 жилдлик, биринчи жилд. "Алпомиш"достони (Фозил Йўлдош ўғли варианти). F.Гулом нашриёт-матбаба уйи. – Тошкент, 2015. – Б. 11-15.

Masalan, "Alpomish" va "Manas" dagi asosiy qahramonlar Hakimbek, Barchin, Qaldirg'och hamda Manasning tug'ilishi ilohiylik kasb etgani, ularning dunyoga kelishi epik asarlarda eng faol bo'lgan tush motivi asosida ayon bo'lganini ko'rishimiz mumkin. Bu haqida taniqli olim Jabbor Eshonqul o'zining "Tushning boshqa motivlar bilan qiyosiy tahlili" nomli maqolasida shunday deydi: "Alpomishning boshqa variantlaridagi tug'ilish motivini ham chuqurroq tahlil qilsak, u bevosita tush bilan bog'liqligini ko'ramiz. Fozil shoир variantida "Alpomish"ning tug'ilishi Shohimardon pirning ravzasida tunab qolish bilan bog'la-nadi, ya'ni qahramonning tug'ilishi ularning tushida ilohiy karomat qilinadi. Umuman, tush va tug'ilish motivi dostonlarimizda ko'pincha yonma-yon keladi.

"Manas" dostonida ham Manasning tug'ilishi tushda ayon bo'ladi. Manasning otasi Jaqipning tushini Boyjigitdan boshqa hech kim ta'birlab berolmaydi. Jaqipning tushidagi burgut va yo'lbars tug'ilajak farzand nishonasi sifatida ta'riflanadi.<sup>1</sup>

Eposlarni mutolaa qilish jarayonida ulardagi uyg'un jihatlar yanada yaqqol namoyon bo'lib boraveradi. Jumladan, har ikki epik asarda ham musobaqalashish sahnasi mavjud. Ana shu musobaqa shartlariga e'tibor qaratadigan bo'lsak, ikki dostonda ham bir xil shartlarga guvoh bo'lamiz. Xususan, "Manas"da kurash, yombi otish, nayza sanchish va ot poygasi shartlari qo'yilgan asardagi bellashuvlar bilan bog'liq sahnalarda. Xuddi shunday "Alpomish"da ham Barchinga uylanish uchun da'vogarlar aynan kamondan nishonni mo'ljallash, kurash va otda poygalashish kabi shartlarda kuch sinashadi. Shu va shu kabi o'zaro uyg'un jihatlarning yuzaga kelish sabablari haqida to'xtalib, ayni

<sup>1</sup> Ж.Эшонқул. Тушнинг бошқа мотивлар билан қиёсий таҳлили. [https://saviya.uz/ijod/adabiyotshunoslik/tushning-boshqa-motivlar-bilan-qiyosiy-tahlili/?imlo=k#\\_ftnref12](https://saviya.uz/ijod/adabiyotshunoslik/tushning-boshqa-motivlar-bilan-qiyosiy-tahlili/?imlo=k#_ftnref12)

bellashuv shartlaridagi o'xshashlikni geografik omil sabab va qo'shni xalqlarning bir-birining urf-odatlari, udumlari, marosimlaridan boxabarligi va aytish mumkin bo'lsa, bir-biriga har tomonlama yaqinligi bilan izohlash mumkin.

Albatta, bu bilan mazkur ikki eposni to'laligicha bir-biriga o'xshash, degan fikrdan yiroqmiz. Qирг'из xalq eposining nafaqat o'zbek dostoniga, balki boshqa xalqlarning epik asarlariga o'xshamaydigan tomonlari ham talaygina ekan. Masalan, "Manas"ning boshqa turkiy ellarning qahramonlik dostonlaridan bir farqi, uning matnida nasriy parchalar – "qora so'z" yo'q, boshdan-oxir she'riy yo'sinda. Ikkinci bir ayirmasi shuki, "Manas" musiqa jo'rligisiz, mimika, jestikulyatsiya va rechitativ yordamida ijro etiladi. Bu esa, nazarimda, ayni dostonning epik muhit bag'ridan hali uzoqlashmaganini ko'rsatadi. Chunki kuy-qo'shiqqa qanchalik omuxta bo'lsa, qahramonlik dostoni asl epik xossalari boy berib, muayyan darajada "liriklashib" boradi. Bizning "Alpomish", "Go'ro'g'li" dostonlarida "qora so'z" she'riy matn bilan qariyb bir xil ko'lamda. "Oshiq G'arib va Shohsanam", "Yozi bilan Zebo", Sayotxon va Hamro" kabi dostonlarda esa qahramonlarning bir-biriga aytgan so'zlarigina nazmiy shaklda, asosiy matn esa nasrda bo'lishi asarning epik xossalari qariyb yo'qqa chiqarishga xizmat qiladi. "Manas" eposi shu jihatdan ham o'ta noyob.

Qирг'излarning "Alpomish"i ham "Manas", "Go'ro'g'li"si ham. Bu asar tipologik jihatdan "Alpomish"u "Go'ro'g'li" bilan bir xil – qahramonlik dostonidir. Va ularning aksari deyarli bir vaqtida, o'tgan asrning yigirmanchi-elliginchi yillarida yozib olingan. Biroq bizning dostonlar yozib olingan chog'da o'zbeklarda epik muhit barham topib, bu asarlar badiiy obidaga aylangan bo'lsa, xuddi o'sha XX asr boshida qирг'из folklorida epik muhit hali barqaror edi. Bu holat to elliginchi yillarga qadar davom etdi. Uning inersi-

yasi hatto hozir ham seziladi, har besh-o'n yilda yangi-yan-gi "Manas"chi oqinlar yetishib chiqadi.

"Manas" – ulkan hajmiga yarasha – ko'p qatlamlili, ko'lamdor doston. Unda qadimgi qирг'из hayotiga xos deyarli barcha narsa tasvirlangani bois, tadqiqotchilar "Manas"ni qирг'из o'tmishining ensiklopediyasi, deya atashadi. Dostonda Uzoq Sharq va Oltoydan boshlab Xiva hamda Qrimga qadar bo'lgan geografik kengliklar yasta-nib yotadi.

Dostonda islomiy negiz barqaror. Ammo shu bilan bir-ga, eng qadimgi turkiy diniy inonchning bir tizimi bo'lgan shamoniylig, qolaversa, otashparastlik, buddaviylik ham ahyon-ahyonda bo'y ko'rsatib qo'yadi. Ulkan Osiyo qit'amizdag'i o'nlab xalqlar va elatlarning vakillari syujet voqealarini harakatga keltirishadi.<sup>1</sup>

Shu o'rinda bu eposning "Alpomish" dostoni bilan o'za-ro uyg'un jihatlari haqidagi fikrlarimizni davom ettirib, shuni aytishimiz mumkinki yuqorida ta'kidlaganimiz tush motivi yana bir o'rinda uchraydi. Bunga to'xtalganimizning boisi har ikki eposda ham aynan bir xil qahramonlar bilan, bir-biriga juda o'xhash syujetlarda aks etadi. Ya'ni, "Al-pomish"dagi Qorajon bilan "Manas"dagi Almambet obratlari asar bosh qahramoniga ilohiy bildirgiga asosan do'st tutingan qahramonlardir. Ularning mazkur do'stlik rishtalari aynan tushda ayon bo'lishi va Qorajon va Almambetning epos bosh qahramonlariga maslakdosh bo'lishi tush motivi orqali ilohiy ma'no kasb etadi.

Yana bir ta'kidlash mumkin bo'lgan obraz bu cho'pon obrazidir. Alpomishning maslahatgo'yi Qultoy biz bilgan oddiy cho'pon obrazi emas. Aynan shunday "Manas"da ham cho'pon obrazi mavjud. Manasni bolaligida tarbiya qilib berishi uchun ota-onasi O'shpir otlik cho'ponning yo-

<sup>1</sup> Манас. (Қыргыз халқ эпоси). З.Исомиддинов таржимаси."Уллу тоолар" нашриёти. – Бишкек, 2019. Б. – 273.

niga olib boradi. Manas uning qo'lida ma'lum muddat tarbiya oladi. Alpomish ham Qultoy qiyofasida gavdalanishi bu obrazlarning ahamiyatini, hali o'rganish va tadqiq etish mumkin bo'lgan tomonlari anchagina ekanini anglatadi. Har ikki eposda yana bir e'tiborni torgan syujet bu chiltonlar bilan bog'liq sahnadir. "Alpomish" dostonida Alpomish Barchinni olib kelish uchun safarga otlanib, yo'lda qabristonda tunab qolib, quyidagi tushni ko'radi: "Shohimardon piri chiltonlarga aytdi: - Bul bachcha bizning muridimiz bo'ladi, bugun sizlarga mehmon bo'ldi, ko'nglini naza qilmay, vaqtini xushlab jo'natingizlar. Shu gapni aytib, Shohimardon piri jo'nab ketdi.<sup>1</sup>

Manasda ham O'shpirning qaramog'ida bo'lib, qo'y boqib yurgan Manas bir qo'yni bo'ri olib qochayotganini ko'rib qoladi. Va uning ortidan quvadi.

Bo'ri esa uni qirq chilton davrasiga yetaklab boradi.

"Alpomish" hamda "Manas" dostonlarini qiyoslash jaryonida qirg'iz xalq eposi faqat she'riy yo'sinda bitilgani va umuman nasriy bayon shaklida bitilgan matn yo'qligiga guvoh bo'ldik. "Alpomish"da esa undan farqli o'laroq she'riy ifoda bilan nasriy bayon parallel keltirilgan. Ammo mutolaa chog'ida "Manas"ning she'riy ifodasida bayonchilik ko'pligini, o'zbek xalq qahramonlik dostoni "Alpomish"da esa nasriy bayon bisyorligiga qaramasdan unda adabiy san'atdan nihoyatda mohirona foydalanilganiga amin bo'ldik. Hattoki, nasriy ifodada ham sa'j kabi adabiy san'at turidan keng foydalanilgani, oddiy bayonchilik ham san'at darajasiga olib chiqilganini kitobxon ich-ichidan anglab boradi.


Biroq "Manas"ni o'zbek kitobxonlariga taqdim etgan mutarjimlar ustod Mirtemir, Sulton Akbariy, Tursunboy

<sup>1</sup> Ж.Эшонкул. Тушнинг бошқа мотивлар билан қиёсий таҳлили. [https://saviya.uz/ijod/adabiyotshunoslik/tushning-boshqa-motivlar-bilan-qiyosiy-tahlili/?imlo=k#\\_ftnref12](https://saviya.uz/ijod/adabiyotshunoslik/tushning-boshqa-motivlar-bilan-qiyosiy-tahlili/?imlo=k#_ftnref12)

Adashboev, Zuhriddin Isomiddinov va boshqalar nihoyatda ustalik bilan uni tarjima qilgan. Biz yuqorida ta'kidlagan bayonchilikning o'quvchiga maloli bilinmaydi.

Shu o'rinda tarjimonlarning mashhaqqatli mehnati ni e'tirof etish lozim. Ayniqsa, ustod Mirtemir "Manas"ni o'zbekchallashtirishdan oldin bir necha oylab Qирг'изистонда ijodiy safarlarda bo'lib, manaschi oqinlar, yozuvchi-shoirlar bilan uchrashib, fikrlashib, maslahatlashgan. Natijada asarning ruhiyatini saqlagan holda o'zbek tiliga o'girishning uddasidan chiqqan. Undan so'ng 1987 yilda kamtarin shoir Sulton Akbariy tomonidan eposning ikkinchi qismi juda ham qisqartirilgan holda o'zbek kitobxonlari e'tiboriga havola etilgan. "Manas"ni bolalarbop holda o'zbekchallashtirishni ustoz shoir Tursunboy Adashboev maromiga yetkazgan. 2017 yili Qирг'изистон Prezidenti O'zbekistonga tashrif buyurganida davlatimiz rahbari "Manas"ning o'zbek tiliga tarjima qilingan yangi variantini tuhfa qilgan edi. Ana o'sha o'girma manasshunos olim Zuhriddin Isomiddinov tomonidan o'zbekchallashtirilgandi. Mazkur tarjima avvalgilaridan farqli jihat shuki, u eposning qisqartirilgan emas, aksincha qisilgan variantining o'zbekcha shaklidir. Aniqroq qilib aytganda, Qирг'изистон xalq yozuvchisi Beksultan Jakiev dostonning siqilgan variantini tayyorlashga muvaffaq bo'ldi. Zuhriddin Isomiddinov aynan o'sha variantni o'zbek tiliga o'girgan.

Rus olimlaridan biri V.Jirmunskiy "Alpomish" dostonining kelib chiqish tarixini o'rganib uni to'rtta: qo'ng'irot, o'g'uz, qipchoq va oltoy versiyalariga ajratgan. Ana shu so'nggi versiyaga ko'ra, "Alp Manas" oltoy qahramonlik ertagi mavjudligi haqida gap boradi. Ko'pchilik folklorshunos olimlar "Alpomish" va "Manas" dostonlari dagi o'zaro uyg'unliklarni mana shu ertak bilan bog'lab, qadimda Alp Manas otliq qahramon bo'lgani va uning xalq ichida mard, jasur, elparvar qahramon sifatida dovrug'



qozongani bilan izohlashadi. Keyinchalik turli sabablarga ko'ra, doston ijrochilari xalq orasida ma'lum va mashhur bo'lgan eposlarni kuylash chog'ida turkiy xalqlar orasida tilga tushgan epizodik sahnalarini, turli syujetlarni va bir-birini takrorlovchi motivlardan unumli foydalangan bo'lishi mumkin, deya mulohaza qilishadi. Chindan ham yeri va suvi bir bo'lgan qardosh ellarning orzu-umidlarini aks ettingan epik asarlarning ildizi uzoq o'tmishda yashab o'tgan turkiy xalqlar halqasiga borib taqalsa, ajab emas...

**Olmos TOSHEV,**

*Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktori va mutaxassislari  
qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti  
"Ijtimoiy fanlar" kafedrasi katta o'qituvchisi*

## **YUKSAK TAFAKKUR SOHIBI – MAHMUD ZAMAXSHARIY IJODIY MEROSI**

**Annotasiya** Ushbu maqolada o'rta asrlar Sharq allomalarini va mutafakkirlarning sharq ilm fan rivoji va taraqqiyotida tutgan o'rni uchun ma'naviy merosini o'rganish bilan birqatorda Mahmud Zamaxshariyning buyuk ijodi xususida tahliliy fikrlar keltirilgan. Shuningdek, uning ijodiy merosi hamda ilm-fan sohasida o'rni tutgan yuksak ma'naviy merosi atroficha o'rganilgan.

**Kalit so'zlar:** Sharq allomalari, Turkiy xalqlar madaniyati, etnografiyasi, ma'naviy meros, ilmiy tadqiqot, lug'atshunoslik tarixiy manba.

O'rta asrlar Sharq falsafasi va tilshunosligi hamda badiiy ijodida yuksak ilmiy maktab yaratgan Mahmud Zamaxshariy (allomaning to'liq ismi Abul qosim Mahmud ibn Umar az-Zamaxshariy bo'lgan) merosi bugungi kunda ko'pgina tadqiqotchilar tomonidan mukammal ravishda o'rganilmoqda. Shuningdek, alloma buyuk tilshunos lug'atshunos olim Mahmud Qoshg'ariydan keyingi leksikologiya sohasida ulkan yutuqlarga erishgan mutafakkirlardan biri hisoblanadi.

Ushbu allomaning ma'naviy merosini keng mazmunda dunyo tamaddunidan sharaflı o'rın egallashini ta'minlashda Mahmud Zamaxshariy butun bashariyatning madaniyati va ma'naviyati yo'lida qilgan xizmatlarini birinchi yurtboshimiz Islom Karimovning "Yuksak ma'naviyat -- yengilmas kuch" asarida keltirilgan fikrlari bilan eslash-

ning o'zi kifoya. "...o'rta asrlarda Xorazm diyoridan olis Arabistonga borib, arab tili grammatikasini mukammal tarzda ishlab chiqqan, ilm-fanning ko'plab boshqa sohalarida ham shuhrat qozongan Mahmud Zamahshariy bobomizni esga olaylik. O'zining jismoniy nogironligiga qaramay, dunyoning ko'plab mamlakatlariga mashaqqatlari safarlar qilgan, teran bilimi va ilmiy salohiyati bilan butun islom olamini lol qoldirgan bu zot, hech shubhasiz, xalqimiz uchun ma'naviy yetuklik timsoli bo'lib qolaveradi." [1] Yoki Samarqanda "O'rta asrlar Sharq allomalari va mutfakkirlarining tarixiy merosi" mavzusidagi xalqaro konferensiyasida bu ulug' zotga nisbatan yurt boshimiz yana shunday samimimiy fikrlarini bildirib o'tadilar: - "Arab tili grammatikasining asoschisi sifatida tan olingen buyuk tilshunos, adabiyotshunos, geograf va faylasuf alloma – Mahmud Zamahshariy hayotlik davridayoq keng shuhrat qozongan. U, shuningdek, tarixdagi birinchi ko'p tilli lug'at – arabcha-forscha-turkiy lug'atning asoschisi bo'lgan." [2]

Az-Zamaxshariyning o'z davri ilmlarini to'liq egallashga, olimlik darajasiga yetishishida, shubhasiz, ustozlарining xizmati benihoya katta bo'lgan. Zamaxshariy ilm-fanning turli sohalari, ayniqsa, arab tili va adabiyotini, diniy ilmlarni, shuningdek, o'sha davrda ilm ahli orasida qadrlangan xattotlik san'atini ham mukammal egallaydi. Ustozi – til, lug'at va adabiyot sohasida mashhur olim Abu Mudar Isfaxoniydan ilm o'rganadi. Mana shunday ustozlardan biri – til, lug'at va adabiyot sohasida mashhur olim Abu Mudar Mahmud ibn Jariyr al-Dabbiy al-Isfahoniydir (1113 yili Marvda vafot etgan). Az-Zamaxshariy Bag'dodda shayx ul-islom Abu Mansur Nasr al-Xorisiy, Abu Saad ash-Shaqqoniy, Abul Xattab ibn Abul Batar kabi mashhur olimlardan hadis ilmidan tahsil oddi. Makkada bo'lganida esa nahv va fiqh bo'yicha ilmni Abu Bakr Abdulloh ibn Talxat ibn Muhammad ibn Abdulloh al-Yabiriy al-Andalusiy, ash-

shayx as-Sadiy al-Xayyatiy, lug'at ilmini esa Abu Mansur Mavhub ibn al-Xadar al-Javoliqiy kabi mashhur olimlardan o'rgandi.

Buyuk mutafakkir va tafsirchi olim deya tan olingan Abdulqosim Mahmud ibn Umar az-Zamaxshariy 1075 yilning 19 martida Xorazmnинг Zamaxshar qishlog'ida tug'ilgan. Az-Zamaxshariyning yozishicha, yoshligida otdan yiqilib, bir oyog'i mayib bo'lgach, otasi uning tikuvchilik kasbini egallashini istagan ekan. Dastlab otasi qo'lida savod chiqargan va juda chiroyli husnixatga ega bo'lgan Az-Zamaxshariy shaharga, ya'ni Ko'hna Urganch (Jurjon) madrasasida ta'lim olishga qaror qildi. Keyinchalik Buxoro va Xuroson ilm dargohlarida bilim darajasini yanada oshirgan. Az-Zamaxshariy Buxoroda o'qishni tugatgach, bir necha yil Xorazmshohlar xizmatida bo'lib, kotiblik bilan shug'ullanadi, hukmdorlarga yaqinlashishga urinadi. Biroq qobiliyati, ilmi, fazilatiga yarasha biror mansab va munosib e'tibor ko'rmagach, o'zga yurtlarga safar qiladi. Mary, Nishopur, Isfahon, Shom, Bag'dod va Hijozda, ikki marta Makkada bo'ldi. Olim bu yerda ilmiy ishlarini davom ettirdi, arab tili grammatikasi va lug'atini hamda mahalliy qabilalarning lahjalari, maqollari, urf-odatlarini chuqr o'rgandi, bu mintqa jug'rofiyasiga oid xilma-xil ma'lumotlarni to'pladi. Adib ko'p asarlarini Makkaligida yaratadi. O'z hayotida chuqr iz qoldirgan Makkada az-Zamaxshariy besh yilcha yashaydi. Shu boisdan u Jorulloh ("Ollohning qo'shnisi") degan sharafli laqabga tuyassar bo'ladi.

Buyuk mutafakkir az-Zamaxshariy arab grammatikasi, lug'atshunoslik, adabiyot, aruz ilmi, jug'rofiya, tafsir, hadis va fiqhga oid ellikdan ortiq asarlar yaratgan, ularning ak-sariyati bizgacha yetib kelgan.

Arab tilshunosligi va grammatikasining turli tomonlariga oid asarlar az-Zamaxshariy ijodida salmoqli o'r'in egalaydi. Jumladan, arab tili grammatikasiga oid "Al-Mufassal"

(1121 yil) nomli asarini u Makkada yashagan paytida, bir yarim yil davomida yozgan. “Al-Mufassal” arab tili nahvu sarfini o’rganishda yirik qo’llanma sifatida azaldan Sharqda ham, g’arbda ham shuhrat topgan asarlardan hisoblanaadi. Ko’pchilik olimlar o’z ilmiy qimmati jihatidan az-Zamaxshariyning bu asari taniqli arab tilshunosi Sibavayhning (796 yili vafot etgan) arab grammatikasiga oid kitobidan keyin ikkinchi o’rinda turadi, deb ta’kidlaganlar.

O’sha davrning o’zidayoq arablar orasida ham bu asar katta e’tibor qozongan va arab tilini o’rganishda asosiy qo’llanmalardan biri sifatida keng tarqalgan. Hatto Shom (Suriya) hokimi Muzaffariddin Muso kimda-kim Az-Zamaxshariyning ushbu asarini yod olsa, unga besh ming kumush tanga pul va sarupo sovg’a qilishni va’da bergen. Bir qancha kishilar asarni yod olib, mukofotga ham sazovor bo’lganligi manbalarda keltirilgan. Bu misol az-Zamaxshariy asarining o’sha davrda ham qanchalik yuksak baholanganini ko’rsatadi. Bu asarning bir qo’lyozmasi Toshkentda, O’zR FA Sharqshunoslik institutida saqlanadi. “Al-Mufassal”ning ixchamlashtirilib, muxtasar holga keltirilgan nusxasi “Al-Umazaj” (“Namuna”) nomi bilan ataladi.

Az-Zamaxshariyning xorazmshoh Alouddavla Abulmu-zaffar Otsizga bag’ishlab yozilgan “Muqaddimat ul-adab” asari alohida ahamiyatga egadir. Bu o’rinda shuni ta’kidlash kerakki, xorazmshohlar davrida ilm-fan, madaniyat ancha taraqqiy qilgan edi. Xukmdorlar, ayniqsa, xorazmshoh Ot-siz olimlar, shoiru adiblarga hurmat bilan qarar, o’zi ham iste’dodli, ma’rifatparvar, adabiyotga qiziqqan, bilimdon odam edi. Uning davrida ilm-fan tarakdiyoti yo’llida bir qancha xayrli ishlar amalga oshirilgan. Shu sababdan bo’lsa kerak, az-Zamaxshariy “Muqaddimat ul-adab”ni uning nomiga bagishlab yozgan. Asar besh katta qismga bo’lin-gan bo’lib – otlar, fe’llar, bog’lovchilar, ot o’zgartishlari va fe’l o’zgarishlari haqida bahs yuritadi. Asar 1137 yillari

yoziб tugallangan. Az-Zamaxshariy o'z asarida o'sha davr arab tilining iste'molda bo'lган barcha so'zlari, iboralarini qamrashga intilgan, ularning etimologiyasiga katta e'tibor qilgan. Shu boisdan ham az-Zamaxshariyning bu yirik asarini mazkur yo'nalishdagi dastlabki asarlardan deyishga haklimiz.

"Muqaddimat ul-adab" arabchadan fors, chig'atoy, mug'ul va turk tillariga tarjima qilingan. Manbalarda ta'kidlanishicha, asarning chig'atoy tilidagi tarjimasi az-Zamaxshariyning o'zi tomonidan amalga oshirilgan. Zotan Xorazmshoh Otsizning tushunishi uchun asarning arabcha matni bilan birgalikda chig'atoy tilidagi tarjimasi ham yaratilgan, deb bilish o'rnlidir. Olimning "Asos al-balog'a" ("Notiqlik asoslari") asari asosan lug'atshunoslikka bag'ishlangan. Unda arab tilining fasohati, mukammalligi haqida so'z boradi. Fikrni chiroyli ibora va so'zlar bilan ifodalash, so'z boyligidan ustalik bilan foydalanish uchun kishi fasohat, balog'at ilmlaridan yaxshi xabardor bo'lishi kerak.

Buning uchun so'zni to'g'ri, o'z o'rnila ishlatish, qoidaga muvofiq so'zlash va yozish ham kerak bo'lgan. Bu asarda adabiyotning asosiy qismlari, frazeologik so'z birikmalari, ularni amalda tadbiq etish yo'llari chuqur tahlil qilingan.


Olimning "Atvoq uz-zahab fi-l-mavoi'z va-l-xutab" ("Xutbalar va va'zlar bayonida oltin shodalar") nomli asari – nasihatomuz maqolalar to'plamidan iborat. Asar birinchi marta 1835 yili olmon olimi Fon Xomir tomonidan nemischaga tarjima qilinib, arabcha matni bilan nashr etilgan. O'ttiz yilcha o'tgach, fransuzchaga tarjima qilinib, 1886 yili Parijda chop etilgan. 1873 yili ham usmonli turk tiliga tarjima qilinib, Istambulda nashrdan chiqqan.

Az-Zamaxshariyning "Rabi' ul-abror va nusus ul-axyar" ("Ezgular bahori va yaxshilar bayoni") asarida adabiyot, tarix va boshqa fanlarga oid hikoyalari, latifalar, suhbatlarning eng saralari jamlangan. Olimning aruz vazni haqida

bahs yurituvchi “Al-Kustos fi-l-aruz” (“Aruzda o’lchov (mezxon)”) asari muhim manbalardan hisoblanadi. Alifbo tartibida yig’ilgan arab maqollari, masallariga bag’ishlangan boshqa bir asarini “Al-Mustaqso fi-l-amsol” (“Nihoyasiga yetgan masallar”) deb atadi. “Maqomat” (“Maqomlar”) – ellik maqomdan iborat bo’lib, qofiyali nasr – saj’ uslubining nozik namunalarini o’zida mujassam etgan muhim asardir. “Devon ush-she’r” kitobi ham diqqatga sazovor asarlardan sanaladi. Az-Zamaxshariyning “Navobig’ ul-kalim” (“Nozik iboralar”) asari esa arab lug’atlarini o’rganishga bag’ishlangan yuksak did bilan yozilgan. Bu asar dastlab fransuz tiliga tarjima qilinib, asl nusxasi bilan birgaliqda 1876 yili Parijda, 1870 yili qohirada, 1884 yili Bayrutda, 1896 yili esa Qozon shahrida nashr etilgan.

Az-Zamaxshariy adabiyot, tafsir, hadis, fiqh ilmlari bo'yicha ham mukammal asarlar yaratgan. Olimning “Asos al-balora” (“Notiqlik asoslari”) asari asosan lug’atshunoslikka bag’ishlangan. Unda arab tilining fasohati, mukammalligi haqida so’z boradi. Fikrni chiroyli ibora va so’zlar bilan ifodalash, so’z boyligidan ustalik bilan foydalanish uchun kishi fasohat, balog’at ilmlaridan yaxshi xabaridor bo’lishi kerak. Buning uchun so’zni to’g’ri, o’z o’rnida ishlatish, qoidaga muvofiq so’zlash va yozish ham kerak bo’lgan. Bu asarda adabiyotning asosiy qismlari, frazeologik so’z birikmalari, ularni amalda tadbiq etish yo’llari chuqur tahlil qilingan.

Az-Zamaxshariyning chuqur bilimi, dahosi va fanning turli sohalariga oid o’lmas asarlari hali u hayot paytidayoq butun musulmon Sharqida unga katta shuhrat keltingan. Allomani chuqur hurmat va mehr bilan “Ustoz ul-arab va-l-ajam” (“Arablar va g’ayri arablar ustozi”), “Faxru Xvarazm” (“Xorazm faxri”) kabi sharafli nomlar bilan ataganlar. Mashhur olimlar, shoirlar, adiblar davrasida u doimo peşvolardan biri bo’lib, qizg’in ilmiy bahslar, munozaralar-



da uning fikri inobatga olinardi. Mana shunday ulkan obro'-e'tibor, ehtimol, daho o'z asarlaridan birida "va inniy fi Xvarazm kaabat ul-adab" ("Chindan ham men Xorazmda adiblar uchun bir ka'baman") deb yozishiga asos bo'lgan bo'lsa kerak.

### **Foydalaniqan adabiyotlar ro'yxati:**

1. *Birinchi Prezident Islom Karimovning "O'rta asrlar Sharq allomalari va mutafakkirlarining tarixiy merosi, uning zamonaviy sivilizatsiya rivojidagi roli va ahamiyati" mavzusidagi xalqaro konferensiyaning ochilish marosimida so'lagan nutqi. Samarqand 2014 yil. 15-16 may.*
2. *I.Karimov. Yuksak ma'nnaviyat – yengilmas kuch. "Ma'nnaviyat", -T: 2008.*
3. *Uvatov U. Xorazmlik buyuk alloma. – Toshkent: Yangi asr avlodи. 2009.*

**Xurshid OCHILOV,**

*Samarqand viloyati hokimining yoshlar siyosati,  
ijtimoiy rivojlantirish va ma'naviy-ma'rifiy ishlar  
bo'yicha o'rinnbosari*

## **BUYUK SOHIBQIRONNING ODIL JAMIYAT BARPO ETISH BILAN BOG'LIQ QARASHLARI**

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada buyuk Sohibqironning odil jamiat barpo etish bilan bog'liq qarashlari to'g'risidagi fikrlar ilmiy tahlil etilgan.*

**Kalit so'zlar:** Yangi O'zbekiston, soxibqiron, davlat, jamiat, qadriyat, ma'naviyat, adolat, metod, taraqqiyot.

Yangi O'zbekiston g'oyasi asosida dadil odimlab borayotgan taraqqiyotimizning hozirgi bosqichida yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlar samaradorligini ta'minlash siyosiy jabhadagi jarayonlar bilan bog'liqligi hech kimga sir emas. Binobarin, davlat boshqaruvi sohasidagi faoliyatning takomillashuvi davlat xizmatchilarining islohotlardagi ishtiroki muhim ahamiyat kasb etadi.

Dunyo davlatchilik tarixi shundan dalolat beradiki, hamma zamonlarda ham siyosiy boshqaruvi jarayoni odilligi o'sha mamlakatlarni to'g'ri yo'lga boshlagan. Bu jarayonda asosi y omil birgalikdagi faoliyatni tashkil qilish masalasi bo'lgan. Umuman insoniyat birgalikda har qanday mehnatni yengish mumkinligini anglashi bilan davlatchili-kning ilk ko'rinishlari vujudga kelgan deyish mumkin.

Birgalikda mehnatni tashkil etishning eng oddiy shakllari ibtidoiy jamoa tuzumida ham mavjud bo'lgan. Masalan, ko'pchilik bo'lib hayvonlarni ushlab yeyish yoki hujumlar natijasida boshqalarni yerlaridagi mahsulotlarga egalik qilish va ularni o'zlartirish kabi ko'rinishlari bo'lgan. Moddadan oldingi III-II asrlarga kelib o'zlashtiruvchi iqtisodi-

yotdan ishlab chiqaruvchi iqtisodiyotga o'tish boshqaruva apparatining takomillashib borishini ko'rsatadi.

Bu boshqaruvning tubdan yangi shakllarini keltirib chiqardi. Jumladan, Qadimgi Misrda birgalikda faoliyat olib boradigan katta xalq armiyasini tashkil yetuvchi ulkan davlat apparati vujudga keladi; shuningdek, bir necha yuz yillardar davom etgan yunon davlatchiligi Sugrot zamoniga kelib boshqaruvning jamoatchilik nazorati darajasiga ko'tarildi; Arastuning siyosat asarida 150dan ortiq shahar va davlatlardiagi boshqaruv tamoyillari haqida fikr yuritiladi; Dunyoni boshqarish da'vosi bilan davlatchilikni boshqargan A.Makedonskiy faqat buyruq asosida boshqarish nazariyasini va amaliyotini yo'lga qo'yanligini ko'rish mumkin.

Bizning qadimiy dalvatchilik tariximizda boshqaruvning demokratik – odil ildizlari mavduj bo'lgan. Xalq hayotiga dahldor eng muhim masalalar qurultoy, kengash, va mashvaratlar orqali hal etilganini ko'rish mumkin[1].

Odil – demokratik jamiyat barpo etish haqida gap borar ekan, A.Temur va temuriylar davriga alohida to'xtalmoq lozim. Chunki, bu davrda demokratik jamiyat nazariyasi emas, balki uning real voqelikda namoyon bo'lishi bilan bog'liq muhim ilmiy-falsafiy g'oyalarni uchratishimiz mumkin.

Ma'lumki, XII-XIII asrlarda Markaziy Osiyo mintaqasini mo'g'ullar tomonidan bosib olinishi shakllanayotgan milliy davlatchilik tamoyillari rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Ayniqsa, ma'naviy hayotda, iqtisodiyotning izchil rivojlanishida va ijtimoiy munosabatlarda bu ta'sir yaqqol namoyon bo'lgan edi. Markaziy Osiyo xalqlarining qattiq jabr-zulm ostiga olinishi, mehnatkash mahalliy aholining qattiq ezilishi, ularga nisbatan zo'ravonlik siyosati tarixdan bizga ma'lum. Eng ayanchlisi shundaki, ming yillar davomida avloddan-avlodga o'tib kelayotgan madaniy meroslar, moddiy meroslarimiz bo'lgan ilm-fan maskanlari, madrasalar va

qiroatxonalar yakson qilinadi. Ana shunday, bir murakkab davrda Amir Temurning tarix sahnasiga chiqishi va Markaziy Osiyoda mustaqil davlatchilik tizimini shakllantirishi mamlakatda ichki nizolarni, mahalliy-xalqqa nisbatan adolatsizlikni bartaraf etishga olib keldi.

Amir Temurning Markaziy Osiyo halqlari tarixida adolatli davlat barpo etishda tutgan o'rni alohida ahamiyatga molikdir. U markazlashgan yirik davlatga asos solgan buyuk siymodir.

Markazlashgan davlatchilikning qisqa tarixiy davrda mustahkamlanishi, mavjud siyosiy kuchlarni tarqoqligiga chek qo'yishga va ular o'rtasidagi ziddiyatlarni bartaraf etishga olib keladi. Ta'kidlamoq kerakki, ana shunday sharqona demokratik jamiyatning o'ziga xos ko'rinishlaridan biri bo'lgan bu tarixiy davrda ijtimoiy-siyosiy islo-hotlarning, shuningdek ilm-fan va madaniyatning, davlat boshqaruvi tizimining rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar shakllana boshladi.

E'tiborli jihat shundaki, musulmonlarga diniy masalalardan ta'lif berib, shariat aqidalari va islom dini ilmlari: tafsif, hadis, fiqh dan dars bersinlar deb, har bir shaharga olimlar va mudarrislar tayin qilganligi sohibqironning demokratik tizimni ijtimoiy hayotga joriy etish uchun ma'naviyat, mafkura va g'oyaning ahamiyatiga alohida e'tibor qaratganini ko'rsatadi. Ijtimoiy qatlamlar va guruuhlar ga tayangan holda faoliyat yuritish hamda ularning manfaatlarini himoya qilish o'sha davr boshqaruvining o'ziga xos jihatlaridan biri edi. Temur esa, davlatni boshqarishda alohida ijtimoiy guruuhlar, sinflar manfaatlarini himoya qilmasdan, davlat tizimining qatlamlariga, har bir fuqaroga tayanadi. "Millatning dardlariga darmon bo'lmoq vazifangizdir. Zamrolarni ko'ring, yo'qsillarni boylar zulmiga tashlamang. Adolat va ozodlik-dasturingiz, rahbaringiz bo'lsin" [2], - deydi Amir Temur.

Buyuk siyosatchi va davlat arbobi sifatida Temur o'z davlatining siyosiy-huquqiy va ijtimoiy falsafiy tamoyilla-rini yaratdi va idora (ya'ni, boshqaruv ma'nosida) shaklini, uning ilk kurtaklarini ko'rsatdi[3].

Temurning ijtimoiy-falsafiy qarashlarida adolat kategoriysi alohida o'rinni egallaydi. Uning tuzuklarida davlat tizimini boshqarish vositalari, harbiy qo'shinlarni tashkil etish, davlatni tashqi xavfdan muhofaza qilish, adolatli soliq tizimini joriy etish, mamlakatni obodonlashtirish bilan bog'liq tadbirlar mamlakatda milliy demokratik jamiyatni yuksak madaniy-ma'rifiy va huquqiy asoslarini yaratilganligidan dalolat beradi.

Bunday odilona olib borilgan ichki va tashqi siyosatning mohiyati esa, adolatli davlat, demokratik jamiyat negizlarini qaror toptirishga qaratilgan edi. "Har mamlakatda adolat eshigini ochdim, zulmu-sitam yo'lini to'sdim"[4], - degan so'zlar Temurning odil jamiyatning mazmun va mohiyatini, fuqarolarning haq-huquqi va manfaatini himoya qilish oliv qadriyat ekanligi xaqidagi g'oyasining ifodasıdir. Sharqona demokratik jamiyat, Temur fikricha, ijtimoiy normalarsiz va ayniqsa, huquqiy va ahloqiy normalarsiz mavjud bo'lolmaydi. "Saltanat martabasini qonun-qoidalar asosida shunday saqladimki, - deb yozadi Amir Temur, - saltanat ishlariga aralashib ziyon yetkazishga hech bir kimsaning qurbi yetmas edi"[5].

Bu davrda Amir Temur davlat boshqaruvining demokratik asoslarini yaratishda kengash, mashvarat, maslahat, xushyorligu-mulohazakorlik, mafkura va ma'naviyatga alohida e'tiborini qaratadi. Davlat boshqaruvi bilan bog'liq tadbirlarni kengash asosida olib borish barobarida, faqtgina a'yonlarning rizoligi va ularning xohish-irodasi emas, balki barcha fuqarolarning ham mayli Temur sultanatining diqqat markazida turgan edi.

Temur turli usullar bilan davlat boshqaruv tizimida

faoliyat yurgizayotgan kishilarda yaxshi sifatlarni shakllantirish mexanizmini ishlab chiqqan edi. "Agar har narsani, har kimni o'z martabasida saqlay olmasang, – deb ta'kidlaydi u, – sultanatingga bundan ko'p ziyon yetgay. Demak, har kimning qadr-qimmatini, tutgan mavqeini va har narsaning o'lchovini belgilab olishing va shunga muvofiq, ish yuritishing kerak"[6].

Davlat xizmatidagi shaxslarning salohiyatini, o'z sohasini naqadar chuqur egallaganligini sinash ham Sohibqiron nazaridan chetda qolmaganligini uning qo'yidagi fikrlarida ko'rish mumkin: "Kimning aqli va shijoatini sinov tarozisida tortib ko'rib, boshqalarnikidan ortiqroqligini bilsam, uni tarbiyatimga olib, amirlik darajasiga ko'tarar edim so'ngra ko'rsatgan xizmatlariga yarasha martabasini oshirib borardim"[7].

Xullas, biz yuqorida ta'kidlaganimizdek, Amir Temurning: "Har mamlakatda adolat eshigini ochdim, zulmu sitam yo'lini to'sdim" degan so'zlari, milliy davlatchiligidizning demokratik tamoyillar asosida rivojlanishiga nazariy poydevor bo'lib xizmat qiladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Mirziyoyev Sh.M. "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiya". T.: "O'zbekiston", 2022. -B 78.
2. 2.Amir Temur o'gitlari. -T: Navruz, 1992.-B. 61.
3. 3.O'sha asar, -B.60.

**2-SHO'BA.**  
**MILLIY QADRIYATLAR VA MA'NAVIY**  
**MEROSNI TARG'IB ETISHDA ZAMONAVIY**  
**TARG'IBOT TEXNOLOGIYALARI**

**Diloram BABAJANOVA,**  
*O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti  
professori, tarix fanlari doktori, professor*

**YOSHLAR MA'NAVIYATINI YUKSALTIRISHDA**  
**MILLIY QADRIYATLAR VA MA'NAVIY MEROSNI**  
**TARG'IB ETISHNING AHAMIYATI**

O'zbekistonda yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, bu-yuk ajdodlar xotirasini yodda saqlagan holda, e'zozlab, yuksak hurmat va ehtirom ko'rsatish, ularni huquqiy, iqtisodiy va ijtimoiy himoyalash uchun qulay shart-sharoitlar yaratish masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Binobarin, xalqimizning siyosiy tafakkuri, ijtimoiy faolligi va olib borilayotgan islohotlarga daxldorlik tuyg'usi tobora ortib borayotgan hamda bosib o'tilgan shonli yo'limizga nazar tashlar ekanmiz, Konstitutsianing yangi tahrir-dagi 65-moddasida keltirilganidek, "yoshlarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlikni, buyuk ajdodlarimizning boy ma'naviy merosidan faxrlanish tuyg'usini shakllantirish to'g'risida"gi masalalarda davlat va jamiyat g'amxo'rlik qiladi.

Yangi O'zbekiston barpo etilayotgan bugungi kunda mamlakatimizga butun dunyoning nigohi qadalgan, qadimiy madaniyatimiz va ma'naviy qadriyatlarimizni jahon ahli tan olayotgan bir davrda ajdodlarimiz qoldirgan boy milliy qadriyatlarimizni avaylab-asrash va rivojlantirishga alohida ahamiyat berilmoqda. SHunda biz, o'tmishtagi buyuk zotlarimiz: "Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Muham-

mad Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Ahmad Farg'oniy, Abu Mansur Moturidiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino kabi mutafakkir bobolarimiz hayoti, faoliyati, asarlarida o'z talqinini topgan adolat va adolatparvarlik g'oyalarida mujassam bo'ldi"<sup>[1.16]</sup>, deb ayta olamiz. Ular qoldirgan ulkan ma'naviy merosdan o'rnak va ibrat olib, bu g'oyani yoshlar ongiga tezroq etkaza olamiz hamda ularning ilmga, tariximizga bo'lgan hurmat-ehtiromini yanada oshiramiz, ularda milliy g'urur shakllanishiga, ma'naviyatini yanada yuksaltirishga imkon yaratgan bo'lamiz.

YAngi O'zbekistonning buyuk ne'mati bo'lgan erki va ozodligi xalqimizning sa'y-harakati, barakali mehnati va ijodiy faoliyatidan kelib chiqish bilan birga, Turon zaminda voyaga etgan hamda jahon sivilizatsiyasiga munosib hissa qo'shib, o'z g'oyalari, tafakkuri bilan o'zbek milliy g'oyasi-ga asos solgan ajdodlarimizning boy ma'naviy merosi va sermazmun tariximizga ham tayanadi. Har bir millatning o'ziga xos jihatlarini, xususan, ma'naviyatini shakllantirishda eng avvalo, beqiyos ta'sir kuchiga ega bo'lgan milliy qadriyatining o'rni katta. YOshlar ma'naviyatini yuksaltirishda milliy qadriyatlarning qayta tiklanishi, buyuk zotlar ma'naviy merosining, xususan, allomalarimiz ta'limotlaring o'rni va ahamiyati katta.

Katta umidlar bilan olg'a qadam tashlayotgan O'zbekiston bugungi kunga kelib, taraqqiyotning mutlaqo yangi bosqichiga qadam qo'ydi. Dunyo tamaddunida yurtimizni "YAngi O'zbekiston", "YAngilanayotgan O'zbekiston" kabi nomlar bilan e'tirof etmoqdalar. "YAngi O'zbekistonda el aziz, inson aziz!" degan bosh g'oyani o'zida mujassam etgan ezgu ishlarning amalga oshirilayotgani bu yurtda istiqomat qilayotgan har bir insonning baxt-saodati uchun xizmat qilmoqda. Bu e'tirof yangi davlat va jamiyat qurish yo'lida tarixiy ishlarni amalga oshirgan xalqimizga xos yaratuvchanlik shijoati, bilim va salohiyati, kuch va imkoniyatlari hamda olib borilgan keng ko'lamli islohotlar-

ga nisbatan izhor etildi, deyish mumkin. Buyuk ajdodlari-mizga xos azmu shijoat, xalqimizning metin irodasi, tobora ulg'ayib kelayotgan barkamol avlodimizga tayanib, jamiyat hayotini tubdan yangilash yo'lini izchil davom ettirish bugungi kunda eng dolzarb vazifadir.

O'zining noyob asarlari hamda olamshumul kashfiyotlari bilan jahon ilm-fani va madaniyati rivojiga beqiyos hissa qo'shgan buyuk mutafakkir va qomusiy olimlardan biri, Ilk Renessans davrining yorqin namoyandası Abu Rayhon Beruniyning ilmiy-ma'rifiy merosini yanada chuqur o'rganish va keng targ'ib qilish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 25 avgustdag'i "Buyuk mutafakkir va qomusiy olim Abu Rayhon Beruniy tavalludining 1050 yilligini xalqaro miqyosda keng nishonlash to'g'risida" gi PQ-361-son qarori"<sup>[2]</sup> ning qabul qilinishi va unga ko'ra, buyuk ajdodimiz yubiley tantanalarini nishonlashga jiddiy tayyorgarlik ko'rishi va munosib nishonlashga doir vazifalarning belgilanishi ayni muddao bo'ldi. Jumladan, 2022-2023 yillarda buyuk mutafakkir, qomusiy olim, tabiatshunoslik asoschilaridan biri Abu Rayhon Beruniy majmuasi qurilishining rejalashtirilishi, bog' barpo etilishi, kitoblarining chop etilishi va shu kabi ezgu ishlarning amalga oshirilishi maqsad etib qo'yilganligi yosh avlod tarbiyasida muhim o'rinn tutadi.

O'zbekistonda Beruniyning ijodiga katta e'tibor berib kelinmoqda. Uning hayoti, faoliyati va ilmiy merosi haqida H.Abdullaev, I.Mo'minov, V.Zohidov, YA.G'ulomov, U.Karimov, S.Bulgakov, A.SHaripov kabi olimlar risola, asarlar yaratdilar. Unga bag'ishlangan qator xalqaro ilmiy konferensiylar o'tkazildi va bugungi kunda ham bu ishlar davom ettilmoqda. Beruniyning "Qadimgi yodgorliklar", "Hindiston", "Mas'ud qonuni", "Geodeziya", "Saydana" kabi asosiy asarlarini o'z ichiga oluvchi ko'p tomli saylanma asarlari o'zbek va rus tillarida O'zbekiston Fanlar akademiyasi tomonidan nashr etilib, kitobxonlar jamoasiga etkazildi.

Shuningdek, 2010-yilda chop etilgan kitoblar orasida faylasuf olim B.Turaev tomonidan “Abu Rayhon Beruniy” kitobchasi, 2019-yilda esa olima G.Masharipovaning “Xorazm Ma’mun akademiyasi allomalari tabiiy-ilmiy, ijtimoiy-falsafiy va ma’naviy merosining ijtimoiy tafakkur taraqqiyotiga ta’siri” nomli monografiyasi ham nashr qilindi”[3].

Dunyo ilm-fani rivojiga o’zining beqiyos hissasini qo’shgan ulug’ alloma Abu Rayhon Beruniyning nomi mangulikka daxldor. Uning ilmu ma’rifat o’rganish orqali olamni ezgulikka, taraqqiyotga etaklash maqsadida avlodlarga qoldirgan buyuk merosi insoniyat uchun bebaho xazina, shu bilan birga, biz avlodlarga qoldirgan ilmiy va ma’naviy merosi beqiyosdir.

Qomusiy alloma Abu Rayhon Beruniy Al-Xorazmiy, Forobiy va Ibn Sino bilan bir qatorda turuvchi musulmon SHarqi “Uyg’onish davri”ning eng mashhur namoyandası. O’z davrida bиринчи bo’lib Erning shar shaklida ekanligini va u quyosh atrofida aylanishi g’oyasini ilgari surgan, keyinroq Er radiusini katta aniqlik bilan o’lchagan.

Buyuk alloma o’zidan so’nggi avlodlarga katta ilmiy meros qoldirdi. Beruniyning o’z davri ilm-fanining turli sohalariga oid 160 dan ortiq turli hajmdagi asarlari, yozishmalari qolganligi bizga ma’lum. YUqorida ko’rsatib o’tilgan katta hajmdagi asarlaridan tashqari astronomiya, astrologiya, matematika, geodeziya, geologiya, mineralogiya, geografiya, arifmetika, tibbiyat, farmokognoziya, tarix, filologiya masalalariga oid qator risololar yaratdi va sanskrit tilidan arabchaga, arab tilidan sanskrit tiliga tarjimalar qildi, badiiy ijod bilan ham shug’ullanib she’rlar yozdi. “Astrologiyaga kirish”, “Astronomiya kaliti”, “Jonni davolochi quyosh kitobi”, “Ikki xil harakatning zarurligi haqida”, “Ko’paytirish asoslari”, “Ptolemy “Almagest”ning sanskritchaga tarjimasi”, “Foydali savollar va to’g’ri javoblar”, “Farg’oniy “Elementlar”iga tuzatishlar”, “Turklar tomonidan ehtiyyotkorlik”, “Oq kiyimlilar va karmatlar haqida

ma'lumotlar", "SHe'lar to'plami", "Al-Muqanna haqidagi ma'lumotlar tarjimasi", "Ibn Sino bilan yozishmalar" shular jumlasidandir. Bularning bari YAngi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarning samaradorligi, avvalo, xalq ma'naviyatining tiklanishi, boy tarixiy merosining keng o'rganilishi, yoshlar qalbi va ongiga milliy g'oyaning chuqur singdirilayotganligi bilan uzviy bog'liqdir. O'zbekistonning bugungi yoshlari sharoit va yangi imkoniyatlaridan unumli foydalangan holda, o'tmishda yashab o'tgan buyuk allomalar va ustozlardan ibrat olib ish yuritsalar, jahon ilm-fani va madaniyati yutuqlarini to'liq egallaydilar, mamlakat taraqqiyoti, yuksalishi uchun etuk va malakali kadrlar bo'lib etishadilar.

Yangi O'zbekistonda boshlangan islohotlar, kelajak sari tashlanayotgan dadil qadamlar bardavom bo'lishini ta'minlashda dunyoda o'ziga yarasha yuksak salohiyati, benazir nufuziga mos ravishda o'rinnegallayotgan mustaqil O'zbekiston atalmish davlat bor ekan, bu yurtda ana shu nomga munosib millat yashamoqda. Bu yurtda uning ota-bobolari, avlod-ajdodlari, buyuk zotlari yashab o'tgan. Ayni paytda bu borada to'plangan tajriba, ana shu buyuk zotlarimizning bebaho merosi hamisha boshimizni baland, qaddimizni tik qiladi, o'zbek millatining kelajagi buyuk davlat qurishda jahon ayvonida turib, o'z iymoni, e'tiqodlari, ma'naviy ruhlari bilan qo'llab-quvvatlab, olg'a etaklaydi. CHunonchi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyev 2022-yil 20-dekabrda Parlament va o'zbek xalqiga qilgan Murojaatnomasida ta'kidlaganidek "Biz qadimiy va boy tariximizni, ayniqsa, g'oyat og'ir sharoitda ilm-ma'rifat, inson erkinligi, xalq ozodligi, Vatanga, milliy qadriyatlarga mehr va sadoqat g'oyalalarini dadil ko'tarib chiqqan jadid bobolarimiz faoliyatini yanada chuqur o'rganishimiz lozim. Ularning ulug' maqsadlar yo'lidagi mardona kurashi va fidoyiligi YAngi O'zbekistonni qurishda barchamiz, avvalo, yoshlarim-

iz uchun chinakam ibrat maktabi bo'lib xizmat qilishi zarur”[4].

Yangi O'zbekistonni rivojlangan mamlakatga aylantirish maqsadida mamlakat taraqqiyotining yangi bosqichiga qadam qo'yilgan hozirgi davrda Uchinchi renessans poydevorini yaratishga bel bog'langan. Ana shu maqsadni ko'zlagan Prezident SH.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, “milliy ma'naviyatimiz tarixida o'chmas iz qoldirgan ulug' allomalarimiz, mutafakkir bobolarimizning turli mamlakatlardagi muzey va kutubxonalarda saqlanayotgan qo'lyozmalarini o'rganish, mavjud nuxsalarini yurtimizga olib kelish, atroficha tadqiq qilib, xalqimizga etkazish borasida muhim ishlar amalga oshirilishi”[5.34] yo'lida amaliy harakatlarga undab kelmoqda. Ana shu maqsadda YAngi O'zbekistonda buyuk allomalarimizning bebaho mero-sini chuqur o'rganish va uni keng jamoatchilikka etkazish ustuvor masalalardan biriga aylangan. Zero, jahon ilm-fani va madaniyati rivojiga beqiyos hissa qo'shgan buyuk ajodolarimiz hamda jadid bobolarimiz, xalqimizning ma'rifatparvar farzandlari Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvar Qori, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat, CHo'lpon, Usmon Nosir, Abdulla Qodiriy kabi buyuk bobolarimiz vasiyatlari va ular qoldirgan ulkan ma'naviy merosdan o'rnak va ibrat olib, bu g'oyaviy ta'limotni yoshlar ongiga singdira qanchalik darajada singdira olsak, ularning tariximizga bo'lgan hurmat-ehtiromini yanada oshirgan bo'lamiz.


Vatanimiz kelajagi bo'lgan barkamol avlodni etishtirish uchun millatimizning har bir vakili o'z farzandini milliy g'oyamiz, qadriyatlarimiz, tilimiz, qadimiy tariximiz, madaniy boy o'tmishimizda chuqur iz qoldirgan buyuk siymolarimizga muhabbat va hurmat ruhida tarbiyalash bilan birga, jahoniy o'zigagina xos bo'lgan insonparvarlik, baynalmilallik, samimiylilik va bag'rikenglik ruhida ham tarbiyalashimiz, bungui kunda har qachongidan ham zarurroqdir.

YOshlar masalasi e'tibor markazidan, kun tartibi-

dan o'rın olganining sababi, avvalo, aholining yarmidan ko'prog'ini tashkil etadigan yoshlar miqdor jihatidan yirik qatlam, katta kuch hisoblanadi. SHuningdek, yoshlar kuch-quvvatga to'la, g'ayratli bo'lgani uchun ular boshqa guruahlarga nisbatan faol, yangiliklarga ochiq, innovatorligi va tashabbuskorligi bilan ajralib turadi. SHu bois, Prezident, "biz o'z oldimizga mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishdek ulug' maqsadni qo'ygan ekanmiz, buning uchun yangi Xorazmiylar, Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug'beklar, Navoiy va Boburlarni tarbiyalab beradigan muhit va sharoitlarni yaratishimiz kerak. Bunda, avvalo, ta'lim va tarbiyani rivojlantirish, sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, ilm-fan va innovatsiyalarni taraqqiy ettirish milliy g'oyamizning asosiy ustunlari bo'lib xizmat qilishi lozim"[6], deb ta'kidlagani ham bejiz emas.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. *SHavkat Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston strategiyasi.- Toshkent:O'zbekiston, 2021.-B.16.*
2. *O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoyevning "Buyuk olim Abu Rayhon Beruniy tavalludining 1050 yilligini xalqaro miqyosda keng nishonlash to'g'risida"gi PQ-361 sonli qaror [www.xabar.uz](http://www.xabar.uz) › jamiyat › abu-rayhon-beruniy-<https://lex.uz/docs/6172044>.*
3. *Masharipova G. Xorazm Ma'mun akademiyasi allomalarini tabiiy-ilmiy, ijtimoiy-falsafiy va ma'naviy merosining ijtimoiy tafakkur taraqqiyotiga ta'siri. Monografiya. – Toshkent: Navro'z, 2019.*
4. *Shavkat Mirziyoyevning 2022-yil 20-dekabrda Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi.*
4. *Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021.- B.34.*



Munira KAXAROVA,

*Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti  
direktori o'rinnbosari, falsafa doktori*

## MILLIY QADRIYATLARNI TARG'IB ETISHDA TARG'IBOTNING ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARI

Har qanday jamiyatning ijtimoiy-ma'naviy muhitini sog'lomlashtilishida umuminsoniy, milliy va diniy qadriyatlarga tayaniladi. Ma'naviy muhit qadimdan G'arbda umuminsoniy, Sharqda esa diniy, milliy qadriyatlar asosida shakllanib kelgani manbalarda keltirilgan. Uni qadrash, kelgusi avlodga asl holicha yetkazish vazifasi kattalar zimmasiga yuklatilgan. Qaysidir qadriyatlar unutilib, o'zgarib, yangilanib borishini ham olimlar tomonidan ku-zatilgan va u bugungi kunda ham tahlil qilib kelinmoqda. Masalan, Michigan universiteti (AQSh) olimlari tomonidan Yevropa qadriyatlari tadqiqot sifatida o'rganiladi. Uning davom ettirib, professor Ronald Inglehart boshchiligidida 1981-yil "Jahon qadriyatlarni o'rganish assotsiatsiyasi (World Values Survey (WVS))<sup>1</sup>" tashkil etiladi. Unga olim Ronald birinchi prezidenti (1981-2013) etib tayinlangan va u rahbarligida 32 yil tadqiqot dasturi asosida loyihalarni amalga oshirilgan.\_Mazkur assotsiatsiyaning tadqiqot loyihasi 120 dan ortiq xalqlarning qadriyatlari, e'tiqodlari va an'analarini tahlil qilingan bo'lib, u sotsiologiya, siyosat-shunoslik, xalqaro munosabatlar, iqtisod, sog'liqni saqlash, demografiya, antropologiya, ijtimoiy psixologiya va bosh-qalar sohalarining keng ko'lamlı mavzularini qamrab olgan xalqaro tashkilot hisoblanadi. Loyihaning asosiy tadqiqot vositasi global miqyosda har 5 yilda bir marta o'tkaziladi-

---

<sup>1</sup> Jahon Qadriyatlari Tadqiqot assotsiatsiyasi. <https://www.worldvalues-survey.org/WVSContents>

gan vakillik qiyosiy ijtimoiy so'rovidan iborat texnologiyadir. Keng jug'rofiy va tematik miqyos, so'rov ma'lumotlari va loyiha natijalarining keng jamoatchilik uchun bepul mavjudligi WVSni ijtimoiy fanlardagi eng nufuzli va keng qo'llaniladigan xalqaro so'rovlardan biriga aylantirdi. Ayni paytda inson e'tiqodlari va qadriyatlar bo'yicha amalga oshirilgan eng yirik tadqiqot bo'lib, shu asosda "Inglehart-Velzel" madaniy xaritasining navbatdagi, yangilangan versiyasini taqdim etdi. Xarita 2017-2022-yillardagi Jahan qadriyatlarini tadqiqoti va Yevropa qadriyatlarini o'rganishning so'nggi qo'shma so'roviga asoslangan. Yaqin vaqt ichida o'rganilmagan mamlakatlar reytingini hisoblashda avvalgi ma'lumotlaridan ham foydalanilgan va xaritada jami 111 mamlakat holati tasvirlangan.

Shuningdek, xaritada: aholi farovon, bilimli, uzoq umr ko'rishi va kamroq farzand tug'ishi natijasida ularning avlodlari o'zlarining axloqiy qadriyatlarida ko'proq dunyoviy va o'zini namoyon qilishlari ham aks ettirilgan. Shu bilan birga, xalqlarning qadriyatlar o'zgarganligi ham xaritada ko'rsatilgan. Mazkur xarita assotsiatsiya va AQShning boshqa rasmiy manbalarida e'lon qilib kelingan. U dunyoning barcha olimlari uchun manba bo'lib xizmat qilmoqda. Ushbu qadriyatlarni o'rganish texnologiyasi bugungi kun uchun ham zarur. Bu kabi xarita texnologiyasi mamlakatimizda ham tajriba sifatida amaliyotda joriy etilishi Davlat rahbari tomonidan taklif etilgan. Ya'ni, 2019 yil 3 mayda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" GI PQ-4307-sonli hamda 2021 yil 26 martda "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-5040-sonli qarorlarida jamiyatning ijtimoiy-ma'naviy muhitini sog'lomlashtirish va barqarorligini ta'minlashga qaratilgan doimiy monitoring tizimini tashkil etish vazifasi

fasi belgilangan. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad oila, mahalla, ta'lif maskanlari va mehnat jamoalarida ijtimoiy-ma'naviy muhitni yanada sog'lomlashtirishga qaratilgan ishlarni tashkil etish, "mahalla - tuman - viloyat - respublika" prinsipi asosida hududlarning ijtimoiy-ma'naviy muhit holati bo'yicha xaritasini ishlab chiqish hamda shu asosda hududning ma'naviy holatini tahlil qilib borish mexanizmini yaratilishi zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanilishi ko'rsatma qilingan. Mazkur xaritani yaratilishida xalqimizning milliy, diniy qadriyatlariga munosabati, e'tibori, uni bilish darajasi ham tahliliy aks etishi maqsad qilingan. Unga ko'ra, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti tomonidan 2022 yil iyul-avgust oylarida Toshkent viloyati Yangiyo'l tumani-dagi mahallalarda ijtimoiy-ma'naviy muhitini baholash va uni sog'lomlashtirish texnologiyalarini ishlab chiqish yo'nalishida sotsiologik tadqiqot o'tkazildi.

Mazkur tadqiqotda tumandagi salbiy ko'rsatkichlari yuqori bo'lgan 20 ta mahalla tanlab olindi va unda jami 3870 respondentlar ishtiroy etdi. Ushbu tadqiqot doirasida aholining qadriyatlarga munosabati, bilish darajasi, qardlashi kabilalar tahlil qilindi. Masalan, "Siz "milliy qadriyatlar" deganda nimani tushunasiz?" savoliga respondentlarning 59,4 foizi "milliy urf-odatlar tizimi", 19,6 foizi "O'zbek xalqining ilm-fan va madaniyat tarixidagi boyliklari", 13,7 foizi "Vatanimiz tarixidagi diniy va milliy mafrosimlar", 4,7 foizi "Diniy ulamolarimiz asarlari", 0,8 foizi "bilmayman", 1,5 foizi "Hammasi to'g'ri" deb, javob berishgan. Shuningdek, "Qaysi qadriyatlarni bugungi kunda eng kerakli deb hisoblaysiz?" savoliga respondentlarning 39,4 foizi or-nomus, 4,5 foizi "sevgi", 5,5 foizi "e'tiqod", 12,1 foizi "Vatanparvarlik", 4,4 foizi "mehnatsevarlik", 22,6 foizi "hammasi to'g'ri" deb belgilagan bo'lsa, qolgan 11,5

foizi "andisha, iroda, g'urur, murosa, insonparvarlik, mehr-shafqat, vijdon,adolat, insof" kabilarni qadriyat sifatida ko'rsatgan.

Demak, mazkur javoblardan aholi milliy qadriyatlar-ni yaxshi tushunmasligini, fazilat va tuyg'ularni qadriyat sifatida anglashi ma'lum bo'ldi. Shu bilan birga aholining aksariyati milliy qadriyat deganda urf-odat va an'analar-ni ham tushunadi. Tadqiqotdagagi "Vatanimizni kelajakda o'z an'analari va qadriyatlarini rivojlantirishi uchun bir-inchi navbatda nimalarga e'tibor berishi zarur?" savoliga respondentlarning 81,7 foiz "ta'lim va tarbiyaga" deb bel-gilagan. Shuning uchun ham bugungi kunda ular "To'y va boshqa oilaviy marosimlarni o'tkazish me'yorlari va tartiblari" turkumida berilgan savollar natijasiga ko'ra, tuman aholisining 63,2 foizi bugungi kunda to'y uchun 10 million so'mdan 55 million so'mgacha xarajat qilishi, 44 foizi "to'y - milliy qadriyat, undagi xarajatlar urf-odat va hayot talabi" sifatida baholanishi, 49,2 foizi marosim va an'analar moddiyatdan ko'ra ma'naviy jihatni muhimligi javobini ko'rsatgan.

Hullas, tuman aholisi to'y va boshqa marosimlarda ortiqcha xarajatlar va isrofgarchilik borligini bilib turgan jamiyat hozirgi holatda tashqi ta'sirlar, tizimli targ'ibotlar-siz to'y-hasham hamda boshqa marosimlardagi xarajatlar-ni keskin kamaytirishga tayyor emas. Urf-odatlarga qarshи chiqib, 25-30 kishi bilan to'y o'tkazganlarga nisbatan esa aholining 17,6 foizi nafrat bilan, 18,5 foizi bunday qilishi-ni qabul qilmagan, 26,1 foizi qo'li kaltalik omiliga bog'lab, ularga achingan, 14,4 foizi esa befarq, atiga 15,4 foizigina to'liq qo'llab-quvvatlaganlini tashkil qiladi. Bundan, aholi isrofgarchilikdan tiyilishi kerakligini anglamaydi. Dab-dababozlik davom etayotgani ayon bo'lmoqda. So'rov-noma natijalaridan hulosa qilib aytganda, mahallalarda ma'naviyat va m'rifat yo'nalishidagi targ'ibotchilar hamda

diniy ulamolar tomonidan dabdababozlikka barham berish, isrofgarchilikni oldini olish, qadriyatlarni qadrlashga qaratilgan targ'ibotlari sustligini anglatadi.

Hulosa qilib aytganda, aholi, ayniqsa, yoshlari o'rta-sida zamonaviy texnologiyalaridan foydalangan holda targ'ibotni tashkil etish maqsadga muvofiq. Unda, ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashshtirish va barqarorligini ta'minlashga qaratilgan qo'yidagi texnologiyalarni qo'llash tavsiya etiladi:

- Har bir mahalladagi aholini notiqligi bilan ortidan ergashtira oladigan, yoshi ulug' kanvoyilar, ta'lim-tarbiya sohasidan ishlab, nafaqaga chiqib, uyda o'tirgan fidoyilar, mahallada namunali oilasi bilan o'rnak ko'rsatayotgan hayotiy tajriba ega bo'lganlardan yangi targ'ibotchilar guruhini shakllantirish zarur. Bunda ularning aholi ichida targ'ibotni olib borishlari bo'yicha har bir mahalla kesimida o'quv-seminarini tashkil etiladi. Targ'ibotchilar, aholi o'rta-sida bo'ladigan har qanday marosim, tadbirlarida sodda va ravon hamda aholining qabul qilish usulida tushuntirish ishlarini olib boradi.

- Har bir mahallada "Qadriyatlari qadr topgan mahalla", "Isrofgarchilik – umr zavoli", "Inson qadri va baxtli hayoti" kabi mavzularida yosh targ'ibotchilar ishtirokida tanlovlari o'tkazish kerak. Buni mahallada joylashgan umumta'lim maktablari bilan hamkorlikda tashkil etiladi.


- Mahallada joylashgan maktabgacha ta'lim tashkilotlarida "Alla bolajon", "Bobojon va buvijon ertaklari", "Milliy kuy-qo'shiqlar" kabi mavzularida uchrashuv, davra suhbatlari o'tkaziladi. Bu bilan mahalla va maktabgacha ta'lim tashkiloti hamkorligi mustahkamlanadi. Natijada bolalar da milliy qadriyatlarni haqida tasavvurlari shakllanadi.

- Mahalla binosiga radiouzel o'rnatilishi maqsadga muvofiqli. Unda, respulikada faoliyat olib borayotgan radiokanalardagi milliy qadriyalarga oid eshittirishlarini

berib borilsa, aholi, ayniqsa, yoshlar ongida milliy qadriyatlar haqidagi tasavvurlari to'g'ri ma'lumotlar asosida shakllanadi.

Bugungi kunda har bir hududda ijtimoiy-ma'naviy muhit holatini aniqlash bo'yicha tadqiqot o'tkazilishi zarur. Aholining ongi va qalbiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan, milliy va umuminsoniy ma'naviy mezonlarga zid bo'lgan ichki va tashqi tahdidlarning turi, maqsadi, mazmuni hamda ta'sir kuchini o'rganish, xalqning qadriyatlarga munosabatini tahlil qilish maqsadida tadqiqotlar olib borish lozim. Tadqiqot tashkil etishda maqsadli va manzilli "Yo'l xaritalari"ni ishlab chiqilishi kerak.

Xullas, bugungi kunda qadriyatlarimiz targ'ib etishda zamonaviy targ'ibot texnologiyalarini yaratish va uni amaliyotga joriy etish maqsadga muvofiq. Avloddan avlodga o'tib kelayotgan asl qadriyatlarimizni yoshlar ongiga singdirishda zamon talablari asosida yaratilgan texnologiyalar bilan ta'sir ko'rsatilishi mumkin. Ta'sirchan usullarni qo'llashda yurtimizda internetning faol bo'lgan tarmoqlaridan keng foydalanish zarur.



**Otabek BOZOROV,**

*Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD  
Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti mustaqil tadqiqotchisi*

## **MILLIY QADRIYATLARNING JAMIYAT TARAQQIYOTDAGI O'RNI**

*"Buyuk tarixda hech narsa izsiz ketmaydi. U xalqlarning qonida, tarixiy xotirasida saqlanadi va amaliy ishlarda namoyon bo'ladi".*

**Sh.Mirziyoyev**

### **Qadriyat – qadr bilan bog'liq fenomen**

Qadriyat. Qadr-qimmat. Milliy va ma'naviy meros. An'ana va urf-odat. O'tmish va kelajak. Ushbu tushunchalarning zaminida insonning o'zligini namoyon qilib turadigan ma'no mujassam. Qadriyatlar ijtimoiy tarixiy taraqqiyotning mahsuli sifatida o'z ildiziga, vorisiylikka ega. Qadriyat insonlar uchun qadrli, e'zozli bo'lgan narsalar, jarayonlardir. Qadriyatlar juda sermazmun va ko'p qirrali tushuncha. U birinchidan, biror obyektning ijobiy yoki salbiy qimmatini ifodalasa, ikkinchidan, ijtimoiy ongning normativ belgilovchi – baholovchi jihatni (sub'ektiv qadriyatlar yoki ong qadriyatlarini) ifoda etadi. Shunga ko'ra obyektiv (ashyoviy) va sub'ektiv (ong) qadriyatlari bir-biridan farqlanadi.

Qadriyatning birinchi ko'rinishi, ya'ni ob'ektiv (ashyoviy) qadriyatlarga – tabiiy boyliklar va tabiat hodisalarri (yaxshilik va yomonlik nuqtai nazaridan baholanadi); mehnat mahsullarining iste'mol qiymati (umuman foydalilik); ijtimoiy hodisalarda mujassamlashgan ijtimoiy ezguilik va yovuzliklar; tarixiy hodisalarning progressiv yoki reaktsion ahamiyati; hozirgi zamon kishilarining boyligi

sifatida namoyon bo'lувчи moziyning madaniy merosi; ilmiy haqiqatning foydali samarasi yoki nazariy ahamiyati; kishilarning xatti-harakatlarida ifodalanuvchi axloqiy yaxshilik yoki yomonlik; tabiiy va ijtimoiy ob'ektlarning hamda san'at asarlarining estetik jihatdan tavsiflanishi; sajdagohlar, diniy ibodat buyumlari va boshqalar ashyoviy qadriyatlarga kiradi.

Ong qadriyatlariga normativ tasavvurlar (yaxshilik va yomonlik,adolat,go'zallik va xunuklik haqidagi, tarixning ma'nosi va insonning vazifasi haqidagi tasavvurlar, ideallar, harakat normalari va printsiplari tarzida ifodalangan ijtimoiy ko'rsatmalar va baholar, talab va ta'qiqlar, maqsad va loyihalar kiradi. Qadriyatlar ichida eng birinchi va eng umumiysi hayotning o'zidir, chunki hayotdan mahrum bo'lish qolgan barcha qadriyatlardan foydalanishni yo'qqa chiqaradi... qolgan qadriyatlar, aslini olganda, hayot ne'matlarining mohiyatidir, madaniy qadriyatlardir". V. P. Tugarinov "qadriyat" va "baho" tushunchalarini bir-biridan farqlash zarurligini uqtiradi. Qadriyat real yoki orzudagi hodisa (bor narsa yoki ideal)dir, baho esa shu hodi-saga munosabatni bildiradi.

U yoki bu hodisani qadriyatlarga mansub hisoblash, ya'ni uni qadriyatlarga qo'shish yoki qo'shmaslik ana shu munosabatga ijobiy yoki salbiy bahoga bog'liq.

Qadriyatlarning hayotdagи о'rni va ahamiyati baholash tufayli belgilanadi. Baholash esa insonlarning ehtiyojlari, manfaatlari, maqsadlari, qiziqishlaridan kelib chiqadi. Ma'lumki, jamiyat a'zolarining ehtiyojlari, manfaatlari, maqsadlari xilma-xil bo'lib, ko'pincha ular bir-biriga zid kelishi mumkin. Shuning uchun ham muayyan ijtimoiy guruhlar, millatlar, sinflar uchun oliy qadriyat bo'lib hisoblanib kelingan tabiat va jamiyat hodisalari boshqalar uchun qadriyat bo'lmasligi ham mumkin va aksincha. Bunda shunday xulosa chiqarish mumkin: tabiat va jamiyat

hodisalarini qadriyat turkumiga kiritish va kiritmaslik kishilarning ehtiyojlari, manfaatlari, orzu-istiklari, maqsadlari bilan belgilanadi.

Demak, qadriyat deyilganda inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan, millat, elat va ijtimoiy guruhlarning manfaatlari va maqsadlariga xizmat qiladigan tabiat va jamiyat hodisalari majmui tushunilmog'i lozim. Demak, bundan ko'rindiki, milliy qadriyatlar bizning milliy manfaatlarimizni, bugungi va ertangi orzu-intilishlarimizni o'zida mujassamlashtirgan, jamiyat va davlat taraqqiyoti talablariga to'la javob bera oladigan, yillar o'tgani sari insonlar uchun qadri ortib boradigan g'oya va tushunchalaridan iborat bo'lishi kerak.

### **Milliy qadriyatlar – ma'naviyatning eng muhim tarkibiy qismi sifatida**

Qadriyatlarga tadqiqotchi olimlar bir qancha ta'riflarni berishadi. Jumladan, "Qadriyatlar – jamiyatda kishilar o'rtasida obro'ga, e'tiborga, hurmatga, nufuzga ega kishilar, munosabatlar, holatlar, moddiy narsalar va ma'naviy boyliklar majmuasi", "Qadriyat inson va jamiyat ma'naviyatining tarkibiy qismi, olamdagи voqealar, hodisalar, jarayonlar, holatlar, sifatlar, talab va tartiblarning qadrini ifodalash uchun ishlatiladigan tushuncha" va boshqalar.

Qadriyatlar amal qilish doirasiga ko'ra milliy, mintaqaviy va umuminsoniy turlarga bo'linadi. Biz ushbu maqolada milliy qadriyatlar, ularning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni va ahamiyati haqida so'z yuritamiz.

Milliy qadriyatlar – millatning tili, madaniyati, tarixi, urf-odatlari, an'analarini,

jamiki moddiy va ma'naviy boyliklarini, iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy hayotining barcha tomonlarini qamrab olishi bilan murakkab ijtimoiy-ruhiy hodisa sifatida namoyon bo'ladi. Insonning qaysi millatga mansub ekanligi haqida-

gi tasavvuri faqat g'oyagina emas, balki tuyg'u hamdir. Bu tuyg'u kishida millatning tarixi, ruhiyati, hozirgi holati va xususiyatini tushunish, his qilish shaklida mujassamlashgan bo'ladi. Insonda milliy ong va g'urur bo'lmasa, u o'zining qaysi millatga mansubligini his etmasa, uning milliy qadriyatlarini anglashini tasavvur qilishi qiyin. Toki, millatlar, milliy mafkurlar mavjud ekan, milliy munosabatlar

ham, milliy his-tuyg'ular ham, milliy qadriyatlar ham saqlanib qolaveradi. Millatni milliy qadriyatlardan mahrum qilishga urinish tarix va insoniyat oldidagi eng katta jinoyatdir.

Har bir ruhan sog'lom kishida o'z qadr-qimmatini saqlash, o'zini hurmat qilish tuyg'usi mavjud. Har bir millatda ham xuddi shu holatni ko'ramiz. Millatlarning o'z-o'zini anglash jarayoni takomillashgan sari milliy manfaatlar ham, milliy qadriyatlar ham kuchayib, mustahkmalanib boraveradi.

Milliy qadriyatlarga hurmat bilan qarash – millatning o'ziga hurmat bilan qarashning asosiy bo'g'inidir. Ming yillar mobaynida shakllangan milliy qadriyatlarimiz hozirgi davrda yaratilgan madaniy-ma'naviy boyliklar bilan qo'shilib taraqqiyotimizni tezlatadi, g'oyaviy va ma'naviy poklanishni ta'mnnlashga ko'maklashadi. Shuning uchun ham qadriyatlarni avaylab asrash, ularni qo'riqlash, yuksaltirish alohida inson hayotida ham, jamiyat taraqqiyotida ham katta ahamiyat kasb etadi.

Ma'naviyatning eng muhim tarkibiy qismlaridan biri albatta, milliy qadriyatlarimiz

hisoblanadi. Qadriyatlar yuqorida ta'kidlaganimizdek, o'tmish bilan hozirgi kun o'rtasidagi vorisiylikni ta'minlaydi. Milliy qadriyatlarimizni asliga keltirish va rivojlanтиrishda xalqimizning ko'p asrlik an'analari, madaniyati, urf-odatlari, har xil bayramlari, boy qadimiy merosi o'zining alohida o'rni va ahamiyatiga ega.

Xalqimiz madaniy merosi, an'analari, urf-odatlari bizzalar uchun faqat o'tmishdan qolib kelayotgan yodgorlikkina emas, barcha ma'naviy boyliklarning tarkibiy qismi, inson aql-idroki va tafakkurining buyuk yutug'i hamdir. Misol uchun, ajdodlarimizdan bizga meros sifatida qoldirilgan va biz foydalanib kelayotgan beباho boyliklardan ruhiy oziq, kuch-quvvat olamiz, ularga tayanamiz. Har bir millat va elat ajdodlaridan qolgan bilim boyliklaridan, tajriba va tarixiy saboqlaridan, odob-axloq, ta'lrim-tarbiyaga oid o'gitlari va yo'l-yo'rqliqlardan kelajagini yaratishda qo'llaydi.

O'zbek xalqida dunyo tan berib kelayotgan ajoyib insoniy fazilatlar, nodir urf-odatlar mavjud. Oila a'zolarining barchasi to'planmaguncha ovqat yemay turish, oila boshlig'ini odob saqlab kutish, ota-onani o'rnidan turib kutib olish, ularga har doim iltifot ko'rsatish, kelgan mehmonni izzat-ikrom bilan kutib olish, kattalarga hurmat, kichiklarga mehr-shafqat, qarindosh-urug'larga, qo'ni-qo'shnilarga, mahalladoshlarga, tanish-bilishlarga yordamni ayamaslik va boshqalar bunga misol bo'ladi.

Birovlar bilan muomalada odob-axloq qoidalariga qat'iy amal qilish, o'zidan kattalar, yoshi ulug'lar bilan hayo, odob-andisha asosida so'zlashish, ularga nojoiz so'zlarni aytmaslik, betgachoparlik qilmaslik, odob-axloq, andishani qo'ldan bermaslik – bularning hammasi xalqimizning milliy mentalitetiga xos bo'lgan qadriyatlar hisoblanadi va yuksak darajada e'zozlanadi.


O'zidan kattalarni, birinchi galda keksa bobolaru otalarni, nuroniylarbuvilarni hurmat qilish, e'zo-zlash, ular uchun qo'ldan kelgan yordamni ayamaslik o'zbek xalqining an'anaviy qoidasi bo'lib, ular o'zbek oilalarida yoshlikdan bolalar ongiga, qon-qoniga, vujud-vujudiga chuqr singdirilib yuboriladi, ota-bobolarimiz an'analariga ko'ra, yoshlar o'zidan kattalarni ko'rganda tanish-tanimasligidan, millati va jinsidan qat'iy nazar salom ber-

ishlari, yo'lda ro'baro' kelganda birinchi bo'lib o'tkazib yuborishlari, ular bilan samimiy munosabatda bo'lislari, iltifotlarini ayamasliklari lozim. O'zbek oilalarida o'tadi-gan biron ta ham marosim, to'y-tomosha, hashar keksalarning maslahatisiz va ishtirokisiz o'tmaydi. Keksalarning turmush tajribalari, bilim boyliklari, bosib o'tgan yo'llari, yo'l-yo'riqlari, maslahatlari, saboqlari – yoshlar uchun eng katta boylik, bitmas-tuganmas xazinalar konidir.

### **Xulosa.**

Xalqimizning madaniy-ma'naviy boyliklari va milliy qadriyatlarini to'la, odilona egallash va rivojlantirish hozirgi avlodlarning vazifasidir. Gap o'tmisht madaniy-ma'naviy boyliklariga ega bo'lishdagina emas, balki uni chuqur egal-lab, yangi, yuksak bosqichga ko'tara bilishdadir. Bu borada Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning "Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariiga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz", - degan fikrlari yosh avlodni milliy qadriyatlar asosida yetuk, barkamol etib tarbiyalash masalasini dolzarbligini yana bir bor ko'rsatadi.


O'tmishtga, madaniy merosga hurmat – bu, birinchi galda uning yaratuvchisi, ko'z qorachig'idek avaylab – asrovchi va rivojlantiruvchisi bo'lgan xalq ommasiga ko'rsatilgan izzat-ikrom, mehr-oqibatdir. O'zining o'tmisht tarixiga, madaniyatiga, tarixiy merosiga, milliy an'analariga katta e'tibor va hurmat bilan qaraydigan xalqning istiqboli por-loq bo'ladi. O'tmishdoshlarimizga bizlar qanday munosabatda bo'lsak, nasl-nasabimiz ham bizlarga xuddi shunday javob qaytarishadi. O'tmishtimizni qanchalik yaxshi bilsak va e'zozlasak, yosh avlodga ham uni anglata olsak, hozirgi davrni, mustaqillik, ozodlikning ahamiyatini shunchalik



chuqur va mukammal tushunamiz. Uchinchi Renessans sari olg'a qadam qo'rmasdan shaxdam qadamlar bilan kirib borishga ham yo'l ochiladi.

### **Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati:**

- 1.*Mustaqillik izohli ilmiy-ommabop lug'ati. (A. Jalolov va Q.Xonnazarov umumiy tahriri ostida).* – T; Sharq, 1998, B. 279
- 2.*Ma'naviyat: asosiy tushunchalar izohli lug'ati. "G.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi".* T; 2010. B. 707
- 3.*Tulenov J. G'afurov Z. Mustaqillik va milliy tiklanish. Toshkent. "O'zbekiston", 1996.*
4. *Filosofskaya ensiklopediya. M., 1970, t. 5.-576 s.*



**Kimyoxon KAMOLOVA,**

*Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD  
Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti mustaqil tadqiqotchisi*

## **YANGI O'ZBEKISTONDA MILLIY QADRIYATLAR MASALASI**

**Yangi O'zbekiston orzusi, bugungi kunlarimizga nisbatan aytganda, hozirgi davrning taqozosini, uning asl qiyofasini, harakatlantiruvchi kuchlari va omillarini belgilaydigan g'oyaviy-ma'naviy asos, xalqimizga xos yaratuvchanlik shijoati va keng ko'lamli islohotlarimizning yaqqol ifodasıdir.**

**Sh.Mirziyoyev**

### **Yangi O'zbekiston va milliy qadriyat**

Yangi O'zbekiston. Uchinchi Renessans davri. Yangilanish va taraqqiyot. Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari. Yangi O'zbekistonda qadriyatlarning o'rni va ahamiyati. Qadriyat va inson va shu kabi iboralar bugungi kunda tez-tez ishlatalidigan iboralar bo'lib qoldi. Sababi, hozirgi vaziyat shuni taqozo qilmoqda. Inson jamiyat hayoti, undagi jarayonlar bilan hamohang tarzda bormasa, u taraqqiyotdan orqada qoladi. Jamiyatda bo'ladigan o'zgarish va rivojlanishga ham inson omili muayyan darajada o'z ta'siriini o'tkazadi.

Mamlakatimizda Yangi O'zbekistonning qiyofasini shakllantirish, erkin fuqarolik jamiyatini qurish, Uchinchi Renessans poydevorini yaratish borasida olib borilayotgan islohotlarda jahoning aksariyat davlatlari tomonidan asrlar davomida to'plangan tajriba, qolaversa o'zimizning ajdodlarimiz ilmiy-madaniy meroslari, milliy qadriyatlarimizdan foydalanish yaxshi natija beradi. Xo'sh, milliy qa-

driyatning o‘zi nima? Uning jamiyat hayotidagi ahamiyati qanday?

Milliy qadriyatlar – millatning tarixi, yashash tarzi, ma’naviyati, madaniyati bilan uzviy bog’liq bo’lgan, millat uchun katta ahamiyatga kasb etadigan, uning etnik jihat va xususiyatlarini namoyon etadigan fenomendir Dunyoda biron ta millat yo’qliki, o’ziga xos qadriyatlariga ega bo’lma-gan bo’lsa, shu jumladan o’zbek millatida ham. Bu ona yurtga ehtirom, avlod-ajdodlar xotirasiga sadoqat, kattalarga hurmat, kichiklarga izzat, hayo, andisha kabi xususiyatlarning ustuvorligi bilan tavsiflanadi.

Taniqli pedagog Safo Ochil o‘zining “Mustaqillik va tarbiya masalalari” nomli risolasida “Milliy qadriyatlar ota-bobolardan bizgacha yetib kelgan udumlar: Ramazon hayiti, Qurbon hayiti, Navro’z, urug’-don ekish va hosil bayramlari, beshik to’yi, sunnat to’yi, o’g’il uylantirish va qiz chiqarish bilan bog’liq to’ylar, uy-joy to’yi, qazo bilan bog’liq turli ma’raka-marosimlar, shuningdek, xalqning har xil an’analari – hashar, ota-onalarga hurmat, yoshlarga izzat, qariyalarga muruvvat, milliy odob-axloq me’yorlari-ga amal qilish, ilm olish, oila mustahkamligiga erishish, us-tozlar qadriga yetish, vafot etganlar qabrnini ziyorat etish, xalqqa muhabbat, Vatanni sevish va ardoqlash, askarlikka o’z ixtiyori bilan borish, baynalmilalchi bo’lish, muloyim va shirinsuxanlik va shu kabilarni o’z ichiga qamrab oladi”, – deya ta’rif beradi. Bugungi kunda ushbu qadriyatlarning barchasi jamiyat taraqqiyotiga o’z ta’sirini o’tkaza oladigan qadriyatlardir. Mamlakatimizda yoshlarni mana shu milliy qadriyatlar asosida intellekti yuqori va vatanparvar qilib tarbiyalashga katta ahamiyat qaratilmoqda. Abdurauf Fitrat o‘zining “Oila” nomli asarida bolalarni “diqqatlari va zehnlari chuqr va jiddiy bo’lishiga o’rgating.... Ko’rganlari ustidan tez xulosa chiqarmasınlar”, – deya ta’kidlab, farzand tarbiyasiga e’tibor berish lozimligini uqtiradi.

## Ajdodlarimiz qadriyatlar haqida

Qadriyat – bu tabiiy va ijtimoiy hayotda namoyon bo'ladigan shaxsiy va ijtimoiy ehtiyojni qondirishga xizmat qiladigan moddiy-madaniy, ma'naviy omillar yig'indisidir. O'zbek mentalitetiga xos bo'lgan milliy qadriyatlardan andisha, sabr-toqat, vazminlik, mulozamat, sertakalluflik, keksalarga hurmat-ehtirom, ijtimoiy hayotda bosiqlik ajdodlarimiz yaratgan ma'naviy merosda ham o'z aksini topgan. Jumladan, Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig", Ahmad Yugnakiyning "Hibbat ul-xaqoyiq" asarlari, Kaykovusning "Qobusnomá", Burhoniddin Marg'inoniyning yetti kitobdan iborat "Hidoya", Husayn Voiz Koshifiyning "Axloqi Muhsiniy" nomli odob-axloq me'yorlarini batafsil yoritib bergen asarlari bugungi kunda ham o'z ahamiyatini, dolzabrigini yo'qotmagan.

XI asrning atoqli shoiri, donishmandi va davlat arbobi Yusuf Xos Hojib qarilarni hurmat qilish, ular haqida behuda so'z aytmaslik, ular huzurida odob va kamtarlik bilan so'zlash joizligini uqtirgan edi. XII asrning iste'dodli shoiri va donishmand murabbiysi Ahmad Yugnakiyning "Hibbatul haqoyiq" (Haqiqatlar armug'oni) asarida ilmli bilan ilmsizni, olim bilan johilni qiyoslab bayon etgan quyidagi fikri bunga misol bo'ladi: "Bilim to'g'risida so'zlamoqdam, so'zimni yaxshi tingla, bilimdon kishilarga o'zingni bog'la. Bilim bilan baxt-saodat yo'llari o'rganiladi, bilim egallab, saodat yo'lini top. Bilimli kishi qimmatli oltindir. Johil, bilimsiz kishilar arzimas qalbaki (aqcha)dir. Bilimli bilan bilimsiz qachon teng bo'ladi? Bilimli ayol er (mard) dir, bilimsiz er ayol (zaif) dir. Suyakka ilik, er kishiga ilm kerak. Erning ko'rki aql, suyakning ko'rki ilikdir. Bilimsiz iliksiz suyakdek bo'sh – quruqdir, iliksiz suyakka esa qo'l uzatmaydilar. Er kishi bilim o'rganib, bilguvchi bo'lib qoladi, bilimsiz tiriklikda ko'rguliklar ichida qoladi. Bilimli er o'lsa ham oti o'chmaydi, bilimsiz kishi hayot chog'ida ham

uning oti o'likdir". Ahmad Yugnakiyning bu mulohazalari, hozirgi davrimiz uchun ham muhim ahamiyatga ega.

Ilmu ma'rifatning insonning qadr-qimmati va izzat-e'tiborini oshirishdagi ahamiyati Kaykovusning "Qobusnama"sida, Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" ("Baxt keltiruvchi bilimlar) nomli asarlarida ham o'zing chuoq ifodasini topganligini qayd qilib o'tish mafqadga muvofiqdir. Yusuf Xos Hojibning fikricha, zakovat qorong'i tundagi mash'al kabidir, bilim esa nur tarqatuvchi yorug'likdir. Kimda zakovat bo'lsa, o'sha asil odam bo'ladi, kimda bilim bo'lsa, u martabaga erishadi. Bilim javohir kabi bir yerda to'planib turadi, u zakovatning konidir, bir yerda jamlanib yotadi. Mushk-anbar va bilim bir-biriga o'xshash narsalardir, ularni o'zidan bo'laklardan yashirib saqlab bo'lmaydi. Mushk-anbarni yashirsang, uni hidi os-hkora qiladi, bilimni yashirsang, uni tiling oshkora qiladi. Bilim o'z sohibini qashshoq qilmaydigan bitmas-tuganmas boylikdir, o'g'ri va qalloblar uni hech o'g'irlab ola olmaydi

Buyuk bobomiz hazrat Alisher Navoiy aytganlaridek, ota-onani hurmat qilish farzandlar "... uchun majburiyatdir. Bu ikkisiga xizmatni birdek qil, xizmating qancha ortiq bo'lsa ham kam deb bil. Otang oldida boshingni fido qilib, onang boshi uchun butun jismingni sadaqa qilsang arziydi! Ikki dunyong obod bo'lishini istasang, shu ikki odamning roziliginini ol! Tunu kunungga nur berib turgan - birisini oy deb bil, ikkinchisini quyosh. Ularning so'zlaridan tash-qari bir narsa yozma, ular chizgan chiziqdan tashqariga bir qadam ham bosma. Hamma xizmatni sen odob bilan bajar, "adab" so'zidagi "dol" kabi qomatning xam qil".

Tan olib shuni aytishimiz kerakki, keyingi paytlarda keksalarni, ota-onalarni hurmat qilish zarurligi haqidagi milliy qadriyatlarimiz biroz xira torta boshladi. Ba'zi yosh-larda kattalarni hurmat qilish, ularning gapiga qulq solish singari yuksak ma'naviy fazilatlar yo'qolib ketayotgani

sezilmoqda. Ehtimol, boshqa millat vakillari bunga unchilik e'tibor berishmas, lekin biz, o'zbeklar buni his qilmay ilojimiz yo'q. Keksalar uchun ajratilgan uylarda farzandlari tirik bo'lgan ota-onalar yashayotganligiga toqat qilib bo'lmaydi. Goh-gohida bo'lsa-da, ota-onaga qo'l ko'tarish, undan ham og'irroq jinoyat qilish hollari sodir bo'lib turganligini matbuotdan o'qib, odamlardan eshitib turibmiz. Bu- oddiy bir nuqson emas, balki uchiga chiqqan tubanlik, bag'ritoshlik, ko'rnamaklikdir, avlodlarimiz o'gitlarini nazar-pisand qilmaslik, oyoq osti qilishdir. Milliy, axloqiy qadriyatlarimizga, o'zbek xalqining sha'niga dog' tushiradigan bunday yaramas hodisalar qayerdan kelib chiqdi, ularning asosiy sababi, ildizi nimadan iborat? degan savol paydo bo'lishi mumkin.

Shuni aytish kerakki, taraqqiyotning muayyan bosqichida ayrim yoshlar o'zbek xalqining eng asl milliy qadriyatlarini chuqur o'rganish, tahlil etish, mohiyatini to'la anglab yetishdan to'la mahrum bo'lib qoldilar. Avlod-ajdodlarimizning o'gitlari, pand-nasihatlari, eng ajoyib an'analarimiz, milliy qadriyatlarimiz tinmay targ'ib-tashviqot qilinishi, odamlar ongi va turmushiga singdirilishi o'rniga nuqlul qoralandi, yomon otli qilindi, bid'at, xurofot, deb baholandı. Milliy qadriyatlarimizning serma'no, serhikmat g'oyalarini o'zida jo qilgan va targ'ib-tashviq qiladigan o'zbek xalq rivoyatlari, ertaklari, dostonlari, maqol va matallari, aruz va baytlari, kuy va qo'shiqlariga unchalik e'tibor berilmadi, ular sinchiklab o'rganilmadi. Bularning o'rniga Yevropa va boshqa xalqlarning madaniy-ma'naviy meroslariga ruju qilindi.

"O'nlab yillar davomida biz ta'lim-tarbiya borasi-da Yevropa, Rusiya modelini ko'klarga ko'tarib maqtab, targ'ib qilib, yoshlarimizni o'z milliy qadriyatimizdan bebahra qilib qo'ydik. Ana shu kasofatlar tufayli diniy, axloqiy, madaniy-ma'naviy qadriyatlarimizning, oila, maktab,

mahalla-ko'y, qo'ni-qoshnilar ta'lif-tarbiyasining hayot sinovidan o'tgan bebafo boyliklaridan judo bo'la boshladik, bora-bora shu ahvolga tushib qoldik". Milliy qadriyatlarimizning mohiyatiga tubdan zid bo'lgan bunday salbiy hodisalarining uzoq davom etishiga ortiqcha chidash, sabr-toqat qilish mumkin emasdi. Mustaqilligimiz tufayli bularga chek qo'yildi. Milliy an'analar, milliy madaniyat, milliy qadriyatlar o'zining qaddini rostlay boshladgi. Buni hozirgi kunda olib borilayotgan islohotlarda ham ko'rishimiz mumkin.

Ushbulardan kelib chiqib, quyidagilarni tavsiya qilgan bo'lar edik:

Bugungi kunda Yangi O'zbekistonda "Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari bosh g'oyasiga tayanib, Uchinchi Renessans sari qadam qo'yishga maqsad qilingan ekan, bu vazifani bajarish uchun birgina rahbar, pedagog yoki tarbiyachi emas, balki shu Vatan barchamizniki, deya ko'nglida vatanparvarlik, yurtparvarlik, insoniylik fazilatlari mujassam, imon-e'tiqodi butun bo'lgan har qanday shaxs targ'ibotchi bo'lishi lozim. Ushbu targ'ibotchilar Renessansni yaratishda o'zimizning milliy qadriyatlardan ham ijobiy foydalanish lozimligini targ'ib qilishlari lozim:

Birinchidan, bog'cha bolasidan tortib, oliv ta'lif muassasasi talabasi bo'ladimi, yoki oddiy ishchi xodim, sohasi ta'lif bilan bog'liq bo'lмаган kishi bo'ladimi, barchasida hozirgi tez o'zgarib, tez rivojlanayotgan dunyoda zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega bo'lgan, milliy va umumbashariy qadriyatlar asosida mustaqil va mantiqiy fikrlaydigan yoshlarga munosib o'rnini topayotganligini misollar bilan ko'rsatib, ideal shaxslar timsollarini yaratish yoshlar dunyoqarashida ijobiy o'zgarishlarga olib keliши mumkin.

Ikkinchidan, yosh avlod qalbida Sharq Uyg'onish davri ulug' allomalari, qomusiy bilim sohiblari, mashhur muta-

fakkirlar, ularning merosi haqida tushunchalar hosil qilib borish hamda ajdodlardan faxrlanish tuyg'usini shakllantirish lozim;

Uchinchidan, yoshlarda vatanparvarlik, insonparvarlik, xalqparvarlik fazilatlarini yanada mustahkamlab, ularda g'ayrat-shijoat, mardlik va fidoyilik, daxldorlik tuyg'ularini oshira olinsa, ko'zlangan maqsadga tezroq erishiladi.

Prezidentimiz ta'kidlaganidek, "farzandlarimizning iste'dod va qobiliyati, ezgu intilishlarini to'liq ro'yobga chiqarish, ijtimoiy faolligini oshirish, hayotda munosib o'rinnegallashlari uchun barcha imkoniyatlarni yaratib berish bundan buyon ham bosh maqsadimiz" bo'lib qolar ekan, bu yo'ldan og'ishmay borish, bor kuch va g'ayratimizni sarflash, yoshlarni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash biz pedagog va ziyolilar uchun asosiy maqsad bo'lib qolmog'i shart.

### **Foydalaniqan adabiyotlar ro'yxati:**

1. *Mirziyoyev Sh. O'zbekiston Mustaqilligining yigirma to'qqiz yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. 31.08.Φ2020*
2. *Mirziyoyev Sh. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent. "O'zbekiston" nashriyoti. 2021 yil. 36-bet*
3. *Safo Ochil. Mustaqillik va tarbiya masalalari. T; "O'zbekiston", 1995. B.5-6*
4. *Qadimiy hikmatlar. G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. Toshkent. 2004*

**Xurshid SEROBOV,**

*Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti  
kichik ilmiy xodimi*

## **MILLIY QADRIYATLARNI TARG'IB ETISHDA RAQAMLI TARG'IBOTNI KUCHAYTIRISH MASALALARI**

**Annotatsiya:** Maqolada milliy qadriyatlarni targ'ib etishda raqamli targ'ibotning ahamiyati, bugungi zamonaviy texnologiyalar davrida miliy ma'naviyat va milliy qadriyatlarni yoshlar orasida ko'proq targ'ib qilish, milliy qahramon masalasi xususida so'z boradi. Raqamli targ'ibot bilan yechilishi mumkin bo'lgan ijtimoiy-ma'naviy muammolar tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** Milliy qadriyat, milliy ma'naviyat, milliy qahramon, raqamli targ'ibot, ijtimoiy tarmoqlar, internet.

Targ'ibot tizimi davomli faoliyat orqali – jamiyat, insonlar qatlami yoki muayyan inson ong osti tafakkuriga ta'sir ko'rsatish (manipulyasiya qilish) orqali ijtimoiy faollikka undash jarayoni hisoblanadi. Bugungi kunda mafkuraviy xurujlar asosan ijtimoiy tarmoqlar va reklamalarda ochiq va yashirin (psixologik) ravishda olib borilmoqda. Ularning eng xavfli tomoni milliy qadriyatlardan uzoqlashtirish va milliy g'urur tuyg'usidan mahrum qilishga qaratilganidir. Aksariyat aholi, jumladan yoshlar, ijtimoiy tarmoqlarga bog'lanib qolgani sir emas. Mazkur omil esa yoshlar tarbiyasiga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatmay qolmaydi. "Ma'naviyat lug'ati"da milliy an'analar tushunchasiga "millat hayotining turli sohalarida namoyon bo'ladigan tushunchalar, belgilari, xususiyatlar, qadriyatlar, faoliyat turlari, odatlar va xislatlarning avloddan avlodga o'tishi hamda meros bo'lib qolishini ifodalovchi tushuncha", deya

ta'rif berilgan. "Milliy urf-odatlar" tushunchasi esa "millatning turmush-tarziga singib ketgan, uning shakllanishi va rivojiga xizmat qiladigan ijtimoiy-madaniy hayotida o'z aksini topgan, doim takrorlanib turadigan xatti-harakat, ko'pchilik tomonidan qabul qilingan xulq-atvor qoidalari va ko'nikmalar ko'rinishidir", deya izohlangan. Qadriyat so'zi inson va jamiyat ma'naviyatining tarkibiy qismi, olam-dagi voqealar, hodisalar, jarayonlar, holatlar, sifatlar, talab va tartiblarning qadrini ifodalash uchun ishlataladi. Milliy qadriyatlar millatning asrlardan asrlarga o'tib kelayotgan noyob xazinasidir. Bugun yoshlarni ommaviy madaniyat changalidan asrash lozim. Ular milliy qadriyatlarni kela-jak avlodga yetkazuvchi ko'priq bo'lislari kerak. Chunki milliy qadriyatlar xuddi til kabi millatning o'ziga xos xus-usiyatlarini ifoda etadi.

Bugun ommaviy madaniyatga qarshi qanday kurashish va milliy qadriyatlarni qanday qilib kengroq targ'ib etish mumkin? Raqamli targ'ibot eng samarali usul hisoblanadi. Raqamli targ'ibot – bu biror bir g'oya va mafkurani targ'ib qilish, uni ommaga singdirish uchun Internet va kompy-uterlar, mobil telefonlar va internetga ulanadigan boshqa raqamli texnologiyalardan foydalanadigan targ'ibot tizim-idir. Bunda har bir ijtimoiy tarmoqning xususiyatidan kelib chiqib targ'ibot materiallari tayyorlanadi: Telegram – matnli, audio, foto va video materialllar, so'rovnomalar; Facebook – matnli, audio, foto va video materialllar, so'rovnomalar; Instagram – foto va video materialllar; Tik-tok – video materialllar; Twitter – qisqa matn ko'rinishidagi, foto va video mahsulotlar.

Keyingi masala – raqamli targ'ibot keng ta'sir ko'rsati-shi uchun aholida internetdan foydalanish madaniyati eng kamida o'rta darajada bo'lishi zarur hisoblanadi. Aholining internetdan foydalanish madaniyatini oshirish uchun nima qilish kerak? Aholining axborot olish, internetdan foydala-

nish madaniyatini paydo qilish uchun media savodxonligini oshirish zarur. Media savodxonlik va axborot xavfsizligi muhim omillar hisoblanadi. Shuningdek, faktcheyking, ya'ni ma'lumotning to'g'ri yoki noto'g'riliгини tekshira olish ko'nikmasini shakllantirish lozim. Bugun matn, video, foto va boshqa turli ko'rinishdagi feyk axborotlardan saqlanish asosiy media xavfsizlik sharti hisoblanadi. Aholini axborotni ishonchli manbalardan olishga o'rgatish lozim.

Shu o'rinda tarixiy qahramon masalasi ham milliy g'ururni shakllantirishda muhim jihat hisoblanadi. Xalq o'zi havas qiladigan, yuksak namuna deb biladigan ma'naviy idealini ajdodlari misolida ko'rishi milliy g'ururning negizi hisoblanadi. Raqamli targ'ibotda tarixiy qahramonlaridan ko'proq foydalanish milliy qadriyatlarni ko'proq yoshida va yoshlar ongida millatparvarlikni kuchaytirishda muhim vosita bo'ladi. Ijtimoiy tarmoqlarda fikr aytish, turli foto-video yuklash, turli bachkanaliklar ko'rsatib ommanning e'tiborida bo'lish orqali o'zini aqli qilib ko'rsatish zamonamiz har bir kishisiga xos. Ayniqsa, yoshlarimiz bu borada ancha faol. Ular sayyoramizning mashhur insonlari – film qahramoni, futbolchi, shoир, fizik, faylasuf va boshqa kishilarga taqlid qiladi, iqtiboslarni keltiradi. O'ziga kumir, ideal deb biladi. Kumirlarining suratini muntazam virtual olamda joylab borishga intiladi. Bu tabiiy hol. Inson mudom mutaassir etgan, hayratlantirgan shaxslariga intilib yashaydi. Afsuski, bugun ijtimoiy tarmoqda Beruniy yoki Forobiy asarlaridan iqtibos keltirgan, ilmiy qarashlarini muhokama qilgan yoshlarni kamdan-kam uchratish mumkin. Xush, kim aybdor? Do'ppini yechib, o'ylab ko'rsak, ko'p yillar buyuk ajdodlarimiz hayoti va ijodini yetarli tanishtirish o'rniga yoshlar qulog'iga faqat nom quyib kelibmiz. Yetmaganiga yoshlar ota-bobolarimizni tanimaydi, bilmaydi deb o'pkalaymiz. Millat o'z qahramonlarini tanimas ekan, hech qachon qudratli bo'lolmaydi. Odamlarga doim

qahramon kerak. "Haqiqiy qahramonlik qo'lda emas, miya va yurakda", degan edi amerikalik adib Herman Melvill. Shu sababli milliy tafakkurni uyg'otish, turli "parastlik" sindromlardan xalos bo'lish uchun tariximiz yorqin sahi-falarini jamiyatga yuqtirishga ehtiyojimiz bor. Buyuk allomalar, mumtoz shoirlar, dovyurak sarkarda-yu, ma'rifatli hukmdorlarimizni xalqimizga qayta tanitishimiz lozim. Bu esa ziylolarimiz zimmasidagi ma'naviy burch hisoblanadi.

Zamonaviy dunyoda kino ijodkorlar o'z ishining hadisini shunday olganki, bir zamonlar qabila sardori bo'lgan, nasl-nasabining tayini bo'lмаган kimsani ham super qahramon aylantirib yuboradi. Tabiiyki, mazkur qahramon yer yuzini qutqaruvchi kuch-qudrat sohibi o'laroq millionlab o'smirlar qalbidan joy oladi. Shu bilan birga ahon kino san'ati ahli ilm-tafakkur namoyandalarini ham unutgan emas. Gugl dasturida biror tarixiy shaxsni qidirsangiz, hech qursa, u haqida bitta kinoasar chiqib keladi. Afsuski, biz bu borada maqtana olmaymiz. Buyuk ajdodlarimiz haqida o'tgan asrda ko'p tarixiy romanlar yozilgan, filmlar ishlangan, spektakllar yaratilgan. Biroq tarixiy-biografik janrdagi bu asarlar xuddi Siam egizaklari kabi ikki tomchi suvday o'xshash. Asarlar-da davr va ijtimoiy muhit bir-biriga o'xhashi mumkindir, ammo har bir ajdodimizning o'z taqdiri, ijodi yo'li va g'oyasi bor. Bugun bir qolipdagagi zo'rma-zo'raki, badiiy talqini bitta o'zanga qamalgan, birovi-birovini takrorlaydigan qahramonlar yaratish urfdan qolgan.

Shu paytgacha o'zbek adabiyotida, kinosida yaratilgan ijod mahsullarini yo'qqa chiqarishadolatsizlik bo'ladi, al-batta. O'tgan asrda "Alisher Navoiy", "Abu Rayhon Beruniy", "Ulug'bek yulduzi", "Abu Ali Ibn Sino", "Buyuk Amir Temur", yaqin yillarda "Ibrat", "Avloniy", "Qo'qon shamoli", "Imom Abu Iso Termizi" kabi tarixiy mavzudagi filmlar qator filmlar yaratildi. Turk ijodkorlar bilan hamkorlikda "Men kim Jaloliddin" tarixiy seriali suratga olindi. Lekin bu film-

lar kutilganidek effekt bergani yo'q. Adabiyot inson qalbini ifoda etsa ham odamzod o'qigani yoki eshitganidan ko'ra ko'rganiga ko'proq ishonadi. Lekin kinoning asosida bari-bir adabiyot bo'lishi kerak. Tarixiy filmlar, albatta, badiiy poydevori baquvvat asarga qurilishi lozim. Ajdodlarimiz tarjimai holini bitta formulaga solib, asardan asarga "copy-paste" qilish bilan maqsadga erishish qiyin. Bir xillikdan qochish, tasavvurlarimizni bir sidra tozalab olish, ajdodlarimiz bilan oramizni yaqinlashtirish hozirgi o'zbek adabiyoti va kinosining muhim vazifasi, deb o'ylayman.

Haqiqiy vatanparvarlik qasidasi o'laroq tilga olinadigan Mel Gibsonning "Sheryurak" badiiy filmini hammamiz yaxshi bilamiz. Shotlandiya va Angliya o'rtaisdagi urushlarda afsonaga aylangan Uilyam Uollesning hayotidan ta'sirlanib suratga olingan mazkur filmda ko'p epizodlar to'qima bo'lsa ham shotland o'g'lonlarining urushdagi matonati, vatanparvarligi va jasorati hanuzgacha millionlab qalblarni to'lqinlantirib keladi. Aslida mazkur film XV asrda Blaynd Garri degan so'qir shoirning Uolles haqida yozgan dostoni asosida yaratilgan. Film ijodkorlari esa kichik personajni butun dunyoga vatanparvarlik timsoli si-fatida taqdim eta bildi. Nima, bizning tariximizda Uolleslar yashamaganmi? O'tmishimizning har bir sahifasida bir emas, ikki emas, o'nlab Uolleslar bor-ku, axir! Shunday ekan, nega Spitamen yoki To'maris hayotini tomoshabinga ko'rsata olmaymiz? O'n besh yillarcha ilgari teleekranlarimiz koreys tarixiy seriallar bilan to'lib-toshgan edi. Oqibatda bolalarimiz koreys qahramonlari bo'lishni orzu qilib boshladи. O'quvchilar Shiroq, To'maris, Spitamen, Mahmud Torobiy, Temur Malik, Jaloliddin Manguberdi, Najmiddin Kubro kabi buyuk vatanparvar bobolarimiz haqida faqat darsliklarda o'qishi yetarli emas.

Dunyoda motivlar tugamagan, lekin syujet va g'oya taqchilligi bor. Shunga qaramay yaqin yigirma yilda qan-

chadan qancha super qahramonlar o'ylab topilmadi, deysiz? O'rgimchak odam, Chumoli odam, Ko'rshapalak odam (Betmen), Terminator, Temir odam... Sanayversak, ro'yxatning adog'iga olis. Eng qizig'i, ular o'ylab topilgan, bor-yo'g'i fantaziya mahsuli, xolos. Bizning tariximiz va folklorimiz esa Hollivudni 10-15 yil tarixiy qahramon bilan ta'minlashga yetib ortadi. Rus yozuvchisi Sigismund Krjijanovskiyning bir gapi bor: "Vatan tarixini yozishingiz uchun ikkita narsa bo'lishi kerak: ham vatan, ham tarix. O'tmishingizni sevishingiz, qadimgi zamonning eng yomon faktlaridan ham yaxshilik izlashni o'rganishingiz kerak. Tarix haqida badiy asar yozishdan oldin mamlakatingiz tarixini bilishingiz, to'liq material to'plashingiz va shundan keyingina tarixiy asarda ketma-ket bo'lib o'tadigan voqealarni ko'rib chiqishingiz mumkin". Raqamli targ'ibotda aynan tarixiy qahramonlardan foydalanish samarali vosita deb hisoblaymiz.

2023-yil, 21-fevral kungi ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekistonda 26,74 mln nafar aholi internetdan foydalanishi ma'lum bo'ldi. We Are Social kompaniyasi statistikasida O'zbekiston internet va ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilar, reklama imkoniyatlari, turli qurilma va brauzerlar statistikasi va raqamli iqtisodiyot ko'rsatkichlari keltirilgan. My.gov.uz quyida ayrim ma'lumotlarni taqdim etdi. Aholi soni – 34.9 million kishi; mobil qurilma foydalanuvchilar – 31.84 million; internet foydalanuvchilar – 26.74 million (aholiga nisbatan 76.6%). O'zbekistonliklarning 83.52 foizi asosiy qidiruv tizimi sifatida Google qidiruv tizimidan, 14.59 foiz aholi Yandex tizimidan, 0.34 foiz aholi Yahoo qidiruv tizimidan foydalanadi. DuckDuckGo, Baidu, Bing kabi qidiruv tizimlaridan eng kam foydalaniladi. O'zbekistonda ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilarining umumiy soni 5.35 million kishi (aholiga nisbatan 15.3% va internet foydalanuvchilariga nisbatan 20%) bo'lib, ayol kishilar 32.7 foizni, erkak kishilar 67.3 foizni tashkil etadi.

Ijtimoiy tarmoq platformalari bo'yicha kesim: Instagram – 30.08%, Pinterest – 22.82%, YouTube – 20.22%, Facebook – 15.12%, Twitter – 4.83%, Tumblr – 2.7%, Vkontakte – 1.49%, LinkedIn – 1.36%, Reddit – 1.34%. Ijtimoiy tarmoqlarda reklama berish imkoniyatlari nisbatan Facebook ijtimoiy tarmog'ida ko'proq. Facebook reklamasining potensial qamrovi – 1.65 million kishi (aholiga nisbatan 4.7% va internet foydalanuvchilariga nisbatan 6.2%), Instagram reklamasining potensial qamrovi – 1.65 million kishi (aholiga nisbatan 12% va internet foydalanuvchilariga nisbatan 15.7%). Bu raqamlar ham milliy qadriyatlarni targ'ib etishda raqamli targ'ibotning ahamiyat yuqori ekanini ko'rsatib turibdi.

Fikrlarimizni umumlashtirgan holda, raqamli targ'ibot bilan yechilishi mumkin bo'lgan ijtimoiy-ma'naviy muammolar sifatida quyidagilarni aytishimiz mumkin:

- "Ma'naviyat" tushunchasiga nisbatan kinoyali qarash shakllangani (bu jihat ko'proq yosh intellektual qatlam orasida urchga kirgan; ijodkorlar, OAV vakillari, ijtimoiy tarmoq faollari "ma'naviyat"ni senzura deb tushunishadi va "mentalitet" tushunchasi bilan adashtirib qo'yish holatlari ko'p uchraydi).

- Umumiy savodxonlik darajasining pastligi.
- Huquqiy savodxonlik yetishmasligi.
- Media vositalaridan, OAVlardan to'g'ri axborot olish muammosi.

- Omaning manipulyasiyaga yengilishi (istalgan axborot bilan omaning ongiga ta'sir ko'rsatish oson bo'lib qolgan, bugungi axborot xurujni avjiga chiqqan zamonda bu muammo xavfli oqibatlarga olib kelishi mumkin).

- Ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish madaniyati yetishmasligi (ayniqsa, Tik-tok muammosi, Tik-tokdan asosan o'smirlar foydalanishini inobatga olsak, kelgusida yanada jiddiy muammo bo'lishi turgan gap).

- Media mahsulotlari sayozlashuvining ijtimoiy-ma'naviy muhitga salbiy ta'siri (bu asosan TV bilan bog'liq: filmlar, kliplar, seriallar).
- Yoshlarda "ideallar almashuvi" muammosi (yoshlar kimga qarab harakat qilayotgani, kimdan namuna olayotganini kuzatsak, bu ahvol achinarli, saviyasiz vaynerlar va tiktokerlar yosh qatlarning idealiga aylanib bormoqda).
- Jamiyatga nisbatan daxldorlik hissi, fuqarolik pozisiyasi yo'qligi; loqaydlik.
- Qishloq joylarida, mahallalarda kutubxonalar yo'qligini inobatga olib, har tomonlama imkoniyatlarga ega bo'lgan zamonaviy axborot texnologiya markazlarini tashkil qilish kerak (yaxshi sharoitga ega kutubxonalar bo'lishi kerak, bunga talab bor. Maktab kutubxonasi emas, aynan mahallalarda ATMlar tashkil qilish kerak).
- Yoshlar ongida milliy qadriyatlar eskilik emas, aksincha har qanday yangilikni milliy o'zlikka moslashtirishda ma'naviy tozartiruv vositasidir, degan tushunchani shakllantirish.

**Valijon ASHIROV,**

*Navoiy davlat pedagogika instituti*

*Tarix fakulteti o'qituvchisi*

**NAVOIY VILOYATI SANOAT  
SHAHARLARIDAGI MADANIY MASKANLAR VA  
ULARNING MILLIY MA'NAVIY QADRIYATLARINI  
O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**

O'zbekistonni rivojlantirishga o'z hissasini qo'shishga, uning madaniy, ilmiy, ma'naviy merosi va zamonaviy yutuqlarini saqlash va ommalashtirishga ko'maklashishga intilayotgan milliy madaniy markazlar o'z faoliyatini amalga oshirishida mamlakatimizning milliy qadriyatlarini rivojlantirishda har tomonlama o'zaro yordamlashib kelmoqda.

O'zbekiston Respublikasi mustaqilligi mamlakat ma'naviy taraqqiyotida yangi bosqichni boshlab berdi. Bungi kunda butun yer yuzida diniy bag'rikenglik, konfesiyalararo o'zaro hurmat, bir-birini tushunish asosiy hayotiy tamoyilga aylanmoqda. O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov ta'kidlaganidek: "So'ngi yillarda ro'y bergen voqealar mamlakatlarimizning bu-guni va ertangi kuni uchun dinlararo va millatlararo totuvlikni mustahkamlash, mintaqada tinchlik va barqarorlikni saqlash borasidagi barchamizning sa'y-harakatlarimizni birlashtirish naqadar katta ahamiyatga ega ekanligini takror va takror tasdiqlamoqda" [1]. Mustaqillik tufayli O'zbekiston fuqarolari uchun tom ma'nodagi vijdon erkinligi ta'minlandi. Bu bosh qomusimizda ham alohida e'tirof etiladi. Konstitutsiyamizning 31-moddasida qayd qilinganidek, "Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson hohlagan dinga e'tiqod qilish yoki hech qaysi

dinga e'tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'l qo'yilmaydi”[2]. Millatlara-ro munosabatlarni yanada uyg'unlashtirishni ta'minlash, mamlakatda millatlararo tinchlik va totuvlikni qo'llab-quvvatlash, O'zbekistonda yashayotgan millat va elatlarning madaniyatni, tili va an'analarini saqlash bo'yicha chora-tadbirlarga alohida e'tibor qaratiladi.

Ma'lumki, bag'rikenglik g'oyasi – turli millat va elat-lar vakillarining bir zamin, bir vatanda olivjanob g'oya va niyatlar yo'lida hamkor va hamjihat bo'lib yashashini anglatadi. Haqiqatan ham yurtimizda bir qancha millat va illat vakillari qadim-qadimdan milliy qadriyat va ezzulik g'oyalariga assoslanib, yaxshilik, tinchlik, do'stlik kabi fazi-latlarga tayanib tinch-totuv yashab kelishgan. Odamlarni halollik, poklik, mehr-oqibat va bag'rikenglikka chorlag-an. Shu bois har bir fuqaro qalbida o'z yurtiga egalik his-sini tarbiyalash muhim ahamiyatga egadir. Yurtimizda ya-shaydigan har bir odam qalbida mamlakatimiz yutuqlaridan g'ururlanish, millati, dinidan qat'i nazar, biz uchun “O'zbekiston – yagona Vatan” degan tabiiy tushuncha paydo bo'lishi juda muhim. Shundagina, barcha fuqarolar qalbida Vatan istiqbolini bunyod etish uchun faol ishlash, vatanparvarlik, el-yurt uchun fidoyilik, mardlik va jasorat tuyg'ulari yanada kuchayib boradi.

Ittifoqdosh Respublikalarning bir qanchasida XX as-rning 80-yillarida millatlar o'rtasidagi munosabatlар va madaniy qarashlarga e'tibor berilmasligi etnik muammolarni yuzaga kela boshlaganligi tariximizda qayd etilagan. “Ta'kidlash joizki, millatlararo munosabatlardagi ziddiyatlarni, xalqlar orasidagi turli janjallarni Markazning sovet davrida olib borgan milliy siyosati keltirib chiqardi”[3]. Dastlabki milliy madaniyat markazlari koreyslar, qozoqlar, yahudiylar, armanlar tomonidan Respublika viloyatlarida 1989-yilda tuziladi. O'sha paytda ularning

faoliyatini muvofiqlashtirib turish maqsadida O'zbekiston Hukumatining qaroriga binoan Madaniyat ishlari vazirligi huzurida Respublika millatlararo madaniyat markazi tashkil etildi. Ammo bu markazlarning chinakam rivojlanish va ravnaq topishi 1991 yildan mamlakatimiz mustaqillikka erishganidan keyin boshlandi. 1992 yilning 13-yanvarda birinchi Prezidentimiz I.A.Karimovning tashabbusi bilan Respublika millatlararo Baynalmil markazi qoshidagi Madaniyat ishlari vazirligi Respublika baynalmil madaniyat markaziga aylantirildi. Shu tariqa uning faoliyati negizida millatlar va elatlarni jipslashtirishga asosiy e'tibor qaratildi. Respublika Baynalminal Madaniyat Markazi to'g'risidagi nizomda uning mustaqil muassasa ekanligi qonuniy kafolatlangan. O'zbekistonda yashovchi milliy guruhlarning madaniy ehtiyojlarini qondirishda davlat idoralariga va jamoat tashkilotlariga ko'maklashadi.

Dinlararo bag'rikenglik g'oyasi – xilma xil diniy e'tiqodga ega bo'lgan kishilarning bir zamin, bir Vatanda, oliyjanob g'oya va niyatlar yo'lida hamkor va hamjihat bo'lib yashashi va ularning o'zaro hamkorligini anglatadi. Jumladan Respublikamiz sanoat taraqqiyotining asosiy shaharlardan Navoiy viloyatida ham bir qancha millat va illat vakillari o'zlarining konsert dasturlari va milliy qadriyatlarini madaniyat markazlarida nishonlab kelishmoqda. Navoiy, Zarafshon, Uchquduq hududlarida tashkil etilgan madaniyat muassasalari faoliyatida ham ko'rishimiz mumkin. "Navoiy viloyatida 92 millat va elat vakillari istiqomat qiladi"[4]. "Navoiy viloyatida tili, dini, millatidan qat'i nazar, yagona maqsad – ozod O'zbekistonning kela-jagi yo'lida butun kuch-g'ayratini baxsh etishga tayyor insonlar yashaydi"[5]. Shunday ekan viloyatda istiqomat qilib kelayotgan millat va illat vakillarini qadriyatlarini milliy madaniy markazlar bilan hamkorlikda shakllantirish muhim ahamiyatga ega vazifalardan biridir. Shu nuqtai

nazardan, O'zbekiston yoshlari ijtimoiy-madaniy hayoti-da diniy ma'rifatning o'rnnini ilmiy-falsafiy jihatdan tadqiq etish hamda ilmiy-nazariy ahamiyatga ega bo'lgan xulosalar ishlab chiqish dolzARB vazifa hisoblanadi. "Bugungi Zarafshon hududida 60 ming kishi istiqomat qilmoqda. Shahar korxonalarida, muassasalarida, geologik qidiruv qo'rg'onchalarida 80 millat va illat vakillari qo'lin-qo'lga berib tinch-totuv barakali mehnat qilishayapti" [6]. Shunday ekan ularning milliy qadriyatlarini shakllantirish va qo'llab quvvatlash alohida ahamiyatga egadir. 2017 yilda Respublika Baynalmilal madaniyat markazi tashkil etilganining 25 yilligi keng nishonlanishi va Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev tomonidan Konimex tumanidagi milliy madaniy markazi faoli Nurkul Bazarbayeva [7] milliy ma'naviy qadriyatlarni rivojlantirishga qoshgan hissasi uchun davlatimizning yuksak mukofotiga sazovar bo'lishi quvonarlidir albatta.

Viloyatda faoliyat ko'rsatib kelayotgan madaniy mas-kanlar soni

Nº	Nomlari	Joylashgan hududi	Markazlarning faoliyati	Tashkil etilgan yili
1	Navoiy shahar "Choson" koreys milliy madaniy markazi	Navoiy shahari	Jamoat birlashmasi	1993 yil
2	Qoraqalpoqlar milliy madaniy maskani	Konimex tumani	Jamoat birlashmasi	1993 yil
3	Navoiy viloyat Tatar-Boshqird milliy madaniy markazi	Navoiy shahari	Jamoat birlashmasi	2015 yil
4	O'zbekiston qozoq milliy madaniy markazi hududiy bo'linmasi	Navoiy shahari	Filial	2017 yil
5	O'zbekiston rus madaniy markazi Uchquduq tumani	Uchquduq tumani	Filial	2017 yil

6	O'zbekiston rus madaniy markazi Navoiy viloyati hududiy bo'linmasi	Navoiy shahri	Filial	2017 yil
7	O'zbekiston rus madaniy markazi Zarafshon shahar hududiy bo'linmasi	Zarafshon shahri	Filial	2017 yil
8	Tomdi tumani Qoraqalpoqlar milliy madaniy markazi	Tomdi tumani	Jamoat birlashmasi	2020 yil
9	Azarbajyon milliy madaniy markazi	Zarafshon shahri	Jamoat birlashmasi	2017 yil
10	Yahudiy (yevriy) milliy madaniy markazi	Navoiy shahri	Filial	2004 yil

Yuqorida tilga olingan barcha milliy madaniy markazlar viloyatda yashab kelayotgan millat va illat vakillarini yagona mustaqil O'zbekistonning taraqqiyot g'oyalari negizida asosida taraqqiy etmoqda. Ayniqsa viloyat markazidagi yirik madaniyat markazlaridan biri "Farhod" madaniyat saroyi tashkil etilganidan hozirgi vaqtgacha bir qancha istedodli yoshlarni tarbiyalab kelmoqda. "Farhod" madaniyat saroyi bugungi kunda 78 ta ijodiy jamoa va guruhlardan iborat bo'lib ulardan 25 tasi "Xalq" va "Na'munali" unvoniga egadir. Ularda 1500 dan ortiq turli yoshdagi ishtirokchilar bepul asnosida shug'ullanmoqda" [8].

Milliy qadriyatlarimizning muhim qismini tashkil etuvchi diniy qadriyatlarga ham jiddiy e'tibor berib kelinmoqda. Viloyatda faoliyat yuritib kelayotgan jom'e masjidlari, pravoslav va Lyuteran ibodatxonasi kabi yirik diniy amallarni bajarish maskanlari sanoat shaharlarida tolerantlik va diniy bag'rikenglikka e'tibor qaratilganligidan dalolatdir. Ko'p millatli xalqimiz birligining ramzi sifatida 2022 yilda Navoiy shahrida Do'stlilik bog'ini qurilishi alohi-da ahamiyatga ega bo'ldi. Shu bilan birgalikda millatlararo zarur bo'lgan asosiy madaniyat markazlaridan biri milliy

tetatrni rivojlantirish va teatr qurish uchun maxsus joy belgilash musaqillikdan so'ng viloyat rahbariyati tomonidan teatr sohasini rivojlantirish uchun 1993 yilning 11 martida "Navoiy viloyatida o'zbek drama teatirini tashkil etish haqida" [9]gi viloyat hokimining farmonida ilgari surilgan bo'lsada lekin ushbu madaniyat markazi hozirgi kungacha alohida muassasada faoliyat yuritmayotgalgi ushbu sohaga e'tibor qaratishni talab etadi. Shuningdek viloyatda istiqomat qilib kelayotgan millat va illat vakillari tizimli ravishda o'zlarining milliy hunarmandchiligi qadriyat, anana va urf-odatlarini doimiy ravishda tanishtirish bo'yicha dasturlar ishlab chiqsa madaniyatlararo tanishuv ijobiy samara berishi tabiiydir.

Viloyat sanoat shaharlaridagi axborot-resurs va axborot-kutubxona markazlari soni [10]												
	2010	2011	2012	2013	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021
Navoiy viloyati	104	102	102	102	102	102	102	102	101	19	19	17
Navoiy sh.	20	20	20	20	20	20	20	20	20	5	5	5
Zarafshon sh.	9	9	9	9	9	9	9	9	8	2	2	1
G'ozg'on sh.	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-
<i>tumanlar:</i>												
Uchquduq	5	5	5	5	5	5	5	5	5	2	2	1

Yuqoridagi statistik ma'lumotga asosan shuni ta'kidlash joizki sanoat shaharlaridagi axorot resurs markazlarini yetarli deb bo'lmaydi. Birgina yaqinda tashkil etilgan G'ozg'on shaharchasi shahar maqomini olgan bo'lsada ushbu sanoat shahrida hozircha birorta kutubxona yoki madaniy-ma'rifiy maskan tashkil etilmagan. Vaholanki ushbu shahar demografiyasida keyingi yillarda aholi

migratsiyasi o'sganligini ko'rishimiz mumkin. Ma'lumot uchun, O'zbekiston Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining "Navoiy viloyati Nurota tumani G'ozg'on shaharchasini G'ozg'on shahri etib o'zgartirish, G'ozg'on shahrini viloyat bo'y sunuvidagi shaharlar turkumiga kiritish hamda Navoiy viloyati Nurota tumani chegaralarini o'zgartirish to'g'risida"gi 2019-yil 2-maydagi qarori hamda Oliy Majlisi Senating "Navoiy viloyati Nurota tumani G'ozg'on shaharchasini G'ozg'on shahri etib o'zgartirish, G'ozg'on shahrini viloyat bo'y sunuvidagi shaharlar turkumiga kiritish hamda Navoiy viloyati Nurota tumani chegaralarini o'zgartirish to'g'risida"gi 2019-yil 3-maydagi qaroriga muvofiq Navoiy viloyati bo'y sunuvidagi G'ozg'on shahri tashkil etilgan. Bugungi kunda milliy madaniy maskanlar faoliyatiga e'tibor qaratish va ularning milliy ma'naviy qadriyatlariga hurmat bilan qarash, mustaqil taraqqiyotimizning asosiy vazifalaridan hisoblanadi.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki diniy va madaniyatlaro bag'rikenglik va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda viloyatda istiqomat qilib kelayotgan millat va illat vakillarining ham muayyan o'rni bor. Birinchidan, ular, ayniqsa, milliy madaniyati va qadriyatlar bilan birgalikda o'z faoliyatlar davomida aholida diniy bag'rikenglik madaniyatini kamol toptirish yo'lida ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar tashkil etib kelmoqdalar. Ikkinchidan, mamlakatda madaniyatlaro va dinlararo totuvlikni qo'llab-quvvatlash hamda turli nizo va murakkabliklarni keltirib chiqaruvchi missionerlik kabi xatti-harakatlarga qarshi amalgalashirilayotgan tadbirlarda viloyatda faoliyat olib borayotgan diniy madaniy maskanlar faol qatnashmoqdalar. Uchinchidan, ularning respublika va viloyatimizdagi anjumanlari da mamlakatimizda e'tiqod erkinligini ta'minlash, millatlararo va dinlararo totuvlikni barqarorlashtirishda amalgalashirilayotgan islohotlar haqidagi ma'ruzalar ushbu soha

mutasaddi jamoatchilarning mazkur islohotlar bilan ya-qindan tanishuvida muhim ahamiyat kasb etmoqda.

### **Foydalaniilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Karimov I.A. *Biz tanlagan yo'l – demokratik taraqqiyot va ma'rifiy dunyo bilan hamkorlik yo'li.* – T.: O'zbekiston, 2003. 11-jild. – B. 260.
2. *O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.* –T.: O'zbekiston, 2016. – B. 13.
3. Abdullayev R.M., Raximov M.A., Rajabov Q.K. *O'zbekiston tarixi ikkinchi kitob* T. O'zbekiston n. 2019 y. B.-336
4. Karimov I. A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon ha-yot – pirovard maqsadimiz. 8-jild, T.: O'zbekiston, 2000. B-157
5. Karimov I. A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon ha-yot – pirovard maqsadimiz. 8-jild, T.: O'zbekiston, 2000. B-159
6. *Dustlik bayrog'i gazetasi* 1995 yil 23 iyun 48 son (1822) B-1
7. Mirziyoyev Sh.M. *Milliy taraqqiyot yo'limizni qatiyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz* T.: O'zbekiston, 2017 y. B- 302
8. *Konchilar hayoti* 2022 yil 30-noyabr 22 son (736)
9. *Dustlik bayrog'i gazetasi* 1995 yil 16 iyun 46 son (1820) B-7
10. *Navoiy viloyatining statistik ma'lumotlari*

**Shuhrat OTAQULOV,**  
*MTTDMTQTMOI “Ijtimoiy fanlar”*  
kafedrasi dotsenti, PhD

## **JAMIYAT HAYOTIDA GENDER QADRIYATLARNING SHAKLLANISHI**

Ma'lumki, gender – xotin-qizlar va erkaklar o'rtasida-gi munosabatlarning jamiyat hayoti va faoliyatining bar-cha sohalarida, shu jumladan siyosat, iqtisodiyot, huquq, ma'naviyat va madaniyat, ta'lim hamda ilm-fan sohalarida namoyon bo'ladigan ijtimoiy jihat hisoblanadi. Jumladan, respublikamizda ham xotin-qizlarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, ularning iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy faolligini oshirish, sog'lig'ini saqlash, kasbga o'qitish va bandligini ta'minlash, tadbirdorlikka keng jalg etish, ehtiyojmand xotin-qizlarni ijtimoiy tomondan qo'llab-quvvatlash, gender tenglikni ta'minlash borasida olib borilayotgan islohotlar izchil davom ettirilmoqda.

Xususan, O'zbekiston Respublikasining “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida”gi hamda “Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida”gi Qonunlari va shu sohaga oid normativ-huquqiy hujjatlar asosida xotin-qizlarning huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlari tazyiq va zo'ravonlikdan ishonchli himoya qilinishini ta'minlash borasidagi ishlar samaradorligini oshirish maqsadida bir qator chora-tadbirlar belgilanishi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati tarkibida ayollar huquqlarini ta'minlash va kamsitishning har qanday shakliga barham berish bo'yicha milliy qonunchilikda xalqaro standartlarni uyg'unlashtirish bilan shug'ullanuvchi yangi Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari qo'mitasi tashkil qilinishi,

Hukumat huzuridagi “Oila” ilmiy-amaliy tadqiqot markazi kabi yangi tuzilmalar tashkil etilishi shu chora-tadbirlarning uzviy davomi hisoblanadi.

Bundan tashqari, Prezidentimizning 2022 yil 7 mart kuni “Oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”-gi PF-87-sonli Farmoni asosida 2022-2026 yillarda xotin-qizlarning mamlakat iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotining barcha sohalarida faolligini oshirish bo'yicha Milliy dastur tasdiqlanib, unga ko'ra xotin-qizlarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, ularning iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy faolligini oshirish, sog'lig'ini saqlash, kasbga o'qitish va bandligini ta'minlash, tadbirkorlikka keng jalb etish, ehtiyojmand xotin-qizlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, gender tenglikni ta'minlash borasida bir qator chora-tadbirlarni belgilanishi jamiyat hayotida bu boradagi muhim o'zgarishlarni boshlab berdi[1].

Jamiyat hayotida gender qadriyatlarni shakllanishida albatta oilaning o'rni va undagi tarbiya va qarashlarning ahamiyati beqiyosdir. Har bir inson oilada shaxs sifatida shakllanadi, ilk tarbiya va ta'limni aynan oiladan oladi. Shunday ekan, oilaning ta'lim tarbiya salohiyatini mustahkamlash, jamiyatimizda an'anaviy oilaviy qadriyatlar ni saqlash, oilalarda ma'naviy-axloqiy muhitni yaxshilash dolzarb ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, oiladagi tarbiyada ajdodlar merosini tadqiq qilish va ulardan xolisona samarali foydalanish, ulardag'i bag'rikenglik, buniyodkorlik va insonparvarlik g'oyalalarining yoshlarimizda yot mafkulardan ma'naviy immunitet hosil qilishdagi ahamiyatini keng ko'lamda o'rganish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek oilaviy munosabatlarning o'ziga xosligi er va xotining shaxsiy hamda mulkiy huquqlari tengligi, ichki oilaviy masalalarning o'zaro kelishuv yo'li bilan hal qilinishi, oilada bolalar tarbiyasi, ularning farovon hayot

kechirishi va kamoloti haqida g'amxo'rlik qilish, voyaga yetmagan va mehnatga layoqatsiz oila a'zolarining huquq va manfaatlarini himoya qilish ustuvorligi tamoyillari asosida namoyon bo'lishi ta'kidlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 63-moddasi "Oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo'lish huquqiga ega" deya ta'rif berilgan[2]. Mazkur qoida ikki muhim jihat bilan ajralib turadi. Birinchidan, oilaning jamiyat oldidagi asosiy bo'g'in sifatidagi vazifalariga ega ekanligi; Ikkinchidan, oilaning jamiyat va davlat muhofazasida bo'lish huquqiga ega ekanligi ifodalangan. Yangilanayotgan O'zbekistonda kuchli va adolatli fuqarolik jamiyati qurish yo'lida mamlakatimizda oilaviy tarbiyaning ahamiyati hamda oilada ayollarning huquq manfaatlarini yanada mustahkamlash masalasiga katta e'tibor qaratilayotgani quvonarlidir. Oila – o'zining ijtimoiy-madaniy rivojlanish jarayonida o'z ajdodlarining milliy qadriyatlarini saqlovchi makondir. Bu makonda ayolning o'z o'rni hamda muhim vazifalari bor. O'zining ana shunday insoniy burchlarining har bir oila hamda ayollar tomonidan mukammal bajarilishi milliy ma'naviyatni, qadriyatlarni boyitadi.

Oilaviy qadriyatlarning asosi – bu er-xotinning o'zaro izzat-hurmati, e'tibori xushmuomala va shirinso'zligi, bir-biriga yordam berishi va hamjihatligidir. Bu farzandlar tarbiyasida ham muhim ahamiyatga ega. Chunki, farzand aytilgan nasihatni esidan chiqarishi mumkin, lekin ko'rgанини hech qachon esdan chiqarmaydi. Shu bois tarbiyaning bu jihatiga e'tibor berish lozim. Mutaxassislarning ta'kidlashicha, oiladagi tarbiya mazkur oilaning mustahkamligini saqlashda, undagi munosabatlarni aniq maqsadlarga yo'naltirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Oiladagi tarbiya asosan ota-onalar va oilaning yoshi katta a'zolari tomonidan amalga oshiriladi. Oila tarbiyasida muvaffaqiyatga erishish

ko'p jihatdan oilada ham ota, ham onaning bo'lishi, ularning birdamlik va tenglikka erishishi, kuch-g'ayratlarini birlashtirishiga bog'liqdir. Oiladagi tarbiya – ijtimoiy tarbiyaning bir turi bo'lib, oilaning barcha a'zolari unda faol ishtirot etadilar, bir-birlariga o'z bilim, tajribalarini o'rgatadilar. Oiladagi tarbiya bir umr davom etadigan jarayondir. Bu hissiyotlar o'z-o'zicha yuksak axloqiy fazilat bo'lgani holda shaxsning ijtimoiy aloqalarida, jamiyat axloqini o'zlashtirishda mustahkam zamin bo'lib xizmat qiladi[3].

O'zbek oilasining o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri – oilada yoshi ulug' kishilarning yuksak mavqe va marta-baga egaligi bo'lib, ular hamisha izzat-ikrom qilinadi, ijtimoiy hayotda barcha masalalarda ulardan ruxsat olinib, so'ng ish boshlashga amal qilinadi. O'zbek oilasiga xos mazkur xarakterli xususiyatlarning keltirishdan maqsad shuki, oiladagi tarbiyaning o'ziga xos qirralari ana shundagina to'la-to'kis namoyon bo'ladi.

Bu tarbiya jarayonida milliy-madaniy merosning qanday o'rinn tutishi, salmog'i, ahamiyati xususida asosliroq fikr yuritish imkoniyati paydo bo'ladi. Jumladan, oilada otaning mavqeい balandligi, ayol ham o'z haq-huquqlariga egaligi, farzandlarning ota-onani, o'zidan kattalarni hurmat qilishlari ko'p yillar davomida ota-bobolarimiz qalbiga singib ketgan qadriyatlardir. Bugun ushbu qadriyatlarni asrab-avaylab yanada rivojlantirish eng dolzarb masalalardan biridir.

Chunki shiddat bilan o'zgarib borayotgan hozirgi zamonda bema'ni ta'sirlar ko'payib, ularning inson va jamiyat hayotida salbiy oqibatlari misli ko'rilmagan darajada kuchayib bormoqda. Shuning uchun barchamiz ogohlik bilan bunday hamlalarga qarshi kurashmog'imiz lozim. Xul-las, oila tarbiyasi har qancha o'ziga xos, betakror bo'lmasin, u asosan yagona manbadan oziqlanib, rivojlanib, boyib boradi. Bu manba milliy-madaniy merosdir. Binobarin, ta'kidlanganidek, oila tarbiyasi milliy madaniy merosning

uzviy bir qismi bo'lib, unda shu millat asrlar davomida to'plab qo'lga kiritgan barcha madaniy boyliklar mujas-samlashgan bo'ladi.

Oilaviy munosabatlarda albatta xotin-qizlarning ahvolini yaxshilash, ularning erkinligi, huquqi, manfaatlari va sog'ligini muhofaza qilish masalasi alohida ahamiyat kasb etadi. Xotin-qizlar masalasi jamiyat, ijtimoiy munosabatlar, millatlar, davlatlar, madaniyat va sivilizatsiyalar bilan uzviy aloqada. Har doim hamma jamiyatda ham xotin-qizlarga adolat bilan qaralgan deyishning o'zi mubolag'ali masala bo'lib, asrlar davomida xotin-qizlarga nisbatan ijtimoiy va ma'naviy tayziqlar yuz berib kelmoqda va albat-ta bu xolat ularning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirishga to'siq bo'lmoqda. Tarixga nazar tashlasak, islomga qadar johiliya davrida va qariyb barcha mintqa va dirlarda ayollarga past nazar bilan qaralganligini guvohi bo'lamiz.

Qur'oni karimning ko'plab oyatlarida erkak va ayol munosabatlarida quyidagi jihatlarga alohida urg'u beriladi: – Allohnning oldida ayol va erkakning tengligi. – Allohnning ayol va erkakka bir xilda g'amxo'rlik qilishi. – Alloh uchun qilgan yaxshi, savobli amallari uchun beriladigan ajr (mu-kofotning) tengligi. Shuningdek oilaviy munosabatlarning o'ziga xosligi yana ba'zi bir adabiyotlarda ayollarning erkaklar bilan o'zaro tenglik jihatlarini oilada tomonlardan kelib chiqadigan bir qator huquq va majburiyatlarda tengligi, bu esa oilaviy munosabatlarni tartibga solish erkak va ayolning ixtiyoriy ravishda nikohlanib tuzgan ittifoqi, er va xotinning shaxsiy hamda mulkiy huquqlari tengligi, ichki oilaviy masalalarning o'zaro kelishuv yo'li bilan hal qilinishi, oilada bolalar tarbiyasi, ularning farovon hayot kechiri-shi va kamoloti haqida g'amxo'rlik qilish, voyaga yetmagan va mehnatga layoqatsiz oila a'zolarining huquq va manfaatlarini himoya qilish ustuvorligi tamoyillari asosida namoy-on bo'lishi ta'kidlanadi. Islom huquqida oilada ayol bilan

erkakning o'zaro tengligi haqida tushunchaning o'ziga xos jihatlari bor. Bu qaysidir ma'noda ayollarning yaratilish jihatidan, xususiyatlaridan kelib chiqqan holda chegaralangan. Ya'ni erkaklardan farqli tomonlarini hisobga olgan holda o'rnatilgan. Albatta bu holat ayollarning erkaklar bilan o'zaro teng bo'lган huquqlariga to'sqinlik qilmaydi.

Xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy jihatdan faollahuvi, jamiyat hayotining turli sohalarida ularning ishtirok etishi oldingi davrlarga nisbatan sezilarli oshdi. Aynan shular xotin-qizlarni ijtimoiy hayotga, iqtisodiy ishlab chiqarishga, qolaversa, siyosiy sohalardagi barcha jarayonlarga ishtirok etishlarining faollahuviga olib keldi. Xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda ishtirok etish orqali ijtimoiylashib borishi nihoyatda murakkab jarayondir. Xotin-qizlarning erkaklar bilan bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lishining, onalik va bolalik bilan bog'liq davlat siyosati yuritilayotgani, xotin-qizlarning ijtimoiy hayotdagi mavqeini kuchaytirish, siyosiy faolligini oshirish, davlat va jamiyat boshqaruvidagi ishtirokini kengaytirish bilan bog'liq olib borilayotgan ishlar alohida e'tiborga loyiq.

Ayollarning aksariyati o'zlarining reproduktiv xususiyatlari va bola parvarishi bilan bog'liq majburiyatlarning an'anaviy taqsimlanganligi sababli mehnat bozorida erkaklar bilan teng raqobatlasha olmaydilar. Hozirgi global davrda ko'pchilik ayollar haligacha oilaviy yumushlari tufayli o'z mehnat imkoniyatlaridan to'laqonli foydalana olmayapdi. Mazkur holatlar ayollar va oilaviy vazifalarni bajarish bilan mashg'ul shaxslar mehnatini huquqiy tartibga solish masalasini qayta ko'rib chiqish zaruratinini ko'rsatadi. Dunyoda ayollar va oilaviy vazifalarni bajarish bilan mashg'ul shaxslarning mehnat huquqlarini ta'minlash va ularni huquqiy himoya qilish xususiyatlarini o'rganish ilmiy tadqiqotlarning yo'nalishlaridan biridir. Jumladan, mazkur toifa shaxslar huquqlarining ta'minlanishida kelgusida ularga "zarar

“keltirmaydigan” qo’shimcha kafolatlar yaratish hamda asoslangan cheklovlar o’rnatish, kafolat va cheklovlarning muvozanatini ta’minlagan holda qonunchilikdagi normalarni qayta ko’rib chiqish, mehnat sohasida ularga nisbatan yo’l qo’yilishi mumkin bo’lgan kamsitishlarning oldini olishga oid huquqiy mexanizm ishlab chiqish, mazkur toifadagi shaxslarga oid xalqaro standartlarning milliy qonunchilikka implementatsiyasi bilan bog’liq masalalarni huquqiy tartibga solishni tadqiq qilish dolzarb ahamiyatga ega. Respublikamizda ayollar va oilaviy vazifalarni bajarish bilan mashg’ul shaxslarning mehnat huquqlarini ta’minalash, ulargaadolatli mehnat sharoitlari yaratishga alohida e’tibor berilib, bir qator maqsadli chora-tadbirlar amalga oshirilm-oqda. Xususan, ushbu sohadagi xalqaro huquqiy hujjatlarni ratifikatsiya qilish, ayollar huquqlarini manzilli himoya qilishga doir qisqa va uzoq muddatli konsepsiyalarni hayotga joriy qilish bo'yicha keng ko'lamli tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. “Xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ularni davlat va jamiyat boshqaruvidagi o’rnini kuchaytirish, xotin-qizlar, kasb-hunar maktabi bitiruvchi qizlarining bandligini ta’minalash, ularni tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb etish, oila asoslarini yanada mustahkam-lash” mamlakat ijtimoiy hayotini rivojlantirishning ustuvor yo’nalishlaridan biri sifatida belgilanib, bu sohani tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

### **Foydalanolgan adabiyotlar ro’yxati:**

1. *Oila va xotin-qizlarni tizimli qo’llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PF-87-sonli Farmon*
2. *O’zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.*  
T.: - “O’zbekiston” 2021 y.
3. *Abdurauf Fitrat. Oila yoki oilani boshqarish tartibi.*  
T.: - “Ma’naviyat” 2000 yil.

**Irodaxon NURMATOVA,**  
*Farg'ona davlat universiteti tarix fakulteti*  
*sotsiologiya kafedrasi o'qituvchisi*  
**Dilobarxon XASANOVA,**  
*Farg'ona davlat universiteti tarix fakulteti*  
*sotsiologiya yo'nalishi talabasi*

## MILLIY QADRIYATLAR VA MA'NAVIY MEROSENING JAMIYAT TARAQQIYOTIDAGI AHAMIYATI

**Annotatsiya:** Ushbu maqolani yozishdan maqsad, har bir millatning o'ziga xos diniy, etnik kelib chiqishi, qadriyati va merosi bilan jamiyat taraqqiyotida muhim sanaladi. Ma'naviy meros atamasi jamiyat taraqqiyorida qanchalik ahamiyatga ega ekanligi haqida so'z boradi. O'zbek millati nomi ostida yashar ekanmiz, millatimizni qadriyatlari hozirgi kunda bu qanay tus olgani sharhlanadi.

**Kalit so'zlar:** Qadriyat, madaniyat, jamiyat, an'ana, erkinlik, millat, ma'naviyat, aksiologiya, ijtimoiy, sotsial qadriyat, norma, axloqiy, tamoyil, prinsip, etnik, diniy.

### Kirish

Darhaqiqat, jamiyatimiz qadriyat va an'analarga boy xalqdir. Avvalo o'zbek millati ekanligimizni bilish bizni ko'p narsaga o'rgatgan. O'zbekman deb yurish ham kimlargadur oldin, albatta orzu-armon edi. Qadriyat haqida so'z borar ekan, qadriyat tushunchasi o'zi nima?, qisqacha to'xtalib o'tamiz. Qadriyat – voqelikdagi muayyan hodisalarining umum insoniy, ijtimoiy axloqiy, madaniy ma'naviy ahamiyatini ko'rsatish uchun qo'llanadigan tushuncha. Inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan barcha narsalar, mas, erkinlik, tinchlik,adolat, ijtimoiy tenglik, ma'rifat, haqiqat, yaxshilik, go'zallik, moddiy va ma'naviy boyliklar, an'ana, urf-odat va boshqalar qadriyat hisoblanadi. Ijti-

moiy fanlarning qaysi sohasida qadriyatga doir tadqiqot olib borilgan bo'lsa, bu tushunchaga shu jihatdan ta'rif berishga intilishgan. Millat uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan etnik jihat va xususiyatlar bilan bog'liq qadriyatlар milliy qadriyatlар deyiladi. Milliy qadriyatlар millatning tarixi, yashash tarzi, ma'naviyati hamda madaniyati bilan chambarchas bog'liq holda namoyon bo'ladi.

### **Adabiyot tahlili va metodologiyasi**

Ma'lumki, o'zbek elatingin shakllanish jarayoni boshqa turkiy zabon xalqlardan birmuncha farq qilgan. Jumladan: o'zbek elatingin ajododlari tub yerli etnik birliklar asosida, ya'ni ikki til (turkiy va eroniylar) turkumidagi xalqlarning aralashuvi jarayonida vujudga kelgan. "Qadriyat" tushunchasi – juda keng tushuncha bo'lib, uning bir qismi – ma'naviy qadriyatlardir. Milliy-ma'naviy qadriyatlар – "milliylik", "Ma'naviyat" va "qadriyat" tushunchalari kesishgan nuqtada jamlangan ijtimoiy hodisalarini o'z ichiga oladi. "Milliy ma'naviy qadriyatlар" tushunchasiga quyidagicha ta'rif berish mumkin: Muayyan millat vakillari uchun zarur va ahamiyatli, aziz va ardoqli bo'lgan, manfaati va maqsadlariga xizmat qiladigan ma'naviy boyliklar, amallar va tamoyillar, g'oyalar va me'yorlar milliy ma'naviy qadriyatlardir. Har bir xalqning o'zi uchun e'zozli, qimmatli bo'lgan ma'naviy boyliklari bo'ladi. Bular asrlar davomida avloddan-avlodga o'tib kelgan, hozirgi kunda ham o'zining ahamiyati va qadrini yo'qotmagan, shu xalqning iftixon manbaiga aylangan durdonalardir. Qadriyatlар tushunchasi nihoyatda xilma-xil ma'noda turli soxalarda qo'l-laniladi. Qadriyatlар to'grisidani fan bu aksio-logiyadir. Bu atama ilmiy bilimlar soxasiga o'tgan asrning ik-kinchi yarmida nemis aksiologii E.Gertman va frantsuz olimi P.Lapi tomonidan kiritilgan. Garbda bu atama grekcha "qadriyat" va "fan", "ta'limot" tushunchalariga

asoslanadi. qadriyatni aksiyologik nuqtai-nazardan talqin qilish, uning kategoriya sifatidagi mazmunii, ob'ektiv asosi va sub'ektiv jihatlari, namoyon bo'lish shakllari va xususiyatlarini o'rghanishga imkon beradi. Qadriyatlarni jamiyat, millat hayotidagio'rni, ijtimoiy xarakteriga qarab milliy va umuminsoniy, sinfiy yokidiniy, shuningdek kishilarning yoshi, pro-fessional xususiyatlariga xos qadriyatlarغا bo'lish mumkin.Insonning qadr – qimmati, sha'ni, or – nomusi, milliy g'ururi – milliy qadriyatlar bilan bevositat bog'liq. Milliy qadriyatlar, har bir millatning o'ziga xos xususiyatlari, xossalari, belgilari, alomatlarini ifodalovchifalsafiy tushunchabo'lib, o'sha millat bosib o'tgan ijtimoiy rataqqiyot jarayonida shakl-langan milliy madaniy meros xazinasiga qo'shgan hissasini, ulushini ifodalaydi. Xuddi shu mil-liy o'ziga xoslik, o'ziga moslik, millat madaniyatida, adabiyotida, san'atida, tilida, dinida, atrixiy xotirasida, yashash ishslash va fikrlash atrzida, urf-odatlarida, rasm – rusumlarida, bayramu – sayillarida o'z ifodasini topadi. Milliy qadriyatlar milliy ma'naviy madaniyat ifodasi bo'lib, har bir millatning insoniylik xazinasiga qo'shgan munosib hissasining hosilasidir.

### **Muhokama va natijalar**

Milliy qadriyatlarni hozirgi kunda jamiyatimizda qanchalik ahamiyati haqida maqolada muhokama qilar ekanmiz, shu o'rinda bir narsani aytib o'tish kerakki, qadriyat jamiyatimiz hayotida faqat chet ya'ni xorij tajribasiga e'tibor qaratamiz.chunki sotsial tomondan kuzatsak yoshlar kino yoki ommaviy axborot vositalari orqali o'z milliy qadriyatlariga tupurmoqda.Ommaviy axborotlarda olib chiqiladiga kino yoki klip yoshlar ongiga singib ulgurgan, har xil o'zbek qadriyatiga zid holatlar yoki bo'lmasa to'y marosimlarini ham xorij holatida qilish bu juda ham ajablanarli holat bo'lib ko'zga tashlanadi.


Olamning aksilogik manzarasidagi o'zgarishlar qadriyatlarni tadqiq etish muammosining dolzarblik darajasini oshiradi. Shaxs pedagogik-psixologik qadriyatlarining shakllanishi, rivoji va o'zgarishlariga oid masalalar faylasuflar, sotsiologlar, siyosatshunoslar, iqtisodchilar, psixofiziologlar, pedagog va psixologlar diqqat markazidadir. J. Tulenov, E. Yusupov, S. Komilova, I. Karimov, S. Valiyeva, K. Tulenova va boshqalar aksilogik muammolarni dastlab falsafaning alohida yo'nalishi sifatida turli jihatlarini yoritganlar. J. Yo'doshev, F. Yuzlikayev, R. Ahliddinov, M.Quronov, R. Ibrohimov, Sh. Mardonov, T. Toshlanov, N. Egamberdiyevalar1 o'z tadqiqotlarida qadriyatlarni pedagogik-psixologik nuqtayi nazardan yoritishga harakat qilishgan. Xalqimizning madaniy-ma'naviy boyliklari va milliy qadriyatlarini to'la, oqilona egallash va rivojlantirish hozirgi avlodning vazifasidir. Gap o'tmish madaniy-ma'naviy boyliklariga ega bo'lishdagina emas, balki uni chuqur egallab, yangi yuksak bosqichga ko'tara bilishadir.Totalitar, ma'muriy buyruqbozlik boshqaruvi yillarida xalqimiz o'tmishiga hadeb tosh otish, uni butkul qoralash sobiq sovet mafkurasiga xos holat edi. Bu ashaddiy madaniyatsizlik va siyosiy kaltabinlik, odob-axloqsizlikdan boshqa narsa emas edi. Buni boshqacha ta'riflab ham, tavsiflab ham bo'lmaydi. Birinchi Yurtboshimiz aytganlaridek, ba'zi bir bo'sh, siyosiy irodadan mahrum bo'lgan, o'z xalqi or-nomusi, qadr-qimmati va g'ururini himoya qilishga jur'at eta bilmagan mahalliy rahbarlar amal pillapoy-asidan ko'tarilishga umidvor bo'lib, o'z ajdod-avlodlarining urf-odatlari va ma'naviy qadriyatlarini mensimadilar. Xalqning urf-odatlari, an'analarini, madaniyatini obdon oyoq osti qilinishiga yo'l qo'yib berdilar va o'zlarini bunga hattoki bosh-qosh ham bo'ldilar.O'zbek oilalarida o'tadigan biron ta ham marosim, to'y-tomosha, hashar keksalarning maslahatisiz va ishtirokisiz o'tmaydi. Keksalarning turmush tajrib-

alari, bilim – boyliklari, bosib o'tgan yo'llari, yo'l-yo'riqlari, maslahatlari, saboqlari – yoshlar uchun eng katta boylik, bitmas-tuganmas xazinalar konidir. Keksasi, qarisi bo'lgan xonadonda fayz-baraka bo'ladi, degan mazmunda aytilgan qanchadan-qancha matallar, maqollar, afsonayu rivoyatlarimiz borligini ham aytib o'tish mumkin. SHunday ekan, ota-onani qadrlash, ularning beminnat xizmatini unutmaslik, duolarini olish – bolalarning farzandlik burchi. Bu milliy qadriyatlarimizning eng muhim talabalariidan biridir. Buyuk bobolarimiz aytganidek, ota-onas uchun xizmat qilmoq farzandlar uchun majburiyatdir: "Ota-onas ikkisiga xizmatni birdek qil, xizmating qancha ortiq bo'lsa ham kam deb bil. Otang oldida boshingni fido qilib, onang boshi uchun butun jismingni sadaqa qilsang arziydi! Ikki dunyong obod bo'lishini istasang, shu ikki odamning rozilagini ol! Tunu kuningga nur berib turgan-birisini oy deb bil, ikkinchisini quyosh. Ularning so'zlaridan tashqari bir narsa yozma, ular chizgan chiziqdandan tashqariga bir qadam ham bosma. Hamma xizmatni sen odob bilan bajar, "adab" so'zidagi "dol" kabi qomatingni ham qil".

### Xulosa

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz kerakki, keyingi paytlarda keksalarini, ota-onalarni hurmat qilish zarurligi haqidagi milliy qadriyatlarimiz biroz xira torta boshlagandek tuyuladi. Ba'zi yoshlarda kattalarni hurmat qilish, ularning gapiga quloq solish singari yuksak ma'naviy fazilatlar yo'qolib ketayotgandek. Ehtimol, boshqa millat vakillari bunga unchalik e'tibor berishmas, lekin biz o'zbeklar buni his qilmay ilojimiz yo'q. Keksalar uchun ajratilgan "Qariyalar uylari"da farzandlari tirik ota-onalar yashayotganligi achinarli holdir. Goh-gohida bo'lsa-da, o'z ota-onasiga qo'l ko'targan, undan ham og'irroq jinoyat sodir etgan farzandlar haqida matbuot sahifalarida o'qib,

o'ylanib qolasan kishi. Bu – oddiy bir nuqson emas, balki inson uchun ma'naviy tubanlik, bag'ritoshlik, ko'rnamaklikdir, ajdodlarimiz o'gitlarini nazar-pisand qilmaslik, oyoq osti qilishdir. Bunday holatlarni ko'rib, milliy, axloqiy qadriyatlarimizga, o'zbek xalqining sha'niga dog' tushiradigan bunday yaramas hodisalar qaerdan kelib chiqdi, ularning asosiy sababi, ildizi nimadan iborat, degan savol har bir ma'naviyatli insonni o'ylantirishi tabiiy. SHuni aniq aytish kerakki, taraqqiyotning muayyan bosqichida, sobiq Ittifoq davrida ayrim yoshlari o'zbek xalqining milliy qadriyatlarini chuqur o'rganish, tahlil etish, mohiyatini to'la anglab yetishdan butkul mahrum bo'lib qoldilar. Ajdod-avlodlarimizning o'gitlari, pand-nasihatlari, eng ajoyib an'analarimiz, milliy qadriyatlarimiz tinmay targ'ib-tashviqot qilinishi, odamlar ongi va turmushiga singdirilishi o'rniga nuqul qoralandi, yomon otliq qilindi, bid'at, xurofot, deb baholandi. Milliy qadriyatlarimizning serma'no, serhikmat g'oyalarini o'zida jo qilgan va targ'ib-tashviq qiladigan o'zbek xalq rivoyatlari, ertaklari, dostonlari, maqol va matallari, aruz va baytlari, kuy va qo'shiqlariga unchalik e'tibor berilmadi, ular sinchiklab o'rganilmadi. Bularning o'rniga Yevropa va boshqa xalqlarning madaniy-ma'naviy meroslari ga ruju qilindi.O'nlab yillar davomida biz ta'lif-tarbiya borasida Yevropa, Rossiya modelini ko'klarga ko'tarib maqtab, targ'ib qilib, yoshlarmizni o'z milliy qadriyatimizdan bebahra qilib qo'yidik. Ana shu kasofatlar tufayli diniy, axloqiy, madaniy-ma'naviy qadriyatlarimizning, oila, maktab, mahalla-ko'y, qo'ni-qo'shnilar ta'lif-tarbiyasining hayot sinovidan o'tgan bebafo boyliklaridan judo bo'la boshladik, bora-bora ularni unutdik va bugun xalqimiz orasida turli illatlarga duch kelib turibmiz.



## Foydalaniłgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdurahmonov A. "Qadriyat-ma'naviy merosidir"//"- Ma'rifat gulshani", 2009-yil 7-bet
2. Asqar Zunnunov "Pedagogika nazariyasi" T."Aloqachi" 2004-yil 163-bet.
3. Yo'ldosheva J.G.'Usmanova "Pedagogika texnologiya asoslari" "O'zbekiston" 2004, 95-bet
4. Tulenov J.T."Qadriyat falsafasi" "O'zbekiston" 1993-yil 319-bet
5. Falsafa Qomusiy lug'at "Sharq" 2004-yil 467-bet

U.F.MEYLIYEV,

MTTDMQTMOI "Ijtimoiy fanlar" kafedrasi  
katta o'qituvchisi

## JAMIYAT TARAQQIYOTIDA MAFKURAVIY TAHDID VA OMMAVIY MADANIYATNING O'RNI

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada "mafkuraviy tahdid va ommaviy madaniyatni jamiyat taraqqiyotiga ta'siri global-lashuv tushunchasining mazmun-mohiyati haqida so'z yuritiladi, shuningdek, globallashuvning yoshlar ijtimoiy-siyosiy dunyoqarashiga ta'siri va tahdidi, yoshlarni turli axborot xurujlaridan, yot mafkuraviy ta'sirlardan himoya qilishning dolzarb masalalari haqida so'z yuritiladi. Globallashuv sharoitida milliy ma'naviyatimizga bo'layotgan turli xil tahdidlar va ularning oldini olish yo'llari haqida so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** mafkuraviy tahdid, ommaviy madaniyat, globallashuv, mafkura, g'oya, milliy g'oya, millat, jamiyat, mafkurafiy tahdid, ma'naviyat, ma'naviy xuruj, madaniyat, ommaviy madaniyat.

Jamiyat tarqqiyotida mafkuraviy tahdid va uni ommaviy madaniyatda tutgan urni avvolo "Tahdid" tushunchasi, uning shakllari va ildizlari birmuncha mukammalroq ravishda S.Otamuratov tomonidan o'rganilgan. U: "Avvalo shuni ta'kidlash lozimki, bu tushunchaning maqomiga aniq javob qaytarish murakkab masala. Chunki uni real holatda faqat qurol vositasidagi ko'rinishini aniq tasavvur etish mumkin. Boshqa barcha holatlarda ko'zga ko'rinas, mavhum, zimdan amal qiladi. U zimdan shakllanadi va asta-sekinlik bilan yuzaga chiqib boradi hamda barqarorlik va taraqqiyotga salbiy ta'sir o'tkaza boshlaydi. Uning ana shu ta'siri moddiy borliq sifatida namoyon bo'lgand-

agina uni sezish, anglab yetish va ko'rish mumkin bo'la-di"<sup>[1:258-259]</sup>, – degan fikrni ilgari surgan hamda unga quyidagicha ta'rifni bergen. "...Tahdidga moddiy kuch, omil va nazariy jarayon sifatida qarash mumkin. Qachonki u moddiylik asosida (qurol, vosita ko'rinishida) yuzaga keladigan bo'lsa, kuch darajasida namoyon bo'ladi. Ma'naviyat, g'oya va mafkuralar ko'rinishida yuzaga kelgan tahdidlarning barchasi ong va dunyoqarashga joylashgan bo'lsa, u asta-sekin moddiylikka aylanadi. Bu tahdidning nazariy jarayon sifatidagi jihatni hisoblanadi"<sup>[1:258-259]</sup>. Xullas, bu ta'rifda "tahdid"ning moddiy borliq, nazariy jarayon va omil sifatida namoyon bo'lishi ta'kidlangan.

Shunday qilib, "tahdid"ning yuzaga kelishida "xavf-xatar" voqeа va jarayonlarda barqarorlikning amal qila boshlashida yetakchi omil vazifasini bajaradi. "Xavfsizlik"ning mavjudligi esa "tahdid"ni yuzaga kelmasligini ifoda etadi, uning barqarorlik holatiga tushib qolishi, "xavf-xatar"ning yuzaga kelishi va uning rivojlanishi to'g'ri dan-to'g'ri "tahdid"ning yuzaga kelishiga olib keladi.

mafkuraviy tahdidlardan biri "ommaviy madaniyat" niqobidagi tahdidlardir. Ushbu tahdidlarning asl mohiyatini aniqlashdan oldin, "ommaviy madaniyat"ning tushunchasini to'liq anglab yetish va uning asosiy xususiyatlarini o'rganish lozim. Zero, bugungi kunda dunyoni standart holatga keltirish, shu asosda jahon tizginini o'z qo'liga olishni istagan ayrim manfaatparast kuchlar o'zlarining axloqsizlikni targ'ib qiluvchi, millatlar milliy madaniyatini yemirishga va insonning ma'naviy begonalashishiga olib keluvchi jarayonlarni osongina mamlakat ichkarisiga kirgizish uchun "ommaviy madaniyat"ni niqob qilib olishgan. Aynan mafkuraviy tahdidlarning mazkur ko'rinishi "ommaviy madaniyat" niqobi ostidagi mafkuraviy tahdidlar deyilib, u doimo qo'shtirnoq ichida yoziladi. Yuqoridagi fikrlarni inobatga olgan holda shunday fikr kelib chiqadiki, ommaviy

madaniyatdan salbiy maqsadlarni amalga oshirish uchun, shuningdek, undan salbiy illatlarning yuzini bekitadigan niqob sifatida foydalanganda, u, albatta, qo'shtirnoq ichida yoziladi.

"Ommaviy madaniyat" (ing. "mass culture") tushunchasiga falsafa va jamiyatshunoslik fanida XX asr o'rta-larida burjua madaniyatini ifodalovchi tushuncha sifatida paydo bo'lgan deb qaraladi. Shuningdek, ommaviy madaniyat zamонавија madaniyatni ishlab chiqarish va iste'mol-chilikni tavsiflash uchun ishlatiladigan jarayon sifatida ham o'rganilgan. Ushbu madaniyat jamiyatni bir tizimga (standart) solish va nisbatan osonroq qo'lga olib boshqarishni asosiy maqsad qilib oladi. Ushbu jarayonda ishlab chiqarish mahsulotlariga alohida e'tibor qaratilib, ular bir xil (standartlashtirilgan) holatga keltiriladi, hamda omma ongiga yetkaziladi. Bizningcha, "ommaviy madaniyat"ning muhim belgisi bu inson faoliyatini uzlusiz absurd xatti-harakatga yo'naltirish, undagi ko'ngilxushlik, lazzatlanish tuyg'usini junbushga keltirishi bilan xarakterlanadi.

"Ommaviy madaniyat" iborasi XX asrning ikkinchi yaridan qo'llana boshlangan bo'lsa-da, uning ijtimoiy-tarixiy ildizlari juda uzoq asrlarga borib taqaladi. Ontologik nuqtai-nazardan "Ommaviy madaniyat"ning tarqalishi makon va zamonda turlicha kechgan. Qadim davrlarda ham "ommaviy madaniyat"ni tarqatish bilan shug'ullanilgan. O'sha zamonalarda bu ish bilan band bo'lgan maxsus xufiya idoralari tashkil etilgan. Shuningdek, savdogarlar, sayyoohlar, olimlar ham bu ishga jalb qilingan. Ayrim hollar da "ommaviy madaniyat" urush, bosqinchilik, zo'ravonlik, majburlash yo'li bilan o'zga yurtlarda joriy etilgan.

Ommaviy madaniyatning vujudga kelishi muammo-si ilmiy izlanuvchilar tomonidan turlicha talqin qilinadi. Ayrim tadqiqiotchilar uning vujudga kelishini XIX asrning oxirlarida xalq maorifini rovojlantrish, san'at va adabiy-

otda yuz bergen keng ko'lamli o'zgarishlar bilan bog'lay-dilar[2:63]. Ikkinci guruh tadqiqotchilar uni XX asrning ikkinchi yarmida amalga oshirilgan ilmiy-texnika inqilobi natijasida aholi ijtimoiy turmush darajasini tobora oshib borishi va madaniyat yutuqlaridan foydalanish imkoniyatlarini kengayishining natijasi deb, hisoblaydilar[2:63].

Ommaviy madaniyatning vujudga kelishi masalasiga bu ikki yondashuvning asosini aholi guruhlarining turmush darajasi va ma'nnaviyatida yuz bergen o'zgarishlar tashkil etadi. Lekin uni aholining savodsizligini tugatish to'g'risida qabul qilingan qonun[2:63] yoki ommaviy kommunikatsiya vositalari (radio, kino, televidenie, internet va h.k.)ning vujudga kelishi natijasi sifatida qarash bizning-cha to'g'ri bo'lmasa kerak. Chunki tarixda aholining turmush darajasi va madaniyatini rivojlanishiga kuchli ta'sir etgan o'zgarishlar yoki kashfiyotlar (teatrning vujudga kelishi, kitob bosish stanogining kashf etilishi va h.k.,) juda ko'p bo'lgan. Shu bois, XIX asrning oxiridan – XX asrning o'rtalarigacha bo'lgan davr mobaynida fan va texnika rivojlanishida, san'at va adabiyotda qo'lga kiritigan yutuqlar ommaviy madaniyatni vujudga kelishi jarayonini yakunlaganligi, deb qayd etishimiz mumkin.

"Ommaviy madaniyat"ning dastlabki ko'rinishi bir butun holda muqaddas xarakterga ega an'anaviy madaniyatdan mohiyatan sayoz va xordiq chiqarishning g'ayrioddiy turlarini targ'ib qiluvchi madaniyat turi ajralib chiqqan davrlarda paydo bo'lgan. Masalan, "Ommaviy madaniyat"ning rivojlanishi qadimgi shahar-davlatlar nomi bilan bog'liq bo'lib, jumladan, qadimgi yunoniston, rim va Bobilda tomoshalar, ko'zboylig'ichlar, ko'cha qo'shiqchilari va raqqoslari misolida ko'ngilxushlik qilish turi keng yoyilgan edi[5:496].

Ommaviy madaniyat fenomen sifatida jamiyatda ommalashib tarqaluvchi jarayonlarni vujudga keltiradi. Ma-


salan, millatlar kelajagiga ijobiy ta'sir qiluvchi jarayonlar, ya'ni mamlakatlarning o'lmas va bebaho qadriyatlarining tarqalishi bilan birga, jamiyat uchun salbiy ta'sirga ega bo'lgan hodisalar ham ommaviylik asosida tarqaladi.

XXI asrda shiddat bilan istiqbolga intilayotgan Yangi O'zbekistonda juda katta yuk bilan, ya'ni mamlakatni tubdan isloh qilish borasida olib borilayotgan islohotlar yuki bilan ilgarilab bormoqda.

Demak, davlatimizda olib borilayotgan ushbu islohotlardan ko'zlangan maqsad fuqoralarimiz uchun Yangi O'zbekistonda har tomonlama qulay, moddiy va ma'naviy makonni vujudga keltirishdir.


Mamlakatimizdagi ushbu jarayonlar obyektida inson hayoti, uning orzu istak va maqsadlari turar ekan, albatta, o'z navbatida, ushbu islohotlar muvaffaqiyatining ta'milanishi, fuqoralarimizni bu jarayonlar mohiyatini qay darajada tushinishlariga va shundan kelib chiqib, ularning ijtimoiy faollandashuvi va siyosiy ongingin yuksalish darajasiga bog'liq bo'lib qolmoqda. Ma'lumki, tarixan insonlar ongingin har tomonlama yuksalishi yoki turg'unlashuvida, albatta, muayan mafkuralar asosiy rol o'ynagan. Ya'ni, ular o'z maqsadidan kelib chiqqan holda jamiyatda, jumladan, insonlar ongida dogmatizimning qaror topishida yoki, aksincha, demokratik qadryatlarning rivojlanishida katta ahamiyat kasb etgan. Albatta, shundan kelib chiqgan holda jamiyatdagi voqeylekni anashu jamiyatdagi mavjud mafkuraning in'ikosi deyish mumkindir.

Darhaqiqat, jamiyat hayoti bilan mafkura o'rtasida o'ziga xos "nozik" bog'liqlik mavjud. Bunday bog'liqlikn kni tarixning barcha davrlaridagi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy jarayonlarda ko'rish mumkin. Shuning uchun ham bugungi kunda mafkuradagi bunday qudratli kuchni inkor etmagan holda, uni ilmiy tomonidan to'g'ri baholamoq hamda fundamental asosda chuqur o'rganmoq muhimdir.



## **Foydalaniłgan adabiyotlar ro'yxati:**

- 1. Отамуратов С. Глобаллашув ва миллий-маънавий хавфсизлик (сиёсий-фалсафий таҳлил). Иккинчи нашр. – Тошкент: Ўзбекистон, 2013. – Б. 258-259.*
- 2. Введение в культурологию. –М., 1996. –С. 63.*
- 3. Культурология теория и история культуры. –М., 1996. –С.54-55.*
- 4. Введение в культурологию –М., 1996. –С. 63.*
- 5. Чумаков А.Н. Метафизика глобализации. Культурно-цивилизационный контекст. 2-е изд., исправл. и дополн. М. Проспект 2017. – 496 с.*



Dilshoda RAXIMOVA,

*Samarqand viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga  
o'rnatish milliy markazi katta o'qituvchisi, falsafa fanlari nomzodi*

*Jizzax politexnika instituti  
“Ijtimoiy fanlar” kafedrasi dotsenti, f.f.b.f.d. (PhD)*

# MA'NAVII OMILNING RIVOJLANISHIDA MILLIY QADRIYATLARNING O'RNI

**Kalit so'zlar:** qadriyat, millat, etnos, sivilizatsiya, madaniyat, obyekt, subyekt.

Har bir xalqning madaniyati o'ziga xos va betakror bo'lib, u rivojlanadi va takomillashadi. Bu ayniqsa, qon-qarindosh xalqlar bilan bog'liq madaniy qadriyatlar rivojida katta ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga bu xalqlar mansub millatlarga xos xususiy madaniy qadriyatlar ham mavjud. Bu boradagi farqlarning ozligi, avvalo ularning asosiy etnos – ona xalqdan ajralish jarayoni tarixan kam davom etayotganligi bilan bog'liq. Ammo o'z navbatida bu farqlarning mavjudligi esa ana shu jarayonning realligini ham aks ettiradi. Bu jarayonga diqqat bilan nazar tashlash esa, qon-qarindoshlik jihatidan, madaniy ildizlariga ko'ra bir-biriga yaqin bo'lgan, ijtimoiy taraqqiyotning muayyan davrida yagona etnosni tashkil qilgan xalqlar yana yagona etnos bo'lish tomon bormoqdam? Yoki ular o'z nomini bergen davlatlarda bir necha yangi etnoslar vujudga kelmoqdam? – degan masalani keltirib chiqaradi. Bu masala esa, avvalo, bir necha asrlarga teng bo'lgan jarayonlarni qamrab oladigan azaliy va navqiron o'zgarishlarni chuqur ilmiy tahlil qilish zaruriyatini qo'yadi.

Qadriyatlar tizimida millat, unga xos belgilar, jihatlar, xususiyatlar, ularning vujudga kelish jarayonlari-

ga muayyan darajada ta'sir ko'rsatgan hudud va u bilan bog'liq tuyg'ular, millatning o'tmishi, tarixi, madaniyati, u yaratgan madaniy boyliklar va ma'naviy merosbilan bog'liq qadriyatlar ham muhim o'rinni egallaydi. Bu qadriyatlar biror millat kishilari uchun umumiy bo'lib hisoblanai. Ular alohida shaxs qadriyatlarini umuminsoniy qadriyatlar bilan bog'lovchi xalqlardan biridir. Muayyan kishi yoki shaxs umuminsoniy qadriyatlarni anglashda, o'z faoliyatini ushbu qadriyatlar mezoniga moslashtirishda milliy qadriyatlarni hisobga oladi, ular bilan bog'liq jihatlarni ham nazarda tutadi. Dunyodagi xalqlar orasida aynan shu millatning borligi, mavjudligi, betakrorligi, "Qo'hna tarix shodasida bitta marjon" (E.Vohidov) sifatida zohirligi har qanday kishi uchun ahamiyatga ega bo'lishi tabiiy. Millat – har qanday milliy qadriyatning ob'ekti, milliy qadiryatlar tizimi tayaanadigan ijtimoiy asosdir. "qadriyat" atamasi qadriyat ob'ekti sifatida tushunilganida, bir-biri bilan qon-qarindosh xalqlarga nisbatan ishlatiladigan "turkiy xalqlar", "slavyanlar", "roman xalqlari" kabilarga umummilliylilik darajasi mos keladi. Millat bir tomondan, o'zining qadriyatlarini mutassil vujudga keltirib turadi, o'tmishdan kelajakka rivojlanish jarayonida ularni doimiy takomilashtirib, yangi-yangi qirralarini shaklantirib turadi, ikkinchi tomondan esa, uning o'zi ham mavjud qadriyatlar tizimi ta'siri ostida o'zgarib va rivojlanib boradi.[1] Millat – o'zining qadriyatlarini vujudga keltirib, ularning yangi-yangi qirralarini va jihatlarini sayqallashtirib, taraqqiyot jarayonida takomillashtirib turishi ma'nosida o'z qadriyatlarning haqiqiy egasi, makon va zamondagi ilgarilanma harakatdan iborat o'zgarishlar jarayonida ularni o'tmishdan kelajakka tomon etkazib beradigan eng asosiy ob'ektdir. Millatning tanazzuli-milliy qadriyatlarning tanazzulidir! Bu – oqibat natijada qadriyatlarning egasiz qolish xavfini tug'diradi. Insoniyat tarixi-muayyan etnoslarning vujudga kelishi, taraqqiyoti

va tanazzuli, ularning o'rniga boshqalari vujudga kelishi-dan iborat jarayondir, deya e'tirof qilishni butunlay vujudga kelishidan iborat jarayondir, deya e'tirof qilishni butunlay noto'g'ri, deyish qiyin. Bunday qarash esa o'z navbatida g'oyat muhim va dolzarb masalaga, ya'ni millat milliy qadriyatlarining ob'ekti va egasi sifatida o'z -o'zini saqlab turmog'i, o'zining avlodlarini asrab-avaylamog'i lozim, de-gan masalaga e'tibor berishga olib keladi. [2]

Insoniyat tarixida Bobil, Vizantiya, Mayya imperiyalari-vujudga keltirgan etnoslar bo'lganligi ma'lum. "buyuk sivilizatsiyalar" nomi bilan yuritiladigan bu etnoslar key-inchalik, turli xalq, millat, elatlarga aylanib ketganlar, o'zlarining umumiylarini birligini yo'qotganlar yoki tarixiy tanazzul jarayonlari, urush va qirg'inlar oqibati-da kamayib ketganlar. Amazonka bo'yalarida va Meksika o'rmonlarida o'z davrining vayronalarini qoldirgan mayya xalqi to'g'risida shunday fikrni aytish mumkn. Qadimgi zamonning eng buyuk madaniyatlaridan birini yaratgan bu xalq tanazzulga uchrangan, uning yozuvi unutilgan, mayyalardan 100 ga yaqin shaxarlarning vayronalari qol-gan va shu tariqa buyuk madaniyat beshiklaridan birining chirog'i so'ngan<sup>1</sup>.

Har bir millat o'z qadriyatlarinin yaratuvchisigina emas, balki uni asrab-avaylovchi va kelajakka yetkazuvchi-si hamdir. Milliy qadriyatlarning saqlanishi uchun har bir millatning o'zi mas'uldir. Bu esa mas'ullikning faqat alohi-da shaxslarga emas, balki butun millatga ham xos namoyon bo'lishini anglatadi. Millat ozod bo'lmashigi, siyosiy jaray-onlar natijasida biror imperiya yoki davlatga qaram bo'lishi mumkin, ammo unda o'z milliy qadriyatlarini saqlash tuyg'usi yo'qolib ketmaydi. Millatni milliy qadriyatlarning ob'ekti va sub'ekti sifatida tushunish, bilan bog'liq milliy qadriyatlar tizimini ilmiy tahlil qilish, millatning o'zini ij-

<sup>1</sup> История античных цивилизаций. Т.1. – М.: Век, 1991. 169-178 б.

timoiy qadriyat sifatida qarash imkonini beradi. (3:38) Bu esa milliy qadriyatlarning namoyon bo'lishi, tarixiy rivojlanish jarayonida o'tmishdan kelajakka tomon harakatini tahlil qilishga imkon yaratadi. Milliy qadriyatlar:

- kishilarning tabiiy, tarixiy va ijtimoiy birligini ta'minlaydigan etnik makonda shakllanadi, rang-barang tarzda, turli shakllarda namoyon bo'ladi, kishilarning ongiga, hayot tarziga o'ziga xos tarzda ta'sir qiladi;

- kishilarning o'zaro munosabatlarida, ijtimoiy faoliyatlarida ko'zga tashlananib turadi hamda ana shu munosabat, faoliyat, maqsad, ehtiyoj va intilishlar uchun ma'naviy asos bo'ladi;

- moddiy, ma'naviy, iqtisodiy, siyosiy va boshqa sohalarda muayyan natija sifatida yuzaga kelishlari, kishilar uchun zaruriyat sifatida o'ziga xos ahamiyat kasb etishlari, ularga foyda keltirishlari ham mumkin;

- ijtimoiy rivojlanish jarayonida o'zgarib, takomillashib, rang-barang jihatlar avloddan-avlodga o'tadi, meros qoladi. [8]

Milliy qadriyatlar va ularning aloqadorligini ifodasi bo'lgan qadriyatlar tizimi, millatning o'zi bilan birga tarix silsilalari, zamona zayllari, turli ijtimoiy va siyosiy jarayonlar orasidan o'tmishdan kelajakka tomon o'tib turadi. Bu qadriyatlar ko'proq millatning etnik xususiyatlari va etnik makoni bilan bog'liq. Xalqlarning ijtimoiy taraqqiyoti esa ularning milliy-etnik qadriyatlari ravnaqi bilan uzviy aloqadorlikda davom etadi. Har bir xalq yoki millat, o'ziga xos rang-barang qadriyatlarni takomillashtirib borishi natijasida, umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirib, uning qirralarini rivojlantirib boradi. [10 ]

Inson tarixiy taraqqiyot jarayonida turli xislatlar, sifatlar va xususiyatlarga ega bo'lgan, ma'naviy-axloqiy jihatlarni qiyofasida aks ettirgan ijtimoiy mavjudot sifatida jamiyatdagi asosiy qadrli sub'ektdir. Shu bilan birga u

olamga ijtimoiy munosabatda bo'lish, odamlar bilan muomila va aloqaga kirishish, mehnat qilish asosida moddiy va madaniy boyliklarni vujudga keltirish, tafakkuri, histuyg'ulari, fikrlarini tili vositasida ifodalash kabi xususiyatlarga ega bo'lgan umumijtimoiy vujud hamdir. Inson jamiyatsiz yashay olmaganidek, jamiyat ham insonsiz mavjud bo'lmaydi. Har qanday jamiyat o'zini tashkil qilib turgan kishilarning faoliyati, o'zaro munosabati va umrguzaronligi bilan tirikdir. Shu ma'noda inson – har qanday jamiyat bor bo'lishini ta'minlab turadigan asosiy ijtimoiy elementdir. Bunday ta'minlanib turish insonning individual – shaxsiy ishtiroki orqali, ya'ni, biror guruh, qatlam, sinf, qavm, elat, xalq yoki millat doirasidagi faoliyati, amalga oshirgan ishlari, yaratgan boyliklari, o'ziga va o'zgalarga nisbatan munosabati orqali namoyon bo'ladi. Inson qadri uning ijtimoiy xususiyatlari, jamiyatda amalga oshirgan faoliyati, boshqalarga va atrof-muhitga munosabati, xatti-harakating ahamiyati sifatida kamolotga yetganligi, ijtimoiy xususiyatlarni o'zlashtirib olganligi va ularni ma'naviy qiyofasida namoyon qila olganligida ham ko'rindi.

Odamzotning shaxsga aylanishi, o'z qadrini va o'zgalar qadrini anglash jarayoni uzoq yillar davom etadi. Dastlab norasida go'dak uchun ona ko'kragi, suti, allasi eng asosiy qadriyat bo'lsa, ona qo'lidan tushgan, ona ko'kragidan ajralgan bola uchun esa, asta-sekin atrof-muhit, o'zi yashayotgan makon, o'zga kishilar va o'zi ham qadriyatga aylanib boradi. Bu davrda u o'z shaxsiy ehtiyoji va maqsadlarini o'ziga xos "qadriyat ko'zgusi" orqali ko'radi, o'ziga kerakli va zarur narsalarni muhayyo qilishlarini ko'proq xohlaydigan, talab qiladigan bo'lib qoladi. Bolalar hayotining ko'pgina tadqiqotchilari kamolotning bu muhim davrida (5-6 yosh) o'z qadrini oshirish va shaxsini sevish, ya'ni, ularda bolalik egoizmi ko'proq mavjud bo'lishini ta'kidlaydilar.

Demak inson doimo jamiyatda muxtoj, jamiyatsiz rivojlana olmaydi u jamiyat mahsuli bo'lib qadriyat darajasiga ko'tariladi.

### **Foydalanolgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Jalolov. H. Oila, mahalla va mакtab hamkorligi. Tarbiya. №2 (6), 2006.
2. Ziyomuhhammadov B. Komillikka eltuvchi kitob. T; "TURON-IQBOL", 2006.
3. Komilov T., Abidova S. Milliy axloqiy qadriyatlar va ularning tarbiyaviy ahamiyati. O'zR FA, "Fan", 2000.
4. Musurmonova O. Oila ma'naviyati – milliy g'urur. T; "O'qituvchi", 1999.
5. Ma'naviyat: asosiy tushunchalar izohli lug'ati. "G'G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi". T; 2010.
6. Majidov N. Oila – muqaddas Vatan. Sog'lom avlod uchun. №1. 2000.
7. Ortiqov N. Ma'naviyat: milliy va umuminsoniy qadriyatlar. – T; "O'zbekiston", 1997.
8. Tillaeva G., Yusupov Q., Boboev N., Xaldibekova F., YU-supov A. SHaxs ma'naviyatini shakllantirish omillari va vositalari. T: "Falsafa va xuquq instituti" 2009. B.
9. Temirova N.E. Qadriyatlar va yoshlar kamoloti. –T: Falsafa va huquq instituti. 2008.
10. Falsafa: qomusiy lug'at. – T; "Sharq", 2004.

Elboy ARZIQULOV,  
Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti  
mustaqil tadqiqotchisi

## **MA'NAVIY, AXLOQIY VA G'OYA-MAFKURAVIY ISLOHOTLARNING AHOLI ISTE'MOL MADANIYATINI YUKSALTIRISHDAGI POTENSIAL IMKONIYATLARI**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolamizda aholini iste'mol madaniyatini yuksaltirish borasida ma'naviy, axloqiy va g'oya va mafkuraviy islohotlarning jamiyatdagi o'rni va ahamiyati haqida atroficha fikrlar keltirib o'tilgan. Shuningdek iste'mol madaniyatini kishilarda shakllanishida axloqiy normalar va g'oyaviy yondoshuvlarning ta'siri haqida hamda globallashuv davrida internet va ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishda me'yor chegarasidan chiqmaslik haqidagi qarashlar ham keltirib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** iste'mol, madaniyat, g'oya, mafkura, ma'naviyat, ma'rifat, iqtisod, siyosat, qadriyat, axloq, globallashuv.

**Kirish.** Manaviyat g'oya va mafkura haqida gap ketganda davlatimiz rahbarini ushbu so'zlari diqqatimizni tortdi. "Oldimizga qo'ygan ulkan vazifalarni amalga oshirishda biz uchun kuch-qudrat manbai bo'ladigan milliy g'oyani rivojlanishimiz zarur"[1].

Bundan ko'rinish turibdiki davlatni rivojlanishi va taraqiyot bosqichiga chiqishida eng muhim omil bu milliy g'oya atrofida barchani birdek yig'a olishlik va ushbu g'oyani amalga oshirishda bir musht bo'lib harakatlanish kerakligini tushinamiz.

"Madaniyat va madaniy-ma'rifiy muassasalar mafkurnani shakllantirish va xalqimiz ongiga singdirishda katta imkoniyatlarga ega. Bunda kutubxona, teatr, klublar,

madaniyat uylari va saroylari, istirohat bog'lari, muzeylar va boshqa muassasalar faoliyatidan keng foydalanish, kishilar dunyoqarashini yuksaltiradigan, kishilarga ruhiy-ma'naviy oziq beradigan tadbirlar majmuini ishlab chiqish va amalga oshirish lozim. Bu dargoxlarda turli anjumanlar, davra suhbatlari, bahs-munozaralar, uchrashuvlar uyushtirish, milliy istiqlol mafkurasining mazmun-mohiyatini har bir ijtimoiy qatlamga tushunarli tarzda izohlab beradigan qo'llanma va tavsiyalar tayyorlash ayniqsa muhim. Madaniy-ma'rifiy muassasalar yoshlarni haqiqiy san'at, chinakam badiiy go'zallik ruhida tarbiyalash maskanlari bo'lmg'i lozim. Madaniyat va san'at sohalari faoliyatining butunlay tijorat asosida tashkil etilishiga, g'oyaviy-badiiy jihatdan sayoz, milliy qadriyatlarimizga yot asarlarning yetakchi o'rinni egallab olishiga yo'l qo'ymaslik muhim ahamiyatga ega" [2.B.55].

O'zbekistonning 30 yildan ortiq taraqqiyot yo'lidan so'ng aytish mumkinki, iqtisodiy o'sish odamlarning moddiy hayotini sezilarli darajada yaxshilashga olib kelgan bo'lsa-da, ekologik muammolar, bandlik muammolari, uy-joy muammolari, e'tiqod muammolari va boshqalar odamlarning asablarini qattiq shikastlamoqda.

Moddiy farovonlik va qiymatning buzilishi, umumiy o'sish va tartib me'yorlari o'rtasida qandaydir murakkab bog'liqlik mayjud, bu odamlarni o'ylashlari kerak bo'lgan savol. Bunday fikrlashda ortiqcha iste'molga e'tibor berish, shubhasiz, foydali tadqiqotdir. Haddan tashqari iste'mol bu - ma'lum bir davr va hayot taraqqiyotining ma'lum bir sohasi darajasidan tashqari ortiqcha iste'molning bir turi bo'lib, odamlarning cheksiz kengayib borayotgan iste'mol istagi uning bevosita harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, haddan tashqari iste'mol inson borlig'ini, soxta iste'mol va buzilgan ijtimoiy tushunchalar ta'sirida ratsional iste'mol qilishni yo'q qiladi-

gan zahardir. Haddan tashqari iste'molning chuqur ildizi odamlar o'rtasidagi adolatsiz moddiy manfaatlardir. Bunday manfaat munosabatlari odamlarning iste'mol resurslariga nohaq egalik qilishiga va ulardan foydalanishiga olib keladi va ijtimoiy ishlab chiqarish va iste'molning "xalqqa yo'naltirilgan" tamoyiliga asoslanmaganligini va uning maqsadi odamlarning asosiy ehtiyojlarini qondirish emas, balki unga erishish ekanligini belgilaydi. Maxsus manfaatlar guruh manfaatlarini maksimal darajada oshiradi. Bu esa pirovardida iste'mol resurslaridan suiiste'mol qilinishiga, mamlakatlar va mintaqalar ichida ishlab chiqarish va iste'molning tengsizligiga olib keladi. Bunday holda, boy va kambag'al o'rtasidagi tafovut muqarrar. Haddan tashqari iste'molning yana bir chuqur ildiz otgan manbasi bu - insonning ochko'zligi haqidagi irratsional tushunchadir. Shu boisdan ham "Aholi iste'mol madaniyatini shakllantirishga qaratilgan usul-vositalarni qay darajada qo'llash mexanizmlari yuzasidan aniq vazifalarni amalga oshirish bo'yicha amaliy chora-tadbirlarni belgilab olish va aholi ehtiyojlarining doimiy tarzda takomillashib borishi hamda buning natijasida insonlarning tabiiy resurslarga muayyan darajada zararli ta'sirining oshishi, o'z navbatida, aholining iste'mol madaniyatiga oid bilimlarini doimiy ravishda yanada kengaytirish lozimligi ob'ektiv zaruriyat bo'lib qolmoqda" [3.B.20].

Iste'mol jamiyatida iste'molning ma'nosi va omma-bopligi iste'molning o'ziga xosligini yaratishga imkon beradi va iste'mol o'ziga xosligi asta-sekin o'ziga xoslikning hukmron shakliga aylanadi. Ushbu hujjat iste'molchi identifikatorini yaratishning qiymat yaratish modelini taklif qiladi. Tovarlarning ramziy qiymati iste'molchi identifikatorining asosi bo'lib, u tovarni ramziylashtirish va ramzni tovarlashtirishning ikki tomonlama jarayoni orqali ishlab chiqariladi.

Iste'mol xatti-harakati egalik qilish, ifodalash, o'zgartirish, boykot qilish va hokazolar orqali tovarlarning ramziy qiymatini o'ziga xos xususiyatlarga aylantiradi va muayyan iste'molchi jamiyatiga mansublik o'ziga xosligini o'rnatadi. Iste'molchi identifikatori mavjud hokimiyat qoidasiga xizmat qilsa, u mafkuraga aylanishi mumkin. Iste'mol identifikatori mafkurasi o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, u o'ziga xoslik va farqni manipulyatsiya qilish orqali amalga oshiriladi. Bir tomondan, u tanlab olish uchun son-sanoqsiz farqlar erkinligi xayolini yaratadi; boshqa tomondan, u barcha odamlar bir xil darajada teng ekanligi haqidagi illyuziyani yaratadi. Oxir-oqibat, o'ziga xoslik haqiqat va tasvirning chalkashligiga, bir xillik va farq paradoksiga boradi, bu esa o'zlikni tugatishga olib keladi.

"Iste'mol" mohiyati nuqtai nazaridan qaraganda, faqat yashash uchun "iste'mol" qondirilsa, insонning haqiqiy ma'nodagi "iste'moli" boshlanishi mumkin. Sanoat inqilobidan so'ng, mashina ishlab chiqarish faqat inson kuchiga, saqlanadigan energiyaga va tabiiy kuchlarga tayanadigan ishlab chiqarish modelini butunlay o'zgartirdi va ishlab chiqarish texnologiyasining rivojlanishi keng ko'lamli tovar ishlab chiqarishga imkon berdi. 20-asrda fordizm keng yo'lga qo'yildi, ommaviy ishlab chiqarish ommaviy iste'molni haqiqatga aylantirdi va tarix "mo'l-ko'lchilik davri"ga kirdi, iste'molchilik vujudga keldi. Bunday sharoitda butun jamiyatning iste'mol tarkibi va iste'mol shakli ham katta o'zgarishlarga duch keldi.


Sanoat mahsulotlarini iste'mol qilish endi bir necha kishilar yoki hukmron guruhlar tomonidan monopol lashtirilmay, balki ommaga qaratilgan bo'lib, omma sanoat tizimining nishoniga aylanib, iste'molni ommalashtirishga yordam beradi. Ayniqsa, zamonaviy ommaviy axborot vositalari reklamasi tomonidan ilgari surilgan ramziy iste'mol va moda iste'moli estetik did va ma'naviy dunyo-

ga intilishni zamonaviy iste'molda tobora keng tarqalgan holga keltirmoqda, odamlarning kundalik hayoti tobora estetik bo'lib bormoqda va ommaviy madaniyat va elita madaniyati o'rtasidagi chegara bo'lib bormoqda. Shu tariqa bunday o'zgarish san'at va jamoatchilik o'rtasidagi tafovutni buzadi, shuning uchun san'at va estetika ta'mi endi elita tomonidan monopollashtirilmaydi, bu tobora adolatli zamonaviy iste'mol tendensiyasini aks ettiradi.

Iste'molchilikning eng katta axloqiy nuqsoni shunda-ki, u intilayotgan narsa ehtiyojlar emas, balki istaklardir, chunki inson ehtiyojlari cheklangan, lekin istaklar cheksizdir. Istaklarni qondirish uchun cheksiz iste'mol qilish inson va tabiat o'rtasidagi uyg'unlikka ta'sir qilishi, an'anaviy iste'mol tushunchasini yo'q qilishi va pirovard natijada odamlarning jismoniy va ruhiy salomatligining rivojlanishiga xavf tug'dirishi muqarrar.

"Axloqshunoslikning siyosatshunoslik bilan aloqasi, ayniqsa, o'ziga xos va murakkab. Chunki siyosiy kurash qarama-qarshi axloqiy qoidalar va talablar kurashini taqozo etadi. Shaxsiy intilishlar bilan davlat va jamiyat manfaatlarining mosligi, maqsadlar va vositalarning pok yoki nopolkligi m uam molari o'rtaga chiqadi. Lekin, aslida siyosat qay darajada axloqiylik kasb etsa, shunchalik u oqilona bo'ladi. Bu hozirgi kunda axloqshunosiik ham, siyosatshunoslik ham jiddiy tadqiq etadigan eng m uhim um um iy muammolardan biridir. Shuningdek, rahbarlik odobi, partiyaviy odob, etiket singari axloqshunoslikning axloqiy madaniyat doirasiga kiruvchi maxsus sohalari ham siyosatshunoslik bilan chambarchas bog'liq"[4.B.13].

Inson va tabiat o'rtasidagi uyg'unlikka ta'sir qilish. Marks ta'kidlagan: "Tarixni ikki jihatdan tabiiy tarix va insoniyat tarixiga bo'lish mumkin". Inson taraqqiyoti tarixi bu – insonning tabiat bilan o'zaro munosabati, tabiatning o'zgarishi va undan foydalanish tarixi. Industrial jamiyat-



ga kirganidan buyon tabiatning odamlar tomonidan tal-on-taroj qilinishi va vayron bo'lishi yer ko'tara oladigan chegaradan tez oshib ketdi, ayniqsa, iste'molchilikning tarqalishi, shubhasiz, bu vaziyatni yanada og'irlashtirdi. Yuqori iste'mol va haddan tashqari iste'mol kabi tushunchalarga tayangan holda, odamlar tabiatga egalik qilishda aql bovar qilmaydigan jinnilik va ochko'zlikka ega bo'lib, bu yerkarning cho'llanishi, turlarning yo'q bo'lib ketishi, atrof-muhitning ifloslanishi va iqlimning isishi kabi bir qator ekologik inqirozlarni keltirib chiqardi.

Shu munosabat bilan Toynbi: "Agar inson biosferani buzsa, u ham xuddi tanasi va aqli bir bo'lgan boshqa tirik mavjudotlar kabi hayot onasi yer oldida halok bo'ladi", deb ta'kidlagan. Bundan tashqari, iste'molchilik tovarlarning qulayligi va go'zalligini targ'ib qiladi. U nafaqat mahsulotlarni chuqur qayta ishlashni talab qiladi, bu esa tovarlarning ayrboshlash qiymati sifatida mahsulotning mehnat xarajatlarini oshiradi, shuning uchun juda ko'p "ma'nosiz energiya" sarfiga olib keladi. Tovarning estetik vazni va ramzları ularning haddan tashqari qadoqlanishiga olib keladi, natijada ko'plab resurslar isrof qilinadi. Hozirgi vaqtida iste'molchilikning tarqalishi yer resurslarini iste'mol qilish darajasini keskinlashtirdi. Nafaqat foydalı qazilmalar va neft kabi qayta tiklanmaydigan turli xil resurslar vayron bo'libgina qolmay, balki yer va o'rmonlar kabi turli xil qayta tiklanadigan resurslar ham almashtirib bo'lmaydigan bo'lib qoldi. Ekologlar va antropologlar bundan xavotirda bo'lib, iste'molchilik ortida "aholi va kapitalning eksponensial o'sishi, keyin esa kollaps" borligini ta'kidlaydilar" [5.C.592].

Qadimgi jamiyatlar tejamkorlik, me'yor va muvozanatlili iste'molni targ'ib qilgan, isrofgarchilik, ochko'zlik va o'zboshimchalikka qarshi chiqqan. Iste'molchilik paydo bo'lgandan so'ng, lazzat, moda va maqom belgisiga inti-

lish uchun hashamatli iste'mol an'anaviy hayot etikasida tejamkorlik va mo'tadillik tushunchasiga almashdi.

Hozirgi vaqtida globallashuv jarayonining chuqur rivojlanishi, ayniqsa, yangi ommaviy axborot vositalarining paydo bo'lishi bilan birga, iste'molchilik kompyuter tarmoqlari, kinofilmlar kabi zamonaviy ommaviy axborot vositalari yordamida har qachongidan ham tez va qulayroq tarzda dunyoning barcha qismlariga tarqaldi. Televidenie va reklamalar odamlarning kundalik hayotida qonuniylik va nazorat kuchayib borayotgani nafaqat rivojlangan mamlakatlardagi ko'pchilik odamlarning iste'molchi turmush tarziga ergashishiga sabab bo'ldi, balki rivojlanayotgan mamlakatlardagi ba'zi odamlar ham bu turmush tarziga sig'inib, intilgan va davom etmoqda. Bunday sharoitda odamlarning qadriyatları va turmush tarzida "Men iste'mol qilaman, demak, men ham borman", "iste'molsiz tanazzul" aqidalari hukmron bo'lib, an'anaviy tejamkorlik va o'rtacha iste'mol tushunchasidan butunlay voz kechib, barham topadi.

Iste'molchilik qadriyatlari ta'siri ostida odamlar tovarlarning quliga aylanib, "iste'molchi hayvonlar"ga aylanishdi. Odamlar hayotning ma'nosi, intellektual rivojlanish va o'z-o'zini takomillashtirish haqidagi fikrlarni e'tiborsiz qoldirib, hozirgi zavqlarga e'tibor berishadi. Haqiqiy hayotdagi "do'konga moyillik" va "onlayn xaridga qaramlik" hodisalari yorqin tasvirlangan. Ular xarid qilish istagi va iste'mol impulslarini tiya olmaydilar.

"Internet-do'konlarga borish va xarid qilish hayotning mavzusi va ma'nosiga aylandi. Isrofgarchilikka asoslangan iste'mol faoliyati ortida ruhiy kasalliklar, ijtimoiy muammolar ko'payib bormoqda. Masalan, ba'zi badavlat kishilar ko'p iste'mol qilib yashayotgan bo'lsa-da, "depressiya" va "zerikarli" mantraga aylanib qolgan. Depressiya va ortiqcha mehnatdan o'lim shahar aholisini yanada ko'proq

bezovta qilmoqda. Qaysidir ma'noda aytish mumkin-ki, bu masalalar iste'molchilikning tarqalishi bilan uzviy bog'liqdir”[6.C.191]. Mashhur ingliz iqtisodchisi Shumaxer “odamlarning cheksiz ehtiyojlar esa faqat ma'naviy sohada amalga oshishi mumkin, moddiy sohada esa bunga erishish mumkin emas”[7.C.351] deb ta'kidlagan. Iste'molchilik odamlarni yashash uchun joy bilan ta'minlash uchun moddiy qoniqishdan foydalanishga harakat qiladi. Oxirgi natija faqat odamlarning tovarga cheksiz intilishdan charchashi va shu bilan sog'lom va barkamol rivojlanishiga ta'sir qiliishi mumkin.

Umuman olganda, iste'molchilikka ikki tomonlama nuqtai nazardan qarash kerak. Iste'molchilik tarixiy taraqqiyot jarayonida muqarrar hodisa bo'lib, u ijtimoiy taraqqiyot va insoniyat taraqqiyotining zarur bosqichidir. Bu inkor etib bo'lmaydigan ob'ektiv haqiqatdir, aks holda biz asosiy tarkib sifatida hosildorlikni oshirish bilan tarixiy taraqqiyotga mutlaqo salbiy baho beramiz. Biroq, iste'molchilikning paydo bo'lishi zamonaviylik dilemmasini keltirib chiqardi, ekologik va energiya inqirozi, ma'naviy tanazzul, ma'noni yo'qotish va boshqa muammolarni keltirib chiqardi, insoniyatning yashashi va rivojlanishiga xavf tug'dirdi.

Islohot va ochiqlikdan so'ng yurtimiz asta-sekin moddiy tanqislik davri bilan xayrashib, nisbatan mo'l-ko'lchilik davriga qadam qo'ydi. Bundan kelib chiqib, odamlarning o'sib borayotgan moddiy va madaniy ehtiyojlarini qondirish uchun turli-tuman tovarlar ishlab chiqarishga aylandi. Ayniqsa, mamlakatimizning iqtisodiy taraqqiyoti yangi me'yorga qadam qo'ygani uchun sarmoya va eksportning iqtisodiyotdagi harakatlantiruvchi roli zaiflashib, iste'mol dvigatelini harakatga keltirishning ahamiyati tobora ortib bormoqda.

Iste'mol orqali iqtisodiy taraqqiyotning hayotiyligini yuzaga chiqarish muhim tendensiya. Binobarin, aholini faol iste'mol qilishga undash, odamlarning “yaxshiroq ha-

yot kechirish” umidlarini qondirish, islohot va taraqqiyot samarasini baham ko’rishga imkon berish bugungi kunda muhim yo’nalish hisoblanadi. Odamlarning qonuniy va oqilona iste’mol talablarini qondirish nafaqat iqtisodiy rivojlanishga, balki iste’molchilarning sifatini yaxshilashga, odamlarning sub’ektivligini oshirishga, odamlarning ijtimoiy munosabatlarini boyitishga, odamlarning jismoniy kuchini, aql-zakovatini va shaxsiyatini rivojlantirishga va niyoyat, odamlarning har tomonlama rivojlanishini amalga oshirishi mumkin.

Boshqa tomondan, odamlarning iste’mol haqidagi xabardorligini oshirish va iste’molchilikning salbiy oqibatlari bilan kurashishi kerak. Iste’mol ongi deganda odamlarning ma’lum ijtimoiy iste’mol madaniyati va iste’mol shakllarini aniq hamda oqilona tushunishi, shuningdek, ularning biliishi, xabardorligi va o’z iste’mol tushunchalari, psixologiyasi va xatti-harakatlari haqida fikr yuritishi tushuniladi.

Odamlarning iste’molga bo’lgan xohish-istikclarini bostirish mumkin emas, lekin uni faol ravishda boshqarish va yengillashtirish, ya’ni odamlarni iste’mol qilish haqidagi ongini oshirishga, iste’molchilikning mohiyati va zaronini tushunishga, odamlarning iste’moli va moddiy darajasini egallahsga yo’naltirish mumkin. Albatta, odamlarni ma’naviy iste’molga o’tishga yo’naltirish moddiy iste’molni inkor etish emas, balki moddiy iste’molni kengaytirish va takomillashtirishdir, bu nafaqat mamlakatimizning fan taraqqiyoti yo’lidan borish va ilm-fan taraqqiyoti yo’liga o’tish haqidagi real real talablariga ham mos keladi, balki to’liq ovqatlanishdan keyin odamlarning muammolari qanday o’tkazilishi va hal qilinishini ko’rsatadi. Chunki inson moddiy ehtiyojlari uning hayoti kabi cheklangan, kishi ma’naviy yutuqlarining mazmuni va qiymati cheksizdir.

Shuni ta’kidlash kerakki, iste’molchilikning paydo bo’lishi muqarrar ijtimoiy rivojlanish jarayonida to’lani-

shi kerak bo'lgan narx bo'lsa ham, biz xarajatlarni minimallashtirishga harakat qilishimiz kerak. Shu bilan birga, ishlab chiqaruvchi kuchlarning yanada rivojlanishi bilan insoniyat jamiyatni asta-sekin "narsalarning qaramligiga asoslangan inson mustaqilligi" bosqichidan "insonning har tomonlama va erkin rivojlanishi" bosqichiga o'zgarishiga ham ishonchimiz komil va iste'mol sohasi muqarrar ravishda rivojlanadi, o'zgaradi. Iste'mol yana odamlarning turli ehtiyojlarini qondirish uchun maqsad emas, balki vositaga aylanadi va iste'molchilik mavjud bo'lishni to'xtatadi.

Madaniyat insoniyat jamiyatining ijodiy va amaliy sindvdan o'tgan yutuqlarining kristallanishi bo'lib, ijtimoiy sivilizatsiyaning o'ziga xos mohiyatidir. Biroq, ko'p odamlar ba'zi madaniy bo'limgan, aksil-madaniy narsalarni madaniyatga bog'lashadi, bu juda absurd. Iste'mol madaniyatni o'z ichiga moddiy iste'mol madaniyatni, ma'naviy iste'mol madaniyatni va ekologik iste'mol madaniyatini o'z ichiga oladi. U ijtimoiy madaniyatning nihoyatda muhim bo'g'ini, iste'mol sohasida insoniyat tomonidan yaratilgan ajoyib yutuqlarning kristallanishi, ijtimoiy sivilizatsiyaning muhim qismidir. Siyosiy tizim, iqtisodiy tizim, iqtisodiy rivojlanish darajasi, xalq qadriyatları, urf-odatlari va aholining umumiy sifati iste'mol madaniyatiga muhim ta'sir ko'rsatadi.

Iste'mol madaniyatni bu – madaniyatning iste'mol sohasiga kirib borishi va rivojlanishi. Iste'mol madaniyatni bu – mutlaqo yangi mavzu bo'lib, uning taklifi katta ahamiyatga ega. Kelgusida iste'mol madaniyatni bo'yicha tad-qiqotlarni yanada kuchaytirish, iste'mol madaniyatining iste'mol va shu orqali ishlab chiqarish va iqtisodiy taraqqiyotdagi yetakchi rolini to'la o'ynash, jamiyat, iqtisodiyot va jamiyatning har tomonlama rivojlanishiga ko'maklashish bizning muhim vazifamizdir. Oddiy qilib aytganda, iste'molchilik deb ataladigan narsa iste'molni hayotning asosiy maqsadi va hayot qiymatining asosiy o'lchovi sifa-

tida qabul qiladi va ko'proq moddiy materiallarni iste'mol qilish hamda ko'proq ijtimoiy boylikka ega bo'lishni hayotdagi muvaffaqiyat belgisi va ramzi sifatida qabul qiladi. Moddiy boylik va tabiiy boyliklarni real hayotda hech qanday beparvolik va cheklovsiz iste'mol qilish, yangi, g'alati va maxsus iste'mol xatti-harakatlari orqali o'zligini va ijtimoiy mavqeini ko'rsatishdir. Bu kabi masalalar haqida gap ketganda asosiy inson omili bu g'oyadir. Negaki? G'oya bo'lmasa aniq maqsadga erishib bo'lmaydi.

"G'oya - insonning borliqqa, ijtimoiy jarayonlariga, jamiyat hodisalariga bo'lgan munosabati, o'z oldiga qo'ygan muddaovalari asosida vujudga keladigan, ruhiyatga kuchli ta'sir o'tkazib, odamlarni harakatga chorlaydigan, ularni muayyan maqsad sari yetaklaydigan va biron-bir tarzda namoyon bo'ladigan fikr yoki fikrlar majmuuni ifodalaydi" [8.B.42]. Barcha g'oyalar esa axloqiy normalarga asoslangan bo'lishi talab etiladi.

Axloqiy iste'mol nafaqat inson iste'molini yaxshilaydigan va tabiiy ekologiyaning barqaror rivojlanishiga yordam beradigan iste'mol, balki oqilona shaxslararo munosabatlarni muvofiqlashtiradigan va rag'batlantiradigan, uyg'un iste'moldir. Haqiqiy hayotda iste'mol ma'lumotlarining ma'lum sharoitlarida ba'zi odamlarning ko'proq iste'mol qilishlari boshqalarning kamroq iste'mol qilishi ni anglatadi, ba'zi narsalar iste'mol qilinganda, boshqalar iste'mol qila olmaydi va hokazo. Bu shuni ko'rsatadiki, iste'mol materiallari va iste'mol ehtiyojlari o'rtasida bir juft qarama-qarshilik bo'ladi va turli xil iste'mol tanlovlari va iste'mol shakllari ma'lum shaxslararo va manfaatli munosabatlarga ta'sir qiladi. Bundan tashqari, iste'molchi xatti-harakatlari shaxslararo munosabatlar va manfaatlarga, odamlarning iste'mol tushunchalari va munosabatlariga, hatto odamlarning qadriyatlari va hayotga bo'lgan qarashlariga ham ta'sir qiladi. Masalan, yuqorida aytib o'tilgan

haddan tashqari iste'mol, maqom iste'moli va hashamatli iste'mol ko'pincha ba'zi odamlarning iste'mol psixologiyasi va ierarxik konsepsiyasini solishtirishga olib keladi. Bunday iste'mol xatti-harakati keng tarqalsa, shubhasiz, ijtimoiy muhitni buzadi, ijtimoiy qarama-qarshiliklarni kuchaytiradi va ijtimoiy totuvlikka ta'sir qiladi. Shu sababli, boshqa tomondan, axloqiy iste'mol ijtimoiy shaxslararo uyg'unlikni ta'minlaydigan iste'mol bo'lishi kerak va shuning uchun odamlarga to'g'ri iste'mol nuqtai nazarini, qadriyatlarini va hayotga bo'lgan qarashlarini shakllantirishga yordam beradigan iste'mol usulidir.

Iste'mol madaniyatidan (odamlarning ma'naviy ehtiyojlarini qondiradigan iste'mol asosiy xususiyat sifatida) farqli o'laroq, iste'mol madaniyati iste'mol faoliyati bilan birga bo'lgan ma'lum bir ma'noni ifodalovchi yoki ma'lum bir qiyymat tushunchasini bildiruvchi muayyan tizimni anglatadi. Onlayn iste'mol madaniyati bu – Internetda kengaytirilgan, onlayn iste'mol sohasidagi iste'mol madaniyati shaklini aks ettiruvchi madaniy shakl. Ushbu madaniyatdan kelib chiqqan iste'mol madaniyati sanoati va biznesga onlayn xaridlar, onlayn o'yinlar, Internet-kafelar, onlayn animatsiya, onlayn chat, onlayn ta'lim va onlayn ish qidirish kiradi.

Internet funksiyalaridan foydalanadigan yosh netizenlarning ulushiga ko'ra, ular: lahzali xabar almashish, onlayn musiqa, onlayn video, qidiruv tizimlari, onlayn o'yinlar, onlayn yangiliklar va elektron pochta. Bundan tashqari, onlayn ta'lim, onlayn xarid qilish va onlayn ish qidirish ulushi ham kengayib bormoqda. Ular orasida lahzali xabar almashish, onlayn musiqa, onlayn video, qidiruv tizimlari, onlayn o'yinlar va elektron pochta iste'moli o'rtacha foydalanish darajasidan yuqori hisoblanadi.

Internet tomonidan targ'ib etilayotgan hayotiy vositalarning inqilobi, asosan, vaqt va makon bo'ylab muloqot qilish va ijtimoiy hayot tarmog'i bo'ylab vaqt o'tishidagi

to'siqlarni bartaraf etdi. Axborotni iste'mol qilish iste'mol-chilardan ma'lum bir axborotni iste'mol qilish qobiliyatiga ega bo'lishni talab qiladi, ya'ni ular axborot uchun mos bo'lgan bilim, tajriba, tushunish va egalik qilishning mumkin bo'lgan shartlariga ega bo'lishi kerak. Axborotni iste'mol qilish qobiliyati axborotni iste'mol qilish ob'ektining darajasini belgilaydi.

"Targ'ibot" tushunchasi arabcha "targ'ib" so'zidan olingan bo'lib, xoxishni, qiziqishni kuchaytirish, rag'bat-lantirish ma'nolarini anglatadi. Bu, biror g'oya, ta'limotni yoyishga qaratilgan targ'ibot-tashviqot ishlarini bildiradi. "Targ'ibotchi" – targ'ibot ishlarini olib boruvchi shaxsni, "targ'ibotchilik" esa targ'ibot olib borishni, targ'ibot ishini anglatadi" [9.B.68].

Bu borada Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimovning quyidagi fikrlari diqqatga sazovordir: " Biz – o'z haq-huquqini taniydigan, buning uchun kurasha oladigan; O'z kuchi va imkoniyatlariga tayanadigan, imkoniyatlarini ishga solib, samarasini ko'radian; Atrofida sodir bo'layotgan voqeа – hodisalarga mustaqil munosabat bildira oladigan; Shaxsiy manfaatini mamlakat va xalq manfaati bilan uyg'un holda ko'rib, faoliyat yuritadigan erkin, har jihatdan barkamol insonlarni tarbiyalashimiz kerak" [10.B.232-233].

Xulosa qilib aytganda, iste'mol jamiyatining imkoniyati bir tomonidan tovar ishlab chiqarishning yuqori darajasiga bog'liq bo'lsa, ikkinchi tomondan, u har ikkisi ham ajralmas bo'lgan kuchli iste'mol istagini qo'llab-quvvatlashga muhtoj. Iste'molchi jamiyati odamlarning qalbidagi kuchli istaklarni chaqirish, doimiy ravishda juda ko'p g'alati soxta ehtiyojlarni yuzaga keltirish, mahsulotlar uchun keng iste'mol bozorini ta'minlash va odamlarni iste'molchilik bilan to'qilgan mavjudlik tarmog'iga mahkam bog'lash uchun iste'molchiga muhtoj. Aynan shuning uchun Frankfurt maktabi iste'molchilikning mashhur madaniy tanqidiy

nazariyasini yaratdi. Ular iste'molni begonalashtirish erkin mehnatga soxta "erkinlik" qo'shimchasi deb hisoblaydilar va iste'molni begonalashtirish iste'molchiligin targ'ib qilish iste'molni begonalashtirishga aylandi.

### **Foydalanimanadabiyotlar ro'yxati::**

[1]. Sh.M.Mirziyoyev. Oliy Majlisga Murojaatnomasi. Xalq so'zi. 2018 yil 28 dekabr. 270-son.

[2]. I.Ergashev, O.Muxammadieva, S.Berdiqulova, M.Safarov. "Milliy g'oya targ'iboti texnologiyalari" (o'quv qo'llanma) Toshkent 2019-yil. 55 b.

[3].Xaydarov A.N. O'zbekistonda aholi iste'mol madaniyatini takomillashtirishning ijtimoiy-falsafiy masalalari. Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. - Samarqand, 2021. -B.20.

[4]. Abdulla Sher. "Axloqshunoslik", Darslik. O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti. Toshkent - 2010-yil. 13 b.

[5]. Тойнби А. Дж. Цивилизация перед судом истории: Сборник / Пер. с англ. -М.: Рольф, 2002. – 592 с.


[6]. Гуров О.Н. Границы "человеческого" и "технического": на примере творчества Д. Кроненберга : диссертация ... кандидата философских наук. – Москва, 2022. – 191 с

[7]. Шумахер Э.Ф. Малое прекрасно. Экономика, в которой люди имеют значение [Текст] / Эрнст Шумахер ; пер. с англ. Д. Аронсона. – Москва : Изд. дом Высш. шк. экономики, 2012. – 351 с.

[8]. Q.Nazarov. G'oyalar falsafasi. Toshkent, Akademiya 2011-yil. 42 b.

[9]. Qarang: O'zbek tilining izohli lug'ati. A.Madvaliyev tahriri ostida. O'zbekiston milliy inseklopediyasi davlat ilm-iy nashriyoti. Toshkent- (2006-2008-yil.) <https://ziyouz.uz/durdona-toplamlar/uzbek-tilining-izohli-lugati/> / 68 b.

[10]. I.A.Karimov. "O'zbekiston XXI asrga intilmoqda". Toshkent "O'zbekiston". 2000-yil. 232-233-betlar.




**Tuxtasin TASHMETOV,**

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti dotsenti,  
falsafa doktori (PhD)*

## **GLOBAL O'ZGARISHLAR DAVRIDA AXBOROT XURUJINING YOSHLAR MA'NAVIYATIGA TAHIDI**

Bugungi global o'zgarishlar davrida axborot qudratli qurolga aylanishi natijasida inson ongini zabit etishga bo'lgan harakatlar tobora kuchaymoqda. O'z navbatida, mafkuraviy-g'oyaviy ta'sir o'tkazishda axborot asosiy omil vazifasini o'tayotganligini ta'kidlash o'rinnlidir. Hozirda, axborot vositasi yordamida insonlarning qalbi, ongi va ruhiyatiga ta'sir ko'rsatishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Binobarin, har qanday axborot xurujlari bevosita axborot qurollari yordamida amalga oshirilayotganligini ta'kidlash lozim. Bugungi kunga ayrim yetakchi davlatlar bevosita axborotdan vayronkor qurol sifatida foydalanishga intilmoqda. Globallashuv sharoitida, ayrim siyosiy kuchlar va markazlar axborot xuruji orqali yoshlар ongi va qalbiga yot g'oyalarni singdirishga alohida e'tibor qaratmoqda. O'z navbatida, axborot xuruji orqali yoshlар ongiga ta'sir ko'rsatish jarayonida avvalo, moddiy, ma'naviy, ruhiy omillarga bevosita e'tibor qaratiladi. Binobarin, noan'anaviy va noxolis usullaridan foydalanish zamirida siyosiy maqsadlarini amalga oshirish g'oyasi yotadi.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, globallashuv sharoitida dunyo afkor ommasining dunyoqarashi mafkuraviy kurash maydoniga aylandi. Zotan, qalbi va ongi ekspansiya qilingan har qanday xalq, dushman tomonidan zabit etilishi muqarradir. Hozirda, oshkora aggressiv axborot xurujlari ta'sirida dunyo aholisining ongi, dunyoqarashi, xulq-atvori, kayfiyat va hatti-harakatlarida noxush o'zgar-



ishlar sodir bo'lishiga zamin hozirlamoqda. Shu ma'noda, axborot xurujlarining zamirida, yirik davlatlarning strategik rejalarini amalga oshirish g'oyasi yotadi. O'z navbatida, mazkur omil ta'sirida ayrim davlatlardagi hukumat boshqaruvi va siyosiy jarayonlarga nisbatan yolg'on va asossiz fikrlarni bo'rttirib ko'rsatishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Natijada mazkur holat, mamlakat fuqarolari ongida davlat va hukumat boshqaruviga nisbatan norozichilik kayfiyatlarining tug'ilishiga sabab bo'lmoqda. Buning oqibatida, mamlakatdagi vaziyatni izdan chiqarishi natijasida jamiyat barqarorligiga rahna solishga zamin yaratmoqda. Zero, axborot xurujining xususiyatlaridan biri shundaki, ular avvalo, millatning tarixan shakllangan ma'naviyati, madaniyati, qadriyatlari va uning o'ziga xosligini barbod etishda asosiy omil vazifasini o'taydi. Mazkur holat, o'z navbatida insonlarni millat va xalq sifatida yashash xavf ostida ekanligini anglatadi.

Shuni aytish kerakki, global o'zgarishlarning tezlashuviga axborot, telekommunikatsiya vositalarining jamiyat hayotidagi mavqeining oshib borishi va boshqa bir qator mexanizmlar bilan bog'liq holda kechadi. Global o'zgarishlarning o'ziga xos nozik tomonlari shundan iboratki, u ijobiy va salbiy ta'sir ko'rsatishga qodir bo'ladi. Ya'ni, bir tomonдан butun insoniyat yaratilayotgan ilm-fan yutuqlaridan bahramand bo'lmoqda; ikkinchi tomonidan esa mafkuraviy tajovuz, axborot xurujlari keng quloch yoymoqda. Haqiqatdan ham global o'zgarishlar davrida axborot xurujlari "jamiyat-tabiat" tizimida inson ongi uchun aqliy hujumning kuchayishiga sabab bo'lmoqda. Xalqaro maydonda esa turli siyosiy kuchlar o'zining manfaat va maqsadlarini amalga oshirish uchun yoshlar ongi va ichki dunyosiga mafkuraviy ta'sir o'tkazishga urunmoqda.

Hozirda, yoshlarini o'zlariga jalb qilayotgan, yangi yo'nalishdagi turli-tuman musiqiy shouilar, kliplar, axloq-

siz filmlar, teledasturlar hamda bir qator internet klublarda tashkil etilayotgan ko'ngilochar o'yinlarga tobe bo'lib qolishdan asrashimiz kerak. Bundan tashqari uyali aloqa vositalariga har xil behayo film va suratlarni "Bluetooth" yordamida telefondan telefonga o'tkazish orqali boshqa bir yoshlarni shu narsaga qiziqishini orttirib o'z saflarini kengaytirmoqda, desak mubolag'a bo'lmaydi. Bu esa o'zo'zidan yoshlarimizda kompyuter o'yinlariga hamda uyali aloqa vositalariga tobelikni keltirib chiqarmoqda. Hammaga ma'lumki, hozirda ko'plab xonadonlarda internetga ulangan kompyuterlar mavjud. Mehnat qilgan inson o'zing farovon hayoti uchun barcha sharoitlarni yaratgani yaxshidir. Ammo hali hayotning oqu qorasini yaxshi bilmagan, hayotiy tajribasi kam bo'lgan yoshlarimiz uchun internet axborot xurujlarning manbasiga aylanib ulgurdi. Internet yoshlarimizning kelgusi kamolotiga zarar yetkazuvchi ko'pgina ma'naviy tahdidlarni vujudga keltirdi: Turli tanishuv sahifalari va ijtimoiy tarmoqlarda o'zbek halqining madaniyati, ma'naviyati va ma'rifatiga tahdid soladigan behayo va pornografik mazmundagi materiallarning ko'payishi natijasida yoshlarimiz nazarida oilaning muqaddas dargoh ekanligi unutilmoqda. Shunday murakkab sharoitlarda O'zbekistonda axborot xavfsizligini ta'minlash masalasi aholini, xususan, yoshlarning ma'naviy-axloqiy jihatdan immunitetini shakllantirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Ayniqsa, axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishida nanotexnologiyalar, bioidenifikatsion texnologiyalarining paydo bo'lishi, internet tarmog'ining kengayishi axborotni berish, saqlash, tanlash va saralash imkoniyatini yanada kuchaytirmoqda. Bu jarayonlar zamiri yangi muammo axborot xavfsizligini ta'minlash masalasining kelib chiqishiga sabab bo'ldi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek, "Axborot

komunikatsiya tizimlarining keng qo'llanilishi, davlat boshqaruvining elektron shaklda tashkil etilayotgani, bu yaxshi albatta, o'z navbatida axborot xavfsizligini ta'minlash bilan bog'liq qo'shimcha chora tadbirlar kurishni hayotni o'zi taqozo etmoqda”[1:46]. Ayni bugungi kunda, jahon maydonlarini mafkuraviy bo'lib olishga urinishlar nihoyatda avj olmoqda. Bunday urinishlardan ko'zlangan asosiy maqsad muayyan siyosiy kuchlar, markazlar va davlatlarning jahon miqyosida o'z ta'sir doirasini kengaytirish, o'zga xalqlarni tobe qilish, ularni bo'yundirish va moddiy boyliklarga ega bo'lishdan iboratdir. Endilikda ular ochiq harbiy kuch ishlatish usulidan ko'ra ko'proq xalqlarni ma'naviy – mafkuraviy jihatdan tobe qilishga intilmoqdalar. Bunday usulning o'ziga xos xususiyatlari shundan iboratki, juda katta mablag'lar sarf qilish orqali o'z g'oyalarini ma'naviy – mafkuraviy yo'llar bilan o'zga xalqlar ongiga singdirishga urinmoqdalar.

Ayrim yoshlarning milliy qadriyatlarimizga bepisandlik bilan qarashi, ularning turli zo'ravonliklarning qurboniga aylanishiga, qadr-qimmatining poymol bo'lishiga olib keladi. Bunday jarayonlarda esa jamiyatda ijtimoiyadolat mezonlari buziladi, axloq me'yorlariga zid bo'lgan munosabatlar ustuvorlik qiladi. Natijada, jamiyat taraqqiyotiga yot bo'lgan turli mafkuralarning kirib kelishiga shart-sharoit yaratiladi.

Axborot xavfsizligini ta'minlash samaradorligi, avvalo, inson ma'naviyatiga, ongiga, irodasiga qarshi qaratilgan xurujlarning mazmun-mohiyati, maqsadi, shakli hamda uslub va vositalarini sinchiklab o'rganish hamda ilmiy asosda fosh etishga bog'liq. Rossiyalik olim D.Lovsov bu haqda shunday deydi: “Axborot qurollari tushunchasi zamirida biror xalq, millatning mentaliteti, madaniyati, ma'naviyati, dini va davlatning axborot-texnologik, harbiy infratuzilmasiga destruktiv tarzda salbiy ta'sir ko'rsa-

tadigan maxsus dezinformatsion texnologik vositalarning muayyan tizimi yotadi”[2:24-25] – deb ta’kidlaydilar.

Vaholanki, nosog’lom kuchlar, turli yo’llar va usullar bilan ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy jarayonlarni barqaror kechishini izdan chiqarish maqsadida salbiy (destruktiv) axborotlar vositasida ta’sir ko’rsatishga harakat qilishadi. Nyu-York universiteti politologiya fakulteti adyunkt-professori J.Rozental “Davlatlar o’z hududlarida kechayotgan jarayonlarga mas’ul, agarda ular legitimlikni yo’qotsa, bunda jiddiy tahdidlarga duch keladi”[3:91-101] deb yozgan. Darhaqiqat, davlat regulyativ funksiyani bajarish davomida, o’z tasarrufida mavjud bo’lgan kuchlardan vosita sifatida foydalanadi, shu jumladan buzg’unchi g’oyalarni ifoda etuvchi axborotlarga nisbatan ham.

Albatta, uning kishilar dunyoqarashi bilimi va saviyasining kengayishidagi ahamiyatini inkor etmagan holda, xuddi shu tizim orqali oddiy ahloqiy me’yorlarga zid pornosaytlar o’rin olgani, ushbu zamonaviy axborot texnologiyasi mahsulidan transmilliy jinoyatkorona guruuhlar, terorist va aqidaparatlar ham bemalol foydalanayotgанини ko’zdan qochirib bo’ladimi? Yoki O’zbekiston televidenyesining ayrim kanallari orqali g’arb kompaniyalari mahsulotlari uzlusiz targ’ib etilayotgani qanday maqsadni ko’zlaydi? Shunday ekan, har qanday tashkilot faoliyati bozor mexanizmlari asosida tashkil etilishi xususan, turli mahsulotlar reklamasi orqali mablag’ topishi ayb emas. Ammo asosan xorijiy kompaniyalar mahsuloti targ’ib etiladigan bo’lsa, mahalliy tovar ishlab chiqaruvchilarni kim qo’llab-quvvatlaydi? Qolaversa, bugun nafaqat shaharda, balki qishloq joylarda ham kabel televidenyesi yoki maxsus antennalar vositasida Rossiya va boshqa mamlakatlar televidenyesida sharqona ahloq-odobga zid filmlar, beparda ko’rsatuvlarni ko’rayotgan yoshlarimizda milliy g’urur va vatanparvarlik tuyg’ulari shakllanishi ularning

ilm-ma'rifatga rag'batini oshishi mumkinmi?. Aksincha, bunday axborot xuruji yurtimiz, millatimiz va qadriyatlarimizga qaratilgan g'oyaviy-mafkuraviy terrorizm deya baholanmog'i lozim. Axborot xurujining oldini olish uchun quyidagi masalalarga:

Birinchidan, yana e'tiborni tarbiyaga qaratmoq lozim. Menimcha maktab davridanoq bolani mustaqil fikrlashga, axborotni axborotdan farqlashga o'rgatmoq lozim.

Ikkinchidan, ayrim yoshlarimizning aqidaparastlar ta'siriga berilayotgani, giyohvandlik va jinoyatchilik yo'liga kirib qolayotgani ta'lim-tarbiya jarayonida jiddiy nuqsonlar mavjudligi, oliy o'quv yurti, ota-onasi, keng jamoatchilik saylovlari vaqtidagina jonlanib qoladigan siyosiy partiylari, yoshlar tarbiyasi uchun ma'sul bo'lgan tashkilotlar faoliyatidagi nomuvofiqlikdan, ular o'rtasida izchil va samarali hamkorlik yaxshi yo'lga qo'yilmaganligidan darak beradi.


Bizningcha tadbirbozlik va va'zxonlik amaliyotidan voz kechib, mamlakat miqyosida milliy ma'naviyatimizga tayangan holda hamda ta'lim-tarbiyasiga aloqador tashkilot va muassalar faoliyatini uyg'unlashtirishni nazarda tutgan umummilliy harakat dasturining yaratilishi va hayotga tatbiq qilinishi yuqorida tilga olingan muammolaning yechilishiga ko'maklashgan bo'lur edi.

Uchinchidan, biz taraqqiyat parvar insoniyat erishgan jamiqi yutuqlar, millatimiz rivojiga xizmat etadigan umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg'unlashuvi lozimligini ta'kidlab o'tmog'imiz lozim. Aniqroq aytganda, demokratiya tamoyillari milliy qadriyatlarimizdan voz kechishga emas, aksincha, uning yanada takomillashuvi va gullab-yashnashiga xizmat qilmog'i darkor.

Demak, biz axborot jamiyati barpo etayotgan ekanmiz, bu boradagi ham siyosiy, ham ilmiy-texnikaviy, ham ma'naviy-ma'rifiy, ham iqtisodiy muammolarni birma-bir bartaraf etish yo'lidan borishimizga to'g'ri keladi. Bu mu-

mmolarni muhim-nomuhimga ajratib bo'lmaydi. Chunki, ular bir-birlari bilan o'zaro chambarchas bog'liqdir. Shuningdek, biz o'zimizning axborot fazomizni turli xil ichki va tashqi ma'naviy-mafkuraviy tahdidlardan asrashimiz, internet tarmog'idan foydalanuvchilar sonining 64% dan ortig'i yoshlar bo'lgani uchun "nomaqbul" axborot hurujidan saqlanishimiz kerak. Chunki, bunday ma'lumotlar milliy qadriyatlarimizga, urf-odatimizga, o'sib kelayotgan avlodning ma'naviy dunyosiga, tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Globallashuv jarayonida axborot xuriji yoshlarimizning ongiga, jamiyat taraqqiyotiga, milliy mentalitetimizga tahdid solmoqda. Bunday salbiy holatlarning oldini olishda davlatimiz, jamiyat va fuqarolar manfaatlaridan kelib chiqqan holda yurtimizda axborot-kommunikatsiya sohasida qator qonunlar qabul qilindi va ishlab chiqilyapti. Shunga ko'ra, maktabgacha ta'lim muassasalari va maktablarda farzandlarimiz bilan ota-onalar ishtirokida tushuntirish ishlarini tizimli ravishda yo'lga qo'yish lozim.

Xulosa o'rnila shuni aytish lozimki, ong, tafakkur, vijdonni asrash, uni soxta axborot ko'rinishidagi yot unsurlar, begona g'oyalardan himoya qilish hayotiy zarurdir. Bu haqida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev quydagicha fikr bildiradi: "Necha yuz yillar davomida shakllangan asl insoniy qadriyatlarimiz o'rnini buzg'unchi g'oyalar egallab olishiga yo'l qo'ymasligimiz zarur" [4:296]. Haqiqatdan ham turli ma'naviy buzg'unchilik va vayronkorlik harakatlari va xurujlarining oldini olish, aholi, ayniqsa, unib-o'sib kelayotgan yoshlarimizda ularga nisbatan ma'naviy immunitetni shakllantirish, ezgu g'oyalarni targ'ib qilishga alohida e'tibor qaratish zarur. Zotan, jamiyat xavfsizligi va mamlakat barqarorligiga raxna soluvchi mafkuraviy, g'oyaviy va informatsion xurujlar va xahdidlarga qarshi doimo ogoh, hushyor va sergak bo'lish, uni oldini olish va bartaraf etish bugungi kunning davr talabidir.



## Foydalaniilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib yangi bosqichga ko'taramiz, – Toshkent, O'zbekiston 2017, 46 bet.
2. Ловцов Д.А. Информационные войны. // Полис. 2012. №4. С.24-25.
3. Rosental J. New rules for war? // Naval War College Review. – 2004, Summer/Autumn. – Vol. 57. – № 3/4. – P. 91–101.
4. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. -Toshkent: O'zbekiston, 2021. – B 296.

**O'B.SHAKAROV,**

*Maktabgacha ta'lif tashkiloti direktori va mutaxassislarini  
qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti  
"Ijtimoiy fanlar" kafedrasi dotsenti, PhD*

## **DAVLAT XIZMATCHISI FAOLIYATIDA AXLOQIY SIFATLARNING O'RNI**

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada davlat xizmatchilarining axloqiy sifatlari, jumladan, davlat xizmatidagi rahbarlarning hokimiyatni boshqarish va bunda axloqiy hatti-harakatlari bilan namuna bo'lish talablari haqida so'z yuritiladi. Shuningdek, davlat xizmatchisi o'z vazifasini nafaqat ijro etishi balki, uni qanday ijro qilishi, uning xalq oldidagi mas'ulligini his qilishida, kasbiy salohiyatidan tashqari uning shaxsiy sifat va fazilatlarini belgilovchi mexanizmlarni shakllantirish lozimligi haqida so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** davlat, davlat xizmatchisi, jamiyat, adolat, adolat konsepsiysi, reglament, boshqaruvin axloqi, axloq, Axloq kodeksi, axloq normalari, axloqiy qadriyatlar, rahbar, rahbar axloqi, tanqid, rag'bat, hokimiyat.

XX asr boshlarida rivojlangan mamlakatlarning davlat boshqaruviga doir ta'limotlarida axloqiy qadriyatlar ustuvorlik kasb etganligiga guvoh bo'lamiz. Jumladan, Germaniya, Fransiya, Amerika Qo'shma Shtatlari, Xitoy, Koreya va Yaponiya kabi qator davlatlarda rahbar kadrlarning sa-loxiyati – rivojlanish va taraqqiyotning bosh mezoni sifatida keng ko'lamli nazariy metodologik ta'limotlar vujudga keldi. Ular “davlat xizmatchisi”ning obyekti va predmetini tashkil etishga olib keldi. Bugun ko'pgina rivojlanayotgan mamlakatlarda ham “Davlat xizmatchisi” kategoriyasida asosida “Axloqiy kodeks”, “Axloq normalari” boshqaruv

sohasiga kirib keldi. Bunda shaxsning rahbarlik salohiyatini aniqlash, intelektual resurs sifatida uni jamiyat rivojiga tadbiq etish texnologiyalari, joriy etish mexanizmlari yaratildi.

Bugun mustaqil taraqqiyot yo'lini tanlagan O'zbekiston uchun ham bunday masala muhim ahamiyat kasb etishi turgan gap. Shu jihatdan, mustaqillik yillarda davlat boshqaruv organlari tubdan o'zgartirildi. Ularning mazmun-mohiyatida demokratik va bozor iqtisodi tamoyillari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida o'z ifodasini topdi. Jumladan, "davlat o'z faoliyatini inson va jamiyat farovonligini ko'zlab, ijtimoiy adolat va qonuniylik prinsiplari asosida amalga oshiradi" [1:7] degan tamoyilni ta'minlashda davlat organlari rahbarlari faoliyatida qator mas'uliyat va javobgarlikning belgilanishi, fuqarolarning davlat boshqaruvidagi ishtiroki, fuqarolik jamiyati asoslarining kengaytirib borilishiga xizmat qilmoqda. Zero, islohotlarning amalga oshirilishi ko'p jihatdan rahbar kadrlarning o'z ishiga bo'lgan munosabatiga bog'liq bo'ladi. Bu borada mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev shunday deydi: "Tanjidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lib qolishi kerak" [2:6]. Darhaqiqat, bugungi davr rahbarlardan qator axloqiy sifatlarni talab qiladiki, bunday talablarsiz rahbar o'z vazifasini to'laqonli bajara olmaydi. Inchunun, davlat xizmatchisining axloqi – bu ma'lum intizom va tartiblar tizimi sifatida boshqaruv samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi omillar qatoriga kiradi.

Davlat xizmatidagi rahbarlarning hokimiyatni boshqarish va bunda axloqiy hatti-harakatlari bilan namuna bo'lish talabi qadimiy davlatchilik madaniyatimiz bilan bevosita bog'liq qadriyatlarimizdan biri hisoblanadi. Zero, rahbarning xalqparvar va adolatparvar bo'lishi davlatning istiqboli va rivojini belgilab kelgan. Bu borada bobo-

miz Muhammad Qozi shunday deydi: – “U (rahbar) shuni bilsinki, amirlik mansabi va hukumat bir vosita bo’lib, bu vosita orqali abadiy saodat va ezgu nom qo’lga kiritiladi. Davron podshohlari va hokimlarining aksari foniy dun-yoning bevafo davlatiga mag’rur bo’lib, nafslari uchun o’z dinini vayron qiladilar va benomusliklari tufayli iymoni ni shamolga uchiradilar”[3:26]. Hokimiyatning obro’yi, nufuzi uni boshqaryotgan shaxslar axloqi bilan bog’liq ekanligi to’g’risidagi qarashlar qadimiy qadriyatlarimizdan hisoblanadi. Davlat xizmatchisining axloqiy qiyofasi, boshqaruvni axloqiy qadriyatlar asosida tashkil etishni takomillashtirishda bunday o’lmas merosimiz zamonaviy davlatchiligidan ham o’z ahamiyatini yo’qotgan emas. Ammo, rahbarning fuqarolarga, fuqarolarning davlatga bo’lgan o’zaro ishonchi va hamkorlik munosabatlarni tashkil etish, qolaversa, hokimiyatning ichki munosabatlarini sog’lom axloqiy qoidalar asosida qurishda ayrim ziddiyatli qarashlar ham mavjud. Bunday ziddiyatlar rahbarning o’z vazifasi doirasida adolat va qonun tamoyillariga amal qilishida, ijtimoiy faoliyatiga, shaxsiy fazilatlariga bog’liq munosabatlarda namoyon bo’ladi. Zero, hokimiyat doimo siyosiy va moliyaviy erkinlik manbai bo’lganligi uchun uning “xushtorlari” ko’p bo’ladi. Bunday imkoniyat va vositalarga egalik qilish, uni o’z manfaati yo’lida foydalanish istagi saqlanib kelmoqda. Bu birinchi sabab. Rahbarning axloqiy qadriyatlarga amal qilish borasidagi ziddiyatining ikkinchi sababi, u yashayotgan ijtimoiy-ma’naviy, siyosiy-iqtisodiy muhit. Agar ishlab chiqarish munosabatlari adolatli taqsimot mezonlari asosida qurilmasa, huquqiy munosabatlar shakllanmagan bo’lsa, bu boshqaruv madaniyatining sayozligini ifodalaydi. Madaniy sayozlik holatida esa rahbar faoliyatiga axloqiy talab va qadriyatlarni tadbiq etib bo’lmaydi. Bunday sharoitda boshqaruvchi va boshqariluvchilar o’rtasidagi ma’rifiy munosabatlar tartibi ishlamay-

di. Oqibatda, boshqaruv tizimi rahbar va xodimlar faoliyatida tarafkashlik, talonchilik, ta'magirlik, poraxo'rlik kabi manfaatlarni qanday bo'sada, qondirish kayfiyati hukmronlik qiladi. Bunday muhitni tartibga solishdan ko'ra, ayrim rahbarlar uchun murosa yo'llini tanlash oson kechadi. Shuning uchun, hokimiyatga va uning lavozimlariga egalik qilish yoxud unga intilish hufiyona yo'llar orqali erishish ishtiyoqi ortadi. Bu esa, o'z ornida nosog'lom kuchlarning hokimiyat yoki rahbarlik lavozimlariga kelishiga – axloqsiz muhitning qaror topishiga olib keladi.

Boshqaruv va rahbar axloqi bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solishda zamon talabiga javob beruvchi boshqaruv idora usullari, kadrlar axloqiy – kasbiy salohiyatining o'lchov mezonlarining huquqiy asoslari sifatida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil 2 martdag'i №62-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari xodimlarining odob-axloq namunaviy qoidalari" [4] ahamiyati katta albatta. Ushbu qoidalarning asosiy maqsadi davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari xodimlari odob-axloqining yagona prinsiplari va qoidalarni belgilash, ularning o'z xizmat vazifalarini vijdongan va samarali bajarishlari uchun shart-sharoitlar yaratish, davlat xizmatida suiiste'molliklarning oldini olishga qaratilgan. Davlat xizmatchilari mazkur qoidalarni bilan tanishtirilishi hamda unga rioya etishi shartligi birinchidan, o'z ishiga bo'lgan mas'uliyatini oshirishga undasa, ikkinchidan, xodimlarning o'zaro munosabatlarida yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirishning yagona uslubi ekanligidan dalolat beradi. Masalaning muhim jihatlaridan biri shuki, davlat xizmatchisining mazkur qoidalarga rioya etishi kasbiy faoliyatini va xizmatdag'i xulq-atvorini baholash mezonlaridan biri hisoblanishidir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 8 sentabrdagi PF-5185-son Farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasida Ma'muriy islohotlar konsepsiysi"[5]ning qabul qilinishi bugungi kunda davlat xizmatchilarini lozim darajada mas'uliyat va tashabbuskorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Mazkur konsepsiya davlat xizmatchilarining maqomini belgilovchi yagona normalar, ularning faoliyatini baholash mezonlari shakllantirilishi va davlat xizmatchilarining professional korpusini yaratish imkonini beradi. Shuningdek, davlat xizmatchilarining professional korpusini yaratish maqsadida davlat xizmatini tashkil etish, shu jumladan, huquqiy maqomi, davlat xizmatchilarining klassifikatsiyasi, xizmatga qabul qilishning shaffof mexanizmlari (tanlov asosida), kadrlar zaxirasini shakllantirish, xizmatni o'tash, axloq normalariga rioya etilishini ta'minlash masalalarini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish imkonini bermoqda. Axloqiy jihatdan e'tiqodli rahbar, birinchi o'rinda, jamoaning axloqiy qadriyatlar falsafasini shakllantirishga ahamiyat qaratadi, mavjudlarini mustahkamlaydi. Jamoada mazkur falsafaga e'tibor bermaslik jamoaning ma'naviy qiyofasini, uning sha'ni va qadr-qimmatini mavhumlashtirishga olib keladi. Natijada majburiyat oldidagi mas'uliyat ham nisbiy ko'rinish kasb etadi[6].

Shuningdek, "xalq davlat organlariga emas, davlat organlari xalqqa xizmat qilishi kerak" degan prinsip barcha bo'g'indagi rahbarlar faoliyatida asosiy qoidaga aylanishi kerak[7:16] degan normaning belgilanishi ham masalanning muhimligini bildiradi. Shu o'rinda rahbar kadrlarning saloxiyat sifatlarini aniqlovchi va belgilovchi mexanizmlarni boshqaruvning turli soha va xususiyatlariga muvofiqlashtirgan holda amalda joriy etishimiz zarurligi ko'rinib turibdi. "...davlat xizmatchisining axloqi nafaqat uning muvaffaqiyatlariga, balki davlatning obro'siga ham

kuchli ta'sir qiladi”[8:8], deydi A. Begmatov. Afsuski, mam-lakatimizda, yutuqlar barobarida davlat boshqaruvidagi rahbar xodimlarning turli darajada o‘z xizmat vazifasini suiiste’mol qilish holatlari uchrab turibdi. Mavjud illatlarning ijtimoiy sabablarini aniqlash, ularni keltirib chiqarayotgan omillarni tahlil etish davlat va jamiyat boshqaruvining ayrim zaif tomonlarini oydinlashtirishga yordam bergan bo‘lar edi. Davlat boshqaruvi muntazam ravishda tahlil etib borilishi va uning faoliyat natijalari tegishli xulosalar bilan mustahkamlanishi lozim. Chunki, jamiyat rivoji va bugungi kunda qo‘yilayotgan talablar bizning ixtiyorimizdan tashqari har daqiqa o‘zgarib turibdi. Shunday ekan, boshqaruvni nazariy jihatdan tahlil qilib borishga e’tiborni kuchaytirishimiz zarur.


Bugungi kunda davlat xizmatchisi o‘z vazifasini na-faqat ijro etishi balki, uni qanday ijro qilishi ham muhim masala. Uning xalq oldidagi mas’ulligini his qilishida, kasbiy salohiyatidan tashqari uning shaxsiy sifat va fazilatlarini belgilovchi mexanizmlarni shakllantirish lozim[9:27].

Xulosa qilib aytganda, davlat xizmatchisining ma’naviy-axloqiy xulq-atvori davlat xizmati faoliyatining asosiy tamoyillaridan biri bo‘lib hisoblanadi. Chunonchi, davlat xizmatining ma’naviy-axloqiy tarkibi demokratik darajalar yaxlitligi va uning istiqbol samaradorligi ta’milaydi, ayni paytda u davlat xizmatining axloqiy-huquqiy maqomini mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu ma’noda, davlat xizmatchisi – rahbarning ma’naviy-axloqiy omillari kelgusida ham dolzarb ahamiyati kasb etib boradi. Zero, zamonaviy rahbarning axloqiy fazilatlari o‘zbek jamiyatini mustahkamlashda va barqarorligini ta’minlashda ijobjiy siyosiy-axloqiy muhitni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.



## Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. -T.: O'zbekiston, 2017. -B. 7.
2. Мирзиёев Ш.М. Таңқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак. -Т.: Ўзбекистон, 2017. -Б.6.
3. Муҳаммад Қози. Ҳукмдорга ўгитлар. -Т.: Шарқ, 1999. Б-26.
4. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2016 й., 9-сон, 94-модда
5. Ўзбекистон Республикасида Маъмурий ислоҳотлар концепцияси. Т. 2017 йил 8 сентябрь, ПФ-5185-сон
6. Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва ҳалқ фаровонлигининг гаровидир. Т.: Ўзбекистон, 2017, 16-бет.
7. Бегматов. А. Давлат хизмати одоби. // Жамият ва бошқарув. № 3. 2004. – 8-бет.
8. <https://www.oriens.uz/journal/article/boshqaruv-reglamentini-tashkil-etishda-axloqiy-tamoyillarning-orni/>
9. U Shakarov. MORAL PRINCIPLES FOR ESTABLISHING RULES OF FAIR GOVERNANCE. The light of Islam 2019 (4), 27



Nargiza NURBOYEVA,  
Termiz davlat universiteti  
2-kurs magistranti

## OILA – MUQADDAS DARGOH

**Annotatsiya:** Bizning mamlakatimizda oila – muqaddas dargoh, nikoh esa buzilmas rishta sifatida qaraladi. Zero, oila va oilaviy baxtga erishish, juft bo'lib hayot kechirishning ijobjiy tomonlari ilmiy asoslangan. Bizning davrimiz oilalarimizga zamonaviy texnologiya va jahonning rivojlangan davlatlarida yuz berayotgan o'zgarishlar haqidagi tasavvur va qarashlar hamda turli axborot oqimlarining kirib kelayotganligi bilan ajralib turadi. Mazkur maqolada so'nggi yillarda oilaviy ajrimlarning ko'payib borayotganligi haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** Oila, jamiyat, noto'liq oila, ajrim, oila ta'limi, "oilaviy zo'ravonlik".

*Oila tabiatning shoh asarlaridan biridir.*  
*J.Santayana*

Vatanga, ota-onaga sodiqlik va fidoiylik o'z-o'zidan kelib chiqmaydi. Bular zamirida o'sib kelayotgan avlodga nisbatan ta'lim maskanlarida, mahallalarda, asosiysi oilada beriladigan ta'lim-tarbiya yotadi. Oilada singdirilgan tarbiya, mehr-oqibat, bir-biriga hurmat, tug'ilib o'sgan yurtga muhabbat kabi yuksak insoniy fazilatlarni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Haqiqatdan ham oila o'zida milliy udum va rasm-rusumlarni, milliy an'analarni saqlash, o'rganish va nasldan-naslga o'tkazish kabi muhim vazifani bajaradi. Insonning mustaqilligi, dunyoqarashi, xulq-atvori, odobi, mehr-oqibati, mehnatsevarligi, ilm-ga intilishi kabi barcha fazilatlar oilada shakllanadi. Oila

shaxsning ma'naviy shakllanishiga bevosita ta'sir etadigan kichik muhit bo'lib, kishilik jamiyatining ma'naviy ildizi hisoblanadi.

Konstitusiyamizda oila jamiyatning asosiy bo'g'ini ekanligi hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo'lish huquqiga ega ekanligi belgilab qo'yilgan (63-modda). 1998 yilning "Oila yili" deb e'lon qilinishi, xuddi shu yili 30 aprelda Oila kodeksining qabul qilinishi, 2012 yilning "Mustahkam oila yili" deb e'lon qilinishi, "Oila" ilmiy-amaliy tadqiqot markazining tashkil etilishi, Prezident Sh.Mirziyoyevning 2018 yil 2 fevralda "Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi, 2022 yil 7 martda "Oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonlari hamda "2022-2026 yillarda xotin-qizlarning mamlakat iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotining barcha jabhalarida faolligini oshirish bo'yicha Milliy Dastur" da o'z aksini topgan.

Yuqoridagilardan ko'rinish turibdiki, yurtimizda oilani mustahkamlash va uning manfaatlarini himoya qilish davlat ahamiyatiga ega bo'lgan siyosat darajasiga ko'tarildi. Oila mustahkamligini ko'zlab ko'plab tadbirlar o'tkazilm-oqda, nashr etilayotgan kitob va maqolalarning soni behisob. Lekin natija qanday? Ochig'i, natija yaxshi emas. Ajrimlar soni yildan-yilga oshib bormoqda. Oilada er-xotinning huquq va majburiyatları yuzasidan tug'ilayotgan bahslar, turmushning darz ketishi va u bilan bog'liq mojarolar, ayrim xonardonlardagi mavjud notinch ma'naviyruhiy muhit natijasida sodir bo'layotgan nikohdan ajralishlar bugungi kunning dolzarb muammosidir. Jadidlarning fikri bo'yicha, oila asosini to'g'ri qurmasdan va yosh avlodni to'laqonli to'g'ri yo'lda tarbiyalamasdan turib, jamiyatni isloh qilish, uning rivojini taraqqiyot sari yo'nal-

tirish mumkin emas va oxir-oqibatda millat taqdiri uning oilasining holatiga bog'liq.

Ma'lumki, ajralish tufayli noto'liq oila vujudga keladi. Ayni kunda aksariyat ijtimoiy xavfli jinoyatlar sodir etayotgan ayollar va voyaga yetmagan bolalar noto'liq oilalardan ekanligi kuzatilmoqda. Yoki bo'lmasa, boshqa huquqbazarliklar, odam savdosi qurbanlari, noqonuniy yo'l bilan chet davlatlarga chiqib ketayotgan yoshlar, ayollar, albatta, bularning ko'pchiligi asosan ajrim tufayli yuzaga kelgan yoki noto'liq oilalarda bo'layotganligi achinarli.

Statistikaga nazar soladigan bo'lsak, O'zbekistonda 2021-yilning birinchi choragida 9213 ta ajrim qayd etilgan. Statistik ma'lumotlarga qaraganda, eng ko'p ajrim Toshkent shahrida, eng kam ko'rsatkich esa Qoraqalpog'istonda ro'yxatga olingan. Hududlar kesimida ajrimlar soni Toshkent shahrida 1331 ta, Farg'ona viloyatida 999 ta, Andijon viloyatida 995 ta, Samarqand viloyatida 912 ta, Toshkent viloyatida 946 ta, Qashqadaryo viloyatida 711 ta, Namangan viloyatida 682 ta, Surxondaryo viloyatida 581 ta, Buxoro viloyatida 500 ta, Xorazm viloyatida 344 ta, Jizzax viloyatida 337 ta, Sirdaryo viloyatida 298 ta, Navoiy viloyatida 289 ta, Qoraqalpog'istonda 288 ta bo'lgan.

2022-yilning yanvar – mart oylarida respublika bo'yicha 12164 ta ajralish holatlari qayd etilgan. Eng ko'p ajralishlar Toshkent shahrida bo'lib, 1484 tani tashkil etgan. Eng kam ajralishlar soni Navoiy viloyatida bo'lib, 347 tani tashkil etgan. Yuzaga kelgan mazkur ajrimlar natijasida joriy yilning o'zida Respublika bo'yicha 8725 nafardan ortiq voyaga yetmagan bolalar ota yoki ona mehridan mahrum bo'lgan. 2022 yilning faqtgina avgust oyida O'zbekiston bo'yicha nikohdan ajralishga doir 4123 ta holat qayd etilgan.

Prezident Shavkat Mirziyoyev Xalqaro xotin-qizlar kuni munosabati bilan o'tkazilgan bayram tadbirida (2021

yil 6-mart) O'zbekistonda oilaviy ajrimlar soni yuqori bo'lib qolayotgani masalasida to'xtalib: Avvalari biror oila ajrashsa mahallasida duv-duv gap bo'lardi, butun mahalla oyoqqa turardi. Ajim - bu katta fojia, - degan edilar.

Oilalarning buzilish sabablari o'rghanib chiqilganda, farzandsizlik, xiyonat, uzoq vaqt birga yashamaslik, oilaviy kelishmovchiliklar, yoshlarning oila qurishga tayyor emasligi, sog'lig'iga e'tiborsizlik, o'zaro muhabbatning yo'qligi, fe'l-atvorning to'g'ri kelmasligi, ayrim yigitlarning ichkilikbozlik, giyohvandlikka berilib ketishi yoki boshqa ayollar bilan hayot kechirishi, aksariyat hollarda qaynona va kelin o'rtasidagi mojarolar, qizlarning esa uy bekasi, onalik vazifasini tushunmasligi tufayli yuzaga kelayotganligi ma'lum bo'ldi.

Muammolarning oldini olish uchun, avvalo, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlab borish zarur. Bu borada quyidagi taklif va mulohazalarni keltirib o'tmoqchimiz:

- Yoshlarni oila ilmiga o'rgatish lozim. Xalqimizda qizlarni oila bekaligiga tayyorlab borish odad tusiga kirgan. Biroq oilaning tayanchi bo'ladigan yigitlarimiz e'tibordan chetda qolmoqda. Bugungi kunda dunyoning rivojlangan davlatlarida, jumladan, Yaponiyada "Ota-onalik maktablari", "Oila ta'limi", "Oila maktablari" kabi ta'lim maskanlari ko'payib bormoqda. Yaponiya hukumati uylanadigan yigitlardan 18 raqamdagagi, xotin-qizlardan esa 24 raqamdagagi sertifikat so'rashmoqda. Bu sertifikatning mohiyati "Oila uchun hozirlik", "Er-xotinlik bilimi" darajasini ifodalaydi. Aslida "Oila ta'limi" maktablarining bo'lishi va kengaytirilishi juda muhim masala. Oilaga hozirlik qadriyat yoki an'analar bilan gina emas, ta'lim-tarbiya bilan ham bo'lishi zarur;

- maktablarda va mahallalarda yoshlarni oilaga tayyorlash bo'yicha malakali psixologlarni ishga jalb qilish, faoliyatiga qarab rag'batlantirish, mas'uliyatini yanada oshirish zarur;

- oilada ayollarga nisbatan maishiy zo'ravonlik O'zbekistonda eng dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Gender tengligi qadriyatlari yuqori darajada faol targ'ib qilinayotganiga qaramay, "oilaviy zo'ravonlik" tushunchasining o'zi ham mamlakatimiz qonunchilik muhitida mavjud emas va natijada bunday harakatlar uchun haqiqiy javobgarlik yo'q;

- bugungi kunda oila ma'naviyati va yoshlar odob-axloqi g'arbdan kirib kelayotgan "ommaviy madaniyat"ning nishoniga aylangan desak, xato bo'lmaydi. Bu tahdid ko'zga tashlanmaydigan juda nozik yo'llar orqali ijtimoiy hayotga suqilib kiradi, u odamlar ongini zaharlab, manqurtga aylantirishga xizmat qiladi. Oila – barcha tashvish va baxtsizlikning asosi hamda erkinlikni bo'g'uvchi ixtiyoriy qullik, deya g'arb yoshlari farzand dunyoga keltirishni o'ylamay qo'ygan, yigitlarga uylanmaslik, qizlarga turmushga chiqmaslik urf bo'lgan. Bunday qarashlar va salbiy odatlaridan saqlanishning samarali hamda ta'sirchan mexanizmlarini ishlab chiqish shart.

Yurtimizda "Farovon oila – jamiyat ravnaqining asosi" degan kontseptual g'oyani ijtimoiy hayotga izchil tadbiq etish, oila institutini takomillashtirish bo'yicha kompleks chora tadbirlarni amalga oshirish, bu jarayonda davlat organlari, fuqarolik jamiyati institatlari va fuqarolarning yaqin hamkorligini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasida Oila institutini mustahkamlash kontseptsiyasini qabul qilindi. 15-may xalqaro oila kunini har yili respublikamizda keng nishonlash bo'yicha manzilli tadbirlarni amalga oshirish an'anaga aylandi. Umumta'lim maktablarida "oiladagi zo'ravonlikning oldini olish kunlari"ni o'tkazish va o'quvchilarga oilada zo'ravonlikning salbiy oqibatlari haqida tushuncha berishga mo'ljallangan tadbirlarni tashkil etish belgilangani amalda katta natijalar berishi shubhasiz, faqatgina ijrochi mutasaddilar hisobot uchun

emas, zimmalaridagi vazifalarni mas'uliyatni his qilgan holda tashkil etsagina, o'z samarasini beradi.

Oila – muqaddas dargoh. Shubhasiz, bu dargohning mustahkam buniyod etilishi oila qurayotgan yoshlarga bog'liq. Har bir nikoh ham yaxshi oilani vujudga keltiravermaydi. Bugun davlat va jamiyat qurilishi, ishlab chiqarish, ilm-fan, madaniyat, tibbiyot, huquq, ta'lim kabi sohalar-da farzandlarimizni barkamol inson qilib tarbiyalashda oilaning o'rni beqiyosdir. Zero, XX asr boshlarida jadid taraqqiyparvari Abdurauf Fitratning "Xalqning harakat qilishi, davlatmand bo'lishi, baxtli bo'lib izzat hurmat to-pishi, jahongir bo'lishi, zaif bo'lib xorlikka tushishi, faqirlik jomasini kiyib, baxtsizlik yukini tortib e'tibordan qolishi, o'zgalarga tobe, qul va asir bo'lishi bolalikdan ota-onalaridan olgan tarbiyalariga bog'liq..." degan so'zlari bugungi kunda ham tarixiy va falsafiy ahamiyatga egadir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. *Fitrat Abdurauf. Oila yoki uni boshqarish tartiblari / Tarjima va izohlar muallifi Sh.Vohidov. 2-nashr. -Toshkent: Ma'naviyat, 2000. -112 b.*
2. *Alimov U. Oilada farzand tarbiyasi. -Toshkent, 2014. -456 b.*
3. *Safarov O., Mahmudov M. Oila ma'naviyati. -Toshkent, 2009. -248 b.*
4. *Oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida. / <https://lex.uz/uz/docs/5899498>*

**Asadbek ZAIROV,**

*O'zbekiston Milliy universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti  
"Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi" yo'naliishi  
4-bosqich talabasi*

## **JAMIYATNING MA'NAVIY RIVOJLANISHI VA MILLIY QADRIYATLARNI TARG'IB QILISHDA ZAMONAVIY TEKNOLOGIYALARNING ROLI**

**Annotatsiya:** mazkur maqolada zamonaviy texnologiyalar va innovatsiyalarni keng joriy qilish orqali milliy qadriyatlarimizni targ'ib qilishni yangi sifat bosqichga olib chiqishga oid fikrlar yuritilgan. Shuningdek bugungi kunda jamiyatimizda mavjud muammolarga to'xtalib o'tilib, ularning yechimiga qaratilgan bir qator takliflar ilgari surilgan.

**Kalit so'zları:** zamonaviy texnologiya, milliy qadriyat, ma'naviy yuksalish, jamiyat, yoshlar, media madaniyat, virtual olam, globallashuv, konseptuallik, milliy g'oya.

Yer sayyorasi deb atalmish ijtimoiy siyosiy makonda hayot suratlarining tezlashishi har bir jamiyat oldiga barqarorlik va o'ziga xosligini saqlab qolish uchun jiddiy talablar qo'ymoqda. Turli tahdidlar kuchaygan murakkab bir sharoitda xalqni xalq sifatida yakdil va qudratli bo'lishi bevosita mafkuraviy immunitetning shakllanganlik va ma'naviy rivojlanganlik darajasiga bog'liqdir. Sir emaski, o'zbek xalqining tarixi ming yillar davomida ro'y bergen rang -barang hodisalarga guvoh va turli xavf -xatarlardan ogoh sanaladi. Bugungi jamiyatimizdagi sog'lom ijtimoiy -ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashda asrlar silsilasida shakllangan milliy qadriyatlarimizning asrab avaylanishi va kelgusi avlodlarga ham meros bo'lib o'tishi ustuvor ahamiyatga egadir. Globallashayotgan bugungi dunyo-

da zamonaviy taraqqiyot yutuqlari va innovatsiyalardan keng foydalanish orqali jamiyatni ma'naviy rivojlantirish va milliy qadriyatlarni targ'ib etish konseptual ahamiyatga egadir. Biroq shunday bo'sada, jamiyatimiz hayotida uchrab turgan salbiy illatlar yosh avlod tarbiyasi va milliy qadriyatlarimizga o'z tasirini ko'rsatmasdan qolmayapti. Individualizm asosida egosentrizm vujudga kelishi orqali axloqsizlikning kuchayishi media madaniyatning yetishmasligi va internetdan maqsadsiz foydalanish natijasida turli oqimlarga aralashib qolish milliy qadriyatlarga bepisandlik, jamiyat hayotiga dahldor bo'lmaslik, o'z ustida ishslash orqali shaxsiy rivojlanish o'rniغا vaqtini behuda narsalarga sarf qilish hamda bilim olmaslik, kasb-hunar o'rganmasdan norozilik kayfiyatida bo'lish singari holatlar yoshlar orasida kuzatilmoqda. Bu kabi muammolarning yechimi va vaziyatga qanday yondashish kerak degan savol kun sayin o'z dolzarbligini oshirayotganligi faol fuqarolik pozitsiyasini egallagan har bir kishini tashvishlantirmasdan qo'ymaydi. Mamlakatimizda axborot texnologiyalarning rivojlanishi pirovardida yaratilayotgan elektron resurslarda milliy qadriyatlarimiz ruhi nechog'lik sezilmoqda? Ijtimoiy tarmoqlarda ma'naviy-ma'rifiy kontentlar qanchalik mavjud degan savollar tug'ilmoqda? Eng achinarlisi esa ma'naviyat deganda unga amal qilmaydigan, hatto eshtishni xohlamaydigon kishilarning borligi hali sohada yetarlicha kamchiliklar borligi va qilinayotgan ilmiy-ijodiy ishlar natijadorligini oshirishini taqozo etmoqda. Shuning uchun ham milliy qadriyatlar va zamonaviy texnologiyalar uyg'unligini ta'minlash zarur. Ma'lumki, texnologiyalardan yaxshi niyatda foydalanish orqali samarali faoliyat yuritish mumkin. Bu esa o'zining ijobjiy ta'sirini ko'rsatmasdan qolmaydi. Mazmunan boy falsafiy ahamiyatga ega milliy qadriyatlarimiz ruhida yoshlarni kamol toptirish, ularda Vatanga muhabbat, burcha sado-

qat tuyg'ularni shakllantirish hamda ma'nан yetuk kishi bo'lishida zamonaviy texnologiyalarning ro'li nihoyatda sezilarlidir. Aynu shu omillarni hisobga olgan holda milliy qadriyatlarimizni taqdim qilishda texnologiyalardan foy-dalanish maqsadga muvofiqli. Yuksak ma'naviy xazinaga ega bo'lgan xalqimizning boshqa xalqlardan o'ziga xosligi bu uning ma'naviy dunyosidir.

Ma'naviy merosimizga asoslangan milliy qadriyatlarimizni asrab-avaylash, ularni umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg'un holda boyitish va saqlab qolish, rivojlantirish hamda kelgusi avlodlarga yetkazib berish asosiy vazifaga aylangan. Milliy g'oya xalqning ko'nglidagi orzu-umidlarini, maqsad va intilishlarni nazariy tarzda ifoda etadi. Milliy g'oya mavzusida va baland parvoz mavhum orzular emas. U har bir inson, jamiyat oldida turgan maqsadlardir. Millatning tub manfaatlari, uning o'z o'tmishiga bergan bahosi va kelajakka ishonchi milliy g'oyada o'z aksini topadi. Yuksak ma'naviyatga, pokiza axloqqa, demokratiya tamoyillariga tayangan milliy g'oyalari jamiyatni rivojlanishga yetaklaydi.<sup>1</sup> Azaldan sharq xalqlari axloqiylik, bag'ri kenglik, tinchlik va totuvlikni ustuvor deb bilgan, lekin yuzaga kelayotgan dilni xira qiluvchi holatlarga ham o'zining pozitsiyasi mavjud.

Yuqorida sanab o'tilgan muammolarni yechish va boshqa salbiy oqibatlarni oldini olish maqsadida quyidagilarni amalga oshirish o'ta ahamiyatlidir:

Birinchidan, yoshlarda internetdan to'g'ri foydalanish maqsadida ularning media madaniyatini shakllantirish lozim. Shuning uchun ham maktab ta'limida Media madaniyat fanini o'qitish;


Ikkinchidan, xalq vaqtini eng ko'p sarflaydigan ijtimoiy tarmoqlarda milliy qadriyatlarimizga oid qisqa, sifatli video kontentlarni yaratish va ommalashtirish;

<sup>1</sup> R.X. Ruziyeva , Milliy g'oya rivojida qadriyatlar tizimi, Toshkent-2020, 25,26-betlar.

Uchinchidan, so'nggi yillarda yurtimizda qurilish jarayonlari shiddat bilan kechmoqda, ammo barpo qilinayotgan zamonaviy savdo va ko'ngil ochar maskanlarida milliy qadriyatlarimizni tarannum etuvchi aspektlarga yetarli-cha e'tibor qaratilmagan. Shu bois aholi eng ko'p tashrif buyuradigan ommaviy joylarda milliy qadriyatlarimizni aks ettiruvchi ommaviy va zamonaviy targ'ibot vositalaridan foydalanish;

To'rtinchidan, ma'lumki, bugungi avlod ulug' ajdodlarimizning nomlari,, ularning qancha va qanday asarlar yozganligin, qachon qayerda tug'ilib va vafot etganligiga oid ma'lumotlar bilan cheklanishadi. Aslida boy ijodiy meros qoldirgan ulug' ajdodlarimizning asarlarini o'qishni ommalashtirish maqsadida har bir mutafakkir va allomamizga bag'ishlangan ijodiy tanlovlardan o'tkazish zarur

Ilgari surilayotgan ushbu takliflar yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli o'tqazish, milliy qadriyatlarimizni targ'ib qilish ham zamonaviy texnologiyalar jalb qilinishiga ham o'z samarasini beradigan tarbiyaviy jarayon yuzaga kelishiga poydevor yaratadi. Sir emaski, hozirgi kunda qarovsiz qolgan mafkuraviy immuniteti sust bo'lgan yoshlardan axborot xurujlari va yot g'oyalar ta'siri doirasiga tushmasligidan sug'urtalanmagan. O'zbek jamiyatining eng yirik va faol qatlamiga aylangan yoshlarni uchinchi renessans drayveri ruhida tarbiyalash ularning iste'dod va intilishlarini har taraflama qo'llab quvvatlash zarur. Shu maqsadda uchinchi renessans o'zi nima?, uyg'onish davrida yashaydigan xalqning hayoti qanday bo'lishi va jamiyatning ijtimoiy-ma'naviy portretida nimalar aks ettirilishi kerak kabi savollarga javob bera oladigan konseptual ahamiyatga ega konsepsiya ishlab chiqilishi va kela-jak avlod uchun dastur-ul amal bo'lib xizmat qilishi kerak. Chunki yoshlardan har bir mamlakatning ertangi kuniga umid va strategik kuchdir. Shuning uchun ham eng avvalo ular-



ni zararli g'oyalar va turli zo'ravonliklardan himoya qiladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev o'zining "Yangi O'zbekiston strategiyasi: asarida quyidagi fikirlarni bildirdi: "Bugungi global makonda, o'zaro raqobat, turli siyosiy, iqtisodiy, g'oyaviy qarama-qarshiliklar nihoyatda kuchaygan hozirgi sharoitda yosh avlod tarbiyasining o'rni va ahamiyati har qachongidan ham ortib borayotgani hech kimga sir emas. Dunyodagi raqobatga bar-doshli, jahon maydonida o'z o'rniiga ega bo'lishga intilayotgan har bir xalq shu masalalar haqida jiddiy o'ylaydi, bu borada amaliy choralarini ko'radi. Aks holda, u hech shubhasiz, xalq va millat sifatida o'zligini boy beradi. Oldimizga qo'ygan ulkan vazifalarni amalga oshiruvida biz uchun kuch-qudrat manbayi bo'ladigan milliy g'oyani uzlusiz rivojlantirishimiz zarur."<sup>1</sup>

Jamiyatni ma'naviy yuksaltirish maqsadida aholini mol-dunyosidan ko'ra ma'naviy dunyosini boyitishga ruhlantirish, virtual olamda targ'ibot -tashviqot ishlarini yangi sifat bosqichiga olib chiqish, Juhon miqyosida best seller darajasiga aylanadigan milliy adabiyotlarni yaratishga qaratilgan chora tadbirlar ishlab chiqilishi lozim. Mazkur takliflarning barchasi shak-shubhasiz milliy g'oyani mustahkamlash va ana shu ruh bilan aholining barcha qatlamlarining dunyo qarashlarini oziquantirish milliy qadriyatlardan tizimining bosh maqsadidir. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 49-moddasida shunday deyilgan: "Fuqarolar O'zbekiston xalqining tarixiy, ma'naviy va madaniy merosini avaylab asrashga majburdirlar. Madaniyat yodgorliklari davlat muhofazasidadir."<sup>2</sup>

Ushbu normalarni asosiy qonunimizga kiritilishi va mustahkamlanib qo'yilishi ko'p asrlik tarixga ega qadriyat-

---

<sup>1</sup> Shavkat Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston strategiyasi -Toshkent. "O'zbekiston", 2021. -B.247


<sup>2</sup>O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Toshkent-"O'zbekiston"-2018

larimizning xalqimiz hayotidagi tutgan o'rni va muhimlik darajasini ifodalaydi. Zamonlar osha madaniyatlar almash-inuvi jarayonida qadriyatlarga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillar saqlanib qolmoqda. G'arazli niyatda xalqning tarixini soxtalashtirib, an'ana va urf-odatlarini eskilik sarqiti deb buzg'unchiliklarni targ'irb qiladigan ayrim kuchlarning destruktiv faoliyati insoniyatni xushyor tortirib, ser-gaglikka chorlaydi.

Albatta bu kabi tahdidlarga qarshi lozim darajada kurasish bugungi kunda zamonaviy sohalarning drayveriga aylangan innovatsiyalar va raqamli texnologiyalarni milliy qadiriyatlar tizmiga keng jalb qilish orqali an'anaviylik va zamonaviylik uyg'unligini ta'minlash zarur. Alovida e'tirof etish kerakki, so'ngi yillarda mamlakatizmizda rang-barang madaniyatlar va qadiriyatlarni targ'ib qiluvchi turli festevallar, jumladan: maqomchilik, baxshichilik, hunarmandchilik, sharq taronalari singari bir qancha dunyo xalqlarini birlashtiruvchi ezgu an'analaring davomiyligi milliy qadiriyatlarimizni umuminsoniy qadiriyatlar bilan bog'liqligini ko'rsatadi. Xulosa qilib aytganda, jamiyat hayotining ma'nayiv qiyofasi va milliy qadiriyatlar tizimi jamiyatning nafaqat kechagi va bugungi kunini, balki kela-jidan ham so'zlaydigan bebaaho javohirdir.

### **Foydalanolgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. R.X. Ruziyeva, *Milliy g'oya rivojida qadriyatlar tizimi*, Toshkent -2020, 49-betlar.
2. Shavkat Mirziyoyev, *Yangi O'zbekiston strategiyasi* – Toshkent. "O'zbekiston", 2021. – B.292
3. *O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi*, Toshkent – "O'zbekiston" -2018



## 3-SHO'BA.

# OMMAVIY AXBOROT VOSITALARIDA MILLIY QADRIYATLARNI YORITISH MASALALARI

**Munisa MAVRULOVA,**

*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti  
katta o'qituvchisi,  
falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori*

## MILLIY QADRIYATLAR VA MILLIY XARAKTER MASALASI

Qadriyat har bir xalqning buguni, kelajakdagi orzu-in tilishlari, taraqqiyot talablariga ma'naviy-ruhiy kuch beradigan, millatni millat sifatida muntazam ravishda qadrini oshirib boradigan g'oya va tushunchalarga ozuqa beradigan fenomen hodisadir.

Milliy qadriyatlarning shakllanishi milliy xarakterning yuzaga kelishi bilan bevosita bog'liq. Paydo bo'lish va shakllanish nuqtai nazaridan ustuvorlik milliy qadriyatlар tarafida bo'ladi. Chunki, milliy qadriyatlар ijtimoiy taraqqiyotning ma'lum bir bosqichida, muayyan ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-mafkuraviy omillar natijasida shakllansa, milliy xarakterning yuzaga kelishi juda uzoq davom etadigan ijtimoiy-ruhiy holatdir.

"Xarakter" – yunoncha so'z bo'lib, belgi, ajratuvchi sifat, xislat, degan ma'nolarni bildiradi. Xarakter ijtimoiy muhitda qaror topadigan, shaxsning tevarak-atrofdagi voqelikda va o'z-o'ziga munosabatlarida ifodalananidigan, uning ijtimoiy taraqqiyotning muayyan bosqichida namoyon bo'lувчи xatti-harakatlarini belgilab beradigan barqaror, turg'un ruhiy xususiyatlarining majmuidir.

Inson xarakteridagi xususiyatlarning to'rt tizimi mavjud: 1) jamoaga, guruhga, ayrim insonga nisbatan munosabatlarni ifodalovchi xususiyatlar (yaxshilik, mehribonlik, talabchanlik, takabburlik va boshqalar); 2) mehnat faoliyatiga nisbatan munosabatni aks ettiruvchi xususiyatlar (mehnatsevarlik, yalqovlik, vijdonlilik, mehnatga mas'uliyat yoki mas'uliyatsizlik bilan munosabatda bo'lish va boshqalar); 3) narsa va ashyolarga nisbatan munosabatni ifodalovchi xususiyatlar (ozodalik va ifloslik, narsalarga ayab yoki ayamasdan yondoshuv va boshqalar), 4) insonning o'z o'ziga nisbatan munosabatlarini ifodalovchi xususiyatlar (izzatnafslik, shuxratparastlik, mag'rurlik, kalondimog'lik, kamtarinlik va boshqalar). (Ma'naviyat. Asosiy tushunchalar lug'ati. -Toshkent, 2021. - 640-bet).

Xarakter har bir insonning mohiyatini anglatuvchi hodisa hisoblanadi. Ayni paytda, har bir millatning o'z milliy xarakteri mavjud bo'lib, ushbu hodisa milliy qadriyatlar tizimi bilan uyg'unlikda shakllanadi. Milliy xarakter ko'pincha, o'z mazmun-mohiyati bilan milliy mentalitet bilan hamohangdir.

Milliy qadriyatlar tizimida milliy xarakter va milliy mentalitetning o'rni muhim ahamiyatga ega. Aslida, milliy qadriyatlar biz yuqorida ta'kid etgan har ikki ijtimoiy-ma'naviy hodisaning yig'indisidan iborat. Shu ma'noda, milliy qadriyatlarning shakllanishi milliy xarakter va milliy mentalitet bilan bevosita bog'liqdir.

Ma'lumki, o'zbek xalqi asosan ikki yirik etnik ildizdan tashkil topgan. Bu ildizlarning har ikkisi ham bu hududda avtoxton asosga ega. Birinchi ildiz mazkur hududda qadimdan yashab kelayotgan tub joyli o'troq ajdodlarimiz bo'lsa, ikkinchisi bu hududda qadimdan yashab kelayotgan chorvador saklar hamda ona vatanimizning shimoliy-sharqiy tevarak-atroflaridan turli davrlarda kirib kelgan chorvador prototurkiy elat va qavmlardan iborat. Har ikkala asosiy

ildizlarning qorishuvi natijasi sifatida dastlab o'zbek xalqi, keyinroq o'zbek millati paydo bo'lgan.

O'zbek milliy mentalitetining shakllanishida turfa omillar borki, ulardan birinchisi o'zbek xalqining etnik jihatdan ko'p tarmoqli va serildizli bo'lishi milliy xarakter va mentalitetimizda barcha ijtimoiy qatlamlar uchun umumiyligi jihatlar, jamoa manfaatlarini himoya qiluvchi fazilatning rivoj topishini taqoza etib kelgan. O'zbek xalqi xarakteridagi bag'rikenglik, xotamtoylig, mehmondo'stlik, o'zaro hamkorlikka moyillik, g'am-anduhli paytlarda nochor kimsalarga hamdardlik, yelkadoshlik fazilatlari ana shu jamoaviy yakdillikni ta'minlash, til va dil, fikr-tafakkur birligini saqlash ehtiyojaridan tug'ilgan va sayqallangan.

Ikkinchi guruh sabablar doirasiga muayyan millat istiqomat qilib kelayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, jo'g'rofiy-hududiyligi va iqlimiyligi omillar ta'sirini ko'rsatish mumkin. Chunki, ona zaminimizning tekislik va dashtlardan iborat keskin kontinental iqlimli jo'g'rofiy hududda joylashganligi, yoz jazirama issig'ining qahraton qish bilan almashinishi, bahor va kuzning shiddat bilan kelishi va ketishi xalqimiz fe'l-atvorida aniqlik va lo'ndalikni, to'porilik va qaynoq mehrni, qattiqqo'llik va intizomni tarkib topishiga olib kelgan. (O'zbek xalqining kelib chiqishi: ilmiy-metodologik yondoshuvlar, etnogenetik va etnik tarix. -Toshkent, 2004. -54-bet).

O'zbek milliy harakteriga xos yana bir oliyjanob fazilat uning turkiy ildizi bilan bog'liqidir. Turkiylikka xos jangovarlik, mardlik, matonat va lafz halolligi, bag'rikenlik, sahovatpeshalik va hojatbarorlik kabi xislatlarimizda o'zining yorqin ifodasini topgan. Bu fazilatlar ayniqsa, xalqimizning to'y-tomoshalarga o'ta o'chligida, o'zi yemay yillar damomida yig'ib-terib elga dasturxon yozishdan zavq-shavq olishida, aza va yo'qlov marosimlarini uyushgan holda o'tkazishda, bola tug'ilishidan tortib to matom

marosimimizgacha bo'lgan barcha tadbirlarimizda keng jamoatchilik va mahalla ahlining doimo bosh-qosh bo'lib turishi kabi qadriyatlarimiz va udumlarimizda kuzatiladi.

Tarix fanlari doktori Adhamjon Ashirov o'zbek milliy xarakteri va mentalitetining yana bir muhim jihatini jamiyat hayoti, insonlar turmush tarzini ko'proq an'ana, urf-odatlar orqali boshqarilishida ko'radi. Masalan, o'zbek-kona rasm-rusmlarga qat'iy amal qilgan oilalarda o'g'il uylantirish, kelin tanlash, qiz uzatish, kuyov tanlash paytalarida ota – onalar va qarindosh-urug'lardan alohida e'tiborni talab qilinadi. Eng avvalo, bo'lajak kelin va kuyovni salomatligi, jismoniy nuqsonlardan xoli bo'lishi, quda tomonlarning ijtimoiy kelib chiqishi, jamoada tutgan o'rni, mavqeい va obro'-e'tibori hisobga olinadi.

Shuning uchun ham xalqimiz "teng tengi bilan, tezak qopi bilan" deb bekorga aytmagan. Agar kuyov yoki kelin bo'lmish tomonning aqli, odobi, husni-jamoli, ularning bir-birlariga ko'ngil qo'yish asosida tug'ilgan sevgi-muhabbati bir o'lcham bo'lsa, ularning ota-onalari, qarindosh-urug'lari, avlodining jamoadagi mavqeい va bu xususdagi jamoatchilik fikri ikkinchi, aksariyat hollarda, hal etuvchi omil vazifasini o'ynaydi. (Ashirov A. O'zbek milliy mentaliteti haqida ba'zi mulohazalar. "O'zbek xalqining kelib chiqishi: ilmiy – metodologik yondoshuvlar, etnogenezik va etnik tarix". – T.: 2004. – B.55.)

O'beklarda jamoatchilik fikri, oila, turmush marosimimizdagi ko'plab urf-odatlar qonun darajasida bajariladi. Bularning shaxs turmush tarzi, taqdirini belgilashdagi ustuvorlik mavqeい ham balanddir. Shu o'rinda, "G'arb qonunlari, Sharq urf-odatlari, qadriyatlar bilan boshqariladi", degan ibora bizning leksikonimizdan muhim o'rin olgan.

G'arbdan shaxs jamoaga o'zligini yuzaga chiqarish, iste'dodi va imkoniyatlarini namoyish etish, muayyan ma-

qsadlarga erishish vositasida qaraydi. Jamoa insonning ichki, botiniy dunyosi, ruhiyati va shaxsiy hayotiga mutlaqo aralashmaydi. Sharqda esa, jamoaga assosiy e'tibor beriladi. Sharqda, jumladan, o'zbek mentalitetida jamoa insonni nazorat ostida tutib turish, shaxsning jamoadagi munta-zam ishtiroki uning umumiy axloqiy me'yordi doirasida ish tutyotganining isboti sifatida talqin qilinadi. Jamoadan ajralgan holda, ish tutish insonning ijtimoiy begonalashuvi sifatida baholanadi. (Asqarov A. O'zbek xalqining kelib chiqish tarixi. -Toshkent, 2015. -548-bet).

Milliy qadriyatlarning muhim, uzviy qismi sifatida xarakter, jumladan, milliy xarakter har bir xalqning mavjudlik belgisi hisoblanadi. Tadqiqotlar shundan darak beradiki, har bir xalqning shu jamiyatda istiqomat qilayotgan barcha fuqarolari uchun umumiy bo'lgan ko'plab sifatlari bor. Ammo, bu u yoki bu millat orasida xarakter nuqtai nazaridan bir-biridan farq qiluvchi shaxslar bo'lishi mumkinligini ham inkor etmaydi.

Shu ma'noda, turfa xarakterli kishilarni har bir millat orasida uchratish mumkin. Yana shu narsani esdan chiqarmaslik kerakki, milliy xarakter umumiy ma'noda yaxlit bo'lib, uning mavjudlik muddati uzoq davom etsada, biroq u o'zgarmas emas. Jamiyatda sodir bo'ladigan jiddiy tarixiy o'zgarishlar, tarixiy voqealar, turli inqiloblar natijasida milliy xarakterning ayrim jihatlari transformatsiya bo'lishi mumkin.


Mustaqillikning ilk kunlaridanoq sovet mustabid tuzumi sharoitida cheklangan, toptalangan milliy qadriyatlarimizni tiklash asosiy vazifalardan biriga aylandi. Ilyon, vatan, insof, e'tiqod, maslak, taqvo, hamiyat, sharm, hayo, or, andisha, nomus, vijdon, insof, g'urur, iftixon, xotira kabi avvallari hattoki, e'tiborga olinmagan va gapirish atayin taqilangan so'zlar endi yangicha ma'noda iste'molga kirib kela boshladi.

Ayniqsa, yuksak milliy qadriyat hisoblangan Vatan tushunchasiga alohida e'tibor berilishi juda muhim edi. Chunki, uzoq yillar davomida o'zbek xalqining buyuk davlatchilik tarixi ochiqdan-ochiq tan olinmadi, shubha ostiga olindi. Boshqacha so'z bilan aytganda, mustaqillik yillari "Vatan" degan muqaddas tushunchani ongli ravishda anglash yillari bo'ldi. Qandaydir soxta, siyosiy aqidalarga o'ralgan vatan tushunchasi endilikda yoshi ulug' fuqarolarimizning ongidan, tarixiy xotirasidan asta-sekinlik bilan bo'lsa-da, o'chib ketayotgan edi. Eng muhimi, mam-lakatimizdagi yosh avlodning barchasi ijtimoiy ongida tom ma'nodagi Vatan tushunchasi milliy qadriyat sifatida shakllandi.

Yurtimiz tarixi Vatan mustaqilligi va ozodligi uchun kurashlar tarixidan iborat ekanligini biz yuqorida ta'kidlagan edik. Ma'rifatparvar Ziyo Ko'kalp milliy birdamlik, Vatan tuyg'usi haqida gapirib, shunday deydi: "Vataniy axloqning yuksak bo'lishi milliy birlikning asosidir. Chunki, Vatan, deb ustida o'tirganimiz tuproq uning yopinchig'idir. Va u yopichiq bo'lgani uchun ham muqaddasdir. Demak, vataniy axloq milliy mafkuralardan, milliy vazifalardan tarkib topgan bir axloqdir". (O'zbegim. -Toshkent, 1993.-75-bet).

Mustaqillik yillari ayni paytda, milliy qadriyatlarning muhim asosi sifatida milliy xarakterning ham shakllanish davri bo'ldi. Bu yillarda endi, O'zbekiston jamiyatida sovet mustabid tuzumi davridagi kabi itoatgo'ylik, birov larga ergashuvchanlik kabi sifatlar asta-sekin yo'qola bordi. Xalqimiz endi o'z taqdirini o'zi belgilay boshladi. Boshqacha aytganda, o'z tarixiy taqdirini o'zi belgilashdan iborat ruhiy kayfiyat yuzaga kela boshladi.

Ma'lumki, inson xarakteri o'z o'zidan shakllanmaydi. Uning uchun esa, inson o'z hayotiy maqsadlariga ega bo'lishi lozim. Kishilar qaramlik davrida o'zgacha fikrlash, o'z



oldiga mustaqil maqsad qo'yish, ushbu maqsadga erishish uchun erkin faoliyat ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'lmaydi. Chunki, uning bunday xatti-harakatlari "katta aka" tomonidan boshqarib boriladi, har bir faoliyat kuchli nazorat ostida bo'ladi. Insonning o'z ichki imkoniyatlaridan foydalaniши, o'зини о'зи namoyon qilish istagi faqat uning erkinligi ta'minlangan jamiyatdagina sodir bo'lishi mumkin.

Bu narsani "Ijtimoiy fikr" jamoatchilik markazi tomonidan o'tkazilgan so'rovnomalari natijasida ham bilib olsa bo'ladi. 2017 yilda o'tkazilgan shunday so'rovnoma natijalariga ko'ra respondentlarning 95,1 foizi, ya'ni, mutloq ko'pchiligi o'zlarini uchun muhim hayotiy yo'nalishlar hisoblanuvchi muayyan maqsadlari borligini bayon etganlar.

Ma'lumki, maqsad har bir inson ongli faoliyatining asosini tashkil etadi. Shuningdek, maqsad inson amaliy faoliyatining avvaldan har tomonlama o'ylab tayyorangan, tahlil etilgan, sinchiklab o'r ganilgan rejasি hisoblanadi. Maqsadlar ham har xil bo'lishi mumkin: ezgu maqsadlar va ezgulikka, umuman insonga qarshi maqsadlar. Maqsadlarning kimga va nimaga xizmat qilishi esa maqsad egasining ma'naviyatiga bog'liq. Insonning ma'naviyati qanchalar yuksak bo'lsa, uning maqsadi ham shunchalar darajada insoniylashadi, ezgulik mazmuniga ega bo'lib boraveradi.

Inson xarakterining shakllanishida maqsad qanchalar darajada muhim rol o'ynasa, ehtiyoj, motiv va manfaat ham individning yoki ijtimoiy guruhnning xarakteri, xulq-atvori ni, pirovard natijada, uning faoliyatini belgilashda shunchalar muhim ahamiyatga ega.

Insonning mohiyati, uning xarakteridagi ustuvor masala ham o'z oldiga eng muhim maqsadlarni qo'ya bilishi dadir. Yana bir muhim masala insonning o'z oldiga oliv maqsadlarni qo'yishi va uning mamlakat va jamiyat tomonidan belgilangan yuksak maqsadlar bilan uyg'unligi bilan

bog'liqdir. Bu borada bugungi Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar fuqarolarimiz tomonidan tanlangan eng muhim maqsadlar bilan tobora uyg'unlashib bo-rayotganligini ko'rish mumkin.

Shunday qilib, bugungi O'zbekistonda milliy qadriyatlarning muhim komponenti sifatida milliy xarakterimiz yangicha sifatlar bilan boyib bormoqda. O'zbek milliy xarakteri o'zbek xalqining etnik jihatdan shakllanishi barobarida yuzaga keldi. Undagi yuksak insonparvarlik, vatanparvarlik, axloqiylik kabi sifatlar xalqimiz milliy xarakterining eng oliy ko'rinishlaridir.

**Alisher MADRAXIMOV,**

*Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti kichik ilmiy xodimi,  
institut mustaqil tadqiqotchisi.*

## **IJTIMOIY TARMOQLAR TA'SIRIDA YOSHLARGA MILLIY QADRIYATLARNI SINGDIRISH**

O'zbek xalqi o'zining uzoq o'tmishi davomida yaratilgan boy milliy qadriyatlariga ega. Shuningdek, avlodlarda insonparvarlik, kamtarlik, mehnatsevarlik, do'stlik, iy-mon-e'tiqod, mehr-oqibat, odoblilik kabi umuminsoniy fazilatlarni shakllantirish borasida o'ziga xos tajriba yaratgan.


Qadriyatlar tushunchasi nihoyatda xilma-xil ma'nda turli soxalarda qo'llaniladi. Qadriyatlar to'grisidagi fan – bu aksiologya fanidir. Bu atama ilmiy bilimlar soxasiga XIX asrning ikkinchi yarmida nemis aksilogi E.Gertman va frantsuz olimi P.Lapi tomonidan kiritilgan [1:3]. G'arbda bu atama grekcha "qadriyat" va "fan", "ta'limot" tushunchalariga asoslanadi. qadriyatni aksilogik nuqtayi nazardan talqin qilish, uning kategoriya sifatidagi mazmuni, obyektiv asosi va subyektiv jihatlari, namoyon bo'lish shakllari va xususiyatlarini o'rganishga imkon beradi.

Qadriyat kategoriyasi buyum yoki narsalarning iqtisodiy qiymatini ifodalaydigan tushunchadan farq qiladi. Qadriyatlar inson uchun biror ahamiyatga ega bo'lgan voquelikning shakllari, narsalar, voqealar, jarayonlar, holatlar, sifatlar, talab va tartiblar qadrini ifodalash uchun ishlataligidan kategoriyadir.

"Qadriyatlar, – deydi yutimizning taniqli olimi Abdurahim Erkaev, – inson, jamiyat uchun ahamiyatli, ularning turli ehtiyojlarini qondirish uchun xizmat qiladigan, hayotini yengillashtirishga, yuksaltirishga, ijtimoiy muhitni va munosabatlarni yaxshilashga qaratilgan narsalar, pred-

metlar, ijobjiy g'oyalar, me'yorlar, ideallar, tamoyillar, mezonlardir. Ularni moddiy va ma'naviy qadriyatlarga bo'lish mumkin. Moddiy qadriyatlarra tabiat, tabiiy boyliklar, mehnat vositalari, zavod-fabrikalar, moddiy mahsulotlar, shahar, qishloqlar va shu kabilar kiradi. Ma'naviy qadriyatlarga dunyoqarash va e'tiqod asoslarini tashkil etuvchi milliy-falsafiy, diniy, axloqiy, estetik, siyosiy, huquqiy, badiiy, konkret-ilmiy g'oyalar, bilimlar va qarashlar, nazariyalar, ta'limatlar kiradi" [3:76-77].

Shu o'rinda milliy qadriyatlar borasida insonlar qanday tushunchaga ekanligini bilish muhim sanaladi. Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti tomonidan 2022-yilda Toshkent shahrining Uchtepa, Toshkent viloyatining Yangiyo'l tumanlarida olib borilgan sotsiologik tadqiqotlar natijalariga ko'ra, Siz "**milliy qadriyat**" deganda nimani tushunasiz? degan savolga berilgan javoblar ma'lum darajada o'ziga xosligi bilan ajralib turadi (1-rasm).



**1-rasm. "Milliy qadriyat" deganda nimani tushunasiz?**

Mazkur so'rovnoma da ishtirok etgan respondentlar quyidagi javoblarini berishdi: "Milliy urf-odat tarzi" javobini **57,1%**; "O'zbek xalqining ilm-fan va madaniyat tarixidagi boyliklarini" javobini **23,3%**; "Vatanimiz tarixidagi diniy va milliy marosimlar" **12,2%** va "Mamlakatimiz diniy ulamolarining asarlari" **4,4%**. Natijalarga ko'ra,

so'nggi yillarda aholi orasida qadriyatlarga nisbatan munosabat o'zgarganligi, ayniqsa COVID-19 koronavirusi pandemiyasidan keyin qadriyatlar tizimida yangi jihatlar paydo bo'lganligini suhbatlar paytida e'tirof qilindi.

Shuningdek, oliy ta'lif muassasalari talabalari o'rta-sida onlayn tarzda o'tkazilgan tadqiqotga ko'ra, "**O'zbek milliy qadriyatları tizimidagi eng ustuvor ahamiyatga ega bo'lgan qadriyatni belgilang**" savoliga talaba yoshlar tomonidan quyidagicha javob variantlari berilgan (2-rasm).



## 2-rasm. O'zbek milliy qadriyatları tizimidagi eng ustuvor ahamiyatga ega bo'lgan qadriyatni belgilang

Mazkur tadqiqotda ishtirok etgan jami **10502 nafar** respondentning **86.1 %** "Ota-onা, qarindosh-urug'larga doimiy beg'araz hurmat va xizmat ko'rsatish" hamda **74.2 %** "Vatanga muhabbat" kabi ko'rsatkichchlarni qayd etgan holda qadriyatlar borasida oliy ta'lif muassasalari talabalarli o'rtasida ijobjiy fikrlar mavjudligini bilish mumkin.

Bizga ma'lumki, bugungi kunda "ommaviy madaniyat"ning ta'siri hamda turli kuchlarning inson ongi va qalbi uchun bo'layotgan kurashlar natijasida milliy qadriyatlar dan voz kechish hodisalari yuz bermoqda. Shu sababli hozirgi ayrim yoshlar o'zlikni anglash, ma'naviyat, odob-axloq, ma'rifat va boshqa shu kabi milliy qadriyatlarimizdan yuz o'girmoqdalar.

Dunyoning ko'plab mintaqalarida umuminsoniy qadriyatlarning yemirilishi natijasida qadriyatlar transformatsiyasi sodir bo'lishi kuzatilmoqda. Qator mamlakatlar va xalqlar o'zlarining ming yillar davomida shakllangan milliy qadriyatlarini unutmoqda. Oqibatda, jamiyatda betoqatlik, radikalizm, tajovuzkorlik kabi tahdidlar keng miqyosda ildiz otmoqda.

Bugun shaxsni manqurtga aylantirish uchun Chingiz Aytmatov yozganidek, "Tuya terisini odamning taqir boshiga kiydirish shart emas. Endi sodir bo'ladigan urushlar jang maydonida emas, balki mafkura poligonida yuz beradi. Shu jihatdan qaraganda, yoshlarning ko'p vaqtini internetda behuda sarflashi katta fojiadir" [2:5]. Chunki, zamonaviylikning va vaqt o'tkazishning eng muhim belgilardan biri – bu ijtimoiy tarmoqlardir. Yoshlar zamonaviylikka intilib o'zlarining qimmatli vaqtlarini mazkur tarmoqlarda behuda o'tkazib yubormoqdalar. Inson o'z mustaqil fikriga, zamonlar sinovidan o'tgan hayotiy-milliy qadriyat-larga, sog'lom negizda shakllangan dunyoqarash va mustahkam irodaga ega bo'lmasa, har turli ma'naviy tahididlarga, ularning goh oshkora, goh pinhona ko'rinishdagi ta'siriga bardosh berishi amrimahol.


Biz ayni yoshlarimizni manashunday ta'sirlardan himoyalash, o'zimizning milliy qadriyatlarimizni zamonaviy uslubda yetkazish, uning umrboqiyligini ta'minlash hamda o'zlikni anglash maqsadida ijtimoiy tarmoqlar ta'sirida yoshlarga milliy qadriyatlarni singdirish bugungi kunning dolzarb masalasi sanaladi.

Ijtimoiy tarmoqlar ta'siri deganda nimani tushuishimiz lozim. Ijtimoiy tarmoqlar ta'siri – bu uning foydalananuvchilariga moddiy va ma'naviy jihatdan ta'sir etishidir. Ya'ni ijtimooiy tarmoqlarda berilayotgan turli axborotlar ta'sirida foydalanuvchiga yo'lib, yoki salbiy jihatdan ta'sir etishidir. Bunda foydalanuvchi undan keladigan ax-

borotlar natijasida foydali moddiy va ma'naviy qiyamatlarga ega bo'ladi. Shuningdek uning ta'sirida turli no-hush yo'llarga kirib ma'naviy buzuqlik, psixologik stress, jinoiy qilmish va shu kabi holatlarni sodir etishi mumkin.

Ijtimoiy tarmoqlar ham kundalik hayotimizda ishlata-digan "pichioq" kabi bir vositadir. Uni foydali va maqsadli ishlarda foydalanish biz uchun kerakli natijalarni beradi. Shu sababdan, yoshlarga milliy qadriyatlarni singdirishda ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish juda muhim samara beradi. Shuningdek, milliq qadriyatlarni maqsadi, maz-mun-mohiyatini, uning tarixi va ahamiyatini yoshlarga yetkazish bo'yicha konferensiya, seminar, davra suhbatlarining Kontseptsiyasi, dasturi va kalendar rejasini tayyorlash va tasdiqlash talab etilmaydi. Bu yoshlarni hozirgi kunda ijtimoiy tarmoqlardan keng foydalanayotganligini hisobga olganda, mantiqan to'g'ri ish sanaladi.

Bu borada quyida berilgan bir nechta mashxur ijtimoiy tarmoqlarning statistik tahliliga nazar tashlasak, bu qarashlarimiz naqadar o'rinni ekanliginio ko'rishimiz mumkin (3-rasm).



**3-rasm. Milliy qadriyatlarni yoshlarga singdirishda ijtimoiy tarmoqlar<sup>1</sup>.**

<sup>1</sup> Internet manbalari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Yoshlarga milliy qadriyatlarni singdirishda quyidagi ijtimoiy tarmoqlardagi faol shaxslardan keng foydalanish muhimdir:

*Mashhur insonlar* – eng taniqli va ta'sirchan shaxslar sanaladi, chunki ular o'zlarining mashhurlik maqomlaridan foydalangan holda muhlislariga milliy qadriyatlarni singdiradi. Bosib j'tgan hayot yo'li va turli o'qigan kitoblaridan misollar keltirgan holda ta'sir o'tkazishlari mumkin.

*Ijtimoiy tarmoqlarda mashxurlikka erishgan shaxslar* – shaxsiyati va o'zaro bog'liligi tufayli izdoshlarga ega bo'lgan odamlardir. Odatda o'zlarining ijtimoiy tarmoqlarida matn va video joylashtirish, blog yozish, yoki fotosuratlar almashish orqali faoldirlar. Kuzatuvchilar ularni "haqiqiy" yoki "o'zaro aloqador" deb bilishlari sababli, ularning gaplari va maslahatlarini jiddiy qabul qiladilar.

*Mikro ta'sir qiluvchilar ya'ni o'z sohasida mashxurlikka erishganlar* – ilm-fan, sanoat, iqtisodiyot, biznes va boshqa tarmoqlarda mashxurlikka erishgan shaxslar sanaladi. Shuningdek ular mutaxassis ta'sir o'tkazuvchilar sifatida ham tanilgan bo'lib, ma'lum bir sohadagi bilimlari tufayli obro'ga ega bo'lgan odamlardir. Ular milliy qadriyatlar ni o'zlarining tarmoqdagagi sahifalarida gapirganda yoki yozganda, ularning kuzatuvchilari bildirgan fikrlariga ishonishadi.

*Kontent yaratuvchilar*. Ular orasida professional bloggerlar, vloggerlar, fotograflar va boshqalar bor bo'lib, ular tomonidan tayyorlanadigan har bir kontent qisqa fursatlar da keng tarqaladi va qamrovga erishiladi. Ularni kuzatuvchilar soni juda ko'p bo'lganligi va tinimsiz foydalanuvchilari uchun maxsulot yaratishayotganligi barchani birdek kuza tishga undaydi. Shu sababdan kontent yaratuvchilar orqali milliy qadriyatlarni targ'ib etish juda foydali sanaladi.

Yuqorida shaxslardan birdek foydalanish ba'zan xatolikka olib kelishi mumkin. Shu sababdan ta'sir qiluvchi


shaxslarni tanlashda ulardagi bir nechta fazilatlarga alohi-da e'tibor berish lozim:

- ta'sir qiluvchining shaxsiy xabari milliy qadriyatlar bilan qay darajada mosligi;
- ta'sir etuvchining kuzatuvchilar bilan qanchalik qiziquvchanligi;
- ta'sir etuvchining auditoriya tomonidan qanchalik ishonchli deb hisoblanishi;
- ta'sir etuvchining ta'sir doirasi yoki uning kuzatuvchilar soni ko'pligi;
- ta'sir etuvchining ma'naviy olamining boyligi;
- o'z ishiga nisbatan mas'uliyati hamda vatanparvarligi va boshqalar.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, butun dunyoda milliy qadriyatlar turli omillar natijasida transformatsiya-ga uchrayotgani hamda texnika taraqqiyotining bugungi kundagi rivojini hisobga olgan holda uni saqlab qolish va kelajak avlodga yetkazishda ijtimoiy tarmoqlardan keng ko'lamma foydalanish o'rindir.

Milliy qadriyatlarni saqlab qolish hamda uni ijtimoiy tarmoqlarda keng targ'ib etishda quyidagi takliflarni amalga oshirish o'rinni deb hisoblaymiz:

- yoshlar yo'naliishida amalga oshiriladigan loyihalarda milliy qadriyatlarni ularga singdirishda ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishga alohida e'tibor qaratish;
- ma'naviyat va ma'rifat, tarbiya sohasida bugun muayyan muammolar, kamchiliklar borligi jamiyat tomonidan e'tirof etilayotganligini hisobga olgan holda bu boradagi ishlarga yondashuvni o'zgartirish;
- odamlarimizda jahonda yuz berayotgan qadriyatlar yemirilishidan xavotiri borligi, uning mamlakatimiz taraqqiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligi bilan bog'liq ijtimoiy kayfiyat mavjud. Shu sababdan, ijtimoiy tarmoqlar orqali milliy qadriyatlarni aholiga targ'ib qilish zarur.



## **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Mardonov Sh.va b. *Pedagogik aksiologya (o'quv qo'llanma)*. – T.: "Fan va texnologiya", 2013.
2. Muhammad Amin Yahyo. *Internet tahdidlaridan himoya: Yordamchi o'quv qo'llanma*. – T.: Movorounnahr, 2016.
3. Erkahev A. *Ma'naviyatshunoslik. 2-tom.* – T.: "Ma'naviyat", 2018.

**Jamol JURAKULOV,**

*Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti mustaqil tadqiqotchisi*

## **MILLIY AXBOROT SIYOSATINING INSON MA'NAVIY BORLIG'INI YUKSALTIRUVCHI YO'NALISHLARI**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada globallashgan dunyomizda ro'y berayotgan voqealar ijtimoiy hayotimizni domiy ravishda o'zgartirib borayotganligi, axborotga bo'lgan ehtiyoji hech qachon hozirgidek dolzarb bo'lmasan va axborot siyosati davlat e'tiboridaligi tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** jamiyat, axborot, axborot siyosati, axborotlashgan jamiyat prinsipi, jamiyat taraqqiyoti.

Axborot sohasida milliy manfaatlarimiz hamda xalqimiz madaniyati va ma'naviyatining o'ziga xosligini saqlashni ta'minlashga qaratilgan milliy axborot-kommunikatsiya sohasini rivojlantirishning uzoq muddatli strategiyasi sifatida nomzod quyidagi yo'nalishlarni belgilab olgan: "Milliy axborot tizimlari va milliy axborot resurslarini rivojlantirish, milliy axborot xavfsizligini ta'minlash vazifalarini hal etish; aholi, ayniqsa, qishloq joylardagi fuqarolarning yuqori darajada axborotga ega bo'lishini ta'minlash; idoralararo va idora majmualarining axborot tizimlarini birlashtiruvchi milliy axborot tizimlari va milliy axborot resurslarini, ayniqsa, internetning milliy segmentlarini rivojlantirish" va boshqalar shular jumlasidandir.

"O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sod Farmoni bilan tasdiqlangan 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini amalga oshirish, shuningdek, ommaviy axborot vositalarining qonuniy manfaatlarini himoya qilishni kuchaytirish, ular faoliyatini har tomon-

lama qo'llab-quvvatlash, kadrlar salohiyati va raqobat-bardoshligini yanada oshirish, jurnalistika sohasini rivojlantirish”[1] maqsadida milliy axborot siyosatining yangi bosqichi sifatida inson ma’naviy borlig’ini yuksaltiruvchi yo’nalishlarni belgilandi.

2022-2026 yillarga mo’ljallangan yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasining 7 yo’nalishida yaniy mam-lakatimiz xavfsizligi va mudofaa salohiyatini kuchaytirish, ochiq, pragmatik va faol tashqi siyosat olib borish deb belgilangan yo’nalishning (1chisi) 89 maqsadida “Fuqarolarning axborot olish va tarqatish erkinligi borasidagi huquqlarini yanada mustahkamlash”[2], borasida ham aloxida to’xtalganligi milliy axborot siyosatining inson ma’naviy borlig’ini yuksaltiruvchi yo’nalishlaridan biriligi ni kuzatish mumkin.

Axborot siyosati – axborotni yaratish, foydalanish, saqlash, kirish, aloqa qilish va tarqatishni rag’batlantiradigan, taqiqlovchi yoki tartibga soluvchi barcha davlat qonunlari, qoidalari va siyosatlari yig’indisidir.[3]

Axborot siyosatini o’z ichiga olgan bir qancha asosiy masalalar mavjud. Ijtimoiy hayotni demokratlashtirish va tijoratlashtirish uchun axborotdan foydalanish bilan bog’liq davlat siyosatining yeng muhim masalalari. Bu masalalarga, jumladan, raqamli tafovut, intellektual mulk, iqtisodiy qoidalari, so’z yerkinligi, ma’lumotlarning maxfiylici yoki maxfiyligi, axborot xavfsizligi, kirishni boshqarish va ommaviy axborotning tarqalishini tartibga solish kabi raqamli muhit kiradi. Axborot siyosati uchun ma’lum toifadagi ma’lumotlar alohida ahamiyatga yega.[5]

Bularga yangiliklar, sog’liqni saqlash va aholini ro’yxatga olish ma’lumotlari kiradi. Axborot siyosati axborot jamiyatlari uchun asosiy muammo hisoblanadi. Davlatlar industrializmdan postindustrializmga o’tish jarayonida axborot masalalari tobora dolzarb bo’lib bormoqda. Ax-

borot siyosati borasida sotsiolog Daniel Bellning so'zlariga ko'ra, yendi muhim narsa mushaklarning xom kuchi yoki yenergiyasi yemas, balki ma'lumotdir.[6] Bugungi kunimizda barcha jamiyatlar ma'lum darajada axborotga asoslangan bo'lsada, axborot jamiyatlari deyarli butunlay kompyuterlashtirilgan axborotga bog'liq.

"Axborot siyosati" atamasini birinchi bo'lib qo'llagan tadqiqotchi olim Mark Uri Porat yozganidek: Axborot iqtisodiyotining asosi, bizning yangi markaziy faktimiz-kompyuterdir va inson qobiliyatlari. Kompyutering telekommunikatsiyalar bilan uyg'unligi, dedi u. Axborot siyosati kela-jakning siyosat muammolarini keltirib chiqardi.[7]

Odamlar hamma narsaga qiziqishadi. Associated Press agentligining sobiq rahbari Kent Kuper tomonidan aytilan "Jamiyat axborot olish huquqiga ega" iborasi 1953 yilda Garold Kross tomonidan yozilgan kitobga nom tanlanganidan keyin jurnalistlar xotirasiga mustahkam muhrlanib qoldi. Bu ibora ommaviy axborot vositalariga nisbatan qabul qilinigan qarorlarda mustahkam o'rinnegallagani bejiz emas.

Axborot siyosatining bunday talqini telekommunikatsiya, kompyuter texnologiyalarini yangilash, axborotni raqamlashtirish, axborot sanoatining turli tarmoqlari o'rtasidagi to'siqlarni bartaraf etishning jadal rivojlanayotgan jarayoniga asoslanadi. Davlat Axborot siyosatini iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va milliy manfaatlaridan kelib chiqqan holda olib boradi. Davlat tarixidagi tub islohot o'zgarishlari bilan bog'liq holda to'g'ri tanlangan axborot siyosati jamiyatning o'ziga xos moddiy va ma'naviy qadriyatlarini asrab-avaylagan holda ideallar sari yetaklaydi.

Axborotlashgan jamiyat prinsipi bilan bog'liq yana bir muammo shundaki, bu atamaning ta'rifi bo'yicha kelishuvga erishish oson emas, chunki u nafaqat san'at, matnlar, tasvirlar va ilmiy nazariyalarni, balki yolg'on, futbol natijalari, arzimas narsalarni ham o'z ichiga oladi. shaxsiy

harflar va xatolar. o‘z ichiga oladi va hokazo. Axborot samarali va foydali bo‘lishi shart emas, u zararli ham bo‘lishi mumkin. “Shunday qilib, u ma‘lumotlar oqimi va uni qayta ishlashni o‘z ichiga olgan jamiyat miqyosidagi konstitutsiyaviy harakatlar bilan boshqa har qanday qaror qabul qilish amaliyotini o‘z ichiga oladi”[4].

Hozirgi qo‘llanishda ko‘plab atamalar u bilan kuchli bog‘liq, ammo paydo bo‘layotgan global iqtisodiy tartibga turli nuqtai nazardan yondashadi. “Axborotlashgan jamiyat” bu, albatta, eng keng qamrovli bo‘lib, bu erda iqtisodiyot jamiyatning bir qismidir. Axborot asri – bu rivojlanayotgan iqtisodiy tartib emas, balki kompyuterlarning tarqalishi va bilim iqtisodiyotining paydo bo‘lishi o‘rtasidagi 30 yillik davr bilan chegaralangan. Bilimlar asri ular bilan savdo qilinadigan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlardan ko‘ra ko‘proq mazmunga qaratilgan. Kompyuter – bu inqilob, axborot inqilobiva bilim inqilobi biz rivojlanayotgan yakuniy holatga emas, balki turli xil inqilobiy o‘zgarishlariga ishora qiladi.

Ijtimoiy tarmoqlar esa ommaviy, global miqyosidagi hamkorlikni nazarda tutadi. Garchi sinonim bo‘lib ko‘rinsa ham, har bir atama bir xil narsani boshqa nuqtai nazardan ko‘rib chiqadi. Shu bilan bir qatorda, yangi iqtisodiy tartib ularning barchasini va hatto hali to‘liq paydo bo‘lmagan bir nechta atributlarni birlashtirishi mumkin.

Globallashuv va axborotlashgan jamiyatning shakllanishi sharoitida xalqlar va davlatlarning rivojlanishi axborotni qayta ishlash, ishlab chiqarish, saqlash, saqlash, tahlil qilish va tarqatish qobiliyati va imkoniyatlariga ko‘proq bog‘liqidir. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari ta’sirida axborotlashgan jamiyatning shakllanishi jamiyat va davlatlarning taraqqiyot yo‘nalishini o‘zgartirib, mehnat va ishlab chiqarish faoliyatini yo‘lga qo‘yish hamda taraqqiyot uchun yangi va qulay imkoniyatlar yaratdi.

Axborotlashgan jamiyatning mohiyatini to'g'ri va chuqur tushunish zamonaviy jamiyatlarni shakllantirish yo'llari va vositalarini belgilashda mumkin bo'ladi. Axborotlashgan jamiyatning mohiyati va o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda iqtisodiy rivojlanish qoidalari o'zgarganligini aytish mumkin. Binobarin, hozirgi zamon sharoitida jamiyat taraqqiyoti va taraqqiyotiga ko'maklashish uchun o'tmishdan farq qiluvchi yangi, foydali vositalardan foydalaniш zarur. Jamiyat taraqqiyotining bunday zarur sharti faqat axborotlashgan jamiyatni shakllantirish orqali mumkin. Axborotlashgan jamiyatda iqtisodiyot yuqori rivojlanish sur'atiga ega bo'lib, bu ishlab chiqarish shakli, sifati va hajmining o'zgarishiga, shuningdek, mehnat bozori tablalarining o'zgarishiga va unda yangi kasblarning paydo bo'lishiga olib keladi.

Endi insoniyatning agrar jamiyat sharoitida yashab, mehnat qilgan bosqichidan boshlab insoniyat jamiyatining shakllanishini sanoat jamiyati, keyin esa postindustrial jamiyat yoki axborotlashgan jamiyatning o'zi bilan solishtirganda tahlil va o'rgansak, Bu davrda inson hayoti qanday o'zgorganini, mehnat bozorida yangi kasb va malakalar paydo bo'lganini ko'ring. Eng muhimi, jamiyatning siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotida ulkan tub o'zgarishlar ro'y berdi. Bu o'zgarishlar texnologiya va axborotlashgan jamiyatning shakllanishi ta'sirida yuz berdi va dunyoni yangi rivojlanish bosqichiga olib chiqdi. Endi biz postindustrial jamiyatga (axborotlashgan jamiyat) o'tish sharoitida yuz bergen o'zgarishlarni aniqlashimiz va uning yaqin kela-jakda inson hayotiga ta'sirini aniqlashimiz kerak. Chunki o'tish davrining barcha bosqichlarida kishilar hayoti va faoliyatida chuqur o'zgarishlarni boshidan kechirgan. Axborotlashgan jamiyatda kishilar hayoti va faoliyatida yangi tartib vujudga keladi, munosabatlar nisbatan yangi shaklda o'rnatiladi. Ushbu o'zgarishlar odamlarning mehnat

faoliyatini qamrab oladi, texnologiya va axborotlashgan jamiyatning shakllanishi ta'sirida yangi mutaxassisliklar va kasblar paydo bo'ladi. Bu bosqichda eng muhimi shundaki, odamlar o'z ishini ish joyida emas, balki o'z uyida boshlash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Ya'ni, muayyan bosqichlarda odamlarning mehnat faoliyati erdan korxonaga, korxonadan esa uyg'a o'tadi. Oxirgi bosqich axborotlashgan jamiyatga tegishli bo'lib, turli kasb va ma'lumotga ega bo'lgan odamlar AKTdan foydalangan holda o'z ish va xizmatlarini uyda masofadan turib amalga oshiradilar. Axborotlashgan jamiyatda nafaqt yangi malakalar paydo bo'ladi.

Zamonaviy davrda texnologiya va internetdan to'g'ri va samarali foydalanayotgan jamiyatlar bir qancha ish va xizmatlarni uyda masofadan turib boshqarishi mumkin. Ayniqsa, mobil telefonlar va veb-saytlar orqali mijozlarga xizmat ko'rsatish va maslahat berish bilan shug'ullanadigan kompaniyalar maslahatchilari. Zamonaviy sharoitda ushbu turdag'i xizmatni uyda olib borish va uning samaradorligini ofisdan kuzatib borish foydalidir. Eng yangi texnologiyalar va yuqori sifatl'i internetdan foydalanish imkoniyatini hisobga olgan holda, bunday xodimlarning ish joyida bo'lishiga hojat yo'q. Shuningdek, ish natijalari muhim bo'lgan va shu bilan birga ish joyida uzoq muddatli ishslashni talab qilmaydigan muhandislar, dizaynerlar va boshqa mutaxassislar. Advokat va psixologlar ham uydan turib axborot texnologiyalaridan foydalangan holda o'z xizmatlarini hech qanday to'siqlarsiz taqdim etadilar.

Shu nuqtai nazardan, bir qator kasblar nafaqt texnologiyadan foydalanish qobiliyatiga ega bo'ladilar, balki odamlar buni mustaqil ravishda amalga oshirish qobiliyatiga ham ega bo'ladilar. Bugungi kunda Amerika, Yevropa, Xitoy va boshqa texnologik rivojlangan mamlakatlarning yirik kompaniyalari xuddi shu masala, ya'ni xodimlarning korxonadan tashqarida masofaviy mehnat faoliyatini

yo'lga qo'yish bo'yicha o'quv va tadqiqot ishlarini olib bor-moqda va uni amalga oshirish yo'llarini izlamoqda. Shunday qilib, kelajakda paydo bo'ladigan texnologiyalar uyda qilish uchun qulay bo'lgan ishlar sonini oshiradi.

Shunday ekan, inson o'zining barcha qonun-qoidalari va qadriyatlari bilan zamonaviy davrda yashashni istasa, internet va kompyuter orqali uyda tugallanishi mumkin bo'lgan va shu bilan birga jismoniy mehnatni talab qilmaydigan ko'nikmalarni o'rganishi zarur. Binobarin, biz zamonaviy fanlarni o'rganish orqali nafaqat o'zimizni axborotlashgan jamiyatda hayotga, mehnatga tayyorlashimiz, balki o'smirlar va yoshlarga agrar jamiyatga mansub an'anaviy kasb-hunarlarni tanlash, qanday zamonaviy va foydali kasb va malakalarni o'rganishimiz kerak, Aynan shu yo'l bilan biz jamiyatning tafakkur darajasini axborotlashgan jamiyat ehtiyojlariga moslashtira olamiz. Chunki tafakkur saviyasi agrar jamiyat qadriyatlari asosida shakllangan kishilar uchun texnikaga egalik yaxshi natija bermaydi. Yoki ularni har qanday vosita bilan ishlatishdan bosh tor-tadilar yoki ulardan to'g'ri va samarali foydalanmaydilar. Bugungi kunda dunyo qisman o'tish bosqichida va qisman axborotlashgan jamiyatni shakllantirish bosqichida. Shuning uchun mehnat bozori uchun jamiyatning ushbu turiga mos kadrlarni tayyorlash zarur. Chunki agrar jamiyatga xos bo'lgan mutaxassisliklar axborotlashgan jamiyatda o'z ahamiyatini yo'qotadi. Bunday intellektual salohiyatga ega bo'lganlar jamiyat taraqqiyotiga xizmat qila olmaydi, ularning malakasiga jamiyat ham muhtoj emas

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

[1] <https://president.uz/uz/lists/view/5293>

[2] 2022–2026 йилларга мўлжалланган янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси ва уни "Инсон қадрини

*улуғлаш ва фаол маҳалла йили”да амалга оширишга оид давлат дастурини тасдиқлашни Президент Фармони.*

[3] Weingarten, F.W. (1989) *Federal Information Policy Development: The Congressional perspective*. In C. McClure, P. Hernon and H. Relyea (eds), *United States Government Information Policies: views and Perspectives* (Ablex, Norwood, NJ).

[4] Braman, S. (2011). Axborot siyosatini aniqlash. Axborot siyosati jurnali 1-5. <http://jip.vmhost.psu.edu/ojs/index.php/jip/article/view/19/14> Arxivlangan 2012-01-30 Wayback Machine-da.

[5] Meyson, Merlin Gell. (1983). *Kutubxonalar va axborot xizmatlarida federal rol*. White Plains, NY: Knowledge Industry Publishers Inc.

**Kamoliddin TO'RAYEV,**  
*Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti ilmiy xodimi*

## **GLOBALASHUV SHAROITIDA VIRTUAL TAHDIDLARGA QARSHI KURASH DAVR TALABI**

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada gloaballashuv sharoitida virtual tahdidlarga qarshi kurash davr talabi ekanligi ilmiy tahlil etilgan. Shuningdek, maqolada bugungi kunda dunyoda miqyosda turli tajovuzkor, buzg'unchi g'oyalar zamonaviy axborot texnologiyalari orqali butun dunyoga tarqatilayotgan vayronkor g'oyalar g'oyaviy – mafkuraviy tahdid sifatida dunyo jamoatchiligi ongi, ruhiyatiga jiddiy ta'sir o'tkazyotgani borasidagi fikrlar yoritlgan.

**Kalit so'zlar:** gloaballashuv, ma'naviyat, mafkura, qadriyat, vayronkor g'oya, virtual tahdid, tajovuzkor, ma'naviy meros, taraqqiyot.

Dunyo miqyosida siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy sohalarda integratsiya jarayonlari tobora kuchayib bormoqda. Bu jarayon barcha sohalar qatori ma'naviyat va ma'rifat sohalarida yangi axborot-kommunikatsion texnologiyalarini tadbiq qilish va rivojlantirishni taqoza etmoqda. Zero, bugungi zamon shiddati axborot texnologiyalaridan keng foydalanish talabini dolzarb vazifa sifatida qo'yemoqda. Bu haqda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev qayd etganidek: "Hozirgi globalashuv davrida, inson ongi va qalbi uchun kurash kuchaygan bir paytda turli g'oyaviy tahdid va xurujlar jamiyatimizning ma'naviy hayotiga ta'sir ko'rsatishning kuchli quroli sifatida namoyon bo'lmoqda"<sup>1</sup>.

---

<sup>1</sup> Шавкат Мирзяев. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси. Тошкент: "O'zbekiston" нашриёти. 2021.Б- 263.

Binobarin, bugungi kunda dunyoda miqyosda turli tajovuzkor, buzg'unchi g'oyalar zamonaviy axborot texnologiyalari orqali butun dunyoga tarqatilayotgan afsuski, hech kimga sir emas. Ayniqsa, globallashuv sharoitida taxlikali ko'rinishga ega bo'lgan vayronkor g'oyalar g'oyaviy – mafkuraviy tahdid sifatida dunyo jamoatchiligi ongi, ruhiyati, madaniyati va ma'naviyatiga jiddiy ta'sir o'tkazmoqda. Zero, mazkur omillar shiddat bilan o'zgarayotgan tahlikali zamonda jiddiy fikrlashni taqoza etmoqda.

Dunyo miqyosida zamonaviy axborot maydonidagi harakatlarning jadallahushi oqibatida mafkuraviy ta'sir o'tkazish nihoyatda o'tkir qurolga aylanmoqda. Natijada, mazkur holatdan turli xil siyosiy kuchlar o'z manfaatlar va maqsadlari yo'lida foydalanishga alohida e'tibor qaratishmoqda. Shu o'rinda, har qanday axborot hurujlari bevosita axborot qurollari orqali amalga oshiriladi. Bu haqda, Rossiyalik tadqiqotchi D.Lavsovning fikriga ko'ra, "axborot qurollari deganda muayyan xalq, millatning mentaliteti, madaniyati, ma'naviyati, dini, davlatning informatsion-texnologik, harbiy infratuzilmasiga destruktiv tarzda salbiy ta'sir ko'rsatadigan maxsus dezinformatsion (ataylab noto'g'ri tarqatilgan axborot) texnologik vositalar tizimi tushuniladi". Binobarin, axborot xurujining tahlikali shakli kishilar ongiga g'oyaviy va mafkuraviy ta'sir o'tkazishga urinishni namoyon etadi. Axborot xuruji – muayyan kuchlar tomonidan kishilar ongi va qalbiga yot g'oyalar ni singdirish maqsadida ularning hissiyotlari, e'tiqodi va tuyg'ulariga ta'sir etishning mafkuraviy omillaridan, jamiyat turmush tarzi va mentalitetdagi o'zgarishlarni amalga oshirish uchun unga ma'naviy, moddiy, ruhiy ta'sir o'tkazishning noan'anaviy va noxolis usullaridan foydalanish asosida siyosiy maqsadlarini amalga oshirish tushunchasini anglatadi.

Dunyoviy taraqqiyotdan ma'lumki, insoniyatning ongi borgan sari rivojlanib, fan-texnika sohasida ulkan kashfiyotlar amalga oshirilmoqda. Bugun hayotimizni ommaviy axborot vositalari, telekommunikatsiya va texnik vositalar-siz tasavvur etish mumkin emas, albatta. Bugungi kunda internet auditoriyasining katta qismini aynan yoshlar tashkil etadi. Zamonamiz yoshlarining 70 foizi o'z qiziqish va sevimli mashg'ulotlari haqida so'z yuritganda sport, do'stlar bilan suhbatlashish, ma'naviy va madaniy hordiq chiqarish bilan bir qatorda kompyuter texnologiyalari, Internet-ga bo'lgan qiziqishini birinchi o'rinda tilga oladi. Ayniqsa, ijtimoiy tamoqlar yoshlarning kundalik hayotining ajralmas bir qismiga aylanib ulgurmoqda. Bu haqda professor Muhammadjon Quronovni fikriga ko'ra, aksariyat yoshlar bugungi kunda o'z bilimlarini kompyuter texnologiyalari, ayniqsa, internet yordamida boyitmoqda, lekin ular orasida "Internet xonalarida foydali bilim olish o'rniga o'yin uchun soatiga 300 so'm ketkazayotgan"<sup>1</sup> yoshlar ham to-piladi. To'g'ri, hozirda O'zbekistonda ham bu sohani tartibga solish uchun huquqiy asos yaratilgan bo'lsada, internet kafelarida hamon voyaga yetmagan yoshlarni turli internet o'yinlari bilan band bo'layotganligini guvohmiz.

Bugungi kunga kelib, dunyoning yirik davlatlaridagi si-yosiy markazlar axborot xurujlarini amalga oshirish orqali rivojlanayotgan mamlakatlarning jahon axborot makoniga chiqish jarayonini izdan chiqarishiga intilmoqda. Xususan, ayrim yetakchi davlatlar muayyan mamlakatdagi xukumat boshqaruvi, davlat to'g'risida xolisona fikrlarni amalda mavjud emasligi to'g'risidagi g'oyani ilgari surishga inti-layotganligini ta'kidlash o'rnlidir.

O'z navbatida mavjud boshqaruv tuzumiga nisbatan norozichilik kayfiyatlarini amalga oshirish uchun mahalliy aholi vakillarini ongini chalg'itishda ularning ongi va psix-

<sup>1</sup>Куронов М. Оталар китоби. –Т.: О'zbekiston. 2007. Б-9

ologiyasini o'zgartirish maqsadida aniq ma'lumotga ega bo'lмаган ахборотни тарқатишмоқда. Ахборот xуруллари xусусиятларидан бири shundaki, ular avvalo, millatning tarixan shakllangan madaniyati, qadriyatлari va uning o'ziga xosligini barbod etish bilan bir qatorda insonlarni millat va xalq sifatida yashash xavf ostida qolishiga zamin yaratadi. Madaniyat, ma'naviyat va ma'rifatga tahdid solish orqali xalqni va mamlakatning ma'naviyati va ma'rifatini barbod etishi oqibatida har qanday xalq, millat e'tiqodsizlik girdobiga maxkum bo'ladi. Shu tariqa, ma'naviyati izdan chiqqan bunday o'lkada, mamlakatda ommaning olomon-lashuvi, siyosiy manqurtlik, beparvolik avj olishi oqibatda xalqning mentaliteti milliy g'urur, iftihor, milliy qadriyatlар asta-sekin zaiflasha boshlaydi. Vaholanki, ana shunday o'lkani, mamlakatni, uning xalqini mustamlakachilik kishanlarda ushlab turish, itoatkor qulga aylantirish ancha oson va "silliq" kechadi. Bugun dunyo shiddat bilan o'zgarib bormoqda.

Bugun dunyo bo'yicha xalqlarni o'zligidan yo'qotish uchun "puxta" ishlab chiqilgan axloqsizlik g'oyalari afsuski, zimdan singdirilmoqda. Ya'ni bir jinsli nikoh, kosmapoltizm, nigelizm, egoizm g'oyalari keng yoyilmoqda. Mafkura maydonida olib borilayotgan "Axborot urushi bu aqllar kurashti" ketmoqda. Kim axborotda g'olib chiqsa, usha davlat dunyoga egalik qiladi. Usha mashxur jumla 1946 yil 5 martda B.Britaniya bosh vaziri U. Cherchell tomonidan aytilgan "Kim axborotga egalik qilsa, dunyoga egalik qiladi" degan so'zi bugun o'z isbotini topmoqda.

Tarixdan ma'lumki, biron bir xalqni o'ziga tobe qilishni istagan kuchlar avvalo uni o'zligi, tarixi, ma'naviyati va madaniyatidan judo qilishga alohida e'tibor qaratishgan. Zero, ma'naviyati zabt etilgan har qanday xalqda o'z tartiblarini o'rnatish mustamlakachilarning azaliy, tarix sinovidan o'tgan an'anaviy usullaridan biri bo'lib keldi. Ma'naviy isti-

lochi mamlakat ma'nan qashshoq xalqni bora-bora o'ziga singdirib yuborishni, buning uchun o'z mafkurasi va g'oyalarini ular orasiga joriy etish, madaniyatiga rahna solish orqali ma'naviy jihatdan taraqqiy etishiga yo'l qo'ymaslikni o'z siyosatining asosiy masalasi deb qaraydi.

Globallashuv mafkura poligonlarida g'oyaviy-mafkuraviy kurashning tobora avj olishi yoshlar ongi va qalbin ni ekspansiya etishga qulay zamin yaratmoqda. Natijada, bugungi davr va zamon shiddati g'oyaviy-mafkuraviy kurashlarning tobora avj olayotganini anglash qiyin emas. Zero, hozirgi globallashuv davrida milliy ma'naviyatimizga qarshi qaratilgan ma'naviy- axloqiy, ruhiy va axborot xurujlari shiddat bilan rivojlanib bormoqda. Mutaxassislar hozirda axborot xurujlarining muhim qurollaridan biri sifatida ommaviy axborot vositalari va informatsion tazyiqlarning juda muhim ekanligini ta'kidlashadi. Bu haqda AQSh Markaziy razvedka boshqarmasning "daho"si hisoblangan A.Dallesning fikricha, "Inson miyasi, odamlarning ongi o'zgaruvchanlikka moyildir. A.Dalles o'z fikrida, tartibszilik, palapartishlik urug'larini sochish orqali biz ularning o'ziga sezdirmagan holda asil qadriyatlarni unutib, soxta qadriyatlarga ishonishlariga erishishimiz mumkin. Insonlar ongi uchun ularning bolalik va o'smirlilik chog'lardanoq kurashish, yoshlarini o'zlari o'ylab topgan soxta qadriyatlар quliga aylantirish, qolaversa, har bir millat orasida o'z maslakdoshlarimizni topish hamda ularni saflarini kengaytirish orqali asta-sekin bo'ysunishni istamagan har qanday mag'rur halqni ham bosh egishga majbur qilamiz, aks holda esa misli ko'rilmagan fojealarga giriftor etamiz"<sup>1</sup> - deya ta'kidlagan. Shu o'rinda, A.Dallesning yuqoridagi fikriga e'tibor qaratilsa, axborot xuruji xar qanday davlat

<sup>1</sup> М.Сафаров, Э.Бахт. Сабаблар ва оқибатлар. Информацион уруш ва ундан мақсад. Қонун ҳимоясида. Т: Ўзбекистон республикасининг бош прокуратурасининг оммабоп юридик журнали 2005.Б-12.

va jamiyat xayotidagi barqarorlikka putur yetkazishini anglashimiz lozim. Taniqli sotsiolog Ferdinand Tonnies fikricha, "Matbuot – haqiqiy zarur ijtimoiy fikr" yaratish quroli, mazkur qurolni ishlatish mexanizmini amalgalish tufayli haqiqiy qurol vazifasini o'tash mumkinligi to'g'risidagi g'oyani ilgari suradi.

Dunyodagi ayrim yirik davlatlar mustaqil siyosat yuri-tayotgan mamlakatlarga nisbatan ularning ichki siyosatida vijdon erkinligi jarayonlarida sodir bo'layotgan bir vaqtda avvalo, xorijdan yo'naltirilayotgan g'oyaviy-mafkuraviy tahdidlarning asl maqsadlarini anglash lozim. Ayniqsa, ayrim siyosiy kuchlarning olib borayotgan axborot siyosatiga e'tibor qaratilsa, qadimgi Xitoy faylasufi va harbiy arbobi Sun szi tomonidan mil.av. VI asrda yozib qoldirilgan "Nasihatlari"ni yodga soladi: "Dushman mamlakatida-gi barcha yaxshi narsalarni yo'qotishga harakat qiling; dushman tarafining arboblarini jinoiy ishlarga jalb eting; dushman mamlakatining rahbariyati obrusiga putur yetkazing; shu maqsadda eng razil va pastkash odamlarni ishga soling; dushman mamlakatining fuqarolari orasida nizo va to'qnashuvlar keltirib chiqarishga intiling; yoshlar ni keksalarga qarshi gij-gijlang; barcha vositalar bilan xuk-mdorlar ishiga halaqit bering; dushman lashkarlarining tartibi va ta'minotiga xalaqit bering; dushman taraflarining askarlari ruhini musiqa va ashula bilan zaiflashtiring; dushmaningiz an'analarini qadrsizlantirishga va ularni yaratganga ishonchini yo'qotishga intiling; dushman taraflarga yengiltak, buzuq ayollarni yuboring. Toki ular usha mamlakatning buzulishi, aynishiga ko'maklashsin; ayg'oqchilardan axborotni sotib olish uchun mukofat va sovg'alarni ayamang"<sup>1</sup> – deya ta'kidlagan edi.

<sup>1</sup> Баҳриддин Примов. Ахборот оқимининг ахлоқий қадриятларга таъсири. ДЖҚА. Жамият ва бошқарув журнали. Т.: "Ўзбекистон" НМИУ. 2011. 2 сон.Б- 21.

O'z navbatida, mazkur fikrlar zamiriga e'tibor qaratilsa, xorijiy davlatlar tomonidan muayyan mintqa va hududlarga nisbatan axborot xurujlariini amalga oshirilishi oqibatida jamiyat hayotidagi azaldan shakllangan qadriyatlar, milliy ma'naviyat va madaniyatga zarba berish orqali mamlakat miqyosida amaldagi boshqaruv tuzumiga nisbatan norozichilik kayfiyatlarini keltirib chiqarilishi natijasida o'zaro diniy, milliy, etnik ziddiyatlar tufayli barqarorlikni izdan chiqishi uchun zamin yaratishini anglash lozim. Xulosa qilib aytganda, jamiyat xavfsizligiga raxna soluvchi, mamlakat barqarorligiga putur yetkazishga intilayotgan mafkuraviy, g'oyaviy va informatsion xurujlar va xatarlarga qarshi doimo ogoh bo'lish har bir yurdoshimizning bugungi kundagi muqaddas burchi ekanligini teran anglashi lozim. Zero, virtual tahdidlarni oldini olish, axborot xavfsizligini ta'minlash avvalo, mamlakatni ichki va tashqi xavflardan himoya qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Zoирxo'ja O'LMASXO'JAYEV,

*Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti kichik ilmiy xodimi*

**GLOBAL LASHUV SHAROITIDA OMMAVIY  
AXBOROT VOSITALARIDA MILLIY  
QADRIYATLARNING YORITILISHI**

"Biz yaratayotgan yangi O'zbekistonning mafkurasi ezgulik, odamiylik, gumanizm g'oyasi bo'ladi. Biz mafkura deganda, avvalo, fikr tarbiyasini, milliy va umuminsoniy qadriyatlar tarbiyasini tushunamiz. Ular xalqimizning necha ming yillik hayotiy tushuncha va qadriyatlariga asoslangan".[1] Ma'lumki, bugun dunyoda keskin kurash va raqobat hukm surmoqda, manfaatlar to'qnashuvi kuchaymoqda. Global lashuv jarayonlari insoniyat uchun beqiyos yangi imkoniyatlar bilan birga kutilmagan muammolarni ham keltirib chiqarmoqda. Milliy o'zlik va ma'naviy qadriyatlarga qarshi tahdid va xatarlar tobora ortmoqda. Faqat o'zini o'ylash, mehnatga, oilaga yengil qarash, iste'molchilik kayfiyati turli yo'llar bilan odamlar, ayniqsa, yoshlar ongiga ustamonlik bilan singdirilyapti.

Jahonda kechayotgan keskin global lashuv jarayonlarida axborot texnologiyalari inson faoliyatining barcha sohalariga tatbiq etilmoqda. Jumladan, zamonaviy ommaviy axborot vositalar hozirgi zamon sivilizatsiyasining muhim voqeligiga aylangan, taraqqiy etgan davlatlarda muhim ehtiyoj vositasi hamda ommaviy muloqot sub'yekti darajasiaga ko'tarildi.

Yangi O'zbekiston sharoitida milliy qadriyatlarni yoritishda ommaviy axborot vositalarining shuningdek, ijtimoiy tarmoqlarning rolini kuchaytirish, ijobiy tomoniga o'zgartirishni davrning o'zi taqozo etmoqda. Jumladan, mamlakat tarixi va hozirgi yutuqlarini butun dunyoga targ'ib qilish-

da va shu orqali davlat imiji, obro'sini oshirishda ijtimoiy tarmoqlar imkoniyatlaridan to'g'ri va maqsadli foydalanish borasida salmoqli ishlar amalga oshirildi. "Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo'lsa, uning joni va ruhi ma'naviyatdir. Biz yangi O'zbekistonni barpo etishga qaror qilgan ekanmiz, ikkita mustahkam ustunga tayanamiz. Birinchisi – bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyot. Ikkinchisi – ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma'naviyat".[2] Insonlar qalbi va ongi uchun katta kurashlar kechayotgan globallashuv davrida milliy qadriyatlarga e'tiborni kuchaytirish dolzarb vazifadir. Zero, bugun o'sib kelayotgan yosh avlodni milliy qadriyat asosida tarbiyalash, ularning qalbida o'z xalqi, Vataniga mehr-sadoqat tuyg'usini kuchaytirish, har-xil buzg'unchi kuchlarning axborot xurujlaridan ogoh etish, munosib himoya qilishdan iboratdir.

Jahon olimlarining globallashuv haqidagi fikrlaridan kelib chiqqan holda, globallashuvga quyidagicha ta'rif berish mumkin: "Globalashuv insonlar hayotini yaxshilovchi, faoliyatlarida yengillik beruvchi, shu bilan birga og'ir oqibatlarga olib keluvchi jarayondir".

Ommaviy axborot vositalari zamонавијати тараққиётининг зарурӣ шартидир. Улар ҳам алоҳида шаҳс, ҳам кatta ijtimoiy guruhlar hayotida muhim o'rinni egal-laydi. Fuqarolar dunyoda ro'y berayotgan deyarli barcha muhim voqealar haqida ommaviy axborot vositalari orqali bilib olishadi.[3]

Jamiyatda axborot ham bilim manbai, ham eng asosiy muloqot vositasi bo'lib hisoblanadi. Jamiatni axborot-lashtirishda radio, televideniye, ommaviy-axborot vositalari va Internet tizimining ahamiyati juda yuqoridir. Har kim har doim biror ishni bajarish yoki biror maqsadga erishish uchun axborotdan foydalanadi. Har bir inson ob-havo prognozini, transport vositalari qatnovi jadvalini, bank

va biznes ma'lumotlarini hamda kundalik yangiliklardan habardor bo'lishga muxtojdir. Agarda inson kundalik axborotlar va yangiliklardan xabardor bo'lmas ekan u jamiyatdan uzilib qolishi muqarrar. Aytish joizki, internetning axborot maydoni kun sayin kengayib, axborot manbalari tez-tez yangilanib turadi. Bu esa, o'z navbatida, taraqqiyetishimizda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Inson qadri, mas'uliyati, axloqiga bepisandlik ba'zi yoshlarning kiyinishi, fe'l-atvori, yurish-turishida yaqqol ko'zga tashlanib qolmoqda. Bizning nazarimizda inson qadriyati uning axloqiylikka yo'nalgani bilan belgilanishi kerak. "Darxaqiqat, bugun axborot chunonam ko'p va tez kirib kelayaptiki ularni "hazm" qilish uchun teran tafakkur va keng dunyoqarash talab etiladi. Ayniqsa internet olami farzandlarimiz e'tibori va qiziqishini tortib borayotgan bungungi davrda ayrim kompyuter o'yinlari haqida ham shunday misollarni ketirish mumkin. bugun yoshlarmizning aksariyati globallashuv tufayli Yevropa va xorijiy ma'naviy-madaniy oqimlar ta'siriga ko'proq ishtyoqmand bo'lib, milliy ma'naviyatimizning hayotbaxsh, yuksak axloqiylikka asoslangan tamoyillarga ixlosmandligi sust kechmoqda.

"Oliy Majlis Senatida 2022-yil 31-yanvar kuni Axborot siyosati va davlat organlarida ochiqlikni ta'minlash masalalari qo'mitasining navbatdagi majlisi bo'lib o'tdi. Bu haqda Senat axborot xizmati xabar qildi.

Qayd etilishicha, majlisda senatorlar, qo'mita ekspertlari, doimiy komissiyalar raislari, Yoshlar parlamenti a'zolari hamda ommaviy axborot vositalari vakillari ishtirok etgan. Yig'ilishda butunjahon internet tarmog'ida yoshlar va voyaga yetmaganlar uchun milliy kontentni rivojlantirish, ularning ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish madaniyati va zararli axborotdan himoya qilish yuzasidan Vazirlar Mahkamasiga parlament so'rovi yuborish to'g'risidagi masala dastlabki tarzda muhokama etilgan.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, "Telegram"da 18 million, "Odnoklassniki"da 16,7 million, "Facebook"da 4,7 million, "Instagram"da 3,7 million, "Vkontakte"da 2,6 million, "LinkedIn"da 288 ming, "Twitter"da 51,6 ming nafar o'zbekistonlik foydalanuvchi mavjud bo'lib, ularning ko'pchiligini yoshlar tashkil qiladi.

2021-yilning dekabr holatiga ko'ra, milliy domen makanidagi 289 ta veb-saytda pornografiya, 91 ta veb-saytda esa behayolik va ma'naviy buzuqlik targ'ibotiga xizmat qilishi mumkin bo'lgan holat aniqlangan va 2097 ta qonun-buzarlik holati qayd etilgan".[4]

Respublikamizdagi ommaviy axborot vositalari soni davlat-nodavlat ko'rinishidagi taqsimotga ajratilganda, davlat tashkilotlari tasarrufidagi bosma va elektron nashr-lar jami, 539 ta (46.2%) nodavlat tashkilotlar va xususiy sektorga tegishli ommaviy axborot vositalari 922 taga (53.8%) tengdir.

Demak, yuqoridagi sonlar shuni ko'rsatadiki bugungi kunda yurtimiz aholisining asosiy qatlami axborotlarni ijtimoiy tarmoqlar orqali olmoqda. Bundan kelib chiqqan holda, milliy qadriyatlarni ommaviy axborot vositalarida yoritish bo'yicha quyidagi takliflarni bera olamiz

\* birinchidan, xalqaro tajribalarni hisobga olgan holda "Internet tarmoqlari orqali yoshlar ma'naviy dunyosiga salbiy ta'sir qiluvchi axborotlarni oldini olish to'g'risida" qonunni ishlab chiqish;

\* ikkinchidan, davlat organlarining veb-saytlarini rivojlantirish, foydalanuvchi uchun qulay shaklda interaktiv xizmatlar taqdim etish. Milliy-ijtimoiy tarmoqlarni shakllantirish va rivojlantirish;

\* uchinchidan, milliy qadriyatlarimiz aks etgan matnli va audiovizual materiallarni birlashtiruvchi yagona axborot resurs maydonchasini mustahkamlash;

\* to'rtinchidan, milliy ijtimoiy tarmoqlarga tajribali

pedagoglar, madaniyat va san'at vakillari, yozuvchilar, estrada yulduzlarini jalb qilib, uni ommalashtirish.

Internet, telegram, facebook, you tube – tubsiz ummon, cheksiz olam. Shu vositalar chiqqanidan beri odamlar, qavm-qarindoshlar o'rtasida, mehr-oqibat ko'tarilib, hurmat yo'qolmoqda. Bugun ijtimoiy tarmoqlar – yutub, internet, telegram, feysbuk qaysidir ma'noda "qotil"ga aylandi. "Vaqtning qotili"ga... Insonlar qimmatli vaqtlarini ko'kka sovurmoqda.

Hadisi sharifda: "Qiyomat kuni odam bolasi to'rt narsa haqida so'ralmagunicha joyidan jilmaydi: 1) umrini nima bilan o'tkazgani; 2) yoshlik davrida nima bilan mashg'ul bo'lgani; 3) mol-dunyoni qayerdan topib, qayerga sarflagani hamda 4) bilgan (o'rgangan, eshitgan) ilmiga qanchalik amal qilgani" (Imom Termiziyy rivoyati).[5]

Eng yomoni, ijtimoiy tarmoqlar orqali faxsh ishlar tarqalmoqda. Yigit va qizlarning ibosi, hayosi yo'qolmoqda. Oila, nikoh haqidagi muqaddas tushunchalar yo'qolmoqda. Bir-biriga nomahram insonlar o'rtasida muloqot, turli aloqalar avj olmoqda. Elektron do'stlik, elektron muhabbat, elektron zino avj olmoqda.

So'ngi paytlarda butun dunyo ko'radigan, o'qiydigan ijtimoiy tarmoqlarda milliy mentalitetimizga, qadriyatlarimizga zid xabarlar tarqalayapti. Kattalarga hurmat, kichiklarga izzat, degan narsalar unutib qo'yilmoqda. Sharmu hayodan yiroq, muomala va kiyinish madaniyati toptalgan, ona tilimizga hurmatcizlik singari noxush holatlar ko'zga tashlanmoqda. Bir so'z bilan aytganda, ijtimoiy tarmoq odobi kishi dilini xira qiladi.

Kezi kelganda, shuni taassuf bilan qayd etish lozimki, ijtimoiy tarmoqlar ayrimlar uchun o'ch olish, birovni sharmanda qilib huzurlanish manbai bo'lib qolmayaptimi? Hatto ko'pgina tovlamachilik jinoyatlarini ham keltirib chiqarmoqda. Ya'ni, suratga yoki videotasvirga olib,

ijtimoiy tarmoqda tarqatish bilan qo'rqitib, kimdandir pul undirishga urinayotgan, oqibatda jinoiy javobgarlikka tor-tilayotgan shaxslarning qilmishiga ham guvoh bo'lyapmiz-ku. Ana shunday tovlamachilik natijasida o'z joniga qasd qilish holatlari ham yo'q emas.

Globallashuv milliy qadriyatlarga nisbatan tahdidlarning kuchayishiga olib kelmoqda. Bu millat vakillarining ja-hon miqyosida shakllangan "ommaviy madaniyat" va yangi "qadriyatlar"dan boxabar bo'lismiga hamda ularni o'zlasht-irishlariga yangi imkoniyatlarni yuzaga keltirganligida o'zini namoyon etmoqda. Bu jarayonning xatarli jihat shundaki, u millat vakillarining bir qismida, ayniqsa, uning ayrim yoshlarida ana shu "ommaviy madaniyat" va "yangi qadriyatlar"ni o'zlashtirishga bo'lgan moyillikni kuchaytir-moqda. Bu, oxir-oqibatda, ularning milliy-ma'naviy zamin-lardan uzilib qolish xavfini kuchaytirmoqda.

### **Foydalilanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. *O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2021-yil 19-yanvar kuni "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va ja-moat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish masalalari" bo'yicha videoselektor yig'ilishidagi ma'rurasidan.*

2. *O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2021-yil 19-yanvar kuni "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va ja-moat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish masalalari" bo'yicha videoselektor yig'ilishidagi ma'rurasidan.*

3. *G'oyibnazarov Sh. Islom terrorizmga qarshi. Toshkent - 2020*

<https://daryo.uz/k/2022/01/31/ijtimoiy-tarmoq-va-messengerlardan-qancha-ozbekistonlik-foydalanishi-malum-qilindi/>

*Hoshimov N. Ijtimoiy tarmoq – xatarli qarmoq. <http://fitrat.uz/izhtimoij-tarmo-hatarli-armo/>*

**Farhod HOJIYEV,**  
*O'zMTRK "O'zbekiston 24" telekanali bosh muharriri*  
**Fozil SULTONOV,**  
*1-darajali mehnat faxriysi, akademik*

**INTERNETDA TARG'IB QILINAYOTGAN G'ARB  
"OMMAVIY MADANIYATI" NING(LGBT)  
MA'NAVIYATIMIZGA TAHDIDI,  
YANGI XAVF-XATARLAR**

Globallashuv jarayonlari insoniyat uchun beqiyos yangi imkoniyatlar bilan birga kutilmagan muammolarni, shu jumladan ma'naviy tahdidlarni ham keltirib chiqarayapti. Milliy o'zlik va ma'naviy qadriyatlarga qarshi tahdid va xatarlar tobora ortmoqda. Bunday tahlikali vaziyatda hushyor va ogoh bo'lib, xalqimizning xavfsizligini, ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini kuchaytirish, milliy qadriyat va ma'naviy merosimizga yot har qanday axloqsizlik va behayolik g'oyalarining targalishiga qarshi kurashishda zimmamizga katta mas'uliyat yuklaydi.

Taboro ommalashib, OAV sifatida ta'sir doirasi kengayib borayotgan xalqaro internet axborot makonining o'zbek segmenti orasida jinsiy ochiqlik va jinsiy erkinlik omillarini yaratishga hamda internet foydalanuvchilar ongiga singdirishga tinimsiz harakat qilinmoqda. Bu holatlar ayniqsa Facebook, Instagram, YouTube, Telegram kabi ijtimoiy tarmoqlarda ko'payayotganligini kuzatish mumkin. Masalan, Telegramning o'zbek segmentida pornografiyanı ochiqcha tarqatayotgan kanallar bor.

Amerikalik siyosatchi va publisist Patrik Jozef Byukenen o'zining "G'arbning halokati" kitobida shunday fikr bildiradi: "Axloqsizlik holatlari, oila qurish va tarbiyaga yetarli e'tibor berilmasligi oqibatida yevropada tug'ilish

keskin kamayib ketyapti, yigitlarda otalik hissi, qizlarda onalik tuyg'usi yo'qolmoqda. Ular farzand ko'rishni tashvish deb tushunmoqda. Dunyoga bir marta keldingmi, ko'ngling tusaganicha yashashing kerak, degan fikr aqida-ga, turmush tarziga aylanib bormoqda" [1].

Hozirgi vaqtida yevropa sivilizatsiyasining ma'naviy-axloqiy muhitida 1980 yillardan buyon "jinsiy ochiqlik va jinsiy erkinlik" siyosati hukmronlik qilmoqda. Buning nati-jasida yevropa uchun axloq tushunchasi, inson jinslararo axloq muvozanati batamom butkul o'zgardi.

Bugungi kunda Yevropa uchun gey va lesbi (erkak va ayol hezalak) tushunchasi or-nomusni emas, balki no-jinslar uchun g'ururni bildiradi. "Bachchabozlik"ning erkak jinsi ichida, "hezalaklik"ning ayol jinsi orasida keng tarqali-shi va buning qonuniy qo'llab-quvvatlanishi barcha axloqiy mezonlar va qadriyatlarni butunlay yemirib tashlaydi.

Jinsiy erkinlik va nojinslikning qonun bilan rasmiylashtirilishi yevropa jamiyatini va oila institutini o'zgartirib yubordi. Erkak bilan erkak, ayol bilan ayolning nikohi rasmiy kuchga ega bo'ldi. Bachchabozlik va hezalaklik butun jamiyatni qamrab olgan.

Jinsiy erkinlik tufayli genetik jihatdan sof yevropalikni uchratish qiyin, gey/bachchabozlik, lesbiyanlik/ ayolning ayol bilan o'zaro jinsiy aloqasi, bir jinslik nikox, jinsiy alo-qanening butunlay ochiqlanishi – Yevropa uchun allaqachon tabiiy, oddiy holga aylangan.

Endi esa bu jinsiy ochiqlik internet orqali dunyodagi ko'plab mamlakatlarga eksport qilinmoqda.

Jahondagi har bir davlat va jamiyatning o'ziga xos milliy qadriyatlari, asrlar davomida shakllangan ma'naviy merosi, ma'naviy-axloqiy me'yorlari bor. Jamiyatdagi har bir inson bu ma'naviy-axloqiy mezonlarga rioxalari qilishi zaruriy shart. Bu esa qaysidir nosog'lom, g'arazli kuchlar-ga yoqmayapti. Davlat ichidagi ma'naviy muhitga qarshi

qaratilgan, axloqiy buzilishga olib keladigan beqarorlik, tahdidlarni vujudga keltirishga harakat qilinayapti.

Bugungi kunimizning yana bir eng ayanchli va dolz-arb muammosiga aylanib qolayotgan voqelikdan biri bu, O'zbekistonda yashayotgan ayrim yigitlarning qilayotgan xatti-harakatlari, erkaklik nomiga dog' tushurayotganligi. Afsuski, odob-axloq, ta'lif-tarbiya masalasida ba'zi bir yoshlarimiz shu qadar tubanlik sari ketyaptiki, bularni yozishga va ifodalashga ham qo'l bormaydi. Ayrim yoshlarning qizlar, ayollar kiyimini kiygan holda qandaydir ko'ngil ochar ma'naviy-ma'rifiy tadbirlerda ochiq, namoyishkorona chiqish qilayotganligiga guvoh bo'layapmiz. Yoki ko'cha-ko'yda jinsini o'zgartirib olgan yigitchalar paydo bo'layapti.

Agar tarixga nazar solsak, Rim imperiyasida nasroniy-lar sultanati o'rashib qolganidan to XIX asrgacha G'arbda besaqolbozlik notabiyy, jirkanch shahvoniy amal hisoblanib kelinayotgandi. Shu bilan birga, fuqarolik qonuni ham ushbu amalni jinoyat deb bilar, bu amalni sodir qilganlar-ga jazo tayin edi. XIX asr oxirlarida bu jirkanch jinoyatga bo'lgan munosabat tubdan o'zgara boshladi. Jazoga loyiq bo'lgan bu amal endi "ruhiy xastalik", - deya e'tirof etilishga o'tildi. 60-yillarda "jinsiy inqilob" boshlanishi bilan holat tubdan (radikal tarzda) o'zgara boshladi. Natijada, "LGBT"lar (lesbi, trans-seksual, bachchabozlar, biseksual va transgender) uyushmasi tashkil qilindi. Ular o'zlarini alohida dunyoqarashga ega ekanini va yangi paydo bo'lgan "sub madaniyat vakillari", - deya taqdim qila boshlashdi. Ularning ta'sirida 1973 yili Amerika psixiatriya assotsiyasi, 1990 yili esa Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti besaqolbozlikni ruhiy xastalar ro'yxatidan o'chirib tashlashdi. Boshqacha so'z bilan aytganda, razolat, axloqiy buzuqlik, jirkanch va fahsh qonunlashtirildi hamda bular yashash tarzining boshqa "muqobil" varianti sifatida ko'ri-la boshlandi. Darvozalar lang ochildi va patologiya G'arb-

da shiddat bilan tarqala boshladi. “LGBT – uyushmasi” o’z oldiga barcha mamlakat qonunchiligidagi “besaqolbozlikni patologiya yoki og’ish” emasligini uqtirishni maqsad qilib qo’ydi. 90-yillardan boshlab, biz shu harakatlarning guvohi bo’lib turibmiz. Bu bilan bir vaqtning o’zida besaqolbozlik uchun belgilangan jazoni bekor qilish jarayoni ham davom etmoqda. Endi Afrika va Osiyoning ba’zi mamlakatlaridagi bu jinoyatga jazo borligini uchratish mumkin, xolos. Rossiyada shu mazmundagi modda 1999-yili bekor qilindi.

90-yillarda besaqolbozlar orasidan radikal kayfiyat-dagi guruhlar otilib chiqqa boshladi. Ular uzoq muddatli strategiyani ishlab chiqib, jinslar orasidagi tabiiy bo’lgan farqni yo’q qilishga urinishga kirishishdi. Erkak va ayol o’rtasidagi biologik farqlar bilan bog’liq barcha narsalar afsona deb e’lon qilindi. “Geteroseksuallik esa axloqning (yurish-turishning) bir turi, xolos”, deb uqtirildi. Ularning aytishicha, go’yoki, “ijtimoiy jins” (gender) insonning o’zi tarafidan tanlanishi hamda istalgan vaqtida almashtirib olishi mumkin emish. Bu tezisning targ’iboti “gender mansublik” – deb atala boshlandi.

Shu kunlarda AQSh va Yevropada “LGBT – uyushmasida” ustun bo’lib olgan radikal besaqolbozlar insonni jinsdan “ozod” etish uchun jahon jinsiy inqilobini amalga oshirishga kirishib ketdi. Ularning maqsadi “gender” va “gender mansublik” tushunchasini nafaqat ijtimoiy, balki huquqiy sohalarda ham “jinsiy orientatsiya” nomi bilan o’zlari bunyod qilayotgan yangi jahon tartibining bir elementi sifatida singdirishdir. Misol uchun, oilaning negiziga bolta uruvchi quyidagi ijtimoiy tarmoqdagi xabarni (22 oktabr, 2020 y.) e’tiboringizga havola qilamiz:

Rim papasi Fransisk hamjinslarning turmush qurishi ni ma’qulladi, – deya xabar beradi Deutsche Welle. “Gomo-seksualarning ham oila qurishga haqqi bor. Ular Tangringing bolalari va oila qurish huquqiga ega. Hech kim buning

uchun tahqirlanishi yoki azob chekishi kerak emas”, – dedi Rim papasi[2].

Mana sizga g’arb “ommaviy madaniyati”ning targ’iboti!

Quyidagi “youtube” ijtimoiy tarmog’idagi lavhada bu targ’ibot qurboni Islom diniy madaniyatining markazi bo’lgan Buxoro shahrilik yosh yigitchaning o’z jinsini o’zgartirishga qilgan harakatiga guvoh bo’lamiz:

OA Vlalaridagi xabarlar: Buxoroda asta-sekin LGBT (transseksual)lar ko’rinish beribdi(jinsini o’zgartirgan yigitning fotosi joylashtirilgan) ...[3]

2021-yilning 28-mart kuni Amir Temur xiyobonida kechgan voqeа hammamizni larzaga solgan edi (Toshkent shahar IIB matbuot xizmatining quyidagi xabari bo'yicha: LGBT huquqlarini himoya qilgan bloger Miraziz Bozorov o'z uyi oldida do'pposlangan) [4].

“Youtube” ijtimoiy tarmog’idagi VVS NEWSda berilgan “Jinsini o’zgartirgan o’zbek hikoyasi” sarloviali videoni (2017-yil 13-sentabrda joylashtirilgan) 7 mln 218 732 na-far shaxs tamosha qilgan. 24 ming ta kishi “ijobiy” postini goldirgan.

Unda “Jasmina erkak bo’lib yashagan umrini eslagisi kelmaydi. Barcha suratlarini yirtib yo’q qilgan. 33 yoshli asli andijonlik uchun “Jasmina” ismi yangi hayotga ochilgan darvozani eslatadi. Bi-bi-si bilan Moskvada o’tkazilgan eksklyuziv intervyusida olti farzandning eng kenjas O’zbekistonidagi hayoti o’z onasi vafoti ortidan qiyin kechgani, Rossiyada aravakashlikdan tortib yuk tashuvchilikka barcha og’ir ishlarni qilib o’z orzusiga yetganini aytgan. Ammo, orzusiga yetish uning uchun oson kechmadi. U yillar osha jarrohlik amaliyotlariga chidab kelayotgani, fo-hishalikka majburlangani va o’lim yoqasida qolgan hollar ni eslaydi. Shuningdek, Jasmina Rossiyaga jinsini o’zgartirish uchun kelgan boshva ko’plab o’zbekistonlik transseksuallarning hayoti, ular aralashayotgan fohishabozlik va

giyohvandliklar haqida ochiqcha so'zlab berdi." [5]. (1 mln 57 mln obunachisi bor)

Millatning sha'nini bulg'ab yurgan bu axloqsiz shaxs @ *Jasmina 989 kanaliga* asos solib, shu yerda maslakdoshlarini(geylarni) jamlab, ular bilan targ'ibotni yo'lga qo'ygan. Ushbu kanalga "Jasmin trans do'stlari bilan" sarlovhasi bilan videolarni joylashtirib kelmoqda. Achinarlisi, bu shaxs 2 oy oldin Rossiyada bir guruh o'zbekistonlik geylar bilan dasturxon atrofida qadah so'z aytib "O'zbekistonda mln.-mln.ga chiqaylik", - deya tilak bildirayapti. Bu videoni 70 ming 34 nafar kishi tomosha qilgan va 335 ta obunachi "ijobiy" postini qoldirgan.

Mazkur ijtimoiy tarmoqda "Toshkentda trans fohisha ushlandi. LGVT geylar Toshkentda ko'paymoqda" sarlovhasi bilan joylashtirilgan materialda "Chilonzorda erkak bo'la turib jinsini operatsiya qildirib ayol kishiga aylangan fohisha qo'lga tushdi, u erkaklarni jinsiy ehtiyojini qondirib yurgani aytilmoqda".

Mana bu aynan ushbu tarmoqdagi "O'z jinsini o'zgartirgan erkaklar. Translar" sarlovhasi bilan geylarning boshidan o'tkazgan voqealarini ibrat qilib ko'rsatuvchi foto, video materiallari joylashtirishdan muddao nima?!

2020-yil 10-oktabr kuni ushbu ijtimoiy tarmoqqa joylashtirilgan: "Jinsini o'zgartirgan bola, Otabek ismli bola Nargiza ismli qizga aylanibdi". 18 ming 133 nafar tarmoq obunachisi tamosha qilgan. 79 ta shaxs "ijobiy" post qoldirgan.

Agar dinimizga murojaat qilsak, Payg'ambarimizning suykli sahabalaridan biri Abu Hurayra roziyallohu anhu rivoyat qilishlariga ko'ra:

Nabiy sollallohu alayhi vasallam ayollarga o'xshab kiyagan erkakni va erkaklarga o'xshab libos kiygan ayolni natladilar". Bu haqda Abu Dovud va Nasafiy ham rivoyat qilgan.

Bu hadisdan shu narsa ma'lum bo'lyaptiki, bu kabi holatda kiyingan erkaklarga "Alloho ni lanati bo'lsin", – degan ibora ham kelib chiqmoqda.

Hadisni davom ettiradigan bo'lsak "Kim bir qavmga taqlid qilsa, u o'shalardandir", – deyilgan.

O'z qavmi, o'z dini va urf-odati turib, boshqalarning turmush tarzini, kiyinish va hayotdagi boshqa narsalarini ustun qo'yib, jon-jahdi bilan ularga o'xshashga harakat qilish odamga o'z ta'sirini o'tkazmay qolmaydi. O'sha odam "amallar niyatga yarasha" qoidasiga binoan o'zi taqlid qilgan qavmdan bo'ladi. Kofirlarga o'xshashni orzu qilib uringan bo'lsa, kofirlardan bo'ladi. Fojirlarga o'xshashga harakat qilgan bo'lsa, fojir bo'ladi va hakazo...

Islom ummati Alloh taolo yuborgan talimotlarning eng mukammaliga, har bir zamon va xar bir makonga munosib ta'limotga ravo ko'rilgan ummatdir. Alloh taolo bu ummatni boshqa barcha ummatlar ustidan shohid qilib qo'yganadir. Shuning uchun ham ummatga o'zidan boshqalarga o'xshashga harakat qilish, Alloh taolo osmondan tushirib bergen narsani qo'yib, boshqa millatlar adashgan, yo'ldan og'gan, yaratganning la'nati yog'ilgan illatlarga havas qilish, ergashish mutlaqo to'g'ri kelmaydi.

Iqtisodiy taqiqlar qo'yilishi yoki diplomatik aloqalar uzilishidan xavfsirab, ba'zan davlatlar o'zлari uchun zarur bo'lgan ishlardan voz kechishga majbur bo'lishi, aslida, xayolga bu kabi fikrlarning kelishi shaytonning vasvasasidir.

Alloh taolo Qur'oni Karimda shunday degan:

"Shayton sizlarni kambag'al bo'lib qolishdan qo'rqa di va fahsh ishlarga undaydi". (Baqara surasi, 268-oyat)

Ha, shayton shunday vasvasa qiladi. ...

Bugungi vaziyatdan kelib chiqsak, shayton insonning xayoliga "agar besoqolbozlikni taqiqlovchi qonunlar bekor qilinmasa, sen bilan aloqa uziladi, senga iqtisodiy yordam berilmaydi, seni iqtisodiy tanglikka kiritadi, shuning

uchun ularning talablarini bajar” kabi vasvasalarni olib kelishi mumkin.

Rizq Allohdan, buni hamisha yodda tutishimiz lozim. Rizq borasida xavfga tushmaslik kerak. Pandemiya davrida ham o’zimiz guvoh bo’ldik, hech kim ochlikdan o’lma-di. Rizqni Alloh taologa osiy bo’ladigan ishlar vositasida talab qilinmaydi. Shaytonning rizq haqida qo’rqitishiga qulq solish – uning vasvasasini Allohning rizq borasidagi va’dasidan ustun qo’yish demakdir.

Tarixda ham bu illatga mubtalo bo’lgan Lut qavmi Al-lohning g’azabiga uchragani hamda qanday halok bo’lgani, barchamizga ma’lum[6]:

Rabg’uziy kitobida Lut yalavochga alohida bag’ishlov mavjud. Zero, u Qur’oni Karimning “Al-haqqa”, “A’rof” suralarida payg’ambarlar qatorida tilga olinadi: “Ostin-us-tin qilgan shaharning xabarlari ularga kelmadimi? Kelgan edi, ularga payg’ambarlarning ravshan mo’jizalari bilan”. Muqaddas kitobda Al-mu’tafikat-to’ntarilgan deyilishidan maqsad Lut alayhissalom qavmining qishloq va shaharlarining gunoh ishlari tufayli to’ntarib qo’yilganli-gidir. Yo’lto’sarlik, xiyonatkorlik, bir-birini gunohga chaqirish, eng mudhishi bir jinsning qo’shilishini ular birinchi bo’lib qo’llaganlari uchun Olloh ularning qishloqlarini va shaharlarini ostin-ustun, chilparchin qiladi. Alloh taolo avvalo ularni yomon ishlardan qaytarish uchun Lut payg’ambarini yubordi. Lekin ular osiy bo’ldilar[6].

Alloh taolo insonni erkak va ayol jinsida yaratdi. Har biriga o’ziga xos a’zolar va xususiyatlar berdi. Parvardigor inson zoti nasli pokiza yo’l bilan ko’payib turishini iroda va hayotiy zarurat qildi. Bu yo’ldan tajovuz qilganlar va Alloh irodasiga zid borib, erkaklarga shahvat ila yaqinlik qiladi-ganlar aqidasi buzuq va tuban kishilar hisoblanadilar.

Besaqolbozlar mafiyasi, saraton shishi kabi jamiyatning sog’lom hujayralarini yo’q qilib, uni halokatga yetak-

lamoqda. Saraton kasali bilan muloqatga kirishilmaydi hamda u bilan murosaga borib ham bo'lmaydi. Bu masalalar bo'yicha yaqin orada aniq va tiniq bir fikrga kelib, kerakli huquqiy vositalarni hozirlab, kerak bo'lsa "jinsiy buzuqlar" tajovuziga (agressiyasiga), yangi siyosiy kurashlarga ham hozir bo'lmosg'imiz kerak.

"Jaholatga qarshi ma'rifat", degan najotbaxsh shiorimiz ezgu amallarimiz bilan mustahkamlansin. Bundan buyon oriyatimiz kechagidek qaqshamasin. "Ommaviy madaniyat" dan ogoh bo'ling", degan da'vatlarga bee'tibor qaramaylik. Axir ayrim ota-onalarning o'z vaqtida farzandlariga yetarli tarbiya bermasligi, millat uchun, jamiyat uchun qanchalar qimmatga tushishi mumkinligini hayotiy achchiq misollarning o'zi ko'rsatib turibdi.

Bugun O'zbekiston nafaqat siyosiy-iqtisodiy, ijtimoiy-ma'naviy sohalardagi islohotlari, mintaqaviy barqarorlik, inson huquqlarini ta'minlash borasidagi yangicha yondashuvlari bilan jahon miqyosida e'tirof va hurmat topmoqda. Dunyodagi har bir davlat va jamiyatning o'ziga xos milliy qadriyatları, ma'naviy-axloqiy me'yordari bor. Albatta, jamiyatdagi har bir inson bu ma'naviy-axloqiy mezonzarga roiya qilishi zarur. Bu esa qaysidir kuchlarga yoqmayapti.

Shubhasiz, millat oriyati uchun bunday orsizlik harrakatlarini qonuniy oldini olishimiz kerak. Ularning jirkanch tomosha postini qoldirgani uchun tomoshabinlarni ko'paytirib bermasligimiz kerak. Bunday "g'oya"larning asosiy uyasi internet tarmog'ida ekanligini yaxshi bilamiz. Ana shu ma'noda biz bugun nafaqat televidenie, radio, bosma OAVlarini, internet minbarlarini ham ezgulik, odamiylik, ma'naviyat minbarlariga aylantirishimiz, uyg'oq so'zimiz or-nomusni tarbiyalovchi fikrlarimiz bilan undaylarga munosib javob qaytarishimiz kerak. Buning uchun:

- ijtimoiy tarmoqlarda axloqsizlik, bir jinslik illatlarni targ'ib qilishga qarshi kurashadigan qonunchilikni takomillashtirib, jazo choralarini ishlab chiqish;

- ma'naviyani, xalqimiz milliy qadriyatlarini himoya qilish, asrab-avaylashga mas'ul bo'lgan aql markazlari faoliyatini ushbu yo'naliishda muvofiqlashtirib zarur ta'sir choralarini ko'rish;

- ma'naviy-ma'rifiy ilmiy tadqiqotlar olib borish;

- yagona milliy mafkura, milliy kurashish g'oyasini yaratish;

- ijtimoiy tarmoqlarda monitoring va taxlil ishlarni kuchaytirish;

- qarshi kurashishda ta'lim muassasalari, mahalla, oila, fuqarolik jamiyatni institutlari imkoniyatlarini safarbar etib, hamkorlikni yo'lga qo'yish;

- OAVlarida diniy-ma'rifiy, milliy qadriyatlarni targ'ib qiluvchi dasturlarini ko'paytirish, ularning imkoniyatlaridan keng miqyosda samarali foydalanishni yo'lga qo'yish zarur.

Dunyoning ma'naviy-axloqiy o'choqlaridan biri bo'lgan O'zbekistonda o'zining ma'naviy-axloqiy qadriyatlari, bag'rikengligi, milliy odob-axloq tizimi butun dunyoda o'z e'tirofini topgan. Ma'naviyat ezgulik qonuniyatları asosida yaxshilikni himoya qilib yashash demakdir. Bu dunyoda ezgulik tuyg'usini boy bergen odamdan yaxshilik kutib bo'lmaydi. Tafakkur qiling.

### Foydalaniman qilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. P. Byukenen. "Smert Zapada". AST. Moskva. 2004. Str.17-24

2. <https://meduza.io> › 2020/10/22

3. <https://youtu.be/xNUa-6CubnY>

4. <https://daryo.uz/2021/03/29/lgbt-huquqlarini-himoya-qilgan-bloqer-miraziz-bozorov-oz-uyi-oldida-doppo-slab-ketildi/>

5. <https://gujum.uz/mutolaa/lut-nabiy-alayhissalom-qissasi/> // "Qissasi Rabg'uziy" asarini qadimiy turkiy tildan zamonaliv o'zbek tiliga tarjimasi

**Baxrom NAZARALIYEV,**  
*Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti*  
*“Xalqaro iqtisodiyot va menejment” fakulteti*  
*Yoshlar bilan ishlash*  
*va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo'yicha dekan muovini*

**MARKAZIY OSIYO DAVLATLARIDA AXBOROT  
XAVFSIZLIGI MASALALARINING O'ZIGA  
XOS JIHATLARI**

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada xalq ongini zararli ma'lumotlar oqimidan muxofazalash bo'yicha Xitoy tajribasi haqida so'z boradi. Xususan, OAV keng qamrovli faoliyat yuritayotgan hozirgi vaqtida katta hajmdagi axborot oqimini nazorat qilish, davlat milliy manfaatlari kesimida filtrlash masalasi kun tartibidagi dolzarb masalaga aylanmoqda. Bu borada, Xitoy davlati siyosiy darajada qarorlar qabul qilib, mamlakat axborot makonini bevosita nazorat qilishga mo'ljallangan dasturiy platformalarni va sun'iy intellektlarni ishga solganligi haqida batafsil ma'lumotlar keltirib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** internet, axborot, texnik taraqqiyot, televideniya, monitoring, razvedka, manbaa, filtr, cheklov, OAV, shaxs, jamiyat, davlat, ong, immunitet, segment, resurs, tahdid, dastur, sun'iy intellekt.

XXI asr axborot texnologiyalarining tez sur'atlar bilan rivojlanib borishi Yer yuzidagi barcha mamlakatlar kun tartibiga milliy xavfsizligini ta'minlashda axborot omilini e'tiborga olish zamon talabi ekanligini ko'rsatmoqda.

Buning asosiy sababi axborot sohasi va axborot oqimlari jamoatchilik fikrining shakllanishiga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatib, reklama, targ'bot-tashviqot, siyosiy texnologiyalar, PR texnologiyalari va axborot kampaniyalari hozirgi ijtimoiy jarayonlarga xos jihatga aylanib qoldi. Ushbu

holat, jamiyat hayotining barcha sohalariga zamonaviy axborot texnologiyalarining kirib borishi bilan bog'liq. Bu esa, davlatning axborot sohasidagi milliy manfaatlarini himoya qilishni talab etadi. Shuning uchun ham mazkur mosalani xavfsizlikni ta'minlash nuqtai-nazaridan tahlil qilish dolzarb vazifaga aylanib bormoqda.

Quyida Markaziy Osiyo (MO) davlatlaridagi axborot xavfsizligini ta'minlashning o'ziga xos jihatlarini ko'rib chiqamiz.

Mavjud ma'lumotlar tahlili, axborot xavfsizligini ta'minlash borasida MO davlatlari tomonidan ham bir qator ishlar amalga oshirganligini ko'rsatmoqda. Jumladan, qo'shni respublikalarda axborot sohasida yaratilgan qonunchilikning bir-biriga zid kelmasligi hamda mamlakat axborot makoni xavfsizligini ta'minlovchi sub'ektlar faoliyatidagi tartibsizliklarni keltirib chiqarmaslik maqsadida har bir mamlakat oldiga Milliy konsepsiya yaratish-dek muhim vazifani qo'ymoqda.

**Qozog'iston.** Albatta, rivojlangan davlatlar tajribasi bu boradagi dastlabki qo'yiladigan talablardan asosiysi – axborot xavfsizligini ta'minlashning me'yoriy-huquqiy bazasi shakllanganligi hisoblanadi.

Xususan, Qozog'iston Respublikasida axborot xavfsizligini ta'minlash borasida qator konsepsiyalar qabul qilinib, bu borada rasmiy Ostona mintqa mamlakatlari orasida bir qancha ishlarni amalga oshirmoqda.

Birgina, 2006-yildagi mamlakat axborot konsepsiyasining o'ziga xosligi, MDH amaliyotida birinchi marta "Internetni boshqarish" tushunchasi kiritilganligi va bu orqali hukumat, davlat idoralari, xususiy sektor va fuqarolik jamiyatlari institutlari Internetdan foydalanishni tartibga solib kelmoqda.

Shu bilan birga, mamlakat axborot xavfsizligini ta'minlashning amaldagi normativ-huquqiy asosi 2011-yilda

qabul qilingan “Axborot xavfsizligi” to‘g‘risidagi yangi konsepsiya bo‘lib, ushbu Konsepsiya Qozog‘iston Respublikasini 2030-yilgacha rivojlantirish strategiyasining asosiy qoidalariga to‘liq javob beradi hamda milliy xavfsizlikning tarkibiy qismi bo‘lgan axborot xavfsizligini uzoq muddat davomida ta‘minlash ustuvor vazifa sifatida qarab kelinmoqda. Uning oldingidan farqli jihatni – unda Rossiya, AQSh, Buyuk Britaniya, Kanada, Hindiston davlatlarining axborot xavfsizligi sohasidagi tajribalari o‘rganilib, o‘z Milliy konsepsiyalariga joriy etilgan. [1]

Bundan tashqari, Konsepsiya orqali qo‘yilgan maqsad-larga erishishda 3 asosiy yo‘nalishni, ya’ni milliy qonunchilik, tashkiliy va ma’muriy hamda kadrlar salohiyatini rivojlantirish bilan amalgalash oshirish ta‘kidlab o‘tilgan.

Yuqorida ta‘kidlab o‘tganimizdek, dunyo mamlakatlaridagi axborot xavfsizligini baholash me’zonlaridan biri bu sohaga doir kadrlar tayyorlash tizimi hisoblanadi. Ushbu jihatni O‘zbekiston Respublikasiga qo‘shti Qozog‘iston tajribasida ko‘rib chiqamiz.

So‘nggi yillarda Qozog‘iston Respublikasi xalqaro axborot xavfsizligi ta‘minlanganlik reytinglarida mamlakatimizdan yuqori o‘rnlarni band etib kelmoqda. Davlat mavjud imkoniyatdan foydalangan holda o‘z oldiga 5 ta asosiy vazifani bajarish maqsad qilib qo‘ygan. Bular:

- mamlakat axborot xavfsizligini ta‘minlash sohasida siyosatda davlat ishtirokini ta‘minlash;
- axborot sohasidagi standartlarlashtirish hujjatlarini ishlab chiqish;
- axborot xavfsizligini ta‘minlash sohasidagi ilmiy-texnik faoliyatni amalgalash oshirish;
- loyihalarni ilmiy-texnik ekspertizadan o‘tkazish;
- axborot xavfsizligi sohasida kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishdan iborat.

Dastlab, mamlakat o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritgan

vaqtlardan yaqin yillarga qadar axborot sohasidagi xavfsizlik sust rivojlangan. Buning asosiy sababi xorijiy gigant korporatsiyalar hisoblanib, davlat organlari va tashkilotlar tomonidan axborotni himoya qilish vositalarini sotib olish bo'yicha tender e'lon qilinganda yetakchi xorijiy ishlab chiqaruvchilarning mahalliy sheriklari bo'lgan kompaniyalar g'olib chiqishgan. Ya'ni chet el korporatsiyalar o'zlarining Qozog'istonagi vakillari orqali mahalliy startaplarga "yoqqqa turish" imkoniyatini bermaydilar. Ularning asosiy maqsadlari Qozog'istonda ish joylari yaratmaydilar, investitsiya qilmaydilar, faqat o'z mahsulotlarini sotishdan iborat.

Axborotni muhofaza qilish sohasidagi e'tibor davlat va tijorat sirlarini ta'minlash bilan bevosita bog'liq bo'lib, shuning uchun mamlakat axborot sohasining rivojlanish darajasining sustkashligini asosiy sabablaridan biri sifatida tayyor xorijiy mahsulotlardan foydalanish xavfli ekanligini ta'kidlaydi.

Bu borada rasmiy Ostona axborot sohasida milliy ahamiyatga ega bo'lgan ilmiy tadqiqot va tajriba konstrukturlik ishlarini samarali amalga oshirishga e'tiborini qaratmoqda. Qozog'iston Respublikasi Mudofaa va aerokosmik sanoat vazirligi tomonidan "Axborotlashtirish to'g'risidagi qonun"ga muvofiq mamlakat "Axborot xavfsizligi Konsepsiysi"ga sohani rivojlantirish yuzasidan milliy kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish taklifi kiritilgan bo'lib, ushbu taklif hujjatda o'z aksini topgan.

Hukumat tomonidan shakllantirilayotgan qonunchilikda mamlakat axborot xavfsizligini ta'milashning eng muhim jihatni sifatida "milliy kontent"ni rivojlantirish masalasiga alohida e'tibor qaratilgan bo'lib, uni yaratish milliy axborot makoni va OAVning tashqi destruktiv kuchlardan himoyalanishini maqsad qilib qo'ymoqda.

**Qирғизистон.** Qо'шни Qирғизистон Respublikasida o'tgan vaqt mobaynida axborot sohasidagi munosabatlarni tartib-

ga soluvchi “Milliy xavfsizlik konsepsiysi”, “Axborot olish erkinliklar va kafolatlari to‘g‘risida”, “Davlat sirlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinishi bilan birgalikda so‘nggi vaqtarda Qирг‘изистон Республикасида 2019-2023-yillar uchun mo‘ljallangan “Axborot xavfsizligi to‘g‘risida”gi Konsepsiyaning yaratilishi mamlakat axborot kommunikatsiya tuzilmasining yetarli daraja-da rivojlanib borayotganligini ko‘rsatmoqda.

Hujjatning boshqalaridan ajralib turuvchi muhim jiha-ti mamlakat axborot sohasini rivojlantirishga xizmat qiluvchi “Raqamli Qирг‘изистон 2019-2023” dasturiga ahamiyat qaratilganligi va shu asosda yaratilgan “Digital CA-SA-Qирг‘изистон Республикаси” loyihasi Janubiy va Markaziy Osiyo davlatlarini yagona raqamli markazga bog‘lashga xizmat qilishini ko‘zda tutmoqda. [2]

Hujjatdagi mavjud ma‘lumotlar tahlili, respublika fuqarolarining ommaviy axborot vositalaridan foydalanish sur‘atining ortib borishi kuzatilmoqda. Birgina Internet xizmatlaridan foydalanuvchilar soni 2017-yilda qariyb 4,8 mlndan kishini tashkil etgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2018-yil yakunida 5 mlndan ortiqni, IPTV texnologiyasi foydalanuvchilari soni 2016 yilda 16 mingdan ortiqni tashkil etgan bo‘lsa, 2018-yilga kelib bu ko‘rsatkich yana 10 mingdan ortganligini ko‘rsatmoqda. Bu esa o‘z navbatida mamlakat axborot xavfsizligiga tahdid sifatida baholanmoqda.

Axborot xavfsizligi Konsepsiyasining yana bir o‘ziga xosligi undagi axborot xavfsizligi holatining asosiy muammolariga to‘xtalib o‘tilganligi bo‘lib, xususan, axborot makonining ochiqligi va qator xorijiy OAVlarini tahdid sifatida ko‘rsatib, bu holatning oldini olish uchun “milliy kontent”ni yaratish masalasini ilgari surib, mamlakat axborot xavfsizligini ta‘minlashda “davlat xususiy sherikchilik” yo‘nalishini joriy etishni va uni rag‘batlantirib borishni yoqlamoqda.

**Tojikiston.** Tojikiston Respublikasi axborot xavfsizligini ta'minlashni strategik ustuvor yo'nalish sifatida qarab, qo'shni davlatlar orasida birinchilardan bo'lib, 2003 yilda Axborot xavfsizligi Konsepsiyasini ishlab chiqib, hujjatda sohaga oid tashqi tahdidlar ta'kidlanib, ularga dezinformasiya, yolg'on ma'lumotlar targ'iboti, axborot urushlari hamda tashqi kuchlarning siyosiy, iqtisodiy, harbiy tuzilmalarga axborot ta'sirlari ko'rsatib o'tilgan.

Ma'lumki, Tojikiston Respublikasi geografik joylashuviga va relef xususiyatlari ko'ra hududining 97% qismi tog'li mintaqqa bo'lib, buning natijasida mamlakat aholisining 33% i Internet xizmatlaridan foydalanishmoqda. [3] Ammo, mayjud foydalanuvchilar, ushu xizmatlardan to'la qoniqmasligi, davlat tomonidan muayyan ijtimoiy tarmoqlarni taqiqlab qo'yish holatlari kuzatilib turmoqda. Bunga javoban hukumat Tojikiston Islom partiyasining ijtimoiy tarmoqlarda turli diniy-ekstremistik g'oyalar targ'iboti bilan faol ishtirokini sabab qilib ko'rsatmoqda.

Mavjud ma'lumotlar tahlili, sohani tartibga soluvchi huquqiy bazaning yaratilganini ko'rsatsa, ammo hanuzgacha axborot xavfsizligini uzoq muddatlarga ta'minlashning chorasi sifatida muayyan strategiya yoki konsepsiya yaratilmaganligini ko'rsatmoqda.

Markaziy Osiyo mamlakatlari mintaqaviy axborot xavfsizligiga xavfsizlikning muhim tarmog'i sifatida qarab, xalqaro tashkilotlar doirasida ham sezilarli tashabbuslar bilan chiqmoqdalar.

Jumladan, ShHTga a'zo mamlakatlari tomonidan xalqaro axborot xavfsizligi bo'yicha dastlabki hujjat 2006-yilda qabul qilingan bo'lib, unga ko'ra davlatlarning axborot sohasidagi tahdidlariga javob berish uchun birgalikda harakat qilishlari bosh maqsad qilib olingan.

Shuningdek, 2012-yildan kuchga kirgan "ShHTga a'zo davlatlar hukumatlari o'rtasida xalqaro axborot xavfsizligi

ini ta'minlash sohasidagi hamkorlik to'g'risida"gi shart-noma – tomonlarning axborot xavfsizligi manfaatlarini ta'minlash hamda axborot makonini yaratishni maqsad qilib kelmoqda.

Ushbu Shartnoma orqali tomonlar 10dan ortiq hamkorlikning asosiy yo'nalishlarini belgilab olgan bo'lib, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan tahdidlarga qarshi javob choralarini o'zaro maslahat qilish orqali amalga oshirmoqdalar.

Ma'lumotlarni tahlil qilish natijasi, Markaziy Osiyo davlatlari mamlakat ichki va tashqi hayotida axborot xavfsizligini ta'minlash maqsadida ilgari surayotgan tashabbuslariga to'sqinlik qiluvchi quyidagi muammolar mavjudligini ko'rsatmoqda:

- transchegaraviy axborot jinoyatchiligiga qarshi kurashish internet resurslari ustidan markazlashgan nazoratning yetishmasligi;
- kiberjinoyatlar sonining muttassil ortib borishi;
- ommaviy axborot vositalarining milliy kontentni yaratishda sustkashlik bilan yondashishlari;
- har bir davlat axborot xavfsizligini ta'minlash uchun tashabbuslarni moliyalashtirishning yetaricha emasligi;
- axborot xavfsizligi, axborot siyosati va davlat sirlarini himoya qilishda kadrlar tayyorlash darajasining pastligi.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlarga asosan, mintaqalarning mamlakatlari bugungi kun talabidan kelib chiqqan holda axborot xavfsizligiga xalqaro xavfsizlikning asosiy tarmog'i sifatida yondashib, ShHT, MDH kabi xalqaro tashkilotlar doirasida o'z tashabbuslarini saqlab qoladilar.

Markaziy Osiyo davlatlarida axborot xavfsizligiga oid mavjud muammolarni bartaraf etish yuzasidan quyidagi takliflar Igari suriladi:

- Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasida doimiy faoliyat yurituvchi axborot maydonini yaratish orqali raqamli

transformatsiyaga ko'maklashish, yagona axborot makoni-ni shakllantirish va tartibga solish, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish, kiberjinoyatchilik, ekstremizm va terror-izmga qarshi kurashish maqsadida davlatlararo doimiy muloqotni yo'lga qo'yish;

- Markaziy Osiyoda sohani tartibga soluvchi mint-aqaviy hamkorlik mexanizmlarini yaratish orqali axborot xavfsizligini ta'minlashda milliy normativ-huquqiy bazani uyg'unlashtirishni bosqichma-bosqich amalga oshirish;


- sohani himoya qilish va aholining Internetdan foy-dalanish imkoniyatlarini oshirish uchun davlat boshqaruvi organlarining xususiy sektor bilan hamkorlik mexanizmlarini ishlab chiqish.

### **Foydalanimagan adabiyotlar ro'yxati:**

**1.** “О Концепции информационной безопасности Республики Казахстан” 11.04.2011г. №5.

**2.** Концепция информационной безопасности Кыргызской Республики на 2019-2023 годы. №209. 03.05.2019 г.

**3.** Ибрагимова Г. “Подходы государства Центральной Азии к вопросам управления Интернетом и обеспечения информационной безопасности”// Индекс безопасности. №1(104), том 19.



**Ilxom FAYZULLAEV,**

*Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti tayanch doktoranti (PhD)*

## **O'ZBEKİSTONDA AXBOROT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH – DAVLATIMIZ SIYOSATINING STRATEGİK MAQSADI**

*"Agar biz yolg'on g'oyaga aldanganlarni o'z holiga tashlab qo'yadigan bo'sak, ertaga chetda payt poylab turgan qabih yov kelib, uni o'z ortidan yetaklab ketmasligiga kim kafolat beradi?"*

**Shavkat Mirziyoyev**

Bugungi kunda dunyoda global miqyosda turli tajovuzkor, buzg'unchi g'oyalar zamonaviy axborot texnologiyalari orqali butun dunyoga tarqalmoqda. Bu esa jahonda axborot xuruji, ma'naviyat va madaniyat niqobi ostida g'oyaviy – mafkuraviy tahdidlarni kuchaymoqda. Ayniqsa, dunyoda kechayotgan murakkab globallashuv jarayonlari insoniyat xavfsizligi va mamlakatlar barqarorligini ta'minlash borasida jiddiy fikrlashni taqazo etmoqda.

Globallashuv jarayonlarining shiddatli tus olishi dunyo miqyosida tinchlik va barqarorlikka qarshi yangi tahdid va xatarlarni tobora kuchayotganligini namoyon etmoqda. Zero, dunyoda sodir etilayotgan bunday murakkab va tahlikali vaziyatni keskin tus olishi har qanday xalq, millat, jamiyat va davlat hayotida muntazam sezgir, xushyor hamda ogox bo'lish borasida jiddiy fikrlashni taqozo etmoqda. Ayniqsa, bugungi globallashuv sharoitida xalq va millatning madaniyatni hamda ma'naviyatiga raxna solish orqali ma'naviyatini izdan chiqarishga bo'lgan harakatlar tobora oydinlashmoqda. Bu haqda fikr yuritganda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev qayd etganidek: "Bugungi kunda davlat

va jamiyat taraqqiyoti bilan bevosita bog'liq bo'lgan, keng qamrovli maqsadlarni amalga oshirishda hal qiluvchi o'rinnegallaydigan, o'ta murakkab, og'ir sinov va qiyinchilikni yengishga qodir "farzandlarimizning ongi, dunyoqarashi asrlar davomida sinovdan o'tgan, yuksak ma'naviyat manbai bo'lgan jahon va milliy adabiyotimiz asosida emas, balki biz uchun yot bo'lgan g'oyalarni yoshlarimiz ongiga singdirayotgan zararli axborotlar asosida shakllanishiga men mutlaqo qarshiman", - deya ta'kidlagani bejiz emas, albat-ta. Zero, globallashuv tufayli ma'naviy xurujlar, yot g'oya va mafkuralar ta'siri ham tobora kengayib bormoqda. XXI asrga kelib duyoda axborotning qudratli qurolga aylanishi oqibatida axborotdan vayronkor qurol sifatida foydalanish tobora kuchaymoqda. Ayniqsa, mazkur qurol yordamida ayrim yetakchi davlatlar o'zga mamlakat aholisi ongi va dunyoqarashini o'zgartirish maqsadida g'oyaviy, mafkuraviy ta'sir o'tkazishga alohida e'tibor qaratishmoqda.

Globallashuv sharoitida zamонавиy axborot maydonidagi harakatlarning jadallahuvi oqibatida mafkuraviy ta'sir o'tkazish nihoyatda o'tkir qurolga aylanmoqda. Natijada, mazkur holatdan turli xil 126 siyosiy kuchlar o'z manfaatlar va maqsadlari yo'lida foydalanishga alohida e'tibor qaratishmoqda. Bu haqda fikr yuritganda Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov qayd etganidek: "agar harbiy, iqtisodiy, siyosiy tazyiq bo'lsa, buni sezish, ko'rish, oldini olish mumkin, ammo mafkuraviy tazyiqni, uning ta'siri va oqibatlarini tezda ilg'ab yetish nihoyatda qiyindir"(1). Zero, har qanday axborot hurujlari bevosita axborot qurollari orqali amalga oshiriladi. Rus tadqiqotchisi D.Lavsovning fikricha, "axborot qurollari deganda muayyan xalq, millatning mentaliteti, madaniyati, ma'naviyati, dini, davlatning informatsion-texnologik, harbiy in-fratuzilmasiga destruktiv tarzda salbiy ta'sir ko'rsatadigan maxsus dezinformatsion (ataylab noto'g'ri tarqatilgan ax-

borot) texnologik vositalar tizimi tushuniladi". Binobarin, axborot xurujining tahlikali shakli kishilar ongiga g'oyaviy va mafkuraviy ta'sir o'tkazishga urinishdir. Shu o'rinda, axborot xuruji – muayyan kuchlar tomonidan kishilar ongi va qalbiga yot g'oyalarni singdirish maqsadida ularning hissiyotlari, e'tiqodi va tuyg'ulariga ta'sir etishning mafkuraviy omillaridan, jamiyat turmush tarzi va mentalitetdagi o'zgarishlarni amalga oshirish uchun unga ma'naviy, moddiy, ruhiy ta'sir o'tkazishning noan'anaviy va noxolis usullaridan foydalanish asosida siyosiy maqsadlarini amalga oshirish tushunchasini anglatadi.

Bugungi kunga kelib, dunyoning yirik davlatlaridagi siyosiy markazlar axborot xurujlarini amalga oshirish orqali rivojlanayotgan mamlakatlarning jahon axborot makoniga chiqish jarayonini izdan chiqarishiga intilmoqda. Xususan, ayrim yetakchi davlatlar muayyan mamlakatdagi xukumat boshqaruvi, davlat to'g'risida xolisona fikrlarni amalda mavjud emasligi to'g'risidagi g'oyani ilgari surishga intilayotganligini ta'kidlash o'rinnlidir. O'z navbatida mavjud boshqaruvin tuzumiga nisbatan norozichilik kayfiyatlarini amalga oshirish uchun mahalliy aholi vakillarini ongini chalg'itishda ularning ongi va psixologiyasini o'zgartirish maqsadida aniq ma'lumotga ega bo'limgan axborotni tarqatishmoqda. Binobarin, axborot xurujlari xususiyatlaridan biri shundaki, ular avvalo, millatning tarixan shakllangan madaniyati, qadriyatları va uning o'ziga xosligini barbos etish bilan bir qatorda insonlarni millat va xalq sifatida yashash xavf ostida qolishiga zamin yaratadi.

Madaniyat, ma'naviyat va ma'rifatga tahdid solish orqali xalqning, mamlakatning ma'naviyati va ma'rifatini barbos etishi oqibatida har qanday xalq, millat e'tiqod-sizlik girdobiga maxkum bo'ladi. Shu tariqa, ma'naviyati izdan chiqqan bunday o'lkada, mamlakatda ommanning olomonlashuvi, siyosiy manqurtlik, beparvolik avj olishi

oqibatda xalqning mentaliteti milliy g'urur, iftihor, milliy qadriyatlar asta-sekin zaiflasha boshlaydi. Vaholanki, ana shunday o'lkani, mamlakatni, uning xalqini mustamlak-achilik kishanlarda ushlab turish, itoatkor qulga aylantirish ancha oson va "silliq" kechadi. Bugun dunyo shiddat bilan o'zgarib bormoqda. Ayniqsa, mafkura poligonlarida g'oyaviy – mafkuraviy kurashning tobora avj olishi yoshlari ongi va qalbini ekspansiya (zabt etish) etishga zamin yaratmoqda. Shu tariqa, ma'naviy tubanlik ta'siri oqibatida madaniyatsizlik, e'tiqodtsizlik kabi bir qator "ta'limotlari" oshkora ba'zan esa yashirin tarzda targ'ib etilmoqda. Natijada, milliy ruh, millatning o'ziga xosligi va uning asriy qadriyatlariga raxna solish orqali zimdan yemirishga zamin yaratilmoqda. Globallashuv sharoitida mazkur illatning ijtimoiy namoyon bo'lishi muayyan mintaqa va mamlakat aholisi ongi va qalbini zabt etmoqda. Natijada, mazkur illat asl ma'naviy qadriyatlarni tanazzul sari yetaklab, har bir halq va millatning o'z madaniyati, ma'naviyati va qadriyatlarini ikkor etishi orqali yoshlari ongida bir-biriga mutlaqo zid bo'lgan dunyoqarashni shakllantirayotganligi afsuski, tashvishlidir. Bu haqda fikr yuritganda, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev: "Jamiyatimizda sog'lom fikr, sog'lom kuch ustuvor bo'lishi uchun biz ma'naviy hayotimizni yuksaltirish, aholi, avvalo yoshlarimizni turli zararli ta'sirlardan asrash, ularni har tomonlama yetuk insonlar qilib tarbiyalash haqida muntazam o'ylashimiz, faol ish olib borishimiz zarur" (2), - deya bejiz ta'kidlamagan.


Bugungi kunda dunyo miqyosida internet va ijtimoiy tarmoqlar soni tobora kupayib bormoqda. Mamlakatimizda ham Internet tizimi rivojlanib, undan foydalanuvchilar soni kengayib bormoqda. Ayniqsa, bugungi kunda ularning soni 7 milliondan ortib ketgani ko'pchilikka ma'lum. Mutaxassislarining ma'lumotlariga ko'ra, bugungi kunga kelib, internet tarmog'ida ma'naviy-axloqiy tubanlikni targ'ib

etuvchi sahifalarning soni bir necha yuz millionni tashkil etgan. Ogoh bo'lishga chaqiradigan internet tarmog'i bilan bog'liq yana bir ma'lumot shundan iboratki, hozirda global tizim tarkibida buzg'unchilik, qo'poruvchilik maqsadi ni ko'zlaydigan kuchlarning 7000 dan ortiq veb-sahifalari mavjud. Ushbu fakt va raqamlar internet sanoati rivojlanib borayotgan hozirgi davrda insonlarning axborotlarga nisbatan juda ehtiyyotkorlik, ogohlilik va xushyorlik bilan munosabatda bo'lishlarini taqozo etadi. Aynan shu taraqqiyot vositasidan ustamona foydalanib, qalblarni zabit etishda buzg'unchi omilning roli yuqori. Shuning uchun ham turli ekstremistik va terrorchi uyushmalar o'z g'oyalarini targ'ib qilishda internetni eng samarali vosita sifatida qo'llayotganligi beziz emas. Jamiyat xavfsizligiga raxna solish maqsadi da mamlakat barqarorligiga putur yetkazishga intilayotgan mafkuraviy, g'oyaviy va informatsion xurujlar va xatarlarga qarshi doimo ogoh bo'lish har bir Vatandoshimizning bungungi kundagi muqaddas burchi hisoblanadi. Ayniqsa, axborot hurujlarini oldini olish, axborot xavfsizligini ta'minlash avvalo, mamlakatni ichki va tashqi xavflardan himoya qilishning muhim omillaridan biri bo'lib, fuqarolarimizni xususan, yosh avlodni ona Vatanga fidoiy va sadoqat ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Zero, mazkur omillar, O'zbekistonda davlat siyosatining eng muhim ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. *O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining yigirma olti yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagি nutqi* <http://uza.uz/oz/politics/zbekiston-prezidenti-shavkat-mirziyeevning-zbekiston-respubl-31-08-2017>

2. *Islom Karimov. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. Toshkent: "Ma'naviyat". 2008. – B. 113.*



## 4-SHO'BA.

# MA'NAVIY MEROS VA QADRIYATLARNI TARG'IB ETISH METODIKASI

**Abdug'ani XOLBEKOV,**  
*O'zbekiston Milliy universiteti*  
*ijtimoiy fanlar fakulteti*  
*sotsiologiya kafedrasи*

## MAMLAKAT MUSTAQILLIGI VA TARAQQIYOTIGA OID MAFKURAVIY YONDASHUV

**Annotatsiya:** Maqolada mustaqil taraqqiyot yo'llidan borayotgan O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan islohotlarning nazariy va amaliy natijalari tarixiy faktlar asosida yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** Mafkura, taraqqiyot, tarix, tajovuz, demokratiya, liberal demokratiya, yangi tarix, ijtimoiy tartib.

O'zbekistonning eng yangi tarixidagi fundamental ahamiyatli voqeа – bu davlat mustaqilligining qo'lga kiritilishiadir. Demak, ushbu voqeа xalqimiz o'z yangi tarixiga imperialistik mamlakatlar tajovuziga qarshi turish salohiyati nuqtai nazaridan qarashiga barcha asoslar bor. Shu o'rinda imperialistik siyosat mohiyatiga oid bir necha tarixiy faktlarni keltirib o'tish lozim.

Birinchi tarixiy fakt. 18-asrda hozirgi Kanada hududida 250 000, AQSh hududida bir millionga yaqin tub aholi, yani hindular yashagan edi. Keyinchalik kolonialistlar tomonidan hindularni rezervatsiyalarga ko'chirish va ommaviy qirib yuborish boshlangach, ularning soni keskin kamayib ketgan. Lekin, hozirda amerikacha liberal demokratiya propagandachilari bu tarixiy faktni oshkor qilmaydilar.

Ikkinchı tarixiy fakt. Kongo tarixan dastlab, Fransiya tomonidan istilo qilingan edi. Keyinchalik ustasi faranglar koloniyalarga ega bo'lish borasida o'z ulushlari ko'payib ketgach, qaram hududlarni bosib olish uchun kurashda kech qolgan, farang tilida so'zlashuvchi belgiyalik qirollar oilasiga sotib yuborganligi haqida dalillar mavjud. Belgiya qiroli Leopold II Kongoda kauchuk plantatsiyasini joriy qilib, haddan ziyod zulmga asoslangan rejimni joriy etgan. Masalan, kunlik normani bajarmagan tub aholi vakilining qo'l panjalari chopilgan. Sal o'tib, Leopold II fil suyagiga ruju qo'ygan, chunki uning ko'plab xonimchalari uchun fil suyagidan taqinchoqlar tayyorlanar edi. Natijada nafaqat minglab fillar, ularning ortidan qora tanlilar o'limga mahkum bo'lgan. Umumiy hisobda, Leopold II davrida Kongo-da bir million qora tanli tub aholi vakillari og'ir mehnat, shafqatsiz ekspluatatsiya va jazo tizimi, shuningdek turli kasalliklar oqibatida qirilib ketishgan. Hozirda g'arb "demokratlari" chin ma'nodagi bu genotsid haqida lom-lim deyishmaydi. Demak, tarixga xolis qarash ko'pincha geosiyosatning qurboni bo'layotganligini ko'ramiz.

Yuqoridagi tarixiy faktlar asosida O'zbekistonning eng yangi tarixini yoritishda va uni o'qitishda mustaqillik g'o-yalari va uning ahamiyatiga alohida ahamiyat qaratilishi kerak.

Mamlakatimizning o'z taraqqiyot yo'lini tanlash muammosi mavzuning ikkinchi bir qirrasidir. Tarixan murakkab davrda davlatimizning Birinchi Prezidenti Islom Karimov O'zbekistonning o'z taraqqiyot yo'lini to'g'ri asoslab berganligini bugungi voqelik ko'rsatmoqda.

Ma'lumki, hozirda hech bir zamonaviy jamiyat o'zini kapitalistik deb atashni xush ko'rmaydi, balki uning o'rниga "bozor mexanizmlari" atamasi ishlataladi. Qolaversa, "sotsializm" atamasiga nisbatan ham shu mulohazani bildirish mumkin. Shu o'rinda yangi tarix dunyoning sobiq

SSSR va AQSh boshchiligidagi ikki lagerga bo'lingan davrda ularning har ikkalasiga nisbatan tanqidiy yondashuv Xitoy davlati rahbarlari hamidan uzoqni ko'ra bilganligini ko'rsatmoqda. Gap shundaki, 1970-yillar oxirida xitoy jamiyatini jar yoqasiga olib kelib qo'ygan dogmatik rahbar Mao se Dun vafotidan so'ng, Xitoyda keng qamrovli islohotlar boshlangan edi. Ularning boshida reformator Den Syaopin turar edi. U Xitoy yetakchisiga aylangan dastlabki kunidan boshlab, muhim strategik vazifani amalga oshirdi. Xitoyning deyarli barcha darajadagi rahbarlari, yani hozirgi zamon siyosatshunoslari tilida aytganda, mamlakat siyosiy elitasi vakillarini jamlagan kommunistik partiya qurultoyida Den Syaopin yig'ilganlarga qarata bir savol bilan murojaat qildi: "Aytingchi, oq mushuk yaxshimi yoki qora mushuk yaxshimi?". Tabiiyki, hamma taajjubdan jim turishdi. Den savolini yana takrorlaydi. Yana hech kim javob berolmagach, u fikrini bayon qiladi: "Javob berolmasligingizni bilardim. Chunki, siz ikki o'zaro bir-biriga zid narsani muvofiqlashtirishni xayolingizga ham keltirrolmadingiz. Tasavvur kiling, oq mushuk – oppoq, pokiza, toza jonzot, uni majozan sotsializmga qiyoslaylik. Mohiyatan sotsializm go'yoki yaxshi tuzum bo'lib ko'rinsada, ammo samarasasi kam bo'lgan iqtisodga asoslanadi. Uning yaxshiligi shuki, unda kollektivizm bor, boy va kambag'al o'rtasida farq deyarli yo'q, ommaviy tashkilotlar esa ijtimoiy tartibni saqlashga harakat qiladi. Ammo samarasizligi shuki, unda motivatsiya yo'k, ya'ni yaxshi ishlagan ham, yomon ishlagan ham bir xil maosh, daromad oladi. Nati-jada, dangasa va ishyoqmaslar ko'payib, ular davlatning bo'ynida qolib ketadilar. Ko'rinib turibdiki, oq mushuk si-chqon ovlamayapti. Qora mushukni esa kapitalizmga qiyoslaylik. Kapitalizm shafqatsiz tuzum, agarda omad va puling bo'lsa yaxshi yashaysan, sal oyog'ing toysa, omading ketsa, hech kim hech biror insonga rahm qilmaydi. Ammo,

kapitalizm shu vaqtning o'zida motivatsiya asosiga qurilgan. Agar g'oyang bo'lsa, boyib ketishing oson, soliq to'lab yursang va qonunni buzmasang bo'ldi, biznesingga hech bir to'siq bo'lmaydi, gullab-yashnaysan. Buning ortidan boy odamlar soat sayin ko'payib boraveradi. Demak, oq mushuk yoki qora mushuk, buning ahamiyati yo'q, muhim u sichqon ovlashi kerak. Shu ma'noda biz quradigan jamiyatni kapitalistik yoki sotsialistik deb atash muhim emas. Muximi, u shunday jamiyat bo'lsinki, unda odamlar yaxshi yashasin, farovon hayot kechirsin. Demak, biz har ikki tuzumning eng yaxshi tomonlarini olamiz va ularning yomon tomonlaridan voz kechamiz".

Darhaqiqat, xitoy islohotlarining poydevorini shu kabi oddiy va dono prinsiplar tashkil etdi. Natijada, mamlakat 30-40 yil ichida eng qashshoq mamlakatlar safidan chiqib, bugungi kunda dunyoning eng tez rivojlanayotgan davlatiga aylandi. Den Syaopin avval boshdanoq, kommunistik partiya obro'si va kuchiga tayanib, yagona harakat strategiyasini olib borish uchun siyosiy elitaning kafolatini talab qildi va bunga butun islohotlari davomida erisha oldi. Bu esa islohotlarni oxirigacha olib borishda asos bo'lib xizmat qildi. Xitoy har ikkala tuzumni davlat va jamiyat foydasiga ishlata olgan yagona mamlakatdir.

Tabiiyki, taraqqiyot modellari turlicha bo'lib, inson taraqqiyoti indeksi (sog'lini saqlash, uzoq umr kurish davomiyligi, ta'lim va h.k.) umuminsoniy xarakterga egadir. Zamonaviy sivilizatsiyaning turfa kemtikliklari ham bor. Agar zamonaviy sivilizatsiya ijtimoiy adolatni ta'minlash tomonga yuz burmasa, halokatga uchrashi mumkin degan fikrlar ham mavjud. Ma'lum ma'noda shunday bo'ldi ham. Yevropa XX asrda inqiloblardan qutulib qoldi. Avvalo, Yevropada ishchilar sinfi o'z huquqlari uchun birlashib kurashgani uchun ham kapitalistlar yon bosishga majbur bo'lishdi. Qolaversa, ayrim marksistik g'oyalardan unumli

foydalanimish, aytaylik ish kunini qisqartirishdi, maoshlarni oshirish oxir oqibat ishchilarning inqilob qilishga bo'lgan ehtiyojini so'ndirdi. Natijada ko'plab shimoliy Yevropa mamlakatlari sotsial farqlanish kamaydi. Ammo bugungi postsotsialistik makondagi mamlakatlarda moliya oligarxlarining ish o'rinxarini yaratib, tadbirkorlik qilish emas, balki davlat budgeti o'g'irlab, xalqning haqqini yeb boyib ketish holatlari bundan mustasnodir.

Shvesiya ayrim sotsialistik g'oyalari va bozor mexanizmlarining o'zaro bog'lay olgan yana bir mamlakatdir. Demak, hozirda tizimlar qarama-qarshiligi birinchi planda turmayapti. Albatta, sinfiy antagonizm aktualligicha turibdi. Kapitalning harakatlanish qonuniga ko'ra, ertami-kech davlatning kapitalni tiyib turuvchi sotsialistik mexanizmlarini yutib yuborishi ham mumkin. Sotsializm qurish uchun kapitalizm orqali yetarli shart-sharoitlarni yaratib olib, jahon bozorida yetakchiga aylangan mamlakatning o'zi yo'q. Iqtisodni vaqt o'tib yana sotsialistik o'zanga qaytarish iqtisodiy o'sishning pasayishiga olib kelishi mumkin. Yuqrida aytib o'tilgan simbiotik tuzum qaytadan to'liq kapitalizm restavratsiyasiga olib kelishi yoki sotsialistik mexanizmlarning ortiqcha kuchayib ketmasligi uchun esa bozor mexanizmlari amal qilishi muhimdir. Buni hozirda davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev olib borayotgan siyosatda ko'ryapmiz.

Endi mavzuga oid uchinchi masalaga to'xtalsak. Bu XXI asr siyosati real siyosiy arboblari faoliyati bilan chambarchas bog'liqligi masalasidir. Siyosatchilar har bir davrga mos bo'lib, davr murakkabligi kuchli siyosatchini maydonga olib chikadi. Masalan, o'tgan asrning 30-40 yillarda Ruzvelt va Cherchill kabi, urushdan keyingi yillarda esa de Gol, Adenauer kabi, tinch 60-yillar Brandt, Shmit kabi siyosatchilarni oldinga chiqardi. Dunyoning ikki qutbli tizimlari o'rtasida kurash avj olgan yillarda, ayniksa, 60-yillar boshida AQSh da siyosat maydoniga Djon Ken-

nedi kirib keldi. Agar ana shu gayratchan, ammo yoshiga nisbatan dono siyosatchi bo'lмаганida, uning hamkasbi va antilager vakili Xrushev o'z volyuntarizmi va anchagina hovliqmaligi bilan insoniyatni atom urushi xavfidan xoli qilishiga ishonch yo'q edi. Keyinchalik, ikki lager o'rtasida munosabatlar nisbatan muvozanatlashgan 70-yillarda Nikson hokimiyatga kelib, sobiq SSSR ga viziti paytida Leonid Brejnev bilan shartnomalar tuzishga erishdi. Ammo ko'p o'tmay, "sovuv urush" yana avjiga chiqdi va Andropov (u ko'p jihatdan Putinning ustozи) dunyoga ochiqdan ochiq yadro qurolini qo'llash bilan tahdid qilmoqda.

Ikki lager o'rtasida kurash avj olib, sotsialistik lager o'z dogmatizmi va ortiqcha manmanligi oshib ketib, turg'unlik davri hukmron bo'lgach, Leonid Brejnev davri boshlandi. Ammo turg'unlik tizimli krizisni keltirib chiqargach, uning davri tugdi. Siyosatda "artistlar" davri boshlandi: Gorbachev artist bo'lmasada, bu kasbning ko'plab qirralarini o'zlashtirgan bo'lib chiqdi, uning davrdoshi Ronald Reygan (o'z xotini bilan birgalikda) asl kasbiga ko'ra haqiqiy artistdan chiqqan AQSh prezidentiga aylandi. Natija malum: u o'z rolini ajoyib tarzda bajardi. Dunyoda ikki qutbli tartibot o'rnida bir qutbli siyosiy tizim barpo bo'lishi bilan, 70 yildan ortiq davrda katta energiya, aql va ruhiy zo'riqishni talab qilgan va shunga mos tarzda irodali shaxslarni talab qilgan tartibotga ehtiyoj qolmadи: siyosatdonlar, so'ng esa siyosatboz siyosatchilar pleyadasi siyosiy sahna-ga yopirildi. To'g'ri, ikki lager asosiy aktyorlari kurashidan chetrokda turgan Yevropaning bir qator tajribali siyosatchilari ham oz emasdi: Mitteran, keyinrok Jak Shirak, Margaret Tetcher, Shreder va boshqalar.

Xullas, O'zbekiston o'zining munosib yetakchisi bosh-chiligidа o'z mustaqilligini har tomonlama mustahkamlab, mamlakatimizda farovon jamiyat barpo etishi uning eng yangi tarixidagi muhim voqelikka aylanadi.

**Shavkat TO'RAYEV,**

*Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti bo'lim boshlig'i f.f.n.  
dotsent*

## **MUTAFAKKIR AJDODLARIMIZNING TA'LIMOTLARI YANGI O'ZBEKİSTONDA DEMOKRATIK JAMIYAT BARPO ETISHNING MUHIM OMILI**

Demokratiya – asrlar davomida butun insoniyat tarixiy taraqqiyoti mobaynida intilib kelayotgan ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy va mafkuraviy munosabatlarni adolatli boshqarish tizimidir. Zero, hozirgacha insoniyat tarixida orzu qilingan tom ma'nodagi huquqiy demokratik davlat, odil fuqarolik jamiyatining mukammal shakli yaratilgani yo'q. Chunki, demokratik qarashlar, unga bo'lgan intilishlar turli davrlarda turlicha bo'lган. Demokratiya tushunchasining real mazmuni, ayniqsa, uni ijtimoiy amaliyotda namoyon bo'lish shakllari u yoki bu tarixiy davrda mavjud bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy tuzumga mos ravishda o'zgarib borgan.

O'zbekistonda barpo etilayotgan demokratik jamiyat asoslarining eng qadimgi ildizlaridan biri "Avesto"dir. U miloddan avvalgi 7-6 asrlarda hozirgi O'zbekistonning Xorazm viloyati hududida yaratilgan ilk davlatchilik to'g'risidagi ijtimoiy-falsafiy, diniy ta'limot hisoblanadi. "Avesto"ni "Hayot yo'rinqomasi", "Qonunlar to'plami", "Bilimlar majmuasi" deb bejiz atashmagan. Zero, hozirgi adolatparvar demokratik jamiyat asoslarini yaratishga qaratilgan milliy g'oya bilan hamohang ijtimoiy-falsafiy fikr unda mavjудligi yaqqol ko'zga tashlanadi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, manbalarda yozilishicha, mahalliy xalqni o'z asoratida tutib turish uchun bosqinchilar mustahkam o'rashib olish maqsadida "Mahalliy xalq ustidan o'z hukmini yanada

mustahkamlash, ular ustidan nazoratni kuchaytirishning zarurligi natijasi o'laroq, boshqaruv apparati, boshqaruv markazi muntazam qurolli kuchlar, nazorat organlari tashkil etila boshlandi. Davlat ana shu tartibda tarkib topa boshladi”[1]. Ana shunday tarixiy sharoitda mahaliliy xalqni birlashtirish ob'ektiv zaruriyatga aylanib bordi. Faylasuf olim Tohir Karimning e'tirof etishicha, “Cho'l bilan voha xalqini kelgindi bilan o'troq xalqlarning manfaatliga bunday mos kelmaydigan ziddiyatlarni bartaraf eta oladigan qudratli mafkura zarur edi. Ana shunday mafkura bo'lib Zardo'sht ta'limoti vujudga keldi”[2].

“Avesto”da davlat boshqaruvi tizimiga jamiyat tarixi va uni rivojlanishiga oid ma'lumotlar o'z ifodasini topganligining e'tiborli jihat shundaki, unda avvalo inson haq-huquqi, manfaati, erki, uning ruhiy, ma'naviy komilligi, falfasasi ustuvor yo'nalish hisoblanadi.

Ma'lumki, demokratik jamiyat asoslari ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar, huquqiy normalarga ham bog'liq bo'la-di. Har qandayadolatli demokratik jamiyat huquqiy munosabatlardan tashqari mavjud bo'la olmaydi. Inson o'zining amaliy faoliyati, ezgu fikrlari va so'zi bilan yorug'lik, baxt va haqiqatga eltuvchi oliy tangri Axuramazdaga yaqinlashadi. Demokratik jamiyat mohiyati va mazmuniga ko'ra haqiqat, axloqiy burch, yaxshi so'z, maqsad, poklik, ezgulikka intilish, hayot, yorug'lik, baxt, suv, yer, olov, xonardon (ya'ni oila ma'nosida), totuvlik, chorva, dehqonchilik, hunarmandchilik tushunchalarini o'zida mujassam etadi. Jamiyatda kishilar o'rtasida munosabatlar, muayyan ijtimoiy normalar asosida tashkil etilmog'i lozim “O, Spitama shartnomani buzuvchi kishi butun mamlakatni buzadi, shu bilan birga, Artaga tegishli barcha mulku mollarga putur yetkazadi. O, Spitama ahdingni buzma...” (“Yasht” X-bob)[3]. Avestoda qayd etilganadolatli, huquqiy jamiyat haqidagi ta'limotlar qadimgi Rim va Yunon huquq falsafasidan qadimiyroq,

ayni paytda, O'zbekistonda demokratik jamiyat shakllanishi asosida umuminsoniy qadriyatlar bilan bog'liqligi, shuningdek har qanday ijtimoiy tizim zamirida ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, huquqiy, mafkuraviy tizimlarning uzviy bog'liqligi yotadi. Avestoda ilgari surilgan g'oyalarni o'z davrining xaloskor g'oyalardan biri deyishimiz mumkin. Chunki, unda inson, xalq baxt-saodatini ta'minlovchi yaxlit davlat tizimini yaratish haqidagi ta'limot o'z ifodasini topgan.

Ta'kidlash joizki, antik zamon Yevropa madaniyatining rivojlanishida Markaziy Osiyo xalqlari dunyoqarashining asosi bo'lgan zardushtiylik diniy-falsafiy ta'limotining ta'siri muhim ekani manbalarda qayd etiladi[4].

Ma'lumki, eramizdan avvalgi V-IV asrlarda Yunonistonning ko'pgina polis-shaharlarida demokratik tamoyillarga asoslangan tizim qaror topgan edi. Bu davrdagi demokratik tizimning muhim belgisi sifatida insonning, har bir fuqaroning, uning jamiyatda tutgan o'rnidan qat'iy nazar, davlat ishlarida ishtirok eta olish huquqiga ega bo'lishi mumkin, buning uchun esa, siyosiy faol kishilardan nutq madaniyati, notiqlik san'atini doimiy takomillashtirib borishi va fuqarolarni ishontira olish san'atini to'la egalash talab qilingan[5].

Platon va Aristotel demokratiya deganda, avvalo davlatni boshqarish shaklini tushungan. Pirovard natijada, demokratik jamiyat bo'lish uchun esa, u yoki bu davlatni bir kishi boshqaradimi, ko'pchilikmi? – degan savolga javob berish ularning fikricha muhim ahamiyatga egadir. Masalan, Platon ideal davlat deb bilgan – aristokratik davlat tuzumining halokati yer va turar joylarning xususiy mulkka aylanishiga, bundan esa, noroziliklar kelib chiqib qarama-qarshiliklar paydo bo'lishi va urushlar boshlanishiga sabab bo'ladi. Urushlar xususiy shaxslar qo'lida katta miqdorda boylik to'planishiga olib keladi. Oqibatda dav-

lat hokimiyatini oligarxiya egallaydi, kambag' allar boshqa-ruvda ishtirok eta olmay qoladilar.

Oligarxik davlatda mulksiz aholining boylarga qarshi nafrati kuchayib boradi, bu esa davlat to'ntarishiga olib keladi va oxir oqibat demokratiya o'rnatiladi.

Umuman, demokratiyani Platon yoqimli va rang-barang, lekin yetarli darajada boshqarib bo'lmaydigan tuzum sifatida baholagan. Bunday davlatlarning har qaysisida ni-maiki ezgu ish deb hisoblangan bo'lsa, (timokratiyada-harbiy zafarlar, oligarxiyada-boyliklar, demokratiyada-erk), aynan shu narsa davlatning halokatiga sabab bo'ladi[6].

Platon qarashlarini tanqid ostiga olgan Aristotel, davlatni paydo bo'lishi va shakllanishini tabiiy taraqqiyot natijasi deb qaraydi. Davlat boshqaruvining to'g'ri shakli – monarxiya, noto'g'ri shakli esa – oligarxiya va demokratiya, deb hisoblaydi. U qonunga emas xalqqa bog'liq bo'lgan demokratiyani tanqid qilib, qonun ustuvorligiga asoslangan demokratiyani qo'llab-quvvatlaydi[7].

Abu Nasr Forobiylarning demokratik jamiyat haqidagi g'oyalarini yanada rivojlantirdi. Bu haqda nemis olimi German Ley shunday deydi: "Forobiylarning traditsiyalarining turli xil elementlaridan foydalangani holda davlat va siyosatni tushunish masalalarida Platon fikrlaridan uzoqlashgan, ya'ni ilgarilab ketgan"[8].

O'z davrining yirik mutafakkirlaridan biri bo'lgan Forobiylarning "Fozil odamlar shahri" risolasida jamiyatni boshqarish tizimi haqidagi ilmiy-nazariy qonuniyatni yaratdi. Forobiyning demokratik jamiyat haqidagi ta'limoti asosidaadolat va axloq, qonunchilik g'oyasi yotadi. "Madaniy jamiyat va madaniy shahar (ya'ni mamlakat) shunday bo'ladiki, -deb ta'kidlaydi Forobiyl, – shu mamlakatning aholisidan bo'lgan har bir odam kasb-hunarnda ozod, hamma barobar bo'ladi, kishilar o'rtasida farq bo'lmaydi, har kim o'zi istagan va o'zi tanlagan kasb-hu-

nar bilan shug'ullanadi. Odamlar chin ma'nosи bilan ozod bo'ladilar. Odamlarning tinchlik va erkinliklariga xalaqit beruvchi sulton bo'lmaydi. Ular orasida turli yaxshi odatlar, zavq-lazzatlar paydo bo'ladi”[9].

Forobiyning fozil shahar haqidagi ta'limotidagi qarashlari, bugungi O'zbekistonda demokratik jamiyat shakllanishiga oid ijtimoiy-falsafiy yondashuvlarga mos kelishini kuzatish mumkin. Uning fikricha, fozil shahar, ya'ni adolatli davlat faqat demokratik tamoyillar asosida rivojlanishi mumkin. Bu jarayonda davlat boshqaruvchisiga xos bo'lishi kerak bo'lgan o'n ikki xil sifatlari aniq ko'rsatib berilgan.

- To'rt muchasi sog'lom bo'lishi;
- Nozik farosatli bo'lishi, eshitganlarini tez ilg'ab olib voqelikka mutanosibligini mulohazalay olishi;
- Kuchli xotiraga ega bo'lish, ko'rgan, eshitgan nar-salarning tafsilotlarini yodda saqlash;
- Hodisalarning alomatlarini oldindan ko'ra oladigan o'tkir zehnli va teran idrokli bo'lish;
- O'z fikrini to'liq va aniq ifodalay bilish. 6. Pok va vijdonli bo'lish, nojo'ya ishlardan yiroq bo'lish;
- Barcha amallarda me'yorga amal qilish, ilmli va ma'rifatli bo'lish;
- Haq va haqiqatga intilganlarni sevish, yolg'on va yolg'onchilarni qoralash;
- G'ururli bo'lish va oliv maqsadlar sari intilish;
- Mol-dunyoga ruju qo'ymaslik;
- Adolatparvar bo'lish, nohaqlikka yo'l quymaslik, odamlarga odillik ko'rsatish;
- Bajarilishi lozim bo'lgan ishlarni amalga oshirishda qat'iyatli bo'lish, jur'atsizlik, ikkilanish, ko'ngilchanglikka yo'l qo'ymaslik[10]. E'tiborli jihat shundaki, Forobiy davlat rahbari xalq tomonidan saylanishidan tashqari “ular odamlar ichidan ko'tarilgan, sinalgan eng oliyanob rah-

barlikka loyiq kishilar bo'ladilar. Shuning uchun bunday rahbarlar o'z saylovchilarini to'la ozodlikka chiqaradilar, ularni tashqi dushmanlardan muhofaza qiladilar”[11], – degan fikrlari, ayni bugungi kun demokratik jamiyat barpo etish tamoyillaridan biridir.

Faylasuf olim J.Tulenov Forobiyning davlat rahbariga bergen sifatlarini tahlil qilib, “Ana shunday olижаноб инсонија fazilatlarni o'zida mujassamlashtirgan, bozor iqtisodiyoti qonun va qoidalarini, uning san'atini mukammal o'zlashtirib oлган, elim, xalqim deb yonib yashaydigan rahbarlar istiqlol taqdirini hal qiluvchi kuchdir”[12], – deydi. Xuddi shuningdek, M.Mirhamidov Forobiy davlat rahbariga talablar qo'yish bilan birga,adolat tamoyillarini olg'a surishini ta'kidlab o'tadi[13]. Bu haqda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev, “Buyuk mutafakkir va alloma bobolarimizning ma'rivotli jamiyat to'g'risidagi g'oyalari, orzu-umid va armonlari, o'ylaymanki, ko'pchiligidan yaxshi tanish. Bu haqda gapirmasdan, birgina Abu Nasr Forobiyning “Fozil odamlar shahri” asarini eslashning o'zi kifoya” deb alohida ta'kidlaydi. Bundan ko'rinish turibdiki, ajdodlarimiz qoldirgan ma'naviy meros bugungi kunda O'zbekistonda yaratilayotgan demokratik jamiyatning asosi bo'lib xizmat qilmoqda.

Binobarin, bugungi Yangi O'zbekistonning barpo etilishida ajdodlarimizdan qolgan bu meros bizga doimo g'urur va iftixor baxsh etib turuvchi eng katta boyligimiz hisoblanadi. Davlatimiz rahbari ta'biri bilan aytganda “Biz – g'ururi oriyati, ma'naviyati baland xalqmiz. Bu hech shubhasiz, katta boylik. Ajdodlarimiz asrlar davomida asrab-avaylab kelgan bu boylikni yo'qotib qo'ysak, kelgusi avlodlar bizni aslo kechirmaydi. Aksincha – bu fazilatni xalqimizni, mamlakatimizni birlashtiradigan eng kuchi li tamoyilga aylantirishimiz kerak. Negaki, milliy g'ururi baland xalqning qadr-qimmati ham baland, ma'naviyati,

irodasi kuchli bo'ladi. Bunday xalq bilan har qanday buyuk maqsadlarga yetishish mumkin”[14].

### **Foydalaniilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. *Tohip Карим Муқаддас “Авесто” изидан.*-Т.: Чўлпон 2000.-Б.122.
2. Ўша манба, -Б. 124.
3. Сағдуллаев А., Алиқулов Б.ва бошқалар Ўзбекистоннинг тарихи: Давлат ва жамият тараққиёти .-Т.: Академия, 2000. -Б 31.
4. Сулаймонова Ф. Шарқ ва Farb. -Т.: Ўзбекистон, 1997. -325 б.
5. Античная риторика под ред. А.А.Тихо-Годи. – М.: Наука, 1978. -4 78 с.
6. Муҳиддинова Ф. Сиёсий ва һуқуқий таълимотлар тарихи .-Т.: ТДЮИ, 2003. -253
7. Ўша асар, -Б.55
8. Герман Лей. Очерк истории средневекового материализма. -М.: Наука, 1962. -С. 127
9. Абу Наср Форобий Фозил одамлар шаҳри. -Т.: Навруз, 1993. -Б 196
10. Абу Наср Форобий Фозил одамлар шаҳри, 1993. -Б. 159-160.
11. Ўша асар.-Б. 190.
12. Туленов Ж., Гафуров З. Фалсафа. -Т.: Ўқитувчи, 1997. -Б. 358.
13. Мирнамидов М. Ўзбекистон: демократик һуқуқий давлат ва фуқаролик жамияти қуриши йўлида. -Т.: Университет, 2003.-Б. 47-48.
14. Мирзиёев Ш.М. “Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси”. Т.: “Ўзбекистон”, 2022. -Б 184-185.

**Zokir ZAMONOV,**  
*O'zDJTU dotsenti,  
siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

**YOSH AVLODGA MA'NAVIY QADRIYATLARNI  
ASRASHGA BO'LGAN MUNOSABATNI  
SHAKLLANTIRISHDA UMUMTA'LIM  
TIZIMIDAGI FANLARNING O'RNI**

Mustaqillik yillarda mamlakatimizda jamiyat hayotining ma'naviy-ma'rifiy asoslarini mustahkamlash, milliy istiqlol g'oyasining asosiy tushuncha va tamoyillarini hayotga joriy etish, yurtdoshlarimiz, ayniqsa, yosh avlod qalbida Vatanimiz taqdiri va kelajagi uchun daxldorlik va mas'uliyat hissini oshirishga qaratilgan targ'ibot tizimi shakllandı. Xususan, istiqlolning dastlabki o'n yilligida, ya'ni 1992-yil 2-iyulda (636-XII-son) O'zbekiston Respublikasining "Ta'lif to'g'risida"gi Qonuni [1] va Kadrlar tayyorlash Milliy dasturida [2] ta'lif va tarbiya uyg'unligiga alohida e'tibor berilib, kadrlarning yetuk mutaxassis sifatida shakllanishi ta'lif-tarbiyaning uyg'unligiga bog'liqligi o'z aksini topadi. Bu jamiyat taraqqiyotida o'z ifodasini topadi. Binobarin, "Yosh avlodni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda xalqning boy milliy madaniy-tarixiy an'analariga, urf-odatlari hamda umumbashariy qadriyat-larga asoslangan samarali, tashkiliy, pedagogik shakl va vositalari ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etiladi"[3]. Dasturda Kadrlar tayyorlash milliy dasturi sohaga oid rivojlanishning uch bosqichini belgilab berildi.

Birinchi bosqich: 1997-2001 yillarni o'z ichiga olib, dasturda belgilangan vazifalarni amalga oshirish uchun huquqiy asoslarni yaratish,

Ikkinci bosqich: 2001-2005 yillarni o'z ichiga oladi. Milliy dasturni to'liq ro'yobga chiqarish bilan birga, real

ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarni hisobga olgan holda unga aniqliklar kiritish nazarda tutiladi.

Uchinchi bosqichda – 2005 va undan keyingi yillarda to'plangan tajribani tahlil etish va umumlashtirish asosida, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish istiqbollariga muvofiq kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish va yanada rivojlantirish nazarda tutiladi[4].

Bundan tashqari keyingi davrda, ya'ni 2001-yil 18-yanvarda "Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar" fani bo'yicha ta'lim dasturlarini yaratish va respublika ta'lim tizimiga joriy etish to'g'risida"gi O'zbekiston Prezidentining farmoyishi qabul qilindi. Mazkur Farmoyish asosida Milliy istiqlol g'oyasini xalqimiz, avvalo, yoshlarimiz ongiga singdirish jarayonini tahlil qiluvchi va takomillashtiruvchi maxsus metodologik komissiya tarkibi tasdiqlandi. Komissiyaga ta'lim turlari bo'yicha yuqori malakali olim va mutaxassislardan iborat ekspert guruhlarini tashkil etish huquqi berildi. "Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar" fanini o'qitish yuzasidan Xalq ta'limi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirliklarining ta'lim turlari va bosqichlarida belgilangan soat hajmlari, professor-o'qituvchilarni malaka oshirish kurslaridan o'tkazganligi, pedagog kadrlar uchun tajribaviy dasturlar, ma'ruza matnlari va o'quv qo'llanmalarini tayyorlaganligi, o'quvchi va talabalar bilimini nazorat qilishning turli shakllarini ishlab chiqqanligi, Fan va texnika davlat qo'mitasi tomonidan milliy istiqlol g'oyasining ilmiy asoslarini ishlab chiqishga bag'ishlangan davlat ilmiy-texnik dasturi shakllantirilganligi hisobga olinib, ularning ta'lim jarayoniga joriy qilinishi metodologik komissiya tomonidan o'rganib borildi[5].

Mazkur farmoyish asosida, oliy ta'lim muassasalarida "Milliy istiqlol g'oyasi; Huquq va ma'naviyat asoslari" nomli yo'nalish tashkil qilindi. Uning bitiruvchilari ta'lim muassasalarida "Odobnoma", "Vatan tuyg'usi", "Milliy istiqlol

g'oyasi va ma'naviyat asoslari", "Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar", "Ma'naviyat asoslari", "Davlat va huquq asoslari", "Konstitutsiya olamiga sayohat", "Konstitutsiyani o'rghanish" va boshqa shu kabi maxsus fanlardan dars berdilar[6].

Mamlakat Prezidenti oxirgi uch-to'rt yillikda ta'lim-tarbiya sohasida zamonaviy va oqilonan tizim yaratish, o'qitish metodlari, ta'lim standartlari, darslik va o'quv qo'llanmalari yangilash zarurligi, bilim berishda chet eldag'i ilg'or tajribalardan foydalanish, tarbiyada esa milliy an'ana va qadriyatlarga suyanish muhimligini ta'kidlamoqda.

Xususan, umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'quvchilarning yoshi va psixofiziologik xususiyatlarini inobatga olgan holda ularning ongiga umuminsoniy qadriyatlar va yuksak ma'naviyatni yanada chuqur singdirish, ularni vatanparvarlik va insonparvarlik ruhida tarbiyalash zamon talabiga aylangan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentyabrdagi "Xalq ta'limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5538-son Farmoni qabul qilindi[7]. Farmondan kelib chiqib, xalq ta'limi tizimiga ilg'or xorijiy tajribani, o'quv-tarbiya jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni, ta'lim berishning innovatsion usullarini joriy etish ham nazarda tutilgan. Unga ko'ra, xalq ta'limi tizimini isloh qilishning asosiy yo'naliishlari bilan birqalikda, umumiy o'rta va maktabdan tashqari ta'limni sifat jihatidan yangi darajaga ko'tarish, har tomonlama kamol topgan avlodni tarbiyalash, o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy va intellektual rivojlanishini ta'minlash belgilab berildi.

2019-yil 23-avgustda o'tkazilgan xalq ta'limi tizimini rivojlantirish, pedagoglarning malakasi va jamiyatdagi nu-fuzini oshirish, yosh avlod ma'naviyatini yuksaltirish masalariga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishida Prezi-

dent maktab ta'limi tizimini isloh qilish bo'yicha mam-lakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar, bu borada oldimizda turgan dolzARB vazifalar haqida fikr yuritar ekan, ulug' ma'rifatparvar bobomiz Mahmudxo'ja Behbudiyning **"Dunyo imoratlari ichida eng ulug'i maktabdir"** degan fikrini alohida ta'kidlab, bu masalaning mohiyati va ahami-yatiga atroflicha to'xtalib o'tadi. Jahondagi rivojlangan dav-latlar jamiyat hayotini o'zgartirishga qaratilgan islohotlar avvalo, ta'lim tizimidan boshlangan. Maktabni o'zgartir-masdan turib, odamni, jamiyatni o'zgartirib bo'lmasligini ta'kidladi.

Qolaversa, tezkor ravishda kechayotgan global jarayon-lar, fan-texnika taraqqiyoti, innovatsion jamiyatga bo'lgan ehtiyoj yoshlar uchun ko'plab imkoniyatlar va tashab-buskorlikni yaratmoqda. Endi ular jamiyatda kechayotgan jadal islohotlarga faqat tuzatuvchi bo'libgina emas, balki ular o'zi tashabbus bilan chiqib, oldiga tezkor qarorlar qa-bul qilish, innovatsion tafakkurni shakllantirish, intellek-tual salohiyatni oshirish bilan birga milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiq bo'lishdek hayotiy zaruriyatlarni ham teng ravishda olib borishi talabidan kelib chiqib Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini ishlab chiqishga ehtiyoj borligi kundek ravshan bo'ldi.

Bugun jamiyatda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy-ma'rifiy, siyosiy o'zgarishlar-ni bugungi jadal islohotlar bilan bog'lab amaliy hayotga moslashtirgan holda o'rganish nafaqat keng jamoatchilik, davlat va nodavlat tashkilotlari, balki uzluksiz ta'lim tizim-idagi o'zgarishlarga moslab ham qo'llashni talab etadi.

Buguni yoshlar uchun yoshlar uchun ochiq va bugungi zamon talabiga mos, sifatli ta'limni ta'minlash ijtimoiy siyo-satimizning yetakchi masalalaridan biri hisoblanadi. Xusus-an, bunda Davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyev: "Ma'lumki, yosh avlod tarbiyasi hamma zamonlarda ham muhim va

dolzarb ahamiyatga ega bo'lib kelgan. Ammo, biz yashayotgan XXI asrda bu masala haqiqatan ham hayot-mamot masalasiga aylanib bormoqda”,<sup>[8]</sup> deb alohida qayd etdi.

Shu ma'noda, “O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida 2019-yil 23-avgust kuni bo'lib o'tgan yig'ilishining 24-bandida bevosita “Milliy g'oya”, “Odobnama”, “Din tarixi”, “Vatan tuyg'usi” kabi fanlarni birlashtirgan holda, 2020-2021 o'quv yilidan yagona Tarbiya fanini bosqichma-bosqich joriy vazifasi belgilanadi. Qolversa, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrdagi “Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlari to'g'risida”gi Qarori bilan tasdiqlangan Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasida ham xususan, o'quvchilarda fazilatning axloqiy, fuqarolik, madaniyatlararo, ma'naviy, ijtimoiy sifatlarini shakllantirish hamda demokratik jamiyatning rivojlanishni nazarga tutadi. Shuningdek, 2020-yil 6-iyuldagagi “Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida “Tarbiya” fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida” 422-sonli [9] qarorlari aynan bugungi ilm-fan va jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy-ma'rifiy taraqqiyoti uchun dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Tarbiya fanining bosh maqsadi – o'zida go'zal insoniy fazilatlarni mujassam etgan, ma'nан yetuk, bilimli, jismongan baquvvat, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega, o'z nuqtai nazarini himoya qila oladigan, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni xulq-atvorida uyg'unlashtirgan zamonaviy, barkamol avlodni tarbiyalashdan iborat.

Shuningdek, mazkur fan jamiyat kelajagi uchun zarur bo'lган milliy va umuminsoniy maqsadlar o'z oldiga qo'ydi. Jumladan, o'quvchilarni milliy va umuminsoniy qadriyatlarni hurmat ruhida tarbiyalash, o'quvchilar huquqlarini himoya qilish va ularning qonuniy manfaatlarini ta'minlash, farzand tarbiyasida oilaning mas'uliyatini oshirish,

o'quvchilarni jismoniy, ruhiy va ma'naviy-axloqiy rivojlantish orqali ijtimoiy hayotga moslashtirish, turli murakkab vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilishga o'rgatish, o'quvchi yoshlarda faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish, islom dini ko'p asrlar davomida avloddan avlodga o'tib kelayotgan ma'naviy qadriyat ekanligini, bu dinni yot g'oyalar bilan bir qatorga qo'yib bo'lmasligini tushuntirish, yoshlarga "Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari" g'oyasi mazmun-mohiyatini chuqur anglatishdan iborat.

Xulosa sifatida quyidagilarni ta'kidlab o'tish lozim.

- ta'lim va tarbiyani uyg'unlikda tashkil etishda milliy g'oya va mafkuranng fan sifatida mamlakatimizda keng joriy etilishi ham ma'naviyatni yuksaltirishga yana bir qadam bo'ldi. Ta'lim va tarbiyani mushtaraklikda olib borish inson shaxsiy-ma'naviy kamolotining o'sishiga ijobiy rol o'ynashi kundek ravshan bo'lmoqda. Aslida, ham mamlakatimiz tarixini o'rganishda, madaniyat, tibbiyat, adabiyot, san'at va arxitektura sohalaridagi beqiyos yuksalish, ilmiy maktablarning vujudga kelishi, yuksak darajada rivojlanishi avvalambor ta'lim-tarbiyaga katta e'tibor qaratishni talab etishi bilan bog'liqdir.

- uzluksiz ta'lim tizimida o'qitilayotgan ijtimoiy fanlarning tub mazmun-mohiyatida ezzulik va insonparvarlik tamoyiliga asoslangan "Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari" g'oyasini keng targ'ib etish orqali jamiyatda sog'lom dunyoqarash va bunyodkorlikni umummilliy harakatga aylantirish masala yotganligini o'quvchi-yoshlarga anglatib borish pedagoglarning oldida turgan ma'naviy-ma'rifiy vazifa hisoblanadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Қаранг: 1992 йил 2 июлда қабул қилинган "Таълим тўғрисида"ги Ўзбекистон Республикасининг Конуни // Ўз-

**бекистон Республикаси Олий Кенгашининг ахборотнома-  
си. – 1993. –№ 6. – 268-модда.**

**2. Ўзбекистон Республикасининг 1997 йил 29 август-  
да қабул қилинган қонуни билан тасдиқланган Кадрлар  
тайёрлаш миллий дастури // Ўзбекистон Республика-  
си Олий Мажлисининг ахборотномаси. –1997. –№ 11-12.  
–295-модда.**

**3. Олий таълим. Меъёрий-хукукий ва услубий хуж-  
жатлар туплами. – Т: Истиклол, 2004. – Б. 20.**

**4. Исматова Н. Ўзбекистонда халқ таълими тизи-  
мидаги ислоҳотлар босқичи ва муаммолари (1991-2021  
йиллар). Тарих фан.бўй.фалс.док. (PhD) ...дисс. -Т: 2022. – Б.  
104.**


**5. Қаранг: Ўзбекистон Республикаси Президентининг  
2001 йил 18 январдаги “Миллий истиқлол ғояси: асосий  
тушунча ва тамойиллар” фани бўйича таълим дастури-  
ни яратиш ва республика таълим тизимига жорий этиши  
тўғрисида”ги Фармойиши. [Электрон манба]:<https://nrm.uz/contentf?doc=9201>.**

**6. Тўраев, Ш Маънавий-маърифий ишлар ва уни таш-  
кил қилиш методикаси [Матн] Ш.Тураев. –Т: Paradigma.  
2017. –Б. 33.**

**7. Қонун һужжатлари маълумотлари миллий ба-  
заси, 06.09.2018 й., 06/18/5538/1840-сон, 13.12.2018 й.,  
06/18/5597/2300-сон; 07.11.2020., 06/20/6108/1483-сон;**

**8. Mirziyoyev Sh. Jismoniy va ma'naviy yetukyoshlar – ezgu  
maqsadlarimizga yetishda tayanchimiz va suyanchimizdir /  
“Xalq so'zi” 2017-yil 1-iyul.**

**9. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020  
yil 6 iyuldagи “Umumiy o'rta ta'lif muassasalarida “Tarbiya”  
fanini boskichma-boskich amaliyotga joriy etish chora-  
tadbirlari to'grisida” 422-sonli qarori. Manba: lex.uz.**



**Xurmatbek AMINOV,**  
*Xorazm Ma'mun akademiyasi  
kichik ilmiy xodimi*

**MILLIY HUNARMANDCHILIKDAGI  
“USTOZ-SHOGIRD” AN’ANALARINING  
MA’NAVIY AHAMIYATI**

Hunamandchilikda “ustoz-shogird” an’analari va uning imkoniyatlarini baholash va o’ziga xos xususiyatlarini aniqlash bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir. Yoshlarni ma’naviy jihatdan yuksaltirishda tarixiy yodgorliklar, an’ana va qadriyatlar, ota-bobolarimizdan meros bo’lib o’tgan milliy hunarmandchilikni yanada rivojlantirishning ahamiyati katta.

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-noyabrdagi PF-5242-son “Hunarmandchilikni yanada rivojlantirish va hunarmandlarni har tomonlama qo’llab-quvvatlash chora-tadbirlari to’g’risida”gi Farmoni, 2017-yil 17-noyabrdagi PQ-3393-son “Hunarmand” uyushmasi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi, 2019-yil 28-noyabrdagi PQ-4539-son “Hunarmandchilikni yanada rivojlantirish va hunarmandlarni qo’llab-quvvatlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”gi qarorlari hunarmandchilik sohasini yanada rivojlantirishda katta ahamiyatga ega.

Ma’naviy madaniyatda muhim o’rein egallagan o’zbek hunarmandchiligi uzoq tarixiy davrlarga borib taqaladi. Milliy hunarmandchilikni rivojlantirish va uni yo’q bo’lib ketgan turlarini qayta tiklash, rivojlantirish, davlat tomonidan qo’llab-quvvatlanishi, hunarmandchilik mакtabalarini ochib yoshlarga hunar o’rgatilishi, yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish, bularning barcha-barchasi milliy

o'zligimizni anglashga bo'lgan intilish, ma'naviyatimiz poy-devorining mustahkam ekanligidan dalolat beradi. O'zbek xalqi hunarmandchilikning turli tarmoqlari bilan azaldan shug'ullanib kelgan va an'ana sifatida bugungi kungacha ham davom etib kelmoqda. Hunarmandchilikning ba'zi tarmoqlari unut bo'lmasdan, milliylikni, qadriyatni saqlab qolgan holda yetib kelishida "ustoz-shogird" an'analarining uzviyili muhim ahamiyat kasb etadi.

Qo'li gul usta o'z hunarining sir-asrorlarini o'rgatish uchun o'z farzandi yoki qarindoshini yoshlidan 7-8 yoshidan shogirdlikka olgan. Shogird usta yonida kecha-kunduz 7-12 yil davomida yurib, hunar o'rgangan [1:32]. Usta shu hunarni o'rganishga juda ishtyoqmand bo'lgan boshqa bolalarni shogirdlikka sinov asosida qabul qilgan. Ya'ni sinov davri (uch yoki to'rt oy) mobaynida usta shogirdini ta'lif-tarbiyasiga, "qo'li egri" emasligiga, hunarni matonat bilan o'rganishga sabri yetishligiga, hunarni o'rganishga ishtyoqi borligiga ishonchi komil bo'lgach, o'z hunarini shogirdiga o'rgatishga jazm qilgan. Aks holda, usta bolani shogirdlikka olmagan. Chunki, shogird farzanddan ham yaqin bo'lib, uni kelajakda yaxshi hunarmand bo'lib yetishishidan tashqari, komil inson bo'lib ta'lif-tarbiya topishida ustaning hissasi va majburiyati ko'p. Shogirdlikka tushganlarning barchasi ham "usta" nomini ololmaganlar.

Usta shogirdiga kasbini tekinga o'rgatgan. Usta shogirdiga nisbatan qattiqxo'l, talabchan bo'lib, risolalar ya'ni "shogirdlar uchun maxsus odob talablarini ishlab chiqqanlar" [2:11]. Risola kasb-hunarga oid qonun-qoidalarni o'z ichiga olgan [4:7]. Shogird hunar bilan birgalikda uy yumushlarini bajarishni ham o'rganib borgan. Shogird kasbning nozik qirralari, qoidalari, usullarini puxta egallagandan so'ng, uning mustaqil ish boshlashi uchun ustaga minnatdorchilik bildirib, duo olish marosimi o'tkazilgan.

Ushbu marosim hunarmandchilikning turli sohalari, yog'och o'ymakorligi, kulolchilik, zardo'zlik va hokazolar da turlicha nomlanadi va har xil shaklda o'tkazilgan. Jumladan, marosimning "kamarband, kamarbasta" [5], "oq fotiha" kabi nomlari bor. Olib borilgan tadqiqotlar natijasiga ko'ra, Xiva yog'och o'ymakorligi mактабида "oq fotiha" marosimi quyidagicha o'tkaziladi:

Shogird uyiga o'z ustasi bilan bir qatorda, hunarmandchilikning turli sohalari bilan shug'ullanuvchi kulol, temirchi, naqqosh, misgar, pichoqchi kabi hunar ustalarini ziyofatga chaqiradi. Ustalar noz-ne'matga to'la dasturxon atrofiga o'tirishadi. Usta ziyofatda tik holatda ta'zimda turgan shogirdi yoniga kelib, beliga maxsus belbog' bog'lab, uning o'ng qo'yniga oq tugunga o'ralgan ikkita non va chap qo'yniga yog'och o'ymakorligida ishlataladigan asbob-jihozlarini solib, uni duoyi-xayr qiladi.

Shundan so'ng, ustalar yonida usta o'z shogirdini "risolla" bo'yicha savol-javob qiladi. Risolaga ko'ra, shogird islom dinida ko'rsatilgan diniy arkonlar bilan birga, ustaxonaga kirish, mijozlar bilan muloqot qilish, pokiza bo'lism, halol mehnat qilish, boshqa hunarmandlarga nisbatan adovatda bo'lmaslik, boylik orttirish maqsadini ko'zlamaslik, xushe'llik kabi tartib-qoidalarini bilishi zarur. Savol-javobdan o'tgach, usta shogirdiga "oq fotiha" va rozi-rizolik beradi. Shogird shundan so'nggina "usta" maqomiga ega bo'лади. Shogird o'ng tizzasini yerga tashlagan holatda, qo'lini ko'ksiga qo'ygan holatda barcha ustalar bilan qo'l berib ko'rishib chiqadi. Ular ham duo qilishadi. Ziyofat yakunlangach, shogird ustaga ko'nglidan chiqqan holda boshdan oyoq sarpo yoki ko'ylik tortiq qiladi.

Marosim bilan bog'liq ushbu o'zbek odatlariда olam ma'no mujassam. Ustaning shogirdiga non berishi uni elda "nondek aziz", hunar asboblarini sovg'a qilishi esa, shu jihozlar bilan halol mehnat qilib, "rizq-nasibali" bo'lishi-

ni bildiradi. Shogirdning mustaqil ravishda hunar bilan shug'ullanishida, odob-axloq mezoniga rioya etishida, yosh avlodni hunarmandchilik kasbiga mehr-muhabbat ruhida tarbiyalashda "ustoz-shogird" an'anasi va u bilan bog'liq bo'lgan marosimlarning ahamiyati juda kattadir. Zero, hunarmandchilikda "ustoz-shogird" marosimlari qadimiy qadriyatlardan biri hisoblanadi.

O'zbek xalqi azaldan o'z hunari, mehnatsevarligi, halol va pokligi, serqirra va takrorlanmas sharqona madaniyati, ma'naviyati bilan jahonga mashhur. Hunarmand ustalar tomonidan yaratilayotgan kulolchilik, kandakorlik, kashtado'zlik, to'quvchilik, zargarlik, naqqoshlik, o'yamkorlik kabi bir qancha hunar mahsulotlarining nafisligi xalqimizning yuksak did va ma'naviyati boy, ijodkor xalq ekanligidan dalolat beradi. Albatta, hunarmand ustalarni tarbiyalab yetishtirish shu bilan birga hunarmandlar su'lolarining va avloddan-avlodga meros bo'lib o'tuvchi sulo laviy hunarning umrboqiyligini ta'minlashda, hech shubhasiz oilaning o'rni va ta'siri beqiyosdir.

Xorazm kulolchilik maktabi Rishton (Farg'ona), Toshkent, Samarqand, G'ijduvon (Buxoro) va boshqa kulolchilik maktablaridan o'ziga xos yasash uslubi, texnologiyasi, naqsh kompozitsiyasi, rangi, dinamikligi (o'ynoqilik), estetik ta'sirchanligi bilan alohida o'rin tutadi. Madir markazi davomchisi Odilbek Matchonovdan an'anaviylik borasida so'raganimizda u hozirda kulolchilik ustalari Xorazm uslubidan chetlashib, boshqa maktablar ta'siriga tushib qolmoqdalar, bizning asosiy vazifamiz milliy an'analaramizni o'z holicha keyingi avlodga yetkazishdan iborat deb javob berdi [6].

Ma'lumki, qadim-qadimdan oilada tarbiya topayotgan o'g'il bolalar pichoqchilik, sartaroshlik, duradgorlik, etikdo'zlik kabi hunarlar bilan shug'ullangan bo'lsalar, qiz bolalar esa do'ppido'zlik, kashtachilik, tikuvchilik,

to'quvchilik hunarlarini sir-asrorlarini puxta o'rganganlar. Oilada ota-onaning farzand oldidagi burchi farzandining qobiliyati, iste'dodini to'g'ri yo'naltira bilishi, bolaning o'zi qiziqqan kasb-hunarni egallahiga imkon berishi va o'rgatishdan iborat.

Har bir inson faqat bir kasb yoki hunarni o'rganish bilan chegaralanib qolmaydi. U o'z hayoti davomida izlanib, intilib, tajriba almashib yana bir qancha hunarni o'rganadi. Biroq, har bir kasb-hunarning o'ziga xos mashaqqati va fazilatli tomonlari mavjud. U insondan katta sabr-toqatni, qanoatlilikni talab qiladi. Oilada yoshlarning kasb-hunar egallashlari, mehnatsevar bo'lib tarbiyalanishlarida "ustoz-shogird" an'analariga rioya etmoq zarur [7]. Qadimda hunarmand ustalar o'z hunarining sir-asrorlarini yozib qoldirmaganlar, faqat shogirdlari bundan boxabar bo'lganlar. Shogird ham vaqt kelib usta bo'lgach u ham o'z shogirdiga hunarini o'rgatgan. Shu asnoda har qanday kasb an'ana tariqasida davrlar o'tishi bilan taraqqiy etib kelgan.

Farzandning u yoki bu hunarni egallahida birinchi ustoz - bu ota-onasi hisoblansada, shu hunarni baribir mohir ustasidan o'rganib, ta'lim-tarbiya olishi joiz. Chunki, ustoz ko'rmagan hunarmandning ishida na baraka va na unum bo'ladi. Bir kasbni boshidan mukammal o'rganmagan shogird kelajakda hech narsaga erisholmaydi. "Ustoz ko'rmagan shogird ming maqomga yo'rg'alar" degan naql ham shuning isbotidir.


Ustozning shogirdiga nisbatan talabchan, qattiqqo'l bo'lishi, kerak payti rag'batlantirishi yoki jazolashi shogirdning mohir hunar sohibi bo'lib kamol topishida muhim ahamiyat kasb etgan. Usta shogirdiga hunar o'rgatish jarayonida o'zi ishlab chiqqan maxsus odob-axloq normalari asosida shogirdini ma'naviy jihatdan ham tarbiyalab borgan. Masalan, ular shogirdidan pokizalikni, rostgo'yilikni, ish vaqtida chalg'imaslikni, egri va nomaqbtl ishlarga

yaqin yo'lamaslikni, halollikni, ustoz ruxsatisiz biror ishga qo'l urmaslikni qat'iy talab qilganlar [2].

Hozirgi globallashuv jarayonida yoshlarning o'zi ixlos qo'ygan kasb-hunarni maktab davridan o'rganishlari ularning vaqtி behuda o'tishiga yo'l qo'yilmasligiga, yoshlarning har qanday nojo'ya xatti-harakatlardan holi bo'lishligiga, kelajakda jamiyatda o'z o'rnnini topishiga undaydi. Bir so'z bilan aytganda, kasb-hunar hayotda uchragan qiyinchiliklar oqibatida tug'ilishi mumkin bo'lgan yomon fikrlardan qaytishga o'rgatadi [3:6].

Inson o'zining halol mehnati, hunari orqaligina o'z iste'dodi, qobiliyati, layoqatini ko'rsata oladi shu bilan birga dunyoqarashi kengayadi, bilim savyiasi oshib, ham jismoniy, ham ma'naviy jihatdan o'zini shakllantirib bora-di. Umuman olganda, oilada, mahallada, o'quv yurtlarida yoshlarga ta'lim-tarbiya berish bilan birga "ustoz-shogird" an'anasi asosida ularni salohiyatini, qobiliyatini inobatga olib, o'zi sevgan hunarga, mehnatsevarlikka o'rgatish yosh avlodni ham ma'naviy jihatdan shakllanishida, ham o'z hunari va kasbining yetuk mutaxasisi bo'lib yetishishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Madaniy merosimiz hisoblanmish hunarmandchilik noyob go'zallikni o'zida tarannum etgan zeb-ziynatlar, har xil ro'zg'or anjomlari, ip va ipakdan tikilgan matolar, loy va ganchdan yasalgan sopol hamda chinni idishlar, xum va xumdonlar, kulolchilik san'atiga mansub bo'lgan buyumlar barchasi xalqimizning moddiy hamda madaniy merosi hisoblanadi. Ustoz-shogird an'analari milliy hunarmandchilik sohasini yanada takomillashtirish, uni jahon xalqlarining e'tiboriga molik ravishda taraqqiy ettirish va yosh avlodni tarbiyalashda katta ahamiyat kasb etadi. Bu yo'lда tarixdan to hozirgi kunga qadar saqlanib kelgan ustoz shogird an'alarini bugungi zamonaviy bilimlar va yangi tehnologiyalar bilan boyitish orqali kelajak avlodlarga



yetkazib berilishi, boy madaniy va ma'naviy me'rosimizni saqlash uchun xizmat qiladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Bobojonov D., Abdullayev M. *Xorazm amaliy san'at ustalarlari*. – Xiva.: *Xorazm Ma'mun akademiyasi*, 2010. 100-b.
2. Bulatov S., Muxtorov A. *Ganchkorlik*. – T.: *Musiqa*, 2006. 120-b.
3. Mirzaahmedov M. *Boshlang'ich badiiy naqsh ishslash uslubiyati*. – T.: *O'zbekiston*. 2002.
4. Nozilov D.A. *O'rta Osiyo dizayni tarixidan*. – Toshkent.: *O'zbekiston*. 1998.
5. Otajonova D. *O'rta Osiyoda "kamarbasta" hunarmand-chilik marosimi*.//*San'at*.2009. № 1.
6. O.Matchonov bilan suhbatdan (*Xonqa tumani Madir qishlog'i*, 2022-yil)
7. Oila pedagogikasi. – Toshkent.: Aloqachi. 2007. 203-b.

Sherzod KARIMOV,  
*Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar  
instituti mustaqil taqdriqotchi*

## **MA'NAVIY VA MILLIY MEROS TIKLANISH VA YANGILANISH OMILI**

O'zbekiston mustaqillikni qo'lga kiritgach, uni mustah-kamlash va milliy davlatchilikni rivojlantirishga qaratilgan zamonaviy omillarni hayotga tadbiq etmoqda. Ayniqsa, bu omillar ichida yoshlar dunyoqarashida tarixiy merosimizga hurmat va iftixon tuyg'ularini shakllantirish dolzarb muammo sifatida kun tartibiga chiqmoqda. Mustaqillik yillarida xalqimiz uchun ham iqtisodiy, ham siyosiy, ham ma'naviy tiklanish davri bo'ldi. Iqtisodiy, siyosiy sohada is-lohotlarni fuqarolarning shu jabhalarda erishgan huquqlari va yutuqlari misolida ko'rish mumkin. Ma'naviy sohada erishgan yutuqlarimiz esa ajdodlarimizdan qolgan ma'naviy meros va qadriyatlarni o'zlashtirganligimizdir [1].

Afsuski, ajdodlarimiz qoldirgan noyob, beba ho boylikdan o'z vaqtida foydalanish ko'ngildagidek emas. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev O'qituvchi va murabbiylar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdag'i nutqida shunday fikrlar bildirgan: "Tan olish kerakki, biz beba ho merosimizga ko'pincha faqat tarixiy yodgorlikka qaraganday munosabatda bo'lib kelmoqdamiz. Bunday tengsiz boylikni amaliy hayotimizga tatbiq etishda beparvolik va e'tiborsizlikka yo'l qo'yamoqdamiz".

Binobarin, bugungi yangilanish jarayonida shaxsning ma'naviyati, tarixiy merosga daxldorligini his etishi asosiy masala hisoblanadi. O'z vatanini sevmagan, uning har bir qarichi uchun mas'uliyatni his etmagan insonga ishonib ham, undan biror nima kutib ham bo'lmaydi. Tarixiy merosga haqli ravishda egalik qilishimiz va undan oqilona foy-

dalanishimiz ma'naviy sohaning rivojiga sababchi bo'ladi. Tarixiy merosimizning tiklanishi degani – zo'ravonlik yo'li bilan avlodlar o'z ajdodlari tomonidan yaratilgan moddiy va ma'naviy meros, urf-odatlar, qadriyatlardan mahrum, milliy o'zlikni anglashi cheklangan, huquqlari poymol etilgan jamiyatning tarixiy taraqqiyotning muayyan bosqichiga kelganda o'z mustaqilligini qo'lga kiritishi, yaratilgan barcha moddiy va ma'naviy boyliklardan milliy rivojlanish yo'lida foydalana olishidir. Zero, ajdodlarimiz merosini o'rgangan har bir kishida milliy g'urur tuyg'usi shakllanadi. Chunki bobokalonlarimiz tomonidan ilgari surilgan fikrlar faqatgina milliy yoki mintaqaviy ahamiyatga ega bo'libgina qolmasdan balki, umumbashariy qadriyatlarga tayanganligi, ayniqsa quvonarlidir.

Bu borada, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Muhammad Xorazmiy yoki Abu Nasr Forobiy merosini olib qarasak, ular shu qadar keng qamrovlikni, bu meroslarni vorisiylik asosida ma'naviy tizimning kelgusi rivoji uchun asos qilib olishimiz mumkin. Ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan nodir qo'lyozma va bebahoy boyliklarni o'rganish, tadqiq etish, nafaqat ma'naviy ozuqa olish, balki bugungi kunning dolzarb bo'lgan muammolariga yechim sifatida qaralmoqda. Xususan, hozirgi kunda yoshlarning dunyoqarashi va fikrlashiga "g'arbcha madaniyat" o'z ta'sirini ko'rsatayotgan bir paytda bundan bir necha asrlar avval ajdodlarimiz tomonidan shaxsning ma'naviyati, axloq-odobi borasida ilgari surgan fikrlari bilan qurollantirib borsak, o'z ko'zlagan maqsadimizga erishamiz.

Eng avvalo, ma'naviy komil, adolatparvar insonni shaklantirish asosiy masala sanaladi. "Avesto" da xalqimizning qadimiy ma'naviy qadriyatları hisoblangan yaxshilik, insonparvarlik, halollik, pand-nasihatga to'la g'oyalar mavjud. Shu bilan birga insonning buniyodkorligi, yaratuvchaliqi faqat mehnat oqibatida yuzaga chiqishi mumkinligi inson halol mehnatga chorlashi bilan alohida ahamiyat kasb

etadi. Ana shu mehnatning asosi bo'lgan dehqonchilik yaxshilik belgisi sifatida qaralgan. Masalan, "O'n ming marta ibodat qilish bilan barobar, yuzlab qurbanlik qilishga teng bo'lgan savobga ekin ekkan kishi ega bo'ladi" [2]. Buyuk bobokalonimiz Abu Rayhon Beruniy aytganidek: "Inson o'zining his-tuyg'ulariga hukmron, ularni o'zgartirishga, boshqarishga qodir, o'z ruhi va tanini tarbiyalar ekan, salbiy jihatlarni maqtaydigan narsalarga aylantirishga, uni tibbiy usul bilan ma'naviy davolashga hamda asta-sekin axloq haqidagi kitoblarda ko'rsatilgan usullar bilan illatlarni bartaraf etishga qodir bo'ladi". [3] Bu qarashlar shubhasiz, tarbiyaning asl mohiyatini ochib berishga xizmat qiladi.

Darhaqiqat, ma'naviyat va tarbiya masalasi butun jamiyat, millatning tashvishi bo'lishi kerak. Agar tarbiya o'z vaqtida berilmas ekan, ota-onasi jamiyatda va kishilar orasida yaxshi nom olgan yoki ko'zga ko'ringan kishi bo'lishidan qat'i nazar, farzand kimlar bilan, qanday davrada yursa, shu davradagilardek inson bo'lib yetishadi. Bunga tarixdan juda ko'p misollarni keltirish mumkin. Shuning uchun ham qadimdan podshohlar, sultonlar farzandlari tarbiyasini o'zlariiga eng yaqin va ishonchli kishilargagina ishonib topshirishganlar. Bu borada buyuk ma'rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniy o'zining "Turkiy guliston yoxud axloq" asarida, "Axloqimizning binosining go'zal va chiroyli bo'lishiga tarbiyaning zo'r ta'siri bordur" [4] deb ta'kidlaydi.

Ajdodlarimiz merosi orqali millatimizning milliy ongi, shuuri shakllanadi. Milliylikni tan olish – millatga mansub kishilarning ijtimoiy barqarorligini tan olish demakdir. Milliy ruhimizdagi tuyg'ularimiz mavjud tasavvur va kayfiyatlarimiz sodda ong sifatida shakllanishi mumkin. Agar milliy mansublik, uning barcha tomonlari insonlar tasavvurida ilmiy asoslangan bo'lsa, uni milliy o'zlikni anglash, merosga daxldorlik deb tushunish mumkin. Shu ma'noda, millatning o'zligini anglshi va daxldorligi tushunchalarining tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat:


- ❖ Millatga mansubligini anglash.
- ❖ Millatning insoniyat taraqqiyotidagi tarixiy o'rnini bilish.
- ❖ Milliy qadriyatlarga sodiqlik.
- ❖ Milliy manfaatlarni tushunib yetish.
- ❖ Vatanparvarlik.

Demak, tarixiy merosga daxldorlik hissi – jamiyat, uning madaniyati ravnaqining asosiy shartidir. Chunki tarixiy davomiylik ma'naviyat rivojining qonuniyati sanaladi. Lekin bu degani har bir jamiyat o'tmish madaniy merosini qanday bo'lsa, shundayligicha, ko'r-ko'rona qabul qiladi degani emas. Har bir jamiyat ma'naviy-madaniy merosning o'z dunyoqarashi, tuzumi, manfaatlariiga mos keladigan, bugun va kelajak uchun xizmat qiladigan qismini qabul qiladi.

Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan barcha ma'naviy meros bu biz uchun juda qadrli. Ularda ilgari surilgan fikr va qarashlardan naqaqt kishilar dunyoqarashi, ongi, bilimini o'stirishda foydalanishimiz, balki jamiyat va davlat rivojida muhim omil sifatida qarashlarni ilmiy asosda takomillashtirishimiz lozim. Zero, ma'naviy jihaddan yangilanayotgan O'zbekistonda buyuk ajdodlarimizning nomlari, ularning ilmiy, axloqiy, falsafiy asarlari doimo davlatimiz va xalqimiz e'zozi-da bo'lib qoladi.

### **Foydalaniqan adabiyotlar ro'yxati:**

1. *Ochilova B.M. Milliy- ma'naviy yuksalishda meros, qadriyatlar va vorisiylik. T. "Istiqlol" 2019, B 52 [1]*
2. *Boboev X., Hasanov S. "Avesto – ma'naviyatimiz sar-chashmasi" T. "Adolat", 2017. [2]*
3. *Kenjaev D, Ismatova N, Ro'zieva D, Xolmuxamedova N. Tarbiya. Darslik. T. O'zbekiston, 2020, B 35 [3]*
4. *Abdulla Avloniy. "Turkiy guliston yoxud axloq" ziyoruz.com kutubxonasidan. [4]*



**Rustam JUMAYEV**

*Buxoro davlat universiteti,  
O'quv ishlar bo'yicha prorektor,  
siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori, dotsent*

**SIYOSIY FALSAFIY TA'LIMOTLARDA  
INTEGRATSION YONDASHUV MAZMUNI**

Pedagogik faoliyatda talabalarda fuqarolik pozitsiyasi va kasbiy kompetensiyasini takomillashtirish sifatini oshirishning muhim shartlaridan biri – bu fanlararo aloqadorlikda amalga oshiriladigan umumta'lim va maxsus fanlarning tizimli birligi hisoblanadi. So'nggi yillarda olib borilayotgan bir qator tadqiqotlarda ta'limgarayoniga integratsiyalashgan yondashuv zaruriyati qayd etilmoqda. Siyosatshunoslik ta'limgarayoniga talabalarida fuqarolik pozitsiyasi va kasbiy kompetensiyasini takomillashtirish va bilimlarni samarali o'zlashtirish ularda pedagogik bilim va mahoratning shakllanishi bilan birgalikda ta'limgarayonida fanlarning alohida bo'limlariga tegishli bo'lgan aloqadorligini o'rghanishga ham yordam beradi. Pedagogik ta'limgarayonida o'qitiladigan fanlarning alohida bo'limlari o'rtasidagi bunday integratsiyalashuv pedagogik faoliyat nazariyasi va amaliyoti haqidagi yaxlit tushunchalarni hamda subyektlararo mohiyatni aks ettiradi.

Siyosiy-falsafiy nuqtayi nazardan, integratsiya – bu elementlarning bir butunga oddiy birlashishi emas, balki uning rivojlanishi, ilgari bu elementlarga xos bo'lmajan yangi xususiyatlarning paydo bo'lishiga, shuningdek, ularning faollashishiga yordam beradigan tizim, o'zaro aloqadorlikdir. O'zaro bog'liqlik esa o'zaro ta'sir demakdir. Zamonaviy tadqiqotlarda integratsiyani bir tomonidan, ilmiy bilimlarni rivojlantirish uchun ichki zaxira rolini bel-

gilaydigan, ikkinchi tomondan, integratsiya – bu fanlarning o'zaro rivojlanishining sifat jihatidan yangi turi, fanlarning tarkib topishining zamonaviy sharoitlari uchun xosdir deb hisoblaydilar.

"Integratsiya ilmiy-texnik taraqqiyotning rivojlanishi bilan bevosita bog'liq" ekanligi ta'kidlanadi. Shuningdek, integratsiya – fanlarning o'zaro aloqadorligini ta'minlash omili sifatida ham e'tirof etiladi. [1; 276-b]. Bizningcha, mazkur fikrlarning bu diapazoni ko'p funksiyali hodisa bo'lib, qo'llanilish sohasiga qarab mazmunan farqlanib boradi. Bu faqat fanlararo darajada hal qilinishi mumkin bo'lgan murakkab muammolar sonining ko'payishi bilan bog'liq. Didaktik jarayonning yaxlit qurilishi katta texnologik imkoniyatlarga ega. Integrativ yondashuvga asoslangan ta'limni tizimli amalga oshirish bo'yicha mavjud tajriba oliy ta'lim muassasalari amaliyotida hali keng joriy etilmagan. Shuningdek, talabalarga mutaxassislik fanlarini o'qitish jarayonida idrok etish asosan, ko'rib chiqilayotgan hodisalarning cheklangan doirasiga moslashtiriladi. Bu esa stereotip fikrlash tarziga moyillik yaratish bilan birga, talabalarning yaxlit bilim olish imkoniyatini, nazariy-metodik-ijodiy faolligini cheklab qo'yadi.

Zamonaviy ta'limni bugungi kunda keng qamrovli kompyuter texnologiyalarisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Chunki axborot-kommunikatsiya texnologiyalari nazariy-metodik muammolarni hal qilishning samarali vositasi sifatida maydonga chiqadi. Shu boisdan, talabalarning nazariy-metodik tayyorgarligini axborotlashgan ta'lim muhitida integratsion yondashuv asosida shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, fanlararo bog'liqlik ijodiy faoliyatga qodir malakali mutaxassisni shakllantirish uchun asos bo'lib ham xizmat qilishi mumkin.

Pedagogik nazariy-metodik faoliyatga tayyorlash jarayonida integrativ yondashuv negizida kasbiy faoliyatga

tayyorlash ko'nikmalarini shakllantirish bilan birgalikda ilmiy-metodik jihatdan asoslangan mukammal ta'lif mazmunini ishlab chiqish va rivojlantirishga imkoniyat yaratiladi. Zero, zamonaviy ta'lifning asosiy vazifasi yuqori texnologiyalar asosida bo'lajak mutaxassislarning qobiliyatini ochib berish, hayotga va nazariy-metodik faoliyatga tayyorlash, raqobatdosh kadrlarni dunyo maydoniga chiqarishdan iboratdir. Shuningdek, har bir talabaning o'z oldiga mustaqil ravishda jiddiy maqsadlarni qo'yishi va ularga erishishi, turli xil nazariy-metodik vaziyatlarga mohirona javob berishi uchun tayyorlashi kerak. Bunga esa pedagogik jarayonga integratsion yondashuv asosida erishish maqsadga muvofiq.

Hozirgi yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitda bozor iqtisodiyotidagi o'zgarishlar talablariga javob beradigan ta'lif tizimida samaraga erishish har qachongidan ko'ra dolzарbdир. Chunki bugungi kundagi ta'lif oluvchiga bevosita taqdim qilinayotgan axborotlarning keng ko'lami ularni integrativ yondashuv asosida o'qitish ehtiyojlarini ham yuzaga keltiradi. Biz uni quyidagicha ifodaladik: ta'lif mazmunining integratsiyasi deganda mazmunlar orasidagi mustahkam aloqa, ularning bir-birlariga o'tish jarayoni va ularga mos natijalar hamda ushbu jarayondagi bilimlar sintezi, faoliyat turlari va qobiliyatlarning yaxlit tizimidir.

Integratsion yondashuv ta'lif jarayonida integratsiyalash ishlarini tashkil qilish, kasbiy faoliyatga tayyorlashga oid ko'nikma va malakalarni shakllantirishni tizimga solish, sintez qilingan bilimlarni o'z ichiga olgan. Bu yondashuv talabaning bilimini kutilmagan sharoitlarda qo'llash qobiliyatini rivojlantiradi.

Integratsion tarzda tashkil etilgan darslararo bog'liqlikni o'zida jamlagan holda talabalar dunyoqarashini har tomonlama rivojlanishiga xizmat qiladi. Bu jarayonni an'anaviy ta'lif tizimi doirasida ham, zamonaviy

o'quv-tarbiya jarayonida ham amalga oshirib borish mungkin. O'zaro aloqadorlik jarayonining o'ziga xosligi esa – integrativ tizimning har bir komponenti mohiyatiga ko'ra sifatli o'zgarishlarni nazarda tutadi. Integratsiya tamoyillari – o'quv jarayonining barcha komponentlarining o'zaro aloqadorligini, tizimlar orasidagi bog'liqlikni nazarda tutadi. Shuningdek, ta'lim maqsadini belgilashda, o'qitishning mazmuni, uning shakllari va usullarini aloqadorlikda tashkil etishda birlamchi hisoblanadi.

Falsafiy va ilmiy, psixologik manbalarni hisobga olish integratsiyaning pedagogik aspektlarini anglashga imkon beradi. Bu guruhga tegishli tadqiqotlarda yaxlit tasavvurni shakllantirishning ahamiyatga ega ekanligi ta'kidlanadi. Shuningdek, "yakuniy izolatsiya va o'z-o'zini izolatsiya qilish, fanlarning "men"ni talab qilishi zararli bo'ladi, chunki u nazariy-metodik faoliyat rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi" [2; 272-b]. Mazkur sababning birinchi ko'rinishi turli shakllar orasidagi bo'lingan bir necha tushuncha, g'oyalar, yaxlit bilimlar doirasida turli fanlarning asosiy g'oyalari shakllantirilganligi bilan ahamiyatli. Chunki bunday tushunchalarga umumiylilik, doimiylik hamda o'zgaruvchanlik xosdir [3; 60-66-b].

O'zaro aloqadorlikda ta'sir etish imkoniyatlarini aniqlash vazifasining ikkinchi sababi, tabiat va jamiyat dastlab bir butun: ular ikkala ratsionalistik hamda irrat-sional komponentni birlashtiradi. Ularning o'zaro aloqadorligini anglamaslik o'zlashgan tushunchalarni kutilmagan vaziyatlarda foydalanish imkonini bermasligi mumkin. Bu holat bilimlarni qisman, faqatgina bir tomonlama samarasiz qo'llashga sabab bo'ladi. Shu boisdan shaxsni o'rganish klassik hamda zamонавиy мantiq usullarining o'zaro bog'liqligida amalga oshirilishi maqsadga muvofiq.

Inson mohiyatini anglashda aqlli va irratsional sintez masalasi falsafiy tadqiqotlarda ko'rib chiqilgan bo'lib, rat-

sional va mantiqsizlikning ochiq birlashuvi orqali mumtoz falsafiy tafakkur qayta tiklanadi. U o'z navbatida ilmiy g'oyalar tiliga asoslanadi, shu bilan bir qatorda qat'iy cheklovlardan xoli bo'ladi [4; 208-b]. Ma'lum darajada, sinergetik paradigma shaxsga integratsiya kategoriyalarini ishlab chiqish va amalga oshirishda ratsionalistik va irratsional yondashuvlar o'zaro ta'sirining qiyinchiliklarini yengishga yordam beradi. Demak, "hozirgi vaqtida har qanday chinakam ijodiy jarayon an'anaviy va noan'anaviy bilimlarni birlashtirish bilan bog'liq. Aynan ularning bo'g'inida yangi sohalarga katta yutuqlar kiritiladi, ko'pincha eng murakkab muammolarni yorqin va o'ziga xos yechimlari taklif etiladi" [4; 208-b].

An'anaviy va noan'anaviy yondashuvlarning o'zaro aloqadorligini sinkretik bilimlar doirasida ko'rib chiqish shaxsning yaxlit tushunchasini yaratishga imkon beradi. Bizning fikrimizcha, "integratsiyaning" tarixda ratsional va irratsional komponentlar deb atalganligi, hodisalarning "element" va subyektiv qatlamlar darajasida ifodalanganligini, ularning aloqadorligini aniqlashda sinergetik paradigma orqali amalga oshirish muhim hisoblanadi" [4; 192-b].

Fanlararo aloqadorlikning pedagogik-psixologik jihatdan hamda metodik jihatdan tadqiq qilinishi "Shaxsning integratsion konsepsiysi"ning mazmun-mohiyatini ko'rsatadi. Bu konsepsiya inson hayotining turli jihatlari va sohalarini tavsiflashning umumiyligi tamoyillari asosida amalga oshirilishi mumkin: elementlarning xilma-xilli-gi, kombinatsiyasi (uyg'unlashuvi) va hokazo. Bir-birini to'ldirish va kompensatsiya qilish yanada ortadi [; 208-b]. Shunday qilib, integrativ yondashuv inson uchun uning ijodiy tabiatini tan olib, ratsional chegaralarini uzoqlashtiradi. Irratsionalistlar shu tariqa ma'lum va noma'lum sohaning doimiy izlash istiqbollarini belgilaydilar. Bunda har

bir yo'nalishning o'z xususiyatlarini saqlanib qolishiga alo-hida ahamiyat qaratiladi.

### **Foydalaniqan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Usmonov Q. O'zbekiston tarixi: Oliy o'quv yurtlari bar-chaga bakalavr yo'nalishlari uchun (tarix yo'nalishidan tashqa-ri) darslik / Q.Usmonov, M.Saidov, S.Burxonova: O'zbekiston Respublikasi oliv va o'rta maxsus ta'lif vazirligi. – T: "Istiqlol-moliya", 2006. – 520 b.
2. Ibragimov G.X. Kasb ta'limi tizimida milliy istiqlol g'oya-si asosida talaba-yoshlar ma'naviyatini shakllantirish: Ped. fan. dokt. diss.... avtoreferati.– T, 2005.-46 b.
3. Gamidov A. Pedagogicheskiye osnovi formirovaniya kul-turi mejnatsionalnogo obsheniya u studentov vuzov. Sbornik trudov konferensii. 2019. -181 s.
4. Olimov Sh. Ma'naviy-axloqiy tarbiya asoslari. – T.: "Fan va texnologiyalar", 2014. – 218 b.
5. Tolipov O', Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarn-ing tatbiqiy asoslari. (O'quv qo'llanma). – T: "Fan", 2006. – 262 b.
6. To'lanov J. Qadriyatlar falsafasi. – T.: O'zbekiston, 1998. – 236 b.

Oybek BEKINOV,

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti,*

*Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va*

*huquq ta'lifi kafedrasini o'qituvchisi*

**TA'LIM MUASSASALARIDA MA'NAVIY-MA'RIFIY  
ISHLARNI MILLIY QADRIYATLAR ASOSIDA TASHKIL  
ETISHNING YANGICHA ILMIY METODOLOGIYASI**

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan boshlab ta'limga muassasalarini isloh etishga astoydil kirishdi. Ta'limga muassasalarini milliy qadriyatlariga yo'g'rigan, xalqimining boy madaniy merosidan foydalilanigan, mustaqillik mafkurasi asosida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish tizimida ham milliy mentalitetga xos yondoshuvni amalga oshirishni taqozo etdi. Mamlakatimiz mustaqillikka erishganiga 32 yil bo'lmoqda. Mana shu davrda, ta'limga muassasalarini faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan ko'plab chora-tadbirlar amalga oshirildi. 1992-yil (2-iyul, 636-XII-son) O'zbekiston Respublikasi ta'limga to'g'risidagi qonuni[1] (O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1992 y., 9-son, 342-modda) qabul qilindi. Ta'limga to'g'risidagi qonundan kelib chiqib, ta'limga muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish tizimini yangicha shakllantirish chora-tadbirlari amalga oshirila boshlandi. 1997-yil (29-avgust, 464-I-son) O'zbekiston Respublikasi ta'limga to'g'risidagi qonunining (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi 1997 y., 9-son, 225-modda)[2] yangi tahriri qabul qilindi. Bu qonunga ko'ra, ta'limga muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etishni takomillashtirish borasi yangi chora-tadbirlarni amalga oshirish tizimi yo'lga qo'yildi. 2020-yil avgustda ta'limga to'g'risidagi qonun[3]ning eng yangi tahriri qabul qilin-

di. Unga ko'ra, ta'lif muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etishni takomillashtirishning zamonaviy bosqichiga ko'tarishni tizimlashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan to 2014-yilda qadar ta'lif muassasalarida *ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish metodologiyasi ikki yo'nalishda olib borildi*. Birinchi, auditoriya shaklida, ikkinchi auditoriyadan tashqari shaklda. Auditoriya shaklida olib boriladigan ma'naviy-ma'rifiy ishlar aniq belgilangan va tasdiqlangan davlat ta'lif standartlari asosida olib borildi va bugunga qadar davom etmoqda. Bu metod yuqori samara berish usuli bo'lib, ijobiy natijasini berib kelmoqda. Yangi metodologik uslubda, auditoriyada o'tkaziladigan ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etishni turkumlashtirish zaruriyatini yuzaga kelmoqda. Bu esa, yangi texnologiyalaridan foydalanish auditoriyani segmentlash (turkumlarga ajratish)ni va quyidagi omillar hisobga olishni taqozo etadi.

**Birinchidan**, geografik makonga ko'ra. Yoshlarning yashash joyi, mintaqada joylashgan o'rni bir-biridan farq qilishi tufayli *qadriyatlargacha bo'lgan hurmatni oshirishda, xalqimizning madaniy merosini asrab-avaylab yashash ruhida tarbiyalashda va milliy g'oyani singdirishda* ularning istiqomat hududiga e'tiborni qaratish lozim bo'ladi. Masalan, Surxondaryo va Qashqdaryo viloyatlari aholisining qarashlari, urf-odatlari, an'analari Toshkent shahri yoki Qoraqalpog'iston Respublikasi aholisining qarashlari va urf-odatlaridan ancha farq qiladi.

**Ikkinchidan**, demografik omilga ko'ra. Kishilarning yoshi, jinsi, oilaviy ahvoli bir-biridan farq qilgani bois ularning qarashlarida va qadriyatlarida ham muayyan tavofutlarni uchratish mumkin. O'zbekiston Respublikasi ko'p millatli xalqdan iborat bo'lganligi bois, dunyoqarashi, qadriyatlari, madaniyati turlichcha bo'lgan oilalar ham

ko'pchilikni tashkil etadi. Milliy qadriyatlarga bo'lgan iliq munosabatni shakllantirishga qaratilgan targ'ibotning samaradorligini oshirishda bu omillarni ham nazardan ochirib bo'lmaydi.

**Uchinchidan**, psixologik omilga ko'ra. Yoshlarning ruhiy holati ancha o'zgaruvchan bo'lsa-da, bu omil mafkraviy targ'ibotda katta ahamiyat kasb etadi. Milliy g'oyani insonlar ongi va qalbiga singdirishda ularning ruhiy holati, jamiyatimizda kechayotgan islohotlarga munosabati, qo'llab-quvvatlash darajasiga, voqeа-hodisalarga munosabati va kayfiyatlarini hisobga olish darkor.

**To'rtinchidan**, ijtimoiy maqomiga ko'ra. Kishilarning jamiyatda tutgan ijtimoiy maqomi ularning axborotni qay darajada qabul qilishlariga, bu axborotga qanday munosabat bildirishlariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

**Beshinchidan**, obro'-e'tiboriga ko'ra. Targ'ibotda yangi texnologiyalarni qo'llashda fikr yetakchilaridan foydalanish axborot yetkazishning eng samarali usullaridan biri hisoblanadi. Shu bois yoshlarga ta'sir ko'rsatishda ularning obro'-e'tiborli kishilarga bo'lgan ishonchidan mo'hirona foydalanish talab etiladi. Negaki, muayyan guruhning manfaatlarini ifoda etishda avvalo fikr yetakchisini aniqlash va u orqali axborot etkazish targ'ibotning samaradorlilagini oshirishga xizmat qilishi shubhasiz.

**Oltinchidan**, a'zolikka ko'ra. Yoshlar u yoki bu partiyaning, jamoat birlashmasining a'zosi ekanligi milliy va umuminsoniy qadriyatlarga nisbatan munosabatini nazorat qila olish imkoniyatini oshiradi. Odatda, bitta guruhga mansub kishilarning qarashlarida umumiylilik, o'xshashlik bo'ladi. Bu esa mafkura targ'ibotini bir qadar yengillashtirishga xizmat qiladi.

**Yettinchidan**, qarorlar qabul qilishdagi ishtirokiga ko'ra. Yoshlarning ijtimoiy-siyosiy hayotdagi ishtirokлari va faolliklari ularning axborotni qabul qilishlariga ta'sir

ko'rsatgani bois bu omil milliy g'oya targ'ibotida hisobga olinishi lozim. Qarorlar qabul qilishda faol ishtirok etishni xohlovchilar yoki o'zini hech narsani hal qilmaydigan "kichkina odam" deb hisoblaydiganlar bitta axborotni qabul qilishda turli nuqtai nazar bilan yondashadilar.

**Auditoriyadan tashqari shaklda** o'tkaziladigan ma'naviy-ma'rifiy ishlar har bir ta'lim muassasasining ichki imkoniyatlardan kelib chiqib, rejalashtiriladi va yo'naltiriladi. Bu metodologiya shakli ham samarali va ijobjiy natija berib kelmoqda. Ammo, yetarli natijaga erishish uchun yangicha qarash va yangicha tizimni joriy etish bunguni kunning dolzarb muammolaridan biridir. Auditoriyadan tashqari ma'naviy-ma'rifiy ishlar auditoriyada olib boriladigan tadbirdardan farqlanishi, ammo uzviylikda bo'lishi shart va quyidagi omillarga e'tibor qaratishni taqozzo etmoqda.

**Birinchidan,** auditoriyada o'tilishi rejalashtirilgan tadbir va auditoriyadan tashqaridagi tadbirni muvofiqlashtirish. Auditoriyada ko'proq nazariylikka e'tibor qaratiladi, amaliylik bir mucha ozroq. Auditoriyadan tashqari tadbirdarda esa aksincha, nazariy ancha oz, amaliy ko'proqni tashkil etadi. Ikkala shaklda aks etadigan rejalar muvofiqlashtirilsa samaradorlik ancha ortadi.

**Ikkinchidan,** rejalashtirilayotgan tadbirdarni hududiy ma'naviyat markazlari bilan o'zaro aloqadorlik asosida tashkil etish. Ta'lim muassasalari hududdagi *teatr, madaniyat markazlari* bilan aloqadorlikda oyida tadbirdarni uyshtirish, umumta'lim mакtablari o'quvchilari, professional ta'lim va oliv ta'lim talabalarining tadbirdarda ishtirok etishi natijasida ularning tarbiyasida ijobjiylik sezilarli o'sadi.

**Uchinchidan,** rejalashtirilayotgan tadbirdarda ulug' mutafakkirlar tavallud ayyomini bayramona o'tkazishni tizimlashtirish va takomillashtirish. Buyuk allomalar tav-

allud ayyomlarini shunchaki ma'naviy-ma'rifiy tadbir sifatida emas, balki, bayramona shukuhda o'tkazilishi yanada kengaytirlisa o'quvchilar, talabalarda o'ziga namuna olish hissi ortadi. Chunki, yoshlar psixologiyasi bayramona shukuhlikka ko'proq ehtiyoj sezadi. Vatanparvarlik ruhiyatini singdirishda bayramonalik asosidagi targ'ibot qo'l keladi.

**To'rtinchidan**, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar rejasida "ichki turizm"(tarixiy shaharlar va muqaddas qadamjolariga sayohat)ni hisobga olgan holda shakllantirish. Vatanparvarlik va insonparvarlik kayfiyati ota-bobolarimiz tomonidan amalga oshirilgan ishlar namunasida, hamda buyuk mutafakkirlar siymosida namoyon bo'ladi. O'quvchilar va talabalar tarixiy shaharlarimizga sayohati, hamda yetuk mutafakkirlardan qolgan meroslarni ziyorat qilganlarida ularning izdoshi bo'lish tuyg'usi shakllanadi va amaliy hissiyotlari ortib boradi.

**Beshinchidan**, ma'naviy-ma'rifiy ishlar rejasiga mam-lakatimizda erishilayotgan o'zgarishlar va yutuqlarni aks ettiruvchi alohida tadbirlarni uyuşhtirish. Bu ma'lumotlar fanlar kesimida berib boriladi, ammo viktorina, zakovat, bellashuvlar shaklida o'tkazilmaydi. Agar alohida ma'naviy-ma'rifiy tadbir sifatida o'tkazilsa o'zaro uyg'unlik kuchayadi.

**Oltinchidan**, ta'lim muassasalarini hududi va ichki bino yo'laklarida vatanparvarlik, insonparvarlik, ilmu-ma'rifatga doir afishalar, afarizmlar va ko'rgazmalarni ko'paytirish. Yoshlarning qadamli harakatida ma'naviyatga chorlovchi fizirlarning namoyonligi tarbiyaviy salohiyatni oshiradi.

Ta'lim muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish asnosida ko'zlangan maqsadga erishish ustoz-murabbiylarning maqsadli yondoshuvi asosida kechadi. Prezidentimiz ta'biri bilan aytganda, ushbu tizimning sifati bugungi va ertangi hayotimiz darajasini belgilashi kerak.

Bu borada milliy ta'lim-tarbiya tizimini shakllantirishda bir omil borki, uni ro'yobga chiqarish uchun faqat istak, mablag', vaqtning o'zi kifoya emas. U ham bo'lsa, tarbiyachi, o'qituvchi, ustoz omilidir. Agar uni to'liq yuzaga chiqarolmasak, barcha harakat va harajatlarimizdan hech qanday samara bo'lmaydi[4,148]. Shu sababli, ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish vazifalarini aniq belgilishi ustuvor ahamiyatga ega. Aniq maqsadga yo'naltirish yoshlari tafakkurini o'zgartiradi. Tafakkurning o'zgarishi ma'rifikat va ma'naviyat bilan chambarchas bog'liq. Ana shu ma'naviy-ma'rifiy bilimlar asosida shakllangan millat mafkurasi, uni albatta, taraqqiyotga yetaklashi tayin. Binobarin, hech qanday jamiyat va millat mafkurasiz yashay olmaydi. Dunyodagi har bir jamiyatning o'ziga xos, o'ziga mos keladigan, uning uchun xizmat qiladigan, tub maqsadlari va manfaatlarini himoya qiladigan mafkurasi bo'ladi. Odamlar qaysi bir jamiyatda yashashidan qat'iy nazar nimagadir ishonishi, e'tiqod qilishi, qandaydir bir g'oyaga, ta'limotga asoslanib ish ko'rishi, faoliyat ko'rsatishi kerak.

Ana shunday g'oyalardan biri, yuksak ma'naviyatli shaxsni, pirovardida, yuksak ma'naviyatli jamiyatni shakllantirishdir. Ma'lumki, yuksak ma'naviyat asosiga qurilgan siyosat jamiyat rivojlanishi va unda barqarorlik ta'minlanishiga olib keladi. Biron-bir mamlakatda faqat muayyan guruh va kuchlar hukmronligini ta'minlashga, xalq ommasi manfaatlariga zid va shu asosda tor doiradagi manfaatlar ni himoya qiluvchi tuzumni saqlab qolishga qaratilgan siyosat – adolatsiz, ma'naviyat va ma'rifikatdan xoli bo'lgan boshqaruv usuli va vositasidir. Bu siyosatning jamiyat va mamlakat miqyosidagi hukmronligi inson huquqlarining poymol etilishiga, moddiy va ma'naviy boyliklarning talon-taroj qilinishiga, zo'ravonlik, johillik, tekinox'rlik, o'z mansabidan g'arazli niyatda foydalanish, poraxo'rlik kabi ma'naviy qashshoqlashuv shakllari vujudga kelishi-

ga sabab bo'ladi. Shiddat bilan o'zgarib borayotgan hayot oldimizga qo'yayotgan bir-biridan murakkab va muhim masalalarni hal qilish haqida o'ylar ekanmiz, ularning yechimi aynan ta'lim-tarbiya bilan, yoshlarning dunyoqarashini zamonaviy bilim, yuksak ma'naviyat va ma'rifat asosida shakllantirish bilan bog'liq ekaniga yana bir bor ishonch hosil qilamiz. Bu borada biz ilgari surayotgan "jaholat va zo'ravonlikka qarshi ma'rifat bilan kurashamiz" degan g'oya va tashabbus xalqaro maydonda katta e'tibor va qiziqish uyg'otmoqda hamda qo'llab-quvvatlanmoqda[5,448].

Ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkiliy jihatini har tomonlama takomillashtirish, aniq yo'naltirish, bugungi kunga moslashtirish dolzarblashib bormoqda. Tashkiliy qismga e'tibor qaratish quyidagilarda aks etmog'i lozim.

1. Respublikamiz Prezidenti va hukumatining ma'naviyat va ma'rifatga oid farmonlari va qarorlarini jamoada keng muhokama qilish, ulardan kelib chiqadigan vazifalarni belgilab olish;

2. Respublika "Ma'naviyat va ma'rifat" Markazi, viloyat, shahar va tumandagi, tegishli bo'limlar bilan yaqindan hamkorlik o'rnatish, mazkur tashkilotlar xodimlari bilan doimiy uchrashuvlar o'tkazib turish;

3. Barcha ta'lim binolari va yotoqxonalarida "Ma'naviyat va ma'rifat" xonalarini ko'paytirish, uni jihozlash, oliy o'quv yurti va yotoqxonalarining asosiy kirish joylarida, kutubxona va o'quv zallarida xalqimizning ma'naviy boyligini va ma'rifatliligin tarannum etuvchi "yuksak ma'naviyat va ma'rifatlilik mustaqil kelajagimiz garovi" mavzuida kitoblar, plakatlar ko'rgazmasini tashkil qilish;

4. Respublika "Ma'naviyat va ma'rifat" Markazi va uning joylardagi tashkilotlar bilan hamkorlikda ta'lim muassasalarida muntazam ravishda kitob savdosi tashkil etib turish;

5. Ixtisosligi yaqin o'quv yurtlari ma'naviyat va ma'rifat ishlari prorektorlari, bo'lim boshliqlari, metodistlar va fakultetlar dekanlarining shu soha bo'yicha muovinlar ishtirokida muntazam ravishda qilinayotgan ishlar, tajribalar, vazifalar xususida seminarlar va anjumanlar o'tkazib turish, quyi ta'lif muassasalari bilan tajriba almashish.

"Ta'lif to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuning yangi tahriri asosida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish konsepsiysi ishlab chiqildi. Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida[6], Umumiy o'rta ta'lif muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy hamda tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirish konsepsiysi shular jumlasidandir. Ushbu konsepsiylar ta'lif muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etishda asosiy qo'llanma vazifasini o'tamoqda.

Xulosa qilib aytganda, ta'lif muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni milliy qadriyatlar asosida tashkil etishning yangicha metodologiyasi asosan uch yo'nalishda olib borilishi maqsadga muvofiq va eng yaxshi uslubligi bilan ajralib turadi. Birinchisi, auditoriyada olib boriladigan milliy va umuminsoniy qadriyatlarga yo'g'rilgan ma'naviy-ma'rifiy ishlar, ikkinchisi yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalaydigan va boy madaniy mesorga hurmat tuyg'usini uyg'otadigan auditoriyadan tashqari olib boriladigan ma'naviy-ma'rifiy ishlar, uchinchisi, bir tarmoqli va ko'p tarmoqli shakllardan iborat bo'lgan ijtimoiy hamkorlikdir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. *O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi*, 1992 y., 9-son, 342-modda; 1993 y., 6-son, 268-modda.

2. *O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi*, 1997 y., 9-son, 225-modda; 2013 y., 41-son, 543-modda;

*qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 05.01.2018 y.,  
03/18/456/0512-son; 19.04.2018 y., 03/18/476/1087-son.*

*3. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020  
y., 03/20/637/1313-son; Qonunchilik ma'lumotlari milliy  
bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son, 12.10.2021 y.,  
03/21/721/0952-son.*

*4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 26  
martdagi PQ-5040-son qarori.*

*5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022  
yil 3 oktyabrdagi 558-son qarori.*

*6. Mirziyoyev Sh. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari.  
4-jild. T: O'zbekiston, 2020. –B.148.*

*7. Mirziyoyev Sh. Xalqimizning roziligi bizning faoliyat-  
imizga berilgan eng oly bahodir. 2-jild. T: O'zbekiston, 2018,  
2020. –B.448-449.*

**Nigora XUSANOVA,**

*Respublika Ma'naviyat va Ma'rifat markazi huzuridagi  
Ijtimoiy ma'naviy-tadqiqotlar instituti kichik ilmiy xodimi,  
O'zbekiston Milliy universiteti tayanch doktoranti*

**"MILLIYATNING TANNAZULGA YUZ TUTISHI" –  
JAMIYATDAN BEGONALASHUV, VIRTUALLASHUV,  
"MEN KONSEPSIYASI", LGBT KABI G'OYALARНИ  
YOSHLAR ONGIGA SINGDIRISH YANGI USUL VA  
MEXANIZMLARI**

*"Dunyo shiddat bilan o'zgarib, barqarorlik va xalqlarning mustahkam rivojlanishiga rahna soladigan turli yangi tahdid va havflar paydo bo'layotgan bugungi kunda ma'naviyat va ma'rifatga, axloqiy tarbiya, yoshlarning bilim olish, kamolga yetishga intilishiga e'tibor qaratish har qachongan ham muhimdir".*

**Sh.Mirziyoyev**

G'arbdan paydo bo'lgan "Ommaviy madaniyat" g'arb-dagi oila, nikoh, ota-onva farzand o'rtasidagi munosabatlar, oila qurishdagi qarashlarning o'zgarishi hamda milliy qadriyatlarning yo'q bo'lishi va e'tiqodlarning o'zgartirib ko'rsatilishi natijasida kishilar o'rtasidagi **milliy qadriyatlarning tannazulga yuz tutishi uchun – jamiyatda begonalashuv, virtuallashuv, "men konsepsiyasi", farzandsizlik, e'tiqodlar to'qnashuvi, deviant xulq-atvor, LGBT kabi yot g'oyalarini yoshlар ongiga singdirishning yangi usul mexanizmlarini ishlab chiqarib, ist'emol uchun yer yuzidagi kishilarga singdirish yo'li-da kecha-yu kunduz mafkura mashinalari tinimsiz faoliyat olib borishmoqda.**

Bugun G'arbdan keng tarqalayotgan g'oyaga ko'ra 1997-yildan 2012-yilgacha dunyoga kelgan avlod "Z-zed"

deb nomlanib, ular boshqa avlod vakillaridan farq qilib ular yashayotgan davr “raqamli xizmat ko’rsatish hamda texnologiyalar asri” hisoblanadi. Bu davr o’smirlari og’ir mehnat va va jismoniy mehnatlardan ozod bo’lishi hamda ular uchun o’rta maxsus ta’limning yetarli ekanligi, ularning virtual olamdagи mavqeи orqali ularning turmush darajasini yengillashtirib berishi to’g’risidagi g’oyalari qisqa vaqt ichida O’zbekistonga ham kirib kelib ulgurdi [1.2-3b]. Endi jamiyat a’zolari orasida hech qanday aqliy yoki jismoniy mehnatlarsiz ham oson daromad topish degan g’oya yoshlarning aksariyatini ongini egallab ulgurgani ham rost.

Ijtimoiy tarmoqlar orqali yoshlarning favoritiga aylan-gan **“Instayulduzlar”** tomonidan tarmoqqa joylangan va bugungi kunda kishilar o’rtasida urchga aylanayotgan **“MEM”**lar misol bo’ladi. Axborot asrida kamol topayotgan yosh avlod o’rtasida keng tarqalgan tushuncha **“MEM”** (*ijtimoiy tarmoqlarda mashhur so’z, ibora, sur’at, vedio yoki audiolarning odamlar orasida hech qanday o’zgartirishlarsiz madaniy axborotlarning birligini anglatuvchi tushuncha*) zamonamiz yoshlari o’rtasidagi tez-tez ishlatiladigan iboralardan biriga aylandi desam adashmagan bo’laman. Milliy meros va millatning qadriyatiga ushbu **“MEM”**lar bir qaraganda hech qanday zarari yo’qdek ko’rinsada, o’sha jamiyatning millatning tili, dini, e’tiqodi, qadriyat va an’analarini asta sekinlik bilan yo’q qilib boradi. Chunki, yoshlar o’rtasidagi ma’lum bir yoshlar guruhi tomonidan o’ylab topilgan biror bir “qiliq” yoki “harakat” uning mazmun mohiyatini anglab-anglamay turib yer yuzidagi yoshlarning o’rtasida ommaviy taqlid vositasiga aylan-tiriladi. Masalan “Satanistlar” belgisini TikTok, YouTube, Instagram kanallarida mem va chellenj darajasida tarqatish missiyasi to’g’risida ma’lumot berishdan avval, siz bilan “satanist” nima o’zi bu belgini tarqalishi yoki yosh-

larining takrorlashini qanday salbiy jihatlari bor deyishin-giz mumkin. "Satan" so'zi ingliz tilidan olingan bo'lib, jin shayton, iblis degan ma'nolarni anglatib, yer yuzidagi in-sonlar orasida iblisga xizmat qiluvchi va insoniyatni to'g'ri yo'ldan ozdiruvchi imon-e'tiqodini yo'q qilishga qaratilgan harakat hisoblanadi [2]. Bu oqim AQShning Koliforniya shtatida Anton Leviy tomonidan ilk bor satanlar uchun "shayton cherkovi" nomli cherkov barpo etish bilan birga, "Satan injili" nomli kitobi muallifi hisoblanadi. Bu yo'nalish vakillari satanizm va ateizm tarafдорлари tomonidan birga harakat olib borilib, ular bosh g'oyasi "dunyoni shayton boshqaradi" degan aqida bilan harakat qiladilar. Ularni yer yuzida tarqalishi va faoliyatning eng beozor yo'li sifa-tida musiqiy yo'nalish tanlangan. Bundan tashqari kichik va qisqa lavhalardan unumli foydalanish orqali o'zlarining "satan belgisi" – ko'rsatgich va jimchiloq barmoq yuqoriga va ular orasidagi o'rta va nomsiz barmoq pastga egilgan hamda bosh barmoq ikki pastga egilgan barmoqning us-tida turgan ishorani ko'rsatiladi va lavhaning qaysidir qis-mida bu ishora uzatiladi. Bu belgini asosan ommaviy "rok, metall va xevi" yo'nalishidagi musiqiy konsert dasturlari namoyishida ularning sevikli qo'shqchilar tomonidan ushbu harakatlar namoyish etiladi va muxlislar tomonidan o'zi-bilgan va bilmagan holda ushbu harakatlar takrorla-nadi. Bu guruh faollari nosog'lom muhitda tarbiya topgan oilaning farzandlari (*ota yoki onasi tashlab ketgan, giy-ohvand, ichkilikbozlik notinch oila farzandlari*)dan tashkil topgan.

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, iymon e'tiqodga qaratilgan xujumlarning aksariyati yosh jihatdan o'smirlik yoshi 13-19 yoshgachani tashkil etsa, bolalarning insoniy-lik, rahmdillik, mehrbonlik, beg'uborlik, mehr-muxabbat, ruhiy olami, o'z manfaatlarini o'zgalar manfaatidan ustun qo'ymaslik kabi inson uchun qadriyatga aylanib ulgurgan

hislatlarni 2-14 yoshgacha bo'lgan bolalarda yo'q qilish uchun ham harakat boshlab yuborilgan. Butun dunyoda keng tarqalgan va yer yuzidagi aksariyat yoshlarni o'zida jamlagan "TikTok" va "YouTube" platformasi orqali qisqa soniyali "Ko'k boshli mahluqcha yo'qoldi? U shu yerda emasmi? ko'rinishidagi roliklar ijtimoiy tarmoq foydalananuvchilarning "**MEM**"iga aylanishi hamda tarmoq foydalanuvchilari o'rtasida "chellendj"larning ommalashib borishi orqali bolalar uchun turli xil ahloqiy buzuq o'yinchoqlarning ommalashtirish va ularning sevimli o'yinchog'iga aylantirish asosida ma'naviy olamiga xujumlar uyshtirilmoqda.

O'ylab qaralsa, bolalar o'rtasidagi "**popit va antistress**" o'yinchoqlari ommalashtirishdan asosiy maqsad bolaning yoshlidan uning ongida "**stres**" so'zini uning ongiga joylash va shakllantirishdan iborat. O'zingiz o'ylab ko'ring 3-7 yoshli bolada qanaqa asabiy tushkun holat bo'lish kerakki uni *antestres* o'yinchoqlari bilan bartaraf etish lozim bo'lsa?. G'arb olimlarida bir qarash muvjud bo'lib, aksariyat amerikaliklar ruhiy holati tufayli shifoxonalarda ro'yxatda turishi va ularda bu holatni bartaraf etish uchun davlat tomonidan dori-darmonlar bilan ta'minlab turilishi to'g'risida ma'lumotlar mavjud.

E'tibor berib qarasak, amerika ijodkorlari tomonidan yaratilgan film va multfilm hamda hattoki, qo'shiqlarida ham ruhiy kasalliklar bilan qahramonlarning qiynalishi to'g'risida lavhalar tez-tez uchrab turishi ham g'ayrioddiy holat hisoblanadi. Shu o'rinda birinchi Prezident I.A.Karimovning "Albatta, har qaysi xalq yoki millatning ma'naviyatini uning tarixi, o'ziga xos urf-odat va an'analarini, hayotiy qadriyatlaridan ayri holda tasavvur etib bo'lmaydi" [3.52b] deb ta'kidlagan edilar. Darhaqiqat, har bir millating milliy qadriyatlari muhim ahamiyatga ega bo'lgan etnik jihat va xususiyatlar bilan bog'liq qadriyat shakllaridan

tashkil topadi. Yer yuzida o'ziga xos qadriyatlar bo'limgan millatning o'zi mavjud emas. Milliy qadriyatlar esa biror bir millatning tarixi, yashash tarzi, ma'naviyati hamda madaniyati bilan uzviy bog'liq holda namoyon bo'ladi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng milliy qadriyatlariga e'tibor tubdan o'zgardi. Milliy qadriyatlar mamlakatning mustaqilligini mustahkamlaydigan ma'naviy asoslardan biriga aylandi. Aynan shu asosni asta-sekinlik bilan yo'qqa chiqarish esa millatning o'zligini, e'tiqodi va tilini yo'q qilish orqali erishish bugungi kunning mafkuraviy kurashlarining markazidagi muammolardan biri. O'zining milliy o'zligini saqlab qolgan millatlar omon qoladi. Saqlab qola olmagani esa tarix zarvaraqlaridan issiz yo'qolish xavfi ostida qoladi.

Bizning milliy qadriyatlarimiz, ta'bir joiz bo'lsa, milliyatimiz sodda xalqimiz tomonidan asrlardan asrlarga meros tarzida uzoq tarixiy jarayonda shakllangan va bugungi kungacha yetib kelgan. Kezi kelganda, "**milliyat**" tushunchasiga ta'rif berib o'tishni lozim topdik. **Milliyat - ma'lum bir millatga, ana shu millat bilan bir maslakda yashayotgan xalqqa tegishli bo'lib, boshqa millatlar va xalqlardan o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi. O'zida tarixiy haqiqati, insoniy qadriyatları, turmush tarzi, madaniyati va ma'naviy merosini ifoda etadi.** Bu - ona yurtga ehtirom, ajdodlar xotirasiga sadoqat, kattalarga hurmat, oilaning muqaddasligi, iffat, ibo-hayo, andisha kabi xususiyatlarning ustivorligi, boshqa xalqlarnikiga o'xshamaydigan urf-odatlar, rasm-rusumlar, va an'analar bilan alohida ajralib turadi.

Ammo axborot texnologiyalarining rivojlanishi natisida esa kishilar o'rtasidagi ona vatanga muhabbat, mehr-muruvvat, halollik, rostgo'ylik, rahmdillik, kechiruvchanlik, bokiralik, ayollik iffati, yigitlik g'ururi qadriyat darajasiga ko'tarilgan insoniy fazilatlarning asta sekinlik

bilan o'rnini "Milliyatning tannazulga yuz tutishiga olib keluvchi – jamiyatdan kishilarning begonalashuvi, kishilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning virtuallashuvi, "men konsepsiyasiga asoslangan – hayotdan lazzat olish, ko'ngilxushliklar, kishining dunyoga bir marta kelishi va uni o'zi uchun yashashi, o'zi xohlamasa bu dunyoni tark etishi mumkinligi – suisid, oila qurmaslik, farzandsizlik, ayol va erkak munosabatlaring nostandard ko'rinishlari, LGBT g'oyalarining keng yoyilishi" xudosizlik, ekstremizm, qurollanish poygasi, bir qutbli dunyo, fahsh, shafqatsizlik, vaxshiylik va yagona vatan mavjud emas – ya'ni vatansizlik g'oyalarini keng targ'ib etish orqali milliyatning tarixiy taraqqiyoti va kelajagi uchun yangidan yangi tahididlar turlicha ko'rinishda va yangicha usul, vositalar orqali dunyo sahnasida namoyon bo'lmoqda.

Kishilarning real olamdan ko'ra, virtual olamdag'i faoliyat jarayonining ortib borishi natijasida, erkak jins vakillari bilan teng huquqlilikni birdek davo qiluvchi "instasamka"lar ham bugungi kunda o'zining ayollik sha'ni va qadr-qimmatlarini bir chetga surib yengil hayot va oson pul topish maqsadida o'zining turli ko'rinishlarida jamoatchilikka namoyon bo'lismoqda. "instasamka" ya'ni bu so'zning hali lug'aviy ma'nosi mavjud emas ularning faoliyat turidan kelib chiqib "Instagram so'zining qisqartmasi "Insta" so'zining (*ingliz tilida*) ma'nosi – foto va videolarni almashish uchun Amerika ijtimoiy tarmog'i, degan ma'noni anglatsa, "samka" esa ayol, urg'ochi degan ma'nolarni anglatadi" nomi ostida faoliyat yutituvchi ayollar guruhi TikTok, Instagram, YouTube platformalarida faoliyat olib borishmoqda. Erkak jins vakillaridan ham "instasamis" va "InstaAlfa" tahalluslari bilan ijtimoiy tarmoqlarda hech qanday aqliy va og'ir mehnatlarsiz daromad topish maqsadida insoniy va axloqiy qadriyatlarni chetga surib faoliyat olib boruvchi yosh yigit qizlarning soni kun-

dan kunga ortib bormoqda. Avvallari yigitlarimizni "Alp o'g'lon", "Bahodir", "Algomish", qizlarimzni esa "To'maris-u Barchinga" qiyoslab atagan bo'lsak, zamonamiz qizlari endi "instasamka, instaAlfa yigitlarimizni esa "instasames, instaAlfa, xeytir" kabi nomlar ostida g'urur bilan faoliyat olib borishmoqda.

Insonning fazilatlari va hislatlari azal-azaldan insoniy qadriyat sifatida ko'rilgan bo'lib "Ommaviy madaniyat" ta'sirida ***milliyatning tanazulli*** davri kelganini, bugun siz-u biz guvohiga aylanib turibmiz. G'arbda paydo bo'lgan "Ommaviy madaniyat" g'arbni o'z domiga tortib ketdi, ammo keyingi navbat sharq mamlakatlari ekanligini hamma birdek anglab yetmaydi. Bu bizga tanish faqat kiyinish madaniyati emas, unda oila, farzand, e'tiqod, shaxsning o'zligini anglash masalalariga yangicha yondashuv – inson o'z tanasi uniki yoki uniki emasligi to'g'risidagi muammolar, "Men konsepsiysi", deviant xulq-atvor, kiberjinoyatchilik, giyohvandlik vabosi, odam savdosi, LGBT, suisid muammo-laridan tashqari eng og'riqli nuqtasi insonlar o'rtasidagi mehr-muruvvat kabi ma'naviy qadriyatlarning yo'qolishi-ga olib kelmoqda. Bu borada davlat rahbari Sh.M.Mirziyoyev, "Yosh avlod tarbiyasi hamma zamonlarda ham muhim va dolzarb ahamiyatga ega bo'lib kelgan. Ammo, biz yasha-yotgan XXI asrda bu masala haqiqatan ham hayot-mamot masalasiga aylanib bormoqda" deya ta'kidlaydi [4]. Inson ongingin aql zakovati va ilm-fan mo'jizalari tufayli endi bir davlatda beqarorlikni vujudga keltirish uchun kishilar ni namoyish etish uchun ko'chaga chorlovlар shart emas. Chunki, bu faoliyatni amalga oshirish uchun "Media makon ya'ni virtual olam" mavjud. Turli xil "Ijtimoiy safarbar" etuvchi harakatlar hozirgi kunda quyidagi ko'rinishlari mavjud:

- Millatni safarbar etish,
- Ommaviy safarbar etish,

- Harbiy safarbar etish,
- Virtual safarbarlik kabi turlarga bo'lishimiz mumkin [5.9-10b.]

Yuqoridagilardan "Virtual safarbar etish" tushunchasi-ga alohida to'xtalib o'tmoqchiman. **Virtual safarbarlik** – hozirgi kunda ushbu jumla shiddat bilan kirib kelayotgan ibora bo'lib bu eng havfli safarbarlik turlaridan biri deyish mumkin. Chunki bunda chegaralar va sarhadlar mavjud emas. Yo'l boshlovchilar ham aniq bo'lmasligi ham mumkin. Chunki virtual olamga bo'lgan ehtiyojning ortishi nati-jasida hech kim hech narsani surishtirmay uning ortidan ergasha boshladi. Chunki insonning kim ekanligi va uning jamiyatdagi o'rnnini qilgan ishlari emas, uning "Podpiska" va "Layklari" belgilab berayotgani hech kimga sir emas. Ayni shunday vaziyatda o'zining keng qamroviga yoshlarni jalb etgan ijtimoiy tarmoqlar orqali ularni turli g'oyalarga virtual yo'naltiruvchi kimsalar ham ko'payib ketdi.

Ma'lum bir vaqt, joy, qamrov hisobga olinmagan hol-da internet orqali kishilarni safarbar etish urfga kirmo-qda. Bu esa jamiyat a'zolarini chetda qoldirmayotgani va ularni o'z-o'zidan ishtirokchiga aylanib qolishi nati-ja yaxshi yakun topmayotgan holatlari ijobiydan ko'ra ko'proqni tashkil etmoqda. Masalan, shu kecha kunduzda Toshkent shahar IIB tomonidan turli xil mamlakatlarda 30 yoshga to'lмаган yoshlar о'rtasida о'зидаги бузг'унчи ва вайронкор г'ояларни аks etgan "Redan" harakati yurtimizga ham kirib kelgani va o'zini faoliyatini boshlagani to'g'risida OAVga bayonot berildi. Ma'lumotlarga ko'ra, "Redan" o'zi yapon animatsiya sa'natiga muxlislarini o'zida mujassam etgan internetdagи virtual jamolardan iborat o'smirlardan iborat virtual munosabatga kirishuvchi guruuhlar hisoblanadi. Vaqt o'tishi bilan ularning orasida turli xil vayronkor g'oya va provakatsiyalarni amalga oshiruvchi yo'lboshchilar paydo bo'la boshladi. Natijada, turli xil mamlakatlarda


tajovuzkor yoshlardan iborat “Redan harakati” o‘z faoliyatini boshladi. Bu harakat a’zolari yoshlarning dunyoqarashi, axloqiy qadriyatları, ruhiyati va insoniy fazilatlariga qaratilgan buzg‘unchi va vayronkor g‘oyalarni targ‘ib qiluvchilar tomonidan turli xil mamlakatlarda ommaviy tartib buzarliklar va beqarorlik holatlari amalga oshirish yo‘liga o‘tishdi. Misol tariqasida 2023-yilning 24-fevral sanasi-da Moskva shahri, 26-fevral kuni Sankpeterburg shahri, Ukraina davlatining Kiev va Xarkov shaharlari, Belarussiya hamda Qozog‘istonning Korakond shaharlarida ham amalga oshirilgan “Redan harakati”, joriy yilning 5-mart kuni O‘zbekistonda “Forumlar saroyi”da Toshkent vaqt bilan 18-00 da namoyish o‘tkazilishi va bu namoyishda sovuq qurol va pinivmatik hamda sovuq qurollar bilan namoyish etishga guruh a’zolari “virtual safarbar” etilgan.

Bu haqida ishonchli ma’lumot kelib tushgach ushbu harakatlar amalga oshirish jarayoni to’xtatilib, ishtirokchilar qo‘lga olingan. Toshkent shahar IIB tomonidan o‘z vaqtida bartaraf etilgan namoyishda qo‘lga olingan jamoa a’zolari bilan suhbat chog‘ida ular sodir etayotgan hatti-harakati jinoyat ekanligi, uning keltirib chiqarishi mumkin bo‘lgan oqibatlari to‘g‘risida umuman tushunchaga ega emasligi, shunchaki vaqtichog‘lik uchun borgani va ularni maydonga yig‘moqchi bo‘lgan guruh yo‘lboshchilarining o‘zi yo‘q bo‘lib qolganligi to‘g‘risidagi ma’lumotidan ko‘rinib turibdiki, har qanday uzatilayotgan xabar yoki axborot tufayli yer yuzining xohlagan yerida beqarorlik va namoyishlarni bemalol tashkil eta oladi.

Bu jarayonning achinarli jihatni shundan iboratki, yoshlarning ushbu chaqiruvlarda ko‘r ko‘rona ishtirok etishi, va nohush holatlari to‘g‘risida umuman tushunchaga ega emasligidadir. Bunday tez-tez sodir etilayotgan ko‘ngilsiz holatlarni oldini olish, ularga to‘g‘ri yo‘nalishlar berish, salbiy oqibatlarni keltirib chiqarmaslik uchun ta’lim va

tarbiya jarayonlarida bir zum ham hotirjamlikka berilmaslikni talab etadi. Shu o'rinda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev tomonidan "*Agar biz yolg'on g'oyaga aldanganlarni o'z holiga tashlab qo'yadigan bo'lsak, ertaga chetda payt poylab turgan qabih yov kelib, uni o'z ortidan yetaklab ketmasligiga kim kafo-lat beradi?*" deb, kuyunib aytilgan fikrlari barchamizni hushyor torttirishi lozim. Haqiqatdan ham shunday. Qachonki biz oilada farzand uchun sog'lom muhitni shakllantirib bera olsak, kelajakda kelib chiqishi mumkin bo'lgan muammolarning oldini olish osonroq bo'lar edi.

Xulosa o'rnida ta'kidlash lozimki, dunyoning geosiyosiy va mafkuraviy manzarasidan kelib chiqib, globallashuv jarayonining asosiy subyekti va harakatlantiruchi kuchi muayyan g'arazli maqsadlarni ko'zlashda davom etar ekan, milliy ma'naviyat va qadriyatlarga tayangan millat xavfsizligi avvalo, ma'naviy-ruhiy komilllik, g'oyaviy tarbiya, milliy tafakkur, yangicha dunyoqarash, chuqur tahlil, axborot psixologik xavfsizlikni kamol toptirish, sog'lom dunyoqarash, millat manfaatlarini shaxsiy manfatlardan ustunligi, vatanga muhabbat hamda insonning vatanda qanchalik haqqi bo'lsa vatanning ham insonda shunchalik haqqi borligini anglab yetishi va eng asosiysi kelajak avlodlar oldidagi javobgarlik hissi orqali tarbiya va ta'lim jarayonlarini zamonaviy bilimlar bilan uyg'unlashtira olsak ko'zlagan maqsadlarga erishish mumkin. Buning uchun biz yosh avlodni ongi va qalbiga sharqona odob, axloq, tarbiya, milliy qadriyatlar, urf-odat va an'analarimiz xalqning me'dasiga tegmaydigan usul va vositalar orqali o'zbek millatiga singdirishning zamonaviy usullarini ishlab chiqish orqali safarbar eta olsak farovon vatan orzusiga erisha olamiz.



## Foydalaniłgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh. *Jismoniy va ma'naviy yetuk yoshlari* – ezgu maqsadlarimizga yetishda tayanchimiz va suyanchimizdir / "Xalq so'zi" 2017-yil 1-iyul. [4]

2. Karimov I.A. "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch." – T.: "Ma'naviyat" 2008. [3.52b]

Xusanova N. Sevimli qo'g'irchoqqa aylanayotgan "maxluq"lar yoxud bolalar tanlagan qahramonlar qanday oqibatga sabab bo'ladi? <https://uza.uz/posts/420950> [1.2-3b]

В Черкасской области Украины открыли Храм Дьявола / Вести.py. – 17.08.2014. Архивировано 4 марта 2016 года. [2]

3. To'rayev Sh., Xusanova N. "Ijtimoiy safarbarlik" – T.: Ma'naviyat, 2022 [5.9-10b.]

**Nodirjon TOG'AYEV,**

*Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat  
universiteti falsafa doktori (PhD) dots.*

**XALQIMIZ ONGIGA MILLIY QADRIYATLARNI  
SINGDIRISHDA MA'NAVIY MEROSNING  
TUTGAN O'RNI**

Agar o'tmishdagi ma'naviy merosimizni ulkan bir daryo deb tasavvur etadigan bo'sak, bu boradagi hozirgi bilim va tasavvurlarimiz undan bir tomchi xolos. Bugungi kunda istiqlol tufayli erishgan eng katta yutuqlarimizdan biri bu buyuk ajdodlarimiz milliy-ma'naviy merosining qayta tiklanishidir. So'ngi yillar ichida o'tmish milliy-ma'naviy va madaniy merosini o'rganish, ularning xalqimiz ma'naviyatiga ta'sirini ko'plab soha vakillari tadqiq qilmoqdalar.

Ajdodlarimizning ongi va qalbida milliy qadriyatlarimiz ming-ming yillar davomida o'zining eng oliy qadriyatlari sifatida shakllanib borgan desak, hech ham xato qilmaymiz. Bugungi kunda mamlakatimizda ijtimoiy-ma'naviy sohalardagi islohotlardan ko'zlangan asosiy maqsad xalqimizning ma'naviy yuksalishiga zamin hozirlash, xususan jamiyatda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiq insonparvar, vatanparvar, millatparvar, ajdodlarga munosib xalq bo'lishdan iboratdir. Bu haqda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev "Bizning qanday buyuk va shonli o'tmishimiz, qanday ulug' ajdodlarimiz borligini yaxshi bilamiz va bu bilan hamisha faxrlanamiz" – deb ta'kidlab o'tadilar [4: 191].

Ayni paytda jahon miqyosida erishilgan dunyoviy bilimlar, milliy qadriyatlар, ajdodlar yaratib qoldirgan boy ma'naviy merosni falsafiy mushohada etish, hikmatlar, ozodlik,adolat, poklik, halollik, mardlik, vatanparvarlik, insoniylik, nafosat, insonning mohiyati, inson hayotining ma'no-mazmuni milliy va umuminsoniy qarashlar,

xalqimizning o'ziga xos turmush tarzi, tafakkuri va dunyoqarashida aks etgan ertak va afsonalari, milliy qahramonlarimizning hayoti, qahramonona ishlari va boshqalar xalqimiz milliy qadriyatlarini aks ettirishning muhim omillari, tayanch negizlari va manbalari sifatida o'r'in tutadi.

Ajdodlarimiz tomonidan bizga qoldirilgan boy ilmiy-ma'naviy meros xalqimizning ayniqsa kelajak avlodning tafakkuri, dunyoqarashi milliy va umuminsoniy qadriyatlarasi asosida shakllanishida Vatanga muhabbat, millatparvarlik, ajdodlarga munosib farzand bo'lib voyaga yetish va ularning bunyodkorlik faoliyatini davom ettirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Xalqimizning uzoq o'tmish tarixi shundan dalolat beradiki, insoniyatning ma'naviy kamolatiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan boy ma'naviy-madaniy meros va buyuk qadriyatlar sohibimiz. Bizning donishmand ajdodlarimizning barchasi ilm-ma'rifatni ulug'laganlar, insonni axloqli, tarbiyali bo'lishga, Vatanni sevishga, insonparvar hamda millatparvar bo'lishga undaganlar.

Bugungi kunda mamlakatimizda ijtimoiy-ma'naviy sohalardagi islohotlardan ko'zlangan asosiy maqsad xalqimizning ayniqsa yoshlarimizning ma'naviy yuksalishiga zamin hozirlash, xususan jamiyatda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiq barkamol inson bo'lib voyaga yetishishi ustida qayg'urish, ularni insonparvar, vatanparvar, millatparvar, axloqiy jihatdan komil inson bo'lib yetishishining ilmiy asoslangan tarbiyaviy tizimini ishlab chiqishdir. Bu haqda Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov: "Ajdodlarimiz tafakkuri va dahosi bilan yaratilgan eng qadimgi toshyozuv va bitiklar, xalq og'zaki ijodi namunalaridan tortib, bugungi kunda kutubxonalarimiz xazinasida saqlanayotgan ming-minglab qo'lyozmalar, ularda mujassamlashgan tarix, adabiyot, san'at, siyosat, axloq, falsafa, tibbiyot, matematika, mineralogiya, kimyo, astronomiya, me'morlik, dehqonchilik va boshqa soha-

larga oid qimmatbaho asarlar bizning buyuk ma'naviy boyligimizdir. Bunchalik katta merosga ega bo'lgan xalq dunyoda kamdan-kam topiladi" – deb ta'kidlaydi [5: 31].

Ajdodlarimizning o'tmishi, milliy va diniy an'analarimiz, ma'naviy qadriyatlarimizni o'rganish, xalqimizning milliy o'zligini anglashi, demokratik,adolatli, huquqiy davlat rivojida fuqarolarning, ayniqsa, yosh avlodning yaxlit bir dunyoqarashi shakllanishida nazariy poydevor vazifasini bajaradi. Masalan buyuk hadisshunos olimlarimizdan Imom al-Buxoriy ilmiy merosini o'rganish borasida yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlarni xalqimizga, ayniqsa yoshlarimizga doimiy ravishda tushuntirib borish maqsadga muvofiqdir. Bu haqda faylasuf olim Ubaydulla Uvatov shunday deydi: "Ibratli pand-nasihatlar va o'gitlari hozirgi jamiyatimiz ahlini, ayniqsa, yosh avlodni yetuk, komil inson qilib, tarbiyalashda beqiyos ahamiyat kasb etishini alohida ta'kidlash o'rinnlidir. Imom al-Buxoriyning asarlari diniy ilmlar majmuasiga oid bo'lib qolmasdan, balki dunyoviy ilmlarga oid ma'lumotlarga ham boydir. Massalan, uning bosh asari "al-Jome' as-sahih"da tarix, manтиq, fiqh, huquqshunoslik, tabobat va boshqa fanlarga oid ko'plab ma'lumotlarni ham uchratamiz" [6: 72].

Bugungi kunda xalqimizni, ayniqsa yosh avlodni axloqiy yetuk shaxs sifatida tarbiyalash, ularning intelektual salohiyatini o'stirish, ilm berish, halol mehnat va kasbga o'rgatish jarayonida hadislardan foydalanish katta ahamiyatga ega. Chunki, axloq-odob, farzandlarni ota-onalarning oldidagi burchlarini mukammal ado etish zarurligi, hech bir kimsaga ozor bermaslik, solih va qobil bo'lishlari, ta'lim-tarbiya, oilaviy muhitning barqarorligi hamda yoshlarni kasb-hunarga o'rgatish kabi juda ko'plab milliy qadriyatlarimizga oid ijtimoiy-axloqiy masalalarga hadislarda alohida e'tibor berilganligi bilan ham alohida muhim manba bo'lib hisoblanadi.

Masalan, Imom Buxoriy hadislarida: "Rasululloh sal-lallohu alayhi va sallam: "Hech kim o'z qo'li bilan top-gan rizqidan ko'ra lazzatliroq taom yemagan. Ollohning payg'ambari Dovud alayhissalom ham o'z qo'llarining mehnati birlan tirikchilik qilganlar" – deb ta'kidlanadi [1: 9].

Ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan boy ma'naviy meros, ulkan kashfiyotlar inson dunyoqarashi xalqimiz, ayniqsa yosh avlod dunyoqarashini shakllantirish hamda rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. Yosh avlodda in-soniy fazilatlarni shakllantirish va rivojlantirishda milliy-ma'naviy merosimizdan foydalanmog'imiz lozim, chunki ajdodlarimiz merosida ta'lim-tarbiya, axloqqa doir masalalar chuqur ishlab chiqilgan. Masalan bu haqda: "Shu o'rinda Belgiyada Ibn Sinoga, Litvada Mirzo Ulug'bekka, Moskva, Tokio va Baku shaharlarida Alisher Navoiy bobomizga, Misr poytaxti Qohira shahrida esa Ahmad Farg'oniy xotirasiga hurmat sifatida muazzam haykallarning o'rnatilishi har bir vatandoshimiz qalbida cheksiz iftixor tuyg'ularini uyg'otadi" [2: 63-64].

Ajdodlarimizning o'tmishi, milliy va diniy an'analarimiz, ma'naviy qadriyatlarimizni o'rganish, xalqimizning milliy o'zligini anglashi, demokratik, adolatli, huquqiy davlat rivojida fuqarolarning, ayniqsa, yosh avlodning yaxlit bir dunyoqarashi shakllanishida nazariy poydevor vazifasini bajaradi. Bu haqda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev "Tariximiz, madaniyatimiz dinimizga aloqador bir varaq qo'lyozma bo'lsa ham, ularni to'plab, xalqimizni, yoshlarimizni tanishtirish, bizning qanday buyuk va betakror merosimiz borligini anglatish, farzandlarimizni shu ulug' merosga munosib etib tarbiyalashdan iborat" – deb ta'kidlab o'tadilar [3: 592].


Xulosa o'rnida shuni ta'kidlab o'tamizki ajdodlarimiz buyuk va o'ta murakkab tarixni o'z boshidan kechirib, shuning evaziga o'zining boy ilmiy-ma'naviy merosini

yaratdi. Natijada biz donishmand va yuksak ma'naviyat sohibiga ega bo'lgan xalq sifatida shakllandik. Bunday donishmand va yuksak ma'naviyatli xalqgina, o'zining oldiga eng oliv ezgu maqsadi sifatida, erkin va farovon hayot qurishdek vazifa qo'yishi mumkin. Ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan boy ilmiy-madaniy meros xalqimiz ma'naviy yuksalishida muhim ahamiyat kasb etadi va biz buning us-tida faol ish olib borishimiz lozim.

Bugungi kunda unib-o'sib kelayotgan yosh avlodni mehr-oqibatli, sahovatli, Vatanga muhabbat, millatpar-varlik hamda kelajakka ishonch bilan qarash ruhida tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etadi. Ajdodlarimizdan avlodlarga qoldirilgan boy milliy-ma'naviy meros hamda ulkan kashfiyotlar mamlakatimiz aholisi ayniqsa, yoshlarda ajdodlar ruhiga hurmat, Vatanga muhabbat ruhida kamol topishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

### **Foydalanimanligi adabiyotlar ro'yxati:**

1. Abu Abdulloh Muhammad Ismoil ibn al-Buxoriy. *Hadis*
- 2. T.: "Qomuslar bosh tahririyati". 1997.
2. Bu muqaddas Vatanda azizdir inson. T.: „O'zbekiston”, 2010.
3. Mirziyoyev Sh.M. *Vatanimiz taqdiri va kelajagi yo'lli-da yanada hamjihat bo'lib, qat'iyat bilan harakat qilaylik.* // *Milliy taraqqiyot yo'llimizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz.* T. 1. T.: „O'zbekiston”, 2018.
4. Mirziyoyev Sh.M. *Adabiyot va san'at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma'naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir* // *Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliv bahodir.* T. 2. T.: O'zbekiston, 2018.
5. Karimov I.A. *Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch.* T.: "Ma'naviyat", 2008.
6. Uvatov U. *Hadis ilmining sultonasi. Imom Buxoriy xalqar markazi.* 2009.



**Maftuna NAMOZOVA,**  
*Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar  
instituti tayanch doktoranti*

## **SHARQ MUTAFAKKIRLARINING “ILM OLİSH” TO’G’RISIDAGI İJTİMOİY-FALSAFIY QARASHLARI**

*“Dunyoda ilmdan boshqa najot yo'q, va hech qachon bo'limg'ay.”*

**Imom Buxoriy**

So'ngi besh yillikda ta'lim sohasida jadal islohotlar amalga oshirildi va ular yana davom etmoqda. 2023-yil Prezidentimiz tomonidan “Insonga e'tibor va sifatlari ta'lim” yili deb e'lon qilinishi ham bejiz emas. Binobarin, bugungi globallashuv jarayonida yoshlarni ma'naviy barkamol etib tarbiyalash, ma'naviy tarbiya, ruhiy komillik hamda e'tiqodning mustahkamligini kamol toptirish barpo etmoqchi bo'lgan “Ma'rifatli jamiyat”ning poydevori vazifasini o'taydi. Bu jarayonda muslimon olamining yetuk mutafakkirlari bo'lgan Imom al-Buxoriy, Imom G'azzoliy, Termiziy Forobiy, Beruniy, A.Navoiy, Xorazmiy, kabi olimlarning ijtimoiy-falsafiy qarashlaridan va hadislardan foydalanish, ularning diniy-dunyoviy fikrlarini yoshlari ongiga bugungi kun talablaridan kelib chiqqan holda transformatsiya qilish orqali o'rgatishning yangi usul va metodlarini ishlab chiqish orqali tadbiq qilish hozirgi zamon talabiga aylandi desak adashmagan bo'lamicha.

Binobarin, ajdodlarimiz merosida ilmgaga bo'lgan e'tibor alohida o'rinni tutadi. Jumladan, Al-Buxoriy hadislaridan birida shunday deyiladi: “*Ilm o'rganmoqlig' har bir muslim-on uchun farzdir, avvalo olim bo'll! Loaqal ta'lim oluvchi yoki tinglovchi, ilmu ulamolarni sevuvchi bo'lgin*” deyiladi [1]. Darhaqiqat, ilmdan bahramand insonlar baxtli, mahrum-

lar esa, baxtsizdir. Shu bois, har bir inson hayoti mobaynida ilm olishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ymog'i darkor. Xususan, "Qur'oni Karim"ning *Oli Imron* surasi, 18-oyatida: "*Alloh adolatda (barqaror) turib, shunday guvohlik berdi: 'Allohdan o'zga iloh yo'qdir*", farishtalar va ilm egalari ham. (Albatta), undan o'zga iloh yo'q. U aziz (qudratli) va Hakim (hikmatli)dir" [2]. Ushbu oyatning mazmuniga nazar tashlar ekanmiz, Alloh taolo avval o'zini, keyin farishtalarni, so'ngra ilm ahlini zikr etganligini guvohi bo'lamiz. Fikrimizcha, mana shuning o'zi ilmning sharaflı, fazilati va ulug'ekanini anglashga kifoya qiladi.

Bu borada Ahmad Yugnakiy Hibbat ul haqoyiq asarida ilmsiz insonni iliksiz suyakka, ilmli insonni javohirga qiyoslaydi. Haqiqatdan ham ilmli inson qaerda bo'lsa ham azizu mukarram bo'ladi. Ammo ilmgaga e'tiborsizlik va nodonlik (jaholat)ning avj olishi jamiyatning inqiroziga olib keladi. Hadisu shariflarda "Ilmgaga amal va rioya qiluvchi bo'linglar, uni faqat hikoya qiluvchi bo'lmanglar" (637-hadis), deya ta'kidlanadi.

Islom dinini o'rghanuvchi olimu-ulamolar bu ta'limni o'rghanish davrida oddiy bilimlar va oddiy ibodat manbai sifatida emas balki, "buyuk ta'limot" sifatida o'rghanishgan. Ular ilmning boshi Qur'oni Karim va hadislarni o'qib o'rghanishda deb bilishdi. Dunyoviy bilimlarni o'rghanishdan avval allomalar diniy bilimlarni o'rghanishni lozim topadilar. Darhaqiqat Quronni karimni olimlar ilmiy o'rghanishlar jarayonida "Ilm" o'zagi va undan yasalgan so'zlar 779 marta ishlatilgan bo'lsa, "Sahihul Buxoriy"da 300 martadan ko'p ishlatilganiga o'rghanishlar davomida guvoh bo'lamiz. Shuni alohida ta'kidlashimiz lozimki, islom dini targ'ib etadigan ilm bilimsizlikni yo'qotadigan barcha ilmlar jamlanmasidir. Diniy ilm yoki dunyoviy ilmlar bo'lsa ham (tabiat ilmi, psixologiya, tarix, jug'rofiya, sotsiologiya, algebra va boshqalar) Alloh musulmonlarni mana shu barcha ilmlar-

ni o'rganishga qiziqtiradi. Qur'on oyatlarida tabiiy ilmlarni o'rganishga chaqiriqlar esa buning yaqqol isbotidir. Xususan, Rum surasi 22-oyatida "Uning belgilaridan (yana biri) osmonlar va yerni yaratishi va sizlarning tillaringiz va ranglaringizni xilma-xilligidir. Albatta, bunda barcha olamlar uchun alomatlar bordir"[3] deyiladi. Bu oyatda zikr qilingan "olimlar"dan murod, Alloh yer yuzida yaratgan maxluqotlarning sir-asrorlarini biluvchi shaxslardir. Bu oyatning mavzusi ham tabiiy ilmlardir. Chunki, tabiiy ilmlar borliqdagi narsalarni va ularning xususiyatlarini o'rganadi. Osmonlaru yerning yaratilishi, insonlarning ranglari ham turli xil ekanligini aynan jug'rofiya fani o'rgatishi fikrlarimizga dalildir. Oyatdagi "va tillaringizni turli xil qilib yaratdik" degan turli millat vakillarini tillarini o'rganishga targ'ib bor.

Imom G'azzoliy o'z asarlarida moddiyat va ma'naviyat uyg'unligi, tabiiy va aniq ilmlar va diniy ilm chambarchas bog'liqligi, inson tafakkurini yuksaltirish, ma'naviy qarashlarni rivojlantirish va ruhni ozuqlantirish uchun inson diniy ilmlarni jonlantirishi lozim deb hisoblaydi va buning yorqin dalili sifatida aniq fanlarni yerga urmagan holda "Ihya al-ulum ad-din" asarini yaratdi. Bu asar ma'naviyatdan uzoqlashib ketgan moddiyunlik ta'limotlariga katta zarba berdi[4.21.b]. G'arb olimlarining e'tirof etishlaricha bu zarbadan so'ng moddiyunlik ta'limotlari bir necha asr-gacha o'zini o'nglay olmadи.

Ilm haqidagi ko'plab dalillarni keltirgan Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v) marhamat qiladilar "Olimlar payg'ambarlarning vorislaridir"[5.21b]. Ma'lumki Payg'ambarlik rutbasidan ustunroq hech bir rutba yo'q va bu rutabaga merosxo'r bo'lish oliy sharafdir.

Bizning fikrimizcha, Alloh taolo olimlarni, ilm ahlini yuksak martaba ila siylagan ekan, payg'ambarimiz olimlar ni payg'ambarlar vorisi sifatida e'tirof etar ekanlar, islom

dining farzi bo'lmish ilm o'rganmoqlikni yoshlarimiz o'rtasida keng targ'ib qilish bizning ustuvor vazifamizdir.

"Kimyoi saodat" asarida bir guruh ko'rlar yo'lni ko'rmay chetroqda ko'zalar turgan joydan o'ta boshladilar va "kimdir yo'limizga to'siqlar qo'yibdi" deb shikoyat qildilar. Aslida ular ko'rliги tufayli to'g'ri yo'ldan adashgan edilar[6.22]. Bunga misol qilib quyidagi hadisni keltirsak bo'ladi: Fath Musaliy: "Kasalga obi taom berilmasa o'ladimi?" deb so'radilar. Atrofdagilar "ha, o'ladi" deyishdi. Aytdilar: "Qalb ham shunday uch kun ilm berilmasa, o'ladi"[7.22].

Bizning fikrimizcha, jasadning ozig'i taom bo'lganidek, qalbning ozig'i ilmdir. Kim ilmni boy bergen bo'lsa, uning qalbi kasaldir, uning ko'zlarida nur yo'qdir, u qalb o'limga mahkum bo'lib buni insonning o'zi bilmaydi. Taassuflar bo'lsinki shuncha dalil isbotga qaramasdan bugungi kunda jamiyatda bir yoqlama fikrlashlar keng avj olmoqda. Xususan, ta'lim jarayonida bu yaqqol ko'rinxmoqda. Millatimizning faxri sanalgan Alisher Navoiy 6 yoshida she'r yoza boshlaganlar. Abu Rayhon Beruniy esa 15 yoshida samoni kuzatib tadqiq qilganlar. Ibn Sino 16 yoshlarida mashhur tabib bo'lib tanilganlar. "Biz Buxoriy, Termizi, Beruniy, Navoiy, Farobi, Ulugbek, Sinolarning avlodimiz", deb maqtanar ekanmiz, bir narsani tushunishimiz kerak. Ajdodlarimiz ilmlarni diniy yo dunyoviy deb ajratishmagan. Biz bugunga kelib, diniy ilmlar va dunyoviy ilmlar degan masalalarni ko'taryapmiz, aslida biz bunga bosh-qacharoq qarasak, o'rniqliroq bo'lardi. Din bilan ilmni, e'tiqodimizni qarshi qo'yish noto'g'ridir. Diniy bilimlar fandan olgan bilimlar bilan uyg'un bo'lishi kerakligini tushunishimiz kerak. Shunda e'tiqodimiz ham mustahkam bo'ladi. Shu o'rinda Hazrat Navoiyning bu boradagi fikrlari keltirib o'tamiz: Navoiy hazratlari o'z davrlarida mavjud bo'lgan ilmiy ma'lumotlarni kiritish bilan birga e'tiqodiy masalalarni ham birgalikda bergenlar. "Dunyo, yer kurra-

si dumaloq. Dumaloq narsa joyida turmaydi – u qo'zg'alib, dumalab ketib qoladi. Modomiki, yer dumaloq ekan, demak, yer ham abadiy emas". Bu degani hozir yoshlarimiz ilm-ma'rifatga qanchalik chanqoq bo'lsa, ularni har tomonlama qurollantirish vazifamiz. Ularni shunday o'qitishimiz kerakki, olgan bilimlari e'tiqodlariga zid kelmasin.

G'azzoliy "Kimyoi saodat" asarida tabiiy ilmlarga hurmat bilan qaraydi. U tib ilmini ham chuqur tushuntiradi [8.10]. Har bir inson uchun tabiiy ilmlarni o'rganmoqlik joi-zligi haqida mushohada qiladi. Abu Nasr Forobiy o'z davrida 72 ta tilni bilgan va ko'plab tillarda ijod qilgan. Bu imkoniyat allomaning dunyo ilm-fanini o'rganishga, buyuk ishlarни amalga oshirishga turtki bo'lgan. Zero, Alisher Navoiy bobomiz aytganlaridek til bilgan el biladi.

Rumiy hazratlari hayotga tatbiq qilinmagan, irfon-ga aylanmagan ilmni shunday ta'riflaydi: "Amal qilinmaydigan hikmatli so'z, qarzga olingan chiroyli libosga o'xshaydi, bil!". Vaholanki, payg'ambarimiz (s.a.v) ham o'zlarining muborak hadislarining birida: "Foydasiz ilm nafaqa qilinmaydigan kon kabitidir", – deya marhamat qilganlar. Allohdan doimo foydasiz ilmdan panoh so'raganlar. Rahmon surasi, 3-4-oyatida aytildiki, "(U) insonni yaratdi. Unga bayonni (nutqni) ta'lim berdi". Payg'ambarimiz (s.a.v) aytadilar: "Odamlarning afzali hojat tushsa, foyda beradigan, behojat bo'linsa, o'ziga foyda beradigan imonli olimdir", "Imon yalang'ochdir, uning libosi taqvo, ziynati hayo, mevasi esa ilmdir", [9.9]. Bundan ko'rinish turibdiki Allah taolo bu oyatlarda ilmni ne'mat o'laroq zikr qiladi. Payg'ambarimiz (s.a.v) esa ilm ahli bo'l mish olimlarni odamlarning eng afzali sifatida e'tirof etish bilan bir qator-da iymonning mevasini ilm deb uqtiradilar.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Oyati karima va hadislarda zikri kelgan ilm haqida kishilar ichida tushunmovchiliklar mavjud. Ba'zilar: "Oyat va hadislarda zikr etil-

gan ilmlardan murod, diniy ilmlar”, deydilar. Bu noto‘g‘ri fikr! Oyat va hadislarda zikri kelgan ilm hamma foydali ilmlarni o‘z ichiga oladi. Agar oyat va hadislarda faqat diniy ilmlar ko‘zda tutilsa, bu narsa alohida qayd qilinadi. Bino-barin, diniy ilmlar haqida gap ketganda ularning nomi va sifati ham zikr qilinadi. Shuningdek, bir qator hadislarda ilmning ibodatdan ustun ekanligi ko‘rsatib o‘tiladi. Xususan, “Ilm ibodatdan afzal va u taqvo dinining ustunidir” (268-hadis). Biroq ilmning manfaatsiz holda sarflashdan saqlanish maqsadga muvofiq ekanligi aytiladi va ilm ahlini ana shunga da‘vat etiladi (173-hadis), uni faqat foydali ishlar va insonlarning farovon hayot kechirishlari yo‘lida sarf etish kerakligi ham uqtiriladi. Zero, “Boshliq bo‘lmasin-gizdan avval ilmni chuqur o‘rganing!” deb ta’kidlanishi ilmning har narsadan ustun ekanligiga dalolatdir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. *Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil Al-Buxoriy “Hadis” (Al-jomi as-sahih) 1,2,3,4,5-tom, – T.: Qomuslar bosh tahririya-ti, 1997.*

2. *Shayx Muhammad Sodiq “Tavsiri Hilos” Toshkent-2019 Hilol nashriyoti.*

*Ahmad Yughnakiy “Hibbat ul haqoyiq”. [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com).*

3. *Imom G’azzoliy “Ihyou ulummiddiyn. Ilm kitobi” T.: “Movorounnahr”, -2003. – B 21.*


4. *Imom G’azzoliy “Ihyou ulummiddiyn. Ilm kitobi” T.: “Movorounnahr”, -2003. – B 21*

*Imom G’azzoliy Kimyoyi saodat asari. [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com). kutubxonasi. –B 22.*

*Imom G’azzoliy Kimyoyi saodat asari. [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com). kutubxonasi. –B 22*

*Imom G’azzoliy Kimyoyi saodat asari. [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com). kutubxonasi. –B 10*

*Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil Al- Buxoriy “Hadis” (Al-jomi as-sahih) 1,2,3,4,5-tom, – T.: Qomuslar bosh tahririya-ti, 1997.*



**Muxammadjon AZIMOV,**  
*Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar  
instituti mustaqil tadqiqotchisi*

**MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMIDA "UZLUKSIZ  
MA'NAVIY TARBIYA KONSEPSIYASI"GA ASOSAN  
ZAMONAVIY TEKNOLOGIYALARНИ ISHLAB CHIQISH  
VA UNI AMALIYOTGA TATBIQ ETISH**

Jamiyatda kuzatilayotgan voqeа hodisalarning bar-chasining negizida asosiy markazida ma'naviy jarayonlar joy egallaydi. Bugungi ma'naviy sohadagi oqsashlar to'g'risida bugungi kunda ko'plab olimlar o'rtaSIDA baxs munozaralar va izlanishlar olib borilmoqda. Ma'rifatli jamiyat qurishning asosi esa avvalo ertangi kunimiz avlodlari farzandlarimiz ekanligini anglab yetamiz. bularning ichida odamni tashvishga soladigan bir qaraganda e'tiborsizdek tuyiladigan, lekin oqibati tanazzulga, jaholatga olib boradigan bir omil, ya'ni oilada farzand tarbiyasiga e'tiborsizlik illati millatning ma'naviy tannazulining asosi desak hecham mubolag'a bo'lmaydi.

Bugungi kunda farzand tarbiyasida biz ota-onalar tarbiya borasida yetarlicha e'tiborli yoki e'tiborsizligimiz bolalarimizning uyda, ko'chada, mакtab ta'lіm muassasalari, jamoat joylarida bo'lish davomida o'zining muomula madaniyati va ma'naviy ahloqiy xatti-harakatlari orqali farzand tarbiyasiga xato kamchiliklarimiz yuzaga chiqmoqda. Bola tarbiyasida qanday omillar to'siqlar mavjud, tarbiya berish usullari va metodlaridan yosh ota-onalarimizning yeetarlicha malaka va bilimga ega ekanligi bilan belgilanadi. Bugun butun dunyoda inson qadri uchun kurash, eng katta sarmoya farzandni yaxshi bilimli bo'lishiga, tarbiyasiga tikilayotgan bir vaqtda bizda farzand tarbiyasiga

e'tiborsizlik jamiyat taraqqiyotida qanday ko'ngilsizliklar kelitirib chiqarishi to'g'risida chuqur mulohaza qilsak bu borada kamchiliklarga yo'l qo'ymaslikka harakat qilgan bo'lar edik. Davlat taraqqiyot dasturida asosiy vazifani bajaruvchi Oilada farzand tarbiyasiga e'tiborsizlik O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 28 iyuldag'i "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohansi rivojlantirishning yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida"gi Qarorida ichki tahdid sifatida qayd qilinib, mazkur tahdidga qarshi samarali g'oyaviy kurash olib borish vazifasi ilgari surilishini ko'rishimiz mumkin. Demak, bizning jamiyatimizda kelib chiqayotgan aksariyat muammolarning ildizi o'rganilganda albatta, oilaviy muhit va munosa-batlarga taalluqliligi ayon bo'ladi.

Murakkab mafkuraviy jarayonlarni ilmiy-amaliy jihatdan atroflicha tahlil qilish, baholash, ustuvor yo'nalishlarni aniqlab, ularning aholi turli qatlamlariga ta'sirini o'rganish va zarur maqsadli va manzilli tavsiyalar ishlab chiqishga qaratilgan "**Jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhit holatini aniqlash va manzilli sog'lomlashtirish metodikasi**" hamda "**Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiysi**" asosida Respublika Ma'naviyat va Ma'rifat markazi tomonidan joylarda so'rovlar o'tkazish jarayonida **ota-onalarning farzandiga yaxshi tarbiya berishi uchun nima halaqit berayapti deb o'ylaysiz?** deb berilgan savollarga Navoiy (60%), Jizzax (57,4%), Sirdaryo (57%), Samarcand (53%), Buxoro (44%) viloyati hamda Toshkent shahrida (50%) ota-onalar tarbiya metodlarini bilmaydi va tarbiyadagi oilaning mas'uliyatini anglamasligi deb javob berishgan, bu ko'rsatkichlar ota-onalarning farzand tarbiyasiga e'tibor borasida masalani jiddiy muammo va kamchiliklar borligini ko'rishimiz mumkin. Yurtimizda keyingi yillarda yoshlar tarbiya jarayonlari masalasini davlat miqiyosidagi vazifalardan biriga aylantirilganligi ham ushbu

muammo davlat siyosati darajasiga ko'tarilganligidan dalolat beradi. Davlat rahbari Shavkat Mirziyoyev murojaatlaridan birida yosh avlod tarbiyasi, odob-axloqi haqida to'xtalib, "**Maktab - bu hayot-mamot masalasi, kelajak masalasi.** Bu masalani davlat, hukumat va hokimlarning o'zi hal qilolmaydi. Bu butun jamiyatning ishi, burchiga aylanishi kerak. Maktabni o'zgartirmasdan turib, odamni, jamiyatni o'zgartirib bo'lmaydi", – degan masalaga alohida e'tibor qaratadilar.

O'tgan davr mobaynida tarbiya bolalar ta'limdan bo'sh vaqtida amalga oshirilgan Tarbiya yo'nalişidagi yo'l qo'yilgan xatolar asoratlari kundalik hayotda, ommaviy axborot vositalarida, ijtimoiy tarmoqlarda keng muhokama baxs munozaralarga, jamoatchilik tomonidan bir qancha tanqidiy munosabatlarga tez-tez uchragani hech kmga sir emas.

So'ngi yillarda, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2019 yil 3 maydagi PQ 4307-sonli qarori ijrosini ta'minlash [1], shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 31 dekabrdagi "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlar to'g'risida"gi 1059-sonli qarorining chiqishi bu millat kelajagi, millat ma'naviy taraqqiyoti uchun bir o'ziga hos tarixiy voqelik bo'ldi. Mazkur konsepsiya **8 ta bob** va ma'naviy tarbiyaning uzluksizligini ta'minlashga qaratilgan **61 ta** maqsadli va manzilli tabirlar rejasidan iborat bo'lib, uning amalga oshirilishi **4 bosqichdan** iborat bo'lib unda bolaning maktabgacha ta'lim muassasalaridagi tarbiya jarayonlariga alohida e'tibor berilishi natijasida maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyati qayta isloh etilgani va bu islohotlar jarayonida horijiy tajribalar asosida milliy o'zlik, milliy qadriyatar,

urf-odat va an'analarga sodiq qolgan holda amaliyotga tadbiq etishning zamonaviy metodlarini ishlab chiqish vazifasi ilgari surildi. Tarixiy boy meros assosida sharqning buyuk mutafakkirlarining boy ma'naviy merosini o'rganmasdan amalga oshirish qiyin. Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasining asosi milliy tarbiyamiz, Yusuf Xos Hojib, Abu Rayhon Beruniy, Imom Buxoriy, Alisher Navoiy, Abu Nasr Farobi, Abdulla Avloniy, Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Cho'lpon, Qodiriyarlarni ma'naviy-ilmiy mero-siga asoslanganbo'lishi lozim. Shu bilan birga ushbu konsepsiyanı amaliyotga tadqiq etish jarayonida zamonaviy bilimlardan ham unumli foydalanishni taqozo etadi. Abdulla Avloniy **aytganlaridek "... hamma narsa tarbiyaga bog'liq. Tarbiya yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat, yo saodat yo falokat masalasidur"** deya ta'kidlagan edilar. Konsepsiya ana shu hikmatga hamohang bo'lib, unda farzandlarimizda milliy yuksalishimiz uchun eng zarur fazilatlar: Vatanga sadoqat, tadbirkorlik, mafkuraviy immunitet, mehr-oqibatlilik, mas'uliyatlilik, bag'rikenglik, huquqiy madaniyat, innovatsion fikrlash, mehnatsevarlik bolalikdan boshlab bosqichma-bosqich rivojlantirib boriladi. Voyaga yetgan o'g'il-qizlarimiz mustaqil hayotga ana shu fazilatlari bilan kirib boradilar. Bu fazilatlari ularning o'zlarini ham, xalqimizni ham baxtli, farovon qiladi.

**"Uzluksiz ma'naviy tarbiya Konsepsiysi"** to'rt bosqichda amalga oshiriladi:

➤ **birinchi bosqich** – oilalarda (ikki davr: 1-davr – homila davri, 2-davr – bola tug'ilganidan 3 yoshgacha bo'lgan davr);

➤ **ikkinchi bosqich** – maktabgacha ta'lim 3-6 (7) yoshgacha bo'lgan davr;

➤ **uchinchi bosqich** – umumiy o'rta ta'lim tizimida (ikki davr: 1-davr – 7 (6)-10 yosh boshlang'ich sinf, 2-davr – 11-17 yosh o'rta va yuqori sinflar);

➤ **to'rtinchi bosqich** – ishlab chiqarishda faoliyat ko'rsatayotgan va band bo'lмаган yoshlar, shuningdek, o'rta maxsus kasb-hunar, oliy ta'lим muassasalari tizimida (ikki davr: 1-davr – o'rta maxsus kasb-hunar va oliy ta'lим bilan qamrab olinmagan, shuningdek, ishlab chiqarishda faoliyat ko'rsatayotgan va band bo'lмаган yoshlar – 17-30 yosh, 2-davr – o'rta maxsus kasb-hunar, oliy ta'lим muassasalarining o'quvchi-talabalari 15-22 (24) yosh) tashkil etadi [2].

**"Uzluksiz ma'naviy tarbiya Konsepsiysi"** dunyo pedagogik tajribasi va yutuqlari o'rganib chiqilgan. Jumladan, Yevropa Ittifoqining tarbiyaviy tavsiyalari, AQSh tajribasidan shaxs erkinligi, tadbirkorlik, muvaffaqiyatga erishishga intilish, Janubiy Koreyada yoshlar ongiga urf-odatlar, axloqiy ideallarni singdirish, Yaponiyaning "xarakterni shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lим", Xitoyning yaxshilik, to'g'rilik, poklik, donolik va ishonchlik kabi fazilatlarni tarbiyalashga qaratilgan pedagogik tajribalarni o'zida aks etadi.

Bundan tashqari, Konsepsiya O'zbekistonda yoshlar tarbiyasini zamonaviy asosda ilmiy-texnologik isloh qilish borasida olib borilayotgan ishlar va uni bugungi kun ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ilmiy asoslangan tayanch kompetensiyalar, fazilatlar asosida shakllantirish ishiga katta ahamiyat berilgan. Buning uchun oila, maktabgacha ta'lим, umumiy o'rta, o'rta maxsus kasb-hunar, oliy ta'lим muassasalari, mahallalarning ijtimoiy-pedagogik hamkorlikni yangi ko'rinishda ifoda eti quyidagi vazifalarni bajarishni o'z oldiga maqsad qiladi:

❖ ma'naviy-axloqiy tarbiyani baholashning ilmiy asoslangan indikatorlarini ishlab chiqish;

❖ tarbiyaning homiladorlik davridan boshlanadigan, tadrijiylik va uzluksizlik tamoyillariga asoslangan metodi-kasini ishlab chiqish va hayotga tatbiq etish;

- 
- ❖ uzlusiz tarbiya tizimida milliy va zamonaviy pedagogikaning ilg'or yutuqlaridan samarali foydalanish;
  - ❖ tarbiyalanuvchilar bilan birga tarbiyachilarning ham biliimi va malakasini muntazam oshirib borish;
  - ❖ oila, ta'lif muassasalari va mahalla, shuningdek, ommaviy axborot vositalari va boshqa ijtimoiy tuzilmalar o'rtaida samarali hamkorlik mexanizmini yo'lga qo'yish;
  - ❖ ma'naviy tarbiyaning tadrijiy rivojlanish va uzlusizlik tamoyillariga asoslangan holda faoliyat olib boradi.

Farzandlarimizni ruhan yetuk, ma'nani barkamol bo'lib yetishishida maktabning o'rni beqiyosdir. Lekin undan oldin maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabga pedagogik-psixologik jihatdan tayyorlash jarayoni muhim ahamiyat kasb yetadi. Aynan shu maqsadda yurtimizda "Maktabgacha ta'lif vazirligi" tashkil etilib uning vazifasi bolalarni maktabga har jihatdan tayyorlar vazifasi yuklatilgan. Vazirlikka yuklatilgan vazifalardan eng muhimi esa maktabgacha yoshdagi bolalarni pedagogik-psixologik jihatdan tayyorlashning innovatsion uslublarini hayotga keng tadbiq etishdir. Bu jarayonni biz 5 bosqichga bo'lib o'rGANISHIMIZ maqsadga muvofiq bo'ladi:

- ✓ Bolalarni pedagogik-psixologik tahlil qilish, intilishlarini umumlashtirish,
- ✓ Bolalarning kognitiv qiziqishini rivojlantirish, rag'batlantirish,
- ✓ Har bir bolaga qulaylik va muvaffaqiyat hissini beradigan bolalar jamoasini shakllantirish,
- ✓ Xususiy o'qituvchining xizmatidan foydalanish,
- ✓ Alohidagi e'tiborga muhtoj bolalarni aqliy va hissiy rivojlanishini taminlashdan iborat.

Bu bosqichlarni har biriga alohida to'xtaladigan bo'lsak, maktabgacha yoshdagi bolalarni bog'chalarda yoki oilada tarbiyalanayotganini aniqlash va ularning aqlan, jinsi va ruhiy-jismoniy salomatligini psixolog ko'rigidan o'tkazib,

ularning har biri uchun maxsus dastur ishlab chiqish va amalyotiga tadbiq etishdan iborat. Shu bilan birgalikda, “Tarbiya va ta’lim jarayonini psixodiagnostik qo’llab-quvvatlash: bolalarni maktabgacha ta’lim muassasasiga qabul qilishda moslashish jarayonini o’rganish, aniqlash uchun bolalarning moyilligi va qobiliyatlarini diagnostika qilishni ham unutmaslik zarur. Iste’dodli bolalar, maktabgacha yoshdagi bolalarning psixologik salomatligi diagnostikasi, maktabga tayyorgarlik diagnostikasini o’rganish lozim” [3] ligi to’g’risida fikrlar mavjud.

Xulosa o’rnida, boy ma’naviy meros va tarixiy qadriyatlar Maktabgacha ta’lim muassasalarida “**Uzlucksiz ma’naviy tarbiya**” dasturida ko’zlangan maqsadlardan keilib chiqib, quyidagi ishlarni amaliyotga tadbiq etish lozim:

- ✓ Ota-onalar bolaga yoshlidan ona vatanga bo’lgan muhabbatni uyg’otishi,
- ✓ tarbiyachi-pedogoller bolajonlar uchun o’quv qo’llanmalar, mediamahsulotlar, milliy qadriyatlarni o’zida ifoda etadigan media darsliklar ishlab chiqish,
- ✓ bolalarni yoshiga mos tayanch ma’naviy-axloqiy fazilatlar, kompetensiyalarni shakllantirish uchun qo’llanmalar yaratish,
- ✓ ajdodlarimizning boy ma’naviy merosini axloqiy fazilatlar majmui bo’lgan milliy tarbiya an’analari, vositalari, shakllarini o’rganish maqsadida mamlakatimiz hududlariga **etnopedagogik ekspeditsiyalar** ishlab chiqish va ular asosida tarbiyalash,
- ✓ milliy tarbiya an’analari, qadriyatlarni tiklashga qaratilgan fundamental, amaliy va innovatsion bilimlar asosida milliy xonalarni har bir bog’cha binolarida tashkil etish,
- ✓ **“tarbiyachi imidjini yaratish”** orqali kelajagimiz ertasi bo’lgan bolajonlarimizni milliy qadriyatlarni ruhida tarbiya topishiga zamin yaratgan bo’lamiz.



## Foydalanaligan adabiyotlar ro'yxati:

1. "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2019 yil 3 maydagi PQ 4307-sonli qarori. [1]
2. "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlar to'g'risida"gi 1059-sonli qarori [2]
3. NISHANOVA, G. ALIMOVA BOLALAR PSIXOLOGIYASI VA UNI O'Q ITISH METODIKASI O'quv uslubiy qo'llanma . O'zbekiston Yozavchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti Toshkent - 2006. 12-bet [3]

<https://minikar.ru/uz/prayers/psihologo-pedagogich-eskoe-soprovozhdenie-detei-v-dou-psihologo-pedagogich-eskoe-soprovozhdenie-rebenka-v/>

**Farrux SAYDULLAYEV,**

*Termiz davlat universiteti stajyor tadqiqotchi*

*“Termiz” davlat muzey qo’riqxonasi*

*Etnografiya bo’limi bosh mutaxassisi*

## **BOSHLANG’ICH SINFLARGA XALQ OG’ZAKI IJODINI O’RGATISH**

Bolalarga boshlang’ich sinflarda xalq og’zaki adabiyotini o’rgatish asosan, qo’shiqlar, ertaklar, maqol va tez aytishlar orqali amalga oshiriladi. Bola allalagan ona o’ziga xos poeziya yaratadi. U beshik ustida bugun aytgan so’zlarini ertaga takrorlamaydi, nimadir qo’shib, boyitibroq aytdi. Shu tariqa allalar, ertaklar, qo’shiqlar, termalar, maqollar, topishmoqlar yig’ilib katta bir dengizni hosil qiladi. Bolalar folklori bola uchun ilk tarbiya darsligi, ma’naviy boyliklarning bitmas tuganmas xazinasidir. Har bir xalq bolalar folklorining vujudga kelishi o’sha xalqning ma’naviy tafakkuri bilan bog’liq. Xalqning asl qiyofasi, avvali, uning ma’naviyatida ko’zga tashlanadi. Insoniy buyuklik, ijtimoy-iqtisodiy yuksalishning boshi ham ma’naviyatdadir. Xalqimiz badiiy tafakkurining nodir namunasi bo’lgan xalq og’zaki badiiy ijodi milliy ma’naviyatimizning bebaho manbai sifatida qadrlanadi. Xalq og’zaki badiiy ijodi ibtidoiy inson faoliyatining ilk bosqichlarida ibtidoiy tafakkur sifatida vujudga kelgan.[1:46]

Chunki, o’sha paytda kishilar yozuvni bilmagan zamonalarda o’z fikr-mulohazalarini og’zaki bayon etganganlar. Shu asnoda, ularning og’zaki badiiy ijodi paydo bo’lgan. Binobarin, kishilik badiiy tafakkurining turli shakllarini o’z ichiga olgan og’zaki ijod namunalari yaqin va qarindosh dialektda so’zlashuvchi urug’lar va qabilalarga xizmat qilgan. Shuningdek, og’zaki badiiy ijod bu bosqichda in-

son faoliyatining turli shakllari bilan mahkam bog'langan bo'lib, qadimi kishilarning diniy, mifologik qarashlarini, boshlang'ich ilmiy bilimlarini, tabiat va tabiat hodisalari haqidagi tasavvurlarini aks ettirgan.

Og'zaki badiiy ijod o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan so'z san'ati bo'lib, uning barcha namunalari jonli ijro jarayonidagina yashaydi, shu sababli ayrim janrlarda so'z va kuy omixtaligi yetakchi bo'lsa, ayrimlarida sahna san'ati elementlari ustun turadi. Folklor xilma-xil san'at turlariga xos elementlarni o'ziga mujassamlashtirgan. Uning talay namunalari so'z va kuy uyg'unligida ijro etiladi. Doston, termalarni do'mbira jo'rligida kuylash an'anaviy bo'lsa, qo'shiq dutor, childirma jo'rligida kuylanadi. Ak-sariyat folklor asarlarida so'z yetakchi o'rinni egallaydi. Ertak, afsona, naql, rivoyat, lof, latifa, maqol va topishmoq shunday xarakterga ega. O'zbek xalq ijodi turli janrlardan tashkil topgan og'zaki so'z san'ati bo'lib, u o'zbek xalqining dunyoqarashi, badiiy zavqi, ijidiy salohiyati, orzu va intilishlarini aks ettiradi. [1:58]

Xalqning milliy va ma'nnaviy qadriyatlariga suyanish, ular orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarida milliy qadriyatlarni shakllantirish o'ta dolzarb masalalardan biridir. Chunki, bugungi kunda mafkuraviy poligonlarda yoshlar ongi va qalbi uchun kurash keskinlashgan bir paytda o'quvchilarini iloji boricha, maktab yoshidanoq vatanparvar, xalqparvar, fidoiy, Vatani, xalqi uchun jonini ayamaydigan matonatli qilib o'stirish zarur. Xalq og'zaki ijodida komil inson g'oyasi azal-azaldan kuylanib kelingan va u xalqimizning ezgu orzusi, uning ma'nnaviyatining uzviy bir qismi bo'lib kelgan. Xalq og'zaki ijodida yosh avlodni ma'nnaviy-axloqiy tarbiyalash masalalari keng qamrovli bo'lib, o'z zamirida tarbiya usullari, insoniy qadriyatlar va yurtsevarlik tarbiyasi, do'st birodarlik, ahillik, mehnatsevarlik, kasb-hunarga muhabbat, yaxshilik va yomonli-

kning ta'rifi, yaxshi va yomon so'zning oqibati, halollik, to'g'rilik, olijanoblik tarbiyasi,adolat, insof va insofsizlik, og'a-inichilik va qon-qardoshchilikning ahamiyati, botirlik va qo'rroqlik, odob-odobsizlik, mehmon va mehmondo'stlik kabi kategoriylar talqin qilinadi.

O'zbek olimi M. Haydarov yozishicha: "Xalq og'zaki ijodi namunalaridagi odob-axloq, ta'lim-tarbiya borasidagi pandnomalar bag'oyat hayotiy, xalqchil va ibratlidir. Xususan an'anaviy xalq dostonlari va ertaklari, qo'shiqlar va maqollar-odobnoma darslari ekanligini, folklorning boshqa katta-kichik janrlari boshdan-oyoq pandnomaligini unutmashligimiz kerak".

Jamiyatimizdagи yoshlarni milliy qadriyatlarimiz ruhida tarbiyalashda tarbiyaning vazifalari keng va ko'p qirrali ekanligini unutmasligimiz kerak. Demak, qanday odamni tarbiya qilish darkor, tarbiya natijasida inson qanday bo'lishi kerak, degan savollarni avvaldan tasavvur etish zarur. Bunda xalq og'zaki ijodi namunalaridan foydalanish orqali o'quvchilarda milliy qadriyatlarni tarkib toptirish katta ahamiyat kasb etadi. Bu jamiyatning komil insonni tarbiyalashdek maqsadiga yaqindan yordam ham beradi. Har bir xalqning tarixi shu xalqdan yetishib chiqqan buyuk siymolar, mard qahramonlar va fidoyi insonlar tarixi asosida bitiladi. [2:75]

Xalqimizning Shiroq va To'maris, Spitamen va Muqanna, Temur Malik va Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur va Bobur Mirzo kabi mard farzandlari buyuk g'oya sohiblaridir. Umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarida xalq og'zaki ijodi namunalaridan foydalanish orqali ularni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash boshlang'ich ta'limda dolzarb masalalar sirasiga kiradi.

Xalq og'zaki ijodining yorqin sahifalari – "Alpomish", "Go'ro'g'li", "Barchinoy" kabi xalq tomonidan yaratilgan qahramonlar, qo'shiqlar, aytishuvlar, o'lanlar, maqollar,

topishmoqlar, ertaklar o'quvchilarni tarbiyalashda kuchli manba bo'lib hisoblanadi. Ayniqsa, ulardagi milliy qadriyatlarning ulug'lanishi, milliy iftixor hissining mavjudligi bolalarga kuchli tarbiyaviy ta'sir ko'rsatadi. Xalq og'zaki ijodi asarlarini tanlashda o'quvchilarning yosh xususiyatlarini, psixologik sifatlarini, o'ziga xos xususiyatlari bilan birga, og'zaki ijodning har bir janriga, tomonlariga, undagi personajlar, obrazlarning fel-atvorlarini, xalq ertaklaridagi inson bilan, tabiat o'rtasidagi bog'lanishlarni ham hisobga olish zarur. [2:147]

Xalq og'zaki ijodi namunalari bo'yicha o'tkaziladigan darslar va sinfdan tashqari tarbiyaviy tadbirlar tanlangan har bir asar va unda olg'a surilgan g'oya o'quvchining ilmiy dunyoqarashini o'stiradigan, uni e'tiqod va g'oyalarga undaydigan shaklda tashkil qilinishi kerak.

Unda xalq og'zaki ijodi materiallari yuzasidan tashkil etiladigan sinfdan tashqari shakl va metodlari, ularni o'tkazishdan maqsad, tadbirning vaqtি aniq belgilanadi. Xalq og'zaki ijodida maqollarning o'ziga xos o'rni bor. U xalqning, bir necha avlodlarning aqlu-farosati hamda turmush tajribasining yakuni, ular donishmandligining mahsulidir. Bola ta'lim-tarbiyasida maqollarning o'rni katta. Topishmoqlar xalq og'zaki ijodining bolalarni o'ylashga, topqirlikka o'rgatuvchi qadimiy janrlaridan biridir. Har bir topishmoq zamirida "Kim?", "Nima?" so'roqlariga yashirin javob yotadi. Har bir topishmoq uni yaratgan xalqning hayoti, urf-odati o'ziga xos rasm-rusumlari bilan bog'liq holda bo'lib, bolalar o'rtasida keng tarqalgan tez aytishlar og'zaki nutq mashqi bo'lib, kichik yoshdagи bolalarda ma'lum tovushlarni to'g'ri va ohangdor talaffuz qilish ko'nikmalari orttiradi. Bu janrga mansub asarlar bolalarni biyron so'zlashga o'rgatish bilan birga, ularga estetik zavq beradi, fikrlash qobiliyatlarini o'stiradi, xotiralarini mustahkamlaydi. [3:12] Masalan: Ertakning muhim xususiyatlaridan

biri uning hamisha xalq hayoti, kurashi, tarixi, ruhiy olami, dunyoqarashi, urf-odatlari bilan chambarchas bog'lanishi insonlarga axloqiy va ma'naviy yo'l dosh bo'lib kelishidadir. Ertaklar insonning ma'naviy va jismoniy kuchiga ishonch ruhi bilan sug'orilgan bo'lib, ijobjiy kuchlar tabiat va ijtimoiy hayotda o'ziga dushman bo'lgan kuchlarga qarshi kуrashda doimo g'olib chiqadi. Xalq ertaklarida uni yaratuvchilarining dunyoqarashi, axloq normalari va boshqa ijtimoiy muhim masalalar odilona hal etiladi. [3:86]

Xalq ertaklarida el-yurtni ko'z qorachig'iday avaylab saqllovchi ajoyib qahramonlar ulug'lanadi, ayollarning haq-huquqlari himoya qilinadi, uzoq masofalar yaqin qilinadi, kishilar xarakteridagi yaramas odatlar, noma'qul illatlar tanqid ostiga olinib, mardlik, epchillik, dovyuraklik, mehnatsevarlik, halollik, vafodorlik, saxiylik g'oyalari ulug'lanadi.

Demak, turli-tuman ko'rinishdagi xalq og'zaki ijodida ko'p asrlar mobaynida xalq tomonidan ulug'langan qadriyatlar, urf-odatlar, fazilatlar o'z aksini topadikim, ushbu kuchli vosita asosida o'quvchilarga milliy qadriyatlarni singdirish ijobjiy samaralarni beraveradi.

### **Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Imomov K., Mirzayev T., Sarimsoqov B., Safarov O. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi. – T.: O'qituvchi. 1990.
2. Madayev O., Sobitova T. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi- T., 2005.
3. Jo'rayev M. Folklorshunoslik asoslari. – T., 2009.

**Feruzaxon KARIMOVA,**  
*O'zR FA O'zbek tili, adabiyoti  
va folklori institute katta ilmiy xodimi,  
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

## **MULOQOTDAGI BAHS-MUNOZARANING FALSAFIY ASOSLARI**

Bahs-munozara atamasi “*eristika*” so'zi bilan hamo-hang bo'lib, qadimgi yunon tilida eristika “bahslashish san'ati” ma'nosini bildiradi. U dastlab sofistlar tomonidan qo'llanilgan. Nemis faylasufi A.Shopengauerning “Bahsda yutish san'ati” asari XIX asrda yozilgan eng yaxshi asarlar sirasiga kirgan, unda antik davr sofistlarining keltirgan usullaridan foydalanilgan holda 33 ta bahsda g'alaba qozonish mumkin bo'lgan usullar keltiriladi [8:523-548]. Lekin, tadqiqotchilar ularning barchasi xolis emasligi haqida o'z fikrlarini aytib o'tishgan. Har bir insonda bahsda g'olib chiqish xohishi shuning uchun ham kuchliki: “Bizning miyamiz intellektual kuchlar bilan bog'liq har qanday narsada juda asabiyashadi va biz avval aytganimiz noto'g'ri bo'lganiga va raqibning aytganlari to'g'ri bo'lganiga rozi bo'lishni istamaydi” [8:512]. Bahslashishda yutish uchun esa mantiqiy bilimlardan xabardor bo'lish juda muhim hisoblanadi. Mantiq va tilshunoslik o'rtasidagi ko'priq sharq faylasuflari Forobi va Ibn Sino asarlarida yetarli-cha asoslanib, ularda tushunchalar izohlangan. Tafakkurning qonuniyatlariga ko'ra xulosalash ob'yekтив borliqdagi narsa va hodisalar, ular o'rtasidagi turli munosabat va bog'lanishlarni umumlashgan, mavhum holda aks ettiradi. Shu bilan birga u doimo haqqoniylilik tamoyiliga rioya qiladi, ya'ni borliqdagi hodisalarni boricha, ro'yi rost aks ettiradi [7:17]. Demak, tafakkur insonga olamni to'g'ri va

haqqoniy aks ettilish uchun xizmat qiladi. Til yordamida bilimlar yig'iladi, sintezlanadi, umumlashtiriladi, xulosalar chiqarilib, bir avloddan boshqa avlodga yetkaziladi. Til mohiyatan obyekтивлик, мantiqiylik, tadrijiylik va tarixiylik tamoyillariga bo'ysunadi. Shunday ekan, til va tafakkur birligi qadimdan mantiq, dialektika, ritorika, eristika kabi sohalarni birlashtirgan, ular uchun umumiy manba vazifasini o'tagan va o'tab kelmoqda. Har bir fan mantiq bilan asoslanishi tabiiy va zaruriy hol hisoblanadi. Mantiq ilmi til ilmi bilan ham uzviy bog'liqlik hosil qiladi. Bu haqida tilshunos olim A.Nurmonov o'zinig "Gap haqidagi sintaktik nazariyalar" monografiyasida shunday yozadi: "Logitsizm oqimining qarashlariga ko'ra, har bir gap ma'lum bir hukmni ifodalaydi. Predikatsiya hodisasi faqat gap asosiniga emas, balki hukm asosini ham tashkil etadi. Tradition logika hukmnинг atributiv xarakteridan kelib chiqadi. Bunga ko'ra hukm strukturasi doimo subyekt va predikat dan tashkil topadi. Uning formulasi S+R dir yoki S+R emas" [3:26 ]. Bahs-munozarada g'olib chiqishning usullari ham mantiq bilan bog'langan bo'ladi. Bahslashish – eristika san'ati qatorida *strategema* atamasi ham uchrab turadi. Bu atamani yevropalik tadqiqotchilar R.Grin va X.F.Zenger iste'molga olib kirganligi aytildi [1:55]. Strategemalar dastlab Xitoyda harbiy ilm sifatida paydo bo'lgan bo'lsa-da, keyinchalik bir necha sohalarda fikrlash va yengish ilmi sifatida, jumladan, Sharq xalqlari folklorida ham Nasriddin Afandi kabi obrazlarning aqliy quvligi misolida uchrashini aytib o'tish lozim [1:59].

Sharq faylasuflaridan J.Rumiyl bahs va tortishuvlar ibtidosi haqida fikr yuritar ekan, ular zamirida dunyoviy manfaat yotishini ta'kidlaydi va quyidagi ajoyib rivoyatni keltiradi.

"To'rt millatdan to'rt kishi – turk, fors, arab va yunonlik yo'lga birga ketayotganlarida ularga birov bir dirham

pul beradi. To'rtovlon bir-birining tilini tushunmagani sababli pulga nima sotib olish kerakligi ustida janjallahish qoladilar: fors "angur" (uzum) olamiz desa, arab "man angur yemayman, inab (uzum) istayman" deydi. Turk "uzum" olamiz deb turib olsa, yunonlik "yo'q, istofil (uzum) yemoqchiman" deb musht o'qtaladi. Natijada ular bir-birlarini tushunmay, yoqalashib ketadilar. Shu payt yuz tilni biladigan sirlar sohibi bir odam yo'liqib, ularning nizosiga quloq solib, pulni qo'llaridan olib, bozordan uzum sotib olib bergenida, to'rtalasi ham bir narsani xohlaganini ko'rib hayron qolishadi, istaklari amalga oshib, yarashib ketishadi" [5:8-11]. Albatta, J.Rumiy ushbu rivoyatni din mazhablarining turli-tuman bo'lishiga qaramay, mohiyatan bir manzilga olib borishini majoziy tarzda ta'kidlash uchun keltirgan. Shu bilan birga faylasuf olim bahs-tortishuvlar zamirida moddiy yoki ma'naviy manfaat yotishini rivoyat orqali asoslaydi. Demoqchimizki, bahs-tortishuv zamirida insonning ma'naviy yoki moddiy manfaatlari birlamchi o'rinda turadi.

XX asr rus tilshunoslaridan biri R.Gelgardt ham dialog ishtirokchilarining manfaat nuqtai nazaridan harakatlansi haqida o'z fikrini bildirib: "Dialog ma'lum bir qolipda: manfaat - manfaatga javob" tarzida olib boriladi", - degan edi [2:58]. "Manfaat" uchun aytilgan gap biror narsaga munosabat bildirishdan, baholashdan kelib chiqadi. Munosabat esa so'zlovchi shaxs vaziyatni, holatni qanday baholashi bilan bog'liq. "Baholashning asosiy tamoyili - bu "dunyo inson uchun mavjud, inson dunyo uchun emas. Shunday ekan, har qanday baholash asosida insonning u yoki bu darajadagi ehtiyojlari yotadi" [4:70]. Bahodan kategoriysi bu o'rinda muloqot kategoriysi tarkibida ma'lum vazifa bajaradi, deyish o'rinli bo'lardi. Bahodan va uning muayyan til-dagi maqomi shu tilning ijtimoiy-madaniy me'yorlari bilan uzviy bog'langan bo'ladi. Bahodan kategoriyasining til sathi-

dagi o'rni, muloqot jarayonini ochishdagi vazifasi falsafiy, ijtimoiy-psixologik xarakter kasb etadi. Obyektiv va subyektiv baho berish olamni idrok etishdagi yondashuvdan kelib chiqadi va bahoni ifodalayotgan so'zlovchining ham o'z bahosini aniqlashga yordam beradi.

Zamonaviy ritorika, bahslashuv haqidagi qonun-qoidalarda ba'zi ommabop usullar keltiriladiki, ular orqali bahsda g'alaba qozonish oson bo'ladi. Mazkur qonun-qoidalalar zamirida qadimgi Xitoy va qadimgi Yunonistondagi bahslashish san'ati namunalarini uchratish mumkin [6:82-110].

**1-usul.** Kengaytirilgan fikrda hujum qilish oson, toraytirilgan fikrda esa qiyindir. Bunda fikrni iloji boricha aniq ifodalashga harakat qilish kerak bo'ladi. Masalan, "Men adabiyotni tushunaman" deb emas, "Men XX asr zamonaviy o'zbek adabiyotini yaxshi tushunaman" tarzida, "Men falsafani yaxshi bilaman" deb emas, balki "Men sharq falsafasi bo'yicha ko'p ma'lumotga egaman" deb aytish to'g'ri bo'ladi. Shunda raqib tomonning qarshi tomon chegaralarini buzib tashqariga chiqishga imkon bo'lmaydi. Bunda raqobatchi tomon o'z ma'lumot chegara sarhadini saqlashi kerak bo'ladi. Raqib tomon o'z-o'zidan chegara ichidagi bilimlardan tashqariga chiqsa olmay javob berishga majbur bo'ladi.

**2-usul.** E'tirozlarga javob berishda doimo yuqori mavqedalish usuli. Kelishmovchilik va nizolarning oldini olish hamma vaqt ham mumkin emas. Shu sababli qanday qilib raqobatdosh bo'lishni bilish ham kerak. Munozarada boshqa odamlarning fikrlarini yaxshiroq anglash, fikr almashish va o'zaro manfaatli yo'llarni izlab topish ham muhim, ham foydalidir. Keltirilgan dalillar esa muammoni tushunishga yordam beradi. Nizoda nafaqat o'z dalillar-inigina keltirish muhim bo'lmay, balki boshqa tomonning dalillariga to'g'ri javob berish ham muhimdir. Boshqaruv

va notiqlik san'ati haqidagi asarda bahs taktikasi haqida bir necha tavsiyalar beriladi. Jumladan, dalillarni jamlash, dalillar zanjirini buzish va isbotlash mashaqqatini raqib zimmasiga yuklash usullari muayyan izchillilikda va bir-biri bilan bog'liq tarzda qo'llaniladi. Dalilga javob berishning 3 ta usulini ajratish mumkin. Ular quyidagilar:

1. Raqib tomon ishonadigan dalillarga qarshi chiqish.
2. Uning topilmalariga e'tiroz bildirish.
3. Raqib tomonning dalillarini qabul qilish, ammo unidan ustun bo'lgan dalillarni keltirish.

Shu bilan birga har qanday vaziyatda tinglay olish ham muhimdir. Diqqat bilan tinglab, qarshi tomonning dalil keltirish jarayonini o'rganish muhim ahamiyatga ega. Shunda raqibning qarshi dalillari oshkor bo'ladi, ularni ko'rib chiqish imkonи paydo bo'ladi. Shuningdek, raqib tomonni bilib olgach, uni o'sha nuqtada tutib turish ham hushyor bahslashuvchining ustun tomonidir. Shunda u o'z doirasidan chiqa olmay, yengilishga majbur bo'ladi. Bunday vaziyatlar uchun, muhimi, qarshi tomonni tinglash va o'rganishdir. Misol:

- *Bo'ldi, - dedi bola bir mahal.*
- *Nima bo'ldi?*
- *Bo'ldi, o'yin tamom! - deya qiqirlaydi Kuntug'mish.*


*Bahrom taxtaga zehn solib chiqadi-yu, taxta bo'lib qoladi.*

- *Tirmizak! - deydi achchiqlanib va kaftining orqasi bilan bir urib shaxmat taxtasini ag'darib tashlaydi. Donalar gulzorga sochilib ketadi. Jahl bilan o'rnidan turganida xarakning bola o'tirgan tarafi bosib, Kuntug'mish yerga qulaydi.*

- *So'zingizda turasizmi endi?- deb so'raydi "groysmester" dumalab yotgan joyidan.*

*Bahrom lovullab baqiradi:*

- *Qanaqa so'z?!*

- 
- *Toshkent, sponsorlik masalasi...*
  - *Huv dadang qilsin sponsorlikni!*
  - *Dadam... Billa ketamizmi?*
  - *Borsang, ana, o'zing boraver! Ota seniki! Bozor iqtisodiyoti!*

*Cho'ntagidagi sigaretini paypaslay-paypaslay Bahrom zarda bilan hovlini tark etadi.* (Erkin A'zam. Qarzdor).

Ushbu dialogdagi *Qanaqa so'z?!, Borsang, ana, o'zing boraver! Ota seniki! Bozor iqtisodiyoti!* tarzidagi dalillar noxolis "g'alaba" uchun xizmat qilgan deyish mumkin. Bunday "g'alaba"larda g'olib bo'lish hech qachon "g'olib"ni xursand qilmaydi ham, g'alaba nashidasini emas, balki o'z xatti-harakatidan norozilikni keltirib chiqaradi.

Berilgan misolning tahlilidan shunday xulosa ham chiqadiki, kelishmovchiliklarni keltirib chiqaruvchi shaxmat o'yini musobaqasi va unda kichik avlodning katta avlod ustidan g'alabasi va buni qabul qila olmagan, tan olishni istamagan katta avlodning ojiz g'ururi o'z manfaatlaridan voz kecha olmadi deyish mumkin. Yutish istagi har ikki manfaatdorning umumiy manfaatlari (**Toshkentga borish, bola otasini qidirib topish**)dan ustun kelib, ruhiy tanazzullarga ham yo'l ochib berdi.

**3-usul.** Tarqatish yoki umumlashtirish usuli. Keltirilgan ibora qanchalik kuchli umumlashtirilsa, javob qaytarish yoki hujum qilish ko'lami ham shuncha katta va mashaaqqatli bo'ladi. Bu usul "dalillarni "moylash" yoki xushomad" [6:98] usuli sifatida ham talqin etiladi. Misol:

- *Chiroyli ayollarni ko'rganda miyamga g'alati fikrlar quyulib kelaveradi, - dedi G'aybarov battar avj qilib. - Biram dadil, biram hur fikrlarki, yuragim tars yorilay deydi!..*

- *Bunaqa fikr uchun sizni toshbo'ron qilish kerak, - dedi Zamira jilmayganicha.*

- *Muncha zolimlik! Kim u, mendan rostgo'yroq bo'l, deb talab qiladigan?*

*- Rostgo'ylik ham evi bilan-da...*

- Nima, sal oshirib yubordimmi? - deb talmovsiradi G'aybarov.

- Rost gap odobga zid bo'lmasligi kerak.

- Alido, hur fikr, asov g'yalayon!... - deb xitob etdi G'aybarov qo'llarini namoyishkorona yozib. - Rost gapni doim ta'qib qilishgan. Uni deb odamlarni o'ldirishgan, yo-qishgan, tiriklayin terisini shilib olishgan!.. Qur'on, Tavrot, Injil, Talmud va sanoqsiz vedalar! Shariat va inkvizitsiya, ming xil taqiq!.. Hur fikrga omonlik bormi o'zi?

*Zamira ortiq kulmay qo'ydi.*

*- Bas endi, - dedi ozorlanib. - Nega o'zingizni mayna qilasiz? Axir, siz aslida bunaqa emassiz-ku?* (M.M.Do'st. Galatepaga qaytish yoxud saodatmand G'aybarov rivoyati).

Misolda keltirilgan G'aybarovning fikrlarni kengaytirigan holdagi chalg'itish usulidan Zamira "afsuslandi, lablarini qattiq tishladi". Mazkur matnda noxolis usulning muloqot jarayonida qo'llanilishiga guvoh bo'lamiz. Xulosa o'rniда shuni aytish mumkinki, muloqotning bahs-munozara turi o'zining falsafiy-mantiqiy tamoyillariga ega. Undagi xolis usullar mantiqiylikka bo'yunsa, noxolis usullar mu-loqot muvaffaqiyatsizligiga olib keladi.


## Foydalaniman adabiyotlar ro'yxati:

1. Alimasov V.Falsafa yohud fikrlash san'ati. – Toshkent: Noshir, 2008. – 255 б.

2. Gelghardt R.R. *Rassujdenie o dialogax i monologax.*  
*Sbornik dokladov i soobshcheniy lingvisticheskogo obyestvo.*  
*Vyp. I. - Kalingrad, 1971. - S. 58.*

3. Nurmonov A. *Gap haqida sintaktik nazariyalar*. – Toshkent, 1988. – 100 б.

4. Pardaev Z. *Pragmatik mazmun va baholash munosabati // O'zbek tili va adabiyoti*. – Toshkent, 2012. – №4. – B. 69-72.

- 
5. Rumiy J. *Masnaviyi ma'naviy*. – Toshkent: Sharq, 1999. – 367 б.
  6. Saidov U. *Boshqaruv va notiqlik san'ati*. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2011. – 175 б.
  7. Xayrullaev M., Haqberdiev M. *Mantiq*. – Toshkent: O'qituvchi, 1993. – 302 б.
  8. Shopengauer A. *Mir kak volya i predstavlenie. Aforizmi jiteyskoy mudrosti. Eristika, ili isskustvo pobejdat v sporax*. – M.: Eksmo, 2018. – 560 s.

**Flora NE'MATOVA,**  
*Buxoro davlat universiteti*  
*tayanch doktoranti*

**O'QISH DARSLARIDA O'QUVCHILARNING  
MILLIY QADRIYATLARGA MUNOSABATINI  
SHAKLLANTIRISH VA BAHOLASHDA PIRLS  
XALQARO BAHOLASH DASTURIDAN  
FOYDALANISH METODIKASI**

Jamiyat ma'naviyati mamlakat taraqqiyotining muhim sharti va kafolatidir. Shu narsa haqiqatki, biron-bir mamlakat o'z ma'naviy imkoniyatlarga tayanmay, odamlar ongi, tafakkurida ma'naviy va axloqiy qadriyatlarni rivojlantirmay, xalqning milliy ruhini uyg'otmay turib, yuksak taraqqiyot darajasiga ko'tarila olmaydi. Ma'navit insonni ruhiy poklanish va yuksalishga da'vat etadigan, uning ichki olamini boyitadigan, iymon irodasi, e'tiqodini mustahkamlaydigan, vijdonini uyg'otadigan qudratli kuchdir.

Ma'naviy meros qadim zamонлардан beri ajdodlarimiz, ota-bobolarimizdan bizgacha yetib kelgan ma'naviy boyliklar – siyosiy, falsafiy, huquqiy va diniy qarashlar, axloq – odob me'yorlari, ilm-fan yutuqlari, tarixiy, badiiy va san'at asarlari majmuidir. Ma'naviy qadriyatlar, boyliklar inqilobiy yo'l bilan hosil qilinadigan hodisa emas, u jamiyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida uning ehtiyojlari tufayli yuzaga keladi va o'sha davr hayotini aks ettiradi, u jamiyat o'zgarishi bilan yo'qolib ketmaydi, keyingi avlodlar uchun meros bo'lib qoladi. Har bir avlod ma'naviyatni yanigidan yaratmaydi, balki mavjud ma'naviy merosga tayanaadi. Biroq uni qanday bo'lsa shundayligicha, ko'r-ko'rona qabul qilavermaydi, taraqqiyparvarlik, insonparvarlik, adolat nuqtai nazaridan qabul qiladi va rivojlantiradi.

Jamiyat ma'naviyatini yuksaltirishda tarixiy xotira, ajdodlar tarixini bilish, milliy axloqiy qadriyat hamda an'analar va muqaddas dinimizning o'rni va ahamiyati katta. Biron bir xalq o'z tarixini bilmay, asrlar osha yaratilgan ma'naviy merosga tayanmay va uni yanada rivojlantirmay turib o'z kelajagini tasavvur eta olmaydi. Aynan shularni inobatga oladigan bo'lsak, biz bolalarning yoshligidanoq ma'naviy meros va milliy qadriyatlar haqida bilimlar berib borishimiz zarur. Albatta, bu jarayonda boshlang'ich sinf o'qituvchilari zimmasiga mas'uliyatli vazifa yuklanadi. Bolalarga to'g'ri bilimlar yetkazish, ajdodlarimiz haqida ma'lumotlar, hikoya, rivoyat, afsona kabilarni o'z o'rnida hikoya berish maqsadga muvofiq.

Barchamizga ma'lumki, ta'lif sifati va samaradorligini oshirishda xorij tajribalarni o'rganish, tizimga xalqaro standartlar talablarining joriy etilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'lif sifatini baholash bo'yicha xalqaro tajribalarni o'rganish, mavjud tizim bilan qiyosiy, xalqaro va xorijiy tashkilotlar bilan yaqindan hamkorlik qilish, tizimda ta'lif sifatini baholash bo'yicha xalqaro loyihalarni joriy qilish, zamon talablariga javob beradigan munosib milliy baholash tizimini takomillashtirish muhim sanaladi.

PIRLS (Progress in International Reading and Literacy Study) boshlangich sinf o'quvchilarining matnni o'qib tushunish darajasini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqot dasturi hisoblanadi. Bugungi kunda PIRLS – tadqiqot dasdurida 50 dan ortiq davlatlar ishtirot etib kelmoqda. Mazzkur xalqaro tadqiqotning maqsadi turli xil ta'lif tizimidan iborat bo'lgan davlatlardagi boshlang'ich mакtab o'quvchilarining matnni o'qish va qabul qilish bo'yicha tayyorgarligi hamda o'quvchilarning har xil yutuqlarga erishishga sabab bo'luvchi ta'lif tizimidagi o'ziga xos xususiyatlarni aniqlash va baholashdan iborat.

Milliy qadriyatlarga muhabbat hissini, ularni asr-

ab-avaylash tushunchasini o'quvchilarga boshlang'ich sinf paytidanoq singdirishimiz lozim! Biz bolalar adabi-yoti fanini o'qib-o'rganish jarayonida boshlang'ich sinf darsliklari bilan tanishib o'tdik. Bu darsliklar asosan yosh avlodni milliy qadriyatlarimizni asrab-avaylash ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi. Odobnama, o'qish va ona tili kabi darsliklar shular jumlasidandir. Odobnama fani o'quvchilarda vatanga bo'lgan muhabbatni, milliy qadriyatlariga sadoqat ruhini shakllantiradi. O'qish darsligidagi mavzularning mazmuni ham asosan o'quvchini komil inson bo'lishga yetaklaydi.

Shu o'rinda Zikrilla Ne'matning "Ajdodlar xitobi" she'rining PIRLS xalqaro baholash dasturi asosida tuzilgan topshiriqlarini ko'rib o'tsak. Aynan shu she'r orqali ham bolalarda vatanparvarlik, milliy qadriyat va ma'naviy meros, tarixga va ajdodlarga muhabbat ruhida tarbiyalash kabi maqsadlarga erisha olsak bo'ladi.

### AJDODLAR XITOBİ

Ochsak tarix kitobin,  
Yashnatib dil oftobin,  
Eshitgandek bo'lurmiz  
Ajdodlarning xitobin.  
Go'yo To'maris momom:  
Yurtni yovdan asrang,—der.  
Temur bobom:—Vatanni  
Tinch-omon saqlang!—der.  
Mardlarning yodi hardam,  
Jodir yuragimizda.  
Yurtni asrash bizning ham  
Orzu-tilagimizda.  
Yurt mehridan yurakda  
Yonar otash—alanga.  
Himoyachi bo'lurmiz  
Azizona-Vatanga!



Yurt ishqisi qalbga payvand  
 Quvvat bo'lsin, kuch bo'lsin.  
 Baxtimizga hur Vatan—  
 O'zbekiston tinch bo'lsin!

### **Topshiriq 1: "Sherigini top"**

<b>1</b>	<b>ajdod</b>	o't, olov
<b>2</b>	<b>yov</b>	qo'riqlovchi, himoya qiluvchi
<b>3</b>	<b>Yurakka jo bo'lmoq</b>	qarshi kishi, dushman
<b>4</b>	<b>himoyachi</b>	yurakdan joy olgan
<b>5</b>	<b>otash, alanga</b>	ilgari o'tgan ota-bobolar

### **Topshiriq 2: "Ta'rifing qilsam agar!!!"**

<b>Vatanim</b>	<b>Posbonlar</b>	<b>Ajdodlar</b>
Eng aziz makon	Vatan himoyachilar	ilgari o'tgan ota-bobolarimiz

### **Topshiriq 3: "Chalaxat" metodi**

Ochsak tarix.....,  
 Yashnatib dil oftobin,  
 Eshitgandek bo'lurmiz  
 Ajdodlarning.....  
 Go'yo To'maris.....:  
 Yurtni yovdan asrang,—der.  
 Temur bobom:—.....  
 Tinch-u omonsaqlang!—der.  
 Mardlarning yodi hardam  
 Jodir.....  
 Yurtni asrash bizning ham  
 Orzu-.....  
 Yurt mehridan yurakda  
 Yonar otash—.....  
 Himoyachi bo'lurmiz  
 Aziz ona-.....!

Yurt ishqisi qalbga payvand

Quvvat bo'lsin,kuch bo'lsin.

Baxtimizga hur.....-

O'zbekiston tinch bo'lsin!

O'quvchilar bilimini baholashda PIRLS tadqiqotlarining topshiriqlaridan foydalanish ("Xalqaro tadqiqotlarda boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini baholash" metodik qo'llanmasi) va unda belgilangan baholash mezonlariga amal qilish ularda:

- o'qish savodxonligining maqsadiga erishishda badiiy tajriba orttirish va axborot olish va undan foydalanish;

- ko'p qirrali, murakkab vazifalarni amalga oshirishga o'rghanish;

- har bir muammo xususida chuqur fikrlash va o'z bilimini oshirib borishni boshqara olish;

- o'z tengdoshlari, o'qituvchilar va mutaxassislar bilan chuqur mulohazani talab etuvchi muhim vazifalarni bajarishtda hamkorlik qila olish;

-qarorlar qabul qilish, muammolarni hal etish va yangi fikrlar yaratishda texnologiyalardan foydalana olish kabi kompetensiyalarni shakllanishiga ko'maklashadi.

Davlat rahbari Shavkat Mirziyoyev o'zining murojatalaridan birida tarbiya to'g'risida shunday fikrlarni bildirgan edilar: "Biz kimmiz, qanday ulug' zotlarning avlodimiz, degan da'vat ularning qalbida doimo aks-sado berib, o'zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan"degan chorlovlari ta'limgiz tizimida asosiy e'tiborni tarbiyaga qaratish kerakligini anglashimiz mumkin. Yuqoridaq talablarning ta'limgiz tizimi uchun juda muhim ekanligi, aksariyat xorijiy davlatlardagi kabi ta'limgiz va fan sohalari rivojlanishini baholash va monitoring qilish orqali ta'limgiz sifatini oshirishga qaratilgan ilg'or tajribalarni sohaga jalgan qilish kerakligini anglatadi.

Davlatimizga ta'lif sifatini baholash xalqaro tadqiqotlarida ishtirok etish tadqiqotlarda olingan natijalar mam-lakatdagi ta'lif sifati va uning xalqaro standartlarni hisobga olgan holda egallagan o'rni to'g'risida xulosalar chiqarish imkonini beradi. O'quvchilarni xalqaro PISA, PIRLS baholashning asl mohiyati o'quvchilarda tafakkur uyg'oqligi, ularni ixtirochi, ijodkorlikka o'rgatishning asosiy belgisi hisoblanadi. O'zbekistonda ta'lif tizimiga xalqaro tajribadan kelib chiqqan holda o'quvchilarning bilim darajasini baholash va monitoring qilishning "Milliy dasturi"ni yaratish hozirgi kun talabiga mos keladi. Yana shuni aytish joizki, ushbu dastur zamon bilan hamnafas qadam tashlaydi hamda o'zining baholash mezonlarini zamonaviy talablar-ga muvofiq ravishda takomillashtirib boradi.

### **Foydalaniqan adabiyotlar ro'yxati:**

1. *O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Xalq ta'limi tizimida ta'lif sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2018-yil 8-dekabrdagi 997-sonli qarori.*
2. *O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev – madaniyat markaziy vakillari bilan o'tkazgan uchrashuvda so'zlagan nutqi. 25.01.2017 Toshkent.*
3. Dilova N.G. (2021). Sharq allomalarining ilmiy merosi – uchinchi renesans uchun katta imkoniyat. *Science and Education*. Vol. 2, Issue 10, 506-514 betlar.
4. Dilova N.G. (2021). Ajdodlarimiz merosi vositasida bo'lajak o'qituvchilarga ta'lif-tarbiya berishning ahamiyati. *Science and Education*. Vol. 2, Issue 10, 515-523 betlar.
5. Ne'matova F. B. Boshlang'ich sinflarda PIRLS xalqaro baholash dasturlaridan foydalinishning ahamiyati va zarurati //*Science and Education*. – 2022. – T. 3. – №. 2. – C. 576-581.

**Abdulbosit NURILLAYEV,**  
*O'zXIA magistranti*

**MILLIY QADRIYATLAR ASOSIDA  
BOLALARНИ KASBGA YO'NALTIRISHNING  
HUQUQIY AHAMIYATI**

**Annotatsiya:** *Maqolada bolalarni kasbga yo'naltirishda milliy qadriyatlarning ahamiyati haqida so'z boradi. Uning huquqiy tomonlari ochib beriladi.*

**Kalit so'zlar:** *qadriyatlar, bolalar, kasb, huquq.*

Tarixdan ma'lumki, qaysi jamiyat zamonaviy ilmlardan orqada qolgan bo'lsa, albatta, inqirozga uchragan, kelgindi bosqinchilarga qaram bo'lgan. Hadisi sharifda "Farzandlaringizni suvda suzishga, otda chopishga, kamondan otishga o'rgatingiz", deb bejizga aytilmagan. Qadim-qadimdan ota- bobolarimiz ham bolalarni kichik yoshidan turli xildagi kasb-hunarlarni mukammal egallashiga katta ahamiyat berishgan. Shundan kelib chiqadiki, bolalarni yoshlikdan ilm olish bilan birgalikda milliy qadriyatlarmiz asosida va jamiyat uchun manfaatli bo'lgan kasb-hunarga yo'naltirish har bir farzand ota-onasining vazifasidir. Zero, "Qo'lida hunari bor odam, xor bo'lmaydi".

Bolani yoshligidan kasb-hunarga qiziqtirish va uni mehnatsevar, shijoatli avlod qilib tarbiyalash kerak ekanligi doirasida kelib chiqadigan uning huquqiy asoslari ham mavjud bo`lib, bu borada davlatimiz qonunchiligi hamda islom huquqi doirasida muayyan belgilangan qonun va asoslar mavjud. Quyida shular haqida keltirib o'tamiz:

Ota yoki bobo qaramog'idagi yosh bolani, shuningdek, ikkovining vasiylari ham uni kasbga kasbga o'rgatish masadida biror-bir xizmatga berishlari mumkin. Mehnatga

o'rgatish va chiniqtirish maqsadida mehnati uchun haq bermasalar ham ushbu kishilarda bolaning mehnatidan foydalanish huquqi bor. Aslida mehnati uchun haq berish maqsadga muvofiq. Kim yosh bolani kasbga yo'naltirish ko'rinishidagi xizmatga berish huquqiga ega bo'lsa, ushbu xizmat uchun berilgan haqga ham egalik qilishi mumkin. Chunki kasbga yo'naltirish ham shartnomaga oid huquq bo'lgani uchun, ushbu huquq shartnomani tuzuvchi kishiga tegishlidir. Kasbga yo'naltiruvchi kishi bolaga xizmat uchun berilgan haqga ega bo'lsa ham ham uni sarflash huquqiga ega emas. Ota, bobo va shu ikkisining vasiylidan boshqa hech kim yosh bolaning mulkini tasarruf qilish huquqiga ega emas. Imom Muhammad fikricha, zarur bo'lsa ushbu mulkni yosh bolaning o'zi uchun sarflashi maqsadga muvofik, chunki uni sarflamasdan ushlab turish yosh bola uchun zarardir[3:223].

"Voyaga yetmaganlarning mexnatidan foydalanishga yo'l qo'ymaslik bo'yicha talablar tugrisida"gi Nizomning 4-bandiga ko'ra, belgilab qo'yilgan normadan ortiq og'ir yuk ko'tarish va tashish bilan bog'liq bo'lgan ishlarda 18 yoshga to'lмаган shaxslar mehnatidan foydalanishga yo'l qo'yilmaydi. Bolalar ko'tarishi mumkin bo'lмаган og'irlilik normalari 18 yoshga to'lмаган shaxslar kutarishlari va tashishlari mumkin bo'lgan og'ir yuk normalarining chegarasini belgilash to'g'risidagi nizomni tasdiqlash to'grisidagi qarorda belgilangan[2:5].

Ma'muriyjavobgarlikto'g'risidagi kodeksning 49-1-moddasiga ko'ra, voyaga yetmagan shaxslarning mehnatidan foydalanishga yo'l qo'ymaslik to'g'risidagi talablarni buzgan, voyaga yetmagan shaxs mehnatidan uning sog'lig'i, xavfsizligi yoki axloq-odobiga ziyon yetkazishi mumkin bo'lgan ishlarda foydalangan shaxslarga nisbatan eng kam ish haqining bir baravaridan uch baravarigacha miqdorda jarima solinadi. Qonunchilikda qishloq xo'jaligi maxsulotlarini yetishtirish-

da va yig'ishtirib olishda o'quvchi va talabalar mehnatidan foydalanishni yosh bolalarni mehnatga jalb qilishni tartibga soluvchi qoidalar to'plami mavjud. Mavzu bo'yicha bolalarning paxta terishi quyidagi bir necha huquqiy normalarga asosan O'zbekistonda taqiqlanadi:

Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi hamda Sog'lijni saqlash vazirligi 2009-yil 26-iyunda qabul qilgan "O'n sakkiz yoshdan kichik shaxslarning mehnati qo'llanishi taqiqlanadigan noqulay mehnat sharoitlari ishlari ro'yxati"da o'n sakkiz yoshga to'lмаган shaxslarning paxtani qo'lda terish ishlariga jalb etilmasligi belgilangan. Chunki paxtani qo'lda terish ishlari voyaga yetmagan shaxslar uchun noqulay mehnat sharoitlari ro'yxatiga kiritilgan.

Hujjatdagi 12-qoidaga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 77-bandiga muvofiq, ishga qabul qilishga o'n olti yoshdan yo'l qo'yilishi ta'kidlangan. Ayni paytda, yoshlarni mehnatga tayyorlash uchun umumta'lim maktablari, kasb-hunar o'quv yurtlarining o'quvchilari, ularning sog'lig'iga hamda ma'naviy va axloqiy kamol topishiga ziyon yetkazmaydigan, ta'lim olish jarayonini buzmaydigan yengil ishlarni o'qishdan bo'sh vaqtida bajarishlari uchun – ular o'n besh yoshga to'lganidan keyin ota-onasidan birining yoki ota-onasining o'rnnini bosuvchi shaxslardan birining yozma roziligi bilan ishga qabul qilinishi belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi ishga qabul qilish uchun eng kichik yosh to'g'risidagi konvensiya, zo'r lab ishlatish yoki majburiy mehnat to'g'risidagi konvensiya, bolalar mehnatining og'ir shakllarini taqiqlash va yo'q qilishga doir shoshilinch choralar to'g'risidagi konvensiyalarini ratifikatsiya qilgan va 2008-yil 12-sentyabrda Vazirlar Mahkamasi "Uzbekiston Respublikasi tomonidan ratifikatsiya qilingan ishga qabul qilish uchun eng kichik yosh to'g'risidagi konvensiyani xamda bolalar mehnatning og'ir shakl-

larini taqiqlash va yo'q qilishga doir shoshilinch choralar to'g'risidagi konvensiyani amalga oshirish chora-tadbirlari haqida" qarorni qabul qilgan. Mazkur qarorga ko'ra, yuqorida aytilgan ikki konvensiyani ratifikatsiya qilish munosabati bilan undagi normalarni milliy qonunchilikka tatbik qilish uchun Milliy Harakat Rejasi ishlab chiqilgan.

Xalqaro huquq no'rmalariga ko'ra, 18 yoshga to'lma-gan va emansipatsiya<sup>1</sup>qilinmagan har qanday voyaga yet-magan shaxs bola hisoblanadi.

Yuqorida tilga olingen xalqaro konvensiyalar ijrosini ta'minlash yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 2012-yil 26-martda ham "O'zbekiston Respublikasi tomonidan ratifikatsiya<sup>2</sup> qilingan zo'r lab ish-latish yoki majburiy mehnat to'g'risidagi konvensiyani hamda bolalar mehnatining og'ir shakllarini taqiqlash va yo'q qilishga doir shoshilinch choralar to'g'risidagi konvensiyani 2012-2013-yillarda amalga oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar haqida" qaror qabul qildi. Qarorga ko'ra, qabul qilingan konvensiyalarni milliy qonunchilikka tadbiq qilish uchun 2012-2013-yillarda amalga oshirilishi rejalgangan qo'shimcha tadbirlar rejasi (bundan keyin Tadbirlar rejasi) qabul qilindi.

Mazkur tadbirlar rejasining 14-bandiga ko'ra, umumata'lim maktablari, akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari o'quvchilarining majburiy mehnatidan foydalanishga yo'l qo'ymaslik uchun joylarda monitoring olib borish va nazorat qilish belgilangan. Demak, mazkur band 18 yoshdan yuqori, ammo akademik litsey yoki kollej talabasi bo'l-gan shaxslarni ham majburiy mehnatdan himoyalashni ko'zda tutadi.


Tadbirlar rejasining 18-bandiga muvofiq, Mehnat va aholini Ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi, Xalq ta'limi va-

<sup>1</sup> Voyaga yetmagan kishini muomalaga layoqatli deb e'lon qilish.

<sup>2</sup> Qonunlashtirish.

zirligi, Bosh prokuratura, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari har yili avgust-oktyabr oylarida paxta yig'im-terimi ishlarida umumta'lim maktablari o'quvchilarining majburiy mehnatidan foydalanishga yo'l qo'ymaslik uchun joylarda monitoring olib borishi xamda Vazirlar Mahkamasiga tegishli takliflar bilan birqalikda monitoring natijalari to'g'risida batafsil tahliliy ma'lumotnomaga kiritishi lozim[1:35].

Xulosa o'rnida aytishimiz mumkinki ota-onalar farzandlariga kichikligidanoq e'tiborli bo'lib, ularga biror mashg'ulot topib berishlari yoki hunar o'rgatish uchun biror hunarmand ustaga shogird qilib berishlari kerak. Yigitlarimizga yoshligidan, ustachilik, duradgorlik kabi kasblarni o'rgatishimiz lozim. Zero, kelajakda bir oilani boshqaruvchisi uchun bu kasblar keraklidir. Qizlarimizga xam yoshligidan chevarlik, pazandalik ,uy tutish, bola tarbiyalash kabi yumushlarni o'rgatish lozim. Toki, yangi ro'zg'orlarida qiynalib qolmasinlar, hayotlari farovon bo'lsin. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida yashab O'tgan taniqli ma'rifatparvar Aliy Nazimov Markaziy Osiyoda katta shuhrat qozongan va maktab-madrasalarda darslik si-fatida o'qitilgan "Ta'limi banor" (Qizlar tarbiyasi) kitobida kuyidagi jumlalari o'qiyimiz: "Yosh qizlarga ta'lim-tarbiya berishda ular uchun nihoyatda kerakli, o'rganmaslikning aslo iloji bo'limgan fan qo'l hunarlari fanidir. Eng yuqori bilim va ma'lumot ham bu fanning o'rnini bosa olmagani bois, yosh xonim-qizlar bu fanni o'rganishga tirishishlari lozim. Qo'l ishlariga usta bo'lgan ayol qo'llarining moxirligi sababli adabu iffat ichida tirikchiligin qila oladi. Boy oilalarning xonimlari qo'l hunari orqasida xush va huzurli vaqt o'tkazishidan xamda muxtojlarga yordamlar ko'rsatib, odamiylikda bolurlar. Shuning uchun ham farzandlarimizga qo'l hunarlarini kichkinlikdan boshlab tartib bilan o'rgatish lozim.



**Matluba YULDASHEVA,**  
*Qo'qon davlat pedagogika  
instituti Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va  
huquq ta'limi kafedrasi dosenti*

## **OMMAVIY AXBOROT VOSITALARINING JAMIYAT TARAQQIYOTIGA TA'SIRI**

**Annotatsiya:** Maqolada ommaviy axborot vositalarida qadriyatlarni yoritish bilan bog'liq masala kechiktirib bo'lmaydigan dolzARB ahamiyatga ega ekani yoritib berilgan. Shuningdek, ommaviy axborot vositalari bugungi kunda yaxlit tizim sifatida qadriyatlarni, insonparvarlikni emas, tarqoq holatda manfaatlar uchun xizmat qilayotgani ko'rsatib berilgan.

**Kalit so'zlar:** Ommaviy axborot vositalari, jamiyat taraqqiyoti, yaxlit tizim, mafkura, tamoyillar, ma'naviy hayot, ijtimoiy fikr.

Bugungi jamiyat taraqqiyotining muhim vositalalaridan biri bo'lgan ommaviy axborot vasitalarida milliy qadriyatlarni yoritish bilan bog'liq masalaning ko'tarilishi ayni davrdagi kechiktirmay hal qilinishi lozim bo'lgan muammolardan biri hisoblanadi. Zero bugungi kunda milliy masalalarga e'tibor faqat mamlakatlarning ichki mafkululari tamoyillaridagina aks etadi xolos. Dunyo hamjamiyati esa bunga e'tibor qaratishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygani yo'q. Shu ma'noda ommaviy axborot vositalari bugungi kunda yaxlit tizim sifatida qadriyatlarni, insonparvarlikni emas, tarqoq holatda manfaatlar uchun xizmat qilayotgani hech kimga sir emas.

Ta'kidlash joizki, ommaviy axborot vositalari qanday vakolat bilan faoliyat yuritishlaridan qat'iy nazar jamiyat

hayotining barcha jabhalarida muhim o'rin tutadi. Ular orqali, eng avvalo, insonlar jamiyat ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy hayotida, hamda dunyo ham-jamiyati, davlatlararo munosabatlarda sodir bo'layotgan o'zarishlardan xabardor bo'ladilar. Ularni idrok etib, o'z munosabatlarini bildiradilar. Binobarin, "Hozirgi davrda matbuot, ommaviy axborot vositalari shunday qudratli kuchga aylanmokdaki, o'z kelajagini o'ylaydigan har qaysi xalq va millat buni sezmasligi, his etmasligi mumkin emas"[1].

Bizga ma'lumki, ommaviy axborot vositalari deganda, matbuot, radio, televideniye tushuniladi. Shuningdek, bugungi kunda Internet tarmog'ining ham keng jamoatchilikka axborot yetkazib berishdagi ulkan imkoniyatlarini inobatga olib, ommaviy axborot vositalari qatorida sanash mumkin.

Zero, ommaviy axborot vositalari o'zining ikki asosiy jihat bilan ahamiyatlidir. Xususan, birinchidan, ommaviy axborot vositalari mafkuraviy tahdidlarni amalga oshirishda, ikkinchidan, turli yot va begona g'oyalarning tarqalishiga qarshi kurashda ham katta o'rin tutadi.

Shuningdek, ommaviy axborot vositalarining asosiy vazifasi jamoatchilik fikrini uyg'otish, shakllantirish va ularni muayyan manfaatlar asosida maqsadli yo'naltirishdan iborat. Professor M.Bekmurodov fikricha, ommaviy axborot vositalarining ijtimoiy fikr sub'yektlariga ko'rsatadigan ta'siri odatda ikki yo'nalishda, ya'ni jamoatchilik fikrining boshlanishi, shakllanishi jarayonida va uning bevosita amal qilish jarayonlarida namoyon bo'ladi. Shakllantirish bosqichida jamoatchilik fikrini ijtimoiy hayotning dolzarb masalalariga keng va aktiv jalb etishga qaratilsa, amal qilish jarayonlarida jamoatchilik fikrini barqaror saqlab turish va uning ta'sirchanligini har tomonlama os-hirishga jiddiy e'tibor qaratiladi[2].

Shu nuqtai nazardan qaraganda, ommaviy axborot vositalarining jamiyat ma'naviy hayotida tutgan o'rni tobora yuksalib borayotganini ko'rish mumkin. Bu, birinchidan, ommaviy axborot vositalarining yoshlarning ijtimoiylashuv jarayoniga ko'rsatayotgan ta'sirining kuchayib borishi bilan bog'liq.

Ikkinchidan, odamlarning axborotga bo'lgan ehtiyoji tobora kuchayib bormoqda. Bugungi kunda hayotimizni axborotsiz tasavvur etishimiz qiyin. Har qanday odam tevarak-atrofida, mamlakatda, dunyoda sodir bo'layotgan voqealar to'g'risida biron-bir manbadan axborot olishga intiladi.

Zero, bugungi kunga kelib axborot jamiyatdagi eng muhim resurslardan biriga aylanib ulgurdi. Dunyodagi aksariyat davlatlarda axborot sanoatini rivojlantirish, axborot sohasida tezkorlik, operativlikni ta'minlashga qaratilgan yuksak texnika va texnologiyalarni yaratishga strategik vazifa sifatida qaralmoqda. Albatta, bu insoniyat axborot madaniyatining rivojlanib borayotganining dalilidir.

Ammo, har qanday axborot, ayniqsa, ijtimoiy xarakterdagi axborotlar o'zida muayyan g'oya va qarashlar, ularning konkret mazmunini aks ettirishini inobatga olsak, bu boradagi tezkorlik, ommaviylik va qulaylik g'arazli siyosiy, geosiyosiy kuchlar tomonidan mafkuraviy tahdidlarni amalga os-hirish uchun ham ulkan imkoniyatlarni paydo qilmoqda.

Ayni paytda, ommaviy axborot vositalari dunyoda mafkuraviy kurash maydoniga aylanib, turli xalqlar turmush tarziga, ongiga, e'tiqodiga, ayniqsa o'sib kelayotgan yosh avlod dunyoqarashining shakllanishiga, hayotiy maqsad, xatti-harakatlariga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omilga aylanmoqda.

Shu bilan birga, bugungi kunda dunyo bo'ylab o'z manfaatlarini keng yoyishning eng maqbul usuli - axborot xurujlari bo'lsa, eng samarali vosita - axborot tizimlari va

vositalari hisoblanadi. Zero, hozirda turli usullarda olib borilayotgan mafkuraviy targ'ibot va tashviqotning asl maqsadi-inson qalbi va ongi uchun kurashga qaratilgan.

Ma'lumki, har bir axborot uzatish vositasi o'ziga xos xususiyatga ega. Shu nuqtai nazardan qaraganda, g'oyaviy tarbiya ishlarida ularning har biri alohida o'rin tutadi. Ommaviy axborot vositalarining ichida gazeta va jurnal-lar alohida o'rin tutadi. Radio va televideniyeda berilgan axborot ko'rish va eshitish orqali yengil qabul qilinadi, ammo uzoq muddat saqlanib qolmasligi mumkin. Gazeta va jurnallarda, umuman bosma so'z orqali berilgan axborot qabul qiluvchidan alohida diqqatni talab qiladi. Binobarin, u xabarni o'qishi, tasavvur qilishi va tahlil qilishi, lozim bo'lsa esda saqlab qolishi kerak.

Shuningdek, ommaviy axborot vositalarining eng muhim tarkibiy qismlaridan biri – televideniyedir. Keyin-gi paytlarda televideniyening ham ancha mavqeyi tushdi, deyilayotganiga qaramasdan, u haliyam o'z o'rnini yo'qot-gani yo'q. Ham tasvir, ham ovoz orqali, jonli efirlar boy bo'lgan televideniye zamonaviy insonning hayotiy zarur ma'lumot va xabarlarni oladigan asosiy vositasidir. Shu nuqtai nazardan qaraganda, televideniye inson ma'naviy dunyosining shakllanishida muhim o'rin tutadi.

Televideniyening ijobiy va salbiy jihatlari, inson kamolotida tutgan o'rni bilan bog'liq fikr-mulohazalar, yondashuvlar u paydo bo'lgan davrlardan beri mavjud.

Darhaqiqat, ba'zi mamlakatlarda televideniyega ortiqcha "mahliyo" bo'lish natijasida oila a'zolarining o'zaro munosabatlari - ota-onalar va farzandlar o'rtasidagi munosabatlari sezilarli darajada kamaygani tan olinadi. Shuningdek, bolalar va o'smirlarning kitob o'qishga qiziqishlari pasaygan, ular kitob o'qib axborot olish o'rniga televide niye orqali axborot olishni afzal ko'radilar, chunki kitob o'qish ma'lum darajadagi aqliy mehnatni talab qiladi.

Bugunga kunga kelib, televizor qarshisida ko'p o'tirish o'sib kelayotgan avlodga, eng avvalo yoshlarning jismoniy o'sishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi zamonaviy tibbiyot tomonidan ham tasdiqlangan. Xususan, teleekran oldida ko'p o'tirgan bolalar kamharakat bo'lib qolishi, natijada ko'rish qobiliyati zaiflashib, semirib ketishga moyilligi ortadi, turli kasalliklarga qarshi immuniteti yaxshi rivojlanmaydi.

Bundan tashqari, behayo, jangari va zo'ravonlik aks ettirilgan filmlarni tomosha qilish natijasida yoshlarning ma'naviy rivojlanishi zaiflashadi. Zamonaviy ommaviy axborot vositasi hisoblangan televideniye amaliy jihatdan yer sharining istalgan joyidan - bepoyon koinotdan, tubsiz okean qa'ridan inson uchun foydali bo'lgan axborotlarni zudlik bilan yetkazadi. Berilayotgan xabar qanchalik tezkor, haqqoniy, qiziqarli, munozarali, ilmiy bo'lsa, hayotni ob'yektiv aks ettirsa, kishilarning zamonaviy fan va sanatga bo'lgan qiziqishlarini oshirsagina televideniye muloqotda yaxshi hamkor, qadrli do'st va maslahatchi, insoniyat ma'naviy olamini to'ldirishda, yoshlarni tarbiyalashda muhim vosita bo'ladi.

Holbuki, hozirgi paytda turmushimizga tezlik bilan kirib kelayotgan va yoshlarimizning ma'naviy-g'oyaviy shakllanishiga ta'sir ko'rsatayotgan ommaviy axborot vositalaridan biri Internetdir. Internet orqali ko'p hajmdagi axborotlar soniyalar ichida millionlab odamlar o'rtasida tarqalish imkoniyatiga ega.

Hozirgi kunda internet tarmoqlari orqali mafkuraviy tahdidlar namoyon bo'lishining asosan quyidagi yo'nalishlarini ajratib ko'rsatish mumkin:

- yet, buzg'unchi g'oyalarning kirib kelishi (diniy ekstremizm, millatchilik, irqchilik, sadizm misolida);

- G'arbcha yashash tarziga xos, lekin milliy madaniyatimiza zid g'oyalalar, qarashlarning yoshlarga ta'siri (kiyinish, chekish, pirsing, tatuirovkalar va hokazo);

- pornografik axborotlarning yoshlar tarbiyasiga ta'siri;

- soxta axborotlar (dezinformasiya).

Darhaqiqat, internetning ulkan imkoniyatlari, unda axborot oqimining tezkorligi, auditorianing cheklanmaganligi, o'z maqsadlarini terroristik yo'l bilan amalga oshirishni odat qilib olgan yovuz kuchlarning manfaatlariga ham xizmat qiladi. Xususan, internet tizimida yuzlab terroristik saytlarning manzillari aniqlangan. Bunday saytlar to'satdan paydo bo'ladi va tez-tez formatini o'zgartirib turadi. Kutilmaganda esa, o'z mundarijasini saqlagan holda, ammo manzilini o'zgartirish yo'li bilan ko'zdan g'oyib bo'ladi.

Internet tarmog'i o'zining original xususiyatlariga ko'ra, mafkuraviy maqsadlarni amalga oshirishda samarador qurol sifatida namoyon bo'lmoqda

Shu bilan birga, internet tarmog'ining inson uchun ijobiy jihatlari ham ko'p. Chunonchi, undagi axborotlarning xilma-xilligi dunyoqarashning kengayishiga yo'l ochadi. Ammo bunda axborotlarni qabul qilib, ularni qiyosiy tah-lil qilish imkoniyatining mavjudligi, ya'ni yosh yigit yo qizning axborotga "to'q bo'lishi" va ularni saralay olish qobiliyati muhim ahamiyat kasb etadi. Agar unda axborotga bo'lgan "did" bo'lmasa, u axborot oqimida "cho'kib" ketishi mumkin.

Ayni paytda, internetda axborotlarni tanlash uchun juda ulkan imkoniyatlar mavjud. Bundan tashqari, tarmoqlar masofaviy ta'limni tashkil etishda o'ziga xos afzalliklarni beradi. Shuningdek, internetning axborot makonida asosiy iste'mol xizmati sifatidagi o'rni alohida ahamiyatga ega.

Umuman olganda, har qanday ommaviy axborot vsitasi mafkuraviy tarbiya funksiyasini bajarishi tabiiy hol. Biroq, bu jarayonda alohida e'tibor qaratilishi zarur

bo'lgan, davrimiz taqozosi bilan bog'liq jihatlar mavjud. Ular qatorida tezkorlik (operativlik) va haqqoniylig belgilovchi xususiyatga ega.

Odamlar o'zлari uchun zarur axborotlarni ommaviy axborot vositalari orqali olishga, shuningdek, ularda qandaydir yuzaki axborot bo'lsa, uni ham ommaviy axborot vositalaridagi ma'lumotlar orqali mustahkamlab olishga intiladi. Shu ma'noda, haqqoniylig matbuot, radio, televideniye hamda internet saytining ham bosh tamoyilidir. Ayniqsa, haqqoniylig turli g'oyalar o'rtasida kechayotgan axborot kurashi jarayonida o'ta muhim va nozik jihatga aylanadi.

Shuningdek, g'oyaviy kurashda eng samarali qurol - axborot. Shu bois axborotni o'z maqsadlariga xizmat qildirishga intilishning keskin tus olayotgani bugungi kunda yangilik emas. Bu esa hammamizni ogohlikka chorlamog'i lozim. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidalagnidek, "Globallashuv jarayonida axborot maydonidagi yangilanishlar ta'siri kuchayib, ommaviy axborot vositalarining o'rni va ahamiyati ham tobora ortib bormoqda. Barcha sohalar kabi axborot olish va uni yetkazish, ta'sirchan jamoatchilik fikrini shakllantirish borasida ham raqobat keskin tus olmoqda. Bunday murakkab sharoitda hayot oldimizga yangi-yangi talab va vazifalarni qo'yimoqda"[3].

Demak oldimizda turgan vazifa ommaviy axborot vositalarining barcha bo'g'lnlari yaxlit tizim sifatida Vatan, millat va jamiyat oldidagi burch va mas'uliyatlarini anglagan holda o'zaro hamkorlik qilishlarini tashkil qilishga o'z hissamizni qo'shishdir.

**Dilshod ABDULLAEV,**  
*Jizzax politexnika instituti*  
**2-bosqich talabasi,**  
**Gulbahor MIRAZIMOVA,**  
*Jizzax politexnika instituti o'qituvchisi*

## **SHAQR MUTAFAKKIRLARINING AXBOROT TO'G'RISIDAGI IJTIMOIY FALSAFIY QARASHLARI**

*Annotatsiya:* Maqola zamonamiz yoshlarning ma'naviy tafakkurining sog'lomlik darajasi, jismoniy hamda ruhiy yetukligi, har bir ishga ogoh va fidoyi bo'lishi jamiyat taraqqiyotida muhim ahamiyatga ega ekanligi va axborot psixologik ma'naviyati hamda tanqidiy fikrlashni shakllantirish zamon talabi ekanligi to'g'risida.

*Kalit so'zlar:* Xabar, axborot, xavfsizlik, tahdid, psixologik xavfsizlik, zararli axborot, ruhiyat, qadriyat, tanqidiy fikrlash.

**"Xabar beruvchilar sababli rostlik va yolg'onlik tusini oladi"**

*Abu Rayhon Beruniy*

Bugungi kunda mamlakatimizning ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy va milliy qadriyatlarni tiklash va bugungi zamon talablariga ham ohang holda yetishib kelayotgan kelajak avlodni tarbiyalash dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Bu islohotlarni amalga oshirish jamiyat va davlat oldida turgan ustivor vazifalardan biri hisoblanadi. Buni amalga oshirish esa uzliksiz ta'lim tizimini milliy qadriyatlар bilan transformatsiya qilish orqali amalga oshirish lozim. Hozirgi vaqtda rivojlangan davlatlarning taraqqiyot yo'liga nazar tashlar ekanmiz, ularning aksariyati milliy tarixiy o'zlik hamda milliy qadriyatlardan voz kechmagan holda

amalga oshirganligining guvohi bo'lamiz. Masalan, Xitoy davlati – milliy qadriyatlar va tarixiy xotiradan voz kechmasligi va davlatning barcha islohotlarida xitoy xalqining madaniyatini saqlab qolish g'oyasini birinchi o'rinda turishi, Yaponiya davlatida esa "yapon ruhi" g'oyasining har bir yapon qalbiga asrlar davomida singdirib yuborilganligi yoki qardosh xalqlarimizdan Turkiyaning rahnamosi bo'lgan "Ota turk" ilgari surgan g'oyalarning har bir turk oilasining qalbidan joy olganligi millatning tarixi va kela-jagi milliy qadriyatlar va tarixiy o'zliksiz amalga oshirib bo'lmasligi haqida so'zlaydi.

Bugungi globallashuv sharoitida esa har bir taraqqiy etayotgan katta yo kichikligi, tarixiy mavjudligi, madaniy merosi va ma'naviy o'zligidan qat'iy nazar yer yuzidagi barcha millatlar uchun birdek xavotir tuyg'usini uyg'otmoqda. Bugun yer yuzida kim axborotga egalik qilsa o'sha hukmronlik ham uning qo'lida bo'ladigan davrlar yetib keldi. Bu borada yurtimizda ham yetarlicha muammolar kuzatilmoqda. Yoshlarimiz o'rtasida har qanday axborotni hech qanday tahlil va uning manbalarisiz to'g'ridan to'g'ri is'temol qiluvchi yoshlar guruhi asta sekinlik bilan shakllanib kelmoqda [1]. Bu muammolarni bartaraf etish uchun esa mamlakatimizdagi fuqarolar va yoshlarning axborot va axborot madaniyatini shakllantirish va ularda "axborot psixologik xavfsizligini ta'minlash" muammoysi yuzaga kelmoqda. Hozirgi vaqtda yurtimizda yoshlarni axborot psixologik xavfsizligini ta'minlash, zararli axborotlar tahdidini bartaraf etish muammoising me'yoriy huquqiy asoslari 2002-yil 12-dekabrdagi O'zbekiston Respublikasining "Axborot erkinliklari prinsiplari va kafolatlari to'g'risida"gi, 2003-yil 11-noyabrdagi O'zbekiston Respublikasining "Axborotlashtirish to'g'risida"gi, 2016-yil 16-sentabrdagi O'zbekiston Respublikasining "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi qonuni O'zbekiston Respub-

likasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldag'i PF-4947-sonli "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi, 2017 yil 11 avgustdag'i "Matbuot va axborot sohasida boshqaruvni yanada takomillashtirish to'g'risida"gi PF-5148-son, 2018 yil 19-fevraldag'i "Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5349-son, 2019 yil 2 fevraldag'i "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi faoliyatini tashkil etish to'g'risda"gi PQ-4151-son shuning bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 707 sonli "Butunjahon internet tarmog'ida axborot xavfsizligini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlarida o'z aksini topgan. Milliy qonunchiligimizda yoshlarni nosog'lom axborotlardan himoyalash mexanizmlari mayjud. Misol uchun, "Yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunida yoshlar orasida odob-ahloqni buzishga, shu jumladan, zo'ravonlik, hayosizlik va shafqatsizlikni targ'ib qilishga qaratilgan har qanday xatti-harakatlar, "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi Qonunda esa behayolik, shafqatsizlik va zo'ravonlik haqida hikoya qiluvchi, inson qadr-qimmatini tahqirlovchi, bolalarga zararli ta'sir ko'rsatuvchi va huquqbazarliklar sodir etishlariga sabab bo'luvchi adabiyotlarni tarqatish, filmlarni namoyish etishning taqiqlanishi qonun hujjatlari bilan taqiqlangan. Dunyoning geosiyosiy manzarasi va davlatlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning ziddiylashuvi esa bu amalga oshiriladigan chora-tadbirlar bilan cheklanish kerak emasligini ko'rsatadi. Bu jarayonlarda yoshlarning boy tarixiy ma'naviy va madaniy merosimizni ularga yangicha usul va vositalar orqali o'rgatish yo'li bilan tadbiq etish samarali natijalar beradi deb o'ylaymiz.

Zamonamiz yoshlarning ma'naviy tafakkurining sog'lomlik darajasi, jismony hamda ruhiy yetukligi, har bir ishga ogoh va fidoyi bo'lishi jamiyat taraqqiyotida muhim omil hisoblanishi va bu haqida Alisher Navoiyning "Lison ut-tayr" kitobida inson ma'naviy dunyosining boy bo'lishi dunyo bilimlariga egalik qilishi va odillik fazilatlariga ega bo'lish to'g'risidagi falsafiy qarashlari. Abu Rayhon Beruniy asarlarida keltirilgan "**Xabar beruvchilar sababli rostlik va yolg'onlik tusini oladi**" ya'ni axborotning rost yoki yolg'on bo'lishi uni yetkazib beruvchining maqsad va muddaolaridan kelib chiqib belgilanishi to'g'risidagi fikrlari, Abu Ali ibn Sino "Tib qonunlari" asarida insonda avvalo ruhning sog'lom bo'lishi jismning keyingi faoliyatini belgilab berishi haqidagi fikrlari, Abu Nasr Forobiyning "Fozil odamlar shahri" asaridagi davlat va jamiyat boshqaruvi, fuqaro majburiyati, hukmdor fazilatlari, ular o'rtaсидаги munosabatlar, vazifalarning aniq va ravshan berilishi hamda Muhammad G'azzoliyning "Ihyo ulum ad-din" ning Tavba kitobida "Ruh - ko'zga ko'rinas, takomillashuvchi modda va u miyada turg'un bo'lishi, Qalb - sezgi va his-tuyg'ular makoni ekanligi to'g'risidagi ijtimoiy falsafiy qarashlari orgali insonga har qanday tashqi yoki ichki ta'sirlar avvalo uning ongi tafakkuri, qalbi, ruhiyati, yashash sharoiti hamda milliy qadriyatlaridan kelib chiqib ta'sir qilish mumkin degan xulosaga kelamiz [2].

Bizga ma'lumki kishilik jamiyati paydo bo'lgandan beri inson xabar ya'ni axborot olish, tarqatish va undan foydalanishga ehtiyoj sezib keladi. Albatta, qadimda bu jarayon juda sodda ko'rinishga ega edi. Dunyo taraqqiy etgan sari u murakkablashib, axborotning jamiyatdagি mavqeи yanada oshishiga olib keldi. Bugun hayot kechirayotgan davrimiz esa "Axborot asri" - deb nom olganligi esa uning bugungi kunda qanday darajani egallab turganligini ko'rsatib tu-

ribdi. Darhaqiqat, Ayni paytda mutaxassislar har qanday davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darjasini bilan birga mudofaa qudrati ham axborot tizimi va texnologiyalariga bog'liqligini ta'kidlashmoqda. Bu borada jamiyat hayotining turli sohalarini kompyuterlashtirish, elektron kommunikatsiyalar, elektron ko'rinishdagi ma'lumotlar ba'zasi, raqamlashtirilgan axborot tizimi, nano texnologiyalar sohasidagi aql bovar yutuqlar, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish ijobiy natijalar bilan bir qatorda, ijtimoiy turmush tarzimizda ayrim xato va kam-chiliklarga duch kelmoqdamiz.

Bugun yoshlarni xulq atvoriga buzg'unchilik maqsadida ta'sir etishni ko'zda tutuvchi yangi "axborot quroli" ning ta'siri kuchayishiga olib kelayotganini aytib o'tish joiz. Bu esa o'z navbatida, mamlakatimizning kiber xavfsizlik tizimini kuchaytirish, axborot resurslari va telekommunikasiya tarmoqlarini noqonuniy maqsadlarda ishlatishga qarshi himoya choralarini ko'rish va ularning benuqson faoliyatini ta'minlash chora-tadbirlarini ta'minlashni taqazo etmoqda.

Ta'lim-tarbiya jarayonida zararli axborotlar tahdidining talabalarning xulq-atvori va ruhiyatiga ta'siri, zararli axborotlar tahdidi muammosi nazariy asoslanib, ta'lim-tarbiya jarayonida talabalarda tanqidiy fikrlashni shakllantirish pedagogik asoslarini ishlab chiqish, voqeilikka o'zining holis munosabatini bildirish, "men" konsepsiysi ishlab chiqaruvchilari tomonidan ilgari surilayotgan g'oyalarni to'liq tushinib yetishi hamda unga munosib javob bera olishi, har qanday sodir bo'layotgan voqealarni hodisalarga tanqidiy fikrlashni shakllanganligi. Kirib keelayotgan yot g'oya va axborotlardan himoyalanish uchun munosib refliks vazifasini bajarishi orqali turli axborot tahdidlaridan himoya mexanizmi sifatida ishga tushadi.

Ma'lumotlarga ko'ra, 20 ga yaqin davlatlarda yadro quroli ishlab chiqarish bo'yicha ishlar amalga oshirilayotgan bo'lsa 120 dan ortiq davlatlarda axborot xurujlarini uyushtirish ustida ishlar olib borilmoqda. Ayniqsa, bugungi axborot xurujlari markazida yoshlarning ma'naviy ongi ni egallash asosiy maqsad hisoblanadi. G'arazli maqsadlar ni amalga oshirayotgan kuchlar tomonidan bu yo'lida turli usul vositalarni qo'llaniladi. Axborot xurujlarini yuzaga keltirish quyidagi ko'rinishda amalga oshiriladi.


- ✓ Yolg'on axborot tarqatish,
- ✓ Ijtimoiy ongi manipulatsiya qilish,
- ✓ Milliy ma'naviy qadriyatlarni yo'q qilish,
- ✓ Millat mentaliteti uchun mutlaqo yot bo'lgan begona qadriyatlarni targ'ib qilish va singdirish,
- ✓ Milliy va tarixiy xotirani o'zgartirishva buzib ko'rsatish,
- ✓ E'tiqod va milliy qadriyat sifatida shakllangan urfodat an'ana va qadriyatlarning o'zgartirish va norozilikni atayin keltirib chiqarishga qaratilgan harakatlarni o'z o'chiga oladi.

Eng achinarlisi shundan iboratki, hozirda yoshlar axborot manbai sifatida boy ma'naviy meros manbaiga emas, balki "internet manbasi"ga yuzlanishi tarixiy haqiqatning o'zgarishi va milliy ma'naviy merosning asta sekinlik yo'qlikka yuz tutishiga olib kelish xavfi butun dunyodagi millat vakillarini birdek tashvishga solmoqda. To'g'ri, bu tarmoqning qulay axborot manbai sifatida foydalanish va siz istagan narsangizni bir lahzada topa olishi, olishingiz mumkinligi, soniyalar ichida dunyoning narigi chekkasi bilan bog'lanish imkoniyatlari mavjudligi muhim. Ammo, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining bu cheksiz imkoniyatlaridan yot va g'arazli maqsadlar da foydalanuvchilar ham kundan kunga oshib bormoq-

da. **Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimovning “Yuksak ma’naviyat - yengilmas kuch” asarida aytganlaridek** “Globallashuv jarayoni hayotimizga tobora tez va chuqur kirib kelayotganining asosiy omili va sababi xususida gapirganda shuni ob’ektiv tan olish kerak - bugungi kunda har qaysi davlatning taraqqiyoti va ravnaqi nafaqat yaqin va uzoq qo’shnilar, balki jahon miqyosida boshqa mintaqaga va hududlar bilan shunday chambarchas bog’lanib bo’ryaptiki, biron mamlakatning bu jarayondan chetda turishi ijobiy natijalarga olib kelmasligini tushunish, anglash qiyin emas. Shu ma’noda, globallashuv – bu, avvalo, hayot sur’atlarining beqiyos darajada tezlashuvi demakdir”[3]. Darhaqiqat, XXI – asr turli mamlakatlar iqtisodiyoti, ichki va tashqi siyosati, madaniyati, ma’naviyati, odamlar o’rtasidagi o’zaro munosabatlar tobora murakkablashib ta’sir doirasi kengayib borayotgan bu globallashuv jarayonida axborot texnologiyalar sharofati bilan dunyoda ro’y berayotgan voqeа hodisalarning kuzatuvchisi va ishtirokchisi sifatida ishtirokchisiga aylanib qolishimiz mumkin.

**Lekin, masalaning yana bir nozik tomoni borki,** texnik imkoniyatlarning va telekommunikasiya tizimiga kirishning kengayishi, elektron axborot vositalarining rivojlanishi, ularning Internet bilan mos kelishi va onlayn rejimida muloqot qilish yo’llarining ko’pligi voyaga yetmaganlar o’rtasida axborot xuruqlarini ortishi va milliy qadriyatlarning yo’q qilishga bo’lgan urinishlar uchun qo’l keladi. Bunda g’oyaviy ta’sir yo’naltirilgan mamlakatlar aholisining xohish-istiklari, mentaliteti, mavjud muammolari jiddiy o’rganilgan holda, asosiy e’tibor kishilar ongi va dunyoqarashiga ta’sir ko’rsatishga, shakllangan qadriyatlarni o’zgartirishga, ularning “regulyator”lik rolini kamaytirishga yoki butunlay yo’qqa chiqarish vazifasi ilgari suriladi.

Internet orqali kirib kelayotgan xavflarning yoshlaridan ham ko'ra bolalar ongiga ko'proq ta'sir qiluvchi usuli — bu kompyuter o'yinlaridir. Bugungi kunda kompyuter o'yinlarining eng ommalashgan janrlari, masalan, «Call of duty», «Mortal Combat», «Sylend Hill», «CLASH OF CLAN» kabi o'yinlar yoshlarning ongini zaharlashga ruhiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Masalan, «CLASH OF CLAN» nomli o'yinning qaysidir bosqichlaridan birida musulmonlar e'tiqod qiluvchi joy "Ka'ba"ga o'xshatib qurilgan binoni vayron qilish vazifasi yuklatilgan. O'yin ishtirokchisi, uni oddiy o'yin topshirig'i deb qabul qilib shartni bajaradi ammo, bu bilan o'yin ichida e'tiqod va ruhiyatga bo'lgan g'oyaviy xurujlarning sug'orilganligi to'g'risida o'ylab ham o'tirmaydi. Yoshlar ongini zaharlashga, ularning ruhiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishga qaratilgan ma'naviy xurujlarning kirib kelish yo'llarning bu oddiy bitta usuli siz va biz bilgan va bilmagan yana qanchadan qancha yo'llari mavjud. Shuningdek o'smirlar va bolalar uchun shunday mazmundagi o'yinlar borki, unda «sen o'ldirmasang, seni o'ldiradilar» aqidasi ilgari surilgan. Shuning uchun, zamonaviy media-makonida voyaga yetmagan foydalanuvchilarning soni oshib borayotganligi, o'z navbatida, ularning jismoniy va ma'naviy-ahloqiy jihatdan himoya qilish muammosining dolzarbligini ham oshirmoqda. Bir tomonidan, har bir bolaning imkoniyatlari maksimal tarzda amalga oshirilishi va hayotiy salohiyatni shakllantirish, ta'lim, tarbiya va faoliyatning ijtimoiy pozitiv turlarida o'zini ko'rsata olishi uchun sharoit nafaqat maktabda balki oilada bola qadam tashlab borgan bog'chadagi tarbiya jarayonlarini milliy qadriyat va an'analar bilan boyitib borish zarur. Biz qadriyat deganda faqat urf-odatlarni tushunmasdan balki, insoniy fazilatlar, yaxshilik, shirinso'z, vatan, oila, nikoh va farzand kabi tushunchalarni qadriyat darajasiga ko'tarishimiz va



uni yo'qolib ketmasli va jamiyat taraqqiyoti aynan shu tus-hunchalarsiz mavjudlikka, taraqqiyot cho'qqisiga erishib bo'lmasligini kelajak avlodlarga tushuntirish yo'llarini zamon bilan hamnafas holda singdirishning yangi metod va usullariga murojaat qilish zarurligi hamda yangicha tehnologiyalarni ishlab chiqish orqali insoniy qadriyatlar ni saqlab qolishning chora-tadbirlarini ko'rish orqali biz ilgari surayotgan ma'rifatli jamiyatning poydevorini qo'ya olamiz. Zero, milliy qadriyat va tarixiy o'zligimizni bilmay turib ertangi kunni barpo etib bo'lmaydi.

### **Foydalanolgan adabiyotlar:**

- 1. Sh.Mirziyoev. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. Uchinchi nashr. – T: O'zbekiston» nashriyoti, 2022. – B. 440.*
- 2. Muhammad G'azzoliyning "Ihyo ulum ad-din"ning Tavba kitobi.*
- 3. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. –T.: Ma'naviyat.2008.*

## MUNDARIJA

<b>1</b>	<b>Kirish.....</b>	<b>3</b>
<b>I. ShO'BA. MILLIY QADRIYATLAR TARIXI, MUTAFAKKIR AJDODLARIMIZNING IJTIMOIY-SIYOSIY QARASHLARI</b>		
<b>2</b>	<b>A.Mavrulov</b> O'zbekiston madaniyati tarixi - qadriyatlar beshigi	<b>5</b>
<b>3</b>	<b>S.G'afurov</b> Markaziy osiyoda ma'naviy taraqqiyotning evolyutsion genezisini ilmiy o'rghanishning dolzarbligi	<b>12</b>
<b>4</b>	<b>I.Daminov</b> Buyuklarga beshik bo'lgan yurtda qadriyatlarning qadrланishi	<b>17</b>
<b>5</b>	<b>I.Ergashev, B.Abdullayev</b> Milliy ma'naviy meros va qadriyatlar mustaqil taraqqiyot hamda yuksalish omili	<b>21</b>
<b>6</b>	<b>A.Muxtarov, S.Umarjonov</b> Yangi o'zbekistonni qurishda imom buxoriy saboqlaridagi tolerantlik madaniyatining o'rni va ahamiyati	<b>26</b>
<b>7</b>	<b>B.Irzayev</b> Shohid Eson Musayev: jadid va sotsiolog olim	<b>33</b>
<b>8</b>	<b>K.Haydarov</b> <i>Shaxs kamolotida mafkuraviy tarbiyaning o'rni</i>	<b>40</b>
<b>9</b>	<b>I.Suvanov</b> «AVESTO»da aks etgan eng muhim g'oya	<b>45</b>
<b>10</b>	<b>M.Musayev</b> Navro'z - ajdodlarimizning bebafo ma'naviy qadriyati	<b>49</b>
<b>11</b>	<b>Sh.Ahrorova</b> Qadriyatli yondashuvning namoyon bo'lishi, uning dialektikasi va dinamikasi	<b>54</b>
<b>12</b>	<b>Sh.Kimsanbaeva</b> Urf-odat, marosim va an'analarning madaniyatimiz rivojidagi ahamiyati	<b>60</b>
<b>13</b>	<b>A.Bo'ronov</b> Sharqda islom falsafasining shakllanishi va tarkib topishi	<b>65</b>
<b>14</b>	<b>T.Abdullayev</b> Sharq falsafiy tafakkurining jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati	<b>70</b>

15	<b>B.Elmurodov</b> Navoiy asarlari hamda xalq dostonlarida vatanparvarlik ba milliy qadriyat	108
16	<b>A.Gulova</b> Qur'oni karim hamda hadisi sharif – Alisher Navoiy ma'naviy merosining g'oyaviy sarchashmasi	115
22	<b>N.Saidkulov</b> Jamiyat siyosiy tafakkuri shakllanishining tarixiy ildizlari	120
23	<b>I.Eshpulatov</b> G'azzoliy va uning tarbiya falsafasi	130
25	<b>M.Joniyev</b> Boburiylar davlati madaniy hayotida termiziyy xattotlar	138
26	<b>F.Temirov</b> Sadreddin Ayniyning turkistondagi jadidchilik va ma'rifikatparvarlik harakatida tutgan o'rni	143
27	<b>I.Ibragimov</b> Turkiston jadidlari ilmiy-ma'naviy merosi xorij olimlari nigohida	150
28	<b>B.Baxodirov</b> Ijtimoiy-siyosiy ta'limotlarning rivojlanish bosqichi	157
29	<b>N.Ibrohimova</b> . O'zbekistonda mehmondo'stlik ana'analar: viloyatlardagi farqlar va o'xshashliklar	162
30	<b>D.Do'sbekov</b> "Alpomish" va "Manas" dostonlarining qiyosiy tadqiqi	168
31	<b>O.Toshev</b> Yuksak tafakkur sohibi – mahmud zamaxshariy ijodiy merosi	176
32	<b>X.Ochilov</b> Buyuk sohibqironning odil jamiyat barpo etish bilan bog'liq qarashlari	183

**II. SHO'BA. MILLIY QADRIYATLAR VA MA'NAVIV  
MEROISNI TARG'IB ETISHDA ZAMONAVIY TARG'IBOT  
TEXNOLOGIYALARI**

33	<b>D.Babajanova</b> Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirishda milliy qadriyatlar va ma'naviy merosni targ'ib etishning ahamiyati	188
34	<b>M.Kaxarova</b> Milliy qadriyatlarni targ'ib etishda targ'ibotning zamonaviy texnologiyalari	195
35	<b>O.Bozorov</b> Milliy qadriyatlarning jamiyat taraqqiyotdagi o'rni	201
36	<b>K.Kamolova</b> Yangi o'zbekistonda milliy qadriyatlar masalasi	208

37	<b>X.Serobov.</b> Milliy qadriyatlarni targ'ib etishda raqamli targ'ibotni kuchaytirish masalalari	215
38	<b>V.Ashirov.</b> Navoiy viloyati sanoat shaharlaridagi madaniy maskanlar va ularning milliy ma'naviy qadriyatlarning o'ziga xos xususiyatlari	223
39	<b>Sh.Otaqulov.</b> Jamiyat hayotida gender qadriyatlarning shakllanishi	231
40	<b>I.Nurmatova, D.Xasanova</b> Milliy qadriyatlар va ma'naviy merosning jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati	238
41	<b>U.F.Meyliyev.</b> Jamiyat taraqqiyotida mafkuraviy tahdid va ommaviy madaniyatning o'rni	245
42	<b>D.Raximova, X.Xidirov</b> Ma'naviy omilning rivojlanishida milliy qadriyatlarning o'rni	251
44	<b>E.Arziqulov.</b> Ma'naviy, axloqiy va g'oja-mafkuraviy islohotlarning aholi iste'mol madaniyatini yuksaltirishdagi potensial imkoniyatlari	257
45	<b>T.Tashmetov</b> Global o'zgarishlar davrida axborot xurujining yoshlar ma'naviyatiga tahdidi	271
46	<b>O'B.Shakarov.</b> Davlat xizmatchisi faoliyatida axloqiy sifatlarning o'rni	279
47	<b>N.Nurboyeva</b> Oila - muqaddas dargoh	286
48	<b>A.Zairov</b> Jamiyatning ma'naviy rivojlanishi va milliy qadriyatlarni targ'ib qilishda zamonaviy texnologiyalarning roli	292

### **III. ShO'BA. OMMAVIY AXBOROT VOSITALARIDA MILLIY QADRIYATLARNI YORITISH MASALALARI**

49	<b>M.Mavrulova</b> Milliy qadriyatlар va milliy xarakter masalasi	298
50	<b>A.Madraximov</b> Ijtimoiy tarmoqlar ta'sirida yoshlarga milliy qadriyatlarni singdirish	306
51	<b>J.Jurakulov</b> Milliy axborot siyosatining inson ma'naviy borlig'ini yuksaltiruvchi yo'nalishlari	314
52	<b>K.To'rayev</b> Globallashuv sharoitida virtual tahdidlarga qarshi kurash davr talabi	322
53	<b>Z.O'lmasxo'jayev</b> Globallashuv sharoitida ommaviy axborot vositalarida milliy qadriyatlarning yoritilishi	329


54	<b>F.Hojiev, F.Sultonov.</b> Internetda targ'ib qilinayotgan g'arb "Ommaviy madaniyati"ning(lgbt) ma'naviyatimizga tahdidi, yangi xavf-xatarlar	335
55	<b>B.Nazaraliyev.</b> Markaziy osiyo davlatlarida axborot xavfsizligi masalalarining o'ziga xos jihatlari	345
56	<b>I.Fayzullaev.</b> O'zbekistonda axborot xavfsizligini ta'minlash	353

#### IV-SHO'BA.

### MA'NAVIY MEROS VA QADRIYATLARNI TARG'IB ETISH METODIKASI

60	<b>A.Xolbekov.</b> Mamlakat mustaqilligi va taraqqiyotiga oid mafkuraviy yondashuv	358
61	<b>Sh.To'rarev.</b> Mutafakkir ajodolarimizning ta'limotlari yangi o'zbekistonda demokratik jamiyat barpo etishning muhim omili	364
62	<b>Z.Zamonov.</b> Yosh avlodga ma'naviy qadriyatlarni asrashga bo'lgan munosabatni shakllantirishda umumta'lum tizimidagi fanlarning o'rni	371
63	<b>X.Aminov.</b> Milliy hunarmandchilikdagi "ustoz-shogird" an'analarining ma'naviy ahamiyati	378
64	<b>Sh.Karimov</b> Ma'naviy va milliy meros tiklanish va yangilanish omili	385
65	<b>R.Jumayev.</b> Siyosiy falsafiy ta'limotlarda integratsion yondashuv mazmuni	389
66	<b>O.Bekinov.</b> Ta'lim muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni milliy qadriyatlar asosida tashkil etishning yangicha ilmiy metodologiyasi	395
67	<b>N.Xusanova.</b> "Milliyatning tannazulga yuz tutishi" - jamiyatdan begonalashuv, virtuallashuv, "men konsepsiysi", lgbt kabi g'oyalarni yoshlar ongiga singdirish yangi usul va mexanizmlari	404
68	<b>N.Tog'ayev.</b> Xalqimiz ongiga milliy qadriyatlarni singdirishda ma'naviy merosning tutgan o'rni	415
69	<b>N.Muftuna.</b> Sharq mutafakkirlarining "ilm olish" to'g'risidagi ijtimoiy-falsafiy qarashlari	420

70	<b>M.Azimov.</b> Maktabgacha ta'lif tizimida "uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiysi"ga asosan zamonaviy texnologiyalarni ishlab chiqish va uni amaliyotga tatbiq etish	426
71	<b>F.Saydullayev.</b> Boshlang'ich sinflarga xalq og'zaki ijodini o'rgatish	434
72	<b>F.Karimova.</b> Xalq og'zaki ijodini o'rgatish muloqotdagi bahs-munozaraning falsafiy asoslari	439
73	<b>F.Ne'matova.</b> O'qish darslarida o'quvchilarning milliy qadriyatlarga munosabatini shakllantirish va baholashda pirls xalqaro baholash dasturidan foydalanish metodikasi	447
	<b>A.Nurillayev.</b> Milliy qadriyatlar asosida bolalarni kasbga yo'naltirishning huquqiy ahamiyati	453
	<b>M.Yuldasheva.</b> Ommaviy axborot vositalarining jamiyat taraqqiyotiga ta'siri	458
	<b>M.Yuldasheva, G. Mirazimova.</b> Shaqr mutafakkirlarining axborot to'g'risidagi ijtimoiy falsafiy qarashlari	465



## QAYDLAR UCHUN

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---


---

---

---

---

---



# MILLIY QADRIYATLAR VA MA'NAVIY MEROSENING JAMIYAT TARAQQIYOTIDAGI AHAMIYATI

## Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari

Muharrir: Xurshid Serobov

Musahhih: Gulzoda Safarova

Badiiy muharrir: G'iyosiddin O'narov

"Ilm-Ziyo-Zakovat" nashriyoti. 100029,  
Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi 30-uy.

Nashriyot litsenziyasi raqami AI №247.  
2013.02.10. da berilgan.

Bosishga ruxsat etildi 2023.03.12. Bichimi 84/108<sup>1/32</sup>.  
Cambria garniturasi. 14,5 bosma taboq. Adadi 1 000 nusxa.